

Ravshan RAJABOV

JAHON SIVILIZATSIYALARI TARIXI



Ravshan RAJABOV

JAHON SIVILIZATSIYALARI TARIXI

O'quv qo'llanma

*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 5A 110601
Tarix o'qitish metodikasi mutaxassisligi (5110600 – talabalari)
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.*

TOJIKHEIT
«MASHHUR-PRESS»
2016

UO‘K: 372.181.5(O‘75)

KBK: 63.3(0)

R 17

Rajabov, RAVSHAN

Jahon sivilizatsiyalari tarixi: O‘quv qo‘llanma / R.Rajabov – Toshkent:
«Mashhur-press», 2016. – 300 b.

ISBN 978-9943-4791-6-6

Taqrizchilar:

G‘.Temirov – tarix fanlari doktori

X.Raupov – tarix fanlari nomzodi, dotsent.

O‘quv qo‘llanmada jahon sivilizatsiyalari tarixi, Vatanimiz hududida o‘tmishda shakllangan va rivojlangan sivilizatsiyalar, ularning bosqichlari to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi. Sivilizatsiyalarning rivojlanishi bo‘yicha jahon fanida e‘tirof etilgan ilmiy konsepsiyalar, nazariyalar keltiriladi. Kursni to‘la o‘zlashtirish uchun magistrant va talabalar foydalanish maqsadida har bir mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar, takrorlash savollari, mustaqil ishlar mavzulari hamda mavzuni o‘rganish metodlari, foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati ilova qilinadi.

O‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining tarix o‘qitish metodikasi talabalari (magistrantlari), o‘qituvchilari hamda o‘tmish tarixga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 372.181.5(O‘75)

KBK: 63.3(0)

ISBN 978-9943-4791-6-6

I BOB. SIVILIZATSIYALAR TUSHUNCHASI VA TUZILISHI

1-MAVZU: SIVILIZATSIYALAR TUSHUNCHASI VA TUZILISHI

1. Sivilizatsiya tushunchasi. 2. Lokal sivilizatsiyalar. 3. Sivilizatsiya-ning tuzilishi. Sivilizatsiya piramidasi.

1. Sivilizatsiya tushunchasi. Jahon taraqqiyotidagi ko'p variantlik tarixiy jarayonning ko'p xilligi tarixiy taraqqiyotning muqobil konsepsiyalarini paydo bo'lishiga shart-sharoit yaratdi. Tarixni madaniy-tarixiy talqini (interpretatsiyasi)da sivilizatsiya yondashuvi paydo bo'ldi. Bu yondashuvga ko'ra tarixiy jarayonning asosiy tuzilma birligi sivilizatsiya bo'ldi. Sivilizatsiya atamasi latincha civil-shaharlik, fuqarolik, davlatchilik ma'nosidan kelib chiqdi.

Birinchi bor fan tarixida sivilizatsiya so'zi ikki ma'noda fransuz yozuvchisi va tarixchisi P'er Simon Ballanshenning «Chol va o'smir» asarida (1820) ishlatildi. Keyinchalik, sharqshunos olimlar Ejen Byurnufen va Kristian Lassenening «Pali to'g'risida ocherk» asarlarida, olim va sayohatchi nemis Aleksandr fon Gumboltning hamda boshqa tadqiqotchilar asarlarida shunday ma'noda ishlatildi. Sivilizatsiya so'zini lokal ma'noda, bu atamadan ko'plikda fransuz tarixchisi Fransua Gizo foydalandi. Lekin u tarixiy taraqqiyotni chiziqli-bosqichli tarzda tushunishda qoldi.

Qadimgi Rimda sivilizatsiya iborasi latincha sivatcus – o'rmonli, qo'pol, yovvoyi ma'nosiga qarshi qo'llanildi. Boshda sivilizatsiya so'zi uch ma'noda: 1.madaniyat-sinonimi varvarlikdan keyingi ijtimoiy taraqqiyot darajasi, 3.moddiy va madaniy ijtimoiy taraqqiyot darajasini ifoda qiladi. Sivilizatsiya atamasining universalligi va ko'p ma'noligi uni tushuntirishni qiyinlashtiradi, bu atamani yuzga yaqin tushunchasi mavjud. Lekin tarixiy jarayon uchun sivilizatsiya yondashuvi «sivilizatsiya» iborasi tizimning tarkibiy qismlarini o'zaro bog'langani u yoki bu sivilizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan yaxlit ijtimoiy tizim sifatida tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Sivilizatsiya

tushunchasini ilk bor fanga faylasuf Adam Fergyson kiritdi. U sivilizatsiya atamasi ostida insoniyat jamiyatini taraqqiyotida ijtimoiy sinflarni, shaharlar, yozuv mavjud bo'lgan bosqichni ko'zda tutdi. Shotland olimi jahon tarixini yovvoyilik – varvarlik – sivilizatsiya bosqichlarida bo'lib davrlashtirdi. Bu g'oya XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida fanda etirof etildi va XIX asr davomida keng tarqaldi. Fergysonning davrlashtirishidan amerikalik etnograf Lyus Morgan o'zining «Qadimgi jamiyat» asarida (1877) va Fridrix Engels «Oila xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» (1884) asarini yozishda unumli foydalandila boshlandi.

Italyan faylasufi Jan Batista Viko (1668-1744) alohida xitoy sivilizatsiyasi mavjudligini e'tirof etib, sivilizatsiyalarning ko'pligi g'oyasini ilgari surgan. Viko, Volter va I.G.Gerder asarlarida sivilizatsiya tushunchasi yetakchi bo'lmadi, ularning asarlarida lokal sivilizatsiya tushunchasi ham yo'q edi.

«Sivilizatsiya» va «madaniyat» atamalari tarixiy tadqiqotlarga nisbatan yaqinda paydo bo'ldi. Ularni fanga fransuz va ingliz ma'rifatparvarlari kiritgan deb hisoblash qabul qilingan. Fransuz tarixchisi L.Fevr «sivilizatsiya» so'zi ilk bor fransuz matnida 1766-yil, ingliz matnida 1773-yil, «madaniyat» atamasi 1774-1793 yillar oralig'ida paydo bo'ldi deb tasdiqlaydi. «Madaniyat» tushunchasi mazmuni ham shunga yaqin edi. U ma'rifat, ma'naviy takomillashuv, inson ruhining ozod bo'lishi fan va san'atning progress ma'nosini bildiradi.

Vaqt o'tishi bilan sivilizatsiyalarga butun-butun mamlakatlar va xalqlar, ularning rivojlanish darajasi sifatida qarash tushunchasi tarqala boshladi. 1819-yilda «Sivilizatsiya» so'zi birinchi bor ko'plik ma'nosida ishlatildi. Bu xalqlarning taraqqiyotida sivilizatsiyaning ko'p xilligini tan olishdan guvohlik berdi. F.Gizo «Yevropada sivilizatsiya tarixi» (1828-yil), keyin «Fransiyada sivilizatsiya tarixi» (1830-yil), P.Bokl «Angliyada sivilizatsiya tarixi» (1857-1861y) nomli asarlarini sivilizatsiya ruhida yozadilar.

Sivilizatsiya tushunchasini turlicha talqin qilish mumkin: 1) Umum-falsafiy – atrof-muhit bilan almashuv yo'li bilan materiyaning barqarorligi va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini taminlaydigan materiya harakatining ijtimoiy shakli (kosmik tuzilma hajmida insoniyat sivilizatsiyasi); 2) Tarixiy tafakkurda – tarixiy jarayonning yaxlitligi va bu jarayon davomida insoniyatning moddiy-texnik va manaviy yutuqlari yig'indisi (insoniyat sivilizatsiyasi); 3) Ijtimoiylikning ma'lum bir darajasiga erishish

bilan bog'langan umumjahon tarixiy jarayoni va ijtimoiy ongning tabaqalanishiga nisbatan qaram bo'lgan holda (o'z-o'zini boshqarish bosqichi); 4) Vaqt va kenglikda cheklangan jamiyat. Lokal sivilizatsiyalar yaxlit tizimlar bo'lib, halqasimon sikllar, qonunlar bilan rivojlanadigan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va manaviy tizim osti majmuasidan iborat.

XX asrda tarixchilar qadimgi sharq jamiyatlarini o'rganib, sivilizatsiya bosqichida turgan turli jamiyatlar orasida sifat jihatdan farqlar mavjud bo'lishi mumkinligini tushundilar va insoniyat tarixiy taraqqiyotida bir sivilizatsiya emas, bir necha sivilizatsiyalar mavjudligi to'g'risida fikr yurita boshladilar.

Fanda sivilizatsiyalar nazariyasini rivojlantirgan madaniy-tarixiy maktab XIX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshladi. Bu maktabning yirik muvofiqlashtiruvchi markazi sivilizatsiyalarni qiyosiy o'rganish bo'yicha xalqaro jamiyatga aylandi. Bu jamiyatning tashkilotchilari A.Toynbi, N.Danilevskiy, P.Sorokin va A.Kreber (1861-yil Zalsburg) bo'ldilar. N.Danilevskiyning (1822-1885-y) «Yevropa va Rossiya» asarida har bir sivilizatsiya oz boshlang'ich ma'naviy asosida «katta g'oyaga sakrab qadriyatlarga» yoki ilk ramzlarga aylanadi. Ularning atrofida taraqqiyot davomida murakkab ma'naviy tizimlar shakllanadi degan tushunchani shakllantirdilar. N.Danilevskiy, A.Toynbi sivilizatsiyaning yaxlitlikda shakllanishida diniy etiqodning alohida o'rmini korsatdilar. Sivilizatsiyalar din, me'morchilik, tasviriy san'at, axloq, urf-odatlar sohasidagi ma'lum bir assotsiatsiyalarini keltirib chiqaradigan insoniyat hamjamiyatlarining tiplarini aks ettiradi deb tasdiqlaydilar.

Shunga ko'ra, sivilizatsiyalar – eng oliy ko'rinishdagi madaniy birliklardir. Insoniyat madaniyatining ko'p asrluk tarixida faqat ba'zi xalqlargina buyuk sivilizatsiyalarni yarata oladilar. Tarixda shunday sivilizatsiyalar bo'lgan va bu sivilizatsiyalarning mazmun-mohiyati to'g'risida madaniy-tarixiy maktablar nazariyotchilari o'rtasida nihoyasiz munozaralar muntazam davom etib kelmoqda. N.Danilevskiy sivilizatsiyalar yoki madaniy-tarixiy tiplarning o'ntasini ajratdi: Misr-Osuriya, Bobil, Finikiya, Xitoy, Hind, Eron, Yahudiy, Yunon, Arab, Yevropa (Roman-German). Ink-Peru va Meksika sivilizatsiya taraqqiyotining ilk bosqichida tabiiy o'lim bilan halokatga uchragan.

N.Danilevskiy bir tilda so'zlashadigan yoki bir xil til guruhiga mansub bo'lgan, har qanday xalq «ma'naviy-tarixiy tip» bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Sivilizatsiyalarning «etnografik» materiali turli xil bo'lsa

va u siyosiy mustaqillikka ega bo'lsa, u o'z taraqqiyotining cho'qqisiga chiqishi mumkin. Har bir madaniy-tarixiy tip ma'lum bir bosqich yoki evolyutsiyaning fazalarini bosib o'tadi. Har bir sivilizatsiyaning ichki evolyutsiyasi uning boshqa ijtimoiy-tarixiy tiplar bilan o'zaro aloqasi-ning mantig'iga bo'ysindirilgan bo'ladi. Madaniy-tarixiy tiplar o'rtasida-gi munosabatlar o'zaro raqobat, ko'pincha kuchli shakllarda siqib chiqarish mantig'i bilan belgilanadi.

N.Danilevskiy talqini bo'yicha talvasaga tushgan, keksaygan sivilizatsiyalarni tarix sahnasidan supurib tashlaydigan qudratli sivilizatsiyalarga «Xudoning qamchisi» sifatida qaraladi. Shuning uchun xalqlarning to'qnashuvlari tabiat dunyosida bo'ron va chaqmoqlar qanday zarur bo'lsa, shunday zarur. Olim «Dunyoda alohida imtiyozli madaniy-tarixiy tiplar bo'lishi mumkin emas, chunki biror-bir sivilizatsiya ijtimoiy tuzilmaning tugallangan universal shaklini yaratishi mumkin emas» deb ta'kidlaydi.

N.Danilevskiydan keyin O.Shpengler tarixning «Ptolomey tizimi»ga (Bu nazariyaga ko'ra, dunyoning barcha madaniyatlari bir markaz-Yevropa madaniyati atrofida «aylanadi».) keskin qarshi chiqdi. O.Shpengler tarixning «Kopernik kashfiyoti»ni tasdiqlaydi. Bunda antik dunyo va G'arbiy Yevropa, Hindiston, Bobil, Xitoy, Misr, Arab va Meksika madaniyatlari o'zgarib turadigan va ifodalanadigan barcha hayotning markazida turadi. Ularning har biri ustuvor o'rinni egallamaydi. Ammo barchasi tarixning umumiy manzarasida bir xil ahamiyatga ega. Buning ustiga ularning ma'naviy konsepsiyalari va yuksalish qudratining ulug'vorligi ko'p hollarda ellin ulug'vorligidan yuqori bo'ladi.

Sivilizatsiyaga xos belgilar: kosmopolitizm va shahar-gigantlar, ilmiy ateizm yoki haqiqiy din o'rniga o'lik metafizika, xalq o'rniga omma. Har bir buyuk madaniyatning o'z birinchi obrazi, sof ko'rinishi yoki mukammal shakli bor. Ularning har birida dunyoni alohida his qilish, alohida istak, umid va qiziqishlar xos. Har qanday madaniyatning tarixida alohida odam yoki mavjudotning, daraxt yoki gul bilan «to'la o'xshashlik» o'z aksini topadi. Shu sababli kimki aynan unga tegishli bo'lsa madaniyatni to'la oxirigacha tushunishi, his qilishi mumkin.

Ingliz olimi Arnold Toynbi lokal sivilizatsiyalar nazariyasini ilgari surdi. S.Xantington o'zining «Sivilizatsiyalar to'qnashuvi» asarida A.Toynbining sivilizatsiyalarni o'xshashligi mezonlarini o'zlashtirib oldi va diniy e'tiqodlarning o'rniga asosiy e'tibor berdi. S.Xantington hozirgi

dunyoda sakkiz: g'arb, konfutsiylik, yapon, islom, hind, provaslav-slavyan, Lotin Amerika va Afrika sivilizatsiyalarining mavjudligini qayd qiladi. Uning fikricha, xalqaro kun tartibida sivilizatsiyalararo munosabatlar muammosi asta-sekin birinchi o'ringa chiqadi. Harbiy qurollar, asosan, ommaviy qirg'in qurollari muammolari, inson huquqlari va emigratsiya kabi masalalar buning ichiga kiradi.

Olimlar insoniyat tarixiy taraqqiyotiga sivilizatsiya yondashuvini mazmun-mohiyatini aniqlashtirishga harakat qildilar. Uning boshqa qarashlardan asosiy farqini M.A.Barg quyidagicha tushuntirdi: Har qanday tarixiy davrni «uning inson o'Ichovi orqali» mazmun-mohiyatini ochsa bo'ladi. M.A.Bargning fikri bo'yicha, sivilizatsiya yondashuvi tadqiqotchini «tarix subyektini obyektivlashtirishning barcha shakllari orqali» bilishga yo'naltiradi. Sivilizatsiyalar konsepsiyasi tarixning obyektiv va subyektiv jihatlarini qo'shgan holda ilk bor tarixning o'z metodologiyasini qurish imkoniyatini ochadi. Qaysiki, u tarixiy jarayonning obyektiv berilgan va subyektiv iroda boshlanishida dinamik ko'rinishda tasavvur qilishga imkon beradi. Va bu tarix fanlarining xususiy fanlarga bo'linishini bartaraf qiladi. *Insonni u yoki bu (iqtisodiy, sinfiy, siyosiy va boshqa) bo'yicha emas, balki uni yaxlitligicha qarashga imkon beradi. Sivilizatsiya yondashuvi yer sharining turli hududlari ijtimoiy-tarixiy evolyutsiyasining yo'llarini ko'p variantligini o'rganish imkoniyatini ochadi.*

Insoniyat tarixiy taraqqiyotini sivilizatsiya nuqtai nazaridan ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etilishining bir necha sabablari bor. Bu yondashuv asosida odamlar tarixini o'rganish ya'ni tarixni insoniylashuvi yuz berdi. Inson tarixning boshlanishi va nihoyasi. Bu g'oya bu metodning asosiy afzalligi bo'ladi. Bu universal metod, chunki u insoniyat jamiyati tarixini organish barcha mamlakatlar va hududlarni hisobga olish bilan bilishga yo'naltirilgan. Insoniyatning tarixiy taraqqiyotini tadqiq qilganda sivilizatsiya tamoyillari asosida har qanday mamlakat yoki mamlakatlar guruhini o'rganish ilmiy, xolisiy organish mumkin. Bu tarixiy jarayonlarni, ularning o'ziga xos xususiyatlarini, chuqur tushunish, har bir jamiyatni o'z qadriyatlariga egaligi va uning insoniyat sivilizatsiyadagi munosib o'rmini aniqlashga yordam beradi. Bu yondashuvning eng qimmatli nufuzi tarixni ko'p xillikda, ko'p chiziqli jarayon sifatida qarashidir. Sivilizatsiya tusunchasi asosida tarixiy jarayonni tushunishda ma'naviy-axloqiy va intellektual omillar ya'ni din, madaniyat va xalqlarning mentalitetiga tegishli orin ajratiladi.

Hozirgi insoniyat tarixiy taraqqiyotiga kelganda globallashuv jadal-lashgan bir vaqtda Osiyo, Afrika va boshqa hududlarda vesternizatsiya (g'arblashuv) jarayoni kuchayib bormoqda. Ya'ni axborot texnologiyalari, yuqori texnologiyalar asri bo'lgan XXI asrda g'arb texnika va texnologiyalarini jadal o'zlashtirilmogda. Bu jarayonga yuzlab mamlakatlar faol ishtirok etmoqdalar va an'anaviy jamiyatdan texnokratik jamiyatga transformatsiya jarayoni jadal suratlar bilan bormoqda. Bu jarayonda urfodat, ananalarga asoslangan jamiyatlarda ozligini saqlab qolish muammosi kelib chiqadi. Bu jamiyatlarning otmishi, buguni va yaqin kelajagini organish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sivilizatsiyalar milliy va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangani uchun ularni saqlab qolish va zamonga mos rivojlanishini taminlashda sivilizatsiyalarni tarixiy nuqtai nazardan organish muhim vazifa boladi. Turli sivilizatsiyalarning hozirgi vaqtda yonma – yon mustaqil yashashi, bir – biriga nisbatan ozaro hurmatni saqlab qolishi hayot – mamot masalasiga aylandi.

Tarix fanining eng asosiy vazifasi insoniyat sivilizatsiyasini tadqiq etishdir. Tarix fani metodologiyasida insoniyatning madaniy-tarixiy taraqqitoyini katta qismlarga bo'lib organish uchun ma'lum bir metodologik tushunchalar shakllantirilgan. Bunday bilish orqali ko'pgina jamiyatlarga tegishli bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni belgilash mumkin bo'ladi. Xillashtirishda to'rt asosiy mezon asos qilib olingan:

1. Ma'naviy hayotning umumiy fundamental belgilari;
2. Tarixiy-siyosiy taqdir va iqtisodiy taraqqiyotning umumiyliigi va o'zaro qaramligi;
3. Madaniyatlarning o'zaro bir-biriga bog'lanib ketgani;
4. Taraqqiyot istiqboli nuqtayi – nazaridan umumiy manfaatlar va umumiy vazifalarning mavjudligi.

Ushbu mezonlar asosida fanda sivilizatsiyalarning to'rt asosiy xili ajratiladi: 1. Tabiat hamjamiatlari (hayot kechirishning noproggressiv shakllari); 2. Sivilizatsiyaning sharqona xili; 3. Sivilizatsiyaning g'arb xili; 4. Sivilizatsiyaning zamonaviy xili.

Tabiat hamjamiatlari. Bu progressiv hayot kechirish shakli. Bu xilga tabiat yil sikllari doirasida hayot kechiradigan tarixiy hamjamiyatlar (turli etnos, xalq, elat va urug' – qabilalar) kiradi. Sivilizatsiyaning bu xilida yashaydigan xalqlar tarixiy vaqtdan tashqarida yashaydilar. Bu xalqlarning ijtimoiy ongida o'tmish va kelajak mavjud emas. Ular uchun bugun o'tayotgan vaqt va mifologik vaqt mavjud. Mifologik vaqtda ilohlar va vafot etgan ajdodlar yashaydi. Bu xalqlar hayot kechirish va uni qayta

tugʻilishi uchun zarur atrof-muhitga oʻta yuqori darajada moslashib ketganlar. Ular oʻzlarini hayot kechirish maqsadlarini, uning mazmun-mohiyatini, inson va tabiat oʻrtasidagi juda moʻrt uygʻunlikni, tabiat bilan uygʻunlikni buzmaydigan urf-odat, anʼanalarni, mehnat usullarini saqlab qolishda deb biladilar.

Hamjamiyatning butum hayoti tabiat sikliga boʻysundirilgan. Ular koʻchmanchi yoki yarim koʻchmanchi – turmush tarzida hayot kechiradilar. Maʼnaviy madaniyat tabiat kuchlarini (olov, tuproq, quyosh, suv, shamol) ilohiylashtirish bilan bogʻlangan. Tabiatni ilohiy kuchlari va hamjamiyat oʻrtasidagi aloqani urugʻ-qabila oqsoqollari hamda kohinlar (shomon, afsungar) bajaradi. Duniyolarni tafakkur va hissiy oʻzlashtirish vositasi sifatida mifologiya chiqadi. Afsonani qabul qilish obraz-yaxlit koʻrgazmali tuzilma orqali amalga oshiriladi. Hamjamiyat oʻta anʼanaviylik bilan sugʻorilgan, oʻzgarishlar yopiq doira ichida sodir boʻladi, olgʻa tashlangan taraqqiyot mavjud emas. Allazonlarda oʻrnatilgan tartib-qoidalarni oʻzgarماسligi uchun tadqiqlar tizimi – tabu muntazam qoʻllab-quvvatlanadi. Emh qatʼiy va mustahkam tabu – bu har qanday oʻzgarishlarga qoʻyilgan tabu. Ijtimoiy tashkilotga jamoaviylik: urugʻ, qabila, klan hukmronlik qiladi. Hamjamiyat ustidan hokimiyat urf – odat, anʼanalarga asoslangan urugʻ oqsoqolining obroʻli hokimiyati orqali amalga oshiriladi. Yoʻlboshchi saylab qoʻyiladi yoki merosiy boʻladi.

Sharq sivilizatsiyasi. Insoniyat tarixidagi ilk sivilizatsiyalar mil.avv. IV-III ming yilliklarda Old Osiyo, Hindiston, Xitoy va Oʻrta Osiyo, Eron-da shakllangan. Bu sivilizatsiyaga xos xususiyatlar:

- 1.Anʼanaviylik turmush-tarzi va ijtimoiy tuzilmalarning hayotiy shakllarini qayta ishlab-chiqarish va saqlash;
- 2.Inson hayot faoliyatining barcha shakllarini oʻta barqarorligi, sokinligi, bir maromdagi va zaif turli xillik;
- 3.Tabiat ilohlarning kuch-qudratiga toʻla irodasiga qaramlik oʻz faoliyati, taqdirini oldindan belgilab qoʻyilishiga ishonish;
- 4.Insonning maʼnaviyati, iroda kuchini dunyoni bilish va shu asosda oʻzgartirishga emas, balki xayolotga berilish, itoatkorlik, tabiat bilan mistik yaxlitlik, ichki maʼnaviy hayotga bor vujudini jalb qilish;
- 5.Shaxsiy-individuallikning rivojlanmagan. Ijtimoiy hayotning jamoaviy birdamlikka yoʻnaltirilgani;
- 6.Hayotning siyosiy tashkiloti-mutlaq monarxiya, davlat hokimiyatining jamiyat ustidan toʻla hukmronligi. Hayotning iqtisodiy asosi jamoa mulki, davlat mulkiga asoslangani. Xususiy mulkning qonun boʻyicha toʻla himoyalanganmagani.

G'arb sivilizatsiyasi. G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaning madaniy-tarixiy taraqqiyotining ma'lum bir bosqichlarini o'z ichiga olgan sivilizatsiya xili. Tarix falsafasi vakili Maks Veber g'arb sivilizatsiyasining qadriyatlarini quyidagicha belgiladi: 1. Yangilikka intilish, dinamizm; 2. Inson shaxsiga hurmat, uning manfaatlarini ustuvorligini e'tirofi; 3. Individuallik, shaxs avtonomiyasiga yo'nalganlik; 4. Ratsionallik; 5. Erkinlik, tenglik, bag'rikenglik; 6. Xususiy mulkka hurmat; 7. Demokratiyani boshqa davlat boshqaruvidan afzal ko'rilishi. G'arb sivilizatsiyasi ma'lum bir taraqqiyot bosqichida texnogen sivilizatsiya tusini oladi.

Texnogen sivilizatsiya. Bu sivilizatsiya XV-XVII asrlarda, G'arbiy Yevropada sivilizatsiyaning alohida ko'rtinishi sifatida shakllanib, XX asrgacha dunyoning boshqa hududlariga tarqaldi. Bu madaniyatning asosiy belgisi ilmiy ratsionallik, inson tafakkuri va ilmiy – texnika inqilobi ustuvor qadriyat bo'ladi. Uning o'ziga xos belgilari: 1. Ishlab – chiqarishda ilmiy-texnika inqilobining tizimli tadbir etilishi natijasida texnika va texnologiyaning jadal o'zgarishi; 2. Fan va ishlab – chiqarishni qo'shilishi natijasida ilmiy-texnika inqilobi sodir bo'ladi. Bu inqilob inson va tabiatning o'zaro munosabatini o'zgartirdi, odamning ishlab – chiqarishdagi o'rni ham o'zgardi; 3. Texnogen sivilizatsiya insonning turmush – tarzini o'zgartirdi, shaxsning yangi tipi shakllandi. Bu sivilizatsiya asosida oldin industrial, keyin post industrial sivilizatsiya shakllandi.

Global yoki jahon sivilizatsiyasi – bu insoniyatning hozirgi taraqqiyoti. Hozirgi jahon sivilizatsiyasi dunyo hamjamiyatini yaxlitligi taraqqiyotning jadal sur'atlari jarayonlarning globallashuvi bilan tavsiflanadi. Globallashuv mamlakatlar, hududlar, millatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy jihatlardan bir-biri bilan yaqinlashuvi yaqqol ko'rinadi. Bilimlar va qadriyatlar yuqori axborot texnologiyalari asosida tez tarqalib, shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarning to'la qondirish imkoniyatini yaratadi. Global sivilizatsiyani tarix, sotsiologiya fanlari tadqiqi har tomonlama va izchil o'rganish Jahon sivilizatsiyalarining almashinuvi insoniyatning rivojlanishi, tarixiy progressning olg'a harakatini ifodalaydi. Ba'zi tarixchilar «Jahon sivilizatsiyasi tushunchasining o'zini huquqiyligini inkor qiladilar. Insoniyat jamiyati o'zi bir xil emas, umumplanetar yondashuv asosida uning tarixini tushunish mumkin emas, yagona jahon sivilizatsiyasi konsepsiyasi taraqqiyotining ko'p variantligini inkor qiladi. Uning bayrog'i ostida yana unifikatsiya qilingan taraqqiyot g'oyasi taklif qilinadi».

Bunday yondashuvni O.Shpengler, qandaydir ma'noda A.Toynbi ham ilgari surdi. Shu bilan birga, umumjahon tarixi inkor qilinadi: u lokal sivilizatsiyalar taraqqiyotining yopiq jarayonlarini konglomeratiga aylanadi. Insoniyat taraqqiyotining yaxlit birlik sifatida umumtarixiy ritmlari doirasida ularning dinamikasini o'zaro ta'siri inkor etiladi. Bugungi kunda Yer sayyorasining barcha xalqlari tarixiy taqdirining umumiyligi yaqqol ko'rinadi. Bugun davlatlar, millatlar va hududlar o'rtasida integratsiya, uning asosida globallashuv juda jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Lokal sivilizatsiya atamasi ilk bor fransuz faylasufi Sharl Renuvening «Qadimgi falsafa uchun rahbarlik» (1844) asarida paydo bo'ldi. Bir necha yildan so'ng fransuz tarixchisi va yozuvchisi Josef Gobino «Inson irqining tengsizligi to'g'risida tajriba» asarida (1853-1855) 10 ta sivilizatsiyani ajratdi, qaysiki ularning har biri o'z taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi. Sivilizatsiyalarning har biri paydo bo'lib, ertami kechmi halok bo'ladi. Ammo olimni sivilizatsiyalar o'rtasidagi madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy farqlar qiziqitirmadi. Uni faqat sivilizatsiyalar tarixida umumiy bo'lgan oqsuyak zodagonlar jamiyatining yuksalishi va halokati qiziqitirdi.

Gobinoga yaqin g'oyani nemis tarixchisi Genrix Rikkert ilgari surdi. Insoniyat tarixi bu yaxlit jarayon emas, aksincha madaniy-tarixiy organizmlarning yonma-yon kechadigan jarayonlari yig'indisi, ularni bir chiziqqa joylashtirish mumkin emas. Rikkert birinchi bor sivilizatsiyalar chegarasi, ularning o'zaro ta'siri, ularning ichidagi tuzilmalar munosabati muammolariga e'tiborni qaratdi. Shu bilan birga Rikkert butun dunyoni Yevropa ta'sir qiladigan obyekt deb qaradi. Bu yevrosentrizm g'oyasi edi. Bu uning konsepsiyasida sivilizatsiyalarga toifaviy yondashuvga, ularning to'la qiymatligi va o'ziga mosligini inkor qilish mavjudligini shartladi.

Rus jamiyatshunosi N.Ya.Danilevskiy o'zining «Rossiya va Yevropa» asarida (1869) keksayib borayotgan Yevropa sivilizatsiyasiga yosh slavyan sivilizatsiyani qarshi qo'ydi. Slavyanparast Danilevskiy biror bir madaniy-tarixiy tip boshqalarga qaraganda yuqori rivojlangan, yuksakroq deb davo qilishi mumkin emas degan tushunchani ilgari surdi. Lekin u ba'zan slavyan xalqlarini g'arbdagi qo'shnilaridan ustun qo'yib, bu fikridan chekindi.

Lokal sivilizatsiyalar nazariyasini shakllanishida nemis faylasufi va madaniyatshunosi Osvald Shpenglarning xizmati katta bo'ldi. U o'zining «Yevropaning so'nishi» asarida (1918) tarixni «Qadimgi dunyo – O'rta asrlar - - Yangi davr» ga shartli bo'lishga qarshi chiqib, jahon tarixi –

tirik organizm kabi tugʻilish, shakllanish va oʻlish fazasini boshdan kechiradigan qator bir-biridan mustaqil madaniyatlardan iborat gʻoyasini yoʻqlab chiqdi. U yevrosentrizm nazariyasiga qarshi chiqib, tushkunlik fazasini boshdan kechirayotgan gʻarb jamiyati ham oʻzidan oldin oʻtgan misr, antik va boshqa qator sivilizatsiyalar duch kelgan soʻnishni boshdan kechiradi deb tushuntirdi. Madaniyatning halokati madaniyatdan sivilizatsiyaga oʻtish bilan tavsiflanadi. Shpengler konsepsiyasida «shakllanayotgan madaniyat» shakllangan sivilizatsiyaga qarama-qarshi qoʻyiladi. Qadimgi yunon madaniyatining nihoyasi Qadimgi Rim sivilizatsiyasi boʻladi. Gʻarbiy Yevropa sivilizatsiyasi takrorlanmas va vaqt boʻyicha cheklangan noyob hodisa sifatida IX asrda tugʻiladi, XV-XVIII asrlarda oʻz yuksalishini boshdan kechiradi, XIX asrda sivilizatsiyaning qarishi bilan u «soʻna» boshlaydi.

2. Lokal sivilizatsiyalar. Ingliz tarixchisi Arnold Toynbi lokal sivilizatsiyalar nazariyasini rivojlantirdi. U insoniyat tarixini qator bir-biridan mustaqil lokal sivilizatsiyalarga ajratdi. Bu sivilizatsiyalar taraqqiyotning bir xil ichki koʻrinishiga ega. Sivilizatsiyalarning paydo boʻlishi, rivojlanishi va tushkunligi tashqi ilohiy turtki va energiya, chaqiriq va javob, ketish va qaytish omillari bilan tavsiflanadi. A. Toynbi lokal sivilizatsiyalarni turli xil madaniy-tarixiy tuzumlar sifatida tushuntirib, ularga evolyutsiya tipidagi dinamik tuzilma deb qaradi. Olim Y.B. Yakovets bu atamani diniy va lokal sivilizatsiyalar tushunchalarida asoslab beradi. Jahon sivilizatsiyasi insoniyat tarixida ishlab chiqarishning texnologik va iqtisodiy usullari, siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning qurilishi; maʼnaviy takror ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasi; insonning koʻnikma va manfaatlari, bilimlari, qobiliyatlari, ehtiyojlarining maʼlum darajasi bilan tavsiflanadigan bosqichdir. Bu yerda yuqori uzoq muddatli (koʻp asrli) tarixiy sikl toʻgʻrisida soʻz boradi.

Lokal sivilizatsiyalar – umumiy taqdir bilan bogʻlangan umumtarixiy progressning ritmida sinadigan va aks etadigan, baʼzida uning epitsentrida, baʼzida undan uzoqlashadigan alohida mamlakatlar, mamlakatlar guruhi va etnoslarning iqtisodiy-geografik, diniy, etnik, madaniy-tarixiy oʻziga xosliklarini ifodalaydi. Har bir lokal sivilizatsiya oʻziga xosligi, jahon sivilizatsiyalari ritmi bilan u yoki bu darajada mos boʻlgan oʻz ritmiga ega. A. Toynbi lokal sivilizatsiyalar toʻgʻrisida oʻzining (1934-1961-yillarda yozgan) «A study of History» («Tarixni tushunish» «Постыжение истории») asarida toʻla tavsif beradi.

So'nggi ming yillikdagi insoniyat jamiyat tuzilmasini tadqiq qilib, A. Toynbi hozir hayot bo'lgan quyidagi sivilizatsiyalarni aniqladi:

G'arb xristianlari birlashgan G'arb jamiyati;

Janubi-sharqiy Yevropa va Rossiyada joylashgan pravoslav-xristian yoki Vizantiya jamiyati;

Shimoliy Afrika va O'rta Sharqdan buyuk Xitoy devorigacha bo'lgan Islom jamiyati;

Tropik va subkontinental Hindistonda hinduizm jamiyati;

Janubi-Sharqiy Osiyoning subtropik va mo'tadil hududlaridagi Uzoq Sharq jamiyati;

Bu jamiyatlarning o'tmish tarixini o'rganish Toynbining bu uchinchi avlod sivilizatsiyalar, ularning har birida birinchi va ikkinchi avlod o'tgan, deb xulosa chiqarishiga asos bo'ladi.

A.Toynbi tomonidan hammasi bo'lib dunyoning madaniy xaritasiga 37 ta sivilizatsiya kiritilib, ulardan 21 tasi sinchiklab tekshirildi va insoniyat tarixining keyingi 6 ming yili tasvirlandi. «O'z o'tmishdoshlarining qisqa hayot kechirgan, hududiy cheklangan va kam sonli ibtidoiy jamiyatlariga nisbatan sivilizatsiyalar hayoti davomiyroq, ular keng hududlarni egallaydi, sivilizatsiyalarni qamrab olgan odamlar soni qoidaga ko'ra ulkan. Ular boshqa jamiyatlarni assimilyatsiya qilish va bo'ysundirish yo'li bilan tarqalish an'anasiga ega». (50. k. 80). Sivilizatsiyalar asta-sekin rivojlanadi, o'zining hayotiy sikliga ega. Ular statik formatsiyalarni emas, evolyutsiya tipidagi dinamik tashkilotni o'zida aks ettiradi. (o'sha joyda 87-bet) Ularning har biri o'z taraqqiyotida paydo bo'lish (genezis), o'sish, buzilish va yemirilish fazalarini bosib o'tadi. To'rt yoki besh ming yilliklar davomida sivilizatsiyalarning yemirilishini eng umumiy va keng tarqalishi sababi hududiy ekspansiyaning oqibati, ijtimoiy hayotning harbiylashuvi (militarizm)dir. Militarizm lokal davlatlarni o'zaro urushlarga tortib, sivilizatsiyani yemiradi. Ijtimoiy yemirilish geografik ekspansiya uchun qulay shart-sharoit bo'ladi. «Tushkunlikni boshidan kechirayotgan jamiyat o'z hayotiy kuchlarini ulkan hajmdagi moddiy loyihalarga yo'naltirish bilan o'z o'limining kuni va soatini orqaga surishga harakat qiladi. Bu olamda hukm qilingan o'z layoqatsizligi va o'lim taqdirini, o'layotgan ongini aldashga urinish demakdir».

A.Toynbi sivilizatsiyalarning yemirilish mexanizmini batafsil ochib beradi. Bu o'tish davrining mazmunini ochib berish uchun muhim ahamiyatga ega. U «Atrof – muhit ustidan hokimiyatni mustahkamlanib borishi

bilan o'sish emas, buzilish va yemirilish jarayoni boshlanadi. Bu ichki urushlar eskalatsiyasida ko'rinadi. Urushlarni davom etishi buzilishga olib boradi, u kuchayib, yemirilishga o'tadi» deb ta'kidlaydi.

Ijtimoiy darz ketishlar, yoriqlar kuchayadi. Jamiyatning vertikal aynishi boshlanadi. Jamiyat qator lokal davlatlarga parchalanadi. Bu qonli o'zaro urushlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi va gorizontal yo'nalishda jamiyat guruhlarning uch tipiga ajraladi: o'z hukmronlik mavqeini yo'qotishni istamagan yetakchi ozchilik va uni qo'llab-quvvatlash uchun universal davlat yaratuvchi; butun dunyo cherkovi tug'diradigan ichki proletariat va tashqi proletariat. Ichki proletariat va tashqi proletariat o'layotgan sivilizatsiya bo'yicha zarba beradigan, tezkor harakat qiladigan harbiy qismlarga uyushadi. Bu uchala kuchlar o'rtasidagi kurashda sivilizatsiyaning yemirilishi yuz beradi. Har qanday sivilizatsiyaning yemirilish ritmini turg'unlik fazasidan keyin ko'rish mumkin. Buzilish lahzasida turg'unlik boshlanadi va yana vaqtinchalik jonlanish keladi. Bu universal davlatga asos solinish lahzasi bilan mos keladi. Lekin bu jarayon o'z navbatida yangi turg'unlikni bildiradigan buzilish bilan tugaydi, uni ortidan jonlanish boshlanmay, so'nggi yemirilish keladi».

Sivilizatsiyalarning yemirilishida tashqi ta'sirlar sezilarli rol o'ynashi mumkin. Toyntbi aytgan tashqi proletariat ko'p hollarda stagnatsiyadagi jamiyat chegaralarini portlatadi. Toyntbi konsepsiyasining qimmati shundaki, u lokal sivilizatsiyalarni hayotiy sikllarining to'la qiyofasini, uning avlodlarini almashinuvining mexanizmlarini asoslab beradi. Lekin, bu avlodlar almashinuvi, lokal sivilizatsiyalarning yemirilishi ko'pincha umuminsoniy tarixiy progressning simfoniyasini shakllantiradigan va lokal sivilizatsiyalarning hayotiy sikllari bosqichlarini moslashtiradigan jahon sivilizatsiyalarining ritmi oqibatidir. Supersikllar oralig'idagi chegaralarda yotuvchi katta tarixiy burilishda lokal sivilizatsiyalarning differentsiyasi jarayoni kuchayadi, ularning ba'zilar buzilish va yemirilish bosqichlarida turadi. Bu amerikalik professor S.Xantingtonning «Sivilizatsiyalar to'qnashuvi» kitobida (1997-yil chop etilgan) kelajakdagi urushlar sivilizatsiyalar urushi bo'ladi deb bashorat qilishiga asos bo'ldi. Jahon sivilizatsiyasi tushunchasiga qarindosh tamoyil ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya yaqin kunlargacha ilmiy asarlar va darsliklarda umum qabul qilgan va jamiyat taraqqiyotidagi bosqichlarni tavsiflash uchun foydalanilar edi. Nima uchun tarixiy taraqqiyotning formatsiya konsepsiyasidan voz kechildi?



2 - tasvir. Sivilizatsiya piramidasi (jamiyatning tuzilishi)

Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya tushunchasi asosida ma'naviylik ustidan moddiylikning ustuvorligi g'oyasi yotadi. Bizning yondashuvimiz inson primati, uning ehtiyojlari, bilimi, uquvi, madaniyati, mafkurasini umumlashtiradigan so'z ko'pincha ijtimoiy ong deb aytiladi va u insonni tabiat dunyosidan farq qildi. Albatta, odam o'zini o'tab turadigan dunyodan ajralishi mumkin emas (uning asosiy unsuri inson o'zining ehtiyojlari va qobiliyatlari, bilimi va uquvi, xohishi va irodasi bilan). Tarixiy progressning belgilovchi omillaridan biri, ma'naviy dunyoning dinamikasi bilan bir qatorda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi bo'ladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy – besh bosqich chizmasi iqtisodiy formatsiyalarning almashinuvi qat'iy qilib qo'yildi. U mamlakat va xalqlarning taqdirini o'ziga xosligi, tarixiy progressning murakkab qarama-qarshi ritmini qotib qolgan sxema doirasida joylashtirishga urindi. Shu bilan birga, tarixning boshlanishi bo'lgan ibtidoiy jamoa davri noaniq, uzun bo'ldi. Tarix arafasidagi va insoniyat tarixining birinchi bosqichlaridagi sifat jihatidan turli bosqichlar nazarga olinmadi. Yaqingacha so'nggi kommunistik formatsiya o'z mohiyati bilan tarixning nihoyasini bildirar edi.

Hayot bu buyuk utopiyani inkor qildi. XX asr oxirida kommunizm ideallari og'ir mag'lubiyatga uchradi. Jahon sivilizatsiyalarining almashinuvi konsepsiyasi tarixiy jarayonning boshlanishini aniq chizib beradi. Tarix hisobi neolit inqilobidan va undan oldingi o'tish davri-mezolitdan olib boriladi. Marksistik chizmaga nisbatan tarixning katta bosqichlari aniqroq taklif qilinadi va asosiysi sivilizatsiyalar almashinuvi ritmi, unga mos harakatlantiruvchi kuchlar va qarama-qarshiliklar kelajakda insoniyat jamiyati mavjud bo'lgan vaqtgacha saqlanib qoladi.

Yuqorida ko'rsatilgan tarixni davrlashtirishga yaqin yondashuvni I.M.Dyakonov taklif qiladi. U tarixiy vaqt hisobini neolit inqilobidan emas, zamonaviy odam Homo Sapiensning paydo bo'lishidan (shunga muvofiq, tarixning katta bosqichiga deyarli 30 ming yil qo'shiladi) hisoblaydi. So'z sivilizatsiya to'g'risida emas, tarixiy jarayonlarning fazalari (ularni insoniyatning hayot fazalari sifatida tushunish mumkin) to'g'risida boradi. Alohida fazalar va jahon sivilizatsiyalari muddatlarining tushunchalari va mazmunini tushunishda farqlar mavjud. Endi tadqiqot ob'ekti bo'lgan sivilizatsiya dinamikasi va tuzilishiga batafsil to'xtalamiz.

3. Sivilizatsiyaning tuzilishi. Sivilizatsiya piramidasi. Sivilizatsiya tuzilishini kesik piramida ko'rinishida tasavvur qilamiz, qaysiki, u vertikal bo'yicha besh qavatni tashkil qiladi. Ularning har biri o'z navbatida bir-birini to'ldiradigan unsurlarga ega.

1.Piramidaning asosi, ya'ni poydevori bo'lib odam xizmat qiladi. Aniqrog'i, oila jamiyatning birlamchi bo'g'ini, uning molekulasi bo'ladi. Aynan oilada odamning biosotsial genotipini takror ishlab chiqarish saqlanadi. Oilada odamlar avlodining almashuvi yuz beradi. Asosiy hayotiy ehtiyojlar qondiriladi, boshlang'ich bilim va ko'nikmalar orttiriladi (qaysiki, ta'lim tizimi bilan keyin to'ldiriladi va rivojlanadi), insonning irodasi va qiziqishlari shakllanadi. Oila ijtimoiy takror ishlab chiqarishning boshlang'ich va oxirgi nuqtasidir. Oila o'zini saqlashi, tushkunliklari va o'tish davrining buzilishlari vaqtida buzg'unchiliklarning boshlanishiga chegara qo'yib, ularni bartaraf qilishga asos bo'lib xizmat qiladi. Oilaning buzilishi oxir-oqibatda jamiyatning aynishi va halokatiga olib keladi.

Barcha itimoiy-etnik birliklar (urug', qabila, xalq, millat)ning asosi oila bo'ladi. Oilalarning to'plami demokratik qonunlar bo'yicha rivojlanadigan, jamiyatning ehtiyojlari tuzilishi va umumiy hajmini belgilaydigan xalq, aholini tashkil qiladi. Aholining umumiy soni, uning o'sish suratlari, hududda aholining joylashuvi ko'p hollarda jamiyat taraqqiyoti darajasini va unda to'planib qolgan qarama-qarshiliklarni belgilaydi.

Insoniyatning ijtimoiy taraqqiyoti davomida oila ham ozgarib bordi. Ilk bor haram oila, qon-qarindosh oila, juft oila va patriarxal oila ko'rinishlari shakllandi Sivilizatsiyalar tarixi neolit davrida monogam (yaqin qarindoshlarning bir necha avlodlarini o'z tarkibiga olgan katta oila) oilani ijtimoiy-iqtisodiy birlik sifatida shakllanishidan boshlandi. Yangi sivilizatsiya boshlanishi bilan oilaning tarkibi va funksiyasi, uning moddiy va ma'naviy takror ishlab chiqarishdagi o'rni o'zgaradi.

Oila ijtimoiy qayta ishlab chiqarishning maqsad va mohiyati amalga oshiriladi. Hozirgi jamiyatda uy xo'jaligida foydali mehnatning 30-40 % igacha sarflanadi. Shaxsiy tomorqa xo'jaligida oila iste'mol qiladigan oziq-ovqatning bir qismi yaratiladi. Uyda esa shaxsiy xizmatlar (uyni tozalash, ovqat tayyorlash, kir yuvish, tarbiya, ta'mirlash va boshqalar)ning asosiy qismi amalga oshiriladi. Oila korinib turibdiki kop' qamrovli ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Inson individ, shaxs sifatida o'zining ma'naviy dunyosiga ega. U oiladan, jamiyatdan axborot oqimi va energiyani simirib oluvchi, bu oqimlarni o'zgartirilgan holda takrorlab beruvchidir. Har bir kishi individual, takrorlanmas, u hazrati inson, noyob qobilyatlar egasi qiladi. Jamiyatsiz odam yo'q, odamsiz jamiyat yo'q. Jamiyat tarixi – bu ko'pgina odamlarning, ularning taqdirining, anglangan harakatlarning tarixidir. Sivilizatsiyalar tarixi, odamlar tarixi jamiyatning o'zgarishidagi bosqichlar – bu izchil, to'la, ziddiyatli hamkorlik va ko'pgina shaxslarning kurashidir. Ularning ongi va faoliyatida tarixiy qonuniyat yaqqol ko'rinadi, merosiy genotip saqlanib qoladi va boyiydi. Insonlarning maqsadli faoliyati tufayli jamiyatning bir tarixiy bosqichdan boshqasiga harakati yuz beradi. Inson ruhiyati qadimdan hozirgacha o'rganilib kelinadi, lekin uning ko'p qirralari oxirigacha ochilgani yo'q. Yakka bir odam ko'p qiyofali, o'zgaruvchan, ba'zida sirli va u o'z xatti-harakati va intilishlarini o'zi yoki boshqalar tushuna olmaydi, lekin aynan millionlab va milliardlab individlarning hamkorligi va qarama-qarshiligidan tarixiy rivojlanishning harakati yuz beradi.

2. Sivilizatsiya piramidasining keyingi qavati – ishlab chiqarishning texnologik uslubi. Bu uslub jamiyatda foydalanadigan texnologiyalar, ishlab chiqarishning tashkil etilishini shakl va tamoyillari, ishlab chiqarish vositalari hamda tabiiy ishlab chiqarish kuchlari to'plamining ifodasidir. Arxeologlar va tarixchilar tomonidan insoniyat jamiyatining birinchi bosqichi davrlari asosiy xomashyolardan foydalanib tayyorlanadigan (tosh, jez, temir) mehnat qurollari bilan alohida davrlar farqlanadi.

Bu vaqtda energiyaning asosiy manbasi insonning muskul kuchi, keyin esa hayvonlarning kuchi edi. Insonning tabiat kuchlariga to'la qaramligi bilan mehnatning oddiy kooperatsiyasi yetakchi edi. Inson uzluksiz ravishda tabiatdan ajralib o'z sun'iy dunyosini shakllantirdi. Yanada murakkab mehnat qurollar, keyin mashinalar, murakkab texnik tizimlar yaratildi. Yoqilg'i manbalari ochildi. Hozirgi kunda boshqaruv va nazorat funksiyalarini odam o'zi kashf qilgan priborlar, programmalashtirilgan nazorat tizimlariga berdi. Ichki ishlab chiqarish, sohalararo hududiy mehnatning ijtimoiy taqsimoti yuz berdi. Korxonalar, hududlar, mamlakatlar, jahon xo'jaligi yanada ko'proq integratsiyalashgan yaxlitlik belgilarini o'z boshladi.

Bir sivilizatsiyadan boshqasiga o'tishda ishlab chiqarishning texnologik uslubi o'zgaradi. Ishlab chiqarish vositalari to'plamidan va uni tashkil qilish usullaridan foydalanadigan – texnologik inqilob yuz beradi. Lekin ishlab chiqarishning bu usuli doirasida sifat o'zgarishlari yuz beradi. Texnik tizimlarni energetik manbalari va umumiy tamoyillariga asoslangan, bu tizimlarga mos, ishlab chiqarish shakllariga mos sifat o'zgarishlari yuz beradi. Sanoat inqilobi ishlab chiqarishning industrial usulini boshlab berdi.

U besh texnologik ukladlarni o'z ichiga oladi. Ulardan birinchisi, manufaktura ishlab chiqarish usulidan meros qilib olingan texnikada quriladi; ikkinchisi va to'rtinchisi ishlab chiqarishning industrial usuli, o'z-o'zini rivojlanishining tizimli bosqichini ifodalaydi. Zamonaviy beshinchi texnologik uklad XX asr oxirida rivojlangan mamlakatlarda yetakchi bo'lgan postindustrial ishlab chiqarishning texnologik usuliga o'tish bo'ldi.

Har bir texnologik uklad o'z navbatida, 10 yil davomida bir-biri bilan o'zaro bog'langan texnika avlodlarini o'z ichiga oladi. Ularning har biri yirik kashfiyotni, ba'zida yangilikni amalga oshiradi. Hozirgi zamon uchun hisoblash, kompyuter, lazer, kosmik-raketa texnikasini ko'rsatish mumkin. Har bir avlod umumiy texnologik tamoyil, ko'pgina modifikatsiyalar va texnik modellarni amalga tadbiiq qiladigan yanada yuqori darajadagi (ilmiy texnika yo'nalishidagi) texnologik siklni shakllantirish va joylashtirish bosqichi bo'ladi. Ishlab chiqarishning aralash texnologik usullari texnologik ukladlar, texnikaning avlodlari, umumiy maydonlar, har xil faoliyatning o'tish davrlarini hosil qiladi. Bu uzluksiz texnik prog-

ressni ta'minlaydi. Shu bilan bir vaqtda texnikaning yangi avlodi, texnologik uklad va ishlab chiqarish usulining qaror topishi navbatdagi texnik progress, u yoki bu hajmdagi va murakkablikdagi texnologik to'ntarishni belgilaydi.

Qarama-qarshiliklar asosida quriladigan, bir-birini almashtiradigan tamoyillardagi texnikaning o'tish avlodlari, o'tish texnologik ukladlarining samarasi past bo'ladi. Yanada yuqori darajada turadigan texnologik sikllar o'rtasidagi, uning yetuklik fazasini ifodalaydigan, unga joylashtirilgan kuch-qudratni to'la amalga oshiradigan avlod va ukladlar ko'proq samarali bo'ladi. Texnika taraqqiyotidagi bosqichlar insonning bilish, bilimlarini moddiylashuvi texnologik ko'nikmalarini aks ettiradi. U o'z navbatida uning ishlab chiqarish qobiliyatlarini rivojlanishiga yangi kengliklar ochadi.

3. Jamiyat piramidasining navbatdagi qavati ishlab chiqarishning iqtisodiy usuli, iqtisodiy (ishlab chiqarish) munosabatlari tuzilmasi. Uning asosiy unsurlari: qayta ishlab chiqarish tuzilishi; mulkchilik shakllari, ishlab chiqarish vositalari va uning natijalarini (o'zlashtirish) ishlab chiqarilgan mahsulotni qayta ishlab chiqarish ishtirokchilari, jamiyat a'zolari o'rtasida taqsimlash usullari; ayirboshlash usullari, jamiyatda ishlab chiqarilgan mahsulotning aylanishi, iqtisodiy boshqaruv shakllari, alohida xodimlar, qayta ishlab chiqarish birliklarini eng samarali usullarga undovchi, boshqaruvchi va motivatsiya mexanizmi. Har bir sivilizatsiyada ma'lum bir mos qayta ishlab chiqarish unsurlari va sohalar, iqtisodiy munosabatlar tizimi mavjud.

Neolit sivilizatsiyasi jamoa mulki, teng taqsimot, natural ayirboshlash, ijtimoiy mehnat taqsimotining ilk shaklidagi mehnat faoliyatini bevosita boshqarishga asoslangan edi. Ilk sinfiy va antik sivilizatsiya xususiy o'zlashtirish (yakka yoki jamoa)ga asoslandi. Noiqtisodiy majburlash (sun'iy sug'orish tizimini ta'mirlash, boshqarish, piramida, saroylar, ibodatxonalarini qurilishi)ga asoslangan.

O'rta asrlar va industrial sivilizatsiyalar uchun yerga va qisman ishlab chiqarish xodimlari (qaram dehqonlar va hunarmandlar)ga toifaviy-feodal («ko'p qavatli») egalik, erkin dehqon oilalarining kichik yer ulushi va mehnat qurollariga egaligi, «Erkin shaharlar»da sanoat, qurilish, savdoda yollanma mehnat unsurlari bilan yarim burjua mulkchiligi, rivojlangan bozor – pul mexanizmining shakllanishiga xosdir. Industrial sivilizatsiyalar uchun kapital va yollanma mehnat, bozor munosabatlari hukmronligi-

ga asoslangan iqtisodiy tuzum mos bo'ldi. Ishlab chiqarishning iqtisodiy usuli o'z taraqqiyotida o'zining hayotiy sikli fazalariga mos bo'lgan.

Har qanday jamiyatda «Sof» ko'rinishda iqtisodiy munosabatlar bo'lmaydi. Har bir davrda turli iqtisodiy ukladlar bir-birini to'ldiradi va qarama-qarshi turadi: bu yetakchi ishlab chiqarish usuli yoki uning fazalari; eski, ilgari yetakchi bo'lgan ukladlarning kam yoki ko'p qoldiqlari; tarixiy vaqti hali kelmagan, tug'ilyotgan kelajak ukklad kurtaklaridir. O'tish davrlarida ketayotgan va kirib kelayotgan ukladlarning nisbatan muvozanati va keskin qarama-qarshiligi kuzatiladi. Shuning uchun bu yerda aralash iqtisodiyotning yetakchiligi to'g'risida so'zlash to'g'riroq bo'ladi.

4. Ijtimoiy-siyosiy tuzum – sivilizatsiya piramidasiining navbatdagi qavati ijtimoiy munosabatlarning murakkab tizimini ifodalaydi. Bu qavatda ularning quyidagi ko'rinishlarini keltirish mumkin:

a) Aholining turli guruhlari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar – jins, yosh (erkaklar va ayollar, bolalar, kattalar va keksalar), ular ijtimoiy qayta ishlab chiqarishda va mehnat taqsimotida turli o'rinlarni egallaganlar (turli sinflar, jismoniy va aqliy mehnat kishilari, shahar va qishloq aholisi).

b) Etnik va milliy – bir hududda (mamlakatda) yashovchi va madaniyat, iqtisodiyot, tarixiy an'analar, til birligiga ega bo'lgan odamlar guruhlari o'rtasidagi; turli irqlar, millatlar, milliy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar;

s) Siyosiy partiyalar o'rtasida alohida ijtimoiy guruhlar, sinflar, mamlakatlar, etnoslar manfaatlarini himoya qiladigan yoki boshqa siyosiy kuchlar bilan hamkorlikda yoki qarama-qarshilikdagi munosabatlar, shu bilan birga, bu qarama-qarshiliklar, qurolli to'qnashuvlar, urushlar, mustamlakachilik bosqinlari shiddatli shakllarni olishi mumkin. Ichki siyosiy munosabatlar (bir davlat, mamlakat ichida) va tashqi siyosat (turli mamlakatlar o'rtasida) farqlanadi.

d) Davlat-huquqiy hokimiyatning turli shakllarida aks etuvchi, uning huquqiy norma tizimlarini amalga oshiruvchi, davlat va huquqni himoya qiluvchi organlar, ularga rioya qilishni ta'minlaydigan kuchdir. Davlat mamlakat ichida turli funksiyalarni (qayta ishlab chiqarish, huquq-tartibot, aholining ma'lum bir qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, davlat tuzumini o'zgartirishga urinayotganlarni harakatini bostirish) va tashqi siyosatda boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarni o'rnatish, tashqi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va boshqa vazifalarni bajaradi.

Har bir sivilizatsiya o'z tuzumi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning

taraqqiyot darajasiga ega. Bu jamiyat sohalarining asta-sekin kuchayishi, munosabatlarning yangi ko'rinishi va tiplarining paydo bo'lishi umumtarixiy qonuniyatdir.

Agar neolit sivilizatsiyasida yosh-jins guruhleri o'rtasidagi ijtimoiy mehnat taqsimotida (chorvadorlar, dehqonlar) qo'shni jamoalar, urug'-qabilalar o'rtasidagi munosabatlar yetakchi o'rin egallagan bo'lsa, keyingi bosqichda esa munosabatlar yanada ko'p marta murakkablashdi. Sinflar, siyosiy guruhlar, davlatlar, huquqiy tizimlar va davlat boshqaruvi paydo bo'ldi. Soliqlar yig'ish, armiyada xizmat qilish, madaniyat sohasida xizmat qilish bilan shug'ullanadigan odamlar qatlami ajralib chiqdi. Bu jamiyatning shakllanishida, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynadi. Har bir keyingi sivilizatsiyada bu muassasalar ajraldi, takomillashdi. U keyingi sivilizatsiyalarda ham saqlanib qoldi.

Davlatning yo'q bo'lib ketishi, sinfsiz jamiyat tushunchalari markscha ta'limotning asosiy tamoyillaridan biri edi. Davlatning funksiyasi xilma-xil, u jamiyatni o'z-o'zini tashkillashtirishini kutilgan natijasi edi. U ijtimoiy munosabatlardagi boshboshdoqlik va tartibsizlikka qarama-qarshi turadigan shakl edi. Sivilizatsiya siklining har xil fazalarida ijtimoiy-siyosiy sohalarini tartibga tushgan darajasi bir xil emas. O'tish davrlarida ijtimoiy qarama-qarshiliklar, turli siyosiy partiyalar, davlatlar o'rtasidagi kurash keskinlashadi. Inqiloblar, fuqaro va davlatlararo urushlar ketma-ket, o'ta keskin tusgacha chiqadi. Davlat apparatining bir qismini buzish huquqiy tizimning, siyosiy muassasalarni o'zgarishi bilan ijtimoiy-siyosiy sohaning liderlarini almashuvi yuz beradi. Ijtimoiy-siyosiy sohada to's-to'polon, qonunsizlikning o'sishi, jinoyatchilikni kuchayishi kuzatiladi; urushlarda, inqiloblarda aholini bir qismi halok bo'ladi. Sivilizatsiya siklining keyingi fazalariga o'tish davrining to's-to'polonlaridan insonda, ishlab chiqarishning texnologik va iqtisodiy usullaridagi tubdan o'zgarishlarga javob beradigan ijtimoiy-iqtisodiy sohaning yangidan tartibga solinishi tug'iladi.

Bu davrda bo'lajak sivilizatsiyaning huquqiy negizlari yaratiladi. Jamiyatning turli sohalarida eski qonunlarning o'rnini yangilari ola boshlaydi. Jamiyatning tizim va tuzilmasida tub o'zgarishlar kiritiladi.

4. Sivilizatsiya piramidasining yuqori qavati – insonning ma'naviy dunyosi, ijtimoiy ongining tuzilishi. Bu, eng avvalo, insoniyatning bilim sohasi, qaysiki, vaqt o'tishi bilan jamiyat va insonni o'z taraqqiyotining qonuniyatlarini o'rganadigan, boshda sof empirik, keyin esa abs-

trakt vaqt o'tishi bilan tartibga solingan bilim bu – fan edi. Ijtimoiy ong qachon odam (alohida individ emas, individlar to'plami sifatida) o'zini o'rab turgan borliqdan ajrata olgan paytdan, o'zining o'rmini bilishi va bu bilimlarni o'z-o'zini saqlab qolish va rivojlanishi uchun maqsadli foydalana olishidan boshlanadi. Asta-sekin ijtimoiy, tabiiy va texnik fanlar paydo bo'lib, boyib bora boshladi. Ijtimoiy zakovatning qudratli to'lqini, uning yadrosi-ilmiiy bilim insonning o'z-o'zini rivojlanishi, jamiyatning dinamik taraqqiyoti va uning tarixiy spiral aylanishlari bo'yicha harakatiga birinchi manba sifatida chiqdi.

Agar o'ng yarim sharning faoliyatini to'plangan natijasi fan bo'lsa, madaniyat chap yarim sharning faoliyati mevasi, atrof dunyoni aniq obrazli hissiy qabul qilishdir. U o'zini estetik baholash, go'zallik va xunuklikni qabul qilish, tabiatning mukammalligi va insonning go'zaligini tushunishdir. San'atning turli xil turlari (tasviriy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik, musiqa, vokal, xoreografiya, teatr, adabiyot, ommaviy axborot vositalari va kitob bosish) madaniyatga kiradi. Ulardan bir nechtasi (qoyatosh tasvirlari, raqs, qo'shiq aytish) paleolit davrida paydo bo'ldi. XX asrda esa faqat kino, video san'ati paydo bo'ldi. Madaniyatning boyligi va turli xilligi insonni o'rab turgan dunyoning keng qamrovli qabul qilishga, uni samarali transformatsiya qilishga yordam beradi.

Har bir jamiyat uchun axloq normalari doimo muhim orin tutib kelgan. Ularsiz jamiyat yashay olmaydi. Ma'naviyat sohasiga axloq normalari to'plami, har bir kishining yurish-turishini yetuk baholash, uni bos-hqa oila a'zolari va ijtimoiy guruhlar bilan o'zaro munosabatlari kiradi. Axloq normalari har bir kishining yurish-turishida nima yaxshi, nima yomon degan mezonlarni beradi. Bu yurish-turish qoidalari oilaviy, milliy an'analar, diniy qonunlar, davlat uchun muhim bo'lgan huquq normalari-da singdirilib, mustahkamlanadi.

Nihoyat, kishilik jamiyatining siyosiy partiyalar, davlat, ularning faoliyatini maqsadlari majmuasi bo'lgan mafkura ham ijtimoiy ong, ma'naviy dunyo tarkibiga kiradi. Mafkura diniy shaklda ham mavjud bo'ladi, lekin uning sohasi mafkura bilan cheklanmaydi.

U yoki bu sivilizatsiyaning ma'naviy hayotining barcha sohalarini o'zaro aloqada, bir-biri bilan yaqindan bog'langan ijtimoiy onging hayotbaxsh harakatida ma'lum bir bosqichni ifodalaydi. O'tish davrlarida ma'naviy soha tubdan «tozalanadi». Eskiirib qolgan ilmiy paradigmalari

yemiriladi. Badiiy uslublar, ta'limning mazmuni, uslublari va tashkiliy shakllari o'zgaradi. Axloq normalari yangilanadi. Ma'furaviy oqimlarning eskilari siqib chiqariladi. Ularning o'rniga yangilari, diniy e'tiqodlar va boshqalar shakllanadi.

Ma'naviy dunyoni vaqtinchalik tartibsizlik qamrab oladi. Qachonlardir voz kechilgan xurofotga berilish takror tug'iladi. Ijtimoiy ongda yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldirish uchun turli mafkuralar, g'oyalar o'rtasida kurash boshlanadi. Jamiyat o'ziga foydali deb bilgan mafkura va g'oyalarni qabul qilib, ma'naviy tushkunlik bartaraf etiladi. Ijtimoiy ongni yangi mazmuni qaror topadi, tarqaladi va takomillashadi. U hozircha navbatdagi tushkunlik yuz bermaguncha yashaydi. Sivilizatsiya piramidasi ana shunday umumiy holda ko'rinadi.

Tayanch iboralar: sivilizatsiya, sivilizatsiya piramidasi, mafkura, ishlab chiqarish usuli, ijtimoiy ong, lokal, jahon sivilizatsiyasi, A.Toynbi, O.Shpengler, S.Xantington, I.M.Dyakonov, ma'naviy dunyo, ma'naviy tushkunlik, diniy e'tiqod, axloqiy normalar, texnologik sikl, faza,

Takrorlash uchun savollar

1. *«Jahon sivilizatsiyasi» tushunchasini ochib bering.*
2. *Jahon va lokal sivilizatsiyalar dinamikasi o'rtasidagi o'zaro aloqalarini tavsiflang?*
3. *«Sivilizatsiya piramidasi» tuzilishini tavsiflab bering.*

Mustaqil ish mavzulari:

1. Sivilizatsiyalar tushunchasi va unga olimlarning qarashlari.
2. Jahon sivilizatsiyalarining almashinuv konsepsiyasi.
3. XX asr sivilizatsiyasi.
4. Sivilizatsiya piramidasi.

2-MAVZU: SIVILIZATSIYALAR ALMASHUVI MEXANIZMI

1. Nima uchun sivilizatsiyalar almashadi? 2. Sivilizatsiyalar almashuvi qanday yuz beradi? 3. Yangi sivilizatsiyaga o'tish davrining mazmuni, bosqichlari va yakunlari. 4. Sivilizatsiyalarning almashuvi vaqtida o'tish davrining bosqichlari qanday?

1. Nima uchun sivilizatsiyalar almashadi? Chunki hukmron sivilizatsiya o'ziga berilgan tarixiy muddatni, o'z kuchini sarflab bo'ladi va o'z hayotiy siklining so'nggi fazasiga kiradi. Boshlanishda u yosh, to'la kuchga egaligi bilan aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini to'la-to'kis qondiradi, iqtisodiy o'sishning yuqori darajasiga yetishiga va ma'naviy sohaning ko'tarilishini ta'minlaydi. Lekin keyin esa bu imkoniyatlar tugaydi. Texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy mexanizmlar, ilmiy-texnik, ta'lim va madaniy kuch-quvvatlar sezilarli eskiradi, to'ziydi. Jamiyatda hukmron bo'lgan qarashlar tub yangiliklar va o'zgarishlarni inkor qiladi. Yuksalish davrida o'sib borgan ehtiyojlar bilan uni qondirish uchun yanada cheklangan imkoniyatlar o'rtasidagi oraliq kuchayib boradi.

Bu qarama-qarshiliklarning tuguni sivilizatsiyaning butun hayot sikli davomida bir marta paydo bo'ladi deb aytish mumkin emas. Trayektoriya ko'proq «uch o'rkachli tuyani» eslatadi. Odatda yuksalish uch marta kuzatiladi. Uning orqasidan turg'unlik, tushkunlik yuz beradi. (Yakovetsning chizmasiga qarang 3-tasvir).

Yangi sivilizatsiyaning shakllanish fazasi, tez tarqalishiga nisbatan uzoq davom etmaydi, lekin yuqori birinchi yuksalish kuzatiladi. Jamiyatning faol kuchlari yaratuvchanlik romantikasi bilan ruhlanadilar. Yangilangan ishlab chiqarish kuchlari, o'zlashtirish va taqsimot shakllari iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarining tushkunlik vaqtida qiynalgan aholining turmush kechirish darajasi va sifatining yuqori bo'lishini ta'minlaydilar. Lekin tezda yuksalish abadiy emasligi, u ko'p holda eski o'layotgan jamiyatning parchalariga qurilganligi, muddati cheklangan yoshlik kuch-g'ayratiga asoslangani ko'rinadi. Sivilizatsiya ilk bosqichining birinchi tushkunligi, yuz berib ko'ngil qolish davri kiradi.

Bu tushkunlikni bosib o'tib, romantik xom xayollardan qutulib ulg'aygan jamiyat nisbatan uzoq va barqaror yetuklik fazasining yuk-salish davriga kiradi, qachonki, o'z xususiy asosiga rivojlanayotgan bu sivilizatsiyaning mohiyati, asosiy belgilari va afzalliklari to'la hajmda ko'rinadi.

Yetuklik fazasi ertami, kechmi nihoyasiga yetadi. Sivilizatsiyaga berilgan kuch-qudratning tugash belgilari quyuqlasha boshlaydi. Boylikning oz qismini olgan ijtimoiy qatlamlarning noroziligi kuchaya boshlaydi. Ijtimoiy mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari pasayadi. Yetuklik fazasini tugallaydigan yangi tushkunlik boshlanadi. Biroq bu sivilizatsiyaning hali tugashi emas. Yemirilishning o'sib borayotgan belgilari bilan sergak tortgan sivilizatsiya yangi sharoitlarda qo'llashga mos yangi, uzoq davom etmaydigan va yuksak bo'lmagan yuksalishga takror chiqish uchun so'nggi urinishlarga o'zida kuch topadi. Lekin endi bu eskirgan kasal organizmni takror jonlantirishga urinish, uning keksaygan organlariga «uchinchi yoshlik»ni berish mumkin emas. Uzoq davom etmagan yuksalish orqasidan navbatdagi sivilizatsiyaga o'tish davri boshlanishini bildirgan jamiyatning umumiy tushkunligi boshlanadi. Yangi sivilizatsiyaning shart-sharoitlari va unsurlari o'tmishga ketayotgan mahkum jamiyatning bag'rida tug'ilib, o'zini bildiradi boshlagan edi.

Har qanday sivilizatsiyaning harakat trayektoriyasi ana shunday bo'ladi. Dunyo tarixida hali biror bir sivilizatsiya bundan xolis bolmagan. Bu Qadimgi Sharqning sivilizatsiyalari Misr, Osuriya, Xett va boshqa bir necha davlatlar tarixida yaqqol ko'rinadi. Bu mamlakatlarda og'ir yo'qotishlar hamrohligida o'tish davrining bir necha fazalari kuzatiladi. Bu bosqichlarni industrial jamiyat misolida ham ko'rishimiz mumkin. Yevropa va Amerikada birinchi yuksalish XIX asr boshida kuzatildi. Bu sanoat inqilobi yutuqlarini o'zlashtirish natijasi edi. Ikkinchi uzoqroq yuksalish (40-yillardagi tushkunliklaridan keyin) XIX asrning II yarmidan – XX asr boshlarigacha – industrial sivilizatsiyaning gullab-yashash, yetuklik davri edi. Keyin jahon urushlari va industrial jamiyatning so'nishini boshlab bergan og'ir jahon tushkunligining 30 yillik davri kirdi. Lekin u XX asrning 50-60-yillarida yana bir yuksalish davrini boshdan kechirdi.

Bu insoniyatning nihoyasiz gullab-yashnash davriga kirgani, tushkunliklardan xalos bo'lgani to'g'risida xom hayollarni tug'dirdi. Lekin XX asrning 70-80-yillar boshlaridagi va 90-yillar boshlaridagi jahon tushkunliklari bu xom xayollarga barham berdi. Qaysiki, ikki yuz yildan ko'proq

davom etgan industrial sivilizatsiyaning halokatga mahkumligini, postindustrial jamiyatning shakllanishi shubhasizligini ko'rsatdi. Demak, taraqqiyot abadiy davom etmaydi, har qanday yuksalishning nihoyasi bor.

2.Sivilizatsiyalar almashinuvi qanday yuz beradi? Sivilizatsiyalar almashinuviga sabab bo'lgan o'zgarishlarning birinchi manbasini piramida poydevorida inson va uning ehtiyojlari hamda qobiliyatlari-bilimlari, malaka, manfaatlari dinamikasidan izlash zarur. Biologik-ijtimoiy bo'lgan oila va alohida odamning ehtiyojlari o'zgaradi. Odamlarning har bir yangi avlodi ehtiyojlarini qondirishda erishilgan darajasiga suyangan holda oziq-ovqat, kiyim, uy-joy, taqinchoq va hokazolarga yangi talablar qo'yadi. Oilalar iste'mol qiladigan mahsulotlar, xizmatlarni ishlab chiqarish uchun qo'shimcha tabiiy xomashyo, buyumlar, mehnat qurollari, energiya manbalarini jalb qilish kerak. Aholi sonining o'sishi, ijtimoiy kelishmovchiliklar va urushlar, boshqaruv, mudo'aa, tartibni saqlash ehtiyojlari ijtimoiy ehtiyojlar doirasini kengaytiradi. Ma'naviy ko'rinishdagi ehtiyojlarining o'sishi cheksiz.

Yangi hududlar, ko'pincha noqulay iqlim sharoitlari bo'lgan yangi hududlarni o'zlashtirish qo'shimcha ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Atrof-muhitning ifloslanishi, jamiyatning faoliyati tufayli biosferaga yetkazilgan zarar ishlab chiqarishni tabiiy shart-sharoiti va odamlarning hayoti uchun g'amxo'rlik qilish doirasini kengaytiradi. Inson, oila, jamiyatning ehtiyojlar tuzilmasining murakkablashuvi va hajmining o'sishi jamiyat piramidasining barcha qavatlarida o'zgarishlar uchun turtki beradi.

Odamlarning ehtiyojlarini moddiy va ma'naviy, shaxsiy, ishlab chiqarish va harbiy, joriy va istiqboldagi o'sishining umumijtimoiy qonunini to'g'ridan-to'g'ri tushunish kerak emas. Ehtiyojlar bir tekisda o'smaydi. U o'z siklik xususiyatiga ega. Yangi sivilizatsiyaning shakllanishi davrida iqtisodiy o'sish sur'atlarining kuchli o'sishi va jamg'arish ba'zida tez sur'atlar bilan o'sib borsada, o'sib borayotgan boylik hajmining bir qismi ehtiyojlarni qondirishga sarflanadi. Aholining barcha qatlamlari bir xil sur'atda bo'lmasada, boyib boradi. Lekin yetuklik fazasida kutilgan umidlarning amalga oshishi va o'zini oqlashini umri qisqaligi ko'rinadi. Iste'mol jamg'armasining o'sish sur'atlari sekinlashadi. Yangi avlodning o'tmish o'sish sur'atlari bilan qamchilangan ehtiyojlari esa o'sib borayotgan talablarni qo'yadi, qaysiki, u to'la hajmda qoniqtirilmaydi.

Turli ijtimoiy qatlam va guruhlar o'rtasida sekin sur'atlar bilan o'sayotgan boylikni takror bo'lish uchun kurash kuchayadi. Ijtimoiy qara-

ma-qarshilik va kelishmovchiliklar kuchayadi. Hukmron elita yaqinlashib kelayotgan ijtimoiy boʻronlar, yerosti qimirlashlarini his qilib, ularni sekinlatishga urinadi. Norozi ommaga «non va tomoshalar» tashlashga harakat qiladi. Shu bilan birga, tashqi manbalar, militarizm, taʼsir doiralari va hududlarni takror taqsimlashni qoʻllashga harakat qiladilar. Bu harbiy sohaning kuchayishiga sabab boʻladi va yaratilgan milliy boylukda shaxsiy isteʼmol jamgʻarmasi hissasini yanada kamayishiga olib keladi.

Bunday yoʻlning istiqboli yoʻqligi umumsivilizatsiya tushkunligi davrida ochiq koʻrinadi. Ishlab chiqarishning tushkunligini boshlanishi turmush darajasining pasayishiga va keyin aholining koʻpchilik qatlamlarini kambagʻallashuviga olib keladi. Davlat aholining yordamga muhtoj qatlamlariga yordam berishga urinadi, lekin uning imkoniyatlari daromadlarni qisqarishi va byudjet taqchilligi bilan cheklangan. Qoʻshimcha emissiya muomalaga qoʻshimcha pul massasini tashlashga toʻgʻri keladi. Bu inflyatsiyani kuchaytirib, aholining koʻpchilik qismini qashshoqlashuvi, investitsiyalarning qadrsizlanishiga olib keladi. Boylikni takror taqsimlash asosan «soyadagi iqtisod» foydasiga kuchayadi.

Ehtiyojlar tushkunligi oqibati bir xil emas. Bir tomondan resurslar imkoniyatlari bilan oqlanmagan, asossiz yuqori parazitik ehtiyojlar «yuviladi» (bu XX asr 70-yillarining oxiri – 80-yillar boshlarida rivojlangan mamlakatlarda yuz berdi).

Jamiyatning cheklangan resurslari va oʻzgargan sharoitlarga mos yangi ratsional isteʼmol modeli shakllantiriladi. Bilim va koʻnikmalarni yangilash faollashadi. Noqulay muhitda jon saqlash va rivojlanishning samarali yoʻllari va shakllari izlanadi. Boshqa tomondan, jamiyat aʼzolarining koʻpayib borayotgan qismi tirikchilik uchun ishlashdan mahrum boʻladi. Ular ishsizlar, lyumpen, uysizlar toifasiga tushib qoladi va jinoyat dunyosini toʻldiradi.

Parallel ravishda oʻzgarishlar sivilizatsiya piramidasining yuqori qavati – maʼnaviyat sohasini qamrab oladi. Ijod kishilari, oʻqituvchilar, shifokorlar, olimlar boshqalardan oldinroq ahvol ogʻirlashayotganini sezadilar. Oʻtmish toʻntarish gʻoyalarini oʻziga singdirgan, qaysiki, uning bayrogʻi ostida hozir hukmron boʻlgan jamiyat shakllangan, ular boshqalardan koʻra koʻproq, endi bu gʻoyalar amaliy hayotga toʻgʻri kelmasligini koʻproq his qiladilar. Katta yangi gʻoya va yirik kashfiyotlarga talab deyarli boʻlmaydi. Ular ulkan, sekin harakat qiluvchi davlat mashinasi va monopoliyalarning eskirgan texnik tizimlari bilan rad qilinadilar.

Tushkunlikdan chiqish uchun ko'plab yangi g'oyalar, konsepsiyalar ilgari suriladi, lekin ularning ko'pchiligi eskidan ma'lum edi. Lekin asta-sekin ilmiy merosda, qadriyatlar tizimida yangi ijtimoiy ideal shakllana boshlaydi va uning tarafdorlari ko'payib boradi va nihoyat jamiyatning faol qismini ergashtiradi. Hammadan kech ijtimoiy ongning yemirilishiga ta'lim tizimi javob beradi. Qachonki, yangilangan bilim va g'oyalar maktab va o'quv darsliklariga kiritilsa, ma'naviy sohadagi tushkunlik tugallangan deb hisoblash mumkin. Sivilizatsiyalar almashuvi jarayoni piramidaning quyi va yuqori qavatlaridan, ehtiyojlar va ma'naviy dunyo tushkunligidan boshlanadi va sub`ektiv omildan kelib chiqadi. Lekin u ishlab chiqarishning texnologik va iqtisodiy usullarida va ijtimoiy-siyosiy tuzumda tub o'zgarishlar bo'lmasa amalga oshmaydi.

Jamiyatning texnologik bazasi eng katta inersiyaga ega. Bu ajablanarli emas. Texnologik tizimlar (zavodlar, inshootlar, kommunikatsiya (qurilish, mashinalarni loyihalash, ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilish, tabiiy boyliklarni o'zlashtirish)ga ulkan mablag'lar ajratiladi, qaysiki, ular o'zini qoplashi kerak. Kashfiyotlar yangi texnologik tizimlarga joriy etilishidan oldin sinchiklab amaliy samaradorligi ekspertizadan o'tkaziladi. Buning uchun ishlab chiqarish infrastrukturasi qiyofasini o'zgartirish, xodimlarni takror tayyorlash, eskirgan mashinalarni almashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali shakllarini tadbqiq etish lozim bo'ladi. Texnologik bazani takror qurish ishlab chiqarishning qisqarishi, eskirgan ishlab chiqarish apparatining to'la yuklanmagani va almashtirish, asosiy jamg'armalarni tubdan yangilash bilan bog'liq.

Texnologik tushkunlik va to'ntarish – sivilizatsiyalar almashuvi mexanizmining o'zgarimas unsurlaridir. Shu bilan birga, ular ishlab chiqarish va texnikani qo'llashning barcha sohalarini qamrab oladi va to'ntarish episentridan periferiya (chekka)ga ko'chadi. Dastlab ishlab chiqarishning eski va yangi texnologik uslublarini qamrab olgan o'tish gibridd texnologik ukiladi paydo bo'lgan. Faqat keyingi bosqichda yangi sivilizatsiyaning texnologik bazasiga to'la hajmda mos ukilad shakllanadi. Texnologik sohadagi o'tish bosqichining doirasi bizning davrimizda taxminan bir yarim asr vaqtini tashkil etadi.

Texnologiya iqtisodiyot bilan ajralmas holda bog'langan. Jamiyatning texnologik asosidagi tub o'zgarishlar ishlab chiqarishning iqtisodiy usulida siljishlarga olib keladi, qaysiki, takror ishlab chiqarish tuzilmasida o'z ifodasini topadi. Turli takror qurish sektorlari orasida proporsiyalar

o'zgaradi. Tushkunlik sharoitlarida iste'mol sektorining hissasi-oraliqda-gi ulushlar (xomashyo, buyumlar, yoqilg'i, energiya), harbiy, investitsiya va intellektual sektorlar qoplash (amortizatsiya) va jamg'armalarning qisqarishi hisobidan o'sadi. Harbiy urushlar harbiy sektorning ulushini yanada ko'paytirib yuborishi mumkin.

Iste'molni jonlanish fazasida texnologik bazani takror qurish investitsiya va intellektual sektorlar ulushining ko'payishini talab qiladi. Bu ishlab chiqarish o'sishining boshlanishi bilan yengillashadi. Tushkunlik sharoitida qo'shimcha mahsulot ulushi pasayadi. Shaxsiy daromadlar zaruriy mahsulotning to'la kattaligini aks ettirmaydi. Asosiy jamg'armalarning (qaysiki, sezilarli qismi chiqib ketadi) ko'chirilgan qiymati amortizatsiyada o'z ifodasini topadi. Keyingi fazada takror ishlab chiqarishning samaradorligini oshishi orqasidan qo'shimcha mahsulotning normasi o'sadi. Bu jamg'arma fondini ko'paytirib, bir vaqtning o'zida yangi texnologiya bazasida ishlab chiqarish va mahsulotni yangilashga imkon beradi. Investitsiya kompleksining ulushi ham tegishli o'sadi.

Har bir sivilizatsiya ishlab chiqarish munosabatlari tizimiga – (mulkchilik) o'zlashtirishning shakllariga taqsimot, ayirboshlashga sifat o'zgarishlarini kiritadi. Bu o'zgarishlar o'zining birinchi manbasi – insonga ega. Ishlab chiqarishning ma'lum texnologik, tashkiliy shart-sharoitlarida optimal manfaat, motivatsiya mexanizmini yaratish zarur. Neolit sivilizatsiyasi uchun bir necha ishlab chiqarish vositalariga o'zlashtirishning jamoa usuli muqarrar edi. Bunda asosan bir tekisdagi taqsimot, mahsulot almashuvining ilk ko'rinishi mavjud edi. Ammo o'shandayoq kamon, o'q, nayza ovchining shaxsiy mulki edi. Oila, jamoalar o'rtasida ham mulkiy tengsizlik paydo bo'la boshlagan edi. O'zlashtirish va taqsimotning bir tekisda teng taqsim bo'lishi unumdor ishlaydigan oila, mohir jangchining qo'shimcha topgan mahsuloti bilan rag'batlantirishning yo'qligi jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'ldi.

Xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi, uning shakliga mos notekis taqsimot va ayirboshlash progressiv omil edi. Iqtisodiy munosabatlarning keyingi har bir shakli shu sivilizatsiya chegarasida bir qadam olg'a tashlash edi. Industrial sivilizatsiyaning oxirida bevosita ishlab chiqaruvchining o'z mehnati natijalaridan begonalashuvi yuz berdi. Buning sababi, davlat monopolistik tazyiqining takror ishlab chiqarish jarayonida ijtimoiy boylikni taqsimlash, takror taqsimlashga aralashuvi o'z apogeyi (cho'qqisi)ga chiqdi. Bu esa insonning ishlab chiqarish texnologiyasi bazasining

navbatdagi bosqichi yo'liga o'tishiga xalaqit berdi. Mayatnik orqa tomonga tebrandi – kichik, xususiy va shaxsiy mulkning qayta tug'ilishi, kichik va o'rta biznesning rivojlanishi, erkin raqobat bevosita ishchining o'z mehnati natijalaridan manfaatdor bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu sivilizatsiya uning iqtisodiy tuzumi mulkchilikning faqat bir shakliga asoslangan tushunchasidan xoli bo'lish kerak. Iqtisodiyot hamma vaqt ko'p ukladli, unda o'zaro bog'langan hukmron mulkchilikning yetakchi shakli o'tmishda va tug'ila-yotgan kelajak ukladlar unsurlari «birinchi skripka» rolini o'ynovchi hamma vaqt ham mukammal bo'lgan orkestr bilan aralash bo'ladi.

Keyingi qavatdagi ijtimoiy-siyosiy tuzumda yana turli xil shakllar kuzatiladi. Sivilizatsiyaning yetuk fazasidagi nisbiy ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlik o'tish davrida keskin ijtimoiy-siyosiy va harbiy qarama-qarshiliklar bilan almashadi. Chunki iste'mol jamg'armasi qisqaradi. Ko'pgina oilalarning tirikchilik sharoiti yomonlashadi. Aholining soni kamayadi (tug'ilishning kamayishi, kasalliklar, urushlar), turmush darajasi pasayadi. Inqiloblar, terror, talonchilik orqali boylikni kuch bilan taqsimlashga urinish kuchayadi. Bu hol to'plangan boylikdan voz kechishni istamagan mulkdorlarning keskin qarshiligiga uchraydi.

Davlatlar o'rtasidagi fuqarolik urushlari – turli ijtimoiy-siyosiy, milliy, diniy kuchlarning qarama-qarshiligi o'z navbatida ishlab chiqarishga salbiy ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish kuchlarini yemiradi, jamiyatni orqaga uloqtiradi va madaniy me'rosning bir qismini yo'qotishga olib keladi. Imperiyalar, federatsiyalar, ittifoqlar parchalanadi.

Davlat va huquq o'z kuchining sezilarli qismini yo'qotadi. Jinoyatchilik o'sadi. Korrupsiya davlat apparatini yemiradi. Mamlakat uchun og'ir bo'lgan boshqa bir necha marta yo'qotishlardan keyin lokal sivilizatsiyalarning o'z hayot siklini tugatib yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Lekin ko'pincha iqtisodiy yuksalishning yangi ufqlariga chiqib olish siyosiy va davlat tuzumini tartibga soladi. Bu jarayon o'z mulki va uni ko'paytirish usullarini himoya qilinishiga muhtoj bo'lgan yangi mulkdorlarning manfaatlariga mos keladi. Tuzum turli xil huquqiy shakllarda – demokratiyadan monarxiyagacha yoki tiraniya (ochiq diktatura) bo'lishi mumkin. Lekin har qanday sharoitda ham u ijtimoiy-siyosiy tartibni yangi sivilizatsiya shakllanishi va barqaror yashashi uchun qo'llab-quvvatlaydi.

O'matilgan iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tuzum piramidaning cho'qqisida ozini mafkuraviy qo'llab-quvvatlashni taminlab ozini oqlash va ozi-

ning yashashi hayotiy ehtiyoj ekanligiga ma'naviy ishontirishga erishadi. Turli soha olimlari g'olib bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tuzumni ob'ektiv zarurligi, adolatli va abadiy ekanligini isbotlashga harakat qiladilar.

Mafkurachilar va din arboblari uni qo'llab-quvvatlaydilar. Hukmron axloqiy normalar yangi jamiyatning qadriyatlariga moslashadi. Ta'lim tizimi keyingi avlodlarga bu jamiyatning qadriyatlarini uzatishga yordam beradi.

3. Yangi sivilizatsiyaga o'tish davrining mazmuni, bosqichlari va yakunlari. Bu davrning mazmuni jamiyat tuzilmasi barcha qavatlarining fundamental asoslarida yetilgan o'zgarishlar, progressni sekinlashtiradigan, umrini o'tab bo'lgan, o'layotgan sivilizatsiyaning unsurlari (tarixiy meros bo'lib qoladigan, insoniyat ma'naviyatini boyitadigan qadriyatlarini saqlab qolgan holda)ni siqib chiqarish yoki buzib tashlash va azoblar bilan izlanishlar, xatolar tug'ilish va yangi sivilizatsiyaning asosi tarixiy progress spiralining keyingi bo'g'ini bo'ladi. Bu davrda ikki tarixiy qatlarning «to'qnashuvi»da to's-to'polon, buzg'unchi kuchlar kuchayadi. Ijtimoiy qarama-qarshiliklarning barcha ko'rinishlari keskinlashadi. Tushkunliklarning butun zanjirida inqiloblar, urushlar, boshqa qarama-qarshiliklar rivojlanadi. Salbiy demografik an'analar (tug'ilish sur'atining kamayishi, aholi sonining mutloq kamayishi, migratsiya to'liqlari, qochoqlar) yuz beradi. Ishsizlik keskin o'sadi. Qashshoqlik, jinoyatchilik, aholining bir qismini degradatsiyasi kuchayadi. Bu og'ir kasallik ba'zida u yoki bu lokal sivilizatsiya yoki davlat birlashmasining to'la halokatiga sabab bo'ladi.


4. Sivilizatsiyalarning almashuvi vaqtida o'tish davrining bosqichlari qanday bo'ladi? Bunda tushkunlik bosqichlariga o'xshash to'rt davrni ko'rsatish mumkin: Birinchi bosqich – sivilizatsiyalar almashuvi shart-sharoitlarining to'planishi latent (yashirin) davri: keksayish, eskirgan jamiyatning samaradorligini pasayishi, jamiyatning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga qobiliyatsizlik, yangiliklarni qabul qila olmaslik kabilar. Shu jarayonda ko'tariladigan bo'ronning xabari keladi, lekin uni ko'plar ilg'amaydi. Jamiyat barqaror tartibga solingan, yetakchi sivilizatsiya tizimi hozircha normada ishlab turibdi. Lekin uning bag'rida kelajak sivilizatsiyaning urug'lari yetilmoqda. Hali u zaif bo'lsada, yorug'likka chiqishga dadil intiladi.

Qachonki, qarama-qarshiliklar kritik nuqtaga yetganda, qarigan mexanizmlar ularni hal qila olmasligi aniq bo'ladi. To'la tushkunlik bosqichi boshlanadi. Odatda undan o'tish davrining hisobi olib boriladi. Jamiyat piramidasining barcha qavatlarida alg'ov-dalg'ovlik kuchayadi. Noaniqlik, harakatning tartibsizligi keskin o'sadi. Tushkunlik ketidan tushkunlik, halokat orqasidan halokat boradi. Ziddiyatlarni tashqi manbalar orqali yechishga urinish, boylklarni qayta taqsimlash inqilob va urushlarga olib keladi. Tushkunlikdan chiqish uchun jamiyat ijtimoiy fikri izlanishlarga tushadi. Tushkinlikdan chiqish uchun ziddiyatli dasturlar paydo bo'ladi. Iqtisodiyot tushkunlikka tushadi, ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashadi. Mavjud siyosiy partiyalar, davlat hokimiyati jamiyat oldida obro'-e'tiborini yo'qotadi.

Ma'naviyat dunyosi – fan, madaniyat, axloq, ta'lim og'ir yo'qotishlarga uchraydi. Lekin bu tashqi tartibsizlik orqasida keyingi sivilizatsiyaning kurtaklari asta-sekin o'sib boradi. Ularning kelajak uchun kurashi, integratsiyasi yuz beradi. Yangi ijtimoiy kuchlar yuzaga keladi. Ular hozircha biror-bir keng qamrovli, yaratuvchi ishlarni bajara olmaydilar. Mamlakatda jamoat arboblari – yangi liderlar maydonga chiqadilar va kurashlarda chiniqadilar. Ular kelajak jamiyatning potensial yadrosini shakllantiradilar.

O'tish davrining uchinchi bosqichi yangi va eski dunyoning vaqtinchalik kuchlar tengligiga nisbatan qisqa vaqti lahzasi deyish mumkin. Bu iqtisodiy sikl dinamikasidagi depressiya fazasi (ham turg'unlik yo'q, biroq iqtisodiy o'sish ham yo'q, sog'ayish jarayoni hali boshlanmadi), ijtimoiy kuchlarni qayta qurish, eski tuzumni yo'qotishi aniqligi va yangisiga o'tish muqarrarligi, jamiyatni anglashidir. Uning unsurlari tanaffusdan foydalanib, birlashib hal qiluvchi olishuvga tayyorlanadilar.

To'rtinchi o'tish davrining tugallovchi bosqichi yangi jamiyatning kuchga to'lib borayotgan unsurlarining jadal bostirib kelishi bilan ifodalanadi. O'layotgan sivilizatsiya unsurlarining to'la yengilishi (albatta qarshi hujumga o'tish ehtimollari yo'q emas). Bu davrda asta-sekin tartibsizlik kamayadi va tartibga tushish, jamiyat dinamikasida aniq kelajak o'sib boradi. Iqtisodiyotning o'sishi boshlanadi. Bu ko'p resurslarni shaxsiy iste'mol uchun ajratish va jamg'arish, jamiyat texnologik bazasini takror qurish imkoniyatini beradi. Yangidan barqarorlashtirish mexanizmlari kuchga kiradi. Huquq-tartibot o'rnatiladi.



4-tasvir

O'tish davri bosqichlarining chizmasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

O'tish davrining yakunlari qanday? Birinchidan, tarixiy spiralning yangi o'ramiga o'tish yakunlanadi. Yangi jahon sivilizatsiyasi shakllanadi. Jamiyat o'zining siklik dinamikasida va taraqqiyotning o'zgarigan sharoitlarida ko'p miqdorga javob beradigan yangi qiyofani oladi. Me'rosiy genotipni eskirgan unsurlardan «tozalash», uni o'tish davrida qat'iy tanlov va har tomonlama sinovdan o'tgan yangilari bilan boyitish amalga oshiriladi. Yangilanish sivilizatsiya piramidasining barcha qavatlarini qamrab oladi.

Ikkinchidan, takror ishlab chiqarishning samaradorligi, yangilangan ishlab chiqarish bazasi, yangi texnologik asosda aholining ko'pchiligini turmush darajasini ko'tarish uchun shart-sharoitlar qayta yaratiladi. Jamiyat yana to'la kuchga ega va kelajakka intiladi.

Uchinchidan, texnologik taraqqiyot va iqtisodiyotda yetakchilar almashdi, yangi ustuvor sohalar paydo bo'ldi va o'rnashdi. Siyosiy sahada tarixiy progressning episentri – ko'chib o'rnashdi, eski lokal sivilizatsiyalar va yetakchi mamlakatlar chetga surildi yoki o'tmish merosi yuki ostida qolmaganlar tezlik bilan dunyodagi o'zgarishlarga moslashdilar.

To'rtinchidan, ma'naviy dunyoning taraqqiyotida yangi bosqich boshlanadi. Insonning erkinlik darajasi va manfaatdorligi oshadi.

Beshinchidan, yangidan mamlakat va dunyoda integratsiya va markazga intilish an`analari kuchayadi. O`ziga tortuvchi yangi markazlar shakllanadi. Iqtisodiy, texnologik, siyosiy, madaniy aloqalar ko`payadi.

O`tish davrining tugallanishi yangi sivilizatsiyaning o`rnatilishi va tarqalishi uchun kenglik ochadi. Uning to`lqinlari dunyo mamlakatlarini qamrab olib, eski sivilizatsiyaning chetda saqlanib qolgan qoldiqlarini ham o`z ta`siriga bo`ysundiradi. Sivilizatsiyalar almashuvi mexanizmlari va mazmunini ochib beradigan umumiy abstrakt chizma ana shundaydir.

Tayanch iboralar: sikl, trayektoriya, faza, Xett, Misr, texnologik tizimlar, ukhad, konsepsiyalar, potensial yadro, depressiya fazasi, elita, militarizm, texnologik baza, texnologik tushkunlik, intellektual sektorlar, progress omili, federatsiya, mafkura, latent bosqich, genotip.

Takrorlash uchun savollar:

- 1. Jahon sivilizatsiyalari almashuvi qanday sodir bo`ladi?*
- 2. Jamiyatning bir tarixiy bosqichdan boshqasiga o`tishining birinchi manbai nima?*
- 3. Dunyo sivilizatsiyalar almashuvi mexanizmini tavsiflang?*
- 4. Jahon sivilizatsiyalari almashuvining o`tish davri bosqichlari va mazmunini ochib bering?*
- 5. O`tish davri nima bilan tugallanadi? Uning yakunlari qanday?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. Sivilizatsiyalarning tushkunlik bosqichlari.
2. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari.
3. XIX asr Yevropa va Amerika sivilizatsiyasi.
4. O`tish davri sivilizatsiyasi.

3-MAVZU: TARIXIY PROGRESSNING SPIRAL O'RAMLARI

1. Insoniyat tarixining hisobi qaysi lahzadan boshlanadi? 2. XX asr oxirida jamiyatning yangi supersiklga o'tish bosqichi.

1. Insoniyat tarixining hisobi qaysi lahzadan boshlanadi? Fanda tarixiy supersikl deb ataladigan ming yillik sikl tushunchasi kiritildi. Supersikl qarindosh sivilizatsiyalarning umumiy chuqur asoslariga ega bo'lgan ko'p asrlik sikllarni birlashtiradi. Sanoatning boshlanish nuqtasi sifatida neolit inqilobi qabul qilindi. Birinchi supersikl neolit, ilk sinfiy va antik sivilizatsiyalarni insoniyat jamiyatining shakllanishini birinchi uch bosqichini qamrab oladi (7-8 ming yil). Ikkinchi supersikl eramizning bir ming yilligi o'rtalaridan boshlanib, 1,5 yarim ming yil davom etadi. U o'rta asrlar industriya arafasi (ilk kapitalistik) va industrial sivilizatsiyalarni qamrab oladi. Bu industrial sivilizatsiyaning paydo bo'lishi, shakllanishi va tantana qilish davri edi.

XX asr oxiridan keyingi supersiklga o'tish davri boshlandi. Bu navbatdagi sivilizatsiya postindustrial sivilizatsiyani va undan keyin keladigan sivilizatsiyalarni (uch ko'p asrlik tarixiy siklni) qamrab oladi va 500 yil davom etadi. Agarda qandaydir fojeali tasodif bo'lmasa (termoyadro urushi, tabiat halokati va shunga o'xshash), u shu muddatda mavjud bo'ladi.

XIX asr boshlarida antik jamiyat, qulchilikka o'rta asrlar qaram dehqonlarga yoki feodal, yangi davr industrial kapitalistikka asoslangan deb qaraldi. Ana shu davrlashtirish asosida jamiyatning ma'lum bir bosqichli xili paydo bo'ldi. Bir-birini bosqichma-bosqich almashtirgan jamiyat oldinga harakatlanayotgan insoniyatning tarixiy taraqqiyoti deb qaraladi.

Insoniyat tarixining hisobi qaysi lahzadan boshlanadi? Bu savolga turli javoblar beriladi. Odatda jamiyat tarixi hozirgi odamning ajdodi tosh qurolni tayyorlay boshlagan bundan 1,5-2 mln yil oldin boshlangan paleolitdan boshlab o'rganiladi. Ba'zi olimlar tarixni qadimgi tosh davri oxiridan taxminan 40 ming yil avval «aqli odam» paydo bo'lishi-

dan boshlaydilar. Bu «odam» urug'i evolyutsiyasida ulkan to'ntarish edi. Lekin birinchi 30 ming yillikda ibtidoiy odam mehnat faoliyati bilan shug'ullansada, tabiatga qaram holda yashadi. Tirikchilik vositasini ishlab chiqara olmadi. «Aqlli odam mehnat qilishni bildi va buning uchun eng oddiy qurollarni ishlab chiqarishni meros qilib oldi. Lekin qadimgi tosh davrining so'nggidan u yana uzoq o'zining tarixini o'ttiz ming yilida hali yana... tabiat ne'matlarini o'zlari ishlab chiqargan qurol yordamida o'zi uchun oldi, lekin uning mevalarini yangidan qayta ishlab chiqarmadi...» Inson termachilik, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullandi. (24.T.1K.31).

Bu davrni insoniyat tarixining boshlanishi deyish mumkinmi? Markscha tarix metodologiyasida jamiyat tarixi mazmunini sinfiy kurash tashkil etadi degan tushuncha mavjud edi. Bu taxminan 5-6 ming yil oldin va hukmron sinf irodasini ifodalaydigan davlatning paydo bo'lishidan tarix hisobi boshlanadi degan fikr ham bor.

Karl Yaspers bizga ma'lum tarixiy manbalarning ma'lumotlari asosida tarixgacha bo'lgan davr deb taxminan 5000 yilni ajratadi. Qachonki birdaniga bir vaqtning o'zida uch hududda Misr va Shumer-Bobil madaniyati mil. avv. IV ming yillikda, Egey, hind madaniyati mil.avv.III ming yillikda shakllanadi.

K.Yaspers sivilizatsiya tushunchasi ostida sinflar, davlat va huquqni faraz qiladi. Lekin bu bilan tarixdan oldin o'tgan 4 ming yillik davr chiqarib tashlanadi. Ayrim olimlar, jamiyat tarixini neolit sivilizatsiyasini boshlab bergan neolit inqilobidan hisoblash kerak deb hisoblaydilar. Undan oldin o'tish davri-mezolit davri. Demak, o'tish davrisiz jamiyat tarixi o'n ming yilni o'z ichiga oladi. Bu yerning geologik tarixida ko'z ilg'amas lahza, lekin insoniyat o'tgan ulkan tub o'zgarishlarga boy yo'ldir. Yer sivilizatsiyasini neolitdan boshlanishi quyidagi omillar bilan asoslanadi:

Birinchidan, tirikchilikning sun'iy vositalarini takror ishlab chiqarishga o'tish, tabiatdan tabiiy xomashyo va energiyani birlamchi ko'rishda o'zlashtirish asosida insonning maqsadli faoliyati natijasida «ikkinchi tabiatning» yaratilishi, insonning o'zidagi sifat sakrashi asosidagina amalga oshirilishi mumkin edi. Inson o'zining ona tabiat bilan

bog'lab turgan kindigini batamom uzdi. Odam buni yakka o'zi emas, qadimgi jamiyatning tarkibiy unsurlari, urug' jamoalari va jamoalarning o'zaro faoliyati bilan amalga oshirdi. Bu bilan jamiyat piramidasi-dagi birinchi qavat shakllanadi. Insonning ehtiyojlar doirasi, qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalari, qiziqishlari jamiyatning bir qismi sifatida paydo bo'ladi.

Ikkinchidan, bu davrda jamiyatning tabiiy (jins, yosh) asosiga emas, balki ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslangan texnologik bazasi shakllandi. Ijtimoiy takror ishlab chiqarish (ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish) bo'linmalarining mavjudligi, dehqonchilik-chorvachilik, hunarmandchilik va qurilishning ajralib chiqishi to'g'risida gapirish mumkin. Mehnatning ijtimoiy taqsimoti ishchining ko'nikma-malakasini shakllantirish uchun asos bo'lib, mehnat quollarining ixtisoslashuvi uning mehnat unumdorligining yuqoriligi uchun asos bo'ldi.

Uchinchidan, ishlab chiqarishning iqtisodiy usulini aks ettiradigan qavat «xona»lari to'la boshladi. Yer va podaga jamoa mulkchiligi, ko'pgina mehnat quollariga shaxsiy mulkchilik haqiqatga aylandi. Ayirboshlash dastlab natural bo'lib, bu ayirboshlash natijasida lokal bozorlar paydo bo'ldi.

To'rtinchidan, iqtisodiy belgilar bo'yicha ijtimoiy tabaqalanish rivojlandi. Asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadigan jamoa va oila shakllandi; charm va kulolchilik mahsulotlari hamda mehnat quollari tayyorlaydigan mohir ustalar, quruvchilar ajralib chiqdi. Lekin davlat va huquq hali ajralib chiqmadi.

Bechinchidan, inson va jamiyatning ma'naviy dunyosi bo'lgan piramidaning qavati amaldagi mazmun bilan boyidi. To'plangan bilimlar va ko'nikmalarni avloddan avlodga uzatmasdan turib, yillik yoki ko'p yillik sikllar bilan bog'langan dehqonchilik va chorvachilikdagi qayta ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish mumkin emas edi. Bu davrda ma'lum darajada san'at, murakkab ichki oilaviy, jamoa ichidagi va jamoalar o'rtasidagi munosabatlar rivojlandi.

Boshlanish nuqtasini aniqlab, jamiyat tarixining asosiy davrlari, tarixiy progress spiral o'ramlari, jahon sivilizatsiyalari almashuvini umumiy qiyofada tasavvur qilamiz. (1-jadval)

Jahon sivilizatsiyalarining xronologik doirasi

Jahon sivilizatsiyalari	O'tish davri	Shakllanish	Yetuklik	Tushkunlik	Asrlarning umumiy uzunligi	Jadallashish koeffitsienti
Neolit	Er. avv. 10-8 ming yillik (mezolit) 25-28	Er. avv. 8-7 ming yillik 12-15	Er. avv. 6 ming yillik 10-12	Er. avv. 5 ming yillik 8-10	30-37 55-65	
Ilk sinfiy	Er. avv. 4 ming yillik (neolit) 9-10	Er. avv. 3 ming yillik 8-9	Er. avv. 2 ming yillik 7-8	Er. avv. 2 ming yillik yarmi 5-6	20-23 29-33	1,6 1,9
Antik	Er. avv. XII-IX asrlar 4	Er. avv. VIII-V asr 4	Er. avv. IV-er I asr 5	II asr o'rtalari V asr o'rtalari 3,5	12,5 16,5	1,7 1,9
O'rti asrlar	V asr o'rtalari VIII asr 3,5	IX-XI asr 2,5	XII asr o'rtalari XIII asr o'rtalari 2,0	XIII asr o'rtalari XIV asr o'rtalari 1,0	5,5 9,0	2,3 1,8
Industriya arafasi	XIV asr o'rtalari XV asr o'rtalari 1,0	XV asr o'rtalari XVI asr o'rtalari 1,0	XVI asr o'rtalari XVII asr o'rtalari 1,0	XVII asr o'rtalari 1730-yil 0,8	2,8 3,8	2,0 2,4
Industrial	1731-1789 yy. 0,6	1790-1850 yy. 0,6	1851-1913 yy. 0,6	914-1972 yy. 0,6	1,8 2,4	1,5 1,5
Postindustrial	1973-2020 yy. 0,5	2021-2060 yy. 0,4	2061-2100 yy. 0,4	2101-2130 yy. 0,3	1,2 1,6	1,5 1,5

1 Yuqori grafa - tug'ilishsiz o'tish davri va qoldiq fazalar; quyi grafa - o'tish davri ham kiradi.
2 oldin o'tgan sivilizatsiyaning keyingisiga munosabati.

Birinchi jadvalda yettita dunyo sivilizatsiyalari ajratilgan. Ulardan uchta birinchisi: neolit, ilk sinfiy va antik sivilizatsiyalar-jamiyatning shakllanishi, uning bolaligi va o'smirligini aks ettiradi. Uni tarixiy supersiklga birlashtirilish mumkin. Olim Yakovetsning fikricha, bu tarixiy davrning cho'qqisi ma'naviyat-madaniyatning gullab-yashnagan davri bolgan antik bosqichdir. Keyingi uch sivilizatsiyalarni-o'rta asrlar, industriya arafasi va industrial-jamiyatning yetuklik bosqichi deb shartli aytish mumkin. Ular asta-sekin butun yer sharini qamrab oldi. Qudratli texnologik bazani shakllantirdi. Bozor munosabatlariga asoslangan ko'p ukladli iqtisodiyot, demokratik ijtimoiy-siyosiy tuzumni yaratdi. Atrof dunyoni bilish va o'zlashtirishda, ma'naviy muhitni rivojlantirishda yuqori marralarni egalladi va biosferaga (ijobiy va salbiy) ta'sir qilish darajasi bilan tabiat kuchlari bilan tenglashdi. Noosferaning negativ variantini realizatsiya qilishda faqat insoniyatni emas, balki yerdagi barcha tirik mavjudotni halokat yoqasiga keltirib qo'ydi.

2. XX asr oxirida jamiyatning yangi supersiklga o'tish bosqichi. Supersiklning birinchi bosqichi postindustrial (industriyadan keyingi) sivilizatsiya bo'ladi. Bu insoniyat jamiyatining gullab-yashnagan davri bo'ladimi, jamoa donoligi, qaysiki, aqlning qudrati va moddiy ifodasini insoniyatning barkamol rivojlanishi uchun va noosferaning pozetik variantini shakllantirishga ishlata oladimi yoki insoniyat jamiyatining hayotiy sikli, keksayish fazasini ifodalaydigan bir necha sivilizatsiyalarni (vaqt bo'yicha yanada qisqa) qamrab oladigan uzoq davr boshlanadimi buni kelajak ko'rsatadi.

Birinchi jadval ma'lumotlari tarixiy ritmlarning miqdor tavsifini aniqlashga yordam beradi. Har bir keyingi sivilizatsiyaning (o'tish davrisiz) davomiyligini qisqarish an'anasi aniq ko'rinadi: neolit sivilizatsiyasi uchun 30-37 yuz yillik, industrial sivilizatsiya uchun 1,8 yuz yillik, postindustrial sivilizatsiya uchun 1,2 yuz yillikgacha. Tezlik sur'ati o'rta asrlar va industriya arafasi sivilizatsiyalari uchun eng yuqori bo'ldi, keyin u sekinlasha boshladi. Birinchi bosqich (mezon)da eng uzoq o'tish davri, keyin u tez qisqaradi va har bir sivilizatsiyaning hayot siklida yanada kichik hajmi (neolit uchun 44 %, industrial uchun 25 %) egallaydi. Lekin yangi supersiklga o'tishda o'tish davri nisbatan yana o'sadi. Lekin yangi supersiklga o'tishda o'tish davrining uzunligi yana nisbatan o'sadi. Buni sivilizatsiyalar hayotiy sikllarining uzunligi bo'yicha o'tish davrining tutgan hajmini ifodalaydigan quyidagi raqamlar bo'yicha fikrlash mumkin:

Sivilizatsiyalar 1 2 3 4 5 6 7

O'tish davrining tutgan o'rni 44 31 24 39 26 25 31

Tarixiy progressning episentrlari bo'yicha belgilanadigan jahon sivilizatsiyalarining almashuvi insoniyat jamiyati taraqqiyotining izchil bosqichlarini ifodalaydi. Lekin bu episentrlar davriy ko'chib turadi. U asosan supersikllarning almashuvi davrida, birinchi uch sivilizatsiyalar uchun progress episentri O'rtayer dengizi havzasi, Yaqin va Uzoq Sharq (Misr, Mesopotamiya, Hindiston)da joylashdi. Bu davrda dunyo sivilizatsiyalarining politsentrizmi, bir qator lokal sivilizatsiyalarining shakllanganini aytish mumkin. Keyingi uch sivilizatsiya tarixiy progressning Sharqdan (Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo, Yaqin Sharq) G'arb-Yevropaga, keyin Shimoliy Amerikaga siljishi bilan tavsiflanadi. Yangi supersikl episentrlning Sharq-Osiyo-Tinch okeani havzasi (Yaponiya, yangi industrial mamlakatlar AQSh, Xitoy)ga siljishi an'anasi ko'rinadi.

Lekin lokal sivilizatsiyalar o'zining umumdunyo ritmidan farq qilgan o'z ritmiga ega. U turli vaqtda (ming yillik oraliqda) paydo bo'ladi, ularning ba'zilar halok bo'ladi. Aralash lokal sivilizatsiyalar o'z dinamikasida bir-biriga mos bo'ladi. Shuning uchun ularni bir necha guruhga ajratish mumkin:

1. O'rtayer dengizi – Yaqin Sharq guruhi. Bu hududda birinchi lokal sivilizatsiyalar (Misr, Mesopotamiya, Suriya va Falastin, Kichik Osiyo, Yunoniston, Italiya) paydo bo'ldi va gullab-yashnadi. Ikkinchi supersiklda bu hudud (Italiyadan tashqari) tarixiy progress bosh sahnasidan ikkinchi eshelonga tushib ketdi. Qisman Misr, Yaqin Sharq mamlakatlari oldinga chiqib olgan Yevropa mamlakatlarining mustamlakachilik ekspansiyasiga uchradi.

2. Lokal sivilizatsiyalarning Osiyo guruhi (Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Eron, O'rta Osiyo). Bu yerda dunyo sivilizatsiyalarining almashuvi oldingi guruh bilan deyarli bir vaqtda boshlanadi. Ikkinchi supersikl boshida bu yerga jahon progressining episentri ko'chdi. Keyin ayniqsa industrial jamiyat davrida stagnatsiya (turg'unlik) kuzatiladi. Tarixiy progressning borishi mustamlakachilik sharoitida uzilib qoldi. Postindustrial sivilizatsiya boshlanishi bilan bu hududning bir qancha mamlakatlarda tarixiy progress episentriga kirish belgilari kuzatiladi.

3. Ga'rbiy Yevropa hududi (uning janubiy qismidan tashqari) o'z tarixiy yo'lini O'rtayer dengiziga qaraganda, kechikib boshladi. Ikkinchi supersikldan (industrial sivilizatsiya arafasi) bu hudud dunyoning katta

qismini bo'ysundirib oldinga chiqdi (Ispaniya, Britaniya, Fransiya mustamlaka imperiyalari). Lekin industrial davr oxirida G'arb sivilizatsiyasi o'zining yetakchilik mavqeyini ko'p hollarda yo'qotdi.

4. Amerika sivilizatsiyalari materiklardan (Shimoliy va Janubiy Amerika) ajralib qolgani uchun alohida yo'l bilan rivojlandi. Yevropalik mustamlakachilar Amerikaning qadimgi sivilizatsiyalarini yo'q qildilar. Bu yerda yangi G'arbiy Yevropa sivilizatsiyalariga xos bo'lgan lokal sivilizatsiyalar paydo bo'ldi, lekin u tezda mustaqil ritm tusini oldi. XX asrda AQSh jahon yetakchi mamlakatlar qatoriga kirdi. Asr oxirida so-biq SSSR boshchiligida sotsialistik dunyo yo'q bo'lib ketganidan keyin, uning tashqi siyosatida dunyo miqyosida rahbarlik vazifasini o'tashga urinish boshlandi. Janubiy va Markaziy Amerikada taraqqiyot mustamlakachilik hukmronligi tufayli to'xtab qoldi. Lekin XX asr oxirida tarixiy jarayonning jadallashuvi uni episentrga yaqinlashuv belgilari ko'rindi. Ayniqsa, Braziliya va Argentina kabi mamlakatlarning jahon siyosatida nufuzi ortdi.

5. Afrika sivilizatsiyalari (Shimoliy Afrika bundan mustasno, chunki u O'rtayer dengizi sivilizatsiyasiga kiradi) tarixning birinchi bosqichlarida o'ziga xos an'anaviy yo'nalishda yashadi va bir qator davrlarda Yevropaning yetakchi davlatlariga mustamlaka bo'lib qoldilar. Hozirgi vaqtda ham Markaziy Afrika mamlakatlari nochor ahvolda, faqat Janubiy Afrika progress episentriga yaqin. Lekin bu bepoyon hududning rivojlanishi uchun shart-sharoit mavjud.

Insoniyat tarixini o'zaro bir-biriga bog'langan spirallarning tuguni sifatida tasavvur qilish mumkin. Umumtarixiy spirallarning eng katta o'ramlari supersikllarda berilgan. Ular hozircha ozgina, bor-yo'g'i 2 ta, uchinchisi endi boshlanadi. N.D.Kondratev katta sikllar nazariyasi, ikki yarim sikllarni matematik ishlash va mantiqiy fikrlash asosida yaratdi. Olim O.Toflter o'n ming yillik (XX asr oxirida uchinchi to'lqin boshlanishi bilan)dagi tarixiy progressning uch o'rami to'g'risida xulosaga keldi.

Supersikllarga jahon sivilizatsiyalari spirallarining o'ramlari beriladi. Bu yerda siklik dinamikaning qonuniyatlari to'g'risidagi umumlashtirish va xulosalar uchun tarixiy ma'lumotlar oldingi voqelikdan ko'ra ko'p. Har bir supersikl uch sivilizatsiya siklini birlashtiradi. Ularning umumiy soni – 7 ta (yettinchi faqat boshlanmoqda). Tarixiy jarayonning sur'atlarini jadallashish an'anasi ko'rinadi. Har bir sivilizatsiyaning ichki tuzilishi, uni tug'ilishining bosqichlari (fazalari) shakllanishi, gullab-

yashnashi (yetuklik), keksayish, yana bir necha tarixiy vaqtlarda qoldiq, eski holatda turish – so‘nish aniq kuzatiladi.

Har bir jahon sivilizatsiyasi genetik ildiz, taqdirleri bilan yaqin bo‘lgan etnoslar, xalqlar guruhlarining tarixiy ritmlarini ifodalaydigan lokal sivilizatsiyalar dinamikasida iz qoldiradi. Har bir lokal sivilizatsiya o‘zining uzunligi va siklik dinamikasining husnixatiga ega. Shuning uchun, turli xalqlarga mansub bo‘lgan tarixchilarning umumtarixiy qonuniyatlarga yondashuvi bir xil emas va qarama-qarshidir. Ular tarixiy voqealarning shiddatli oqimiga turli qirg‘oq va orollardan, turli xil nuqtayi nazardan qaraydilar. Bu tarixiy progressning ko‘p o‘lchovligi nisbiylikni tushunishga, lekin uning umumiy qonuniyatlarini inkor qilmaslikka yordam beradi.

Tayanch iboralar: tosh davri, «aqli odam», termachilik, ovchilik, baliqchilik, mehnat qurollarini takror ishlab chiqarish, ilk sinfiy, super-sikl, tarixiy progress, Xitoy, Hindiston, O‘rta Osiyo, Yaqin Sharq, aralash lokal sivilizatsiyalar, Afrika sivilizatsiyalari, Amerika sivilizatsiyalari, Karl Yaspers, N.D.Kondratyev, postindustrial sivilizatsiya, iqtisodiy belgilar, tarixiy progress, Uzoq Sharq.

Takrorlash uchun savollar:

1. *Insoniyat sivilizatsiyasi qaysi lahzalardan boshlanishini asoslang.*
2. *Bir-birini almashtiradigan jahon sivilizatsiyalarini xronologik chegaralarini ko‘rsating?*
3. *Lokal sivilizatsiyalarning asosiy guruhlarini qanday ajratish mumkin?*
4. *Tarixiy jarayonlar va sivilizatsiyalarga nima uchun tarixchilar turlicha yondashadilar?*
5. *Jahon va lokal sivilizatsiyalar dinamikasidagi o‘zaro harakat qanday?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. N.D.Kondratyevning katta sikllar nazariyasi.
2. Olim O. Toffler konsepsiyasi.
3. Tarixiy progressning episentrlari.
4. Lokal sivilizatsiyalar almashinuvi mexanizmi.

II BOB. QADIMGI SIVILIZATSIYALAR

I MAVZU: QADIMGI SIVILIZATSIYALAR TARIXINI DAVRLASHTIRISH

1. Insoniyat jamiyati arafasi. 2. O'tish davri: Mezolit. 3. Neolit sivilizatsiyasi. 4. Bronza sivilizatsiyasi. 5. Temir asri sivilizatsiyasi (Antik sivilizatsiya). 6. O'rta Osiyo sivilizatsiyasi. 7. Yaponiya va Amerikaning qadimgi sivilizatsiyalari.

I. Insoniyat jamiyati arafasi. Jamiyat tarixining boshlanishi va eng uzoq davri agar hisob mezolitdan boshlansa – 10 ming yildan ko'proq vaqt (tarixiy vaqtning 4/5 qismi) neolit, ilk sinfiy jamiyat va antik sivilizatsiyalarni o'z ichiga oladi. Undan oldin insoniyat jamiyati arafasi

Homo Sapiens (arxeologik turkumlash bo'yicha o'z o'tmishdoshi neandertalni siqib chiqargan kromanon) zamonaviy qiyofadagi odamning kirib kelishidan boshlanadi.

Neandertallar bundan 300 ming yil oldin paydo bo'lgan tur bo'lib, ular Osiyo va Yevropaning bepoyon hududlarida ovchilik va terimchilik qilib kechib yurganlar. Ular past bo'yli, yelkalar keng bo'lib, sal bukchayib yurganlar. Neandertallarning jag'i oldinga turtib chiqqan. Iqlimning noqulayligi tufayli zo'rg'a 30 yoshgacha umr kechirganlar.

Neandertallar tafakkur qobiliyatiga ega bo'lib, ov va terimchilik uchun qurollar yasay olganlar. Ularning fransiyadagi Levalluar hududidan topilgan tosh mehnat qurollariga ko'ra mehnat qurollarini yasash usuli levalluar texnologiyasi deb nomlanadi. Ular aniq zarba berish yo'li bilan toshni ushatib universal qurol yasash malakasiga ega bo'lganlar. Olimlar bundan 250 ming yil oldin tayyorlangan tosh qurolni topdilar. Bu tosh uchlik yog'och nayza edi. Bu qurol tadqiq qilinganda neandertallar yog'och nayzaga tosh uchlikni hayvon payi yoki hayvon terisidan qo'yish bilan bog'laganlar. Bundan tashqari tosh uchlikni nayza sopiga qayin daraxti yelimi bilan yopishtirganlar. Olimlar neandertallarning qayin daraxtidan yelim olish texnologiyasini rekonstruksiya qildilar. Neandertallar hayvon bosh chanog'i ustiga qayin po'stlog'i o'ramini qo'yib, uni 400

gradus haroratda qizdirib yelim (qatron) mum olganlar va nayza uchini yog'ochga shu mum bilan yopishtirganlar. Bunday topilmalar Osiyo va Yevropaning ko'p hududlaridan topilgan.

XIX asrda fanda neandertallar rivojlanishning quyi qismida bo'lgan tur degan tushunchalar mavjud edi. Ammo keyingi tadqiqotlar buning aksini ko'rsatdi. Ular rivojlangan tafakkurga va tilga ega bo'lganlar. Ularda atrof-muhit va o'zlari to'g'risida tasavvur, tushunchalar bo'lgan. Osiyo va Yevropadan topilgan neandertal qoldiqlari ularda ilk diniy tasavvurlar shakllanganidan dalolat beradi. Qabrlarda tosh mehnat qurollari (O'zbekiston, Teshiktosh g'ori), chig'anoqlardan teshib qilingan munchoq (Ispaniya) topilgan. Dafn marosimlari shakllangan; Ispaniyada 10 ta neandertal qoldiqlari topilib, ulardan uchitasi ayol skeleti alohida qo'yilgan. Ayol skeleti yonida qoplon panjasi qo'yilgan. Hozirgi Amerika hindularida ham ayiq panjasini o'lja ramzi sifatida qabrga qo'yish rusumi mavjud. Neandertallar ramzlardan foydalanganlar. Ispaniyada topilgan neandertal qoldiqlari suyagidan yasalgan uchi o'tkir qurolida qizil rangli pigment, qizil mineral qoldig'i mavjud. O'rtayer dengizi qirg'oqlarida chig'anoqlardan neandertallar kosmetika maqsadida foydalanganlar. O'zlarini boshqalardan ajratish uchun ular badanlarini qizilga bo'yaganlar.

Bundan 40 yil oldin muzlikning yangi bosqichi boshlandi. Bundan 40 ming yil oldin Afrikadan Osiyo va Yevropaga homo sapiens kirib keldi. Ular neandertallarga qaraganda ancha rivojlangan edi. Homo sapiens keyingi 10 yil davomida neandertallar bilan kurashib Osiyo va Yevropani, keyin esa boshqa qit'alarini o'zlashtirdi. Neandertallar turi o'limga mahkum etilib, bundan 30 ming yil oldin to'la qirilib ketdi. Homo sapiens taraqqiyotda neandertallardan ustun turar edi.

Hozirgi zamon fani neandertallar genomini (genom – xromosomalar to'plami) DNK sini, uning 30 ming yil oldingi qoldiqlari bo'yicha tikladi. 4 yil davomida neandertal ayol skeleti DNKsi ustida tadqiqot olib borildi. Ayol skeleti DNKsi bilan har xil 5 etnik guruhning vakillarini DNKsi taqqoslandi. Tadqiqotlarda Osiyo va Yevropa etnik guruhlari neandertal DNKsini meros qilib olganlari aniqlandi. Afrikaliklarning DNKsi esa unga o'xshamaydi. Zamonaviy odamning DNKsida neandertallar DNKsi bir foizdan 4 foizgacha, xitoyliklarda neandertallar DNKsi kam miqdorda 2% ni, yevropaliklarda esa 4% ni tashkil etadi. Italiyaning Taskana viloyatidan topilgan neandertal qoldiqlari zamonaviy odam bi-

lan yaqin aloqada bo'lganini ko'rsatadi. Bundan 40 ming yil oldin muzlik davrida neandertallar bilan afrikadan kelgan zamonaviy odam uchrashdi va ular o'rtasida o'n ming yil davom etgan raqobat boshlandi. Bu raqobatda neandertallar mag'lub bo'ldilar. Ular genetik jihatdan yangi tur tomonidan yutib yuborildi. Neandertallar geni hozirgi odamga immunitetni berdi. Bu immunitet afrikaliklarda yo'q edi. Neandertallarning geni bizga o'tdi, ular hayotiy meros qoldirdilar.

Yuqori paleolit boshlanishi bilan Osiyo, Yevropa va Shimoliy Amerika hududlarining katta qismidan muzliklarning chekinishi natijasida zamonaviy odamlar o'tmishdoshlarining hayot kechirish sharoitlari o'zgardi, qaysiki, ular o'z evolyutsiyalarida 2 mln yil davomida bir necha bosqichlarni bosib o'tdilar. Bu davrda biosferaning rivojlanishida buyuk voqea yuz berdi: evolyutsiyaning cho'qqisi – kromanon odam paydo bo'ldi. Keyinchalik bu mavjudotga «aqli odam» faxriy unvonini berdilar. Uning biologik pasporti: tur-aqli odam (*Homo Sapiens*; ba'zida populyatsiya to'g'risida gapirganda *Homo Sapiens*, *Sapiens* deyishadi); – odam (*Homo*) 2 mln yil oldin odamsimon mavjudotlarning evolyutsiyasi natijasida shakllangan.

Sut emizuvchilar sinfi (*Mamalia*), yer sharida ularning hukmronligi 10 mln yil ilgari, avval yetakchi bo'lgan dinozavrlarning kosmik halokati yoki qandaydir evolyutsion falokatdan keyin boshlandi; Xordalilar tipi (*chordata*) ularning o'tmishi 100 mln yillarga cho'zilib ketadi.

Aqli odam yerda biologik evolyutsiya natijasida paydo bo'ldi. Uning asosiy nihoyasi o'ta murakkab, nozik, bilishning mukammal quroli bo'lgan odam miyasining shakllanishi edi. Har bir tirik jonzot o'zining sezish organlariga ega. U atrof-muhitda yuz beradigan o'zgarishlarni adaptatsiya qilishga yordam beradi (aks holda, undagi keskin o'zgarishlarda u yoki bu tur, hatto, urug' yo'q bo'lib ketadi). Faqat odam tabiatdan qabul qilingan axborotni takror ishlash in'omini oldi. Aqliy xulosa qilish, umumlashtirish, atrof-muhitga moslashish va uni o'zgartirish, uning alohida unsurlarini o'z ehtiyojlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo'ldi.

Zamonaviy odanning paydo bo'lishi, uning gavdasining tuzilishi va hayot tarzida boshqa o'zgarishlar ham yordam berdi: tik yurish; ovqatga o'simlik va hayvon mahsulotlarini ishlatish, bu ovqatni xilma – xil qildi, odamlarni halokatli vaziyatlarda tirik qolishiga yordam berdi; mehnat qurollaridan foydalanish boshda ibtidoiy, keyin yana murakkab olovni o'zlashtirish.

Yuzlab avlodlarning tajribalari asosida ijtimoiy hayotning qoidalari ishlab chiqildi. Jamiyatning birinchi bo‘g‘ini sifatida juft oila hamda urug‘ jamoasi (minimal-25, maksimal-200-500 odam) shakllandi. Oilalar o‘zlariga eng oddiy turarjoylar qurdilar yoki g‘orlarda joylashdilar. Vaqti-vaqti bilan jamoa hayvonlar podasining harakati orqasidan yurdi. Aholi zichligi juda oz bo‘lib, 50-100 km² ga biro dam to‘g‘ri kelar edi. Bu hozirgi Xorazm viloyati (yer maydoni 40 ming km²) yoki Daniya hududi (44 ming km²) da bor-yo‘g‘i ikki ming yoki bir ming kishi yashashi mumkin edi.

O‘rta va yuqori paleolit davomida ishlab chiqarish tashkiloti yuzaga keldi. Uning asosida yosh-jins taqsimoti va mehnatning oddiy kooperatsiyasi turar edi. Erkaklar ov – baliqchilik va mehnat qurollari tayyorlash bilan shug‘ullanar edilar. Bu esa hayvonlarni ov qilish imkoniyatlarini kengaytirar edi. Ayollar termachilik, ovqat tayyorlash, olovni saqlash, bola tarbiyasi bilan shug‘ullanar edilar.

Nutq so‘zlashning rivojlanishi muloqot qilish, to‘plangan tajriba va dastlabki bilimlarni uzatishga yordam berdi. Ibtidoiy san‘at paydo bo‘ldi. G‘orlar: Altamir g‘ori (Ispaniya), Lasko g‘ori (Fransiyada), Kapova g‘ori (Boshqirdiston), Zarautsoy g‘ori (O‘zbekiston), Sarmishsoy (O‘zbekiston) da hayvonlar, ov manzarasi tasvirlari saqlanib qolgan. Ibtidoiy diniy e‘tiqodlar: – totemizm, animizm, magiya, dafn marosimlari, bag‘ishlov marosimlari tarqaldi.

Oqibatda aqlli odam o‘zining o‘tmishdoshlariga qaraganda, nafaqat biologik, balki ma’lum ijtimoiy farqlarga ega edi: Uning nutq so‘zlashuv qobiliyati bo‘lib, Homoning o‘tib ketgan ajdodlariga qaraganda, anchagina rivojlangan ehtiyojlar va ko‘nikmalarga ega bo‘ldi; turli xil qurollarini tayyorlash va foydalanish; birlamchi hamkorlik va mehnatning yosh-jinsiy taqsimoti; oila va urug‘ jamoasi, ilk bilimlar, ibtidoiy san‘at, birgalikda yashash va animistik e‘tiqodlar. Mehnatning natijalarini o‘zlashtirish shakllari endigina yuzaga kelayotgan edi. Faqat mehnat qurollariga shaxsiy egalik qilish bilan cheklanish, ovchilik, o‘ljalar, termachilik mahsulotlarining natijalarini jamoa bo‘lib bir tekisda taqsimlash mavjud edi. Hali ijtimoiy guruhlar, davlat va huquq yo‘q edi. Bu ming yillarga cho‘zilgan jamiyat arafasi bo‘ldi. Bu davrda ibtidoiy jamoalar Osiyo, Afrika, Yevropa, Amerikaning bepoyon hududlarida joylashgan edi. K. Yaspers tarixgacha bo‘lgan davrning asosiy yakunlarini quyidagilarda ko‘radi:

1. Olovdan foydalanish va mehnat qurollarini yasash ko'nikma-malakasining shakllanishi odamni boshqa mavjudotlardan farq qilishiga va asta-sekin o'zini jismoniy va ma'naviy kamol topa borishiga sabab bo'ldi.

2. Nutqning paydo bo'lishi. Hayvonlarning o'zaro bir-birlarini tushunishi, o'z hissiyotlarini ichki sabablar bilan ifodalashidan tubdan farq qilgan predmetli dunyoning mazmunini uzatadigan nutqda anglanadigan fikrlash va nutqning obyekt bo'lib xizmat qiladigan ifodalash qobiliyati faqat insonga xos.

3. Odamning inson sifatida kamol topishining omillaridan biri uning o'z-o'zini nazorat qilishga qodir bo'lishidir. Misol uchun, urug' jamoasi davrida tabu yani taqiq orqali odam o'zini faoliyatini va his-tuyg'usini tiyib turishi mumkin edi.

4. Odamlar jamoasi va jamiyatlarning tashkil topishi. Odam ongli holda o'z turmush tarzini jamoa asosida qurdi va uni yuqori shakllarga davlat va jamiyat shakliga olib keldi.

Oqibatda bu vaqt ichida insonning ijtimoiy genotipi shakllandi. U na-faqat o'z tirikchiligi va tabiat injiqliklaridan ko'proq mustaqil bo'lishi va mehnat qurollari hamda texnologiyalarni qo'llashi uchun, eng avvalo, nuiloqot vositalari va fikrlarni uzatish, kishilik hamjamiyatlarini tashkil etishda insonning genotipi aks etdi. Axloqiy norma va ma'naviy dunyo insonning o'zini anglashida ko'rindi.

2. O'tish davri: Mezolit. Mezolit jamiyatga o'tish davri ekanligini qanday asoslash mumkin? O'tish davri qadimgi Old Osiyo (Misr, Mesopotamiya, Falastin, Sharqiy O'rtayer dengizi sohillari, Kichik Osiyo) uchun taxminan er. avv. 10-8 ming yilliklarga tengdir. Bu vaqtda yirik ekologik tushkunlik yuz berdi. Yerning yashashga yaroqli quruqlik qismida iqlim sharoitlari, flora va fauna o'zgardi. Yirik hayvonlar kamaydi yoki iqlim va odamning ongli faoliyati tufayli qirilib ketdi. Natijada asosiy oziq-ovqat manbasi bo'lgan ovning unumdorligi pasaydi. Endilikda tez yuguradigan mayda hayvonlar va qush-parrandalar ov o'ljasiga aylandi. O'q-yoyning o'zlashtirishi mezolitning mashhur kashfiyoti edi. «Kamon, o'q, kamon ipi – degan edi F.Engels, juda murakkab qurolni tashkil qiladi. Uni kashf qilish uzoq to'planadigan tajriba va rivojlangan aqliy qobiliyat, shuningdek, bir vaqtning o'zida boshqa kashfiyotlarni bilishni talab qiladi». Odamlar mehnat qurollarini takomillashtirishga majbur bo'ldilar. Urug' jamoalarida o'q uchlari, nayza, gapunlar, otiladigan kalta nayzalar tayyorlana boshlandi.

Dengiz va daryo qirg'oqlarida yashaydigan odamlar baliq ovida suyak qarmoq va to'rlardan foydalana boshladilar. Ilk bor Old Osiyoda loydan idishlar tayyorlash kashf qilindi. Ibtidoiy jamoalar og'ir iqlim sharoitlarida tirikchilik uchun yangi ovqat manbalarini izlab, noqulay iqlim sharoitlariga moslashishga harakat qildilar.

Bu jarayon ming yillarni qamrab oldi. Odam o'zining yashashi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini o'zi ishlab chiqarishga asta - sekin o'tish boshlandi. Ishlab chiqarish xo'jaligi – dehqonchilik va chorvachilik paydo bo'ldi. Zamonaviy botanik geografiyaning yutuqlariga asoslanib, akademik N.I.Vavilov dunyoda dehqonchilik paydo bo'lgan yetti markaz yoki o'choqni ajratdi.

1) Janubi-g'arbiy Osiyo o'chog'i (Ichki va Sharqiy Kichik Osiyo, Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyo). Bu hududda yumshoq bug'doy, javdar, kanop, olma, nok, shirin olcha va bir qator boshqa o'simliklar madaniylashtirilgan.

2) Hindiston yarim oroli, Hindi-Xitoy. Bu yerda sholi, tariq va arpaning bir necha turlari, soya, Osiyo paxtasi kelib chiqqan.

3) Tog'li va Sharqiy Xitoyning daryo va vodiylari. Bu yerda sholg'om, sitrus mevalari, choy, no'xat, tut daraxtlari kelib chiqqan.

4) O'rtayer dengizi mamlakatlari (Kichik Osiyo qirg'og'i, Suriya, Falastin, Misr, Tunis, Jazoir, Marokko, Italiya, Ispaniya va Bolqon yarim oroli). Bu hududlarda anjir, no'xat, zaytun, xurmo, suli madaniylashtirilgan. Bug'doy, tariq boshqa markazlardan olib kelingan, lekin yangi sharoitda ular ancha o'zgargan.

5) Sharqiy Afrikaning tog'li hududlari, asosan Efyopiya. Bu yerda N.I.Vavilovning fikricha, bug'doy, tariq, sorgo va kofe mustaqil madaniylashtirilgan.

6) Janubiy Meksika. Bu yerda mais (shirin kartoshka), Amerika paxtasi va kakao kelib chiqqan.

7) Peru-Boliviya kartoshkaning vatani.

Inson birinchi madaniylashtirgan o'simlik ekin tariq edi. Undan keyin boshqa donli ekinlar o'zlashtirila boshlandi. Er. avv. 10-8 ming yilliklarda Falastin, Kichik Osiyo, Eronda; er. avv. 6 ming yillikda Misrda; er. avv. 5-4 ming yillikda O'rta Osiyoda g'alla ekila boshandi.

Mezolit davrida echkilar, qo'ylar, eshak (oldinroq it), keyinchalik yirik shoxli mollar, cho'chqa madaniylashtirildi. Albatta, suyak va tosh motigalar bilan yerga ishlov berish kam hosilli, qo'lga o'rgatilgan hay-

vonlar sut, jun, go'sht berar edi. Lekin bu yirik texnologik to'ntarishning boshlanishi edi. Qaysiki, u yangi iqtisodiy ukladning shakllanishiga yordam berdi. Mehnat unumdorligiga qarab jamoa va oilalarning mulkiy tabaqalanishi kuchaydi. Ilgari foydalanilmagan o'tloqlar, ekishga yaroqli bo'lgan yerlarni o'zlashtirish ehtiyoji tug'ildi. Urug'-qabilalar o'rtasida yer, o'tloq, podalar uchun to'qnashuvlar kuchaydi. O'sha davrga tegishli qoyatosh tasvirlarida jang manzaralari mavjuddir. Ovchilik qurollari (o'q-yoy, o'qlar, nayza, tayoq)dan odamlarni o'ldiradigan qurol sifatida foydalanila boshlandi.

Dehqonchilik mashg'uloti o'troq turmush tarzini shakllantirdi. Endilikda odam muqim bir joyda yashab qolib o'zining oziq ovqatga bolgan ehtiyojini qondirish imkoniyatiga ega boldi. Shu sababli u ko'pgina o'troq manzilgohlar, qo'rg'onlarni barpo qila boshladi. Ba'zida devorlar bilan o'ralgan (Falastinda Iyerixon, Kichik Osiyoda Chatalguyuk, Suriya va Hindistonda Bahor kabi) qo'rg'onlar paydo bo'ldi.

Aholining migratsiyasi kuchaydi. Dunyoning iqlim sharoiti qulay bo'lgan hududlari o'zlashtirila boshlandi. Chorvadorlar yaylovlarning o't-xashak zahiralarni tugatib, boshqa hududlarga ko'chdilar. Tabiiyki, ular o'zlari ko'chib borgan yangi hududlarda yashab turgan boshqa urug'-jamoalar bilan to'qnashdilar. Yer-suv, sero't yaylov va o'tloqlar uchun urush-janjallar kuchaydi. Er. avv. 8-7 ming yilliklarda Yevroosiyo qabilalari Shimoliy Afrika, Yaqin Sharqning cho'l-yaylovlariga ommaviy ravishda ko'chib joylashdilar.

Insonning ma'naviy dunyosida ham o'zgarishlar ro'y berdi. Dehqonchilik va chorvachilikni o'zlashtirgan jamoalar tabiiy jarayonlar, o'simliklarni o'stirishning mavsumlari, hayvonlarni o'stirishning ko'p yillik sikllarini bilishning yuqoriroq darajalariga tayandilar. Yil mavsumlari bo'yicha tegishli hayotiy bilinga ega bolgan urug jamoalari ilk dehqonchilik kalendarini tuzdilar. Lekin tabiat kuchlariga ishonish, magiya, sehrgarlik odamning doimiy hamrohi bo'lib qolaverdi.

Ovchi qabilalar ham tobora kamayib borayotgan hayvonlarni ov qilishning yangi takomillashgan usullaridan foydalana boshladilar. Hayvonlarni madaniylashtirish, ularning mahsuldor nasllarini yetishtirish ko'nikmasi shakllana boshladi. Yuzaga kelayotgan jamiyatning tuzilishi murakkablashdi. Faoliyat turlari ko'paydi (tosh, yog'och, suyakdan mehnat qurollarini tayyorlash; yerga ishlov berish; mol boqish; dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash; uy-joy qurilishi va h.k.).

Bu iqtisodiy va jamoa ichidagi munosabatlar, mahsulot taqsimotini tartibga solishni murakkab, tabaqalashtirilgan, murakkablashtirilgan qoidalarini talab qilardi. Natijada mezolit davridagi mavjud qarama-qarshiliklarni yengib o'tish natijasida uning bag'rida birinchi sivilizatsiya-neolit tug'ildi.

3. Neolit sivilizatsiyasi. Sivilizatsiyalar tarixining boshlanishini neolit inqilobi bilan bog'laydilar. Uning asosiy mazmuni o'simliklarni tasodifiy o'stirish va yovvoyi hayvonlarni ayrim hollardagina qo'lga o'rgatishdan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini muntazam, maqsadli yo'naltirilgan holda dehqonchilik va chorvachilik asosida rivojlantirishga o'tish edi.

Bu ibtidoiy odamlarning turmush tarzini tubdan o'zgartirgan bir necha ming yilliklarni qamrab olgan chuqur to'ntarish edi. Uch ming yil ichida odamning o'zi kam o'zgardi. Lekin oila va ibtidoiy jamoa tirikchilikning barqaror manbalariga ega bo'ldi. Insonning imkoniyatlari ham kengaydi. Odam ovqatga ishlatadigan tabiat mahsulotlarining miqdori o'sdi. Mehnat qurollari, buyumlarning turli xillari qo'llanila boshlandi.

Ishlab chiqarish kuchlari progressi, ishchining mohirligini o'sishi ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida mumkin bo'ldi. Aholi asosan jins-yosh mehnat taqsimotiga asoslangan faoliyat (ov, termachilik, baliqchilik), asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadigan asosiy tur-lariga bo'lindi.

Dehqonchilik va chorvachilikda yanada murakkab bo'lgan mehnat qurollari paydo bo'ldi. Ortirilgan malaka va ko'nikmalar avlod-dan-avlodga uzatildi. Oziq-ovqat va boshqa sochiladigan narsalar, don, urug'larni saqlash uchun sopol idishlar kashf qilindi. Ikkinchi mehnat taqsimoti natijasida to'qimachilik dastgohi, teriga ishlov berish qurollari, tikuvchilik kashf qilindi.

O'troq hayotni talab qilgan dehqonchilik jamoalari, aholining ko'payishi himoya devorlari bilan o'rab olingan qo'rg'onlarning bunyod qilinishiga olib keldi. Bu qo'rg'onlarda yuzlab uylar, ustaxonalar, ibodatxonalar mavjud edi. Shunday neolit manzilgohlari Old Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqda topilgan. Qurilish, mehnat qurollari yasash bilan alohida odamlar shug'ullana boshladilar. Shunday qilib, ijtimoiy mehnatning uchinchi taqsimoti hunarmandchilikning ajralib chiqishi yuz berdi.

Jamiyat tuzilmasining murakkablashuvi, ekin ekish, hosilni yig'ishtirish muddatlarini aniqlash uchun tabiat sikllarini kuzatish, turli mashg'ulotlar o'rtasida mehnatni taqsimlash (ayniqsa, dehqonchilik va

chorvachilik mavsumiy bo'lgani uchun), bu mashg'ulotlarni marosim va diniy sig'inishlar bilan birga olib borish, jamoani qo'shni jamoa va yovdan himoya qilish uchun bo'lgan zaruriyat to'rtinchi yirik mehnat taqsimoti-yo'l boshchilar, jangchilar va kohinlarga ajralishiga olib keldi.

Iqtisodiy munosabatlarda yirik siljishlar yuz berdi. Ovchilik, baliqchilik, termachilik uchun tabiiy boyliklar hech kimniki bo'lmay, mulkchilik ob'ekti emas edi. Jamoa ovchilik hududlarida o'z egaligini mustahkamlashga harakat qilsada, lekin uning chegaralari shartli edi. U jamoalarni yangi sero't, boy hududlarga yovvoyi hayvonlarning harakati orqasidan tez-tez ko'chish bilan o'zgarib turar edi. Ekish, ishlov berishga yaroqli bo'lgan hududlar, poda uchun yangi o'tloqlarni o'zlashtirish va foydalanish uchun ko'p yillar kerak edi. Yangi-yangi yer maydonlari o'zlashtirildi. Jamoa yanada ko'proq ishlab chiqarish vositalari, tabiiy resurslarga o'z mulki sifatida qaray boshladi. Neolit sivilizatsiyasida jamoa mulkchiligi va teng taqsimot ustuvor edi.

Oila va jamoalar ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi natijasida mashg'ulotlarning ma'lum bir turlariga ixtisoslashdi. Ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi mehnat mahsulotlari bilan jamoa ichida, boshqa jamoalar bilan ayirboshlashning ko'payishiga olib keldi. Chunki ayirboshlash bo'lmasa, shaxsiy va o'sib borayotgan ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirib bo'lmas edi. Jamoa ichida ayirboshlash noekvivalent shaklda amalga oshirildi. Turli mashg'ulotlar bilan shug'ullanadigan jamoalar o'rtasida ayirboshlash yanada muntazam tus oldi. Bu bilan ayirboshlash uchun ekvivalent buyumga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Neolit davrida jamiyatning «iqtisodiy» piramidasi asosan qurib bo'lindi.

Ijtimoiy-siyosiy munosabatlar qavatli kambag'alroq edi. Faqat uning alohida unsurlari shakllandi. Ilgari bir xil bo'lgan jamoaning ijtimoiy ta'baqalanishi boshlandi. Jamoa oqsoqollari, qabila yo'l boshchilari, sehrgar va folbinlar, harbiy yo'l boshchilar an'anaviy jamoa tengligini buzib, asta-sekin eng yaxshi yerlar, yaylovlar, jamoa boyligini o'zlashtirib oldilar. Sug'orma dehqonchilik hududlarida yirik jamoa birlashmalari qabilalar paydo bo'ldi. Eng yaxshi yerlar, yaylovlar uchun qonli to'qnashuvlar kuchaydi.

Jamiyat piramidasi yuqori qavatli insonning ma'naviy dunyosida o'zgarishlar yuz berdi. Atrof dunyoni bilish darajasi keskin o'sdi. Tabiat sikllariga ko'ra, dehqonchilik qilish, hayvonlarni boqish, hunarmandchilik, qurilish bilan shug'ullanish o'tgan ajdodlar to'plagan keng va turli

xil bilimlarsiz mumkin emas edi (o'sha davrlarda avlod faol hayotining o'rtacha davomiyligi 15-20 yil bo'lsa, ming yillik davomida 50-60 avlod o'tdi). Astronomiya, arifmetika, biologiya, tibbiyot, agronomiya fanlarining kurtaklari paydo bo'ldi. Albatta, abstrakt umumlashtirishlargacha hali uzoq edi, lekin boshlang'ich dunyoni bilish e'tiqodlar, rivoyat, ertaklar, miflar tuzilishida aks etar, sehrar va kohinlar tomondan qo'llab turilar edi. Turli qoida, normalar «tabu» ni yaratib va qo'llab, diniy e'tiqodlar yanada murakkablashdi. Axloq va ilk dinni bir-biridan ajratish qiyin edi. Turli xil bilimlar va ko'nikmalarning hajmi ancha o'sgani uchun ularni keyingi avlodlarga uzatish muddati uzaydi. Neolit inqilobi nihoyasida paydo bo'lgan jamiyatning asosiy belgilari ana shunday edi.

Neolit inqilobini bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin: ilk neolit, qaysiki, er. avv. 7-6 ming yilliklarni qamrab olgan. Uning epitsentri Old Osiyo va Yaqin Sharqda edi. Yetuk yoki o'rta neolit (er. avv. 5-4 ming yilliklar boshlari). Bu bosqichda neolit sivilizatsiyasining qudrati namoyon bo'ldi. U Nil, Hind, Frot, keyin Amudaryo, Sirdaryo, Yanszi daryo vodiylari, Yevropa qit'asiga keng tarqaldi. «Neolitlashuv» jarayoni sekin bordi. Sharq dunyosidan keyin 2800 yil davomida Shimoliy Yevropada ishlab chiqaruvchi xo'jalik paydo bo'ldi.

Mil. avv. 4-ming yillikdayoq neolit sivilizatsiyasi kuch-qudratining tugash belgilari paydo bo'ldi va navbatdagi davr eneolit boshlandi. Eneolit (mis-tosh asri) davrida yetakchi metall dastlab mis va oltin, keyin jez paydo bo'ldi. Tosh qurollar, hatto, eng mukammal mikrolitlar tayyorlanish juda mashaqqatli mehnatni talab qilar edi va turli xil murakkablashgan ehtiyojlarni qondirish uchun qo'llashda yetarlicha ishonchli bo'lmadi. Sof metallar bo'lgan oltin, misni qo'llash qulayroq, mustahkam, qayishadigan, ularga istalgan shaklni berish, turli metallarni qo'shish mumkinligini odamlar o'z tajribalarida ko'rdilar. Qo'rg'oshin va misni qo'shib, jez (bronza) hosil qilish mumkin bo'ldi.

Lekin mis, qo'rg'oshin, oltin konlari kam uchraydi. Eneolit davrida ko'pgina qabilalar ulardan foydalanish imkoniyatiga ega emas edilar. Bu metallardan foydalanishga yaroqli yerlarda aholi zichligining o'sishiga, bu metallar mavjud bo'lmagan joylarda aholining o'sish sur'atlarini kamayishiga olib keldi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, er. avv. 5000-yilda yer yuzida aholining o'sishi 0,9 kishi, bir yilda ming kishiga to'g'ri kelsa, aholining umumiy soni 30 mln kishini tashkil etdi. Er. avv. 2000-yilda aholi o'sishining o'rtacha yillik sur'ati 4,5 marta 0,2 kishigacha, aholi

soni 3-ming yil davomida bor-yo‘g‘i 20 mln ga ko‘paydi. (54. C. 151.).

Hosildor yerlar, metallga boy hududlarga egalik qilish uchun qabilalar o‘rtasida shufqatsiz to‘qnashuvlar muntazam tusga kirdi. Urushlar insoniyatning doimiy hamrohiga aylandi. Jamoa mulkchiligining hukmronligi va teng taqsimot ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga to‘siq bo‘ldi. Qabilalar o‘rtasida ko‘p sonli urushlarga olib keldi.

Lineolit davrida texnologiya, iqtisodiy-ijtimoiy hayotda keskin o‘zgarishlar boshlandi. Jamiyatda tamoman yangi materiallar (jez), texnologiyani kashf qilish va o‘zlashtirish, xususiy mulkchilikka o‘tish zaruriyati turar edi. Bu oxir-oqibatda ijtimoiy tabaqalar va davlatning paydo bo‘lishiga olib keldi.

4. Bronza sivilizatsiyasi. Neolit inqilobining yadrosi takror ishlab chiqaradigan iqtisodiyotga o‘tish edi. Sivilizatsiya siklini belgilab bergan neolit inqilobining yuragi jamiyat piramidasining uchinchi va to‘rtinchi qavatlaridagi tub o‘zgarishlar edi. Bu yerda davrning buyuk voqealari bo‘lgan ijtimoiy kashfiyotlar: xususiy mulkchilik, pul muomalasi, sinflar, davlatning paydo bo‘lishi edi. Bu kashfiyotlar asta-sekin takomillashib, keyingi sivilizatsiyalarning qiyofasini belgiladi. Bu ijtimoiy muassasalarning har biri tarixiy progressning borishi bilan shartlangan edi va u foydali funksiyalarni bajardi.

Jamoa mulkchiligi asosiy ishlab chiqarish vositalari, nisbatan uncha katta bo‘lmagan jamoalar uchun o‘zlashtirish shakli edi. Bunday shaklning mavjudligi ularning tirik qolishi va tabiiy muhitning yuqori darajada noaniqligi va o‘zgaruvchanligi, mehnat unumdorligining past darajasi, qo‘shimcha mahsulotning yo‘qligi natijasi edi. Lekin u endi progressga to‘siq bo‘ldi. Yerga ishlov berish, hayvonlarni boqish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini takror ishlab chiqarish, hunarmandchilik va qurilishda yanada samarali texnologiyalarni qo‘llab, qo‘shimcha mahsulotni tizimli yaratgan ishchilar o‘zlarining mahsuldor mehnat natijalarini jamoaning boshqa a‘zolari bilan teng taqsim qilishga ko‘nmadilar. Mehnat samardorligini oshirishning eng muhim rag‘batlantiruvchi omili o‘zining oila a‘zolariga (ota tomonidan) meros bo‘lib o‘tadigan xususiy mulk bo‘ldi.

Zamonaviy iqtisodiy tilda aytish mumkinki, birinchi bor ko‘p ukladli iqtisodiyot paydo bo‘ldi. Taqsimotda bir tekislikni bartaraf qilish, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarish natijalarini xususiy o‘zlashtirish o‘zi va oilasi uchun mulkni ko‘paytirishga iqtisodiy manfaatdorlikni yaratdi. Mehnat unumdorligini oshirishga intilishni kuchaytiradigan foy-

dani ko‘zlab, ayirboshlashni amalga oshirish, boylik to‘plash, yaxshi uylar qurish, bezak-taqinchoqlarga ega bo‘lish motivatsiya mexanizmlarini harakatga keltirdi. Bu rivojlanish sur‘atini ko‘p marta jadallashtirdi.

Qo‘shni urug‘-qabila boshliqlari, harbiy boshliqlar, kohinlar, jamoaning tadbirkor a‘zolari eng yaxshi yerlar, chorva, o‘tloq-yaylovlar, harbiy o‘ljalarni o‘zlashtirib, ularga egalik huquqini o‘z qo‘llarida to‘pladilar. Hukmron tabaqa ana shunday paydo bo‘ldi. Jamoaning boshqa a‘zolari dehqon, hunarmand, chorvadorlar sifatida ilgari jamoa ixtiyorida bo‘lgan mulkning bir qismiga ega bo‘ldilar. Ular turli to‘lov-majburiyatlarni o‘tadilar. Jamoaning mulki hisoblangan o‘tloqlar, o‘rmonlar, suv havzalari jamoaning umumiy mulki bo‘lib qolaverdi.

Ilk sinfiy sivilizatsiyalarning iqtisodiy munosabatlarini o‘ziga xos xususiyati odam mulk obyektiga-qullar (asir tushganlar, qarzga botganlar) bo‘ldi. Boshda asirga olinganlar o‘ldirildi, qurbonlik qilindi yoki diniy bayramlar, zodagonlarning dafn marosimlarida qurbonlikka keltirildilar. Chunki hozircha nazorat va majburlashga asoslangan qul mehnati samarasiz edi. Ba’zida esa asirlarni to‘la huquqli bo‘lmagan jamoa a‘zolariga aylantirdilar.

Lekin vaqt o‘tishi bilan qul mehnati qo‘shimcha mahsulot yarata boshladi. Tarixchilarning tadqiqotlariga ko‘ra, qulchilik jez asrining iqtisodiy asosi bo‘lmadi. Jez asrida qo‘shimcha mahsulotning asosiy qismini jamoachi dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar yaratdilar.

Muntazam ayirboshlashning rivojlanishi turli xil mahsulotlarning qiymatini belgilaydigan ekvivalent yaratishni talab qildi. Insoniyat bu vazifani bajarishga da’vogar bo‘lgan chig‘anoq, yarim qimmatbaho toshlar, chorva mollari va boshqalarni boshda sinab ko‘rib, jez asrida qiymat o‘lchovi, muomala va jamg‘arish vositasi sifatida metall, pul, oltin, keyin kumushni tanladi.

Takror ishlab chiqarishning tuzilishi murakkablashdi, hajmlari kengaydi, uning uyushqoqligi o‘sdi. Buni iqtisodiyotning asosi bo‘lgan dehqonchilik, sug‘orma dehqonchilikni yo‘lga qo‘yish uchun zarur bo‘lgan sug‘orish tizimini Nil, Dajla va Frot, Hind, Amudaryo va Sirdaryo vodiylarida boshqarish mantiqiy talab qilindi.

Bir necha darajalarda takror ishlab chiqarishning pog‘onaviy tuzilishi yuzaga keldi: quyi dehqonchilik, chorvachilik yoki hunarmandchilik oilasi, qo‘shni jamoa, yarim tovar yoki tovar quldor xo‘ajaliklari: hududiy alohida hududlar Yuqori va Quyi Misr nomlarida; davlat hajmi Misr, Ossuriya,

Bobilda vujudga keldi. Barqaror bozor shakllandi (aholining asosiy mas-sasi uchun oziq-ovqat va kiyim-kechakni qamrab olmaydi, lekin qul oldi-sotisini o'z ichiga olgan). Mamlakatlar o'rtasida mahsulot ayirboshlash **shoqalari shakllandi.**

Mehnat taqsimoti va samaradorligini oshirishda sakrashga erishildi. Sug'orma dehqonchilik yuqori hosildorligi bilan ajralib turar edi. Turli xil hunarlar, jez qurollar ishlab chiqarish, qurol-yarog', taqinchoqlar, turli gazlamalar, kiyim, poyafzal, dori, san'at buyumlarini ishlab chiqarish ri-vojlandi. Ilk va Qadimgi Misr podsholigi yozma yodgorliklari ma'lumot-lariga ko'ra, o'sha vaqtdan ekin yerlari va o'tloqlar, uzumzor va bog'lar, turli xil hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlanadigan ustaxonalarni o'z ichiga olgan podsho xo'jaligi mavjud bo'lgan. Shuningdek, fir'avn a'yonlari, zodagonlar, ibodatxonalarga qarashli xo'jaliklar ham bo'lgan. Dehqonlar, cho'ponlar, baliqchi, qushchilar, bog'bon, nonvoy, pivo pishi-ruvchilar, kulol, tosh yo'nuvchi, quruvchi, duradgor, raqqosa, sartarosh, rassomlar, haykaltaroshlar, mirza, nazoratchi kabi kasblar paydo bo'lgan. Mehnat taqsimoti turli kasb egalarini ko'nikma-malakalarini oshirishga, mehnat qurollarining takomillashuviga, mehnat unumdorligining o'sishi-ga olib keldi.

Xususiy mulkchilik, mulkiy tengsizlik, majburiy mehnatga asoslan-gan murakkab va ziddiyatli iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar jamoaning o'z-o'zini boshqaruvi va urf-odat, an'analarga asoslangan muassasala-ri tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va boshqarilishi mumkin emas edi. Huquqning qonunlashgan normalariga ichki boshqaruv va tashqi himoya (va bosqinchilikka) tayanib, ma'lum funksiyalarni bajaradigan, ixtisos-lashgan davlat apparatini shakllantirish zaruriyati tug'ildi.

Beshinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti yuz berdi. Davlat funksiyasini kasbiy asosda bajaradigan kishilar guruhi ajralib chiqdi va ular huquq normalarini qo'llab-quvvatladilar (podsho, a'yonlar, harbiy boshliqlar, sudyalar, politsiyachilar). Davlat o'ziga bir necha iqtisodiy funksiyalar-ni oldi. sug'orish tizimlarini qurish, ta'mirlash, qurilish ishlari, mulkni himoya qilish, pul muomalasini boshqarish, pul zarb qilish va hokazo. Davlat apparatida ishlash uchun mirzalar tayyorlaydigan maktablar ochil-di. Shunday qilib, beshinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti vujudga keldi.

Ma'naviy soha – tasviriy va musiqa san'ati, me'morchilikning ajra-lib chiqishi va yuksalish jarayoni rivojlandi. Yozuvning kashf etilishi va o'zlashtirilishi ikkinchi axborot inqilobi (birinchisi – insoniyat paydo

bo'lgan ilk davrda nutqning paydo bo'lishi) bo'ldi. Tabiiy va aniq fanlarning empirik asoslarini yaratilishi, sug'orish tizimining yaratilishi va boshqarilishi, metall quyishni rivojlantirish, dengiz kemalarini qurish, dengiz sayohatlariga chiqish, hunarlarni rivojlantirishga imkon yaratdi. Quyosh taqvimi, suv va quyosh soatlari yaratildi. Matematika, anatomiya, qurilish va dehqonchilik fanlari asoslari qo'yildi. O'quv yurtlari paydo bo'ldi.

Jamiyatda yuqorida aytilgan o'zgarishlarning oqibatlari va shart-sharoitlari, bu jamoatchilik kishanlari va bir tekisdagi taqsimot, o'lchov me'yorlaridan o'zini holi qilgan insonning o'zida yuz bergan o'zgarishlarda edi. Bilim, malaka, iroda, muloqotning kuchayishi, shaharlarda bilim-malakalar, mahsulotlar bilan ayirboshlashning kuchayishi shaxsning yutuq va boyligi uchun asos, faol elitaning ajralib chiqishiga olib keldi. Progressning o'z hamjamoatchilari, boshqa urug'-qabilalarni talash, zo'ravonlikning eng qo'pol shakllaridan foydalanish asosida yuz berishi hatto qo'pol shaklda bo'lsa ham progress edi.

Bu davrning olamshumul voqeasi lokal sivilizatsiyalar markazlarida shaharlarning paydo bo'lishi bo'ldi. Shaharlarning paydo bo'lishi bilan sivilizatsiya tarixida urbanizatsiya jarayoni boshlanib, bu jarayon hozirgacha uzluksiz davom etib kelmoqda. Urbanizatsiyaning shart-sharoitlari, aholi soni va zichligining o'sishi, hunarlar va qurilishning rivojlanishi, paydo bo'lgan davlatlarni ma'muriy markazlarini shakllanishi va tashqi hujumdan himoya qilish uchun ularni mustahkamlash zaruriyati edi. Yirik shaharlarga o'n mingab aholi kelib o'rnashdi. Misol uchun, Moxenjo-Darro (Hindiston) 2,5 km² maydonni egalladi va 100 ming kishigacha aholiga ega edi. U mustahkamlangan qal'a va quyi shaharga bo'lingan edi. Shahar g'alla ombori, suv ta'minoti tizimi va kanalizatsiya, hammomga ega edi. Shaharlarda haddan tashqari aholining to'planishi hunarlar, ayirboshlashning rivojlanishi, shahar madaniyatining shakllanishiga turtki berdi.

Shaharlarda odamlarning to'planishi odamlar o'rtasida muloqotni kuchaytirdi. Shahar turli kasb egalari guj bo'lib yashaydigan, hunarmandchilik-savdo markazi, fan-madaniyat o'chog'i va boshqaruv markazi sifatida insoniyat sivilizatsiyasining keyingi taraqqiyotiga hayotbaxsh ta'sir qilgan noyob hodisa bo'ldi.

Shunday qilib, jez asri sivilizatsiyasi davrida jamiyat piramidasining barcha qavat va xonalari o'zlashtirilgan edi. Moddiy ne'matlar, iqtisodiy

va ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy qadriyatlarni muntazam takror ishlab chiqarish tizimli amalga oshirildi. Qadimgi sivilizatsiyalarning tarqalish maydoni kengaydi. Jez asrining bir necha episentrlari – Misr, Shumer, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, Xett davlati, Ossuriya, Krit kabilar ma'lum. Er. avv. III ming yillikda xalqlarning buyuk ko'chishi kuzatiladi. Bu jez asri texnologiyasi va madaniyatini barcha materiklarning ko'pgina hududlariga tarqalishiga olib keldi.

Boshqa barcha tarixiy sikllar kabi progress episentrlari bo'yicha jez asrining sivilizatsiyalari dinamikasida uch bosqichni ajratish mumkin: shakllanish, tarqalish (er. avv. IV ming yillik oxiri III ming yillik boshlari); yetuklik, gullab yashnash (er. avv. III ming yillikning II yarmi); so'nish, tushkunlik (er. avv. II ming yillikning ko'p qismi). Ko'rinadi. Tarixchilarning ta'kidlashicha, har bir o'tish davri, bu qachonlardir gullab-yashnagan shaharlarning kimsasiz qolishi va ochlik, tarqoqlik va ijtimoiy to'ntarishlar, savdo aloqalarining uzilib qolishi, tashqi hujumlar vaqti edi.

O'rta Osiyo hududida qadimgi sivilizatsiyaga o'tish davrini mil. avv. II ming yillik oxiri mil. avv. I ming yillikning boshlanishi bilan belgilash mumkin. Bu davrning o'ziga xos xususiyati qachonlardir qudratli davlatlarning tushkunligi, lokal sivilizatsiyalar yangi o'choqlarining paydo bo'lishi va shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Bu bosqich o'z doirasi va geografik chegaralariga ega. Qadimgi sharq davlat va jamiyatlari daryolarning hosildor vodiylarida paydo bo'ldi. Mehnat resurslarini muntazam to'ldirish zarurati mavjud bo'lib, davlat hokimiyati urushlar va qullarni bosib olish yo'li bilan o'sib borayotgan aholi ehtiyojlarini qondira olmas edi. Muntazam urushlar va soliq-majburiyatlar dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlarning mayda xo'jaliklarini takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini yo'q qiladi. Jamiyat ijtimoiy qatlamlari o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar davlatning harbiy qudrati va hududiy yaxlitligini zaiflashtirdi. Sho'r bosgan sug'oriladigan yerlarning hosildorligi pasaydi. Aholining tabiiy o'sishi qisqardi. Qachonlardir qudratli sivilizatsiyaning markazlari bo'lgan davlatlar o'z iqtisodiy va harbiy qudratlarini yo'qotdilar va mustaqil hududlarga bo'linib ketdi. Zaiflashgan davlatlar jangovar ko'chmanchi qabilalar hujumlariga bardosh bera olmadi.

5. Temir asri sivilizatsiyasi (Antik sivilizatsiya). Ma'lumki, XVII asrning oxirida tarix fanida insoniyat sivilizatsiyasi uch asosiy: qadimgi, o'rta asr va yangi davrga bo'lingi. Yevropada uzoq vaqt Qadimgi sharq sivilizatsiyalari to'g'risida bilmaganlari sababli ularning tarixini antik

davrning kirish fazasi deb qaradilar. XIX asrlar o'rtalariga kelib insoniyat tarixida Qadimgi sharq sivilizatsiyalari mustaqil bir uzoq davom etgan mustaqil davr ekani yaqqol ko'rindi. Shu sababli u keyingi qadimgi davrdan ajratilib Qadimgi sharq davri deb ataldi. Lekin avvalgi uch davrga bo'linish o'rta asrlar va yangi davrlarga qadimgi (antik) davr qadimgi sharq va antik davri o'z ichiga olgan yaxlit bir davr deb qaraldi. Rus ilmiy tilida antik so'zi faqat yunon-rim qadimiyatini bildirib, g'arbiy Yevropa tarixchilarda kengroq ma'noni bildirar edi. Shu sababli insoniyatning yaxlit qadimgi sivilizatsiyasini emas, faqat uni bir qismi bo'lgan yunon-rim davrini ta'kidlamoqchi bo'lganda «antik» so'zi oldiga «klassik» (mumtoz) so'zi qo'shiladi.

Temir asri sivilizatsiyasi insoniyatning kelajak hayoti uchun ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy poydevorining asosiy unsurlari yuzaga kelgan davr ko'p xillikda tashkil qilgan unsurlari bilan jamiyatning genotipini shakllantirgan uning go'zal yoshligi edi. Temir davri sivilizatsiyasining xronologik chegaralari er. avv. VIII asrdan V asr o'rtalarigacha 12 asrdan ko'proq. Bu sivilizatsiyaning tarixida bir necha lokal sivilizatsiyalar aniq ajralib turadi: Yunon (qadimgi Afinaning gullab-yashnash davri – er. avv. VI ning ikkinchi yarmi er. avv. V asr) va Rim (gullab-yashnash davri – er. avv. II asr eramizning I asri). Sharq va g'arbnning hayotbaxsh ma'naviy-madaniy boyligini o'zlashtirgan Ellin (er. avv. 330-yildan eramizning 220-yillarigacha) madaniyati, Qadimgi Hindiston, Xitoy, O'rta Osiyo lokal sivilizatsiyalari o'z episentrlari bilan mustaqil harakat qildi. Insoniyat tarixiy taraqqiyotida bu sivilizatsiyalarning asosiy yutuqlari, uning tarixiy merosi nimalarni tashkil qiladi?

1. Asosiy yutuq inson dahosi ilk bor o'zini barcha go'zalligida namoyon qildi. Fan, san'at, mifologiyaning yuksalishi inson dahosi, uning erkinligi, kuch-qudrati namoyon bo'ldi. Insonning faol maqsadli faoliyati natijasida temir qurollardan foydalanish keng tarqaldi. Turli xil hunarlar paydo bo'ldi. Inson o'zini hayotini yaxshilash, xavfsizligini taminlashning yangi ufqlarini ochdi. Bu bir qism fuqarolar siyosat, fan-madaniyat bilan shug'ullanishiga iqtisodiy shart-sharoit yaratildi. Insonning qobiliyati rivojlandi, u o'zligini anglashga urindi.

O'sha davrning eng katta yutug'i abstrakt fanlarning ilk tizimi falsafa, astronomiya, matematika, mexanika, tibbiyot, tarix, huquq va iqtisodiyot fanlarining tug'ilishiga sabab bo'ldi. Faylasuflar maktablari, Platon akademiyasi, Arastu litseyi, Iskandariya muzeyi yuzaga keldi. Yosh av-

lodni fan, san'at, turli xil hunarlar, harbiy ishga (faylasuflar maktabidan gladiatorlar maktabigacha) o'rgatadigan ta'lim tizimi shakllandi. Lekin erkin tafakkurning parvozi ko'pincha amaliyotda abstrakt fan-texnikadan (o'sha davrda katta kashfiyotlar qilingan bo'lsada) ajralgan edi.

Qadimgi sivilizatsiya davrida ma'naviy sohaning taraqqiyoti dunyo dinlarining paydo bo'lishiga olib keldi va bu politeizmdan monoteizmga olib keldi. Bu hol ko'pincha iqtisodiyot va siyosiy sohalarida markazlashuvning kuchayishi bilan shartlangan edi. Mil. avv. VI-V asrlarda budda dini paydo bo'ldi. Tezda buddaviylik 18 sektaga bo'lindi va milodiy XII asrda qisman hinduizmga singidi. Milodiy I asrda Falastinda nasroniylik dini, VII asrda islom dini paydo bo'ldi. Dunyo dinlari jamiyatning mafkura sohasini tartibga soldi, ma'naviy hayotning boshqa sohalariga ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan bir vaqtda yagona dinga e'tiqod qilgan turli xalqlar, davlatlarning o'zaro aloqalarini yengillashtirib, integratsiya omili bo'ldi.

2. Erkin kishilarning hamjamiyatini talablariga javob beradigan demokratiya-ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi shakllandi. Bu tuzum yunon-rim tarixida mil. avv. VI-I asrlarda shakllandi va rivojlandi. Yunon polislarida, keyin Rimda demokratik davlat qurilishining yuksalishi, yashashning murakkab mexanizmi yuzaga keldi va keyingi asrlarda, sivilizatsiyalardan hozirgi demokratik davlatlargacha turli xil ko'rinishlarda rivojlanib bordi.

3. Qadimgi sivilizatsiyaning siyosiy va iqtisodiy hayotining o'ziga xosligi jamoaning ko'p belgilari bilan mustaqil o'z-o'zini boshqaradigan shahar-davlatlar – polislarining shakllanishi va hukmronligida ko'rinadi. Polislarida mulkchilikning qadimgi shakli polis mulkchiligi yuzaga keldi. Yerda egalik qilish huquqini shahar jamoaning to'la huquqli a'zolari amalga oshirishlari mumkin edi. Yer, qullar, ishlab chiqarish vositalariga egalik huquqi bilan birga, polis fuqarolari o'z-o'zini boshqarishda ishtirok etish, polisning barcha daromadlariga sherik bo'lish huquqiga ega edilar. Polis ishlarida birdam bo'lish fuqaro uchun ham huquq, ham majburiyat edi. Polisning jamoatchiligi, uning fuqaro birdamligi, individuallik shaxsning yuqori qadriyati bilan hamnafas bo'ldi. Aynan ana shu hamohanglik inson tafakkurining erkin rivojlanishi, qisqa muddatda falsafa, fan, san'at, adabiyot, etika, estetikaning taraqqiyotiga sabab bo'ldi. Polisda davlat hokimiyati demokratiya, tiraniya, aristokratiya, oligarxiya kabi turli shakllarda bo'lishi mumkin edi. Lekin davlat hokimiyatining

har xil shakllarida ham polis fuqarolarining erkinligi va to'la huquqligiga qat'iy rioya qilindi. Fuqarolar o'zlari ustidan hech qanday hukmronlikka yo'l qo'ymaydigan tabiatdan ozod hisoblanar edi.

4. Qadimgi davrda sivilizatsiya nisbatan tor doiradan chiqdi. Ilk bor jahon imperiyalari paydo bo'ldi. I.M.Dyakonovning aytishicha, jahon imperiyalari vujudga kelishining iqtisodiy asoslari ittifoqchi davlat doirasida asosiy iste'mol mahsulotlarini (g'alla, gazlama) ishlab chiqaradigan dehqonchilik mamlakatlari va ishlab chiqarish vositalari (metall, yuk ko'taradigan va tortadigan chorva mollari, teri va hokazo), ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tog'li va cho'l mamlakatlarining kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun majburiy birlashtirilishi zaruriyati bo'ldi. Imperiyalar Sharq dunyosining barcha hududlarida yuzaga keldi: Ossuriya (er. avv. IX-VII asrlarda butun Old Osiyoni bir qismini qamrab olgan), Yangi Bobil va Midiya (er. avv. VII-VI asrlar), Egey dengizidan Hind daryosi vodiysigacha, Misrdan Sirdaryogacha bo'lgan hududni qamrab olgan Ahamoniylar Eronni (mil. avv. VI-IV asrlar), Hindistondagi Maurilar imperiyasi (mil. avv. IV-II asrlar), Xitoyda Sin imperiyasi (mil. avv. IV-III asrlar), Xan imperiyasi (mil. avv. III asrning oxiri milodiy III asrlar), O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Shimoliy Hindistonni qamrab olgan Kushonlar imperiyasi (milodiy I-IV asrlar). Bu imperiyalar ichida savdo-hunarmandchilikning rivojlangan markazlari va o'z-o'zini boshqaradigan mustaqil shaharlar shakllandi.

Jahon imperiyalari qo'shni mamlakat, hududlarni harbiy kuch bilan yagona davlat tarkibiga birlashtirib, bosib olingan bu hududlardan xomashyo, ishchi kuchi, o'lpon, mamlakat chegaralarining himoyasi uchun jangchilar olar edilar. Lekin bu imperiyalar vaqtinchalik, mo'rt bo'lib, ularning asoschilari o'limidan keyin yoki kuchli podshoning zaif vorislari davrida parchalanib ketar edi. Buning asosiy sababi, imperiyalarni tarkibiga kirgan urug'-qabila, etnoslarning turli taraqqiyot darajasi, turmush tarzlarining har xilligi, ularning o'rtasida mehnat taqsimotining zaifligi va xo'jalikning natural xususiyati edi. Bundan tashqari imperiyalar tarkibidagi xalqlarning imtiyozli va qaram qismlarga ajratilishi, ularni qurol kuchi bilan birlashtirilgani davlatni halokatiga olib keldi.

Mil.avv. VI-IV asrlarda mavjud bolgan uch qit'a Osiyo, Yevropa va Afrikaning bir qismini o'z tarkibiga olgan Ahmoniylar imperiyasi davrida sharq va g'arb o'rtasida turli aloqalar kuchaydi. Makedoniyalik Iskandar (mil. avv. 356-323-yillar) yunon shahar-davlatlari, Misr, Bobil, Eron,

Oʻrta Osiyo Afgʻoniston va Hindiston shimoliga yurish qildi. Sharqning toʻrt ming yillik boy madaniyatini Gʻarb oʻzlashtirib oldi. Sharq va Gʻarb madaniyatining qoʻshilishi natijasida madaniyatning yangi sifati (ellinizm davri mil. avv. III –II asrlar) yuzaga keldi. Mil. avv. VIII asrda paydo boʻlgan Rim shahar-davlati milodiy I asrda imperator Trayan davrida deyarli butun Gʻarbiy va Janubiy Yevropa, Old Osiyoning bir qismi va Shimoliy Afrika, shimoliy Qora dengiz boʻyini qamrab olgan ulkan imperiyaga aylandi.

Mil. avv. VII-VI asrlarda Oʻrta Osiyo hududida Katta Xorazm va Baqtriya davlatlari yuzaga keldi. Yunon-Baqtriya, Parfiya (mil. avv. III asr oʻrtalarida vujudga kelgan), Kushon imperiyasi (milodiy I-IV asrlar), Qangʻ, Xorazm, Dovon davlatlari Oʻrta Osiyo lokal sivilizatsiyasining oʻchoqlari boʻldi. Natijada hududda yuksak shahar madaniyati rivojlandi. Sugʻorma dehqonchilikka asoslangan xoʻjalik hayoti maʼlum yutuqlarga erishdi. Maʼnaviy hayotda jiddiy oʻzgarishlar yuz berdi. Zardushtiylilik diniy eʼtiqodi rivojlandi. Kushon davlati ulkan imperiyaga aylandi. Bu davrda iqtisodiy hayot, maʼnaviy-madaniy sohalar gullab yashnadi.

5. Qadimgi sivilizatsiyalar davrida iqtisodiyot taraqqiyotga katta oʻzgarishlar yuz berdi. Arastu kiritgan «ekonomika» atamasi dastlab uy xoʻjaligini yuritish maʼnosini bildirar edi. Ekonomika – bu mulkchilik, ishlab chiqarishni tashkil qilishning turli shakllari, moliya, kredit va pul munosabatlari tushunchasi edi. Bu davrda, ayniqsa, Rim imperiyasining gullab yashnagan vaqti milodiy I-II asrlarda bozorga yoʻnaltirilgan latifundiya (katta), villa (oʻrta) quldorlik xoʻjaliklari, mayda dehqon xoʻjaligi, erkin hunarmand, qullar mehnatiga asoslangan ustaxonalar (ergasteriylar) mavjud edi. Ergasteriylar togʻ-konchilik ishi, kulolchilik, toʻqimachilik va metall buyumlari, qurolsozlikda mavjud edi. Bu kelajak sex va manufakturalarning arafasi edi.

Qadimgi sivilizatsiyalar turli hududlarda oʻz episentr oʻchoqlariga ega edi. Uning oʻchoqlari (er. avv. I ming yillikning ikkinchi yarmi – eramizning birinchi yuz yilligi) Hindiston, Xitoy va Oʻrta Osiyoda rivojlandi.

Hindiston qadimgi davrda bir necha yuksalish davrini boshdan kechirdi. Ulardan birinchisi Maurilar davri (er. avv. IV-III asrlar)ga mansub. Maurilar davlatining yuksalish davri sulolaning uchinchi hukmdori Bindasarining vorisi Ashoki hukmronligiga toʻgʻri keladi. Uning davrida Hindiston shimolida Kashmir va Himolaydan janubda Maysurgacha, shimoli-gʻarbda hozirgi Afgʻonistondan sharqda Bengal qoʻltigʻigacha

bo'lgan davlat birlashmasi yuzaga keldi. G'arb va sharqning ko'pgina davlatlari, xalqlari bilan aloqalar o'rnatildi. Markazlashgan boshqaruv tizimi shakllandi. O'z-o'zini boshqaradigan shahar, respublikalar mavjud edi. Buddaviylik dini tarqaldi va kasta tuzumi hukmron bo'ldi. Dehqonchilik, savdo-hunarmandchilik, madaniyatda yuksak yutuqlarga erishildi. Quchilik keng tarqaldi. Asosan erkin jamoachi dehqon-hunarmandlar mehnati yetakchi o'rinda bo'ldi. Madaniyatda yuksak natijalarga erishildi va yozuv keng tarqaldi. Mil.avv. IV-III asrlarda Hindistonda hukm surgan Maurilar sulolasi podshosi Ashokining toshga o'yilgan ko'plab qonunlari saqlanib qolgan. Ashoki saroyi ajoyib me'morchilik san'ati yutug'i edi.

Ikkinchi yuksalish Guptalar davri (eramizning IV-V asrlari)da ro'y berdi. Chandragupta II podsholigi vaqtida shimoliy Hindistonning katta qismini o'z ichiga olgan ulkan davlat vujudga keldi va bu davlat ikki yuz yil davomida yashadi. Bu mamlakat iqtisodiyoti va madaniyatida yangi yuksalish O'rta Osiyo, Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari, Uzoq Sharq, O'rtayer dengizi mamlakatlari bilan tashqi aloqalarni rivojlanish davri edi. Uchinchi yuksalish Kushon imperiyasi davrida sodir bo'ldi. Lekin bu o'tish davrida ya'ni o'rta asrlarga o'tish davriga to'g'ri keladi. Hindiston va O'rta Sharq Yevropaga qaraganda o'rta asr jamiyatiga Yevropadan oldinroq o'tdi.

Lokal hind sivilizatsiyasining gullab yashnagan davrlari, O'rtayerdengizi (Afina, Iskandariya, Rim imperiyasi), O'rta Osiyo qadimgi sivilizatsiyalarining shunday bosqichlari bilan sinxron (hamohang) bordi. Bu antik sivilizatsiyalar taraqqiyotining o'xshash ritmidan dalolat beradi. Har bir yuksalishda uning orqasidan tushkunlikning uzoq davri, imperiyalarning yemirilishi, o'zaro ichki urushlar, tashqi bosqinlar, iqtisodiyot va madaniyatni tushkunligi hamrohlik qildi.

6. O'rta Osiyo sivilizatsiyasi. Milodiy I asrda Kushonlar davlati vujudga keldi. Uning dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryo viloyati)da bo'lgan. Kudzula Kadfiz hukmronligi davrida Afg'oniston va Kashmir Kushon davlati tarkibiga qo'shib olingan. Uning o'g'li Vima Kadfiz davrida Kushon davlati yanada kengayadi. Podsho Kanishka zamonida poytaxt Peshovar (hozirgi Pokiston hududi)ga ko'chiriladi va Kushon davlati ulkan imperiyaga aylanadi. Uning hududlari Hindiston va Xo'tandan hozirgi O'zbekistonning janubiy viloyatlarigacha cho'zil-

gan. Rim, Parfiya, Xitoy davlatlari qatorida Kushon davlati I-III asrlarda xalqaro maydonda nufuzli o'rinni egalladi.

Kushon davlatining birinchi hukmdori Kudzula Kadfiz umrini harbiy urushlarda o'tkazib, qudratli davlatga asos soldi. Vima Kadfiz davridan boshlab Kushon davlatida tanga zarb qilish boshlandi. Kushon tangalarida hukmdor nomi ko'rsatilgan. Vima Kadfiz pul islohoti o'tkazadi va tanga pullarning qadri ortadi. Tangalar oltin, kumush va misdan zarb qilingan.

Milodiy I-II asrlarda Kanishka (73-123-yillar) hukmronligi davrida Kushon podsholigi o'z taraqqiyotining cho'qqisiga ko'tariladi. Bu davrda yangi shaharlar bunyod etiladi. Hindiston, Xitoy, Rim imperiyasi bilan savdo va elchilik munosabatlari o'rnatiladi. Kushon elchilari 99-yil Rimga keladilar. Bu Rimdagi Trayan ustunida tasvirlangan. Rim imperiyasi hududidan topilgan kushon tangalari bundan guvohlik beradi. Shuningdek, Italiyaning qadimgi Pompey shahridagi arxeologik qazishda Kushonlarga tegishli suyakdan yasalgan haykalchalar topilgan.

O'lkamizdan Kushon davri madaniy yodgorliklari Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayritom, Zar tepa, Qoratepa va boshqalarni o'rganish jarayonida jez idishlar, shamdon, oyna, sirg'a, bilaguzuk, munchoq kabi taqinchoqlar topildi. Kushon davlati iqtisodiyotining asosini sug'orma dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik tashkil qilgan. To'g'oldi tumanlari va cho'llarda chorva haydab boqilgan.

Xuddi shunday, jarayon Qadimgi Xitoy tarixida ham yuz berdi. Temir asrining boshlanishi bu yerda «Urushayotgan podshohliklar» davrida V-III asrlarda ozaro urushlar davom etib, mil avv. III asrda Sin podshohligining g'alabasi bilan tugallandi. Sin podshosi (van) er. avv. 221-yilda o'zini imperator Sin Shi Xuandi («Xitoyning birinchi imperatori») deb e'lon qildi. U Xitoyda dastlabki markazlashgan davlatni tuzish tomon yo'l tutdi. O'n yil ichida imperator tub islohotlarni o'tkazdi: mamlakatni tashkil etib, mamlakatni 36 viloyatga bo'ldi va oqsuyaklarning imtiyozlarini bekor qildi. Erkin aholining barchasi «qora boshlilar» imperatorning fuqarolari deb e'lon qilindi, yagona yozma qonunchilik, yagona pul birligi hamda lavozim darajalari to'g'risidagi tabel joriy qilindi. Ulkan imperator saroyi qo'riqxona park bilan (uning qurilishida 700 ming qul ishladi) bunyod qilindi. Xitoyning shimoliy chegaralarini ko'chmanchi xunlardan himoya qilish maqsadida uzunligi 4000 km bo'lgan Buyuk Xitoy devori qurildi davlat maktablari tashkil etildi.

Haddan tashqari davlat xarajatlari, soliqlarning ko'p marta o'sib ketishi aholining barcha qatlamlarini noroziligiga olib keldi va bu imperatorning o'limidan keyin xalq qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. Uncha katta bo'lmagan qishloqning oqsoqoli bo'lgan Lyu Ban mil. avv. 202-yildagi qo'zg'olonga boshchilik qilib, Sin sulolasini ag'darib, Xan sulolasiga asos soldi. Yangi sulola ijtimoiy keskinlikni yumshatish uchun soliqlarni keskin kamaytirdi.

Xan sulolasining gullab yashnashi imperator U Dining (mil. avv. 140-87-yillar) hukmronligi vaqtiga to'g'ri keladi. Uning davrida sug'orish tizimi yaxshilandi. Sug'oriladigan yerlarning hajmi kengaydi. Ekin ekish uchun voronkali plug, ikki sixli plug qo'llanila boshlandi. Ikki dalali almashlab ekish tizimi yuzaga keldi. Yirik hunarmandchilik korxonalari (ularning ba'zilarida mingtagacha ishchilar bor edi) paydo bo'ldi, savdo yuksaldi. Buyuk ipak yo'li Pekindan O'rta Osiyo orqali O'rtayer dengizigacha cho'zildi. Konfutsiylik davlat dini va mafkurasi deb e'lon qilindi. Xitoyning aholisi (aholini ro'yxatga olish bo'yicha) 60 mln kishiga yetdi. Dehqonchilikning rivojlanishi natijasida sug'oriladigan yer maydoni 56 mln gektarni tashkil etdi. Eramizning I asri boshlarida ziddiyatlar natijasida Xan imperiyasi ham quladi.

Qadimgi Xitoy lokal sivilizatsiyasining yuksalishini so'nggi bosqichi kichik Xan sulolasi davriga to'g'ri keladi. Bu sulola Guan U Di (mildiy 25-57-yillar) hukmronligi bilan boshlanadi. Uning davrida soliqlar bir muncha kamaytirildi, qullarning ahvoli qonun yo'li bilan ancha yengillashtirildi. Davlat chegaralari kengaydi. Yirik qulchilik xo'jaliklari ko'paydi. Bu xo'jaliklarda qul mehnati samarasiz bo'lgani uchun o'z yeri bo'lgan qaram dehqonlar mehnati bilan almashtirila boshlandi. Yirik yer egalari nufuzli siyosiy kuchga aylana boshladilar va bu markazlashgan hokimiyatni zaiflashtirdi. 220-yilda Xan sulolasi hukmronligi tugatilibdi uch podsholik davri boshlandi. Bu lokal sivilizatsiyaning keyingi bosqichiga o'tishni bildirar edi.

Qadimgi dunyoning mezolit bilan birga, insoniyat tarixining o'n ming yildan ko'proq tarixini qamrab olgan birinchi tarixiy supersiklning asosiy natijalari nimalardan iborat edi? Lekin avval yopiq bo'lgan alohida sivilizatsiyalar orasidagi ajralish qisqardi. Ular o'rtasidagi ayirboshlash kuchaydi. Insoniyat tarixining yaxlitligini yagona ritmi yuzaga kela boshladi. Lekin har bir lokal sivilizatsiya o'z ritmini saqlab qoldi. Ba'zi lokal sivilizatsiyalar yorqin chaq nab yo'q bo'lib ketdi. Ularning o'rmini

boshqa yanada yosh, faol, agressiv sivilizatsiyalar egalladi. Bu muntazam yangilanishni ta'minladi.

7. Yaponiya va Amerikaning qadimgi sivilizatsiyalari. Lokal sivilizatsiyalar – Yaponiya va Amerika oziga xos tabiiy-iqlim sharoitlarida yopiq holda rivojlandi. Qadimgi Yaponiyada neolit er. avv. IV ming yillik o'rtalaridan er. avv. 300-yillargacha; eneolit er. avv. 300-yillardan eramizning 300-yiligacha davom etdi. Eramizning 300-yilidan 700-yilgacha Qo'rg'onlar davri (yoki Yamato kuchli podsholiklardan birining nomi) deb ataladi. Bu vaqtda Yapon orollarida ilk davlat va jamiyat shakllandi. Bir biri bilan urushayotgan bir necha davlatlar paydo bo'ldi. Qo'shni Xitoy bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalar rivojlandi. Bu davrning oxirida Yamato qabilasi yo'lboshchisi boshchilik qilgan federatsiya tashkil topdi. Bu davlat boshlig'i «Tenno» (samoviy hukmdor) deb nom oldi. Keyinchalik, imperator deb atalgan.

Ijtimoiy tabaqalanish natijasida aslzoda yer egalari, erkin dehqonlar, qaram ishchi beminlar (mulki bo'lmagan, tenno va aslzodalar xo'jaligida ishlovchilar) va uy qullari ajralib chiqdi. Umumiy ishlov berishni talab qiladigan sholipoyalar jamoa mulki sifatida qaralgan. Xitoy iyeroglif yozuvlaridan o'zlashtirilgan yozuv paydo bo'ldi. Mamlakatda tarqalgan buddaviylik qadimgi sintoizm bilan hamohang bo'ldi.

«Tayko islohotlari» natijasida (VII asr o'rtalari) va undan keyingi o'zgartirishlar natijasida yerlar, dehqonlar va yer egalari o'rtasida taqsimlandi (yer egalarining hammasi davlatga xizmati uchun yer ulushi egalari deb hisoblandilar). Urug'chilik asoslarining yemirgan yangi ma'muriy tuzilish kiritildi. Yagona soliqlar joriy qilindi. Beminlar dehqonlar bilan tenglashtirildi va qullikning tarqalish imkoniyatlari cheklandi. Ilk o'rta asr davlati shakllanishi uchun shart-sharoit yaratildi. Yaponiya jadallashgan, noaniq ifodalangan ritmda uch birinchi tarixiy bosqichni bosib o'tdi.

Ilk odamlar shimoliy Amerikaga bundan 70 ming va 12 ming yil ilgari paydo bo'lgan bo'lishlari mumkin. Katta muzlash davrlarida, bu vaqtda dengiz chekinib, Bering quruqlik bo'yni paydo bo'ldi. Hozir bu yer suv bosishi bilan Bering bo'g'ozini bo'ldi. Sibir va Alyaskadan ovchi terimchilar oyoqqa nam tekkizmay, Bering bo'ynidan o'tdilar. Ular janubga, muzdan xoli bo'lgan yo'l orqali siljib, Buyuk tekisliklar bo'ylab tarqaldilar va Janubiy Amerikaga kirib, Patagoniyaga yetdilar. Antropologlarning fikricha, bu paleo hindular bo'lib, ularda to'g'ri qora soch, mis rang teri, qora ko'zlar, keng daxanlar va kuraksimon tishlar mavjud edi. Yuqorida sanalgan mongoloid belgilar hozirgi Amerika hindularida saqlanib qolgan.

Hozirgacha Amerikaga ularning ajdodlari qachon kirib kelgani to'g'risidagi bahs-munozaralar tugagani yo'q. Kech kirib kelish tarafdorlari, ilk qazilma topilmalar bor yo'g'i 12 ming yoshga ega deb hisoblaydilar. Taxminan shu vaqtda Alyaskadan Meksikagacha bo'lgan hududda nayzalar uchun asosida san'atkorona o'yiqlar qilingani bilan o'ziga xos uchliklar paydo bo'ldi. Klovis deb ataladigan madaniyatga tegishli bu uchliklarning paydo bo'lishi, qachonki, paleohindular shimoliy muzlik qatlamlaridan siljib, janubda hayvon va parrandalarga boy bo'lgan yerni topishlari bilan bog'liq edi.

Yana qadimiyroq sananing tarafdorlari, odamlar Amerikaga bundan 40 ming yil ilgari kelganini tasdiqlaydilar. Lekin Kaliforniyadagi Del Mar odamining bosh chanog'i sanasi aniqlangach, ilgari taxmin qilingan 48 ming yilga teng yoshdan uning yoshi 11 ming yilga kamaytirildi. Shunday qilib biz, o'rta sanada odam Amerikaga 30 ming yil oldin kelgan degan xulosaga kelamiz. Bu sana Yukondagi Eski Karga havzasidagi topilmalar bilan mustahkamlanadi. Bu yerdan, jumladan, terini tozalash uchun suyak qirg'ichlar topilgan. Ko'rinishidan uning yoshi 27 ming yilga teng. Boshqa asosli topilmalar Meksikadagi yoshi 22 ming yil bo'lgan o'choqlar va suyaklardir. Qaysiki, ularning yoshi 20 ming yil yoki undan qadimiyroqdir.

Bundan 3 mln yil oldin tektopik o'zgarishlar oqibatida uzoq vaqt orol bo'lgan janubiy Amerika Shimoliy Amerika bilan qo'shildi. And tog' tizmasi paydo bo'lib, u orqali shimoldan janubga ko'plab hayvonlar, odamlar ko'chib keldilar. Shu vaqtga qadar janubiy Amerika hayvonot dunyosi o'ziga xos edi. Bu yerda yoshi 150 mln yilga teng bo'lgan yalqovlar, og'irligi 2 tonna bo'lgan zirhlilar yashagan. Shimol bilan qo'shilishdan so'ng janub faunasi o'zgardi. Ko'p hayvonlar qirilib ketdi. Odamlar bundan 7 ming yil oldin yovvoyi guanakani xonakilashtirdilar. Natijada baland tog'larda yuk tashiydigan lamalar, go'sht, jun beradigan alpakalar paydo bo'ldi.

Paleoantropologlar, hali ham odam qachon Shimoliy va Janubiy Amerikada paydo bo'ldi va bu migratsiya bir necha birin-ketin yuz bergan to'lqinlar tarzida (qaysiki, kechroq kelgan kelgindilar eskimoslardan oldin yuz bergan) yuz berdi deb munozara qiladilar. Hech qanday shubha yo'qki, odamlar joylashmagan, lekin odam yashashi uchun yaroqli bo'lgan oxirgi bu ikki qit'a bundan 11 ming yil oldin boshdan oxirigacha odamlar joylashgan hudud edi.

Amerika odamlari va hayvonot dunyosi. Bundan 12 mingdan 5 ming yilgacha Shimoliy va Janubiy Amerikaning ko'plab yirik hayvonlari, go'yoki qirilishining ulkan to'loqini bilan supurib tashlandi. Uning qurbonlari turixgacha bo'lgan fillarning yetti turi (mamontlarning to'rt turi va mustodontlarning uch turi), tuyalarning uch turi, uzun shoxli bizon, ot, ba'zi panshasimon shoxli antilopalar va muskus ho'kizlari, yerda yuruvchi ulkan yalqovlar (megateriyalar), ulkan zirxlilar (gliptodontlar) va qilichsimon tishli mushuklar bo'ldi.

Bu hayvonlarning qirilishi, yo'q bo'lib ketishining cho'qqisi bundan 12 ming yildan – 10 ming yilgacha bo'lgan oraliqqa to'g'ri keladi. Bu vaqtda, qachonki paleohindular har ikki qit'ani egalladilar. Shu boisdan ba'zi olimlar, hayvonlarning bu turlari odamlar tomonidan qirib yuborilgan deb hisoblaydilar. Bir mutaxassisning tasdiqlashicha, yuz kishi Kanadadan janubga tomon 1 yilda 16 km tezlikda harakat qilsa, 300 yilda 300 ming kishigacha ko'payib, Meksika qo'ltig'igacha yetishi va yo'l-yo'lakay shu vaqtning ichida 100 mln sutemizuvchilarni yo'q qilishi mumkin ekan. Ammo bu hayvonlarning o'lib ketishi iqlimning tubdan o'zgarishi bilan shimoliy muz qatlamining erish vaqtiga mos keladi. Haroratning tebranishi va yomg'ir namligining miqdori o'simliklarga keskin ta'sir qilib, o'txo'r hayvonlarning ba'zilarini ovqatdan mahrum qildi. Shunday tarzda iqlimning o'zgarishi o'txo'r hayvonlar bilan oziqlanadigan yirtqichlarning och qolishini bevosita sababchisi bo'ldi.

Uchinchi nazariyaga ko'ra, hayvonot dunyosining yo'q bo'lishigi odam ham, iqlimning o'zgarishi ham aybdor. Ushbu nazariyaga ko'ra, iqlimning o'zgarishi o'simlik dunyosiga ta'sir qilib, hayvonlarning ma'lum bir turlari ovqatlanadigan maydonlarning qisqarishiga olib keldi. Bu hududlarda to'plangan va ovqat yetishmasligi oqibatida zaiflashgan butun podalar ovchlarning qurboni bo'ldi.

Mamontlarning yo'q bo'lib ketishi, odamlar sonining o'sishi mamontlarni ov qiluvchi ovchilar madaniyatlari klovis va fols madaniyatlarining bir-birini o'rnini olishi bilan bundan 10 ming yil oldin bizonlarni ov qilish va yovvoyi o'simliklarni terish bilan mashg'ul odamlarning plano madaniyati kirib keldi. Shimoliy Amerika hindularining madaniyati ovchilik bosqichi aralash holda xo'jalik tipidagi madaniyat bilan almashdi. Bu madaniyat arxaik bosqichda yashadi va bundan 2300 yil ilgari yakunlandi.

Markaziy Amerikada taxminan mil. avv. 2 ming yillikda dehqonchilik va hunarmandchilikning rivojlanishi ilk sinfiy jamiyat va ko'pgina davlatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shaharlar, sug'orish tizimlari, ulkan ibodatxonalar qurila boshlandi. Markaziy Amerikada olmek madaniyati, atstek, maya xalqlarining davlat va jamiyatlari gullab-yashnadi. Jamiyat qat'iy ravishda ijtimoiy guruhlariga bo'lindi: hukmdor, harbiy yo'lboshchi va kohinlar, erkin jamoachi va hunarmandlar, savdogarlar, qullar shular jumlasidandir. Er. avv. I ming yillik o'rtalarida yirik shaharlar qurildi. Astronomiya, matematika, haykaltaroshlik va me'morchilik rivojlandi.

2- asrda mayalar tushkunlikni boshdan kechirdilar. O'rmonlar ulkan inshootlar qurish uchun behisob yo'q qilindi. Natijada botqoqliklar paydo bo'lib ekologik halokat yuz berdi. Mayalar sivilizatsiyasi o'ziga xos noyob edi. Mayalar butun Markaziy Amerikada yashadilar.. Milodiy 700 yillarda u gullab yashnadi. Mayalar kalendari siklik bo'lib, 52 yilda o'zgaradi. Mil.avv. 330 - yillardan hukmronlik qilgan 10 hukmdor to'g'risida ma'lumotlar bor. Sivali shahari va boshqa shaharlar bo'lgan. 3 metrlik xudolar haykali saqlanib qolgan. Tosh konlari va ularda mehnat qurollari saqlanib qolgan. Minglab ishchilar 500 kg og'irlikdagi toshlarni ulkan inshootlar uchun qazib olganlar. Elmerador shahrida – 100 ming aholi bo'lgan. Maya oilasi o'rtacha 4 kishidan iborat bo'lgan Mayalar mais, makkajo'xori ekkanlar, dehqonchilik sikli uzilmasligi uchun odamlar qurbonlik keltirilgan. Ular togda bog' terrasalar barpo qilganlar. Mayalar tarixi 2 davr: klassik davrgacha, 2 klassik davrga bo'linadi.

Eng qadimgi mayalar shahri San Bartolo shahridagi inshootlarda freskalar saqlanib qolgan. Freskalarda odam tasvirlari juda yorqin aks ettirilgan. Mayalar 1,5 ming yil oldin dunyoni paydo bo'lishi rivoyatini qoldirganlar. Mais xudosi yer ostiga tushganda uni yer osti xudosi o'ldiradi. Gvatemala tog'laridagi Elmerador shahrida mayalarning ieroglif yozuvlari mavjud. Diego de Lande maya ierogliflarining alfavitini tuzdi. Lekin o'sha vaqtda yevropalik olim maya yozuvlarini o'qiy olmadi. Ispanlarning bosqini vaqtida maylarning muqaddas yozuvlari va qo'lyozmalarni yo'q qilingan. 1945-yil Germaniyadan mayalar matni topiladi. Lande alfaviti bo'yicha yozuvni birinchi bolib Knorozov keyin 1995-yil Devid Stoun ham o'qidi. Elmeradorda hukmdor qabri ochildi

Bundan 15 asr oldin Uopango vulqoni uy'gondi. 536-yil Markaziy Amerikada vulqon otilib ochlik, epidemiya tarqalib iqlim o'zgardi. Maya

hukmdorining amri bilan xudolarni yumshatish uchun odam qurbonlikka keltirilib, uning yuragi yoqildi. Quyosh bulutlar orasiga kirdi. Quyuq bulut Markaziy Amerikada osmonni qopladi. Kuchli yomg'ir boshlanib keyin yong'in yuz berdi. Qaynoq vulqon lavasi soatiga bir necha 100 kmga tarqaldi. Mayalar vulqon otilishidan qochishga harakat qildilar. Vulqon lavasi ostida 80-100 ming kishi halok bo'ldi. Vulqon kuli buluti bir necha kundan bir nech haftagacha tarqaldi. Oq kul mo'rt uylarni tomiga to'planib qoldi. 400 ming kishi episentrdan qochishga urindi. 10-20 smli kul qalinligi qishloq xo'jaligini halok qiladi. Salvador hududida vulqon Maya sivilizatsiyasini halok qildi. Mayalar piramidalari buzildi. Salvadorga odamlar 100 yildan keyin qaytdilar.

Uopango vulqonining zaharli buluti 40 km balandlikka ko'tarilib, butun yer yuziga tarqaldi. Bu vaqtda Afrikadan qora o'lat kasalligi Yevropaga tarqaldi. Bu kasallikni galla ortilgan kemada kalamushlar olib keldi. Kemada bir necha dengizchilar bu kasallikdan o'ldi. Uch qit'ani boglab turgan Konstantinopol shahrida qora olat tarqaldi. Qaltirash, yuqori harorat, ko'ngil aynish bu dahshatli kasallikning alomati bo'lgan. Kuchli og'riqqa chidamagan odamlar o'zlarini o'ldirdilar. Shu vaqtda Konstantinopol shahrida 500 ming kishi yashagan. Shu yili Konstantinopolda har kun 10 ming kishi, 10 kunda 100 ming kishi halok bo'ldi. Imperator Yustinian ham olatdan vafot qildi. Gangrena odam gavdasini yemirdi. O'pka sili tarqaldi. Iqlim o'zgardi. Qisqa muzlash shu yil boshlandi. VI asr o'rtalaridagi vulqon otilishi dunyoni o'zgartirdi. 536-yil qisqa muzlash boshlandi. Bu global halokat edi. Bu vulqon har bir kun harakatga kelishi mumkin.

Markaziy Amerikada mil. avv. I ming yillikning oxirida shakllandi. Uning gullab-yashnashi arxeologlar klassik davr deb ataydigan uzoq davrga cho'zilib ketdi. Tiauanako sivilizatsiyasi milodiy III asrdan VIII asrgacha davom etdi. Bu madaniyatning tarqalish markazi Boliviya yassi tog'ligidagi Titikaka ko'li yaqinida edi. Metallni qayta ishlash (oltin, kumush, mis, jez) keng tarqaldi. Amerika temirni bilmas edi. Shuning uchun bu yerda «oltin jez asri» XV asrgacha toki yevropaliklar Amerikaga kelganlariga qadar davom etdi.

Amerika kontinentida bu davrda qator davlatlar va jamiyatlar mavjud edi. Ularning ichida Inklar imperiyasi eng qudratlisi bolgan. Inklar imperiyasi hududi 900 ming. kv. kmni tashkil qilar va u Tinch okeani bo'ylab 4800 kmga cho'zilib ketgan edi. Bu imperiyaning yuksalishi XIII asrdan

boshlandi. Ayniqsa davlatga Pachakuteka hukmronligi davrida (1438-1471) keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazilishi davlatni kuch-qudratiga zamin yaratadi.

Ink jamiyatida mehnat qilish barcha aholi uchun majburiy edi. Aslzodalar va Oliy inka ham jismoniy mehnat qilishga majbur bo'lgan. Barcha aholi tirikchilik uchun va kohinlarning ehtiyojini qondirish uchun barcha aholi o'z oilaviy yer ulushiga ishlov bergandan keyin, Inka (davlat)ga va Quyosh (ibodatxonalar)ga tegishli yerlarga birgalikda ishlov berishga majbur edi. Shunday yerlardan olingan mahsulotning bir qismi sug'urta jamg'armalarini yaratish va beva, yetimlar, keksalar va nogironlarning ta'minotiga ajratilar edi. Hunarmandlar tayyorlagan mehnat qurollari va qurol-aslahalar davlat omborlarida saqlanar edi. Yer va chorva uch qismga bo'lingan: biri – oila, boshqasi-inka, uchinchi – Quyosh ehtiyojlari uchun. Ayirboshlash natural holda edi. Barcha oila boshliqlari quyi va o'rta darajadagi boshqaruv jarayoniga ishtirok etar edilar. Oliy hokimiyat inkaga tegishli bo'lib, meros bo'lib o'tar edi. Davlat hokimiyatini bir qancha imtiyozlarga ega bo'lgan zodagonlar vakillari boshqarar edi. Lekin aholining barcha tabaqalari ham huquq va erkinliklardan foydalanmas edilar.

Inklar davlatida yuqori mehnat unumdorligiga erishilgan edi. Uning natijasida barcha aholining turmush farovonligini nisbatan qo'llab-quvvatlash imkoniyatini berdi. Katta shaharlar minglab kimga cho'zilgan yo'llar qurilib, jarliklar ustida osma ko'priklar, 750 kmgacha uzunlikdagi kanallar bunyod qilingan.

Amerikaning o'ziga xos lokal sivilizatsiyalari o'zining barcha texnik va madaniy yutuqlari bilan XV asrning oxiri XVI asrda yevropalik mustamlakachilar tomonidan vahshiylarcha yo'q qilindi. Bu vaqtda Amerika-da 30 million odam yashagan.

O'choqlar izlari va yoshi aniqlangan qazilma topilmalar zamonaviy odam Avstraliyada bundan 40 ming yil oldin yashaganidan dalolat beradi. Ba'zi mutaxassislar fikricha, odamlar bu yerga bundan 120 ming yil oldin kelganlar. Qachonki, bu vaqtda yangi Janubiy Uelsda butazorlarning yonib ketishi keskin o'sib, yuqori haroratga chidamli o'simliklarning zamonaviy turlari keng tarqaldi. Lekin Avstraliyada bu davrga tegishli bo'lgan odam skeletlari qoldiqlari yoki qurollar topilgan emas. Ehtimol, ilk bor bu yerda odamlar bundan 55 ming yillikdan toki 35 ming yillar oralig'ida paydo bo'ldilar. Qachonki, okean sathi hozirgiga qaraganda, 50 metr past

edi va ko'pgina orollar bir butunni tashkil qilar edi. Janubi-sharqiy Osiyo aholisi kanoe yoki sollarda Meganeziya qit'asiga (Avstraliya ham shuning bir qismini tashkil etadi) 65 km dengizni suzib o'tishi mumkin edi.

Birinchi avstraliyaliklar bir-biriga o'xshash emas edilar. Bundan 30 ming yil oldin qit'aning janubi-sharqida Mungo ko'li yonida zamona-viy tipdagi odamlar yashar edilar. Ular nozik gavda tuzilishi, skeletiga ko'ra, hozirgi xitoyliklarni eslatar edilar. Lekin bundan 13 ming yil avval Kau-Suomi hududida yashagan odamlar gavda tuzilishi to'ladan kelgan, salmoqli bosh chanog'i, oldinga chiqqan jag'lar va ko'z usti bo'rtmalari hamda yassi peshona bilan Yava orolidagi Solo manzilgohida yashagan ibtidoiy Homo sapiensga tegishli belgilarga o'xshash belgilarga ega edilar.

Shuning uchun ba'zi olimlar, Avstraliyaga ko'chishning ikki to'lqini bo'lgan deb taxmin qiladilar. Ayrim mutaxassislarning tasdiqlashicha, tarixgacha bo'lgan odamlarning turli shakllari hozirgi aboriginlar ajdodlarining chetki variantlarigina xolos. Hozirgi aboriginlarning ko'z usti bo'rtmalarining tuzilishi eng qadimgi vorisiylik alomatlaridir.

Bundan uch asr oldin yevropaliklar Avstraliyaga ilk bor kirib kelgan vaqtlarida aboriginlar so'nggi paleolitda hayot kechirar edilar. Deyarli yalang'och odamlarning katta bo'lmagan yarim ko'chmanchi guruhlarining har biri o'zining doimiy hududida daydib yurar edilar. Nayza va bumerang bilan qurollangan erkaklar ov bilan mashg'ul edilar. Mifologiya va urf-odatlar ularning hayotida muhim o'rin tutar edi: bu raqslarda, tasviriy san'atda, og'zaki tarqaladigan qo'shiq va afsonalarda o'z aksini topdi. Bularning barchasi hozirgi kunda ham saqlanib qoldi. Shu sababli, avstraliyalik aboriginlarning urf-odatlarini o'rganish dunyoning boshqa chekkalaridagi tarixgacha bo'lgan odamlarning turmush tarzini yaxshi tasavvur va tushuncha hosil qilishga yordam beradi.

Birinchi avstraliyaliklar o'zlariga tegishli bo'lgan hududda ozuqa izlab muntazam ko'chib yurganlar. Ular vaqtinchalik turar-joylar, chaylalar quradilar. Lekin joylarda mavsumiy – o'troq qo'rg'onlar 120 kv. m gacha bo'lgan tomli uylar qurilgan. Avstraliyada tunda harorat 00 gacha tushadi va sovuqdan himoya qilishga to'g'ri keladi. Oppossum yoki yosh kenguruning isitadigan terilaridan hamma ham foydalana olmagan. Ko'pincha yog' yoki yog' va oxra (bo'yoq) aralashmasi badanga surtilgan. Sovuqdan asosiy himoya olov bo'lib, uni ishqalash yo'li bilan hosil qilganlar. Yerda o'yilgan chuqurlarda olov yoqilib, hayvon go'shtini qovurganlar, dimlaganlar.

Tayanch iboralar: Rossiya, Yaponiya, Amerika, temir davri, Maykop madaniyati, hududiy jamoa, Karpat, urug' – qabila oqsoqollari, harbiy boshliq, kohin, Sibir, Oltoy, Xolchayon, Baqtriya neolit, Yamato, qo'rg'onlar davri, «Tenno»-samoviy hukmdor, Titikaka, Olmek madaniyati, Inklar.

Takrorlash uchun savollar:

- 1. Tarixgacha bo'lgan davrda aqlli odam genotipi shakllanishining asosiy belgilari.*
- 2. Neolit inqilobining tarixiy mazmuni va ahamiyati nimadan iborat?*
- 3. Xususiy mulkchilik va bozorning paydo bo'lishi progress edimi?*
- 4. Ilk sinfiy sivilizatsiyalarning asosiy yutuqlarini sanab bering.*
- 5. O'rta Osiyoda neolit, jez va temir asrlarining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. O'rta Osiyo mezolit davrida.
2. O'rta Osiyo hududida neolit, jez va temir asrlari.
3. Qadimgi Yapon sivilizatsiyasi.
4. Amerikaning qadimgi sivilizatsiyalari.
5. Rossiyaning qadimgi sivilizatsiyalari.

2-MAVZU: QADIMGI JAMIYATLAR ODAMI

1. Homo sapiens kuchlarining o'sishi va ularning taraqqiyoti. 2. Qadimgi jamiyatlar odamlari qobiliyati va ehtiyojlarining o'sishi. 3. Inson bilim va ko'nikmalarining progressi. 4. Inson faoliyati motivlari va manfaatlari dinamikasi.

1. Homo sapiens kuchlarining o'sishi va ularning taraqqiyoti. Jamiyatdagi barcha o'zgarishlarning ildizi, uning boshlang'ich bo'linmas atomi – inson, uning ehtiyojlari va ko'nikmalari, faoliyatining motiv va manfaatlarining o'sishidan izlash lozim.

Birinchi uch sivilizatsiyalar – qadimgi jamiyatlarda insonda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi? Zamonaviy odamning shakllanishi paleolit nihoyasida tugallandi. Etnograflar va tarixchilarning tasdiqlashicha, odamning biologik tip sifatida rivojlanishi tugallangan. Yaratilgan jamiyat sharoitida turni paydo qiladigan kuch sifatida biologik tanlov qonuni to'la amalga oshib bo'ldi, lekin odamning biologik evolyutsiyasini to'xtagani to'g'risidagi xulosalar xatodir. Biror-bir urug' yoki tur bunday evolyutsiyani najotsizlikka tushib qolish xavfi ostida va atrof-muhitni keskin o'zgartirish natijasida o'zining mavjudligini ta'minlashi mumkin emas. Tarixiy vaqtga qaraganda, biologik vaqtning ohangi anchagina sekinroq va bir necha ming yillar davomida to'planib qoladigan biologik turdagi o'zgarishlar, sakrash fursati sezilmasligi, ko'rinmasligi mumkin. Haqiqatdan, vorisiylik va o'zgaruvchanlik, bioijtimoiy genotip, ijtimoiy boshlanish, ijtimoiy dinamika va genetika qonuniyatlarining roli oshadi.

Birinchi uch sivilizatsiya davomida insonda bioijtimoiy mavjudot sifatida qanday o'zgarishlar bo'ldi? Bu davrda bosh miyaning hajmi va massasi sezilarli o'zgarmadi, lekin uning tuzilishi murakkablashdi. Bunga bir tomondan uning faoliyat turlarini kengayishi va ko'payishi, takror ishlanadigan va beriladigan axborotning ko'p marta o'sishi sabab bo'ldi. Boshqa tomondan inson iste'mol qiladigan oziq-ovqat xilma-xilligining ko'payishi, miya faoliyatini faollashtiradigan ovqatda oqsil mahsulotlari va vitaminlardan foydalanish kengaydi.

Bu yerda asosiy yutuq – ikkinchi signal tizimining o'zlashtirilishi, atrof dunyoni qabul qilish qobiliyati, uning imkoniyatlari va tahdidlarini nafaqat bevosita qabul qilish, balki so'z yordami bilan – dastlab og'zaki (bunday qabul qilishning ibtidoiy ko'rinishi ba'zi oliy mavjudotlar – may-

munlar va delfinlarda kuzatiladi), keyin esa u ramzlar yordamida yozma bo'ldi. Bu keyingi avlodning tirik qolishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash va uzatish imkoniyatini kengaytirdi. Inson miyasining chap yarim shari funksiyasining o'sishiga yordam berdi. Shu bilan bir vaqtda inson aqliy qobiliyatlarining differensiyasi kuchaydi. Zakovat potentsiali neolit jamiyatida nisbatan sezilarli bo'lmagan aql – zakovat antik jamiyatda sezilarli hajmlarda o'sdi.

Insoniyatning jismoniy tuzilishi ming yillar davomida sezilarli o'zgarmadi. Odamning bo'yi hozirgidan ko'ra, past bo'lgan. Antropolog olim M.M.Gerasimovning rekonstruksiyasiga ko'ra neolit odamining tashqi qiyofasi hozirgidan amalda farq qilmagan. Faqat mil. avv. 30-25 ming yilliklarda uch katta irq – mongoloid (Osiyo – Amerika), negroid, avstraloid (ekvatorial) va yevropoid (Yevropa – Osiyo) shakllandi. Ularning orasida oraliqdagi va aralash (gibrid) tiplar mavjud.

Lekin irqlardagi farqlar genetik kodda qo'yilgan va ko'pgina bir xil bo'lmagan tabiiy yashash sharoiti bilan bog'liq bo'lgan farqlar turli irq-larning vakillarini aqliy va jismoniy qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Odamning evolyutsiyasi va uni takror ishlab chiqarish oila orqali amalga oshadi. Oilaning funksiyalari va ahamiyati uch sivilizatsiya davomida jiddiy o'zgardi va ancha o'sdi. Oilaning biologik funksiyasi insoniyat urug'ini kishilar avlodlar almashuvi asosida davom ettirishdir. Odatda oila uch aralash avlodni birlashtiradi: faol harakat qiladigan (kattalar), yetishib keladiganlar (bolalar) va ketadiganlar (qariyalar)dir.

Irqlarga ajralish farzlarga ko'ra bundan 90-ming yil oldin neoan-tropning Afrikada, Osiyo va Yevropani kirib kelishidan boshlanib asosan bundan 50 ming yil oldin tugallandi. Hozirgi zamonaviy odam bir tur-ga mansub insoniyatning birligi, kelib chiqishining umumiyligi, tuzilishining o'xshashligi, avlodining ma'lumligi turli irq vakillari o'rtasidagi nikohdan kelib chiqadi. Barcha odamlarning aqliy va jismoniy rivojlanishining umumiy darajasi bir xil. Homo sapiens turi ichida uch katta irq: negroid, yevropoid va mongoloid ajratiladi. Ularning har biri kichik irq-larga bo'linadi. Irqlar o'rtasidagi farqlar teri rangi, ko'z, burun, lab shaklining o'ziga xosligiga borib taqaladi. Bu farqlar odam populyatsiyalarining mahalliy tabiat sharoitlariga moslashuvi natijasidir.

Odamning butun yer kurrasida tarqalishi irqiy ajralishga olib keldi. Geografik hudud, iqlim, ma'lum bir hududda uzoq vaqt boshqalardan ajralib

yopiq yashash, irqning shakllanishida sezilarli ta'sir qildi. So'nggi paleolit odamlarining bosh chanoqlari topilmalarida hozirgi vaqtda mavjud insoniyat irqiy bo'linishining asosiy xususiyatlari yetarlicha aniq ifodalangan. Ular qit'a chegaralari bo'yicha aniq mos tushadi. Yevropoid irqi ko'proq Yevropada, mongoloid – Osiyoda, negroid irqi Afrika va Avstraliyada shakllandi va joylashdi. Chegara hududlar – O'rtayerdengizi, Yevropa qirg'oqlari yaqinida negroid irqi, Afrikada – yevropoid guruhlar; Kavkaz va O'rta Osiyoda yevropoid irqi vakillari o'rmasdi. Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyoda negroidlar mongoloid va yevropoidlar bilan aralashdi. Uch asosiy irqning morfologik har xillikda shakllanishida asosiy o'rinni ikki omil egalladi – turli qit'alarda har xil bo'lgan muhitga moslashuv; qit'alar o'rtasida yetarlicha keskin ajralib turadigan tabiiy chegaralar tufayli butun bir qit'alarning bepoyon kengliklarida yopiq, boshqalardan ajralgan holda yashashga moslashuv.

Bir-birini qo'llab-quvvatlash va to'ldirish asosida bu tuzilmalar jamiyatning ilk bo'g'inida takror ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlaydilar. Mezolit va neolit davrida ochlik, kasalliklar (ba'zida butun-butun oilalar, urug'lar o'lib ketar edi), dushman qabila – urug'lar bilan to'qnashuvlar, tabiat ofatlaridan odamlarning o'limi yuqori darajada bo'ldi. Odamlarning hayot kechirishini davomiyligi 25-35 yoshni tashkil qilib, avlodlar almashuvining tebranishi 15-20 yilni tashkil qilar edi. Keyingi sivilizatsiyalar davrida hayotning davomiyligi birmuncha uzaydi.

Ochlik va kasalliklardan o'lim topish kamaydi, lekin harbiy to'qnashuvlarda halok bo'lganlar soni keskin o'sdi. Ikkinchi va uchinchi sivilizatsiyalarda aholining anchagina qismi qullar edi. Odatda ular oila qurish nukoniyatidan mahrum edilar. Ularning umri ham qisqa edi. Bu esa aholining o'sishiga salbiy ta'sir qilar edi. Aholining zichligi daryo va qirg'oq bo'ylaridan tashqari juda past bo'lib, uning o'sishi juda sekin edi. Hisob-larga ko'ra, 4.5 ming yil davomida (7000-yildan 2500-yilgacha) Yerning aholisi bor-yo'g'i 4 marta (10 mln dan 40 mln gacha) o'sdi. Keyingi 2,5 ming yil (jez va temir asrining boshlari)da aholining tabiiy ko'payish sur'ati ancha o'sdi. Aholi soni yangi era boshida 160 mln kishiga yetdi, lekin qadimgi jamiyatning tushkunligi davrida aholining o'sish sur'ati yanada sezilarli pasaydi.

Insoniyatning bunday soni biosferaga jiddiy ta'sir ko'rsata olmas edi, lekin aholi zich joylashgan hududlarda insoniyatning faoliyati salbiy ekologik oqibatlariga olib keldi (yerning eroziyasi, sug'oriladigan yerlarning

shoʻrlanib ketishi, oʻrmonlarning kesilib ketishi, yovvoyi hayvonlarning ayrim turlarini yoʻqolib ketishi).

Dehqonchilik xoʻjaligiga oʻtish natijasida oilaning iqtisodiy funksiyasi keskin oʻsdi. Soʻq va plug dehqonchiligi asta-sekin jamoa doirasida alohida oilalarning mashgʻuloti boʻlib qoldi. Plug dehqonchiligining rivojlanishi vaqtidan dehqonchilik mehnati ayollarning qoʻlidan erkaklarga oʻtdi va erkak oilaning boshligʻi boʻldi. Yetishtirilgan mahsulot jamoa aʼzolari oʻrtasida taqsimlanmaydigan boʻldi. Mulk esa otadan uning oʻgʻillariga meros qoladigan boʻldi. Ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulk asoslari shaklana boshladi.

Jamiyat iqtisodiy tuzulmasining ilk boʻgʻini boʻlgan oilada inson jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi sifatida takror ishlab chiqarila boshlandi. Oilada asosiy dehqonchilik, chorva, hunarmandchilik, shaxsiy ehtiyoj buyumlari ishlab chiqarilib, uy xoʻjaligi olib borildi. Faqat bir qism mehnat operatsiyalari va mahsulotlari jamoa mulki edi. Oilaning ichida mahsulot ayirboshlash yoʻq edi. Oilada natural ayirboshlash mavjud boʻlib, ishlab chiqarilgan mahsulot teng taqsimlanar edi.

Jez davrida iqtisodiy ajralish va oilalarning mulkiy tabaqalanishi kuchaydi. Mulkdor va qashshoq oilalar hamda qullar paydo boʻldi. Erkin jamoachilar, hunarmandlar asosiy soliq toʻlovchilar edi. Antik davrning soʻngida qul mehnati samarasiz boʻlib qoldi. Qullarga oila qurish, yer-mulkka egalik qilishga ruxsat etildi. Qadimgi davrda Oʻrta Osiyoda erkin jamoachilar, hunarmandlar asosiy ijtimoiy tabaqalar boʻlib, qullar soni kam bolgan. Rim imperiyasida kelgusi feodal yer egaligining asosi – kolo-nat vujudga keldi.

Asta – sekin oilaning ijtimoiy funksiyasi oʻsa boshladi. Oila yerga egalik qildi. Oila patriarxal boʻlib ota mulk egasi edi. Oʻsib borayotgan avlod oilada taʼlim-tarbiya oldi. Bola yuz yillar davomida toʻplangan koʻnikma va malakalarni oiladan oldi. Oila ijtimoiy genotipni saqlaydigan va meros qilib beradigan asosiy boʻgʻin edi. Jamiyatda tabaqalanish kuchayishi, ijtimoiy qatlamlar, toifalarning paydo boʻlishi bilan oila yordamida mavjud ijtimoiy farqlar merosiy uzatildi.

2. Qadimgi jamiyatlar odamlari qobiliyati va ehtiyojlarining oʻsishi. Inson ehtiyojlarini toʻrt asosiy guruhga boʻlish mumkin:

kuch va mehnat qobiliyatini takror tiklash bilan odamni biologik mavjudot sifatida takror ishlab chiqarish bilan bogʻlangan biologik guruh.

Bunda oziq-ovqat, uyqu, hordiq, kiyim va poyafzal va h.k.larga tegishli ehtiyojlar kiradi. Bu ehtiyojlarni qondirish uchun fiziologik minimum bor. Usiz hayot mumkin emas. Odam esa ichki zahiralarni tugallab halok bo'ladi. Bu ehtiyojlar doirasi tarixiy jarayonning har bir bosqichida ijtimoiy kelib chiqishning unsurlari bilan boyidi;

iqtisodiy – turli xil mehnat faoliyatini amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqargan ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan mahsulotlarni o'zlashtirish, ularni taqsimlash va ayirboshlash, boylik to'plash va ularni meros bo'yicha uzatish va h.k. Shunday qilib, uzluksiz ijtimoiy takror ishlab chiqarishning uzluksizligi ta'minlanadi;

ijtimoiy ehtiyojlar – bu ijtimoiy mavjudot sifatida inson vujudga keltirgan jamiyatning shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlarini aks ettiradi. Bu guruhga oila-qarindoshlik, etnomilliy, ijtimoiy-guruhiy, umuminsoniy ehtiyojlar kiradi.

ma'naviy – bu inson va jamiyatning intellektual potensialining taraqqiyotini aks ettiradi. Bu atrof dunyo va o'z-o'zini bilishga ehtiyoj; dunyoni estetik baholash va obrazli qabul qilish bilan aloqador; ta'limga ehtiyoj, bilimlarni to'ldirish va yangilash, jamiyatning boshqa a'zolari bilan tartibga solingan adolatli munosabatlarga ma'naviy ehtiyojlar, jamiyatning ko'pgina a'zolari uchun hayotning mazmuni va maqsadini belgilaydigan mafkuraviy va asosan diniy ehtiyojlar.

Birinchi uch tarixiy bosqichlar davomida inson ehtiyojlari va qobiliyatlari dinamikasi an'analari qanday bo'ladi? Birinchidan, ehtiyojlarining asosiy ko'rinishlarini nisbati va ularni qondirish uchun ijtimoiy mehnat nisbatlari o'zgardi. Mezolit va neolit boshida, shubhasiz, ustuvorlik biologik ehtiyojlarga tegishli edi. Ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga kuch kam qolar edi. Ular ham insonning manfaatlari doirasida salmoqli o'rin egallamas edi. Jez asri iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarining keng doirasini shakllantirdi. Antik jamiyatda aynan ular ustuvor o'rinni egalladilar. Misr, Xitoy, Hindiston va O'rta Osiyoda bunyod qilingan yirik shaharlardagi ulkan saroylar, ibodatxonalar va sag'analar buning guvohidir.

Ikkinchidan, aholining turli guruhlarini ehtiyojlarining ijtimoiy tabaqalanishi shakllandi. Ilk neolitda odamlar va oilalarning ehtiyojlari taxminan bir xil edi va ularda shubhasiz biologik ehtiyoj ustuvor edi. Jez asri esa ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlar doirasini shakllantirdi. Katta boylikka ega bo'lgan hukmron diniy va harbiy elitaning turli xil

nozik ehtiyojlari bor edi. Erkin shaharliklar, hunarmandlar, harbiylarning ehtiyoji ancha cheklangan bo'lib, ko'p sonli qullar va eng qashshoq kambag'allarning ehtiyojlari juda kam edi va paleolit jamiyatining o'rta odami ehtiyojlaridan kam farq qilardi.

Uchinchidan, ehtiyojlarning hududiy ajralishi kuchaydi. Agar paleolit va mezolit davrida turli hududlarda jamoa va qabilalarning ehtiyoj tarkibidagi farq uncha katta bo'lmagani va eng avvalo, tabiiy muhitning har xilligi bo'lsa, dehqonchilik va chorvachilik, hunarning rivojlanishi bilan ehtiyojlarni orasidagi farq va ularni qondirish darajasi muntazam o'sib bordi va u ko'proq ishchilarning mohirligi, texnologik va iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lib qoldi. Turli hududlarda chorvador va o'troq aholi, turli xalqlarning yashashi, ularning turli davlatlar tarkibiga kirishi, iqtisodiy va madaniy almashinuvlar hajmining o'sib borishi turli xalqlarning ehtiyoj va qobiliyatlar tarkibini yaqinlashuviga olib keldi.

3. Inson bilim va ko'nikmalarining progressi. Insoniyat 10 ming yillar davomida avlodan-avlodga atrof-muhit to'g'risidagi bilimlarni orttirdi, tabiat kuchlari va hodisalaridan foydalanish ko'nikmalarini to'pladi. Yovvoyi hayvonlar, qushlar, baliqlarning xatti-harakatini bilish, ularni ozuqa – yemish qilish uchun ovlash kerak edi. O'simliklarning teriladigan mevalarini foydali xossalari bilish zarur edi. Tosh, yog'och va suyaklardan qurollar tayyorlash, oddiy uy-joy qurilishi, ovqat tayyorlash, olov yoqish va uni yonib turish texnologiyasini bilish kerak edi. Lekin insonning bilim va ko'nikmalarida haqiqiy yorib o'tish neolit inqilobi davrida boshlandi. Odamlar kerakli ekin va boshqa foydali o'simliklarni tanlab olish, yerga ishlov berish, ekin ekish, hosilni yig'ish va uni qayta ishlashni o'rgandilar. Ular ekish uchun kerakli vaqtni bilib oldilar. Yerni qazish uchun tayoq, motiga, so'qa, plug yasadilar. Sug'orish tizimini kashf etdilar. Zaruriy xomashyo xossalari, ularni takror ishlash va foydalanish texnologiyasini bilmasdan turib, hunar va qurilish bilan shug'ullanish mumkin emas edi.

Jez va temir davrida jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy differensiat-siyasi, mulkchilikning turli shakllari, mol ayirboshlash, pul, ijtimoiy qatlamlar, davlatlar, huquqiy normalar, xalqaro savdoning rivojlanishi – bularning barchasi dunyoqarashni ancha kengaytirdi va ilgari bo'lmagan faoliyat turlari, yangi sohalarida bilimlar va kasb ko'nikmalarini talab qildi.

Jamiyatning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan va jadal o'sib borayotgan bilim va ko'nikmalar, individ, inson (shuningdek, hayot muddati nisbatan qisqa edi)ning cheklangan imkoniyatlari va qobiliyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik mehnat taqsimotini chuqurlashuvi asosida yechilishi mumkin edi. Har bir faoliyat turida o'nlab kasblar shakllandi va ularning har birida yuqori darajada kasbiy mahorat va san'atga erishildi. Bilim va ko'nikmalarni uyushgan holda uzatadigan ixtisoslashgan ta'lim tizimi paydo bo'ldi. Jez davri ishchisi, shuningdek, antik sivilizatsiya ishchisi neolit sivilizatsiyasi ishchisiga qaraganda, ancha ko'p hajmda turli xil bilim va ko'nikmalarga ega edi. Mehnat unumdorligi ko'p marta o'sdi. Yangi yerlarni o'zlashtirish, harbiy yurishlar, jahon imperiyalarining yuzaga kelishi, turli xalqlar o'rtasidagi ayirboshlashning jadal o'sishi to'plangan bilim va ko'nikmalarni chekka hududlarga tez tarqalishiga olib keldi. Bu bepoyon hududlarda intellektual va kasb-hunar progressining jadallashuviga yordam berdi.

4. Inson faoliyati motivlari va manfaatlarini dinamikasi. Jamiyatning shakllanishi va rivojlanishini birinchi bosqichida inson faoliyatining asosiy motivi hayot uchun kurash, qiyin va o'zgaruvchan sharoitlarda ham tirik qolish, avlodni davom ettirish edi. Inson to'plangan bilim va ko'nikmalar, yaratgan mehnat qurollarini o'z maqsadlariga erishish uchun qo'llashi mumkin edi.

Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka o'tish bilan neolit odamining maqsadlari va faoliyat motivlari doirasi kengaydi. Endilikda uzoqqa mo'ljallangan maqsadlarni qo'yish zarur edi. Dehqon, hunarmand va boshqalarning yanada mohir mehnati talab qilindi. Mohir ishchi oilasini boqishi uchun uzoq o'qib o'rganishi va dolzarb mahsuldor mehnat qilishdan manfaatdor bo'lishi kerak edi. Biologik motiv mexanizmi iqtisodiy, xususiy lashtirish va ekvivalent ayirboshlashga asoslangan iqtisod bilan to'ldirilgan bo'lishi kerak edi. Bu jamoalar inson, oila, qabilalarning manfaat - maqsadlari va motivlarining rivojlanishida ulkan qadam edi. Aholi soni va zichligining oshishi, davlat va huquqiy normalar tizimining paydo bo'lishi, quldorlik xo'jaligiga o'tish, noiqtsodiy majburlash, zo'ravonlik va undan himoya bilan bog'langan ijtimoiy manfaatlar va faoliyat motivlarining yangi qatlamini tug'dirdi.

Nihoyat ma'naviy ehtiyojlarning kengayishi va ularni qondirish uchun aqliy mehnat kishilari shugullana boshladi. Shunday qilib, birinchi uch sivilizatsiyalar yakunida turli xil manfaatlar va motivlar faoliyati doirasi

shakllandi. Unda inson taraqqiyoti, jamiyat tuzilmasi murakkablashuvini aks ettiradigan qavatlar qurilib, biologik poydevor rivojlantirildi.

Tayanch iboralar: Homo sapiens, biologik vaqt, mongoloid, gibrid, bioijtimoiy, biosfera, iqtisodiy ajralish, eroziya, ijtimoiy genotip, plug, kolonizatsiya, ma'naviy, biologik ehtiyojlar, qobiliyatlar dinamikasi, biologik evolyutsiya.

Takrorlash uchun savollar:

- 1. Qadimgi sivilizatsiyada insonning ijtimoiy potentsiali qanday ochiladi?*
- 2. Ilk uch sivilizatsiya davomida qanday va nima uchun oilaning funksiyasi o'zgardi?*
- 3. Qadimgi jamiyatda inson ehtiyojlari tuzilmasi va darajasidagi o'zgarishlar.*
- 4. Qadimgi jamiyat inson manfaatlari va faoliyat motivlarining rivojlanishiga yordam bergan, asosiy omillarni ayting?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. Oilaning genezisi va uning funksiyalari.
2. Inson faoliyatining motivlari.
3. Ilk ilmiy bilimlarning yuzaga kelishi.

3-MAVZU: QADIMGI JAMIYATLARDA TEXNIK PROGRESS

1. Mehnat qurollari va materiallarining evolyutsiyasi. 2. Ilk sivilizatsiyalarning yoqilg'i-energiya resurslari. 3. Qadimgi dunyoda inson va tabiat. Ekologik tushkunliklar. 4. Ishlab chiqarishni tashkil etishning shakllari dinamikasi.

1.Mehnat qurollari va materiallarining evolyutsiyasi. Insoniyat taraqqiyotidagi har bir bosqich, uning bilim va ko'nikmalari, jamiyatning texnologik bazasida- mehnat qurollari xususiyati va to'plami, foydalaniladigan xomashyo va buyumlar, qo'llaniladigan yoqilg'i va texnologiyalar, ishlab chiqarishga tabiat kuchlarining tortilish darajasi va atrof-muhitga ta'siri mehnatni tashkil qilishdagi taqsimot va kooperatsiyadagi tub o'zgarishlarda o'z ifodasini topdi. Jamiyat piramidasining ikkinchi qavatidagi har bir unsurida turli uzunlikdagi sikllar almashuvi kuzatiladi. Ular sinxron o'zaro harakat qilib, ishlab chiqarishning texnologik usullari almashuv ritmini belgiladilar. Ularning har birini texnologik ukladlarning texnik progressini umumlashgan ifodasi deyish mumkin.

Neolit sivilizatsiyasi unga xos ishlab chiqarishning texnologik usuliga qadar inson foydalanadigan ishlab chiqarish vositalari majmuasining juda uzoq shakllanishi va sekin rivojlanishi bo'ldi.

Zamonaviy odamning uzoq avlodi ov yoki yovvoyi hayvonlardan hi-moyalanishi, qo'liga tushib qolgan tosh yoki tayoqlardan ba'zi paytda foydalanishi, yog'och, tosh va suyaklardan mehnat qurollari tayyorlas-hga o'tishi va ov insoniyatning shakllanish tongidagi ulkan umumtex-nik to'ntarish deyish mumkin. Odamlar ibtidoiy qurollar bilan o'simlik urug'lari va ildizlarini qazish, terish, hayvonlarni ovlash jarayonida tosh, kremniy, yog'och, suyak parchalariga ishlov berish, ularga kerakli shakl berish va mehnat quroli sifatida foydalanishga o'rgandilar. Ishlab chiqa-rishning paleolit usuli rivojlanishida bir necha katta bosqichlar (texnolo-gik sikllar)ni ajratish mumkin. Ulardan eng qadimgisi quyi paleolitning dastlabki bosqichida tosh madaniyati – qo'pol ishlov berilgan, bodom-simon shakldagi toshlarning bir cheti bir necha bor ushatilgan. Bunday toshlar Sharqiy Afrikadagi Olduvay g'oridan topilgan (Olduvay mada-niyati).

Quyi paleolit rivojlanishining navbatdagi bosqichi Shell davrida (Fransiyadagi Shell qishlog'idan toshdan yasalgan qo'l randasi topilgan)

uch burchakli nayza uchlari yordamida yovvoyi hayvonlarni ovlash yoki ulardan himoyalaniish, go'shtni maydalalab yeyish, o'simliklarni qazib olish mumkin edi. Yuqori paleolit (er. avv. 40-10 ming yillik) va o'rta paleolitga o'tish (mustye davri) mehnat qurollarining yanada rivojlanish davri bo'ldi. Qo'l randasi yoki qirg'ich ko'pincha ushatilgan tosh siniqlaridan tayyorlandi. Undan yog'och va teriga ishlov berish, silliqlash va kesishda foydalanilgan.

Yuqori paleolit (er. avv. 40-10 ming yil)ga o'tish nayza va otiladigan nayzalar, nayzalarning suyak uchlari, garpun, tosh bolta va keskichlarni kashf qilish bilan belgilanadi. Mezolit davri texnologik to'ntarishining yuragi o'q-yoyning kashf etilishi bo'ldi. O'q-yoy ovchilarning mehnat unumdorligini ko'p marta oshirdi va jangovar qurol bo'ldi. Shuningdek, mikrolitlar kichik tosh qurollardan keng foydalanila boshlandi. Mikrolitlar kichik plastinalar (tosh parchalari) yoki ushatilgan tosh parchasi bo'lib, nayza uchi, o'qlar, uloqtiriladigan nayzachalar, garpunlar sifatida ishlatilgan. Ilk dehqonlarning motiga shaklidagi qurollari va tosh yorg'ichoqlari paydo bo'ladi. Baliqchilikda qarmoq va to'rlar qo'llaniladigan bo'ldi. Sopol ko'zalar tayyorlash boshlandi. Texnikadagi haqiqiy inqilob neolitga o'tishda dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va harbiy ishni o'zlashtirish bilan boshlandi. Ishlab chiqarishning neolit texnologik ishlab chiqarish usuli shakllangani to'g'risida aytish mumkin. Uning shart-sharoitlari mezolit davridayoq yaratilgan edi. Toshdan qurollar tayyorlashning yangi texnikasi o'zlashtirildi. G'alla o'roqlari va pichoqlar silliqlash, parmalash orqali tayyorlana boshlandi. Loydan pishirilgan sopol idishlar tayyorlana boshlandi.

Asosiy an'ana mehnat qurollarining ixtisoslashuvi bilan ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi edi. Dehqonchilik mehnati uchun maxsus mehnat qurollari majmuasi shakllandi (qirg'ich, so'qa, yog'och plug, g'alla o'roq va pichoqlar, hosilni saqlash uchun sopol xumlar). Qurollarni tayyorlashda kremniy, obsidian, suyak, hayvon shoxlari bilan bir qatorda yanada mustahkam va ishlov berish qiyin bo'lgan nefrit, jadeit kabi tosh jinslari qo'llanildi.

Neolit texnikasi taraqqiyotida olimlar birinchi madaniyatni ajratdilar: Nil vodiysida Badari madaniyati (er. avv. 6-5 ming yillik), qadimgi Persepol hududidagi dehqonchilik madaniyati (Janubiy Eron), Karial Shaxir va Qalai Yarmol (Shimoliy Eron), Xassun va Xalaf (Old Osiyo er. avv. 6 – 5 ming yillik), Oltintepa madaniyati (O'rta Osiyo er. avv. 5 ming yillik).

Keyingi uchinchi umumtexnika inqilobi jez asri boshlariga to'g'ri keladi. Uning asosiy mazmuni mis va oltin, keyin esa jezdand quril va mehnat qurullari, uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarishni o'zlashtirish bo'ldi. Shu bilan jez asrining ishlab chiqarish texnologik usuli boshlandi. Bu ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi mehnat samaradorligini oshirishda eng katta sakrash edi. Metall qurullar tosh qurullarga qaraganda, qimmatroq va maftunkorroq edi. Bu metall qurullar toshga qaraganda, ko'p marta samarali quril sifatida odam undan hayvonlarga va o'z dushmanlariga qarshi foydalanishi mumkin edi.

Metall tayyorlash texnikasi va metall qurullar texnikasining boshqa sohalari katta ahamiyatga ega bo'lgan. Metall qurullardan, jumladan, pichoq, arra, parmadan foydalanish yog'ochga ishlov berishni o'zgartirdi. Duradgorlik hunari paydo bo'ldi va hamma joyda g'isht qalashni qo'llashga olib keldi. Birinchi mashinalar, jumladan, g'ildirakli arava, suv g'ildiragining yuritilishi metall dan foydalanish tufayli yuz berdi. Asosiy kasb bo'lgan dehqonchilik, ya'ni yerga ishlov berish jarayonida ho'kiz tortadigan motiga yoki plug toshni metall bilan almashtirilgani sababli samarali bo'ldi. Mis, keyinchalik jez qurullari majmuasining yaratilishi yirik daryo vodiylari (Nil va Frot er avv. 4 ming yillik, Hind daryosi er. avv. 3 ming yillik)da sug'orma dehqonchilikka o'tish imkonini berdi. Hunarmandlarning paydo bo'lishi va ularning sohalarga bo'linishi (mis, jez mehnat qurullari, oltin bezaklar, metall ro'zg'or buyumlari, metall qazish va quyish, temirchilik ishi, qayiqlar, yelkanli kemalarni qurish, saroylar, ibodatxonalar, maqbaralarni qurish)ga turtki berdi. Qo'shimcha mahsulotni tizimli ishlab chiqarish imkoniyati tug'ildi.

Jez asri bir necha bosqichlarga bo'linadi. Eneolitdan keyin ilk, o'rta va so'nggi jez asri boshlandi. Har bir bosqichga o'z texnologik ukladi to'g'ri keladi. Tosh qurullardan foydalanish asta-sekin qisqardi, lekin jezning uncha katta bo'lmagan hududlarga tarqalishi va misni olishdagi katta mehnat hajmi, uning nisbatan yumshoqligi ulardan samarali foydalanishni chekladi.

Qadimgi davrda ishlab chiqarish texnologik usulining yadrosini temir, keyin po'latdan foydalanish tashkil qildi. Meteorit temir ilgari ham ishlatilardi, lekin metallarni quyish va takror ishlash texnologiyalarini takomillashtirish bilangina temir xomashyosi, keyinchalik uglerodli po'latni keng qo'llash imkoniyati yuzaga keldi. Temir va po'latni qayta ishlash murakkab bo'lsada, lekin qattiq va mustahkamligi, birlamchi xomashyo-

ning keng tarqalganligi sababli eramizning I ming yilligi boshlarida turli mamlakatlarda keng qoʻllanildi. Temirdan foydalanish lokal sivilizatsiyalarning gullab-yashnashi uchun asos boʻldi.

Temir asrida yashagan xalqlar oʻtroqlikka oʻtib, qachonlardir unumdor boʻlmagan yerlarda gullab-yashnagan qishloq xoʻjalik, hunarmandchilik jamoalarini yaratish qobiliyatiga ega boʻldilar. Natijada ilk daryovodiy boʻyi sivilizatsiyasining siyosiy, iqtisodiy yetakchiligi kamaydi. Ular endi madaniy, iqtisodiy, siyosiy oʻchoqlar rolini oʻynamay qoldilar. Shunga qaramasdan, ularning madaniy, moddiy, maʼnaviy yutuqlari keyingi avlodlarga uzatildi. Temirning oʻzlashtirilishi jahon progressi epitsentri Sharqdagi daryo vodiylaridan Yevropa hududlariga koʻchishiga sabab boʻldi.

Temir asrining yana bir yutugʻi dengiz kemasozligining rivojlanishi boʻldi, qaysiki, u quruqlik transportidan koʻp marta arzon boʻlib, savdoning kengayishi, yashashga qulay yangi hududlarni oʻzlashtirishga yordam berdi.

2. Ilk sivilizatsiyalarning yoqilgʻi-energiya resurslari. Paleolit, mezolit va qisman neolit davrida mehnat vositalarini harakatga keltiradigan energiyaning asosiy manbai insonning muskul kuchi edi. Bu universal va qayta ishlab chiqariladigan energiya resursi edi.

Mamont va fillarni ov qilish, saroylar, sugʻorish tizimlari, piramidalarni barpo qilishda birgalikdagi mehnat bir kishining kuchidan yuzlab, minglab marta oshadigan kuchni hosil qilish ajoyib natijalarga erishishga imkon berdi.

Oʻrta va quyi paleolit oraligʻida inson ishqalash yordamida olovni hosil qilish usulini kashf qildi. Buni birinchi energetik inqilob deyish mumkin edi. Chunki ibtidoiy jamoalar, nafaqat ovqat tayyorlash, balki olovdan texnologik jarayonlar (yogʻoch qurol tayyorlash, keyinchalik metall quyish)da foydalanish imkoniyatiga ega boʻldilar. Shuningdek, uylarda issiqni saqlash, sovuqdan oʻzini himoya qilish, yashashga noqulay muhitni oʻzlashtirish, daraxtlarni yoqib, ekin yerlariga aylantirishda olovdan keng foydalana boshladilar.

Shu vaqtgacha odam, chana, sol va qayiqalar yasab, ulardan foydalanish koʻnikmasida ega boʻlgan edi. Lekin odamda qoʻl-oyoq hali ham asosiy energiya resursi boʻlib qoldi. Qachonki, inson yovvoyi hayvonlarni madaniylashtirish, ulardan yuk tashish va oʻzining koʻchishida trans-

port vositasi sifatida foydalana boshlashi bilan ahvol o'zgarib boshladi. Bu inson kuchini hayvonlar kuchi bilan qisman almashtirish va to'ldirishga imkon bergan ikkinchi energetik inqilob edi. Ikki daryo oralig'ida er. avv. III ming yillik boshlaridan plug, arava va jang aravalariga eshak va ho'kizlar qo'shila boshlandi. Keyingi yillar dehqonchilik va transportda, asosan harbiy ishda otlardan foydalanila boshlandi. Alohida hududlarda bu maqsadlar uchun tuyalar va o'rgatilgan fillardan foydalanildi.

Temir asrining kashfiyotlari tabiiy energiya manbalari shamol va suv kuchidan foydalanish imkoniyatini berdi. Dengiz sayohatlarida yelkanli qayiq va kemalar (jez davridan boshlab) qo'llanila boshlandi. Temir asrining ilk davrida suv g'ildiraklaridan tushayotgan suvning kuchidan foydalaniladigan suv g'ildiraklari va tegirmonlaridan foydalana boshlandi. Lekin bu uchinchi energetika inqilobining ibtidoiylari edi. Shunisi qiziqarliki, er. avv. 100-yil atrofida qobiliyatli kashfiyotchi Gero reaktivlik tamoyilida ishlaydigan bug' mashinasiga o'xshash mexanizmni yaratdi. Lekin ishchi kuchi arzonligi uchun bunday kashfiyotga ehtiyoj bo'lmadi. Bu kelgusi industrial sivilizatsiyaning asoslarini qo'ygan energetik inqilobning uzoq aks-sadosi edi.

Qadimgi sivilizatsiyalar tez rivojlanayotgan insoniyatning energetika bazasini shakllantirishda yirik qadam tashladilar deb xulosa qilish mumkin.

3. Qadimgi dunyoda inson va tabiat. Ekologik tushkunliklar. Inson tabiatning mahsuli. U o'zini o'rab turgan tabiiy muhitsiz yashashi mumkin emas. Neolit inqilobi davridan boshlab inson o'zining yashashi uchun asosiy vositalarni mustaqil topishga o'rgandi. O'simlik va hayvonlarni madaniylashtirish, o'zi qayta ishlagan mahsulotlarni yashash vositalarining zaruriy to'plamiga aylantirishni tizimli amalga oshirishga erishdi. Bu insonning mustaqil yashashi uchun buyuk ne'mat edi. Bunga mezolit so'ngida odamni yashashining asosi bo'lgan hayvonot dunyosini qirilib ketishi natijasida yuz bergan birinchi global ekologik tushkunlik majbur qildi. Bu tushkunlik ko'pgina ibtidoiy jamoalarni ochlikdan o'lish xavfini keltirib chiqardi. Bu ekologik tushkunlikning sababi tabiiy muzliklarning tez chekinishi va u bilan birga, yirik hayvonlar (mamontlar, bug'u, bizonlar)ning shimolga ko'chishidir. Odamlar o'q-yoyni qo'llab, yirik hayvonlarni tez qirib yubordilar.

Neolit davrida odamlar donli ekinlarni o‘stirishni o‘rganib, ba’zi hayvonlarni madaniylashtirib, yashash uchun mustaqil manbalar bilan o‘zlarini ta’minladilar. Dehqonchilik inson bilan tabiat o‘rtasida yangi munosabatlarni yuzaga keltirdi. Dehqonchilikka o‘tish natijasida o‘tmishdagi jamiyatdan sifat jihati bilan farq qiladigan jamiyatning yangi qiyofasi kashf etildi. Shu vaqtdan tabiat va insoniyat jamiyati o‘rtasidagi mo‘rt uyg‘unlikning buzilish belgilari tez-tez ko‘rina boshladi.

Ikkinchi ekologik tushkunlik neolit so‘nggida yuz berdi. Bu vaqtga kelib o‘sib borayotgan aholi ibtidoiy dehqonchilik va chorvachilik yordami bilan oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondira olmas edi. Bu tushkunlikdan chiqish yirik daryo vodiylari (Nil, Dajla, Hind, Amudaryo)da sug‘orish tizimlarini shakllantirish bilan hal qilindi.

Mil. avv. IV-III ming yilliklarda bu hududlarda qadimgi sivilizatsiyaning markazlari paydo bo‘ldi. Lekin tez orada sug‘orilagan yerlarning sho‘rlanishi, hosildorlikning pasayishi natijasida ekologik tushkunlik xavfi paydo bo‘ldi. Insoniyat jamiyati bu tushkunlikdan yana qutilish imkoniyatini topdi. Temir qurollardan foydalanish, qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va qurilishni rivojlantirishni amalga oshirib, insoniyat temir davrida ekologik xavfni bartaraf etdi.

Sivilizatsiyalar tarixi – bu ekologik uyg‘unlikning davriy buzilishi, tarixiy spiralning navbatdagi aylanishida uni qayta tiklash orqali yangi texnologik tizimlarni yaratish demakdir.

4. Ishlab chiqarishni tashkil etishning shakllari dinamikasi. Neolit sivilizatsiyasi insoniyat shakllanishining o‘zidan oldingi bosqichlarida shakllantirgan ishlab chiqarishni tashkil etishning jamoaviy harakatchan, ixcham shaklini meros qilib oldi. Bu ishlab chiqarish uncha katta bo‘lmagan oilalar guruhi mehnatiga asoslangan edi. Mehnat taqsimotining faqat yosh-jins taqsimoti va yirik hayvonlarni birgalikda ov qilish yoki yangi joylarga ko‘chib o‘tishda birgalikdagi mehnat qilish mavjud edi. Olimlarning aytishicha, Janubiy Fransiyada mezolit madaniyatiga oid g‘orlardagi mezolit manzilgohlarda 6-18 kishigacha yashagan.

Elba va Oder daryolari oralig‘ida mezolit manzilgohlari 8-15 tagacha kichik-kichik yerto‘lalardan iborat bo‘lgan. Bu manzilgohlarda 40-400 kishigacha yashagan. Bu yerda bir vaqtning o‘zida 15 manzilgoh mavjud bo‘lib, aholining zichligi 30-80 km² ga 1 kishi to‘g‘ri kelgan. Asosan yirik

daryo bo'ylarida dehqonchilik lokal sivilizatsiyalarning paydo bo'lishi va cheklangan hududda aholining ko'p miqdorda to'planishini talab qildi. Chunki irrigatsiya ishlarini busiz amalga oshirish mumkin emas edi. Natijada tizimli ravishda va ko'p hajmda qo'shimcha mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi. Bu mahsulot iqtisodiy va noiqtisodiy usullar bilan urug', qabila, davlat boshqaruvida yetakchi bo'lgan yuqori tabaqa tomonidan o'zlashtirib olindi.

Nisbatan bir xil jamoa xo'jaligi yosh-jins taqsimotiga asoslangan mehnatning o'rniga tuzilishi bo'yicha murakkab bo'lgan mehnatning ijtimoiy taqsimotiga asoslangan ko'p sohali xo'jalik paydo bo'ldi. Faoliyatning ma'lum bir turiga ixtisoslashgan samarali mehnat qurolini qo'llash orqali uning unumdorligini ko'p marta oshirish mumkin edi. Buning uchun mehnat kooperatsiyasi va uning natijalarini ayirboshlash zarur edi. Bu turli xil ehtiyojlarni to'la qondirish uchun zarur bo'ldi. Mehnatning kooperatsiyasi va taqsimoti, uning natijalari va ayirboshlashiga asoslangan jamiyat shakllandi. Ayirboshlash faoliyati va iqtisodiy munosabatlarning yanada yuqori va turli xil shakllari uchun shart-sharoit yaratildi.

Ilk sinfiy, keyin esa ishlab chiqarishning antik usullariga o'tish ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllarida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Yirik ko'p sohali ixtisoslashgan hunarmandchilik ustaxonalari kichik erkin dehqon va hunarmandchilik xo'jaliklari bilan birgalikda mavjud edi. Ishlab chiqaruvchilar davlat hokimiyati tomonidan soliq va majburiyatlarga tortilar edi. Qul va erkin dehqon, jamoachi hunarmand yonma-yon yashar edi.

Tayanch iboralar: Neolit, ekologik tushkunlik, kemasozlik, insonning muskul kuchi, harbiy ishlarda va transportda otlar, bug' mashinasiga o'xshash mexanizm, temir qurol, mezolit g'orlar, Elba, Oder, mezolit manzilgohlari, ilk sinfiy, ayirboshlash, globallashuv, mehnat kooperatsiyasi, jamoachi hunarmand.

Takrorlash uchun savollar:

1 Mezolit va neolit davrlarida mehnat qurollarining rivojlanishi va takomillanishining asosiy bosqichlarini ayting?

2 Insoniyat sivilizatsiyasi jarayonida metallarni o'zlashtirish, metall mehnat qurollaridan foydalanish qanday o'zgarishlarga olib keldi?

3. *Qadimgi jamiyatlar taraqqiyotining turli bosqichlarida qaysi energetika manbalari yetakchi edi?*

4. *Ilk ekologik tushkunliklar sababini izohlab bering?*

5. *Insoniyatning ilk davrida ekologik tushkunliklarning kelib chiqish sabablari nimada edi?*

6. *Qadimgi jamiyatlarda mehnat taqsimotining o'ziga xos ko'rinishlarini ayting?*

7. *Qadimgi jamiyatlarda mehnat kooperatsiyasi va iqtisodlashuv mehnat unumdorligiga qanday ta'sir etdi?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. Ilk texnologik to'ntarishlar (paleolit, mezolit).

2. Ilk ekologik tushkunliklar va ularning kelib chiqishi.

3. O'zlashtiruvchi xo'jalik.

4. Qadimgi texnik progressning mazmun-mohiyati.

4-MAVZU: JAMIYATNING IQTISODIY TUZILMASI

1. Qadimgi jamiyatlar iqtisodiyoti tuzilmasining dinamikasi. 2. Iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish tuzilmasi. 3. Qadimgi jamiyatlarda iqtisodiyotning texnologik tuzilmasi. 4. Takror ishlab chiqarishning iqtisodiy tuzilmasi. 5. Qadimgi jamiyatlarda ijtimoiy takror ishlab chiqarish mahsulotining qiymat tuzilmasi.

1. Qadimgi jamiyatlar iqtisodiyoti tuzilmasining dinamikasi. Endi jamiyatning navbatdagi uchinchi qavatiga ko'tarilamiz. Birinchi uch-neolit, ilk sinfiy (jez asri) va antik (temir asri) sivilizatsiyalar davomida iqtisodiyotning tuzilishi, iqtisodiy munosabatlar va iqtisodiy boshqaruv mexanizmida qanday o'zgarishlar yuz berdi?

Ko'p o'lchovli makroekonomik model. Sivilizatsiyalarning iqtisodiyotini tuzilishidagi o'zgarishlarni tahlil qilishning boshlang'ich nuqtasi sifatida ko'p o'lchovli takror ishlab chiqaruvchi siklik makromodelni o'lamiz.

Takror ishlab chiqaruvchi tuzilmalar. Takror ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulotni sektorlar bo'yicha taqsimlash;

Sohaviy tuzilma. Ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulotni sohalararo majmualar bo'yicha taqsimlash;

Pog'onaviy tuzilma. Takror ishlab chiqarishning pog'onaviy sathi bo'yicha mahsulotni taqsimlash;

Texnologik tuzilma. Ishlab chiqarilgan mahsulotni ishlab chiqarishning texnologik usullari bo'yicha taqsimlash;

Iqtisodiy tuzilma. Ishlab chiqarish vositalari va ijtimoiy takror ishlab chiqarilgan mahsulotni taqsimlash;

Ijtimoiy takror ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymat tuzilmasi – ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymat unsurlari nisbatini aks ettiradi.

Taklif qilingan makromodel iqtisodiyotning ko'p o'lchovli, hajmiy o'lchovda uni tashkil qiladigan turli unsurlarini o'zaro aloqadagi mosligida tuzilmaviy dinamikasini aniqlashga yordam beradi.

Ko'p o'lchovli makromodel zamonaviy rivojlangan takror ishlab chiqarishning tuzilmasiga javob beradi, boy iqtisodiy statistikaga tayyanadi. Qadimgi jamiyatlar shakllanayotgan iqtisodiyotining oddiyashtiril-

gan tuzilmasi (ov, baliqchilik va termachilik, jamoa xo'jaligi kiritiladi)ga internatsional takror ishlab chiqarish, bir qancha sohalararo majmualar, ilmiy, texnik, harbiy, sanoat, ijtimoiy soha kiritilmaydi.

Har bir sivilizatsiyaga bir davr uning gullab-yashnashining yuqori cho'qqisini olamiz: 4 davr: mezolit (taqsimlash uchun boshlang'ich baza sifatida) neolit, jez va temir asrlari asos qilib, sivilizatsiyaning sobiq episentri bo'lgan mamlakat iqtisodiyotining tuzilmasi va ushbu sivilizatsiyaga xos bo'lgan belgilar olinadi. Qadimgi sivilizatsiyalar bo'yicha statistik ma'lumotlar yo'qligi sababli, har bir ko'rsatkich bo'yicha ekspert bahosi olinib, keyingi tadqiqotlar davomida aniqlashtirilishi mumkin. Bu qoidalarni qabul qilib, qadimgi jamiyatlar iqtisodiyoti tuzilmasini tahlil qilamiz va uning dinamikasi an'analarini baholashga urinamiz.

3-jadval

Qadimgi jamiyatlar iqtisodiyoti tuzilmasining dinamikasi (% yalpi ishlab chiqarishga baho)

Makromodellar va ko'rsatkichlar bloki	Mezolit (er. avv. VIII ming yillik)	Neolit (er. avv. VI ming yillik)	Ilk sinfiy jamiyat (er. avv. II ming yillik)	Antik jamiyat (er. avv. V asr)
1	2	3	4	5
Takror ishlab chiqaruvchi sektorlar:	Takror ishlab chiqarish tuzilmasi			
Shaxsiy iste'mol	85	69	50	40
Davlat iste'moli	-	-	8	12
Oraliq mahsulot	5	8	15	17
Birlamchi mahsulot	10	20	18	15
Intellektual mahsulot	-	3	6	10
Bozor infratuzilmasi	-	-	3	6
Jami:	100	100	100	100
Sohalararo komplekslar:	Sohaviy tuzilma			
Ov, baliqchilik, termachilik	65	26	12	7
Agrosanoat	5	35	30	25
Shaxsiy iste'mol buyumlari va xizmatlar	5	8	12	15
Mehnat qurollari va qurol	10	12	15	16
Yoqilg'i	5	6	7	8
Xomashyo va materiallar	5	6	8	9
Qurilish	5	7	13	15
Transport	-	-	3	5
Jami:	100	100	100	100

Takror ishlab chiqarish darajalari:	Pog'onaviy tuzilma			
Jamoa xo'jaligi	70	25	20	15
Oila xo'jaligi	23	63	50	43
Yakka xo'jalik	5	8	14	22
Hududiy takror ishlab chiqarish	2	4	6	8
Milliy ishlab chiqarish	-	-	10	12
Jami:	100	100	100	100
Ishlab chiqarishning texnologik usullari:	Texnologik tuzilma			
Palcolit	85	30	12	6
Neolit	15	65	23	12
Jez asri	-	5	60	24
Temir asri	-	-	5	56
O'rta asrlar	-	-	-	2
Jami:	100	100	100	100
Mulkchilik shakllari:	Iqtisodiy tuzilma			
Jamoa	75	35	20	15
Oila	25	55	40	35
Mayda xususiy	-	10	47	25
Yirik xususiy	-	-	8	15
Davlat	-	-	15	10
Jami:	100	100	100	100
Qiymat unsurlari:	Qiymat tuzilmasi			
Ashyoviy xarajatlar	8	16	20	25
Amortizatsiya	2	4	7	10
Yakka iste'mol	44	50	42	37
Jamoa iste'moli	45	23	15	10
Jump'arma	1	4	7	8
Nonishlab chiqarish iste'moli	-	3	9	10
Jami:	100	100	100	100

2. Iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish tuzilmasi. Mezolit davrida takror ishlab chiqarishning ibtidoiy uch sohali tuzilmasi mavjud edi. Oziq-ovqat yetishtirish yetakchi o'rin tutib, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish uncha katta hajmda emas edi (toshdan mehnat qurollari, o'q-yoy, nayza va hokazo tayyorlash). Temir asrida esa, takror ishlab chiqarish tuzilmasi to'laroq xususiyatga ega bo'ldi. Davlat ehtiyojlari uchun (davlat apparati, qo'shin ehtiyojlari uchun) bir qism mahsulot ishlab chiqarish, intellektual mahsulot (kohinlar tomonidan yulduzlarning kuzatilishi, mirzalar, haykaltaroshlar va me'morlarning ijodi); bozor xiz-

matlari (savdogarlar, sudxo'rlar faoliyati) paydo bo'ldi. Ibtidoiy jamoa xo'jaligi ishlab chiqaruvchi ehtiyojini qondirishga xizmat qilar edi. Bu soha ancha qisqardi, lekin yirik hajmda qolaverdi.

Antik jamiyat davrida takror ishlab chiqarish mahsulotining chorak qismini moddiy ishlab chiqarish tashkil qildi. Bu mehnat unumdorligi, qo'shimcha qiymatning moddiy ishlab chiqarishda hukmron tabaqa va qaram mehnat kishilarini ta'minlashga hamda saroylar, ibodatxonalar qurilishiga yetarli miqdorda yaratilishi edi.

1. Iqtisodiyotning sohaviy tuzilmasi dinamikasi. Mezolit davrida mehnat va mahsulotning 2/3 qismi ov, baliqchilik va termachilikka to'g'ri kelar edi. Neolit davrida ov, baliqchilik, termachilikning ulushi keskin kamaydi. Birinchi o'ringa dehqonchilik va chorvachilik chiqdi. Mehnat qurollari, kulolchilik buyumlari, ishlab chiqarish, uy-joy qurilishi ulushi o'sdi.

2. Iqtisodiyotning pog'anaviy tuzilmasi jamiyat tuzilmasidagi o'zgarishlar bilan birga o'zgardi. Mezolit davrida mahsulotning ko'p qismi jamoa xo'jaligida ishlab chiqarildi va teng taqsimotga asoslanildi. Oilaning paydo bo'lishi bilan yaratadigan va o'zlashtiriladigan mahsulotning ulushi o'sdi. Umumjamiya birgalikda bajaradigan umumiy ishlar ozroq ulushni tashkil etdi.

Neolit davrida iqtisodiyotning pog'onaviy tuzilishi uch darajali bo'lib qolaverdi. Lekin ikki asosiy daraja o'rtasidagi nisbat aksincha bo'ldi. Natural oila xo'jaligi mahsulotning 2/3 qismini o'z iste'moli uchun, qolgan bir qismini esa jamoa xo'jaligi ishlab chiqardi.

Jez va temir asrlarida tovar xo'jaligining rivojlanishi, ayirboshlashning oshishi bilan mayda tovar xo'jaligi va yirik quldorlik xo'jaligi tez kengaydi. Natijada xususiy takror ishlab chiqarish yalpi mahsulotning 1/5 qismini tashkil qildi. Davlat apparati, harbiy, boshqaruv, sug'orish inshootlarining sarf-xarajatlari uchun davlat xo'jaligi paydo bo'ldi. Mamlakat hududlari, shaharlar mudofaa inshootlari, madaniyat bo'yicha teatrlar, stadionlarning qurilishi hajmi kengaydi. Aholi ehtiyojlarini qondirishda yetakchi o'rinni oila natural xo'jaligi egalladi. Jamoa xo'jaligi o'z nufuzini saqlab qoldi.

3. Qadimgi jamiyatlarda iqtisodiyotning texnologik tuzilmasi. Mezolitda jamoaning birdamlikdagi mehnati, tosh, suyak va yog'och qurollarni ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarishning o'zlashtiruvchi tipidagi paleolit usuli ustuvor edi. Lekin dehqonchilik va chorvachilik uchun

mehnat qurollarining to'plamidan foydalanadigan takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan neolitga xos bo'lgan ishlab chiqarish usuli tug'ildi.

Aynan shu xo'jalik usuli keyingi sivilizatsiya iqtisodiyoti tuzilishida yetakchi o'rinni egalladi. Ibtidoiy texnologiyalarning kuchli mavqei saqlanib qoldi. Metalldan foydalanishga asoslangan yangi texnologiyalar ham paydo bo'ldi. Ular jez va temir asrlarida yetakchi o'rinni egaladilar va hukmron o'ringa chiqdilar. Lekin shu bilan birga, o'tmishdagi sivilizatsiyalarga xos bo'lgan ishlab chiqarishning qoldiq (relikt) usullari saqlanib qoldi. Antik sivilizatsiyaning gullab-yashnashi davrida o'rta asrlar jamiyatiga xos bo'lgan texnologiyalar va mehnatni tashkil qilish metodlarining shakllanishi boshlandi. Oqibatda jamiyatning texnologik bazasi taraqqiyotning keyingi har bir bosqichlarida ko'p qavatli inshootni eslatdi. O'tmishda bo'lgan majmualar qoldiqlariga tayanadigan texnologiyalar majmuasiga asoslangan asosiy qatlamlardir. Bu o'z navbatida bo'lg'usi texnologiyalar va mehnatni tashkil qilish shakllari uchun asos bo'lib xizmat qildi.

4. Takror ishlab chiqarishning iqtisodiy tuzilmasi. Turli iqtisodiy ukladlar nisbatini aks ettiradi. Bu iqtisodiy ukladlar mulkchilik munosabatlarining taqsimot va ayirboshlashni ma'lum bir ko'rinishiga asoslangan va noiqtisodiy yoki iqtisodiy jihatdan rag'batlantirilgan tegishli iqtisodiy boshqaruvga asoslangan. Bu iqtisodiy ukladlar mulkchilik munosabatlarining ma'lum bir ko'rinish, taqsimot va ayirboshlashning noiqtisodiy yoki iqtisodiy rag'batlantirishning turli shakllarida qurilgan, tahlil qilinayotgan iqtisodiy boshqaruvning tegishli mexanizmini aks ettiradi.

Mezolit davrida ibtidoiy, ijtimoiy, iqtisodiy ukladga xos bo'lgan ishlab chiqarish vositalari jamoa bo'lib o'zlashtirish va bir tekis taqsimotga asoslangan edi. Lekin oila mulkchiligi, patriarxal oila ichida bir tekis taqsimot va natural ayirboshlashga asoslangan uklad shakllana boshladi. Aynan bu uklad neolit davrida yetakchi o'rinni egalladi va keyingi ikki sivilizatsiyalarda ishchi kuchini takror ishlab chiqarishni ta'minladi. Shu bilan bir vaqtning o'zida keyingi sivilizatsiyalarda sezilarli rol o'ynagan kichik va yirik xususiy mulkka asoslangan ikki uklad shakllana boshladi. Shu bilan bir vaqtning o'zida davlat mulkchiligiga asoslangan uklad paydo bo'ldi.

5. Qadimgi jamiyatlarda ijtimoiy takror ishlab chiqarish mahsulotining qiymat tuzilmasi dinamikasini faqat shartli gapirish mumkin. Chunki uning asosiy qismi tovar shaklida emas edi.

Mezolit davrida barcha ishlab chiqarilgan mahsulot (sarf qilingan xomashyolarni qoplash uchun foydalanilgan, uning ko'p bo'lmagan qismandan tashqari) yakka tartibda yoki jamoa iste'moli uchun yo'naltirilar edi. Qo'shimcha mahsulot amalda yo'q edi.

Neolit jamiyatida asosan oilaviy iste'molga o'tildi. Jamoa iste'moli keskin kamaydi. Dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik bilan tizimli shug'ullanish ishlab chiqarish vositalarini takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mahsulot ulushini ko'paytirishni talab qildi. Qo'shimcha mahsulot tizimli ishlab chiqarila boshlandi. Bu o'z navbatida jamg'arish va noishlab chiqarishga sarflandi.

Takror ishlab chiqarishning siklik makromodelidan foydalanish qadimgi jamiyatlarning iqtisodiyotida yuz bergan tub o'zgarishlarni aniqlash va baholash imkoniyatini berdi.

Tayanch iboralar: makroekonomik model, sohaviy, pog'onaviy tuzilma, relik, texnologik tuzilma, iqtisodiy tuzilma, jamoa xo'jaligi, iqtisodiy uklad, monogam oila, ishlab chiqarish tuzilmasi, patrialxal oila, texnologik baza, natural oila xo'jaligi, ilk sinfiy jamiyat, noishlab chiqarish.

Takrorlash uchun savollar

- 1. Iqtisodiy boshqaruv mexanizmida qanday o'zgarishlar yuz berdi?*
- 2. Takror ishlab chiqarish sikli deganda nimani tushunasiz?*
- 3. Takror ishlab chiqarishning iqtisodiy tuzilmasi to'g'risida tushuncha bering.*

Mustaqil ish mavzulari:

1. Ko'p o'lchovli takror ishlab chiqarishning siklik makro modelining tahlili.
2. Qadimgi jamiyatlar iqtisodiyoti tuzilmasi dinamikasi.
3. Jamiyat iqtisodiy tuzilmasining unsurlari.
4. Takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari.

5-MAVZU: JAMIYATNING IJTIMOIIY-SIYOSIY TUZILMASINI SHAKLLANILISHI

1. Ijtimoiy tabaqalanishning chuqurlashuvi. 2. Davlat va huquqning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi.

Jamiyat piramidasining to'rtinchi qavati-ijtimoiy-siyosiy va davlat-huquqiy munosabatlari sohasini ifodalaydi.

1. Ijtimoiy tabaqalanishning chuqurlashuvi. Shakllanayotgan jamiyat insonning shakllanishi va rivojlanishining uzoq yo'li izini qoldirgan biosotsial tabaqalanishni modellashtirib, meros qilib oladi. Mezolit davridayoq yetakchi bo'lgan biosotsial farqlar barcha sivilizatsiyalarda saqlanib qoldi. Ularga quyidagilarni ko'rsatish mumkin. Jins bo'yicha farqlar, erkaklar va ayollar avlodining saqlanishi va uni takror ishlab chiqarishning asosi. Insoniyat tabiiy tarixi arafasining birinchi bosqichlarida, guruhii nikohning so'nggida jamoada yetakchilik ayollarga tegishli edi (matriarxat). Mezolit davridan boshlab o'q-yoyning paydo bo'lishi, neolit davrida dehqonchilik va chorvachilikka o'tilishi, xususiy mulkchilikning yuzaga kelishi bilan oila va jamiyatda birinchilik ko'p ming yillar erkaklar qo'lga o'tdi. Ayollar va erkaklar soni o'rtasidagi zaruriy nisbat-taxminiy tenglik tabiiy qonunlar bilan kafolatlanadi.

Yosh farqlari bo'yicha aholi chaqaloq va bolalar, o'smir yoshli, katta va keksalar yosh guruhlariga bo'linadilar. Jamiyatning har bir a'zosi, agar uning hayot yo'lini biron bir sabab uzib qo'ymasa, bu fazalar orqali o'tgan. Birinchi va so'nggi fazadagilar jamiyatning boshqa mehnatga qobiliyatli a'zolari qo'llab-quvvatlashini talab qiladi. Har bir yosh guruhi fiziologik, psixologik va boshqa o'zida xos xususiyatlari, qiziqishlariga egadir.

Urug'-jamoalarda o'smirlarni katta yoshlilar qatoriga o'tish jarayoniga jiddiy e'tibor berilgan. Katta yoshli erkaklar og'ir, xavf-xatarga to'la hayot sharoiti, jamoani hayotida muhim o'rin tutganlar. Erkaklar jamoani xavfsizligi va belgilangan hududda tinch yashashi uchun mas'ul edilar. Shu sababli erkak va ayol jamoa a'zolarining har biri kuchli va irodali, jamoa himoyasiga tayyor turishlari zarur edi. Shu sababli o'smirlikdan balog'at yoshiga yetish vaqtida ular turli sinovlarga duch qilinganlar. Insiatsiya – balog'at yoshga yetish bagi'shlov sinovlari bo'lgan. O'smirlar

balogʻatga yetish sinovlaridan oʻtib, bagiʻshlov marosimidan soʻng ular erkaklar safiga qoʻshilganlar. Shu lahzadan oʻsmir mavqeini oʻzgarib, haqiqiy erkak jamoaning toʻlaqonli aʼzosi boʻlgan.

Davriy ravishda insoniyat avlodlarining almashuvi yuz beradi. Avlodlarga xos xususiyatlar ushbu avlodning manfaatlarini faol ifodalovchilari bilan belgilanadi. Ular odatda ozroq boʻlib, lekin aynan ular progressni harakatlantiruvchi novatorlar boʻladilar. Oʻtmishga ketayotgan, lekin oʻz mavqeini saqlab qolishga urinadigan avlod vakillarining qoloq qarashlari (konservatizm)ni yoshlar yengishga harakat qiladilar. Avlodlar kurashi progressning hayotbaxsh olgʻa qadam tashlashidir. Avlodlar oʻrtasida dunyoqarashlarning har xilligi ixtilofning sababi boʻladi. Yosh avlod oʻz ota-bobolarini orttirgan tajriba, bilim-koʻnimalarini oʻzlashtirish bilan birga ularning qabul qilmaydilar.

Mezolit davrida odam hayotining oʻrtacha davomiyligi uncha katta emas edi. Avlodlar almashuvi (15-20 yilda bir marta) tez-tez yuz berib, aralash avlodlar orasidagi farq sezilarli emas edi. Lekin har bir keyingi tarixiy bosqichda hayotning oʻrtacha davomiyligi, avlodlar oʻrtasidagi oraliq oʻsdi. Mehnat qurollarini takomillashuvi ishlab chiqaruvchi xoʻjalikka oʻtilishi oziq-ovqat ratsionini boyitib, uning sifatini yaxshiladi. Tabiiy geografik shart-sharoitlar bilan shartlangan irqiy va boshqa antropologik farqlar, muntazam migratsiya va aralash nikohlar oqibatida turli etnoslar sezilarli darajada aralashib ketdilar.

Biosotsiallikka til farqlarini kiritish mumkin. Uning kelib chiqishi paleolit davriga kelib taqaladi. Bu vaqtda ular yetarli darajada ifodalangan edi. Bu bizgacha yetib kelgan yozuvning qadimgi yodgorliklarida belgilangan. Qachonlardir yagona, ilk til mavjud boʻlgan. Ular keyinchalik ajratib ketganmi yoki turli hududlar – insoniyat madaniyat oʻchoqlarida turli xil tillar paydo boʻlganmi? qaysiki, keyin etnik aloqalar jarayonida oʻzaro boyidimi? – bu tilshunoslarning turli maktablari oʻrtasida munozara mavzusi boʻlib qolmoqda. Ammo tillar va shevalar etnos va etnik guruhlarining shakllanishiga yordam beradi. Har bir etnik guruh oʻz tarixiga ega. Ularning baʼzi birlari oʻz tillari bilan oʻtmishda qolgan lokal sivilizatsiyalar bilan birga halok boʻldilar (Misol uchun, qadimgi misr, shumer, xett tillari).

Tillar etnik aloqalar jarayonida oʻzaro boyigan. Bu tilshunoslikning turli maktablarida bahs mavzusi boʻlib qolmoqda. Lekin tillar va shevalar etnos va etnik guruhlarining shakllanishiga yordam beradi va oʻz tarixiga

ega. Tillarning ayrimlari o'tmishda yo'qolib ketadi, lokal sivilizatsiyalar bilan birga halok bo'ladi. Xalqlar va elatlarning tillaridagi boshqa farqlar ijtimoiy ayrimlik guruhi, iqtisodiy sabablar bilan bog'liq edi. Ilk paleolit va mezolitda bunday farqlar mavjud bo'lmagan. Ular tarixiy xususiyatga ega bo'lib, asta-sekin yuzaga kelgan mulkiy tengsizlik va mehnat taqsimoti bilan shartlangan.

Ijtimoiy farqlarning boshqa guruhi iqtisodiy sabablar bilan bog'liq. Mezolit va ilk neolitda bunday farqlar mavjud emas edi. U tarixiy xususiyatga ega bo'lib, asta-sekin paydo bo'lgan va mustahkamlangan mulkiy tengsizlik va mehnat taqsimoti bilan bog'langan. Kohinlar, harbiy boshliqlar VA urug'-qabila boshliqlari o'zlari uchun eng yaxshi yerlar, chorva va harbiy o'ljalarni o'zlashtirib oldilar. Urug'-qabilaning oqsuyaklari ana shunday paydo bo'ldi. Ular jamoaga tegishli mulkning katta qismini xususiy mulkka aylantirishning tashabbuskorlari bo'ldilar.

Oddiy jamoachilar o'zlariga tegishli yerlarga ishlov berib tirikchilik qilar edilar. Jamoa mulki sifatida yana uzoq vaqt ekin yerlarining bir qismi, o'tloq-yaylovlar hamda o'rmonlar, suv havzalari saqlanib qoldi. Odatda ekin yerlari oilalar o'rtasida har yili qayta taqsim qilingan. Vaqt o'tishi bilan bunday qayta taqsimot o'z ahamiyatini yo'qotdi. Urug' oqsoqollari, harbiy boshliqlar, kohinlar va ayrim tadbirkor oila boshliqlari jamoaning eng unumdor yerlarini egallab olib, yerning har yilgi qayta taqsimotiga yo'l qo'ymaslikka harakat qildilar. Yaqin kelajakda ekin yerlari, chorva, mehnat qurollariga mayda mulkchilikning shakllanishi ko'rinayotgan edi. Bu mulkning egasi oila boshlig'i hisoblanib, amalda esa, patriarxal oilaga tegishli edi. Bu guruhlar asosida jez asrida sinflar paydo bo'ldi.

Iqtisodiy xilma-xillikning boshqa ko'rinishi mehnatni jadallashtirayotgan iqtisodiy taqsimot bilan bog'liqlik bo'ldi. Alohida urug-jamoalar-qabila va oilalar ayniqsa, jez va temir asrlarida dehqonchilik- chorvachilik, hunarmandchilik va qurilishning u yoki bu turiga ixtisoslashganlar. Mahsulot ayirboshlashning rivojlanishi va shaharlar xo'jaligining o'sishi bilan ixtisoslashuv kuchaydi. U yoki bu mashg'ulotlar bilan oilalar tizimli shug'ullanib, kasb-hunar mahorati sirlarini avloddan-avlodga uzatdilar. Savdogarlar, amaldorlar, sudyalar, mirzalar, kohinlar guruhlari paydo bo'ldi. Mulkiy va kasbiy farqlar ko'pincha mavjud yopiq bo'lgan toifakastalarga birlashtirildi (masalan, Hindiston).

Ayniqsa, jez va temir asrlarida ijtimoiy tabaqalashuv jamiyatda et-

nomadaniy farqlarning kuchayishida ifodalandi. Davriy ravishda etnik guruhlarining yangilari paydo bo'lib, urushlar natijasida zaif etnoslar tarix sahnasidan tushib ketdilar. Har bir etnos o'z tili, diniy e'tiqodi, urf - odatlari, mayitlarni ko'mish marosimlari kabi madaniy an'analariga ega edi. Yozuvning paydo bo'lishi bilan bilim, ko'nikma-malakalarni uzatish tizimi (ta'lim) sohasi paydo bo'ldi.

Urug' - qabilalar o'rtasida yer-suv, yaylovlar uchun to'nashuvlar jez asrida jamiyat hayotining bir qismiga aylandi. Urushlar oqibatida turli sohalarda inson faoliyati jadallashib, aholi soni tartibga solindi. Shafqatsiz qonli urushlar shaharlar, sivilizatsiyalarning halok bo'lishiga sabab bo'ldi. Millionlab kishilar urushlarda qurbon bo'ldi. Ishlab chiqarish kuchlari, boy madaniyatlar yo'q qilindi.

Urug'-jamoalari – qabilalar oqsoqollari, koinlar, harbiy yo'lboshchilar asta-sekin unumdor yerlar, chorva, harbiy o'ljalarining kattagina qismini o'zlashtirib oldilar. Bo'lg'usi yuqori tabaqalari oqsuyak zodagonlar ana shunday shakllandi. Bu tabaqalari umumiy mulkning kattagina qismini xususiy mulkka aylantirishning tashabbuskori bo'ldi. Jamoaning boshqa oddiy a'zolari bir qism yer ulushi, chorva va mehnat qurollariga egalik qilib, maydalari xususiy mulkchilikning paydo bo'lishiga sabab bo'ldilar. Bu mulkning egasi oila boshlig'i hisoblangan. Amalda esa u patriarxal oilaga tegishli bo'lib, meros sifatida berilgan. Bu guruhlar asosida jez asrida sinflar paydo bo'ldi.

2. Davlat va huquqning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi. Jahon sivilizatsiyasining jez asridagi yirik ijtimoiy yangiligi sifatida davlat va huquq paydo bo'ldi. Neolit sivilizatsiyasi jamoaning barcha a'zolarini teng huquqli va shaxsiy erkinligi bilan ajralib turar edi. Lekin oila a'zolari uning boshlig'iga qat'iy bo'ysunar edi. Ular dehqonchilik, chorvachilik va boshqaruvni birgalikda amalga oshirar, jamoaning ichki urf-odatlariga qat'iy amal qilib yashar edilar Neolit davrida ijtimoiy hayot urug-jamoalari, keyin esa qabila miqyosida o'z-o'zini boshqarish asoslarida amalga oshirildi. Bu boshqaruv saylangan oqsoqollar to'plangan an'ana va urf-odatlarga tayanib, yig'ilishlarda jamoalari qarori bo'yicha ish yuritir edi. Biroq xususiy mulkning paydo bo'lishi, harbiy to'qnashuvlarining kuchayishi urug'- qabila boshqaruvini o'z zimmasiga olgan kishilarning alohida qatlamini paydo bo'lishiga olib keldi. Ular jamiyat ichidagi o'zaro nizolarni hal qilish, dushmanidan himoyalani, jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlash uchun turli huquq normalarini shakllantirdilar. Jamiyat ichida

shakllangan davlat boshqaruvi sud, qonun chiqaruvchi, ijroiya hokimiyatlarini amalga oshiradigan bo'g'inlardan iborat edi. Davlat va huquqning paydo bo'lishi jamiyat hayotini tashkil qilishda olg'a qadam edi. Aholi sonining o'sishi va uning turli ijtimoiy guruhlariga bo'linib ketishi turli tabaqalar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni murakkablashtirdi. Bu ziddiyatli munosabatlarni tartibga solish zaruriyati, boy tabaqa huquqini himoya qilish, noaniqlikni tugatish lozim edi. Urug'-qabila o'z hududi xavfsizligini qo'shni dushman urug'lardanlar tahdididan himoya qilishga muhtoj edilar.

Endilikda ko'p asrlik urf-odatlar, an'analarga asoslangan ming yillar davomida shakllangan jamoa boshqaruvi yangi vujudga kelgan mulkiy ziddiyatli munosabatlarni tartibga solishga qodir emas edi. Endi bunday boshqaruv boyib ketgan jamoa azolarini qoniqtirmadi. Butun jamoa manfaatini himoya qilish vositasi bo'lgan, asriy urf-odatlarga asoslangan urug'-qabila boshqaruvi boyib ketgan bir guruh kishilarni mulkini himoya qila olmas edi. Yangi paydo bo'lgan xususiy mulkni takror ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlarni tizimlash va himoya qilishning zarurati sifatida davlat huquqi paydo bo'ldi. Davlat bir qancha ijtimoiy ishlarni, jumladan, sug'orish inshootlarini qurish, tamirlash, ishchi holatida saqlashni tashkillashtirishni, ibodatxonalar va maqbaralar barpo qilishni o'z zimmasiga oldi.

Davlat va huquq paydo bo'lishining ijtimoiy omillari mavjud. Ijtimoiy taraqqiyot turli ijtimoiy qatlam, toifalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Oqsuyak mulkdorlar, kohinlar, harbiy boshliqlar, boy jamoachilar jamiyatda yetakchi imtiyozli o'rinlarni egallab oldilar. Ular imtiyozlardan mahrum bo'lgan jamiyatning ko'pchilik oddiy a'zolarining tahdididan himoyaga muhtoj edilar. Davlat tashkiloti sinfiy hukmronlik, toifaviy imtiyozlarni mustahkamlash quroli bo'ldi. Davlatning paydo bo'lishini boshqa turli omillari ham kuchaydi. Aholi zichligining oshishi, boyliklarning to'planishi, tez-tez takrorlanayotgan urushlarhududi va aholi himoyasi uchun kuchli qo'shinni tashkil qilish ehtiyojini keltirib chiqardi. Davlat hokimiyati jamiyatning tashqi xavfsizligini ta'minlash, takror ishlab chiqarishning tashqi sharoitlarini yaratishni ham o'z zimmasiga oldi.

Davlat hokimiyati huquqiy normalarni ishlab chiqarish tashabbuskori bo'ldi va ularning bajarilishini ta'minladi. Er. avv. III-II ming yilliklardan boshlab huquq normalarini kodifikatsiya qilishga urinish tarixdan ma'lum. Insoniyat tarixida birinchi marta mil avv. XXIV asrda qadim-

gi Mesopotamiyadagi shahar-davlat podshosi Shulgining qonunlari tuzilgan. Podsho Shulgi qonuni asosida ibodatxona - davlat xo'jaliklarini boshqarishda qat'iy tartib o'rnatilgan. Davlat va jamiyatning shakllanish jarayonining tizimli davom etishini Mesopotamiyaning boshqa shahar-davlatlarida tuzilgan qator qonunlarda ko'rish mumkin. Bizgacha yetib kelgan to'liq huquqiy normalar to'plami bu podsho Xammurapi (er. avv. 1792 -1750 yillar) qonunlari kodeksidir. Bu kodeks bir necha bo'limlarni o'z ichiga oladi: oila huquqi, jinoyat huquqi, mulk huquqi va qonunchilikning asosiy tamoyillari, podsho, ibodatxona, podsho odamlari mulkining himoyasi, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, savdo va sudxo'rlik operatsiyalari, tan jarohati, yollanma mehnat, ko'chadigan mulk bilan operatsiyalar. Qadimgi jamiyatlar qonunchiligida XII jadval qonunlari deb ataladigan Rim huquqi mulkiy va ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalari qamrab olgan edi.

Qadimgi davlatlarda siyosiy tuzilmaning turli xil shakllari mavjud edi. Bu Sharq va G'arbdagi hukmdorning tanho hokimiyatiga asoslangan davlat tuzilmalari hamda nisbatan demokratik va oligarxik tuzumlarning mavjudligi bo'ldi. Neolit davrida siyosiy hayotga zarurat yo'q edi. Jamoa a'zolarining huquqlari bir xil bo'lib, ijtimoiy tuzum siyosiy hokimiyat shaklini olmagan edi. Davlatning paydo bo'lishi jamiyatning mulkiy, ijtimoiy tabaqalanish, odamlarning turli guruhlari va turli manfaatlarini ifodalovchi siyosatning tug'ilishiga olib keldi. Turli xil ijtimoiy qatlamlar o'z manfaat va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan huquq va imtiyozlarni olish uchun ozaro kurash olib bordilar. Ular qonun himoyachisi bolgan davlat hokimiyatini egallashga harakat qildilar.

Jez asri sivilizatsiyasida erksizlik umumiy edi. Dehqonlar, hunarmandlar, hatto, zodagonlar podshoga to'liq qaram edilar. Podsho shaxsi ilohiy hisoblanib, u qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatini o'z qo'lida to'plagan mutlaq hukmdor edi.

Tayanch iboralar: biosotsial, nisbat, faza, etnik aloqalar, sinfiy hukmronlik, Mesopotamiya, Shulgi, Xammurapi qonunlari, yollanma mehnat, ko'chmas mulk, jez asri sivilizatsiyasi, Rim huquqi, kodeks, huquqiy normalar, siyosiy tuzilmalar

Takrorlash uchun savollar:

1. Ijtimoiy tabaqa-qatlamlar va sinflar paydo bo'lishining asosiy sababi nimada edi?

2. Davlat nima uchun paydo bo'ldi va uning funksiyalarini izohlang?
3. Qadimgi jamiyatlarda huquq qanday paydo bo'ldi va rivojlandi?
4. Davlatning paydo bo'lishining iqtisodiy-ijtimoiy sabablarini ayting.
6. Qadimgi jamiyatlarda urushlarning sababini ko'rsating?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Ijtimoiy tabaqalanish va xususiy mulkning paydo bo'lishi.
2. Davlat hokimiyatining ichki va tashqi funksiyalari.
3. Ilk qonunlar to'plami. Davlat paydo bo'lishining asosiy sabablari.

6-MAVZU: QADIMGI JAMIYATNING MA'NAVIY HAYOTI

1. Qadimgi jamiyatning ma'naviy hayoti. 2. Jez davrida madaniyat va san'at. 3. Qadimgi jamiyatlarda axloq va mafkura dinamikasi.

1. Qadimgi jamiyatning ma'naviy hayoti. Qadimgi sivilizatsiyalardagi biror-bir tarixiy jarayon o'zining tezligi va erishgan yutuqlari bilan insonning ma'naviy dunyosini rivojlanishi bilan tenglashishi mumkin emas.

Mehnat jarayoni davrida, ayniqsa, odamni o'rab turgan tabiiy muhit to'g'risida foydali bilimlar to'planib boradi. Ovchilik, baliqchilik, terimchilikka asoslangan o'zlashtiruvchi xo'jalikda odam o'zining xo'jalik hududida uning o'ziga xos xususiyatlari, boyligini chuqur bilishi lozim edi.

Avstraliya aboriginlari, bushmenlar misolida ko'rinadiki, ibtidoiy jamoa odamlari amaliy geografiya, meteorologiya, astronomiya, zoologiya va botanika, mineralogiya sohasida boy ma'lumotlarga ega bo'lganlar. O'zlarining xavfsizliklarini ta'minlash, yashash, och qolmaslik uchun ular ov joylari topografiyasi, hayvonlarning yuradigan yo'llari va qiliqlarini, o'simliklarning foydali va zararli xususiyatlari, turli minerallar, yog'och turlari va boshqa narsalarning xossalarni bilishlari; ob-havoni oldindan bilish, joyni, shamol yo'nalishlarini aniqlash, izlarni o'qishlari shart edi. Ibtidoiy ovchilar joyga ustalik bilan moslashganlar va relyefning o'ziga xos xususiyatlaridan mohirona foydalanganlar. Ular yovvoyi hayvonlar yuradigan barcha so'qmoqlar, daralarni bilib, ularni doimo nazorat ostida saqlaganlar. Ibtidoiy ovchilar hayvon va qushlar izlarini bilibgina qolmay, ularning oxirgi izlari yo'nalishini ko'zdan kechirib yoki g'or og'zidagi chiqishni hidlab, u yerda hayvon bor yo'qligini ayta olganlar. Termachilar bir necha yuz yeyishga yaroqli o'simlik turlari, jumladan, qaynatish yo'li bilan zaharini yo'q qilish mumkin bo'lgan o'simliklarni bilganlar. Hozirgi etnologlardan biri, ibtidoiy odamning tunda yo'lni topish uchun yulduzli osmonni yaxshi bilish zarurligining guvohi bo'lgan. U yerning sun'iy yo'ldoshi uchirilgani to'g'risida yangi «yulduzning» paydo bo'lganiga e'tiborni jalb qilgan bushmendani bilganini hikoya qiladi.

Amaliyotda fizik va kimyoviy bilim asoslari jamg'arila bordi. Tabiatga fizik ta'sir qilish ilk qurollardan boshlandi. Odam murakkab tuzilmali qurolni o'zlashtirib, richagni kashf qildi. Otiladigan nayza va kamonni

ixtiro qilib, qurolning otish masofasini 2-3 marta oshirdi. O'rmon qabilasi veddlar kamoni oyoqlari bilan tortib, kamon o'qini 330 metr uzoqlikda otadilar, bug'uni 35 metr masofadan aniq nishonga olib, urib yiqitadilar.

Tibbiyot, farmakologiya va toksikologiya kabi amaliy sohalar yaxshi rivojlangan. Odamlar suyakning sinishi, yaralar, jarohat, lat yeyish, chiqqan suyaklarni davolashning amaliy usullarini yaxshi bilganlar. Kasal tishlarni sug'urib olish, shamollash, yaralar, zaharli chaqishlarni davolashni oddiy jarrohlik operatsiyalarini bilganlar. Mezolit davridan bosh suyagini trepanatsiya qilish, singan oyoq qo'llarning qismlarini amputatsiya qilish ko'nikmasiga ega bo'lganlar. Ibtidoiy odam o'ngacha sanashni bilgan. Doira, to'g'ri chiziq, nuqtaning tosh, yog'ochdagi tasvirlari topilgan. Vaqt hisobi mavsumlar bo'yicha bo'linib chiqarilgan.

Magiya-sehrgarlik ibtidoiy jamoa hayotining ajralmas qismi bo'ldi. Magiya-sehrgarlik marosimlari ibtidoiy odamning ruhiyatiga ta'sir qilib, uni o'ziga ishonchini orttirgan. Shomon odamlar va oliy kuchlar o'rtasida vositachi bo'ladi, shu bilan birga himoya qiluvchi, davolovchi, zarar keltiradigan sevgi-muhabbat, harbiy mashg'ulot, kasb bo'yicha marosimlarni o'tkazib, afsun o'qigan. Shomon tabib vazifasini ham bajargan, u dorivor o'tlar, fizio-psixoterapeya, jarrohlik va manual terapeya, afsun, jodu o'qish bilan be'morni davolagan. Shomon yomg'ir mavsumi oldidan yomg'ir chaqirgan, baxtsizlik, urush-janjal, rashk va boshqa maishiy muammolarni ins-jinslarni chaqirib, tegishli marosimlarni bajarib hal qilgan. U fol ochib, dushmanlik qilganni yoki kasallik sababini aniqlagan, sehr-jodu qilgan. Shomon bir vaqtning o'zida tabib, sehrgar, afsungar vazifasini bajargan. Davogar bu vazifani bajarish uchun turli sinovlardan o'tgan, undan oldin uzoq yillar shogird turgan.

Bo'yoqlarni tayyorlashni odam bundan 7-6 ming yil oldin boshladi. Shu vaqtda odamlar ozuqa mahsulotlarini konservalashni kashf qildilar. Amur daryosi baliqchilari bundan 6 ming yil oldin sho'r baliq tayyorlash uchun maxsus o'ra qazganlar. Janubiy Amerika hududlari mil.avv. 4 ming yillikda bizon terisi tashlangan o'raga suv quyib, chog' bo'lgan toshlarni tashlaganlar qaynayotgan suvda miya suyagi yog'larini eritganlar. Yog'ni unday tuyilgan quritilgan go'sht va meva-rezavorlar sharbati bilan aralastirib, kubik shaklida quritganlar. Oqsil, yog' va vitaminlarga boy bo'lgan bu mahsulot uzoq turgan.

Sug'orish inshootlarini qurish geometriya va matematika asoslarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Uy-joy, diniy e'tiqod inshootlari, mudofaa devorlarini qurish va suv havzalarida suzish uchun transport vositalaridan foydalanish matematika va mexanikaning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Metall rudalarini quyishning paydo bo'lishi bilan metallshunoslik qandaydir darajada kimyo fani asoslarining paydo bo'lishiga olib keldi. Uzoq joylarga suzish, harbiy yurishlar, podaning orqasidan ko'chib yurish, uzoq-uzoqlarga ozuqa izlab urug'larning ko'chishi va astronomik kuzatishlar geografiya fani va xarita tuzishning rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Polineziyaliklar o'zlarining ming kilometrlarga cho'zilgan uzoq sa-yohatlarida oqim, shamol yo'nalishlari, dengiz yo'llari va orollarni aks ettiradigan tayoqcha, qamish poyalari, toshchalar, chig'anoqlar ham-da xaritalardan foydalanganlar. Ovchilik, termachilik, dehqonchilik va chorvachilik mashg'ulotlari flora va fauna to'g'risida ulkan ma'lumotlar jamg'armasini shakllantirdi. Odamlar o'simliklarning foydali xususiyat-larini o'rgandilar va o'simliklardan shifobaxsh malhamlar tayyorlab, ya-ra-jarohatlar, turli kasalliklarni davolash malakasini hosil qildilar. Yirtqi-ch hayvonlar yetkazgan jarohatlar, harbiy to'qnashuvlarda yarador bo'lish jarrohlikni keltirib chiqardi. Ilk metall jarrohlik asboblari yasash imko-niyatini yaratdi. Dastlab diniy mifologiya bilan bog'langan tarixiy xotira, tarixiy ong unsurlari shakllandi. Har bir urug' o'zining kelib chiqishi va o'zidan oldin o'tgan ajdod-avlodlari, ularning mashg'ulotlari, urf-odat-lari, turmush tarzi to'g'risida tasavvurlarga ega bo'ldi. Bular to'g'risida turli afsona, rivoyat va eposlar yaratildi. Urug' jamoasi va uning a'zolari o'z urug'larining kelib chiqishi, geneologiya daraxti to'g'risida tasavvur bilimni shakllantirdi. Shajara daraxtini tasavvur qilish urug'ning uzoq o'tmishi, kechasi va buguni to'g'risida yaxlit bilim tizimini yuzaga kel-tirdi. Qator paleolit jamoalarida shajarashunoslikning o'ziga xos tarixiy bilim sohasi sifatida mavjudligi etnologiyada asoslanadi. Polineziyada urug' odatda 20 avlod bo'yicha hisoblanadi. Bu orollarni o'zlashtirishdan boshlab hisoblanadi. Hatto Markiz orollarida 159 avlodning afsonaviy ajdodi osmondan boshlab sanaladi.

Mifologiyada urug' ajdod-avlodlarining o'tmishda tabiat ofatlari, dush-manlarga qarshi matonatli kurashlari yorqin aks ettirilgan. San'at jami-yat va davlatning vujudga kelishi arafasida sayqal topdi. Suyak, yog'och,

metall, yarim qimmatbaho toshlar, oltin va kumushdan nafis san`at asarlari yaratildi. Bular sirasiga oltin va kumush haykalchalar, harbiy qurollar (xanjar, pichoq, nayza, qalqon, qilich, oybolta, sovut va dubulg'a), zargarlik buyumlari, idish-tovoqlar, hashamatli kiyimlar va egar-jabduqlar kiradi. Badiiy quymachilik, metall buyumlarga oltin zarhal berish, suyak, tilla, kumush bilan ziynatlangan soplari, qimmatbaho toshlar va metallar bilan qo'shib ishlangan harbiy qurol-yarog'lar, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-bosh va poyafzallar paydo bo'ldi. Turli hayotiy manzaralar, ov, o'simlik, hayvonlarning nafis tasviri tushirilgan pichoq, xanjar, qilich, qalqon soplari va idish-tovoqlar yasala boshlandi. Metallarga badiiy ishlov berish san`ati yuksak rivojlanganini namunalari skif-sarmat, sak qabilalaridan qolgan buyumlarda ko'rish mumkin.

Yozuvning paydo bo'lishi. Taxminan bundan 37 ming yil oldin odamlar suyaklarda belgilar qo'yib, hisoblashning eng oddiy vositasi sifatida toshchalardan foydalana boshladilar. Mutaxassislar ba'zi g'or tasvirilarida yozuvning ibtidosi bo'lgan belgi va ramzlarni aniqladilar. Yozuv o'z taraqqiyotida to'rt bosqichni bosib o'tdi. Piktografik yozuv yoki rasmi yozuv yozuvning paydo bo'lishida birinchi bosqich hisoblanadi. Piktografiya (lotin tilida pictus – manzarali chizilgan va yunoncha grapho – yozaman) tosh, yog'och, loy kabi ashyolarga muloqot uchun ataylab tasvirlashdir. Piktografik yozuv piktogramma deb ataladigan rasm vositasida tushunchani alohida so'zlarga bo'lmay uzatadi. Shunga tegishli ravishda piktogrammaning alohida unsurlari yaxlitlikning bir qismi sifatida chiqib, faqat bir-biri bilan bog'liqlikda to'g'ri tushunilishi mumkin. Piktogramma sxematik tasvir bo'lib, badiiy qiymati ahamiyatli bo'lmay, rasm nimadir xabar beradi. U kimga kerak bo'lsa, to'g'ri bilishi – anglashi lozim edi. Toshga bitilgan piktogramma petroglif deb ataladi. Uning shakllanishini asosiy manbasi ibtidoiy tasviriy san`at edi. Ibtidoiy san`atning ilk izlari yuqori (so'nggi) paleolit (mil.avv 40-25 mingyilliklar)ga tegishli. Piktografiya shakllanishining to'la tugallanish davri neolit davri (mil.avv 8-6 ming yil). Bu davrda piktografiya hikoyaga qo'shimcha emas, xabarlarini mustaqil uzatish uchun foydalanila boshlagan.

Piktografiyaning o'rniga ideografik yozuv keldi. Bu inson tafakkurining yanada rivojlanishi, odamning katta mavhumlashtirishlarga qobiliyatining shakllanishi, nutqning alohida unsurlar – so'zlarga bo'lish qobiliyatining shakllanishi bilan bog'liq edi. Ideografiya (yunon tilida idea-tushuncha va grafo-yozaman ma'nosini bildiradi) so'zlarda jo qilin-

gan, uzoqlashtirilgan tushunchalarni bildiradi. Ideografik yozuv xabarni soʻzma-soʻz belgilaydi. Soʻz tarkibini uzatishdan tashqari, soʻz tartibini ham uzatadi. U qatʼiy oʻrnatilgan va barqaror yozilgan grafik belgilarga ega. Bunda yozuvchi piktografiyadan farq qilgan holda, ularni kashf qilmay, tayyor toʻplamdan foydalanadi. Ideografik yozuv piktografiya asosida paydo boʻldi. Bu jarayon bir necha ming yillarni oʻz ichiga oladi. Shartli piktogramma alohida unsurlarga boʻlindi va mustaqil mazmun kasb etib, soʻz maʼnosining shartli belgisiga aylandi. Davlat va jamiyatning paydo boʻlishi ideografik yozuvning yanada rivojlanishiga olib keldi. Tez yozish, murakkab va uzun matnlarni uzatish ehtiyojlari paydo boʻldi. Bu rasmlarni yanada sxemalashtirish, ularni yanada shartli belgilar-mixxat va iyerogliflarning paydo boʻlishiga olib keldi.

Ilk davlat va jamiyat ulgʻaygan inson oʻzining yuksak sanʼati, shakllangan ilmiy bilimlari tizimi, bilimlar va etnik normalarni uzatishning rivojlangan tizimi, dunyo dinlari eʼtiqodlari bilan yakunlanadi. Tarixiy progressning birinchi uch bosqichlari maʼnaviy sohada erishgan yutuqlari bilan keyingi 1,5 ming yillikda erishgan natijalaridan bir necha marta oshib ketadi.

Jez asrining gullab-yashnagan davrida tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlarning (toʻla boʻlmasada) tizimi shakllana boshladi. Qadimgi ilk sivilizatsiya oʻchoqlari Misr, Mesopotamiya, Hindistonda ilm-fanning birinchi ilmiy inqilobi yuz berdi. Qadimgi Sharqning Hindiston va Oʻrta Osiyo hududlarida ham aniq va tabiiy fanlar rivojlandi. Natijada aniq va tabiiy fanlarning yutuqlari xoʻjalik hayotida keng qoʻllanildi. Ayniqsa, aniq fanlarning yutuqlari meʼmorchilik sanʼati rivojlanishida betakror memoriy inshootlar bunyod etilishida oʻz aksini topdi. Ana shunday inshootlardan biri er.avv. 2600 yillar atrofida qurilgan Misr piramidalarida yaqqol koʻrinadi. Qadimgi Misr sivilizatsiyasining geometriya, matematika sohasida erishgan yutuqlari piramida qurilishida oʻz ramziy ifodasini topgan.

Xeops piramidasiining memori kohin Xemiun hisoblanadi. Rivoyatlarga koʻra Misr kohinlari ichida eng donishmandi bolgan Xemiun ham oʻz sirlarini Xeops piramidaga yashirgan. Piramida asosi tomonlari teng toʻgʻri toʻrtburchak – kvadratdan iborat uzunligi 163,6 metrni tashkil qiluvchi bu tomonlar oʻzaro yuzdan bir foizga farqlanadi xolos. Buning ustiga ehromlar aqlni lol qoldiruvchi aniqlikda 133 darajaga yerning magnit maydoni kuch chizigʻi tomon ogʻishgan. Demak, misrliklar oʻsha payt-

dayoq magnit maydoni kuch chiziqlari yo'nalishini aniqlovchi asbobdan xabardor bo'lishgan.

Kohin Xemiun ikkita o'lchov kattaligi bilan ehrom tomonlari o'rtasidagi nisbatlar o'zgarmas miqdorga teng ekanligini isbotlab bergan. Bundan tashqari, piramida ichida asosining qarama-qarshi tomonini teng ikkiga bo'luvchi, balandligi piramida balandligiga teng shunday uchburchak borki, uning tomonlari nisbati ham aynan o'sha «fi» qiymatiga tengdir. Ana shu uchburchak Xemiun uchburchagi deb ataladi. Xemiun uchburchagi gipotenuzasining katetiga nisbati ham o'sha «oltin nisbat» deb ataluvchi qiymatga teng. Bu qiymat fazoviy jismlar o'rtasidagi nisbat bo'lib, rivojlanishning geometrik qonuniyatlari bo'lmish o'zgarmas miqdorni tashkil etadi. (Anvar Sherov «Oila davrasida» 2013-y 3-oktyabr №40)

Qadimgi Mesopotamiyada er. avv. IV – III ming yilliklarda adabiy va ilmiy manbalardan iborat kutubxonalarning tashkil etilishi, maktablarda astronomiya, tabiat va matematikaning o'rganilishi ilmiy inqilobning boshlanishi edi. Bobilda ko'p sonli astronomik asarlar vujudga keldi. Er. avv. I ming yillikda Bobilda mashhur astronomlar Naburian va Kiden yashadi. Naburian oy fazalarini aniqlash tizimini ishlab chiqdi. Kiden quyosh yilini 365 kun, 5 soat, 41 minut va 41,6 sekund hisobladi. Qadimgi Misrda o'ziga xos yozuv kashf qilindi. Taqvim, suv va quyosh soatlaridan foydalanildi. Qadimgi Xitoy va Hindistonda matematika, seysmologiya, falsafa, tibbiyot sohalarida ulkan yutuqlarga erishildi. O'rta Osiyo va Eronda ilmiy bilimlarning asoslari, yozuv, rivojlangan diniy e'tiqodlar shakllandi. Mil.avv.I ming yillikda zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoda O'rta Osiyo, Eronning diniy-falsafiy, ma'naviy bilimlari o'z aksini topdi.

Sharqning bunday ulkan ilm-fan yutuqlaridan foydalangan G'arb dunyosi er. avv. I ming yillikda ilmiy bilimlarni rivojlantirdi. Yunon faylasuflari Fales, Geraklit, Suqrot, Aflotun, Demokrit, Epikur, matematiklar Pifagor, Yevklid, Arximed, medik Gippokrat, geograflar Aristofan va Strabonlar o'z ilmiy ta'limotlarini yaratdilar. Bu ta'limotlar naturfilosofiya, biologiya, mantiq, siyosatshunoslik asoslarini qamrab olgan edi. Tabiatga qarashda tub o'zgarishlar yuz berdi. Tabiiy fanlarning birinchi tizimi bo'lgan texnik va ijtimoiy fanlarning asoslari qo'yildi.

Ilmiy bilimlar rivojlanishining keyingi davri bu ellinizm fani edi (er. avv. III-II asrlar). XX asrning 50-yillari boshlaridan ko'pchilik tarixchi-

lar ellinizm davrini siyosiy-iqtisodiy va madaniy-mafkuraviy sohalarda mahalliy (sharq) va ellin (g'arb) madaniyatining sintezi natijasida madaniy taraqqiyotning yangi bosqichi deb hisoblaydilar. Bu sintez qadimgi Sharqning ko'pgina hududlarini yunon-makedon istilolari oqibatida aniq tarixiy vaziyatda amalga oshdi degan tushuncha hukm suradi. Haqiqatda esa, mil.avv. I ming yillikdan boshlab, ayniqsa, dunyoda birinchi bor uch qit'ani birlashtirgan ulkan Ahmoniyar imperiyasi davrida sharq va g'arbning madaniy-iqtisodiy aloqalari va madaniyatlar muloqoti boshlangan edi.

Ellinizm davrining eng mashhur madaniy voqeasi Iskandariya muze-yining tashkil etilishi bo'ldi. Bu dunyo tarixida davlat rahnamoligidagi ilk ilmiy tadqiqot instituti edi. Bu davrda Zenon asos solgan falsafaning yangi oqimlardan biri stoiklik, Gipparx va Ptolomey astronomiyasi, Eratosfen (Iskandariya muzeyining direktori, yer aylanishining nisbatini aniq belgilagan olim) geografiyasi vujudga keldi.

Ellinizm fanining buyuk yutuqlari Eratosfen geografiyasi, Feofrastning botanikasi, Ktesibeyning pnevmatikasi, Galenning anatomiyasi, fiziologiyasi va tibbiyoti, kohin Manefonning «Misr tarixi» va Polibiyning davlat shakllarini siklik almashuvi nazariyasi edi. Antik tarixda Rim davri fan taraqqiyotida qator yutuqlarga erishdi. Lukretsiy va Seneka tabiatni o'rganishda qator tadqiqotlarni amalga oshirdilar.

Astronomiya sohasida Ovidiyning «Osmon hodisalari» kitobi, Maniliyning «Astronomika» nomli beshta kitobi ma'lum. Ijtimoiy fanlarni rivojlantirishda rimliklar ancha ishlarni amalga oshirdilar. Strabon geografiya bo'yicha va o'sha davrda mashhur bo'lgan Tit Liviy Rim tarixi bo'yicha 142 jildlik asarini yozdi.

Pompey Trog, damashqlik Nikolay, sitsiliyalik Diodor jahon tarixi bo'yicha ko'p tomli asarlarni yaratdilar. Astronomiya, yershunoslik, qurilish san'ati va me'morchilik (Vitruviyning me'morchilik bo'yicha 10 kitobi), harbiy texnika va strategiya sohalari bo'yicha katta ishlar qilindi.

Sharqdagi lokal sivilizatsiyalar ilmiy bilishning shakllanishi va rivojlanishida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Xitoyda Konfutsiy (er. avv. 551-479-yillar)ning falsafiy – axloqiy ta'limoti; sayyoh olimlar maktabi; Mo Szi (er. avv. 479-438 yillar)ning ideal davlat to'g'risidagi ma'lumotini ko'rsatish mumkin. Qonun ustuvorligi to'g'risida Shan Yan davlatning barcha fuqarolari uchun yagona va majburiy qonun e'lon qildi. Lekin hukmdor qonun ustida turadi deb uqtirdi. Xitoyda keyingi davrlarda

ham tibbiyot, astronomiya, texnik fanlar rivojlandi. Xitoy olimlari oy va quyosh sikllarini birlashtirishni o'rgandilar. Osmon jismlari harakati asosida yilni hisoblab chiqdilar. Oy tutilishlarini oldindan aytib bera boshladilar. Qog'oz, kompas, tishli g'ildirak, suv tegirmoni Xitoyda kashf qilindi. Qadimgi Hindistonning ilmiy yutuqlariga Buyuk Hind grammatika fanining ajoyib namunasi Panining grammatikasi edi.

Er. avv. III-I asrlar Gupta davrida hind fani gullab yashnadi. Er. avv. I asrida 10 lik sanoq tizimi yaratildi. Hind olimlari matematikada ayirish, oddiy va murakkab misollarni hisoblash, sonlarni kvadrat va kubga ko'paytirish, kvadrat tenglamalarni yechishni bilardilar. Ular trigonometriya asoslarini yaratdilar. Er. avv. V asr atrofida yashagan mashhur matematik, astronom Ariyapxata kvadrat va kub ildizini chiqarish qoidasi, bir noma'lum bilan chiziqli tenglamani yechish, sonlar nazariyasi asoslarini yaratdi. Astronomiya sohasida u yerning o'z o'qi atrofida aylanishi, quyosh va oy tutilish nazariyasini ishlab chiqdi. Hind olimlari kimyo, metallurgiya, tibbiyot sohalarida sezilarli natijalarga erishdilar. Misol uchun, «Sushruta – Samxita» nomli tibbiy asarlarda 650 dorivor vosita, 300 dan ortiq operatsiyalar, 120 jarrohlik asbobi tasvirlangan.

XX asr boshlarida Artxashastra («Siyosat to'g'risidagi fan») nomli qadimgi hind qo'lyozmasi topildi. Bu qo'lyozma qadimgi davrning eng buyuk siyosiy traktatlaridan biri hisoblanib, Aflotunning «Davlat» va Arastuning «Siyosat» asarlari bilan tenglashtiriladi. Traktatda podsho hokimiyati paydo bo'lishining sabablari, tartibni saqlashda jazoning roli, monarxiya shaklidagi davlatning tuzilishi, iqtisodiy siyosat, soliqqa tortish, diplomatiya to'g'risida fikr yuritiladi. Mil. I asr milodiy IV asrlarda mavjud bo'lgan, O'zbekistonning janubi, Afg'oniston, Hindistonni o'z ichiga olgan Kushon imperiyasi davrida bir necha alfabitlar, jumladan shu davrda mustdaqil davlat bo'lgan Xorazmda yozuv paydo bo'ldi. «Avesto ezgulik» va yovuzlik kurashi g'oyalari rivojlatirildi.

Madaniyatshunos olim Pitirim Sorokin Yunoniston va Rimdagi ilmiy texnik kashfiyotning o'sishini baholashga urinib ko'rdi. Qadimgi Yunonistonda ilmiy faollik er. avv. VI-III asrlarda o'zining eng yuqori cho'qqisiga erishdi. Shunday qilib, antik dunyoni bilishning birinchi ulkan halqasi tugallandi. Natijada inson o'z tafakkuriga asoslanib, tabiat sirlarini ochdi hamda zamonaviy fanning binosi poydevorida yotgan fanlar tizimini yaratdi.

Qadimgi jamiyatlarda madaniyat va san'atning cho'qqilarida erishilgan yutuqlaridan bir qismi bizgacha insoniyatning o'smirlik davrida yara-

tilgan ma'naviyatning faqat ozgina qismi yetib keldi. Neolit davridayoq ma'naviyatning poydevori uchun shart-sharoitlar yaratildi. Lekin o'sha davrning madaniy yodgorliklari bizgacha kamroq saqlanib qolgan. Kam sonli jamoalarning qo'rg'onlar va ilk shaharlarda to'planishi, mehnat unumdorligining o'sishi, bo'sh vaqtning ko'payishi bularning hammasi neolit san'atining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu san'at uylar, sopol xumlar, ibodatxona devorlarining bezaklari va tosh ustunlarda o'z ifodasini topdi. Er. avv. VI-V ming yilliklarda Old Osiyoda ma'lumotlar uchun predmetlarning katta hajmdagi tasvirlaridan foydalanilgan. Mil.avv. IV ming yillikda Mesopotamiyada shumerlar dunyo tarixidagi birinchi yozuv – mixxatni kashf qildilar. Er. avv. III ming yillikda loy taxtachalarga qamish tayoqlar bilan belgilarni chizdilar. Neolit va ilk mezolitning sopol idishlarida badiiy umumlashtirishning bosqichlaridan birini ko'ramiz.

2. Jez davrida madaniyat va san'at. Jez davrida madaniyat va san'atning shakllanishi uchun yangi imkoniyatlar ochildi. Mehnat tizimida va madaniy tizimda madaniyat va san'at mustaqil faoliyat sifatida chiqa boshladi. Bu imkoniyatlardan temir asrida to'la foydalanildi. Bu davrda Hindiston, Xitoy, Rim va Yunoniston kabi madaniyatning eng qadimgi o'choqlarida ko'p sonli yodgorliklar yaratildi. Madaniyat dinamikasida jamiyatning shakllanishi va taraqqiyotidagi siklik tebranishlarga o'xshash oliy katta sikllarni ajratish mumkin: tarix arafasi bo'lgan yuqori paleolit va mezolit madaniyati, neolit, jez va temir asri hamda antik madaniyat uning yuqori va eng o'rganilgan qismidir.

Shahar inqilobi jez asridan boshlab me'moriy yodgorliklar, maqbaralar, saroylar, teatr kabi jamoat inshootlarini bunyod qilish uchun yo'l ochdi. Qadimgi Shumerda er. avv. III ming yillikda ibodatxonalar baland supa ustida devor bilan o'ralgan holda qurildi. Fir'avn Amenxotep III (er. avv. XVIII asr)ning Fiva shahridagi saroyi ulkan maydonni egallagan edi. Fir'avn Amenxotep IV (Exnaton)ning yangi poytaxti Axetaton shahridagi bosh saroyda sharqiy peshtoqning uzunligi 700 metr edi. Ossuriya podsholarining poytaxti Nineviya shahridagi saroyi ulkan hajmlarda bunyod qilingan edi.

Bilimlar, ko'nikmalar va madaniy merosning katta miqdorda to'planishi, uni har bir keyingi avlod tomonidan o'zlashtirish zaruriyati tarbiya va ta'lim jarayonida tub o'zgarishlarni talab qildi. Bolalar, o'smirlar uchun hayotning o'zi maktab bo'lgan. Ovchi urug'larda bolalar yoshligidan qushlar, mayda hayvonlarni ovlab qorin to'yg'azishga kundalik hayot-

da o'rgandilar. Ular qush, hayvonlarni yurish-turishini kuzatib, amaliy bilim oldilar. Foydali, dorivor o'simliklarni bilganlar va amalda foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lganlar. Neolit davrida ham ta'lim asosan oilada amalga oshirilardi. Bola yoshligidan tabiat hodisalarini kuzatardi, o'z oilasi, jamoa hayotiga qo'shildi edi. O'smir bola boshda uyda, keyin esa dalada, ustaxonada oddiygina yoki yordamchi yumushlarni bajarardi edi. O'smir qachonki, zaruriy bilim va ko'nikmalarni egallagach, oilasi, katta yoshli jamoa a'zolari oldida o'ziga xos sinovlardan o'tganidan so'ng, u kattalarga qo'shilib, jamoaning to'la huquqli a'zosi – ovchi, harbiy, dehqon, cho'pon, hunarmand bo'lar edi. Bu marosim inisiatsiya deb atalgan.

Bolalik va o'smirlikda egallangan bilimlar va ko'nikmalar doirasi hajmi uncha katta emas va oddiy edi. Xavfli va qiyin hayot, tirik qolish va rivojlanish katta kuch va tafakkur, ko'p mehnat, harbiy marosim, an'analarini mohirona bajarishni talab qilardi edi. Hayot shafqatsiz va og'ir, xatoga yo'l qo'yish halokat edi. Hali ta'lim jarayoni mustaqil bo'lmay, faoliyatning alohida turi emas edi. Aqliy mehnat bilan faqat magsehr-garlar, shomonlar shug'ullanganlar. Lekin ular ham diniy marosimlar, aqliy mehnat faoliyatini bajarib bo'lgach, kundalik tirikchilik ishlari ya'ni, ov, termachilik ishlari bilan band bo'lar edilar. Ahvol jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida tubdan o'zgardi.

Jismoniy mehnat kishilari uchun o'rganish jarayoni ilgarigidek ishlab chiqarishdan ajralmagan edi. Aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajratilishi yozuvni yaratishga yordam berdi. Davlat va jamiyatning taraqqiy qilishi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi, aqliy mehnat kishilarini tayyorlash mirzalar, koinlar, faylasuflar maktabini tashkil qilishni talab qilardi edi. Yosh avlodni o'qitish bilan shug'ullanadigan maxsus kasb egalari ana shu tarzda paydo bo'ldi. Qadimgi Misr va Mesopotamiyada bir necha bosqichli maktablar paydo bo'ldi. Ta'lim tizimining paydo bo'lishi, jamiyat taraqqiyotidagi olg'a tashlangan ulkan qadam edi. Shumer jamiyatida er. avv. III ming yillikda mirzalar va yer o'lchovchilarning tayyorlovchi Eduba maktabi faoliyat ko'rsatdi. Qadimgi Misrda mirzalar maktabi va boshqa turli kasblarga o'qitadigan o'quv yurtlari tashkil etilgan edi. O'rta Osiyoda ham ta'lim tizimi er. avv. I ming yillikda shakllandi. Ilk yozuv va ilk maktablar paydo bo'ldi.

Qadimgi Afinada ham mil.avv. V asrdan turli maktablar paydo bo'ldi. Fales maktabi, Aflotun akademiyasi, Arastu litseyi, ayniqsa, mashhur edi.

Aflotun akademiyasi (er. avv. 487-yilda ochilgan)da matematika, astronomiya, musiqa o'qitilgan va fan bo'yicha munozaralar olib borilgan. Aflotun bu yerda 40 yil dars bergan. Akademiya imperator Yustinian farmoni bilan 525-yilda tugatilgan. Afinada mil.avv. IV asrda Arastu o'z litseyida o'quvchilari yordamida 158 polisning davlat qurilishini tasvirlab berdi. U davlat hokimiyati shakllarining almashuv sikllarini asosladi (monarxiya, tiraniya, aristokratiya, oligarxiya, demokratiya). Bu birinchi siyosatshunoslikka oid «Politika» asoslarining paydo bo'lishiga olib keldi.

Ahmoniyalar davlatida zodagonlarning o'g'illari viloyat noibi mahkamasida davlat boshqaruvi tartib qoidalarini bir necha yil o'rganib, keyin ma'lum bir lavozimlarni egallaganlar. Qadimgi Xitoyda ta'lim yuqori darajada rivojlangan. Xitoy maktablarida asosan, iyerogliflar va Konfutsiy falsafasini o'rganishga katta e'tibor berilgan. Imperator UDi er. avv. 124-yili poytaxtda maktab ochgan. O'quvchilar maktabni bitirib, imtihonlarni topshira olsalar amaldorlik lavozimlarini egallash huquqiga ega bo'lganlar. Bu davlat amaldorlarini tayyorlaydigan birinchi o'quv yurti edi.

Shu tarzda ta'limdagi birinchi inqilob mehnatning ijtimoiy va kasbiy taqsimotini rivojlanishiga yordam berdi. Bunday ixtisoslashgan faoliyat turining shakllanishi yosh avlodning savodini chiqarish, fan, madaniyat, boshqaruv va harbiy ishni o'rganishga qulay shart-sharoitni yaratdi. Lekin bu tizim faqat yosh avlodning tor doirasini qamrab olgan edi. Aksariyat maktablar pullik bo'lgan. Aholining katta qismi esa bilim va amaliy ko'nikmalarni asosan oila va mehnat faoliyati jarayonida olar edi. Qadimgi Misrda zodagonlar o'z bolalarini savodini chiqarishni birinchi vazifa deb bilganlar. Mirzalik kasbi Misrda obro'li hisoblangan.

Qadimgi Amerikadagi Inkalar imperiyasida o'ziga xos ta'lim tizimi shakllandi. Bu yerda maxsus o'quv yurtlarining 2 xili mavjud edi. Ularning birida zodagonlar ta'lim olar edi. Ular til, tarix, harbiy ish, qurilish texnikasi, boshqaruv san'atini o'rganar edilar. Boshqa turdagi maktablarda quyosh xudosisiga alohida xizmat qilish yoki oliy tabaqa zodagonlariga turmushga chiqishga mo'ljallangan eng go'zal qizlar ta'lim olganlar. Bu yerda poeziya, musiqa, raqslarni o'rganishga e'tibor qaratilgan.

3. Qadimgi jamiyatlarda axloq va mafkura dinamikasi. Mezolit va neolit davrlarida axloq normalari va diniy dunyoqarash chambarchas bog'langan va bir-birini to'ldirib mustahkamlar edi. Jamoa asrlar davomida shakllangan va deyarli o'zgarmaydigan urf-odat, an'ana, axloq normalari asosida yashar edi.

Urf-odat, an`analarga rioya qilish insonga bo`ysunmaydigan oliy kuchlarga murojaat qilinib, urf-odat, an`analarni ajdodlar vasiyat qilgan, ular abadiy ularni buzish mumkin emas deb hisoblagan. Ularning o`rniga yangiliklar qiyinchilik bilan kiritilgan. Ular bajarilmasa yoki buzilsa, insonning jazolanishi muntazam uqtirib borilar edi.

Ibtidoiy odam doimo ko`plab ta`qiqalar, «tabu» va qattiq jazodan qo`rqib yashar edi. Chunki og`ir va shafqatsiz hayot, dushman jamoalarning tahdidi, yirtqich hayvonlarga yemish bo`lish xavfi, tabiiy ofatlar, muntazam kasalliklar natijasida odamlar qudratli xudolarni urf-odat, muhosim raqslari, qurbonliklar bilan yumshatish, shafqatli qilishga urinar edilar. Tabiat kuchlari ilohiylashtirilgan (animizm). Ajdodlarga sig`inish vasiyat qilingan urf-odat, qoidalarga qat`iy bo`ysunish, chekinganlarni jazolash bilan mustahkamlanar edi. Kohinlar va oqsoqollar diniy-axloqiy norma va urf-odatlariga rioya qilinishini nazorat qilib, to`plangan tajriba, ko`nikma qoidalarini to`plab amalda qo`llaganlar va yosh avlodga qoldirganlar.

Ibtidoiy jamoa davrida diniy tasavvurlarning animizm, fetishizm, totemizm, magiya va shomonlik ko`rinishlari bo`lgan. Ilk diniy tasavvurlarning unsurlari neandertallar yashagan davrga borib taqaladi. Neandertal qabrlari Osiyo va Yevropada ko`plab saqlanib qolgan. (O`lkamizda Teshiktosh neandertali qabri Boysun tog`ida saqlanib qolgan). Neandertallarning dunyoqarashiga ko`ra go`yo «ruh» o`lgan kishining tanasiga qaytishi mumkin. O`shanda tirik odamlarga kerak bo`ladigan narsalar unga ham kerak bo`ladi deb o`ylaganlar. Shu sababli neandertallardan boshlab qabrlarga mehnat qurollari, qurol, buyumlar va ozuqa qo`yilgan.

Animizm – ruhlarga va tabiat hodisalarining barchasida ruhlar mavjudligiga ishonish, odamni nomoddiy ruhiy mavjudotlar bilan muloqot qilishi mumkinligiga ishonch. Fetishizm – (magiya xossalari mavjud bo`lgan jonsiz narsalarga sig`inish) qurigan daraxt, xarsang toshlarga sig`inish.

Totemizm – hayvonlar ruhiga sig`inish, avlodning yagona bir umumiy ajdod totemdan tarqalganiga ishonish. Bu e`tiqod uzoq vaqt urug`ning birligini saqlab qolishga imkon berdi. Totem (amerika hindulari – algonkinlar tilida – «ototam»-aka» ma`nosini bildiradi) har qanday hayvon, qush, baliq, o`simlik, qoya, hasharot bo`lishi mumkin. Har bir urug`, qabila, jamoaning totemi bo`lgan. Amerika hindularida, totem – urug` bo`lgan. Misol uchun turkiy xalqlarning totemi – kumush bo`ri bo`lgan.

Amerika hindularida totem odamni ismini bir qismini tashkil etgan. Misol uchun Chingachguk – Ulkan Ilon, Ayyor Tulki, O‘tkir ko‘zli Lochin. Totemizm qadimda– ovchi urug‘-jamoalarida keng tarqalgan.

Shomonlik – damlar va oliy ruhiy kuchlar o‘rtasida vositachilik qilishni bildiradi. Shomon tegishli marosim asosida, u yoki bu vosita yordamida o‘zini trans, ekstaz holatiga keltiradi: Bu turli mast qiladigan narsalar (misol uchun giyohvand moddalar), do‘mbira sadolari hamrohligida raqsga tushish bilan birga amalga oshiriladi. Raqsga tushayotgan shomonning og‘zidan ko‘pik ketadi, ba‘zi hollarda tutqanog‘i tutib qoladi. U tushunarsiz tilda so‘zlarni qichqiradi. Bu shomonni ruhlar bilan muloqot qilayotgani, ruhlar shomonning biror bir istagini bajarayotgani (misol uchun bemorni davolayotgani) belgisi hisoblanadi.

Magiya – sehrgarlik moddiy borliqdan ajralgan ruhlar dunyosi borligiga asoslanadi, unga u yoki bu tarzda ta‘sir qilish mumkin deb hisoblaydi. Magiya sirli kuchlarga ta‘sir qilib, ularning yordami bilan atrof-muhitga ta‘sir qilish e‘tiqodi magiya moddiy borliqdan ajralgan ruhlar dunyosi mavjudligiga, unga u yoki bu tarzda ta‘sir qilish mumkin deb ishonishga asoslanadi. Magiya – sehrgarlik, davolash, odamni issiq-sovuq qilish, ob-havoga ta‘sir o‘tkazish kabi ishlarni amalga oshiradi. Misol uchun: yomg‘ir chaqirish, bo‘lg‘usi ovni omadli bo‘lishi uchun magiya marosimi amalga oshirilgan. Magiyada ko‘zmunchoq, tumor taqish, turli afsunlar oqish yomon ko‘zlardan, balo-qazodan asrash vositasi bo‘lgan

Magiyada g‘ayri tabiiy yo‘llar bilan, ma‘lum bir harakatlar yoki harakatsizlik bilan (tabu-taqiqlarga rioya qilish) istalgan natijaga erishish mumkin deb hisoblanadi. Ov bilan bog‘langan magiya marosimlarini g‘or tasviriy san‘atida yaqqol ko‘rinadi. G‘or tasvirlarda qadimgi odamlar ov qilishi kerak bo‘lgan hayvonlar tasvirlangan. Ba‘zi tasvirlar qizil yoki sariq bo‘yoq bilan belgilangan. Bu qizil rangga bo‘yalgan kalta nayzalarning izi, bo‘lg‘usi ovda hayvonlarni o‘lishini bildiradigan «qon» ramzi, qadimgi ovchilarga ovda omad olib kelishini bildirgan. Bo‘lg‘usi ov oldidan g‘orda ovchilar magiya marosimi o‘tkazib, raqs tushib ov o‘ljasi bo‘lgan hayvon tasviriga kalta nayzalar otganlar. Bu bo‘lg‘usi ovni omadli bo‘lishini goyoki taminlagan.

Dafn marosimlari diniy tasavvurlar bilan bog‘langan. Dafn marosimi ilk qadimgi odamning dunyoqarashini aks ettiradi. Dafn qilingan odam tanasiga qizil bo‘yoq sepilishi, quyosh botishi va chiqishiga qarab mayitni qabrga qo‘yilishi, qabrga turli buyumlarni qo‘yilishi qadimgi odamning

o'lim va hayot, tug'ilish, u dunyoda hayotning davom etishi to'g'risidagi qunyoqarashini aks ettiradi. Dafn e'tiqodi keyin barcha dinlarda saqlanib qoldi va umuminsoniy qadriyatga aylandi. Ilk odamni qiziqtirgan hayot va o'limning abadiy muammosi qadimdan hozirgi kungacha uzluksiz munozara mavzusi bo'lib qolmoqda.

Mifologiya. Xalq og'zaki ijodi folklor mifologiya, ma'naviy hayotning ko'rinishini ilk shakli, odamni qurshab turgan dunyoni va o'zini shu dunyoda anglashidir. Ibtidoiy jamoa davridan mifologiya ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, topishmoqlar va dostonlar shaklida paudo bo'lgan. Odam tabiat hodisalarini, osmon jismlari, o'zi uchun sirli bo'lgan koinotni, o'z hayotini, og'ir, xavf-xatarga to'la o'z hayotining qiyinchiliklarini, o'z oldida turgan muammolarni yechimini. o'z orzu umidlarini, o'zi suyangani qadriyatlarni mifologiyada ifodalagan.

Mehnat unumdorligining oshishi, ijtimoiy tabaqalanish, ijtimoiy qatlamlar, sinflar, davlat huquqining paydo bo'lishi insonning ma'naviy dunyosini ham o'zgartirdi. Shu vaqtgacha yagona bo'lgan ma'naviy hayot oqimi moddiy ishlab chiqarishdan ajralib, bir necha o'zaro bog'langan mustaqil jilg'alarga bo'linib ketdi. Ularni bajaradigan alohida guruh odamlar: kohin, shomon, musiqachi, raqqos, me'mor, o'qituvchi, rassomlar paydo bo'ldi. Lekin axloq, yurish-turish qoidalarini to'plami bo'yicha mustaqil jilg'a topilmadi. Uni tushuntirish, saqlash va unga rioya qilish vazifasini aqliy mehnat, diniy e'tiqod xodimlari bajardilar. Kohinlar (axloq normalarini xudo vasiyatlarini bilan bog'ladilar), huquqshunoslar (bir qator eski yurish-turish qoidalarini huquq normalarida ko'tardilar, unga rioya qilish davlat va u vakolat bergan sud kuchi bilan mustahkamlandi), o'qituvchilar (yosh avlodga yurish-turish qoidalarini o'rgatdilar), faylasuflar (axloq qoidalarining mazmunini tushuntirdilar) faqat aqliy mehnat bilan shug'ullandilar.

Yurish-turish qoidalarini mazmuni ham o'zgardirdi. Jamoa hayotiga yot bo'lgan jamoa yerining bir qismini bosib olish, zulm qilish, qabiladoshini qul qilish qattiq jazolanar edi. Endilikda esa bu vaziyat yangi diniy rivoyatlar va axloq normalari bilan mustahkamlana boshlandi. Din peshvolari o'g'rilik qilma, yaqin odamlariga yomonlik istama bironi mulkiga ko'z olayirma deb uqtira boshladilar. Kohinlarning o'zlari mulkdorlar, quldorlarga aylandilar va ishlab chiqarilgan mahsulotning bir qismi, urushlarda olingan o'ljalardan o'z ulushlarini talab qila boshladilar. Kohinlar jamiyatda imtiyozli yopiq tabaqaga aylandilar (Misr, Ossuriya, Bobil).

Davlat hokimiyati bilan birga, diniy hokimiyat ham paydo bo'ldi. Kohinlar davlat hokimiyati bilan hamkorlik qilib, jamiyatni ma'naviy-mafkuraviy sohasini boshqardilar. Ta'lim tizimini to'la egallab oldilar. Ba'zi hollarda bosh kohinlar oliy dunyoviy hokimiyatni ham egallab olar edilar (misol uchun, Misr va Bobilda).

Ikkinchi sivilizatsiya tongida din va axloq sohasida ma'naviy hayotning sohaları mazmun va vazifalari tubdan o'zgardi. Bu ma'naviy-madaniy taraqqiyotini keyingi ming yillarda belgilab berdi. Lekin ayrim xalqlarda diniy qarashlar va axloqiy normalar o'zgarmadi.

Bu sohada keyingi to'ntarish, yangi eraga o'tish davrida yuz berdi. Karl Yaspers uni «Os vaqti» (tayanch vaqt) deb ataydi. (60 S. 32. 37-39). Bu to'ntarishning asosiy mazmuni – dunyo dinlari (xristianlik, buddaviylik va islom dini)ning paydo bo'lishi edi.

Bu vaqtda nafaqat navbatdagi sivilizatsiyaning tushkunligi, balki birinchi supersikl sivilizatsiyalarning triadasi (uchligi) tushkunligi bo'ldi. Birinchi yorib o'tishning kuch-qudrati sezilarli tugadi. Dunyo aholisi ancha o'sdi. Ishlab chiqarishning o'sish sur'ati sekinlashdi. Kambag'al-yo'qsil xalq ommasining noroziligi kuchaydi. Ular o'z kuchini yo'qotgan har xil eski dinlarga ishonmay qo'ydilar. Ular ma'naviy madad, umid, tayanchni boshqa dindan izladilar. Zaiflashib borayotgan davlat hokimiyatini qo'llashga harakat qilgan eski dinlar endilikda ommaning ishonchini yo'qota boshladi. Hukmron tabaqa axloqiy aynishni boshdan kechirayotgan edi. Bularning hammasi yangi ideallar va ma'naviy normalarni izlashga turtki berdi.

Dunyo dinlari paydo bo'lishining boshqa sababi bu jahon dinlarining shakllanishi sharoitida mamlakatlar, hududlar o'rtasida ma'naviy integratsiyaning jadallashuvi, o'zaro ma'naviy-madaniy aloqalarning kuchayishi bo'ldi. Tarixdan ma'lumki, yangi dinlarning ilk davrida ularning muxlislari ta'qib ostiga olingan. Xristianlik islom dinlariga e'tiqod qilishga, eski e'tiqod tarafdorlari kuchli qarshilik qilganlar. Dunyo dinlarining hududlar, siyosiy va iqtisodiy kuchlarda hukmron siyosiy-mafkuraviy mavqeyini egallashi keyinroq, navbatdagi supersiklda yuz berdi. Lekin endigina tug'ilgan jahon dinlarida parokandalik hukm surib, turli oqimlar, sektalar soni ko'paydi. Jahon dinlari asoschilari tarixiy kishilar bo'lib o'tgan deb ko'rsatiladi. Sidxartxa Gautama er. avv. 566-yilda rojaning oilasida tug'ilgan, keyinchlik Budda (ilohiy nurlangan) deb atalgan. Iso payg'ambar duradgorning o'g'li. Uning tug'ilgan kunida hozir Yevropa

erasi hisobi olib boriladi. Muhammad payg'ambar 570-yilda Makkada dunyoga kelgan. U kishi oxirgi payg'ambar bo'lib, 612-yildan islom dinini targ'ib qilgan.

Qadimgi jamiyatlarda xalq og'zaki ijodi namunalari poemalar, dostonlar, ertaklar, afsona va rivoyatlar yaratildi. Noyob namunalar sifatida ajdodlarimiz qadimda yaratgan «Shiroq», «To'maris» afsonalarini, Gomerning «Iliada va Odisseya» poemalari, hindlarning «Maxobxorot» va «Ramayana» dostonlarini ko'rsatish mumkin. Xitoydagi Shi Szin (Qo'shiqlar kitobi) kitobi, mashhur diniy-falsafiy «Avesto», «Tavrot» kabi diniy kitoblarni ko'rsatish mumkin. Qadimgi Mesopotamiya o'zining boy adabiyoti bilan ajralib turadi. Bizgacha Shumer adabiyotining 150 yodgorligi yetib kelgan (er. avv. V ming yilliklar). Bular dostonlarning she'riy to'plamlari, epik ertaklar, to'y, sevgi qo'shiqlari, dafn marosimlari, podsholar, xudolarning maqto'v madhiyalari, masallar, maqollar, aforizmlar, maktab didaktik to'plamlari va Gilgamush dostoni (er. avv. XIX asr) yaratildi. Bizgacha yetib kelgan Qadimgi Misr adabiyoti yodgorliklaridan «Sinuxet» hikoyasi, «Kemada halokatga uchraganlar» ertagi, «Arfa chaluvchi qo'shig'i», «Ipuser so'zlari» va bir qator boshqa adabiyotlarni aytish mumkin.

Zamonaviy teatrning tarixi qadimdan boshlanadi. Ilk teatr qadimgi Misrda paydo bo'lgan. Teatrda diniy syujetlar asosida sahna asarlari ijro etilgan. Keyin teatr dunyoning boshqa joylariga tarqalgan, Yunoniston va Rim teatrlari mashhur bo'lgan.

Er. avv. V asrdan dramaturgiya yetakchi janrga aylandi. Afinalik Esxil (er. avv. 525-456 yillar) 90 ta drama, Sofokl (er. avv. 497-406-yillar) 123 ta drama yozdilar. Komediyaning otasi dramaturg Aristofan edi. Er. avv. 445-385-yillar u «Lisistrat», «Arilar», «Qushlar», «Tinchlik», «Ayollar xalq yig'inida» nomli hajviy asarlarni yozdi. Hindistonda eramizning IV-V asrlarida yashagan Kalidasi mashhur dramaturg va yozuvchi edi. Qadimgi Hind adabiy yodgorliklaridan biri «Panchatatra» (Besh kitob)da real va fantastik syujetlar qo'shib ketadi. Qadimgi davr hukmdorlari ulkan maqbaralarni barpo qildilar. Ulardan biri Misr piramidalaridir. Xeops piramidasi balandligi 147 metr, asosining har bir qirrasini 230 metr, 2.5 mln tosh plitalardan bunyod qilingan. Ossuriya podsholarining poytaxt Nineviya shahridagi saroyi ulkan hajmlarda bunyod qilingan edi. Arabiston yarim orolida milodiy birinchi asr boshlarida nabatey xalqi o'ziga xos yuksak madaniyatni yaratdi. Nabateylar tog'da o'yib bunyod etilgan poy-

taxt Petra shahrida noyob me'moriy inshootlar uylar, saroy, ibodatxonalar va maqbaralarni qurdilar.

Temir davrida O'rta Osiyoda hozirgi O'zbekiston, Turkmaniston hududlarida ulkan saroylar, qal'alar va mudofaa inshootlari barpo qilindi. Qadimda o'lkamizda shahar me'morchiligi yuksak rivojlandi. Afrosiyob, Bolaliktepa, Varaxsha kabi shahar-qal'alar, ularning ichidagi saroylar devorlari ajoyib devoriy relyef tasvirlar bilan bezatilgan.

Antik davrdan boshlab hashamatli jamoa inshootlari qurilgan edi. Bunday inshootlarga Iskandariyadagi muzey, mayoq, Rodosdagi ulkan haykal, Rimdagi Kolizey teatrini aytish mumkin.

Qadimgi dunyoning bizgacha yetib kelgan madaniy merosidan biri haykaltaroshlik san'ati namunalari. Jez asrida xudolar, hukmdorlarni sharaflaydigan ulkan haykallar bunyod qilindi va ular saroylar, ibodatxonalar, maydonlarda o'rnatildi. Saroy rassomlari hukmdorlar va ularning yaqinlarini portret rasmlarini yaratdilar. Ana shunday noyob san'at namunalaridan biri hozirgi kunda Berlin muzeyida saqlanayotgan malika Nefertiting haykal portretidir. Antik dunyoda, ayniqsa, qadimgi Yunonistonda ajoyib marmar haykallar yaratildi. Siyosiy arboblari, yunon xudolari, qahramonlarning bizgacha yetib kelgan yunon haykallarida inson jismining go'zalligini tasvirlashga harakat qilingan. Saroylar, ibodatxonalar, jamoat binolari freska va mozaikalar bilan bezatildi. Saroy devorlarida nodir tasviriy san'at namunalari ko'rish mumkin.

Hindistonda keyinchalik budda ibodatxonalar haykallar bilan bezalib, dunyoda mashhur bo'ldi. Amerika qit'asida qadimgi madaniyatlar o'ziga xos tarzda rivojlandi. Lokal sivilizatsiyalardan biri qadimgi olmeklarga tegishli. Ular oltin, bazalt, diorit va nefrit toshlarga ishlov berishda yuqori natijaga erishdilar. Bizgacha bir necha ulkan toshdan yasalgan bosh tasvirlari saqlanib qolgan. Olmeklar hozirgi Berakrus shahri o'rnida bo'lgan El-Faximda eramizning 600-yillari atrofida zinapoyasimon piramidani barpo qildilar. Ular o'z yozuvlarini yaratdilar. Amerika qit'asidagi yana bir sivilizatsiya Mayyalar madaniyatidir. Mayyalar o'tib bo'lmas o'rmonlar, vulqonli tog'lar, botqoqli yerlar, noqulay tabiatni bo'ysundirib, o'ziga xos buyuk madaniyat yaratdilar. Mayyalar madaniyati ulkan me'moriy inshootlari, piramidalar, sopol idishlarni qoldirdi. Mayyalar sivilizatsiyasining klassik davrida Tikal shahri bunyod qilingan. U 16 km 2 maydonda joylashgan bo'lib, bu yerda ibodatxonalar, rasadxonalar, tantanali marosimlar o'tkaziladigan inshootlar, uy-joylardan iborat jami

3 ming inshoot joylashgan edi. Lekin yevropalik mustamlakachilar Amerikaning qadimgi madaniyatlarini yo‘q qildilar.

Qadimgi jamiyatlar san‘ati mazmunining dinamikasida qanday an‘analar mavjud edi? Olimlar san‘at taraqqiyotini ilmiy tahlil qilgan holda, uning mohiyat-mazmunini ochib berishga harakat qildilar. Madaniyatshunos va jamiyatshunos olim P.Sorokin nafis san‘atning to‘rt ko‘rinishini kuzatdi: Ideatsial san‘at – odatdagi hissiyotga emas, oliy hissiy-ilohiy dunyoda yaralgan bo‘ladi. Uning maqsadi dindorni xudoga yaqinlashtirish. Stil ramziy, chunki oliy hissiy hodisalar real amaliy shakllarga ega emas, hissiy san‘at real dunyoga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Voqea insonning borlig‘i manzarasini ifodalaydi. Uning uslubi natural bo‘ladi. Idealistik san‘at ideatsial va hissiyotning oliyjanob sintezining natijalaridir. U borliqdan oliylikni izlaydi. Eklektik san‘at yanada yuqori uslubga emas va u turli shakllarning mexanik aralashmasidan tashkil topadi. (48 s. 436-437).

Paleolit davrida hissiy madaniyat yetakchi edi. Hayvonlar, ov manzaralari qoyatoshlarda tasvirlangan. Neolit odami asosan ideatsial madaniyatning rassomi edi. Uning ijodiyotida hissiy madaniyatning belgilari deyarli yo‘q edi.

Tayanch iboralar: Ma‘naviy hayot, seysmologiya, Suqrot, Aflotun, Demokrit, Epikur, Pifagor, Evklid, Arximed, Gippokrat, Aristofan, traktat, primatika, Guptalar davri, eklektik san‘at, Avesto, Bibliya, relyef tasvirlar, fantastik syujetlar, ideatsial.

Takrorlash uchun savollar:

1. *Fanlarning shakllanishidagi uch bosqichni tasniflang?*
2. *Qadimgi Sharqda fanning rivojlanishini asosiy bosqichlarini ko‘rsating?*
3. *Sharq mamlakatlarida yozuvning evolyutsiyasini ko‘rsating?*
4. *Qadimgi jamiyatlarda madaniyat va san‘at sohasidagi yutuqlar nimadan iborat?*
5. *Nima uchun ta‘lim alohida mustaqil soha bo‘lib ajralib chiqdi va bu insoniyat progressi uchun qanday ahamiyatga ega bo‘ldi?*
6. *Din nima uchun paydo bo‘ldi va u axloqning rivojiga qanday ta‘sir ko‘rsatdi?*

7. Islom dinining shakllanish va rivojlanishini asosiy bosqichlarini ko'rsating?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Birinchi ilmiy inqilob va uning unsurlari.
2. Qadimgi Sharqda ilmiy bilimlar genezisi.
3. Jez davri O'rta Osiyo madaniyati.
4. Antik madaniyatning mohiyati.

III BOB.

FEODAL KAPITALISTIK SIVILIZATSIYALAR

1-MAVZU: FEODAL KAPITALISTIK SIVILIZATSIYALARNI DAVRLASHTIRISH

1. Feodal kapitalistik sivilizatsiyalarni davrlashtirish. 2. Kapitalizm davrining manufaktura davri. 3. O'rta asrlar sivilizatsiyasi. 4. Sharqdagi yirik davlat va imperiyalar. 5. Industriya arafasi jamiyati. 6. Industrial sivilizatsiyaning gullab yashnashi va so'nishi.

O'rta asrlar turli mamlakatlar uchun turli asrlarda kirdi. O'rta asrlar madaniyati ham turli mamlakatlar uchun turli ko'rinishda bo'ldi. O'rta asrlar renessansi turmush tarzi va dunyoqarashda o'zgarishlar davri edi. 30 yillik urush bu birinchi Umumyevropa urushi, siyosiy xaritalarni paydo bo'lishi, yangi tartiblarni tubdan o'zgartirdi. Muqaddas Rim imperiyasi o'z ahamiyatini yo'qotdi. Hududlar, qit'alar, mamlakatlar tubdan o'zgardi. Bu 17-asr edi. Shimoliy Amerika, Angliya burjua inqilobi, kontyali monarxiya keldi. O'rta asrlar o'z qarama qarshiliklarga ega bo'lgan diniy mafkuraning hukmronligi va tantanasi davri ham edi. Me'morchilik san'atidagi portlashlar: roman, buokko, gotika, diniy mutassiblik va renessans o'rta asrlar madaniyatining tubida dunyoqarashda tub o'zgarishlar, barqarorlik davri edi. Qadriyatlarining to'liq kamligi gumanizm g'oyalari tarqaldi.

1. Feodal kapitalistik sivilizatsiyalarni davrlashtirish. Milodiy V asrdan Yevropa tarixida yangi davr boshlandi. Eski qadimgi jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tartib qoidalari yuvilib ketdi. Sharq dunyosi, Afrika, Amerika bu davrda ibtidoiy jamoa tartiblari hamda o'ziga xos siyosiy tizim va tuzumda yashashni davom ettirdi. Sivilizatsiyalar ikkinchi triadasining xronologik doirasi o'tish davrini qo'shgan holda eramizning 476-yilidan (so'nggi Rim imperatori taxtdan tushirilgan yil G'arbiy Rim imperiyasining tugashini bildirardi) 1973-yilgacha (Jahon tushkunligining boshlanishi va shundan keyin postindustrial sivilizatsiya-ga o'tish boshlandi) bo'lgan 1,5 ming yilni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi tarixiy supersiklda biz to'rt bosqichni ajratamiz:

1. O'tish davri (eramizning 476-yilidan VIII asr oxirigacha);
2. O'rta asrlar sivilizatsiyasi (IX -XVI asrlar);
3. Industriya arafasi (XVI asr o'rtalaridan XVIII asrgacha);
4. Industrial (yetuk kapitalizm) (XVIII asr so'nggi choragidan (sanoat inqilobi boshlanishidan) XX asrning so'nggi choragigacha);

Nima uchun sivilizatsiyalarning ikkinchi triadasi feodal kapitalistik sivilizatsiyalar nomi ostida birlashtiriladi? Chunki ularni kapitalizmning shart-sharoitlarini yetilishi, shakllanishi va yetukligi, aniqrog'i industrial jamiyatning bosqichlari deb qarash mumkin. Lekin bu insoniyat tarixidagi uzoq davrni umumqabul qilingan davrlashtirishdan farq qiladigan boshlang'ich nazariy tushunchadir. Buni hali asoslash kerak.

Feodalizm va kapitalizm tarixini davrlashtirishning munozarali masalalari. Feodalizmning quldorlik tuzumi orqasidan boradigan feodalizmni kapitalizmdan oldiga o'tadigan umumjahon tarixiy taraqqiyot bosqichi sifatida bo'lish qabul qilingan. U uch bosqichga bo'linadi (hisob Yevropa tarixi bo'yicha olib borilmoqda): V asrdan X-XI asrgacha genezis (shakllanish); rivojlangan feodalizm (XI-XV asrlar); so'nggi feodalizm (birinchi burjua inqiloblari, dastlabki kapital jamg'arish davri bilan qo'shilgan holda XV-XVIII asrlar).

XVIII asr oxiridan kapitalistik formatsiya hisobi olib boriladi, lekin uning shakllanishini ikki yuz yil orqaga surish mumkin. Uning shart-sharoitlari uyg'onish davridan yaratilgan edi. «Kapitalizmning paydo bo'lishiga qadar uning ko'p belgilari oldindan darak berilgan edi. Shaharlar va ayirboshlashning o'sishi, mehnat bozorining paydo bo'lishi, jamiyatning jipslashuvi, pulning tarqalishi, ishlab chiqarishning o'sishi, uzoq masofalarga savdo, agar aytish lozim bo'lsa, «xalqaro bozor» degan nuqtayi nazarni bildirgan edi F.Brodel. (9. T.3. 640-641). Bu yerda kapitalizmning belgilari favqulodda keng tushuntiriladi. F.Brodelga bu kapitalizm darakchisi eramizning I asrlarigacha bo'lgan asosni berdi.

Fransuz tarixchisi Jan Goff «Uzoq o'rta asrlar» konsepsiyasini ilgari surdi. Qarangki, u II-III asrdan (so'nggi antik davrdan) boshlandi va XVIII asrgacha davom etdi. Fransuz inqilobi, XIX asrdagi sanoat to'ntarilishi va XX asrning buyuk o'zgarishlari oldida asta-sekin o'z umrini tugatdi.

Biz o'rta asrlarning so'nggi moddiy va intellektual qoldiqlari orasida yashamoqdamiz. (19.C.5-6). De Goffning o'zi ham Yevropada o'rta asr-

lar sivilizatsiyasini X-XIII asrlar davri deb tushunadi. XIV-XV asrlarni esa uning tushkunlik fazasiga taqaydi. (o'sha joyda 375 b.).

«Yevropa tarixi» asarining mualliflari jamoasi bu davrni quyidagicha davrlashtirishni taklif qiladilar: Yevropaning barcha hududlarini feodal ishlab chiqarish usuliga tegishligi bilan birlashgan o'rta asrlar (IV asrdan XV asr oxirigacha). Ming yildan ko'proq davrni qamrab olgan, lekin Yevropaning ko'pgina hududlarida feodalizm faqat endigina o'rnatilgan, bir yarim ming yillik o'tish davrini unga tegishli qilish asosli bo'ladimi?

So'nggi o'rta asrlar bir yarim asr atrofida (XV asr oxiridan XVII asr o'rtalarigacha)gi davrni o'z ichiga oladi. Kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari va dastlabki kapital jamg'arish paydo bo'ldi. Yosh burjuaziya kuch to'play boshladi. Davlatni markazlashtirish kuchaydi. Ilk burjua inqiloblari yuz berdi. Uyg'onish davrida dunyoviy madaniyatning buyuk parvozigacha erishildi. Reformatsiya ma'naviy hayotda ulkan ta'sir o'tkazdi. Amerikadan oltin va kumushning oqib kelishi kapitalizmga o'tishni jaddallashtirdi. Oddiy kooperatsiyadan manufaktura o'tish kengaydi.

2. Kapitalizm davrining manufaktura davri. So'nggi o'rta asrlar bir yarim asr atrofida (XVII asr o'rtalaridan XVIII asr so'nggi o'n yilligigacha) qit'aning boshqa hududlarida feodal qoldiqlari saqlanib qolgan holda Gollandiya va Angliyada burjuaziya tizimining o'rnatilish davri, burjua mamlakatlarining birinchi qarama-qarshi turishi va o'zaro hamkorligi davri. Angliya burjua inqilobi Yevropada feodalizmning kapitalizm bilan almashuv davrini boshlab berdi. Ilg'or mamlakatlarda kapitalistik manufaktura sex hunarmandchiligi ustidan g'alaba qildi va mashina ishlab chiqarishi uchun shart-sharoit yaratdi. Kapitalizm va feodalizm o'rtasidagi musobaqa nafaqat Yevropa balki, Shimoliy Amerika, Osiyo, Afrikaning bepoyon hududlarini qamrab oldi.

Sobiq tarix fanida fransuz inqilobidan Parij Kommunasigacha (XIX asrning 80-yillar arafasida) Yevropada kapitalistik iqtisodiyotning qaror topishi, manufaktura ishlab chiqarilishidan sanoat kapitalizmiga o'tish, proletariat kurashining kuchayishi, burjua millatlarining shakllanishi yuz berdi deb ko'rsatildi.

Sovet tarixshunosligida keyingi davr 1870-yildagi Parij Kommunasidan 1917-yil Oktyabr voqealarigacha (yarim asrga yaqin) erkin kapitalizmdan imperializmga o'sib o'tish va kapitalizmning umumiy tushkunligining boshlanishi, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi va iqtisodiy

tushkunliklar, burjua madaniyatining tushkunligi va fanlarning yutuqlari vaqti hisoblanadi deb belgilandi.

Rossiyadagi Oktyabr voqealaridan II jahon urushining tugallanishigacha (1917-1945-yillar, 30 yildan kamroq) SSSRda sotsializmning g'alabasi bilan boshlangan 20-30-yillar oralig'idagi chuqur jahon tushkunligi va o'chog'i bo'lgan Yevropa qonli II jahon urushiga olib kelgan fashizmning tug'ilishi bilan boshlangan qisqa davr ajratiladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin ilmiy texnika inqilobi (ITI) ishlab chiqaruvchi kuchlarning kuchli rivojlanishiga olib keldi va shu bilan bir vaqtda insoniyatni yadro urushi xavfi ostiga qo'ydi. Sotsialistik mamlatlar hamdo'stligi shakllandi. Mustamlakachilik tizimi jadal yemirildi. Yevropada integratsiya jarayoni kuchaydi. Ikki jahon tizimida qaramaqarshilik kuchaydi. Davr oxirida keskinlikning yumshash belgilari paydo bo'ldi.

I.M.Dyakonov taklif qilgan davrlashtirish ishonchliroq ko'rinadi. Qaysiki, u uch fazani ajratadi: o'rta asrlar (ming yil atrofida; Xitoyda eramizning I asridan; Yevropada eramizning III–V asrlaridan, Yaponiyada eramizning IX asridan); barqaror absolyut o'rta asrlar yoki «absolyut kapitalizm arafasi» (Yevropada XVI asrdan XIX asrgacha 30-yil atrofida); kapitalistik faza (XX asrning 50-yillarigacha).

Jahon sivilizatsiyalarining almashuviga siklik-genetik yondashuvdan kelib chiqqan holda, o'tish davrida ikkinchi supersikl tarixini quyidagicha davrlashtirish taklif qilinadi: o'rta asrlar, industriya arafasi, industrial sivilizatsiya.

O'tish davri: feodalizm genezisi:

Ilk feodalizmga o'tish modeli O'rta Osiyo, Eron, Hindiston va Xitoyda kuzatildi. Bu yerda quldorlik munosabatlarining klassik ko'rinishi shakllanmadi. Feodal munosabatlarning paydo bo'lishi asta-sekin turli shakllarda amalga oshdi. Bizning fikrimizcha, O'rta Osiyoda feodalizmga o'tish er. avv. I asrda boshlanib, eramizning II asrida tugallangan. Bu paytda Parfiya, Kushon, Xorazm, So'g'd, Farg'ona, Dovon davlatlarida yirik feodal yer egaligi shakllana boshlaydi. Bu hududlarda yirik feodalning mustahkamlangan qasr-qo'rg'onlari shakllanib, ularga qaram dehqonlar paydo bo'ladi. Ammo erkin jamoachilarning yer egaligi bu hududlarda azaldan saqlanib qolgan.

Ilk feodal sivilizatsiyasining genezisi musulmon modeli VII asrda islom dinining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Bu Yaqin Sharq va Shimoliy

Afrikaning qator xalqlari tomonidan qabul qilinib, keng tarqaldi. VII asrda arablar Yaqin Sharq, Eron, Misr, O'rta Osiyoni egalladilar. VIII asr boshlarida Janubiy Italiya, Sitsiliya, Korsika, Sardiniyani bosib oldilar. Arab istilolari natijasida ulkan musulmon davlati xalifalik vujudga keldi.

Bu davlat sharq va g'arb madaniyatini sintezi, shaharlarning saqlanib qolishi va yangidan rivojlanishi, savdo-hunarmandchilikning taraqqiyoti, feodal yer munosabatlarining o'ziga xos ravishda shakllanishiga yordam berdi.

I.M.Dyakonovning fikricha, Xitoyda o'rta asrlarga o'tish II asrda, kichik Xan sulolasi davrida tugallandi. Eng boy yer egalari barcha dehqon xo'jaliklarini o'z homiyliklari ostiga olib, ulardan natural to'lovlarni undirib, ular uchun davlat solig'i to'lovini amalga oshirdilar. Dehqonlar shaxsiy qaram bo'lib qoldilar va yerga birlashtirilib, feodal sudiga buysunishga majbur edilar.

Ilk feodalizmning birinchi bosqichi uch podsholik davrida (220-280-yillar) mamlakat hududida uch davlat (Vey – shimolda, Shmarkaziy qismda va U – janubda) shakllandi. Er. avv. IV asrdan so'ng o'rta asr Xitoy sivilizatsiyasi shakllandi deb aytish mumkin.

Shu vaqtdan Xitoy lokal sivilizatsiyasining gullab – yashnash davri boshlanadi. Bu davrda antik jarayonlar jadallashdi. Markaziy Osiyo hududlaridan kelgan syunnu, sanbi, sian, szye, di qabilalari markaziy tekislikda tub joy Xitoy aholisi bilan aralashib ketdilar. Bu vaqtga kelib Xitoyning ikki asosiy shevasi shakllandi. Savdo va pul muomalasi jadal rivojlandi. XIII asrda bank cheklari kiritildi. IX asrda kitob bosish kashf qilindi.

Hindistonda o'rta asrga o'tish V-VIII asrlarni qamrab olgan. Qul mehnati ulushi kamaydi va bir qism qullar erkinlikka chiqdilar, lekin qaram bo'lib qoldilar. Ilgari erkin jamoachi dehqonlar endilikda feodalga qaram dehqonga aylandilar. Bir qism yerlar amaldorlarga davlat uchun ko'rsatgan xizmatlari uchun mukofot tarzida foydalanishga yoki meros qilib berildi. Jamiyatning feodallashuvida yirik yer-mulklarga va bu yerlarga birlashtirilgan dehqonlarga ega bo'lgan monastirlar muhim o'rin tutdilar. Hindistonning o'ziga xosligi shundaki, o'rta asrlarda toifaviy kasta tizimi ayrim o'zgarishlar bilan saqlanib qoldi.

Vizantiya yo'li o'tmish sivilizatsiyaning barcha asosiy unsurlarini (savdo va hunarmandchilik yetakchi bo'lgan katta shaharlar) saqlab qolishga erishdi. Vizantiya jamoa yer egaligi bilan quldorlik rivojlangan

madaniyat, rivojlangan Rim huquqi bilan kuchli davlat hokimiyatini saqlab qoldi. Ammo asta-sekin ular feodal jamiyati unsurlari bilan to'ldirila boshlandi. Feodal yer egaligi, qaram dehqonlar paydo bo'ldi. Shaharlar-da hunarmand savdogarlar, kema egalari, dengizchilarning uyushmalari shakllandi. Feodalizmga o'tish Vizantiyada XI asrda tugallandi.

Italiya modeli. Feodalizm genezisining Italiya modeli Vizantiyaga qaraganda vayronkor, lekin qisqaroq edi. Zaiflashgan Rim german qabilalari bosqinlari uchun asosiy nishon bo'ldi. Varvar qabilalari to'liqini butun Italiyani qamrab oldi va mahalliy aholi bilan aralashib, bir qism mavjud madaniyat va iqtisodiyotni o'zlashtirib oldi.

Varvarlarning yuqori qatlamlari yirik yer egalarga aylandilar. Jangchilar esa mayda yer egalari bo'ldilar va asta sekin o'z erkinliklarini yo'qotdilar. Shaharlar, savdo hunar IX asrgacha tushkunlikni boshdan kechirdi. Feodalizm IX asrda qaror topdi, lekin yagona davlat qaror topmadi. 781-yil Italiyada Buyuk Karl imperiyasi alohida qirollik mavqeini oldi. 843-yil mustaqil davlatga aylandi. Janubiy Italiya Vizantiya tarkibida qoldi. Sitsiliyada Normand qirolligi tashkil topdi.

Feodalizmning fransuz yo'li Rim hukmronligi ostida bo'lgan ba'zi mamlakatlarga xos edi. Lekin jamoa urug'chilik tizimi asoslarini saqlab qolgan, shu bilan birga, temir asrining ba'zi texnik yutuqlarini va antik merosning bir qismini o'zlashtirgan holda, u eng tezkor bo'ldi. Qabila oqsoqollari – feodal («feod» – yer, «dal» - ega)ga, erkin jamoachilar va yer olgan jangchilar qaram dehqonlarga aylandilar. Kuchli Frank davlati vujudga keldi. VIII-IX asrlarda yirik feodal mulki ustuvor edi. Feodal mulkida yerga ishlov beruvchi qaram kolonlar yoki shaxsiy qaram bo'lgan (servlar) dehqonlar mehnat qilar edilar.

Skandinaviya – rus yo'li qulchilik, shaharlarni bilmagan, birdaniga ibtidoiy jamoa tuzumidan feodalizm genezisiga o'tgan xalqlarda kuzatiladi. Qabila boshliqlari, harbiy boshliqlar (knyazlar, konunglar) va ularning yaqin safdoshlari bo'lgan feodal yer egalarga sobiq erkin jamoachilar qaram dehqonlarga aylandilar. Bu progressning sur'atlarini ancha jadal-lashtirish, Yevropaning ko'pgina xalqlarini kuchli agressiv davlatlarni yaratish, feodalizmning genezisini tugallashga olib keldi. Sharqiy Boltiq bo'yi xalqlari, skandinaviya, rus, german va shotland qabilalari shu yo'ldan bordilar.

Uchlik (Triada) sivilizatsiyalarning shakllanish davrida tarixiy progressning qonuniyatlaridan biri aholining harakatlanishi keskin ko'chishida

va davrlar oralig'ida xalqning qochishida ifodalanadi. Aholi sonining o'sishi, ilgari o'zlashtirilgan hududlarda tabiiy oziq-ovqat resurslarining tugashi yuz minglab, millionlab odamlarni minglab kilometrarga yaxshi yerlarni izlab, xavfli ko'chish, sayohat qilishga majbur qildi. Yangi yerlarni o'zlashtirish insoniyat tarixining ilk davrlaridan boshlangan edi. Keyinchalik er. avv. X asrda finikiyaliklar, er. avv. VIII-VI asrlarda yunon kolonizatsiyalari tarixdan ma'lum. Lekin xalqlarning buyuk ko'chishi antik davrdan o'rta asrlarga o'tish oralig'ida yuz berdi. Zaiflashayotgan Rim imperiyasi hududiga sharqdan va shimoldan temir asriga kirib kelayotgan gotlar, vandallar, varyaglar, daniyaliklar; sharqdan xunlar, avarlar, vebgerlar, bolgarlar siljib, ko'chib borib joylashdilar (xalqlarni buyuk ko'chishi xaritasi). Ko'chib borayotganlar yo'lda boy shaharlarni talab, qirdilar. Madaniyat yodgorliklarni yo'q qildilar. Ular bosib olingan hududlarda o'rtnashib qoldilar. O'zlari egallagan hududlarda uning iqtisodiy va madaniyatini o'zlashtirib oldilar hamda o'z davlatlarini tuzdilar. Xunlar Markaziy Yevropada o'zlarining ulkan davlatlarini tuzdilar. Bu davlat hukmdori Atillaning xavfidan zaiflashgan Rim imperiyasi dahshatga tushdi. Faqat Atillaning o'limi imperiyani halokatdan saqlab qoldi.

Antik davrning yuqori taraqqiyotiga nisbatan bu regress (tushkunlik) davri edi. Minglab shahar-qishloqlar, me'morchilik inshootlari vayron qilindi. Savdo, hunarmandchilik, xo'jalik hayoti inqirozga yuz tutdi. Ammo bu lahzada umuman insoniyat tarixi nuqtayi nazaridan progress edi. Eski ijtimoiy-iqtisodiy tuzulmani yo'q qilib, uning o'rniga yangisi uchun shart-sharoit yuzaga keltirildi. Bir qadam orqaga tashlanib, uch qadam oldinga tashlash uchun o'rta asrlar industriya arafasi va industrial sivilizatsiyalar tomon qadam tashlandi.

Shunday qilib, feodal kapitalistik sivilizatsiyalar uchligida o'tish davri shakllarining har xilligi, qamrab olish kengligi, harakatning yo'nalishlarini ko'pligi bilan hamda turli lokal sivilizatsiyalarning rivojlanish darajalarini bir necha asrlar, hatto, ming yilliklar oralig'i bilan taxminan bir vaqtning o'zida navbatdagi bosqich–yer sharining aholi yashagan bepoyon qismini qamrab olgan o'rta asrlar sivilizatsiyasiga o'tdilar.

3. O'rta asrlar sivilizatsiyasi. IX asrda Arab xalifaligi zaiflashdi, O'rta Osiyo islom dinini qabul qilgan bo'lsada, milliy ozodlik harakati yanada kuchaydi. Mustaqil davlatlar – Somoniylar sulolasi O'rta Osiyoda, Toxiriylar, keyinchalik Safforiylar Eronda paydo bo'ldi. IX-XII asrlarda O'rta Osiyo sivilizatsiyasi o'zining rivojlanishining yuqori cho'qqisiga

chiqdi. Ishlab chiqarish kuchlarining o‘shishi bilan yangi sug‘orish inshootlari qurildi, yangi konlar ochildi. Shaharsozlik yanada taraqqiy qildi. Bu davrda o‘lkamizdagi savdo-hunarmandchilik markazlaridan Buxoro, Marv, Samarqand, Toshkent va Urganch kabi shaharlarni aytish mumkin. Bu davrda arab mualliflarining aytishicha, Turkiston o‘lkasining turli mamlakatlar bilan savdo aloqalari kuchayadi. Diniy mafkura siyosiy va ma’naviy hayotni to‘la qamrab oldi. Oliy ta’lim beradigan ilk o‘quv yurti – madrasa X asrda Buxoroda ochilgan. Bu shaharda XII asrda esa musulmon huquqshunosligi bo‘yicha yana bir madrasa paydo bo‘ldi.

IX asrdan boshlab Yevropada ham rivojlanish boshlandi. XIII asrda Yevropada o‘rta asr sivilizatsiyasi gullab yashnadi. Shaharlarning yetakchilik roli kuchaydi. Bu shaharlarda sex tashkiloti, savdogarlar toifasi salmoqli o‘rin egallar edi. Shaharlarda kelajakdagi jahon bozorining shartsharoitlari yaratildi. Qishloqda natural xo‘jalik ustuvor bo‘lib, jamoa tuzumining ko‘pgina unsurlari bilan feodal pog‘onasi hukmronlik qilar edi. Dehqonlarning shaxsiy qaramligi mustahkamlandi. Cherkov siyosiy va ma’naviy sohalarda iqtisodiyotni sezilarli qismida o‘z hukmronligini o‘tkazdi. San’at din homiyligida rivojlandi. Universitetlar ochildi. XIV asr o‘rtalaridan ilk feodal sivilizatsiyaning chuqur tushkunligi, navbatdagi sivilizatsiyaga o‘tish davri boshlandi.

O‘rta asr sivilizatsiyasining qaysi o‘ziga xos belgilari insoniyatning tarixiy, moddiy, iqtisodiy va ma’naviy merosiga uning asosiy hissasi bo‘ldi?

Bu davr dunyo dinlari – islom, xristianlik, buddaviylikning jamiyat ma’naviy-madaniy hayotida hukmronlik davri edi. Dastlab budda va islom dinlari, keyinchalik xristian dini jamiyatlarda o‘z hukmronligini o‘rnatdi. Jamiyatda birinchi bor mafkura diniy shaklda ustuvor omil bo‘ldi. Diniy mafkura feodal tarqoqlik davrida barqarorlik, birlashtiruvchi omil sifatida chiqdi. Lekin Sharq va G‘arbda diniy hurfikrlikka toqatsizlik aqidaparastlik va turg‘unlikka olib keldi. «G‘ayridinlar»ga qarshi ko‘plab urushlar cherkov tashabbusi bilan uyushtirildi. Misol uchun, 8 ta salib yurishlari (1096-1099-yillardan 1270- yilgacha) sharqda shaharlarning vayron bo‘lishi, iqtisodiy-moddiy yo‘qotishlarga, minglab odamlarning qurbon bo‘lishiga olib keldi.

O‘rta asr sivilizatsiyasini ajratib turadigan ikkinchi belgi: Dehqon va shahar hunarmandlarining quldorlik tizimining og‘ir noiqtisodiy, majburiy mehnatiga nisbatan shaxsiy erkinligi va iqtisodiy manfaatdorligi edi.

Yerga ko'p bo'g'inli pog'onaviy mulkchilik va yerga u yoki bu shaklda dehqonlarni birlashtirib qo'yish qishloqdagi iqtisodiy munosabatlarning ustuvor ko'rinishi bo'ldi. Syuzeren (xo'jayin)ning zaif cheklangan huquqlari, ko'p sonli feodal va cherkov soliqlari, majburiyatlari shundan edi.

Qishloqdagi bunday munosabatlarga o'xshash shaharlarda hunarmandlar, sex uyushmalari va savdogarlar birlashmalari qattiq qoidalar bilan cheklangan edi. Ko'pgina shaharlar «hurfiylik» va «shakkoklik» o'choqlari, savdo-hunarlar, me'morchilikning o'sishi, fanning qayta uyg'onishi va ta'limda navbatdagi inqilob markazlari edi (Universitet inqilobi)

Sharqda shaharlar azaldan savdo – hunarmandchilik markazlari edi. IX-XII asrlarda Bog'dod, Buxoro, Marv, Samarqand, Toshkent, Urganch, Ray, Nishopur kabi shaharlar ichki va tashqi savdo bilan faol shug'ullunar edi. Shu bilan birga, ular ma'muriy boshqaruv markazlari, feodal hokimning qarorgohi edi. Sharqdagi shaharlar to'la feodal hukmdor qo'l ostida bo'lib, na boshqaruvda va na iqtisodiy sohada biror-bir huquqiy-ijtimoiy o'ziga ega emas edilar. Aksincha, feodal hokimlarning siyosiy kurashi, urushlarda eng katta yo'qotish – vayronalikka duchor bo'lar edilar.

«O'rta asr shahari sex hunarmandchiligi – degan edi M.I.Tugan Baranovskiy, G'arb butun jahon sivilizatsiyasi o'sgan joy edi, insoniyatni misli ko'rilmagan cho'qqilarga ko'targan yuqori madaniy darajadagi o'ziga xos ijtimoiy ukladdir. Shahar G'arb ijtimoiy hayotiga kelajakda eng birinchi o'rinni egallashga muvaffaq bo'lgan yangi ijtimoiy sinf – burjuaziyani yaratdi. Shaharlarni ko'payishining eng cho'qqisi XIII asrning II yarmiga to'g'ri keladi».

O'rta asrlarda eng katta yutuqlarga Shimoliy Italiyaning shaharlari Venetsiya, Genuya va Florensiya erishdi. Bu shaharlarda respublika tuzumi o'rnatilgan edi. Venetsiya va Genuya dengizlarda hukmronlik uchun o'zaro kurashdi. O'rtayer dengizi va Qora dengiz qirg'oqlarida bir necha koloniyalarni barpo qildilar. Venetsiyaga boyliklarning olib kelinishi hozirgi kunda noyob madaniyat namunalari bo'lgan saroylar va boshqa jamoatchilik binolarining bunyod qilinishiga sabab bo'ldi. Dengizga chiqish yo'li bo'lmagan Florensiya jun mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashdi. Bu yerda jahonda birinchi jun manufakturalari paydo bo'ldi. Birinchi sanoat burjuaziyasi va yollanma ishchilar kelgusi ikki sivilizatsiyaning asosiy sinflari ham shu yerda shakllandi.

Savdoning kengayishi, bozor iqtisodiyotiga o'tish, navbatdagi demografik o'sish nafaqat hunarlarning rivojlanishi, ishlab chiqarish sex tashkilotining yutuqlari bilan shartlanib qolmay, balki dehqonchilik texnikasi, ot plugi takomillashuvi, uch dalali almashlab ekishning progressi natijasi edi.

Siyosiy soha bu davr feodal monarxiyalar (qirolliklar)ning kurashi, ko'p sonli va «ko'p qatlamli» vassallarining o'zboshimcha hokimiyati, ko'plab qonli urushlar, to'qnashuvlarni keltirib chiqargan feodal tarqoqligi bilan ajralib turadi.

Sharqdagi yirik davlat va imperiyalar. Arab istilolari natijasida vujudga kelgan Arab xalifaligi VII asrdan XIII asr o'rtalarigacha yashadi. O'rta Osiyo va Yaqin Sharqda mustaqil Somoniylar davlati (X asr), G'aznaviylar davlati (XI asr), Saljuqiylar (XII asr) va Xorazmshohlar davlati (XII-XIII asr boshlari) mavjud edi. Somoniylar davlati X asrda O'rta va Yaqin Sharqdagi eng qudratli davlat edi. Somoniylar davridan O'rta Osiyo madaniyatining ilk Renessansi boshlandi. Somoniylar davlatida markazlashgan davlat boshqaruvi shakllandi.

Sharqdagi ulkan imperiyalardan biriga mo'g'ul Temuchin (Chingizxon) asos soldi (XIII-XIV asrlar). Mo'g'ulistonda ilk feodal davlatni tuzgan Chingizxon Xitoy, O'rta Osiyo, Kavkazortini egalladi. Uning nevarasi Botuxon (1227-1255-yillar) rus yerlarini bosib olib, Polsha va Vengriyaga yurishlar qildi va Adriatika dengiziga chiqdi.

Chingizxonning boshqa bir nevarasi Xulagu Eron, Iroq, Gruziyani bosib oldi va Arab xalifaligini tugatdi. U xalifalik poytaxti Bag'dodga yurish qilib, so'nggi Abbosiy xalifa Muntasimni o'ldirdi (1258-yil). Botuxon Irtish daryosidan Qrimgacha, Dnepr va Dunay daryolarigacha cho'zilgan Oltin O'rda davlatiga asos soldi (1242-yil). Rus yerlari unga qaram bo'lib, 1476-yilgacha xiroj to'ladi.

Xitoy VI-VIII asrlarda siyosiy birlashdi. Markaziy boshqaruv kuchaydi. Tan sulolasi davrida boshqaruvning klassik shakli yuzaga keldi. XI asrda mamlakatni uch sulola Sun, Lyao va Sya hukmronlik qildi. XV asr boshlarida tungus qabilalaridan biri jujanlar Manjuriyani o'zlariga markaz qilib, 17-asrda Xitoyda zaiflashib qolgan Min sulolasini tugatib, Sin imperiyasiga asos soldilar (1636-1911yillar). Sulola Xitoyning shimolini to'la egalladi. Iqtisodiyotning asosi agrar soha bo'lib, yer egaligida davlat yirik, o'rta va mayda dehqon xo'jaligi, yer egaligi shakllandi. Shaharlar ko'paydi. VIII asrda besh ming aholisi bo'lgan 25 shahar bo'lsa, X-

XII asrlarda shahar aholisi aholining umumiy sonini 10%ini tashkil etdi. Aholining 40%i hunar-savdo, 60%i esa dehqonchilik bilan shug'ullanar edi. Xitoyda bu davrda aholi budda, daosizm va konfutsiylikka e'tiqod qildi. Budda va daosizm monaxlari XI asrda 100 ming kishini tashkil etgan. Mo'g'ullar Xitoyni 1211-yildan 1279-yilgacha to'la bosib oldilar va Yuan sulolasiga asos soldilar. Min sulolasi (1368-1611 yillar) davrida Xitoy iqtisodiy, siyosiy hayotida ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Tashqi siyosatda Xitoy mo'g'ullar bosqini va Amir Temur davlati tazyiqiga qarshi turishga urindi. Faqat Amir Temurning vafoti bu yurishdan Xitoyni saqlab qoldi. Xitoy 1488-yil Mo'g'uliston bilan shartnoma tuzdi. Vetnamga bostirib kirdi va Birmaning qator hududlarini bosib oldi.

Xitoyliklar geografik kashfiyotlarni Yevropadan ancha oldin boshladilar. Janubi-sharqiy Osiyo, Hindiston va Afrikaga 1405-1433-yillarda 28 ta dengiz ekspeditsiyalari uyushtirildi. O'zi musulmon bo'lgan Chjan Xe (1371-1434-yillar) mohir dengizchi bo'lib, bu sayohatlarni 48 dan 62 tagacha bo'lgan katta kemalarda uyushtirdi. XVI asrdan boshlab Xitoyga yevropaliklar kirib kela boshladilar. Birinchi bo'lib portugallar kirib keldi va Makka orolini egalladilar. XVII asr oxirida inglizlar birinchi savdo faktoriyalariga asos soldilar. Gollandlar va inglizlar Manjuriyaga Xitoyni bosib olishiga yordam ko'rsatdilar.

O'rta asrlarda dunyodagi eng qudratli imperiyalardan biriga Amir Temur asos soldi. Temur O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Shimoliy Kavkaz, Volganing quyi oqimi, Iroq, Ozarbayjon, Misr, Kichik Osiyo, Hindistonni o'z tarkibiga olgan ulkan imperiyaga asos soldi. Amir Temur asos solgan davlat dunyo tarixida salmoqli iz qoldirdi. Temuriylar davlati shakllangan davlat boshqaruvida qonun ustuvorligi va an'analarga katta ahamiyat berildi. Ulkan imperiya hududida ijtimoy-iqtisodiy rivojlanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Fan, madaniyat va san'at gullab yashnadi. Temuriylar davri Sharq Renessansining so'nggi davri edi. Ammo buyuk Temur tuzgan imperiya bir asrdan ko'proq yashadi. Boburiylar davrida Hindiston tarixida yorqin bir davr bo'ldi. Bu davrda markaziy hokimiyat kuchaydi.

Temuriylar sulolasining vakili Bobur esa Hindistonda Boburiylar davlatiga asos soldi (1526-yil). Bu davlat uch yuz yildan ko'proq yashadi (1526-1858-yillar). Uning vakillaridan biri mashhur Akbars-hoh (1556-1605-yillar) qator tub iqtisodiy-madaniy va siyosiy islohotlar o'tkazdi. Boburiylar davrida Hindiston iqtisodiy-madaniy jihatdan gullab yashnadi.

XIV asrdan Usmoniylar imperiyasi shakllandi. Usmoniy turklar dastlab Kichik Osiyo, 1386-yil Bolgariya, 1389-yil Serbiya, 1453-yil Vizantiya imperiyasini bosib oldilar. XVI asr boshlarida sulton Salim I mamluklarga zarba berib, Suriya va Arabistonni buysundirdi. Uning o'g'li Sulaymon I 1521-yil Belgrad, 1526-yil Vengriya, keyin Qrim, Moldaviya va Valaxiyani bosib oldi. XVI asr oxirida Yunoniston, Shirvon, hozirgi Eron, Ozarbayjon imperiya tarkibiga kiritildi. Afrikada Misr ishg'ol qilinib, Marokashdan tashqari, Shimoliy Afrika butunlay egallab olindi. Istilolar natijasida uch qit'adan yer-mulk, qaram hududlarni o'z tarkibiga olgan ulkan imperiya tashkil topdi.

Usmoniylar imperiyasi sultonlari hududlar boshqaruvining samarali usuli sifatida harbiy-feodal boshqaruvni joriy qildilar. Kuchli piyoda qo'shin (yanicharlar) va harbiy flot imperiyaning xavfsizligini ta'minlar edi. Islom dini hukmron e'tiqod edi. Usmoniylar imperiyasi XX asrgacha butun Yevropa siyosatiga kuchli ta'sirini o'tkazdi. Bu imperiya XIX asrning ikkinchi yarmidan o'zining yemirilish bosqichiga kirdi.

Yevropada bu davrda savdo siyosiy ittifoqlar tashkil topdi. Boltiq va Shimoliy dengizlardan muhim savdo yo'llaridagi birinchilikni dastlab Bryugge, keyin esa Lyubek boshchiligida 70 dan ortiq nemis shahri kirgan Ganza ittifoqi egallab olgan edi. Ganza savdogarlari Novgoroddan tortib Londongacha Shimoliy Yevropa savdosini o'z qo'llariga to'plagan edilar.

Yevropadagi ikkinchi bir savdo markazlari Venetsiya va Genuya shaharlari edi. Ular sharq bilan savdo yo'llarini o'z qo'lga oldi. Bu shaharlar sharq va g'arb o'rtasidagi savdoda yetakchilik uchun bir-biri bilan raqobat qildi va har ikkisi ham Vizantiyaga raqib edi. Venetsiya va Genuya mustaqil respublika bo'lib, ularda hokimiyat boy savdogarlar qo'lida edi. Venetsiya amalda o'z qishloq xo'jaligi, moddiy resurslari, hatto, chuchuk suviga ega bo'lmay, rivojlangan savdo, hunar, boy madaniyat, qudratli flotga tayanib, o'z ta'sirini deyarli butun G'arbiy Yevropa, O'rtayer dengizi, Qora dengiz bo'yiga o'tkazdi. Venetsiya bozor infrastrukturasi-ning shakllanish modeli va nisbatan demokratik siyosiy tuzum turli diniy e'tiqodlarga tolerantlik namunasi edi.

Shu bilan birga, bu davlatlar davrning muhim voqea va belgilari bo'lgan dastlabki kapital jamg'arish jarayoni, G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika iqtisodiyotida bozor munosabatlarining o'rnatilishi, ikki burjua inqilobi (niderland va ingliz)dan chetda qoldi.

I.M.Dyakonov bu davrni (uning hisobi bo'yicha oltinchi tarixiy faza)

uning asosiy diagnostik belgilari bilan birga, barqaror-absolyut oʻrta asrlar deb atashni taklif qiladi. Asosiy diagnostik belgilar deb, u quyidagilarni koʻrsatadi: samarali oʻq otuvchi qurolning joriy etilishi, burjuaziya va yollanma ishchilar sinflarining paydo boʻlishi, ishlab chiqarish vositalarining takomillashuvi, eng avvalo, qurolsozlik ishi texnologiyasi takomillashuvi bilan bogʻliq edi. Milliy oʻzlikning shakllanishi, barqaror mutloq monarxiyalar yuzaga kelishiga sabab boʻldi. (22.C.152-157). Lekin davrning va uning belgilarini aniqlashtirishdan asosiy iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy shart-sharoitlar va industrial jamiyatning asoslari tushib qoladi. Tarixiy progressda oʻq otuvchi qurolning rolini boʻrttirib koʻrsatishga arzimaydi. Bu jahon sivilizatsiyasining industriya arafasi, ilk kapitalistik jamiyat deb atash mantiqan toʻgʻriroq boʻlar edi. Bu tarixiy progressning oldingi safida turgan mamlakatlarda jamiyat dinamikasi bosh anʼanasi, ikkinchi tarixiy supersikl choʻqqisi uchun poydevor qoʻygan bu bosqichning oʻtish xususiyatini ifodalaydi.

XV asr soʻnggidagi buyuk geografik kashfiyotlar, Turkiyaning oʻsib borayotgan xavfi (Konstantinopolning halokatidan keyin) bir qism savdo yoʻllarini Atlantika, Shimoliy va Boltiq boʻylariga koʻchishiga olib keldi. Dengizorti istilolari va dengizdagi qudrati natijasida Portugaliya, keyin esa Ispaniya kuchaydi. Jahon savdosi va iqtisodiy qudratning markazi XVI asrda Antverpen, XVI asrning soʻnggi choragi – XVII asrning birinchi choragida – Genuya, keyin Amsterdam, davrning soʻnggida – London (1700-yilga kelib u 550 ming aholiga ega boʻlib, Yevropadagi eng katta shahar edi) boʻldi.

Shu bilan bir vaqtda bu davr savdo va bank burjuaziyasining siyosiy hokimiyat uchun kurashining boshlanishi edi. Bu niderland va ingliz burjuva inqiloblarida eng yaxshi koʻrindi.

Italiyada boshlangan uygʻonish, buyuk ilmiy inqilob Germaniyadagi reformatsiya davrining bayroqdorlari boʻldi. Sanoat inqilobining boshlanishi, manufakturalarning hukmronligi, toshkoʻmirning oʻzlashtirilishi togʻ va metallurgiya sanoatining rivojlanishi bilan boʻgʻliq edi. F.Brodel shunday belgilaydi: «Bularning hammasi umumiy ilmiy-texnika inqilobi muhitida yuz berdi: bu shunday vaqt ediki, qachonki yuzlab italyanlar Leonardo da Vinchining qiziqishiga ergashib, oʻz yozuv daftarlarini ajoyib mashinalar loyihalari bilan toʻldirdilar». (oʻsha joyda 567 b). Shunga oʻxshash jarayonlar boshqa rivojlanish darajasi boʻyicha yaqin mamlakatlarda kechdi.

Beshinchi sivilizatsiya siklining yuksalish cho‘qqisi, uning yetuklik fazasi XVI asrga to‘g‘ri keladi. Buni tarixchilar quyidagilar bilan tan oladilar: «XVI asr – aholining o‘shishi davrida Amerikadagi ispan mulklaridan oltin va kumush oqimining o‘shishi va Germaniyada kumush qazib chiqarish texnologiyasining yaxshilanishi natijasida pul bozorida qimmatbaho metallar oqimining o‘shishi, sanoatning kengayishi, qishloq xo‘jaligi mahsuldorligining o‘shishi, sanoatning kengayishi, aholi asosiy massasining hayot sharoitini yaxshilanishi ifodalangan demografik va xo‘jalik ko‘tarilishi».

5. Industriya arafasi jamiyati. Industriya arafasi jamiyatining shakllanish episentrida G‘arbiy Yevropa mamlakatlari – Italiya, Angliya, Niderlandiya, Fransiya, Germaniya turar edi. Ayna shu yerda yangi g‘oyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlar paydo bo‘ldi. Burjua iqtisodiy munosabatlari qaror topdi. Mutlaq monarxiya tuzumidagi davlatlar paydo bo‘ldi. Ular asosan feodal kelishmovchiliklarga chek qo‘ydi. Katta siyosiy barqarorlik va dastlabki kapital jamg‘arish natijasida shakllangan mulkchilikning himoyasini ta‘minladilar.

I.M.Dyakonovning fikricha, taxminan shu vaqtda Xitoyda kuchli mutlaq davlat shakllanadi. U shaharlarning jadal rivojlanishi, hududiy mehnat taqsimoti (bu yirik manufakturalarning paydo bo‘lishiga olib keldi), rivojlangan savdo va pul muomalasi (XII asrdan qogoz pullar chiqarila boshlandi)ga tayangan edi. Bu davrning cho‘qqisiga Min sulolasi (1368-1644-yillar) davrida erishildi. Lekin Xitoyda radikal burjuaziya qatlami vujudga kelmadi. Manjur istilosi (1644-1674-yillar), keyin g‘arb mustamlakachilarining bosqinlari mamlakatni orqaga uloqtirdi.

O‘rta asrlar tartib-qoidalaridan O‘rta Osiyo, Turkiya, Eron, Mongoliya, Hindiston va janubiy-shaqqiy Osiyo chiqa olmadi. Yangi tarixiy davrga ba‘zi kechikishlar bilan Rossiya va Yaponiya o‘ta boshladi.

Bizning fikrimizcha, O‘rta Osiyo bu davrda mo‘g‘ullar zulmidan ozod bo‘lib, davlatning markazlashuvi uchun qulay shart-sharoit yuzaga keldi. Feodal tarqoqlik zulmiga chek qo‘yishga tomon harakat boshlandi. Feodal zulmga chek qo‘yish, demokratik adolatli jamiyat qurish g‘oyalarini amalga oshirish tomon harakat boshlandi. Erkin demokratik davlatlar qurish, o‘z-o‘zini boshqarish tamoyilini amalga oshirishni XIV asrning 40-80-yillarida Movarounnahr va Xurosondagi sarbadorlar harakatida ko‘rish mumkin. Feodal urushlar va feodal tarqoqlikni tugatish, davlatning markazlashuvi tomon qat‘iy yo‘l tutildi (Amir Temur hukmronligi

davri 1370-1405-yillar va uning ba'zi vorislari davri Shohrux, Abusaid Mirzo).

Nima uchun O'rta Osiyo feodalizm doirasidan chiqa olmadi?

Katta yer-mulk, moddiy boylikka ega bolgan oqsuyak-zodagonlar o'zlarini nasl-nasablarini hukmdordan kam ko'rmay, ko'pincha hukmdorning farmonlarini bajarishdan bo'yin tovlab doimo mustaqil bo'lishga intildilar. Ko'p hollarda oliy hokimiyatga davo qilib isyon, fitnalar uyushtirar edilar. Urush paytida o'z qabilalaridan to'plangan ko'ngilli qismlarga boshchilik qilganlar.

O'lkamizda o'rta asrlarda mamlakat kelajagi uchun qayg'uradigan bilimli, uzoqni ko'ra oladigan, katta yer egalari, mahalliy urug'-qabila boshliqlarining o'zboshimchaliklari, buzg'unchiliklariga qarshi tura oladigan, qatiyatli hukmdorlar ham bor edi. Amir Temur, Abdullaxon Shayboniy va boshqalar feodal tarqoqlikni tugatib, o'zaro nizo-ixtiloflarni tugatishga harakat qildilar. Ular feodallarning o'zboshimchaligiga chek qo'yдилar, markazlashtirish siyosatini amalga oshirdilar, savdo-hunarmandchilik, dehqonchilikni rivojlantirdilar. Lekin odil hukmdorni haqiqiy tayanchi bo'ladigan savdogar-hunarmand, ozod dehqonlar ijtimoiy tabaqalari shakllanmagan edi.

Yerga xususiy mulkchilikning yo'qligi, oddiy jamoachi dehqonning yerga egalik huquqining qonun bilan kafolatlanmagani, turli cheklanmagan to'lovlar va mehnat majburiyatlari dehqon xo'jaligining rivojlanishiga to'siq bo'ldi.

Iqtisodiyotning asosi sug'orma dehqonchilik bo'lib, u juda katta mehnat talab qilar edi. Asosiy ishlab chiqaruvchi bo'lgan dehqon asrlar davomida o'z mehnati bilan butun aholining barcha qatlamlarini boqdi. Dehqonlar sun'iy sug'orish inshootlarini qurish, ta'mirlash va ishchi holatida saqlashga ham javobgar edilar. Dehqonchilik agrotexnikasi, texnika-texnologiyasi ibtidoiy holatda saqlanib qolaverdi. Ko'pincha hosilning miqdori tabiatning saxiyiligiga qaram edi. Qurg'oqchilik va boshqa tabiat ofatlari dehqon uchun eng dahshatli hodisa edi.

Katta yer egalari – zodagon oqsuyaklar (xo'jalar), xon va uning amaldorlari sug'oriladigan yerlarning eng unumdor qismiga egalik qilib, kambag'al dehqonlarning mehnatidan foydalandilar. Ular ko'pincha soliq va majburiyatlardan ozod qiladigan huquqni (iqto, tanho, tarxon yorlig'i) olganlar. Katta yer-mulkka ko'ngillilarga bosh bo'ldilar. Katta viloyat, tumnularga egalik qilgan qabila boshliqlari xon hokimiyatiga da'vo qil-

dilar va ba'zida uni bosib ham oldilar. Hukmron tabaqa, urug'-qabila yolboshchilarining hokimiyat uchun o'zaro urushlari mamlakatni siyosiy tarqoqligi va tanazzuliga olib keldi.

Shahar aholisini tashkil qilgan savdogar-hunarmandlar mustaqil ijtimoiy qatlam sifatida shakllana olmadi. Savdogar-hunarmandlar huquqlari qonun bilan himoya qilinmadi. Hunarmandchilik bir qadar rivojlangan bo'lsada kustar holatda qolaverdi. Texnika-texnologiya o'zgarmadi. Hunarmandlar faqat buyurtma asosida mahsulot ishlab chiqardilar. Aholining iste'mol qobilyati cheklanganligi sababli zaruriy iste'mol mollari, uy-ro'zg'or buyumlari ibtidoiy texnologiya asosida ishlab chiqarildi. Yevropaga o'xshab hunarmandchilik ustaxonalari manufaktura ishlab chiqarishiga o'ta olmadilar. Hunarmand zo'rg'a tirikchiligini o'tkazib, uning turmush tarzi asrlar davomida o'zgarmay qolaverdi.

Savdogarlar qatlam sifatida shakllangan bo'lsalarda, o'z manfaatlarini himoya qila oladigan darajadagi ijtimoiy qatlam bo'la olmadilar, ularning huquqlari ham qonun yo'li bilan kafolatlanmadi. Bu qatlam savdo-ayirboshlash bilan shug'ullanib, mamlakat miqyosida va tashqi savdoni tashkil etdilar. Lekin ular o'zlarining yevropalik hamkasblaridan farq qilar edilar. Ular yevropa savdogarlari kabi ozlarini manfaatlarini himoya qiladigan tashkilotlarini (gildiya, ittifoq, kompaniya) tuza olmadilar. Ichki savdo aholining iste'mol qobiliyati cheklangani uchun rivojlanmadi, tashqi savdo bir qadar rivojlangan bo'lsada o'zaro feodal urushlari sababli yaxshi rivojlanmadi. Ularni xon hokimiyati himoya qilsada ular amaldorlar suistemoli, mahalliy hokimlar, qaroqchi-o'g'rilardan himoyalari zaif bo'lib, ularning hayoti va mol-mulki doimo xavf ostida edi. Savdogar o'z hayotini xavf-xatarga qo'yib safarga chiqar edi. Savdogar ming mashaqqat bilan yiqqan jamg'armasini na o'z savdosini kengaytirishga yoki ishlab-chiqarishga qo'ya olmas edi. Shu sababli savdogar o'z jamg'armasini oltin tanga qilib ko'zachaga solib, o'zi bilgan joyga devorga suvab yoki yerga ko'mib qo'yishga majbur bolgan.

Shaharlar Yevropa shaharlariga o'xshab o'z-o'zini boshqarish – kommuna-huquqiga ega bo'lmadi. U hokim yoki hukmdorning qarorgohi bo'lib, doimo dushman tomonidan talon -taroj bo'lish xavfi ostida yashadi. Mahalliy urug'-zodagonlari hokimlarning o'zaro urushlar natijasida shaharlar doimiy ravishda dushman tomonidan bosib olinib, talon-taroj qilindi. Shahar aholisi uchun mahalliy feodallarning urushlari haqiqiy ofat bo'lgan. Shaharni bosib olgan dushman shahar, aholisini talab, o'zini qi-

lichdan o'tkazar edi. Ana shu sabablar natijasida jamiyat asrlar davomida hukm surib kelinayotgan urug'-qabilachilik munosabatlari qobig'idan chiqa o'lmadi. Oqibatda o'lka chuqur siyosiy-iqtisodiy tushkunlikning uzoq davom etgan va siyosiy mustaqillikni yo'qotish fojiasi bilan tuga-gan, millat boshiga son sanoqsiz kulfatlar keltirgan bosqichga kirdi.

Bu fojining bosh sabablari:

– Ishlab chiqarish kuchlarining zaif rivojlanishi bozor munosabatlarining shakllanishiga shart-sharoit yaratmadi. Hududlar, viloyatlar o'rta-sida mehnat taqsimoti yuz bermadi. Haqiqiy ichki bozor shakllanmadi.

– Dastlabki kapital jamg'arish jarayoni yuz bermadi. Uning asosiy omillari savdogarlar, boy hunarmand shaharliklar ijtimoiy to'la qonli iqtisodiy huquqqa ega bo'lgan qatlam bo'lib shakllanmadi va o'z manfaatlarini qonun bilan himoya qila olmadilar. Ishlab chiqarish munosabatlari, ibtidoiy texnika-texnologiyaga asoslangan bo'lib, mahsulotlar sifati past va aholining iste'mol ehtiyoji cheklangan edi.

– Ishlab chiqarish ibtidoiy jamoa xo'jaligi, feodal yer egaligi bilan aralash natural holatda qolaverdi. Ma'naviy hayotda dinning to'la hukmronligi, mutaassiblikning kuchayishi ilm fanni rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

Natijada, XVII asrdan boshlab sharq, g'arb, shimol va janubdan kuchli qo'shni davlatlar (Rossiya, Xitoy, Eron) chuqur siyosiy-iqtisodiy tanaz-zulga tushib borayotgan boy o'lkaning bepoyon hududlarini bosib ola boshladilar. Hatto ko'chmanchi afg'on qabilalari o'z davlatlarini tuzib, XIX asrning 50-yillarida o'rta asrlar tartib qoidalari botqog'ida qolgan zaif Buxoro amirligining katta hududini hech qanday qiyinchiliksiz bosib oldilar. O'rta Osiyo hududlarini bosib olinishi oqibatida o'lka tashqi dunyodan ajralib qoldi, xalqaro savdo yo'llari, dengiz yo'llaridan mahrum bo'ldi. Ilmiy texnika progressi, sanoat to'ntarishlaridan xabarsiz qoldi va tobora ichdan yemirila boshladi.

Bu davr tarixiy meros xazinasini nima bilan boyitdi?

Bu davrda dunyoning turli hududlarida madaniyatlar ulkan yutuqlarga erishdi, betakror san'at asarlari yaratildi.

1. O'rta Osiyoda Sharq Renessansining so'nggi davri boshlandi. Me'morchilik san'ati, xattotlik, adabiyot, tarix, musiqa, astronomiya sohasida nodir asarlar yaratildi. Lekin bu so'nggi yuksalish edi. Bundan keyin feodal ziddiyatlarning kuchayishi, diniy mutaassiblik O'rta Osiyoni bir necha asrlarga chulg'ab olib, zulmat asrlari boshlanadi.

2. Dunyo tarixining eng shonli lahzalaridan biri italyan Renessansi (XIV – XVI asrlar)da yorqin jo bo‘lgan ma’naviy hayotning parvozi bo‘ldi.

U o‘z tarixiy ahamiyati bo‘yicha er. avv. IV-V asrlarda Qadimgi Yunonistondagi birinchi intellektual inqilobga teng edi. Boshqacha aytganda, Qadimgi Yunon merosini qayta tiklashda taxminan XIX asr o‘rtalarigacha davom etgan insonparvarlik ruhi Renessansi boshlandi.

Xronologik jihatdan italyan Renessansi protorenessans (XIII-XIV asrlar), ilk (adabiyotda – XIV asrdan, tasviriy san‘at va me‘morchilikda – XV asr), yuqori (XV asr oxiri XVI asr I choragi) va so‘nggi (XVI asr) boshqichlariga bo‘linadi. G‘arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlari (Fransiya, Niderlandiya, Germaniya, Angliya, Ispaniya)da Renessans bir, bir yarim asr kechroq boshlandi.

Insonparvarlik birinchi o‘rinda qat’iy belgilangan diniy aqidalarning cheklashlaridan ozod bo‘lgan, borliq quvonchi hissiyoti bilishlariga berilgan erkin ijodiy shaxs, insonni ilgari suradi. Bu bilishning turli sohalarida zamonaviy fanning asosini qo‘ygan Buyuk ilmiy inqilobda o‘z aksini topdi. Bu ilmiy inqilobning cho‘qqilari astronomiya, qator nazariy va injenerlik fanlari, falsafa va tibbiyotdagi buyuk kashfiyotlar edi.

J.Bernal bu yorib o‘tishni intellektual inqilob, olimlarning uyushmalarini (Florensiyada Aflotun akademiyasi, Angliyada qirollik jamiyati, Fransiyada qirollik fanlar akademiyasi) tuzilishi bilan fanlarning shakllanishini tugallanishi deb baholaydi.

Adabiyot (Dante, Petrarka, Bokachcho, Erazm, Pable, Servantes), teatr san‘ati (Italyan komediyasi Del Arte, Lope de Vega, Shekspir dramaturgiyalari), tasviriy san‘at, haykaltaroshlik, me‘morchilik (Leonardo da Vinchi, Rafael, Jordano va Titsian, Mikelanjelo, Dyurer, Rembrant)da ham ajoyib yutuqlarga erishdilar.

3. Antik davrdagi amaldan ajralgan ilmiy tafakkurdan farq qilgan holda, uyg‘onish davridagi ilmiy to‘ntarish, ilmiy-texnika inqilobi bilan bog‘langan edi. Amaliyot yutuqlari bilan sug‘orilib, uning ehtiyojlarini qondirdi. Turli xil sanoat mahsulotlarining arzonlashuvi, mehnat taqsimotiga asoslangan umumdorligini ko‘p marta oshirgan ishlab chiqarish korxonasi – bu manufaktura edi.

O‘q otuvchi qurollarni ishlab chiqarish ancha o‘sdi (to‘p, mushket). Bu o‘z navbatida aralash sohalarning rivojlanishiga turtki berdi. Dengiz

flotining rivojlanishi okeanlarga suzish imkonini yaratdi. Kemalarning yangi turi yelkanli karavellalar paydo bo'ldi. Faqat dehqonchilikda qaram dehqon va yerga birlashtirilgan dehqonlarning mehnati ustuvor bo'lgani uchun sezilarli progress bo'lmadi. Lekin bu sohada ham qator takomillash-tirishlar keng tarqaldi.

4. Industriya arafasi sivilizatsiyasining iqtisodiy munosabatlari amal-da materikning butun aholisini qamrab olgan bozor chegaralarining mustahkamlanishi va kengayishi, kapitalizmning asta-sekin savdo, sanoat, dengiz transporti, qisman qishloq xo'jaligi (Angliyadagi g'ov tutish ja-rayoni)da qisman shakllanishi bilan tavsiflanadi. Dastlab Italiya, keyin Amsterdam, Parij, Londonda savdo, veksell aylanishi bank va birja faoli-yatining mukammal mexanizmi, bozor infratuzilishi shakllandi.

Iqtisodiy hokimiyat asta-sekin katta yer egalari, aslzodalar va cher-kovdan savdo – moliya sanoat kapitaliga o'tdi. Kapitalistik munosabat-lar qishloq xo'jaligiga kirib bordi. Shahar va qishloqda yollanma mehnat keng tarqala boshladi.

Dastlabki kapital jamg'arishning barcha qo'pol shakllari to'la, chuqur va obrazli qilib K.Marks tomonidan «Kapital» asarining I jildining 24 bobida tasvirlangan. Bu vaqt kapitalistik iqtisodiyotning butun dunyo bo'ylab zafarli yurishi davri edi. Aynan shu davrda ko'p sonli lokal va hududiy bozorlar xalqaro savdo bilan mahkam bog'langan yagona milliy bozorlarga birlashdi.

Bu davr iqtisodiy progressining boshida G'arbiy Yevropa bordi. Yev-ropada kapitalistik jamiyat, uning birinchi fazasi «manufaktura kapita-lizmi» da tarixiy burilish yuz berdi. Yevropa tarixidagi bu tub burilish lah-zalaridan biri, uning oqimlaridan biri o'z umrini o'tab bo'lgan eski feo-dal tartib-qoidalaridan yangi ijtimoiy tuzum kapitalizmiga tomon keskin burildi. Yangi davr burjuaziya ishlab chiqarish munosabatlarining birinchi shaklini alohida taraqqiyoti bilan tavsiflanadi. «Manufaktura kapitaliz-mi» dastlab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda ilg'or bo'lgan mamlakat-lar – Angliya va Niderlandiyada ko'zga ko'rindi. Shu bilan birga, yangi tuzumga yaqinlashib kelayotgan qit'aning boshqa qator mamlakatlarida xo'jalik ukladida yaqqol ifodalangan qulayliklar o'zini bildirmoqda edi. Yevropani qamrab olgan xo'jalik tushkunligi belgilari paydo bo'lgan paytda, Elba daryosidan sharq tomonda XVII asrning II yarmida krepos-noylik huquqining shakllari o'rnamashdi.

5. Industriya arafasi sivilizatsiyasida ijtimoiy-siyosiy sohalar turli an'analar bilan tavsiflanadi.

Eng katta yutuq barqaror mutlaq monarxiyalar mavjud bo'lgan davlatlarning vujudga kelishi edi. Bu zamonaviylik huquqiga tayanib ish ko'radigan feodal xo'jayinlar beboshligi, o'zaro nizolariga chek qo'ydi. Ishlab chiqarish va savdo uchun qulay sharoit yaratdi.

Insonparvarlik g'oyalarining o'tishi siyosiy tenglik uchun feodal toifachiligini tugatish, syuzerenlarning (o'z vassallariga ega bo'lgan, feodal-senor (qirol, gersog, graf) cheksiz hukmronligi va o'zboshimchaligini tugatish uchun kurashni kuchaytirdi. Niderland va ingliz burjuaziya inqiloblari natijasida «uchinchi toifa» (boy shaharlik savdogar-hunarmand va tadbirkorlar)ning siyosiy ta'siri kuchaydi, lekin davlat darajasida hokimiyat avvalgidek, monarx (qirol), oqsuyak feodallar va cherkovning yuqori tabaqasi qo'lida edi. Faqat Angliyada parlamentning kuchayishi bilan an'anaviy feodal hukmronligi darz ketdi. Venetsiyada an'anaviy respublika tuzumi saqlanib qolindi.

Shu bilan bir vaqtda ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashgan davri, xalq g'alayonlari, qonli fuqarolik va diniy urushlar vaqti edi. Qirollar va feodallar to'xtovsiz urushlar olib bordilar (Angliya va Fransiya o'rtasida yuz yillik urush, Umumyevropa 30 yillik urushi 1618-1648-yillar). Urushlar katta miqdordagi mablag'larni talab qilar edi. Bu shahar aholisi va dehqonlar uchun soliq va majburiyatlar yukini ko'paytirar edi. Bu xalq qo'zg'olonlariga olib keldi. Ulardan Fransiyadagi Jakeriya qo'zg'oloni, Germaniyadagi dehqonlar urushini aytish mumkin.

6. Dengiz sayohatlari va buyuk geografik kashfiyotlar jahon mustamlakachilik imperiyalarining shakllanishiga olib keldi.

XV asrda industriya davridan boshlab hozirgi kungacha Yevropaning butun dunyoga tazyiqi davom etib kelmoqda. Yevropa keyinchalik shimoliy Amerika o'z taraqqiyotini barqaror rivojlanishi uchun boshqa qit'alarni xomashyo, yoqilg'i zaxiralarini zo'rvonlik bilan o'zlashtirib kelmoqda. Xristofor Kolumb tomonidan kashf qilingan Amerikani o'zlashtirish natijasida Ispaniya dunyodagi eng katta mustamlakachilik imperiyasiga aylandi. Ispaniya, Portugaliya, Britaniya, Fransiya, Gollandiya o'rtasida mustamlakalarni bosib olish, takror taqsimlash uchun to'xtovsiz urushlar olib borildi. Qadimgi madaniyatlar katta-kichik xalqlar mustamlakachilarning zo'rvonligiga uchrab yo'q bo'lib ketdi.

Avstariya kashf qilingandan so'ng, ingliz sayyohi Jeyms Kuk yangi qit'ani Britaniya tojining mulki deb e'lon qildi. Avstraliyada tub joy aholi aborigentlar 50 ming yildan beri yashar edi. Qit'ani o'zlashtirishning birinchi 100 yilligida 20 ming aborigentlar qirib tashlandi, ularning soni 80% ga kamaydi. Avstariyaga jinoyatchi, Katorga mahbuslari Angliyadan ko'chirib keltirildi. Inson huquqlarini himoyachisi bo'lgan yevropaliklar Amerikada qul savdosini yo'lga qo'yib, katta foyda ko'rdilar. AQSH janubiy shtatlarining 8 mln aholisidan 4 mlni qullar edi. Janubiy va Shimoliy Amerika xalqlarining taqdirleri turlicha bo'ldi. Ispanlar va portugallar bosib olgan dengizorti mulklarida mavjud bo'lgan qadimgi jamiyatlar yo'q qilindi. O'rta asrlarga zo'ravonlik bilan sakrash amalga oshirildi. Feodal, qisman quldorlik munosabatlari hududlarda hukmron edi. XIX asr boshlarida Simon Bolivar rahbarligidagi va boshqa milliy yo'lboshchilar boshchiligida olib borilgan ozodlik urushlari natijasida aralash milliy davlatlar shakllandi.

XVII asr boshlarida Shimoliy Amerikada Britaniya koloniyalari tashkil topa boshladi. Janubiy paxtachilik shtatlarida feodal va quldorlik munosabatlari bilan birlashib ketgan burjua munosabatlari yetakchilik qildi. Janubiy shtatlardagi 8 mln aholidan 4 mlni qullar bo'lib, ular shafqatsiz ekspluatatsiya qilindi. Yevropa Amerikada qulchilikdan katta foyda ko'rди. 1791-yilda Gaitida qullar qo'zg'aloni g'alaba qildi. 100 mingdan ortiq qul ozodlik, mustaqillik uchun kurashdi. 4 ming quldor plantator yo'q qilindi. Gaiti 1801-yilda lotin Amerikasidagi birinchi mustaqil davlat edi. XIX asrda industrial davlatlar xomashyo uchun Afrikaga yopirildilar. 1877-yilda sayyoh Stenli Afrikaga savdo yo'lini ochdi. Kongo daryosi havzasini tekshirdi. Angliya, Germaniya, Fransiya, Portugaliya va Belgiya qora qit'ani bo'ysundirishga kirishdi. Kichkina Belgiya o'zidan 70 marta katta bo'lgan Kongoni bosib oldi. Belgiya qiroli o'z bosqinchiligini niqoblash uchun «Afrika xalqaro assosiyasi»ni tuzdi. Kauchuk plantatsiyalarida millionlab afrikaliklar shafqatsiz ishlatildi. Kongoning 10 mln aholisi qirib tashlandi. Bu aholining yarmisi edi. Belgiya yuz yilga yaqin Kongoni mustamlaka qildi. Kongo 1960-yilda mustaqillikka erishdi.

XVIII asrda tashkil topgan AQSH industrial kapitalistik jamiyatga xos bo'lgan siyosiy munosabatlarni o'rnatish uchun jadal harakat qildi (eng ilg'or konsepsiya 1787-1791-yillarda Huquqlar to'g'risida Bill). Samuel Adams Amerika mustaqillik deklaratsiyasini yozdi. Tenglik, erkinlik,

inson huquqlarini e'lon qilgan bu tarixiy hujjat hozirgi demokratiyaga asos soldi. Aynan AQSHda liberal demokratiyaning tuzumi tug'ildi. Bu keyingi 200 yil davomida Yevropa va butun dunyo uchun namuna bo'ldi.

Lekin bu shafqatsiz davr jahon progressida olg'a tashlangan ulkan qadam edi. Aynan o'sha davrdan bizning davrimizgacha cho'zilib kelgan ko'pgina iplar bizgacha yetib keldi va XX asrda hal qilinishi zarur bo'lgan yoki yechilgan muammolar o'sha davrda tug'ildi.

O'sha davrda ilk kapital jamg'arish tarixi Yevropaning tarixiy taraqqiyotini bir necha yuz yilga belgilab bergan kapitalistik eraning boshlanishi boshqa mamlakatlar, qit'alarning hayotiga ko'p hollarda fojiali ta'sir qilgan jarayonlar, bizning davrimizdagi sifat jihatdan yangi o'zgarishlar, buyuk burilishlarga olib keldi. Uyg'onish davri va reformatsiya zamonaviy bilim asoslarini yaratdi.

6. Industrial sivilizatsiyaning gullab-yashnashi va so'nishi. Industriya arafasidagi sivilizatsiyaning tushkunligi va so'nishi, keyingi sivilizatsiyaga o'tish davri XVII asrning oxiri XVIII asrni to'la o'z ichiga oladi. Bu vaqtda aholi o'sish sur'ati o'sdi. Angliya aholisi 1700-yilda 5,08 million kishidan 1790-yil 8,2 million kishiga ko'paydi. O'sib borayotgan aholi hamda qirol saroyi va zodagonlarning hashamatli hayoti ehtiyojlarini manufaktura ishlab chiqarishning tor bazasi va mustamlaka savdosidan kelgan foyda bilan qondirish imkoniyatlari muntazam qisqarib bordi.

Hindiston, Indoneziya orollari, Afrika, Amerika bilan talonchilik savdosidagi ulkan foydalar, talab olingan qimmatbaho metallar, zira-vorlar oqimi tugay boshladi. Yevropa halokatli hosilsizliklarni boshdan kechirdi. Ishlab chiqarishning texnologik usulida to'ntarish takrorlanmas bo'ldi. U XVIII asrning so'nggi choragi XIX asr boshlarida sanoat inqilobi ko'rinishida yuz berdi.

Industrial sivilizatsiyaning xronologik chegaralari va fazalarini tavsiflaymiz. Eng avvalo, kapitalizm va postindustrializm jamiyatining tarixiy chegaralarini ajratish kerak bo'ladi.

Jahon progressining episentrlarida kapitalizmning shakllanishi industrial sivilizatsiya arafasiga tegishli. Industrial jamiyatga kelganda esa u gullab-yashnash, barqarorlik va kapitalizmning so'nishi fazalarini qamrab oladi. O'zining tashkiliy aks etishi tarzida mashina va fabrika tizimini o'ziga mos moddiy bazani shakllantirdi. Industrializmning mohiyati ishlab chiqarishning mashinalashgan ko'rinishidan iborat. Bu iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy munosabatlarda o'z izini qoldirdi.

Mashina buyuk tenglashtiruvchi leveller: mashinalashgan ishlab chiqarish ishchilarning ma'lumoti, huquqlari, siyosiy tengligini tenglashtirgan an'ana bo'ldi. Industrial jamiyatning o'zini shakllanish fazasi XVIII asrning so'nggi choragidan XIX asrning boshlarigacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Angliya industrial jamiyatning birinchi episentri bo'ldi. Keyinchalik esa episentri Yevropaning qit'a qismi va Shimoliy Amerikaga ko'chdi. Industrial jamiyatning jadal tarqalish fazasi XIX asr o'rtalarigacha davom etdi. Shundan so'ng, industrial jamiyatning barqaror taraqqiyoti to'g'risida aytish mumkin.

Industrial jamiyat yuksalish va yetuklik fazasini I jahon urushining boshigacha o'z boshidan kechirdi deb tasavvur qilish mumkin. Shundan so'ng, uning so'nish fazasi boshlandi. XX asrning so'nggi choragida post-industrial sivilizatsiyaga o'tish davriga kirish boshlandi.

Shu bilan birga, bu borada boshqa yondashuvlar ham mavjud. I.M.Dyakonov kapitalistik fazaning tarixiy taraqqiyotiga qisqa muddat-100 yildan sal ko'proq vaqtni ajratdi. XIX asr o'rtalari (1832-yilda Angliyadagi parlament islohotlaridan keyin Fransiya va Germaniyadagi inqiloblar)gacha G'arbiy Yevropaning yetakchi mamlakatlarida burjuaziyaning siyosiy hukmronligini o'rnatilishidan 1952-yil AQSH va 1953-yil SSSR da birinchi vodorod bombalarining sinovlarigacha bo'lgan davr, lekin industrial sivilizatsiyaning boshlanish va tugallanish fazalari bu doradan chiqib ketdi.

Industrial jamiyatga o'tish davri XVIII asrning so'nggi choragida sanoat to'ntarishi va buyuk fransuz inqilobidan boshlandi. Industrial kapitalistik jamiyatning so'nggi uzoq bo'lmagan parvozi XX asrning 50-60-yillarida kuzatiladi. Uning nihoyasi deb 1973-yilni hisoblash mumkin. Sobiq sovet tarixshunoslarida insoniyat tarixidagi yangi eraning boshlanishi 1917-yilda Rossiyadagi Oktyabr inqilobidan boshlanadi deb qabul qilinadi.

Lekin XX asrning so'nggi o'n yilligidagi voqealar Oktyabr to'ntarishi faqat industrial jamiyatning so'nish davridagi o'z tushkunligidan chiqish yo'llaridan biri sifatida sotsialistik g'oyalarni amalga oshirish yo'liga o'tish bilan tushkunlikdan qutulish uchun bo'lgan yirik to'ntarishlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Lekin insoniyat juda qimmatga tushgan tajribadan ba'zi bir foydalarni o'zlashtirib, bu yo'ldan bormadi. U kapitalizm

va sotsializmning buyuk qarama-qarshiligidan uchinchi postindustrial jamiyatning shakllanish yo'lini tanladi. Shuning uchun zamon tarixini ajralgan vaqti deb XX asrning so'nggi choragida industrial jamiyatdan postindustrial sivilizatsiyaga o'tish deb hisoblash mumkin.

Tarixiy progress qonuniyatlari nuqtai nazaridan industrial sivilizatsiyaning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini belgilash mumkin:

1. Milliy va dunyo miqyosida jamiyatning ikki xillikda o'sishi siklik dinamikaning qonuniyatlarini yanada aniq ko'rinishi uchun sharoit yaratdi. O'n yillikda bir marta davriylikda rivojlangan mamlakatlar (barcha dunyo xo'jaligi va uning chegaralari kengashi bo'yicha)da iqtisodiy tushkunliklar yuz beradi.

Yarim asrlik (Kondratyev) sikllarning chiziqlari aniqlana boshlandi. Bu texnologik ukladlar texnika avlodlarining yangilanish ritmi hamda ijtimoiy hayotning boshqa sohalarini to'lqinsimon spiral ko'rinishdagi dinamikasining an'analari, XIX-XX asr boshlarida tushkunliklar ritmi aniq paydo bo'la boshladi. I va II jahon urushlari sikllarning maromli yurishini buzdi. Urushdan keyingi yuksalish boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga tushkunliklardan qochish mumkinligi umidlarini tug'dirdi. Lekin 1973-1974-yillardagi chuqur jahon tushkunligi navbatdagi Kondratyev siklining tushkunlik fazasi bilan mos kelib, bu xom xayollarni tarqatib yubordi. Shu vaqtdan boshlab o'rta muddatli jahon iqtisodiy tushkunliklari havas qiladigan muntazamlik (1980-1982, 1991-1993-yillar)da takrorlana boshladi.

2. O'sib boradigan mexanizatsiya, avtomatizatsiya va ishlab chiqarishning konsentratsiyasi, mashinalar tizimining tarqalishi bir texnologik xalqaga mahkam bog'langan nafaqat alohida korxonalar, balki qator mamlakatlar hajmi (xalqaro monopoliyalarda), vaqt o'tishi bilan global hajmlar (transmilliy korporatsiyalar)da jamiyatning o'zaro bir-biri bilan bog'langan katta, o'rta va kichik tizimlarning majmuasiga aylantirdi. Eski avtonomiyani yo'qotib, yangi ritmda ishlaydigan yuksalishlar va turg'unliklar, tushkunliklar va yangilanish fazalarini boshidan kechiradigan sinxronlashgan to'plamga aylandi.

Industrial jamiyat texnologiyalarga ustuvor o'rin beradi. Texnik progress mahsulotning raqobatbardoshligi va iqtisodiy o'sish asosida yotadi. Fan yutuqlari, eng avvalo, insoniyat yutug'i mumkin bo'lgan sohalariga asoslanadi.

3. Inson industrial tizimda mashinalarning ijodchisi bo'ldi, ularni quradi va ishlatadi. Uning ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan, mashinalashgan ishlab chiqarish endilikda insonni o'ziga yanada ko'proq bo'ysundiradi. Unga hayot ritmini taqab qo'yadi. Texnika avlodlarining almashinuvi ishsizlik xavfini tug'diradi.

Mashinalashgan ishlab chiqarishning gumanizm davri tugadi. Bu madaniyatda o'z ifodasini topdi. Mashinalashgan, standartlashgan milliy har xillikdan mahrum qilingan gumanizm davri merosi bilan aloqasini uzgan ommaviy madaniyat paydo bo'ldi, qaysiki, u industrilashgan aksil madaniyatga aylana boshladi. Ayniqsa, bu XX asrda industrial sivilizatsiyaning so'nish fazasida yaqqol ko'rindi.

O'tish davrida ma'naviy muhitning tushkunligi yarim asrga cho'zildi. Tarixga ketayotgan industrial va mingyillik sikllar so'nishda badbashara shakllarni qabul qila boshladi.

4. Industrial davr iqtisodiyotida qarama-qarshi an'analar kuzatiladi. Ishlab chiqarish kuchlarining qudratli va uzoq yuksalishi rivojlangan mamlakatlarda aholining keng qatlamlari turmush darajasining o'sishida uning yutuqlari, so'zsiz fanning yirik texnologiyalari qo'llandi. Buning natijasida industriyaning o'sib borayotgan qudrati va mehnat unumdorligi o'n martalab o'sdi. Ko'pchilik oilalar uchun televizor, maishiy texnika, avtomobillarning tez-tez almashtiriladigan rusumlari, turistik sayohatlar odatdagi hol bo'lib qoldi. Lekin bunday taassurot qoldiradigan progressga juda o'gir to'lovlar evaziga erishildi.

Milliy va global takror ishlab chiqarishning buzilgan tuzulmasining istiqboli yo'qligi yanada yaqqol ko'rina boshladi. Rivojlangan ozgina mamlakatlarning gullab-yashnashi va farovonligi rivojlanayotgan mamlakatlarning mehnat va tabiiy resurslarini shafqatsiz ekspluatasiya qilishga asoslangan. Erkin raqobat davridan faqat xotiralar qoldi.

Iqtisodiyotni aksiyalash orqali monopoliyalar hukmronligi boshlandi. Ular keyin kuchli davlat apparati bilan birlashib ketdilar. XX asrning ikkinchi yarmida transmilliy korporatsiyalarning jadal yuksalishi kuzatildi. Ular dunyo iqtisodiyotining yetakchi sohalarida jahon iqtisodiyotining qudratli integratorlariga aylandilar. Tashqaridan qaraganda, kapital demokratiyaga yaqinroq bo'ldi. Aholining aksiya va obligatsiyalarga ega bo'lgan, o'sib borayotgan qatlamlari mulkdorlar deb e'lon qilindi. Lekin bu yolg'on demokratiya pardasi orqasida tor elita qatlamining iqtisodiy va siyosiy qudrati yashirindi.

5. Industrial davrning siyosiy, davlat huquqiy tizimida qarama-qarshi an'analar mavjud edi. Iqtisodiy kuch-qudratning konsentratsiyasi siyosiy hokimiyatning demokratiya pardasi bilan yashiringan diktaturaga olib kelmasligi mumkin emas edi. Bu umumiy an'anaga aylandi va totalitar tuzumlarning o'rnatilishida o'z ifodasini topdi. Totalitar tuzumlar chuqur tushkunlik va to's-to'polon sharoitlarida, (1917-yilda Rossiyada bolsheviklar zo'rvonlik bilan hokimiyatni egalladilar) ba'zida hokimiyatga demokratik yo'l bilan keldilar (misol uchun, 1933-yil Germaniyada fashizm diktaturasining saylovlar natijasida hokimiyatga kelishi).

Mafkuraviy ta'sir qilishning qudratli industrial vositalari bunday tuzum uchun asos yaratdi. Kishilarning siyosiy qarashlarini yo'naltirdi va ana shu asosida ommaviy siyosiy partiyalarni shakllantirdi.

Agar ilgari siyosiy hukmronlik uchun kurash hokimiyatga ma'lum bir sinf qatlam yoki ustuvor dinning monopoliyasida o'z ifodasini topsa, endi industrial jamiyatda u yoki bu siyosiy partiyalarning saylovdagi g'alabasining natijasi asosida hukmron elitani shakllantirish imkoniyati paydo bo'ldi.

Bu davrda bir (SSSR), ikki (AQSH, Buyuk Britaniya) va ko'p partiyali tizimlar (Fransiya, Germaniya, Italiya) shakllandi. Saylov asosida hokimiyatga kelgan partiyalar davlat boshqaruvida asosiy lavozimlarni egalladilar.

Bu jarayon totalitar davlatlar (SSSR, Germaniya, Ispaniya, Portugaliya)da o'z ifodasini topdi. Hukmron partiya siyosiy hayotning markazida asosiy qism bo'ldi. Siyosiy partiyalarning rahbarlari, nufuzli siyosatchilar va davlat boshqaruvi elitasining bir-biriga qo'shib ketish holati yuz berdi. Totalitar davlatlarda jamiyatda bir mafkuraning monopol hukmronligi o'rnatildi (SSSR, Germaniya, Xitoy).

Industrial jamiyatda barcha fuqarolar va ijtimoiy qatlamlarning qonun oldida tengligini tan olishga asoslangan huquqiy munosabatlarni boshqarishda qonun ustuvorligining huquqiy tartibi qaror topdi. Industrial sivilizatsiyaning davomiyligida siyosiy hayotning barcha muassasalari harakatida bir necha fazalar aniq ko'rinadi. Qator burjua demokratik inqiloblar (Niderland, Fransuz, Shimoliy Amerika va boshqalar) natijasida burjua demokratiyasining tarqalish va qaror topish davri; XIX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan mamlakatlar (Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH va boshqalar)da demokratiyaning tantanasi; XX asrning 20-yillarida

va yuz yillikning deyarli oxirigacha totalitar davlatlarda soʻnish va oʻz qurama-qarshiliklariga oʻtish kabilar.

Tayanch iboralar: manufaktura davri, ilmiy texnika inqilobi, uch faza, oʻtish davri, musulmon modeli, dunyo dinlari, jahon imperiyalari, sanoat inqilobi, industriya arafasi, Renessans, mustamlaka imperiyasi, Kondratyev sikli, totalitar, siyosiy partiya, elita, fashizm, qonun ustivorligi.

Takrorlash uchun savollar:

- 1. Ikkinchi tarixiy supersiklda jamiyat taraqqiyotining asosiy bosqichlari qanday edi?*
- 2. Feodalizm genezisining asosiy yoʻllari (modellari)ni ayting?*
- 3. Qanday belgilar oʻrta asr sivilizatsiyalarining episentrlari va xarakterlariga xos?*
- 4. Industrial sivilizatsiyaning asosiy belgilari va taraqqiyot bosqichlarini koʻrsating?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. Industriya arafasi sivilizatsiyasi.
2. Industrial sivilizatsiya tushunchasi va uning bosqichlari.
3. Industrial sivilizatsiyaning gullab yashnashi fazasining umumiy tavsifi.
4. Industrial davrning siyosiy, davlat huquqiy tizimi.

2-MAVZU: O'RTA ASRLAR VA INDUSTRIAL JAMIYATDA INSON

1. O'rta asrlarda inson. 2. Motivatsiya mexanizmi.

1. O'rta asrlarda inson. Antik davrdan o'rta asrlarga o'tishda erkin fuqarolar soni kamaydi. Feodallarning pog'onaviy toifasi shakllandi (qirol, gersog, graf, baron; podsho, amir, bek, dehqon). Iqtisodiyotning asosi bo'lgan yerning katta qismi feodallar, cherkov qo'liga o'tdi. Faqat bir qism yerlar erkin dehqonlar qo'lida qoldi. Sharqda esa yerga davlatning oliy egaligi mustahkamlandi. Ilgari erkin bo'lgan jamoa a'zolarining ko'pchiligi og'ir majburiyatlarni bajaradigan qaram dehqonlarga aylandilar.

Yevropaga qaraganda, sharqda Vizantiya, Hindiston, Xitoy, O'rta Osiyo va Eronda temir asri odami zamonaviylik tomon bir maromda, kamroq tebranishlar bilan yo'l tutdi. Bu jamiyatlarda urf-odat an'analarga asoslangan turmush tarzi barqaror davom etdi, inson hayoti hech qanday o'zgarishlarsiz bir maromda kechdi. Natijada jamiyatda urf-odat, an'analalar o'z ahamiyatini yo'qotmadi. O'rta asrlar bu hududlarda nisbatan uzoq davom etdi. Bu mamlakatlar keyinchalik Yevropadagi yetakchi mamlakatlarga qaram mustamlaka, yarim mustamlakalarga aylandi. Qachonlardir jahon progressining oldingi safida bo'lgan ilg'or xalqlari qaram bo'lib qoldilar. Ularning ijtimoiy, ma'naviy-madaniy hayoti «noto'g'ri» deb topildi va ayovsiz yo'q qilindi. Ularning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti bir necha yuz yillarga orqada qoldi. Amerikaning qadimgi sivilizatsiyalari mustamlakachilar tomonidan deyarli yo'q qilindi.

Ikkinchi tarixiy supersiklning uch sivilizatsiyalari davomida jamiyatda insonning mavqeyi siniq chiziq tarzida o'zgarishi kuzatiladi. O'rta asrlarda shaxsiy erkinlikdan erksizlikka tomon harakat yuz berdi.

Yevropada toifaviy – ko'p qatlamli jamiyat shakllandi (dunyoviy feodallar-qirol, gersog, graf, baron; diniy cherkov pog'onasi – papa, kardinal, arxiyepiskop, yepiskop, abbat, oddiy ruhoniylar). Erkin dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar va boshqa aholi qatlamlari shahar va qishloqda mavjud edi. Jamoada teng huquqli bo'lgan dehqonlar feodalga shaxsan qaram bo'ldilar. Feodallarning o'zi oliy syuzeren (qirol)ning vassali

edilar. Vassallar o'z harbiy qismlari bilan qirol qo'shinida xizmat qilib, uning sudiga bo'ysunar edilar. Oliy tashkilotlar (davlat hokimiyati, sud hokimiyati, cherkov) mavjud feodal toifasiga xizmat qilar edilar. Cherkovning o'zi katta yer mulklariga ega edi.

Industriya arafasi, renessans va ma'rifatparvarlik inson ruhining tananasi, shaxsning ulug'lanishi, fuqarolarning teng huquqligi, erkinligiga yana qaytish edi. Antik fan, san'at va demokratiyaning g'oyalari yana qayta tug'ildi. Bu davrda g'arbda Venetsiya, Florensiya, Genuya, Amsterdam, Toledo va boshqa shaharlar gullab yashnadi.

Shaharlar madaniyat markazlari, hunarmand, savdogar, bankirlar, me'mor-quruvchilar, shoir-rassomlar insonning siyosiy erkinligi va ruhining parvozi to'plangan joy edi. Universitetlar hurfikrlik markazlari edilar.

Shaxsiy erkinlik osongina paydo bo'lmadi. Feodal hukmdorlar o'z hokimiyatlarini mustahkamlashga harakat qildilar, qarshilik ko'rsatganlarni yo'q qildilar, muntazam urush olib bordilar, sud qildilar. Cherkov o'z hokimiyati va iqtisodiy qudratini mustahkamlashga urinib, cherkov sudi orqali inkvizitsiya uyushtirib, shakkoklar va g'ayridinlarni qirg'in qildi. Shakkoklikda ayblangan o'n minglab kishilar, ularning ichida buyuk mutafakkirlar (Jordano Bruno) gulxanda yoqildilar, «qon to'kmasdan qatl qilish», «autodafe»ga duchor qilindilar.

Industriya arafasi sivilizatsiyaning so'nishi reformatsiya va kontreformatsiya davrlarida yana qirolning mutlaq hokimiyati mustahkamlanishi, inkvizitsiya va zulmning kuchayishi yuz berdi. Lekin bu jarayon uzoq davom etmadi. Feodal toifaviy tuzum halokatga uchradi. Burjuaziya erkinliklari fuqarolarning teng huquqliklaridan shaxs ustuvorligi, raqobat kurashida teng imkoniyatlardan kelib chiqib, ingliz va fransuz inqiloblari, Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun kurash natijasida g'olibona qaror topdi. Shaxs erkinligi va raqobat kurashida teng imkoniyatlar burjua tuzumining ishonch e'tiqod ramziga aylandi, industrial sivilizatsiyaning yuksalishi va gullab yashnashiga olib keldi. XVIII asr cherkovning jamiyat ma'naviy hayotidagi to'la hukmronligiga chek qo'ygan ma'rifatparvarlik asri bo'ldi. Shakllanayotgan burjua tartib-qoidalari diniy xurofotlardan xalos bo'lgan fanlar, kashfiyotlar, ta'limning jadal taraqqiyoti uchun yo'l ochdi. Din inson aqli, qudrati oldida chekinishga majbur bo'lib, jamiyatning yangi sharoitlariga moslashishga majbur bo'ldi. Hurfikrlilik,

fan-texnika taraqqiyoti yangi ilmiy kashfiyotlar va ixtirolarga olib keldi. Bu o'z navbatida, insonning og'ir jismoniy mehnatdan qutulishi va turmush sharoitini yaxshilash, moddiy ehtiyojlarini to'laroq qondirishga shart-sharoit yaratdi. Lekin XX asrda industrial sivilizatsiyaning so'nishi natijasida inson ulkan industrial mashinaning vintchasiga aylandi. Germaniya Italiya va Yevropaning bir necha mamlakatlarida fashizmning hukmronligi o'rnatildi. Militarizm kuchayib jahon urushlari kelib chiqdi. Millionlab kishilar urush qurbonlari bo'ldilar.

G'arb jamiyatidagi bu o'zgarishlar oila tuzilishida ham o'zgarishlarga olib keldi. Oila muassasasida siljishlar yuz berdi. Odatda uch avloddan iborat patriarxal oila feodal qishlog'i va o'rta asr shahrida hukmron edi. Hukmron tabaqa uchun ham ko'p bolalik xos bo'lib, merosni taqsimlashda ko'plab jinoyat va ixtiloflarga olib kelar edi. Oila va nikoh diniy muassasalar himoyasida edi. Bozor munosabatlari hukmronligi va shaxsiy erkinlikning kengayishi eski oilani yemirdi. U shaharda o'z mavqeyini yo'qotib, qishloqda o'zini saqlab qoldi. Oila eski iqtisodiy ahamiyatini, ayniqsa, ishchilar sinfi va ziyolilar qatlamida yo'qotdi. Ayollarning erkinligi va ijtimoiy faolligi oshdi. Sharq mamlakatlarida oila o'zining kuchli mavqeyini saqlab qoldi. Urf-odat, an'analar oilaning mustahkamligini ta'minladi. Oilada ota-onaning inkor qilib bo'lmas obro'-e'tibori saqlanib qoldi. Islom dini ham oilaning asoslarini himoya qilib, uni qo'llab-quvvatladi.

Inson va oilaning o'sib borayotgan ehtiyojlari jamiyatning rivojlanişida progressiv siljishlarga olib keldi. Biologik va ijtimoiy ehtiyojlarning nisbati to'lqinsimon o'zgardi. Antik asrlarga o'tish davrida antik jamiyatga qaraganda, biologik va moddiy ehtiyojlar foydasiga siljishlar yuz berdi. O'rta asr boshlarida ishlab chiqarish kuchlarining yemirilishi odamlarning bir qismi, moddiy-ma'naviy qadriyatlarining yo'q qilinishi, mehnat unumdorligini pastligi ehtiyojlarni keskin qisqarishida olib keldi. Jamoa, qishloq, shahar, oila, inson faqatgina tirik qolish uchun kurashdi. O'rta asrlar shaharlaridagi antisaniitariya epidemiyalarning tez tarqalishi va shahar aholisining yoppasiga qirilib ketishiga olib keldi.

Lekin XX asr, industrial sivilizatsiyaning so'nish davrida inson davlat byurokreatiyasi bilan qo'shib ketgan monopoliyalar manfaatlariga bo'ysundirilgan ulkan industrial mashinaning vintchasiga aylandi. Germaniya va Italiyada fashizm, sobiq SSSRda totalitar tuzum hukmron

bo'ldi. Inson tafakkurining eng oliy yutuqlari, eng yaxshi ishchi qo'llari militarizmga xizmat qilishga berildi. Inson tafakkurining eng ajoyib kashfiyotlari odamning o'zini qirib yuborishga xizmat qiladigan ommaviy qirg'in qurollarining yaratilishiga jalb qilindi. Oqibatda bu jahon urushlarida millionlab kishilarni qirilib ketishiga olib keldi. Insoniyatni termoyadro halokati yoqasiga olib keldi.

Ishlab chiqarish kuchlarining yemirilishi odamlarni, moddiy, madaniy qadriyatlarning bir qismini yo'q qilinishi, mehnat unumdorligining pasayishi bularning hammasi ehtiyojlarning soddalashuviga olib keldi. Eng avvalo, inson o'zini, oilasini, qishloq jamoasini, shaharni tirik qolishiga qaratilgan edi. Tirik qolish uchun esa jon-jahd bilan kurashish zarur edi. Xo'jalikning naturallashuvi ayirboshlash, bozor bilan bog'langan iqtisodiy ehtiyojlar doirasining qisqarishiga olib keldi. Birinchi o'rinda yerga mulkchilikni feodal rentasi bilan amalga oshirish chiqdi. Ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlar jamoa, sex, vassal qaramlikning tor doiralari bilan cheklanib qoldi. Ma'naviy ehtiyojlar esa diniy asketizm va aqidaparastlik bilan cheklanib, soddalashdi.

Lokal, milliy va kontinental bozorlarning shakllanishi va rivojlanishi, hunarmandchilik, manufaktura, XVIII asr oxirida mashinalashgan sanoatning tez rivojlanishi natural xo'jalikni yemirdi. Birinchi o'ringa iqtisodiy manfaatlar chiqdi. Burjua jamiyatning odami – bu homo economicus shakllandi.

Ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlar iqtisodiy manfaatlarga bo'ysundirilgan edi. Qiyinchilik bilan erishilgan siyosiy erkinliklar va fuqarolik tengliklari raqobat uchun teng shart-sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, merosga qoldirilgan yoki olingan mulkni himoya qilish kerak edi. Davlat apparati, sudlar, qonunchilik ham shu maqsadlarga xizmat qilar edi. Ma'naviy ehtiyojlar ham iqtisodiy manfaatlarga bo'ysundirilgan bo'lib, ba'zida uning doirasidan tashqariga chiqar edi. Farovonlikning o'sishi, faoliyat turlarining xilma-xilligi, xalqaro aloqalarning rivojlanishi, fan, madaniyat va san'atning rivojlanishi ehtiyojni kuchaytirdi.

Insoniyat qobiliyatlari rivojida uning bilim va ko'nikmalari yordami bilan amalga oshadigan siklik o'sish kuzatildi. Industriya va asosan industrial jamiyatda faoliyat turlarining ko'payishi va murakkablashuvi, ishlab chiqarish, boshqaruv, harbiy ishda fanning yutuqlarini keng qo'llanilishi xodimlardan yangi bilim-ko'nikma, maxsus ta'limni talab qiladi. Bu o'rta va maxsus ta'lim, kasbiy tayyorgarlik tizimining shakllanishiga

olib keldi. Bu masjid, cherkovlardagi maktablar, gimnaziya va litseylar, aholining ozchillik qismi uchun universitetlar, keyin injener va texnik xodimlar tayyorlaydigan turli xil texnikum va universitetlar edi. Manufaktura va korxonalarda ishlab chiqarish bilan bog'langan shogirdlik muassasasi saqlanib qoldi.

Tub burilishlar davrida ishlab chiqarish va hayot sharoitlari o'zgaranda, xodimlarning layoqatsizligi va kasbiy layoqatsizligi sezilarli o'sdi. Millionlab kishilarning ilgari olgan kasb malakalari eskirib qoldi. Odamlar mutaxassisliklarini o'zgartirishga majbur bo'ldilar. Bu ta'lim tizimining sifat jihatdan o'zgarishi o'z qobiliyat tafakkuri darajasi bilan yangi davr talablariga javob beradigan xodimlarning yangi avlodini kelishiga turki berdi. Jamiyatlarda ta'lim tizimi davriy ravishda isloh qilina boshlandi. XIX asrning 80-yillaridan boshlab G'arb mamlakatlarida ta'lim tizimi davlat qaramog'iga o'tdi.

2. Motivatsiya mexanizmi. Insonning biologik tur sifatida motivatsiya mexanizmi paydevorida tirik qolish va o'z avlodini davom ettirish, o'zi va oilasi uchun oziq-ovqat topish zaruriyati yotadi. Bu bir vaqtning o'zida biologik hamda iqtisodiy rag'batlantirish bo'lib, u tushkunlik vaziyatlarida birinchi o'ringa chiqadi, bosqichdan-bosqichga murakkablashadi, mahsulot ayirboshlash mehnat taqsimotining tez rivojlanishi bilan boyib boradi. Ishchi kuchi qiymatida uning takror ishlab chiqarishdagi ijtimoiy zaruriy xarajatlari paydo bo'ladi va tarixiy-axloqiy unsur – oilaning madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun xarajatlar asta-sekin oshib boradi.

Feodal kapitalistik jamiyatlarda mulk huquqi, iqtisodiy va noiqtisodiy majburlashga asoslanib, moddiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan, lekin ularga o'sib borayotgan talabni qo'yadigan odamlar soni o'sib bordi.

Bu yerda boshqa motivatsiya mexanizmi ishlab chiqarishda ishtirok etadigan xodimlarni yaratadigan mahsuloti hisobidan siyosiy va harbiy qudrat, boylik to'plashga intilish yotadi. Mehnatga iqtisodiy va noiqtisodiy majburlash turli davrlarda bir-birini to'ldirgan holda mavjud bo'ladi. Lekin ularning nisbati bir xil emas. Feodal jamiyati uchun iqtisodiy qaramlik bilan birga (yerga feodalning egaligi), dehqonning shaxsiy qaramligi ustuvor unsur bo'lib qolaverdi. Manufakturalar, xizmat ko'rsatish sohalari, aqliy mehnat sohalarida iqtisodiy majburlashning turli shakllari mavjud edi.

Ilk bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatda asta-sekin mehnatga iqtisodiy majburlashning ahamiyati oshdi. Hech vaqoga ega bolmagan ishchi o'zi va oilasining tirikchiligini o'tkazish uchun yollanib ishlashga majbur edi. Ilk kapital jamg'arishning dastlabki shakllari zo'rvonlikning turli ko'rinishlari bilan bog'liq edi. Qishloqda qaram mehnat yoki feodal qaramligining yanada yumshoq shakllari mavjud edi.

Industrial jamiyatda iqtisodiy majburiy mehnat asosiy va yetakchi bo'ldi, lekin majburiy mehnat hollari ham mavjud edi. Fuqarolar urushigacha AQShda qulchilik, Germaniyada fashizm konslagerlari, SSSR da kolxozchilarni majburan yerga biriktirib, 1953-yilgacha o'z xohishi bilan ishdan bo'shshga ta'qiq mavjud edi. Mustamlakalarda feodal va yarim feodal ekspluatatsiyaning shafqatsiz turli shakllari saqlanib qoldi. Industrial sivilizatsiyaning so'nish fazasida mehnatga majburlashning davlat byurokratik shakllari ayniqsa kuchaydi. Bu uning chuqur tushkunligining asosiy omillaridan biri edi.

Lekin motivatsiya mexanizmini faqat noiqtisodiy va iqtisodiy majburlashga taqash mumkin emas. Mehnat – bu bir vaqtning o'zida insonning qobiliyatlari va talantlarining o'zini ijodiy ifodalashi, insonning ijodiy kuchlarini yangidan yaratilishi, o'z rejalarini amalga oshirishdan zavq olish va uni insonga bag'ishlanishidir. Insonda ijodiy motivatsiya mexanizmi doimo mehnatni ulug'lab, qo'yilgan maqsadlarga olib boradigan, o'ziga tortadigan yo'lga tomon izlanish hamma vaqt ishtirok etdi. Albatta, qul va qaram dehqonda ijodiy mehnat minimal darajada, me'mor, haykaltarosh, olim, bastakor mehnatida maksimal darajada ishtirok etadi.

Barcha jahon dinlarida mehnatni ulug'lash, unga undash unsurlari mavjud. Mehnatga ijobiy rag'batlantirish asta-sekin o'sib bordi. Lekin tushkunlik davrlarida ular o'z mavqelarini yo'qotdilar.

Sharq dunyosida islom, budda, sintoizm, konfutsiylik hukmron bo'lgan mamlakatlarda motivatsiya mexanizmida insonning ehtiyoji, qobiliyatlari, uning bilim va ko'nikmalarining rivojlanishidagi o'z alohidaliklari mavjud. Bu yerda individual mayllar, qobiliyatlar, qiziqishlar, shaxsiy erkinliklar ikkinchi darajali o'rin tutadi. Birinchi o'rinda davlat, jamoa manfaatlar turadi. Oila kuchli mavqega ega. Bularning barchasi qariyb industrial davrga xos bo'lgan individual qobiliyatlar ochilishiga to'sqinlik qildi yoki ushlab turdi va ko'pgina mamlakatlarda ijtimoiy progressning taraqqiysiga to'sqinlik qilgan omillardan biri bo'ldi.

Tayanch iboralar: shimol, janub, turmush darajasi, inson ehtiyoji, shaxsiy erkinlik, huquq, oila mavqeyi, motivatsiya, iqtisodiy manfaat, majburiy mehnat, qulchilik, ijodiy mehnat, haykaltaroshlik, jamoa manfaati, sintoizm, konslager, industrial davr, ijtimoiy progress.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'rta asrlar, industriya arafasi va industrial jamiyatda aholi sonining dinamikasini an'analari qanday edi?

2. Feodal industrial sivilizatsiyalarning turli bosqichlarida insonning qobiliyati, ehtiyojlari va uning o'rni qanday o'zgardi?

3. Ikkinchi tarixiy supersiklning shakllanishi va rivojlanishining turli bosqichlarida insonni mehnatga undash motivatsiya mexanizmlarida qanday o'zgarishlar yuz berdi?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Ikkinchi tarixiy supersiklda aholi demografiyasidagi o'zgarishlar.
2. So'nggi uch sivilizatsiya davrida insonning jamiyatdagi mavqeyining o'zgarishi.
3. Industrial jamiyatda oila.
4. Sharq va g'arb dunyosida inson o'rning qiyosiy tavsifi.

3-MAVZU: FEODAL KAPITALISTIK SIVILIZATSIYALARNING IQTISODIYOTI

1. *Iqtisodiyot tuzulmasining dinamikasi.* 2. *Iqtisodiy ukladlarni o'rganish.* 3. *Bozor iqtisodiyoti hukmronligining o'rnatilishi.* 4. *Bozor boshqaruvi mexanizmining shakllanishi.*

Feodal kapitalistik sivilizatsiyalar jamiyat piramidasi uchunchi qavatida – iqtisodiyot tuzilmasi, mulkchilik munosabatlari, ayirboshlov va taqsimot, iqtisodiy boshqaruv mexanizmidagi sezilarli o'zgarishlar yuz berdi.

1. Iqtisodiyot tuzulmasining dinamikasi. Bir yarim ming yil ichida iqtisodiyot tuzilmasida qayta ishlab chiqarish sektorlari, shaharlararo komplekslarda, qayta ishlab chiqarishning pog'onaviy darajalari, yalpi ichki mahsulotlarning texnologik, iqtisodiy va qiymat tuzulmalarida o'zgarishlar yuz berdi.

Beshinchi jadvalda berilgan ma'lumotlar ekspert xususiyatiga ega bo'lib, bir qator muhim an'analar kelib chiqadi.

Beshinchi jadval. Feodal kapitalistik sivilizatsiyalar iqtisodiyoti dinamikasi (% yalpi ichki mahsulotga, baho)

5- jadval

Makromodellar bloki va ko'rsatkichlar	O'tish davri (VI asr)	O'rta sariq sivilizatsiyasi (XII asr)	Industriya arafasi sivilizatsiyasi (XVI asr)	Industrial sivilizatsiya		
				XIX asr o'rtalari	XX asrning 60-yillari	
					AQSH	SSSR
Takror ishlab chiqarish tuzilmasi						
Takror ishlab chiqaruvchi sektorlar:						
shaxsiy iste'mol	50	40	30	39	27	20
davlat iste'moli	12	13	15	15	16	24
oralik mahsulot	15	19	20	23	24	26
birlamchi mahsulot	15	15	13	12	8	13
intellektual mahsulot	3	5	7	8	10	8
bozor infratuzulmasi	5	8	10	12	15	9
Jami:	100	100	100	100	100	100

Sohaviy tuzilma						
Sohalararo komplekslar:						
agrosanoat	45	35	25	15	8	12
shaxsiy iste'mol mahsulotlarini ishlab	7	8	10	13	15	8
chiqarish	7	7	9	12	15	9
masinasozlik	6	7	8	10	9	11
yoqilg'i-energetika	5	6	7	8	8	9
konstruksiya mahsulotlari	10	11	11	11	10	12
qurilish	6	7	7	8	7	8
transport	7	10	12	9	11	17
harbiy-sanoat	-	-	1	3	4	3
ilmiy-texnik	4	5	5	6	6	7
ijtimoiy	3	4	5	5	7	4
tashqi iqtisodiy						
Jami:	100	100	100	100	100	100
Pog'onaviy tuzilma						
Takror ishlab chiqarish darajalari:						
uy xo'jaligi	60	45	30	20	8	15
yakka xo'jalik	30	40	45	55	65	50
hududiy	10	10	12	10	7	8
milliy	-	5	10	10	10	22
baynalminal	-	-	3	5	10	5
Jami:	100	100	100	100	100	100
Texnologik tuzilma						
Ishlab chiqarishning texnologik usullari:						
qoldiq (relikt)	60	20	10	5	-	5
o'rta asr	40	70	10	5	-	2
industrial arafasi	-	10	75	10	8	15
industrial	-	-	5	80	92	78
Jami:	100	100	100	100	100	100
Iqtisodiy tuzilma						
Mulkchilik shakllari:						
shaxsiy	25	25	25	20	13	20
mayda xususiy	35	30	25	20	12	5
katta xususiy	5	20	30	45	50	-
jamo'a, kollektiv	20	15	10	5	5	20
davlat	15	10	10	5	10	50
xalqaro	-	-	-	5	10	5
Qiymat tuzilmasi						
Qiymat unsurlari:						
moddiy sarflar	20	25	25	30	25	30
amortizatsiya	5	8	10	10	12	8
mehnat to'lovi	50	40	30	25	20	17
ijtimoiy iste'mol	5	7	10	10	13	12
jamg'arma	5	5	8	10	13	13
noishlab chiqarish iste'moli	15	15	17	15	18	20
Jami:	100	100	100	100	100	100

Takror ishlab chiqarish tuzilmasida shaxsiy iste'mol uchun belgilangan mahsulotning hissasi taxminan ikki marta pasayib ketgani belgilanadi. Bu asosan oraliq mahsulotning sezilarli o'sishi hisobi (texnik progress va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi bilan)ga bozor infratuzulmasi xizmatlari (bozorning rivojlanishi va muomala sohalarining kengayishi) va davlat iste'moli uchun mahsulot (iqtisodiyotning miliratizatsiyasi, byurokratik apparat va davlat mulkining o'sishi) hisobiga amalga oshirildi.

Fan, ma'daniyat va ta'limda mashg'ul bo'lganlarning soni bir necha marta oshishi natijasida intellektual mahsulotning hissasi ko'paydi. So'nggi industrial jamiyatning sotsialistik varianti kapitalizmga qaraganda, shaxsiy iste'mol sektor va ayniqsa, davlat iste'molini (haddan tashqari katta ulush – davlat apparati, mudofaaga juda katta xarajat) katta hajmida shaxsiy iste'mol sektorining qisqarishi, boshlang'ich mahsulot (mineral, qishloq xo'jaligi va o'rmon xomashyosi)ning ko'payishi yuz berdi.

Iqtisodiyotning sohaviy tuzilmasi o'zgardi. Agarda o'rta asrlarga o'tish davrida qishloq xo'jaligi va uning mahsulotini qayta ishlaydigan sohalar yetakchi bo'lsa, (antik sivilizatsiyaga qaraganda, katta miqdorda), XX asr o'rtalarida agrar sohaning ulushi to'rt marta pasaydi. Bu ishchilarni katta miqdorda mehnat qurollari (uning hissasi ikki marta oshdi), xalq iste'moli sanoat mahsulotlari va xizmatlari, ashyolar (metallar, kimyo mahsulotlari), harbiy aslaha, ilmiy texnik, ijtimoiy, tashqi iqtisodiy funksional komplekslar.

SSSR iqtisodiy tuzulmasida harbiy-sanoat, yoqilg'i-xomashyo komplekslari sanoat mahsulotlari va shaxsiy xizmatlarga qaraganda ustuvor bo'ldi. Agrosanoat sektorining hissasi yuqori bo'lsada, uning samarasi past edi.

Iqtisodiyotning pog'onaviy tuzilmasiga o'tish davriga qaraganda, natural uy-xo'jaligining ulushi ko'p marta kamaydi. Mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaradigan mayda va yirik korxonalarda yakka qayta ishlab chiqarish taxminan ikki marta o'sdi.

Hududiy takror ishlab chiqarish ulushi o'sha darajada qoldi. O'rta asrlar sivilizatsiyasida milliy takror ishlab chiqarishning ulushi keskin oshdi. Industrial davr oxiridan internatsional ishlab chiqarish o'sdi.

Sotsialistik variant milliy (asosan, harbiy sanoat kompleksi va transport) ishlab chiqarishning katta salmog'i bilan ajralib, yakka va internatsional darajada egallagan o'rnidan past edi.

Iqtisodiyotning texnologik tuzilmasi dinamikasi ishlab chiqarish va ukladlarning texnologik ukladlari almashinuvini aks ettiradi. Ular o'tish davrida oldingi sivilizatsiyalardan meros qilingan edi. Har bir navbatdagi sivilizatsiyada o'tmish qoldiqlarini saqlab qolgan holda va ishlab chiqarishni keyingi usullarining kurtaklarida paydo bo'lgan o'zining ishlab chiqarish texnologik usuli yetakchi edi. Hukmron texnologik ukladlar davriy almashdi.

SSSRda XX asr o'rtalarida, ayniqsa, shaxsiy yordamchi uy xo'jaligi, agrosanoat, xizmatlarni ishlab chiqarish, ishlab chiqarishning industriyagacha bo'lgan usullarning salmog'i katta edi. Industrial texnologiyalar harbiy sanoat, yoqilg'-xomashyo va transport majmualarini qamrab olgan edi.

Iqtisodiy tuzilma mulkchilikning turli shakllarining nisbati, bozor munosabatlari sohasi tubdan o'zgardi. Feodalizmga o'tish davrida jamoa va kichik xususiy mulk ko'proq bo'lsa, keyin yirik xususiy mulk (aksiонер, monopolistik shunga kiradi) XX asr o'rtalarida taxminan o'n marta o'sdi. Davlat mulki ulushi pasaydi. Davlat monopolistik kapitalizmi davrida u yana o'sdi. Sotsialistik variantda davlat mulki yetakchi bo'ldi. Mayda xususiy mulk ulushi kamaydi, lekin ular qishloq xo'jaligi (oilaviy fermalar) va xizmat sohasida o'z mavqeini saqlab qoldi. Transmilliy kompaniyalar, kapital chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xalqaro mulkning paydo bo'lishi va uning salmog'i o'sdi.

Agar o'rta asrlar sivilizatsiyasiga o'tish davrida natural xo'jalik yetakchi bo'lsa (bozor munosabatlarida antik davrga qaraganda orqaga qaytdi), keyin bozor chegaralari tez kengaydi. Industrial sivilizatsiyada esa ayriboshlov shaklining hukmron natural munosabatlarni minimal darajaga keltirdi. Sotsialistik iqtisodiyotda bozor munosabatlari rejali-byurokratik apparatni aralashuvi bilan bozor infratuzilmasini minimumga keltirdi.

Qiymat tuzulmasi dinamikasi amortizatsiya va moddiy sarflar hamda ijtimoiy iste'mol kanallari (sog'liqni saqlash, bepul ta'lim, nafaqa va h.k.) orqali qayta taqsimlanadigan zaruriy mahsulot qismining o'sishi bilan tavsiflanadi.

Sotsialistik variant mahsulotning katta xomashyo hajmi va mehnat haqining kamayishi bilan farq qiladi.

2. Iqtisodiy ukladlarni o'rganish. Iqtisodiyot hamma vaqt – ilk sinfiy sivilizatsiyaga o'tish davridan boshlab ko'p ukladli bo'lib qoldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi. Biroq mulkchilikning

turli shakllariga asoslangan va taqsimot hamda ayriboshlashning tegishli shakllariga asoslangan iqtisodiy ukladlarning nisbati va tarkibi o'zgaradi. Shuning uchun ishlab chiqarishning bir-birini almashtiradigan iqtisodiy usullarini har birining tuzulmasi bo'lmay, o'ziga xos bo'ladi. Lokal sivilizatsiyalar rivojlanishining o'xshash bosqichlarida ham u farq qiladi. Shu bilan birga, bu sohada yetakchi an'analarni ajratish mumkin. Uning asosida iqtisodiy munosabatlarning genetikasi va siklik dinamikasi yotadi.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish usuli (ijtimoiy-iqtisodiy tomondan) sivilizatsiyadan sivilizatsiyaga o'zgaradi. Xo'jalikni tovarligini o'sishi oilaning ehtiyojlarini yanada katta ulushlarini tovar va pullik xizmatlarni sotib olish hisobidan qoplanar edi. Lekin shaxsiy xizmatlarning sezilarli ulushi hech qanday tovar xususiyatiga ega emas edi. Oila dastlab, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish asosida, keyinchalik esa o'z ehtiyojlarini qondirish uchun tobora ko'proq (ayniqsa, shaharlarda) bozorga murojaat qila boshladi.

Mehnatda mayda xususiy mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish o'rta asrlar Yevropasi va Sharq mamlakatlariga yetakchi o'ringa ega bo'lib, qishloqni qamrab olgan edi. Bu yerda esa feodal munosabatlar dehqon oilalarining natural xo'jaligi bilan birga hukmron edi. O'rta asr shaharlarida mahsulotlar asosiy qismi sexlarga birlashgan hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilib, mayda savdogarlar tomonidan sotilar edi. To'lov asosida xizmatlar asta-sekin rivojlandi. Kapitalistik ukladning shakllanishi, rivojlanishi bilan manufakturalar, fabrika-zavodlar iqtisodiyotning mustaqil yo'lidan mayda tovar ukladini chetga surib qo'ydi.

Industrial jamiyat arafasida mehnatni uyda tashkil qilish keng tarqalib, savdo kapitaliga qishloqdagi mo'l-ko'l arzon ishchi kuchidan mahsulot olishga imkon berdi. Qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lganlar sonining kamayishi xizmat ko'rsatish, sanoat sohasining yuqori darajada rivojlanishiga shart-sharoit yaratdi. AQShda xizmat ko'rsatish sohasida XX asr o'rtalarida aholining yarmi band edi. Xizmat ko'rsatish sohasida va qishloq xo'jaligida mayda tovar ukladi uchun tegishli joy qoldi.

Sotsialistik iqtisodda mayda tovar ukladi, ayniqsa, jamoalashtirish orqali zo'ravonlik bilan to'la siqib chiqarildi.

Jamoa Yevropa va Sharq mamlakatlarida feodal jamiyatning tayanchlaridan biri edi. Ular o'zini tashkillashtiradigan, o'zaro yordam qiladigan

qishloq jamoalari feodal rentasini amalga oshirishning kafolatchisi edilar. Bozor munosabatlari jamoani yemirdi. Lekin Sharq mamlakatlarida u hozirgacha saqlanib qoldi. Jamoa yer egaligi, bir tekisda yerning taqsimlanishi hamda yerning davlat mulki bo'lishi dehqonchilikda progressga to'sqinlik qildi.

Quldorlik ukladlari o'rta asrlar va industriya arafasida qoldiq (relikt) sifatida ko'proq Sharq mamlakatlarida saqlanib qoldi. Amerikaning ochilishi va mustamlaka qilinishi bilan kutilmaganda takror tug'ildi. Qulchilik ommaviy tus oldi. Shimoliy Amerikada qulchilik XIX asrning 60-yillarida industrial sivilizatsiyaning gullab-yashnagan davrida bekor qilindi.

Feodal ukladlari yirik yer egalari va qaram mayda yer egalari ko'rinishida so'nggi quldorlik jamiyati bag'rida vujudga keldi. Xitoyda u III-IV asrlarda yetakchi o'rinni egalladi. Feodal munosabatlar O'rta Osiyoda V asrdan, G'arbiy Yevropada VI-VII asrdan boshlab hukmron bo'ldi. Vizantiyada IX-XII asrlarda feodal munosabatlar to'la o'zgardi.

O'rta asrlar iqtisodiyotida erkin shaharlar sezilarli o'rin egalladi. Ular o'ziga xos ukladning tashuvchilari edi, qaysiki, uni aralash feodal kapitalistik deb aytish mumkin. Bu yerda feodal zodagonlar, cherkov, davlat hokimiyatining ta'siri kuchli edi. Shu bilan bir vaqtda mayda hunarmandlar, savdogarlar ko'pchilikni tashkil qilardi.

Iqtisodiy kuch yirik savdogarlar, sexlarning boshliqlari, bankirlar qo'lida edi. Universitetlar, hamda yozuvchi, rassom, artistlar tomonidan erksevar ruh qo'llab-quvvatlanardi. Kapitalistik uklad savdo, bankning ilk shakllarida antik sivilizatsiya bag'rida tug'ildi, lekin sezilarli rivojlanmadi. O'rta asrlar sivilizatsiyasi oxirida bu unsurlar erkin shaharlarda qayta tug'ildi va mustahkamlandi. Industriya arafasi sivilizatsiyasida esa yetarlicha keng rivojlandi. O'sha davrning eng yirik voqeasi dastlab manufaktura asosida sanoat kapitali tug'ildi. Shu bilan kapitalning o'z-o'zidan o'sib boradigan qiymat sifatida kapitalni qayta ishlab chiqarish shartsharoitlari yaratildi. Bu jarayonning cho'qqisiga XVI asrda erishildi.

Kapitalistik ukladning feodalizm ustidan hal qiluvchi g'alabasiga Yevropaning ilg'or mamlakatlarida XIX asr boshlarida sanoat inqiloblari va qator burjua inqiloblari natijasida erishildi. Bu ishlab chiqarishning kapitalistik usulini tonggi, avjiga chiqqan asri edi. Kapitalizm Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida va Shimoliy Amerikada qaror topdi. U Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasining ko'p mamlakatlarini yarim mustamlaka, mustamlakalar sifatida o'z ta'siri ostiga oldi.

Kapitalistik ukld jamg'arish va mashina texnologiyalarini o'zlashtirish yo'lida barcha to'siqlarni bosib o'tib, tadbirkorlik va raqobatni kuchli quvvatlariga tayanib, kapitalning yuqori harakatchanligiga erishdi. Kapitalistik ukld yangi soha va hududlarga kirib bordi, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari ta'minlandi. Nihoyatda rivojlangan mamlakatlarda turmush darajasi sezilarli ko'tarilishga olib keldi.

Kapitalistik ukld o'z taraqqiyotini bir necha bosqich, shakl va mexanizmlarni ixcham o'zgartirgan holda bosib o'tdi. Kapital dastlab savdo va sudxo'rlik kapitali sohasida tug'ilib va ko'pincha u orqali dastlabki jamg'arish jarayoni amalga oshirildi. Jamg'arilgan dastlabki kapital ishlab chiqarishga keng tadbiiq qilindi. Bu jarayon ishlab chiqarishning iqtisodiy shart-sharoitlarini tubdan o'zgartirdi. Dastlab individual xususiy kapital yetakchi edi, qaysiki, kapital-mulk va kapital-funksiya yaxlit birlikda bo'lib, mulkdorning o'zi faol tadbirkor edi. Keyin yirik investitsiyalarga ehtiyoj yakka kapitalistlarning imkoniyati doirasidan chiqdi. Aksioner kapital vaqti keldi. Kapital-mulk va kapital-funksiya bo'lindi. Ishlab chiqarishni yollanma menejer boshqarib, u aksionerga daromad keltira boshladi.

Keyingi bosqich monopolistik kapitalizm bo'ldi. U ulkan kapitallarni yangi kapital qo'yiladigan sohalarga to'plab, ularga kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitlarini yaratdi va monopol baho yordami bilan monopol yuqori foydani ta'minladi. Qator yetakchi sohalarda qo'shimcha qiymatni qayta taqsimlash hisobidan monopol foyda olish iqtisodiy zaruriyat edi – busiz yirik ilmiy-texnik va investitsiya loyihalarni amalga oshirib bo'lmas, kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirib bo'lmas edi. Lekin monopoliyaning salbiy tomonlari tez ko'rindi: ishlab chiqarishning samaradorligi past bo'lsada, monopoliyalar yuqori foyda oldi. Monopoliyalar ishlab chiqarish va mulk konsentratsiyasining oliy va eng so'nggi shakli edi. Ular o'zlarini tugallab, ixcham va samarali kichik biznesga yo'l ochdi. Kichik va o'rta biznes XX asrning so'nggi choragida qayta uyg'ona boshladi.

Iqtisodiyotda davlat sektori uch sivilizatsiya davrida sezilarli o'rinni egalladi. Odatda u mustaqil ukld sifatida chiqmay, ishlab chiqarishning yetakchi usuliga xizmat qildi. Davlat mulki Sharq mamlakatlarida davlat-saroy xarajatlarini qoplash, feodal munosabatlarni qo'llab-quvvatlashda muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Kapitalizm davrida davlat sektorining ahamiyati pasaydi, qaysiki, klassik burjua munosabatlariga davlatga ichki tartibni saqlab turuvchi «tungi qorovul» vazifasi, hukmron sinfning tashqi manfaatlarini amalga oshirish funksiyasi yuklandi. Ammo I jahon urushi, 1929-1933-yillardagi jahon tushkunligi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash qiyinchiliklari davlat sektorining keskin o'sishi, davlat monopolistik kapitalizmining shakllanishiga olib keldi. U davlat hokimiyatini takror ishlab chiqarish jarayonlariga aralashuvini kuchaytirdi, erkin bozor raqobatini chekladi va kapitalizmining so'nishi belgilaridan biri bo'ldi.

XX asrda iqtisodiy hayotning sezilarli voqealigidan biri sotsialistik uklad edi. Bu uklad SSSR va unga ergashgan boshqa mamlakatlarda qaror topdi. Sotsialistik uklad haqiqiy umumxalq xo'jalikning rejali yuritilishi tushkunliklarsiz o'sishiga asoslangan deb kapitalistik ukladga qarama-qarshi qo'yildi.

Lekin XX asrning so'nggi o'n yilliklari tarixiy tajribasi sotsialistik ukladning mazmuni, afzalligi va istiqbollariga qarashni o'zgartirdi. U davlat monopolistik kapitalizmining antagonizmi emas, balki boshqacha ko'rinishi edi. Davlat sotsialistik mulkchiligi bevosita ishlab chiqaruvchilarni ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish, uning natijalari va qo'shimcha mahsulotdan bahramand bo'lishdan mahrum qildi. Rejali boshqaruv iqtisodiy jarayonlarga zo'ravonlik bilan kirish, voluntarizm va avanturizm o'z ifodasini topdi. Bularning oqibatida SSSRda jamoalashtirish, Xitoyda «katta sakrashlar» natijasida ishlab chiqarish kuchlarining qisman yemirilishiga olib keldi.

Sotsialistik eksperiment kimnidir xatosi yoki yovuz niyati oqibati emas edi. Agar XX asrda uning ob'yektiv asoslari, ommaviy va intellektual qo'llab-quvvatlash bo'lmasa, u deyarli bir asrga yaqin mavjud bo'lmas edi. U o'zining ijobiy rolini ham o'ynadi. Keng tarqalgan kommunistik aqidalarning ba'zilarini xatoligini ko'rsatib qolmay, balki u taklif qilgan va qo'llagan qator ijtimoiy-iqtisodiy boshqarish metodlari Yaponiya, Shvetsiya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda rahbarlik sifatida qabul qilinib, o'zini oqladi.

3. Bozor iqtisodiyoti hukmronligining o'rnatilishi. O'tish davrida, feodalizmning genezisi davrida bozor antik sivilizatsiya davrida erishilgan darajaga nisbatan orqaga uloqtirib tashlandi. Sharq dunyosiga qaraganda, Yevropada shaharlar, hunar-savdo tushkunligi yaqqol ko'rindi. O'rta asr sivilizatsiyasiga o'tish davrida bozor o'z mavqegini to'la tikladi.

Uning geografik chegaralari kengayib, butun Yevropa, Osiyoning katta qismi va Shimoliy Afrikani qamrab oldi. Yangi savdo markazlari – erkin shaharlar, ularning ittifoqlari paydo bo‘ldi. Savdo shakllari rivojlandi. Sarroflik cheklari, veksellar paydo bo‘ldi. Eski savdo aloqalari tiklandi va yangi savdo aloqalari yo‘lga qo‘yildi.

Bu yutuqlar industriya arafasida yanada rivojlantirildi. Mahsulot birjalari, savdo kompaniyalari va banklar yuzaga keldi. Xalqaro savdo ulkan boyliklarni oqib kelishiga sabab bo‘ldi. Bu XVI asrda «baholar inqilobi»ga olib keldi. Savdoda to‘plangan dastlabki jamg‘arma, unga ishlab chiqarishga kirish, kapitalistik manufakturalarning yuzaga kelishiga yo‘l ochdi.

Bozorning haqiqiy tantanasi industriya davrida yuz berdi. Bu davrda kapital ishlab chiqarish sohasi, ayniqsa, sanoatni to‘la hajmda qamrab oldi. Uni ilmiy texnika asosida, jadal rivojlanayotgan bozor talablariga binoan o‘zgartirdi. Sanoat kapitali yetakchi o‘rinni egallab, savdo va bank kapitalini siqib chiqardi. XIX asr oxirida ular bilan qo‘shilib, moliya kapitaliga aylandi. Bozor munosabatlari butun jamiyatni qamrab oldi, faqat oila xo‘jaligiga ozgina joy qoldirdi. Feodal qaramligi va o‘z xususiy ishlab chiqarish vositalaridan ozod bo‘lgan insonning ish kuchi bosh tovar bo‘ldi. Bozor tor lokal doiradan chiqdi. Dastlab milliy, keyin jahon xo‘jaligining buyuk integratoriga aylandi.

Bozor munosabatlarining ikkinchi supersiklining tugallovchi bosqichi, industrial sivilizatsiyaning so‘nish davri XX asrga kirdi. Mustaqil mahsulot ishlab chiqaruvchilarning erkin raqobati, monopolistik, keyin davlat monopolistik boshqaruvi bilan siqib chiqarildi. Sotsialistik iqtisodiyotda esa bozorni inkor qilish, tovar-pul shakllari bilan yarim natural xo‘jalikka o‘tishga urinish bo‘ldi. Bu bozor tushkunligi, xo‘jalikning barqarorligini yemiradigan inflyatsiya to‘lqinlari, tovar zahiralarning o‘sishi, takror ishlab chiqarishning samaradorligini pasayishiga olib keldi.

Bozorning boshlang‘ich shakli mahsulot ayirboshlash, ularning oldi-sottisi edi. Dastlab u oddiy ko‘rinishda bo‘lib, dehqon yoki hunarmand o‘zi tayyorlagan mahsulotni uyida sotdi. Keyinchalik ishlab chiqaruvchi bilan iste‘molchi o‘rtasida savdogar paydo bo‘ldi. U mahsulotni sotib olib, uning yo‘l xarajati, qo‘shimcha chiqimlarini o‘z zimmasiga olib bozorda sotdi.

Xaridorlarning qulayligi uchun oldi-sottining muntazam natijalari sifatida do‘konlar ochildi. Ular turli mahsulotlarni sotishga ixtisoslashtirildi.

Sharq mamlakatlarida IX-X asrdan boshlab ilk ixtisoslashgan bozorlar paydo bo'ldi. X asrda yashagan tarixchi A.Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida va arab geografi Maqduziy ana shunday bozorlar to'g'risida batafsil ma'lumot beradilar. Buxoro, Samarqand, Marv, Bog'dod bozorlari IX asrdan mashhur bo'lgan.

Yevropada do'konlar, ko'plab bozorlarning vujudga kelishi XVI asrdan boshlandi. Londonda 1663-yilda 50-60 do'kon bo'lsa, XVII asr oxirida 300-400 tani tashkil qildi. O'rta asrlarda yarmarkalar paydo bo'ldi. Ularda minglab savdogar va xaridorlar to'planib, shartnomalar tuzilar, qarzlari (kredit) berilar edi. Katta va kichik shaharlarda yuzlab yarmarkalar belgilangan vaqtda o'tkazilar edi. Ularning ko'pchiligi ixtisoslashgan edi.

Savdo rivojining eng oliy shakli birjalar bo'ldi, qaysiki, mahsulotlar savdo joyiga olib kelinmay, birjada bir xil turdagi tovarlarning yirik partiyalari bilan ulgurji savdo qilinardi. Birjalar XV asr boshlarida paydo bo'ldi. Birjalarda savdogarlar, ko'proq ularning vositachilari – brokerlar tovar va veksel operatsiyalari, sug'urta shartnomalarini amalga oshirardi. Birinchi birja 1409-yilda – Bryuggeda, 1460-yilda – Antverpenda, 1462-yilda – Lionda, 1530-yilda – Amsterdamda, 1554-yilda – Londonda, 1558-yilda – Gamburgda, 1563-yilda – Parijda tashkil etildi.

Bu «toza» savdo bo'lib, mavjud tovarlardan ajralgan narxlarning ko'tarilishi va pasayishi chayqovchilik o'yini edi. Lekin aynan shu yerda jahon bozori uchun etalon bo'lgan narxlar aniqlanardi. Ikki asosiy tovar – mehnat (ishchi kuchi) va yer uchun savdoning o'ziga xos sharti va uni boshqarish mavjud edi. Savdo foydasini olish uchun savdo olib borilardi edi. Uning o'rtacha foydasi belgilanib, unga talab tuzilishi shakllantirilardi, u orqali ishlab chiqarish tuzulmasi shakllantirilardi va talabning o'zgarishiga tez javob qaytardi edi.

Ana shu asosda savdo yordamida bozor iqtisodiyotining o'z-o'zini boshqaruvchi amalga oshirildi. Davriy ravishda tovarlarning ortiqcha ishlab chiqarilishi iqtisodiy tushkunliklar, savdo urushlariga olib keldi. Tizimli iqtisodiy tushkunliklar, tovarlarni muntazam yo'q qilinishi bu tabiiy jarayon bo'lib qolmoqda.

Yuz millionlab xaridorlar ehtiyoji uchun millionlab tovar ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqargan tovarlarini mukammal aylanishi metodini hozirgacha o'ylab chiqqanlari yo'q va yaqin kelajakda ham o'ylamasligi mumkin.

Tovar va pul sivilizatsiyadan sivilizatsiyaga yanada mukammal shaklga kirib, tovar bozori bilan pul bozori evolyutsiyasi yuz berdi. Feodalizm genezisi va uning ilk bosqichlarida tovar muomalasining turli xil pul birliklari amalga oshirildi. Pulning asosida qimmatbaho metallar yotadi. Pul muomala, to'lov, jamg'arish, jahon puli funksiyalarini hozirgacha bajarib keladi. Ichki va tashqi savdning kengayishi sarroflik do'konlarining ko'payishi va uning asosida banklarning paydo bo'lishiga olib keldi. Amerikadan Yevropaga qimmatbaho metallarning oqib kelishi pul tizimlari uchun yo'qotishlar, pul metallining qadrsizlanishi, narxlarining o'sishiga olib keldi.

Muntazam ravishda davlat boshqaruvi, urushlar olib borish uchun pul mablag'larini taqchilligi davlat hokimiyatini pulni soxtalashtirish, qog'oz pullarni chiqarishga olib keldi.

Oltinni chetga chiqishiga yo'l qo'ymagan merkantilizm siyosati natija bermadi. Davlat pul muomalasida qonunlar bilan shartlangan me'yordan tashqari qog'oz pullarni chiqara boshladi va bu bilan inflyatsiya mexanizmini qo'yib yubordi. Pul emissiyasi va pul muomalasi ustidan nazorat asta-sekin davlat banklariga o'tdi. Ilk banklar XV asrda (Barselona – 1401-yilda; Genuyada – 1407-yilda; Amsterdamda – 1609-yilda; Venetsiyada – 1619-yil; Angliyada – 1694-yilda) tashkil topdi. Dastlab ular faqat depozit va hisobdan pul ko'chirish bilan shug'ullandi.

Veksel yaratildi, keyin aksiya, obligatsiyalar paydo bo'ldi. Bozorning turli ko'rinishi – qimmatli qog'ozlar bozori yuzaga keldi va u bilan banklar, birjalar shug'ullandi. Fond birjasi (dastlab, Amsterdamda) tashkil topdi. Fond birjalarining haqiqiy faoliyati qimmatbaho qog'oz chiqaradigan aksionerlik jamiyatlari shakllanganidan so'ng XIX asrda keng tus oldi. London, Nyu-York, Tokio, Gongkong hozirgi asosiy fond birjalari shu tariqa shakllandi. Kredit (xususiy va davlat)ning, banklar tizimining rivojlanishi mantiqan uning bo'linishiga olib keldi. Pul, kredit, fond birjalari bilan tovar bozori to'ldi. Ikkita o'ziga xos bozor: mehnat (ishchi kuchi) bozori va tabiiy resurslar bozori, aniqrog'i ularga mulkchilik ipoteka banklari yordami bilan sotildi. Bu bozorlarning o'zaro harakati zamonaviy jamiyatning murakkab qarama-qarshi dinamik iqtisodiy to'qimasini shakllantirdi.

4. Bozor boshqaruvi mexanizmining shakllanishi. Bozor asosan o'zini-o'zi boshqarish, davriy yuz beradigan tushkunliklarni bartaraf qilish, muntazam buziladigan proporsiyalarni o'zini qayta tiklashga qaratilgan. Oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan

muntazam o'sib boradigan iqtisodiy genotipni saqlash va davom ettirish bozorning qimmatini hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotining bosh regulyatori bo'lib baho xizmat qiladi. U bir necha funksiyalarni bajaradi. Eng avvalo, mikro darajada (alohida mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun), shuningdek, hududlar, milliy xo'jaliklar, xalqaro ayirboshlash darajasida tovar ishlab chiqarishning samaradorligini yalpi o'lchovchisi funksiyasini bajaradi. Ana shu asosda bahoni rag'batlantiruvchi funktsiya qurilgan. U arzon va sifatli mahsulot ishlab chiqaruvchilarga yuqori foyda va bozorda o'z ulushini ko'paytirishga imkoniyat beradi. Baho – sotuvchi va xaridorlar o'rtasidagi murosaga kelish mevasi, xaridorlar uchun iqtisodiy musobaqada eng kuchlilarini sun'iy tanlab olishning qudratli qurolidir. Baho kapitalni jamg'arish, takror ishlab chiqarishni ta'minlash, innovatsiyalarni amalga oshirish va iqtisodiyot tuzilmasida progressiv siljishlarga yordam berdi.

Bahoning bu funktsiyasi so'nggi bir yarim ming yillikda bozorning turli bosqichlarida har xil amalga oshdi. Qachonlardir yagona Rim imperiyasi chegaralarida rivojlangan bozorning yopiq, kam rivojlangan ko'pgina bozorlarga bo'linib ketishi turli lokal va hududiy bozorlarda bir xil tovarlarga tartibsiz belgilangan har xil baholarga olib keldi. Tasodifiy omillar baholar dinamikasi, nisbati va darajalariga ta'sir qildi. Vizantiya, O'rta Osiyo, Xitoy, Hindistonda baholarning shakllanish mexanizmining eski bosqichida yuzaga kelgan ko'rinishlari saqlanib qoldi va rivojlandi. Ayirboshlashning ko'payishi, lokal va hududiy bozorlarning chegaralarini kengayishi, keng hajmlarda qiymat va bahoning o'rtacha bo'lishi, eng avvalo, yirik shaharlar, savdo-hunarmandchilik markazlari, shakllanayotgan feodal davlatlarda yuz berdi. Bu yerda turli xil mahsulotlarga aniq tebranadigan bo'lsada, baholar darajasi shakllandi. O'rta asr shaharlari, ularning bozorlari, do'konlar, keyin yarmarkalar bahoning o'z-o'zini boshqarish markazlari bo'lib xizmat qildi.

Baholarning o'z-o'zini boshqarish tartibsiz, davlatning zaif ta'siri ostida, lekin tabiiy-geografik omil, tabiiy monopoliyalarning sezilarli ta'siri ostida bordi. Narxlar shahar uchun normal bo'lgan chiqimlarni qopladi. Shu bilan birga, tovarning turli guruhlari, savdo markazlari, tovar ishlab chiqaruvchilar uchun sarf-chiqimlarni qoplash, zaruriy xomashyo va soliqlar, tovarlarning vositasi pul mablag'larni topish bo'ldi. Savdogarlar foyda olish maqsadida tovarlarni uzoq shahar va hududlarga hayotini xavf ostiga qo'yib, savdo ishlarini amalga oshirdilar va iqtisodiyotini tik-

ladilar. Turli mamlakatlar hududlarida narxlar darajasi, savdo foydasining har xilligi, tovarlarning harakatlanishi, uning sifatining yaxshilanishi va chiqimlarning kamayishiga imkoniyat yaratdi.

Keyingi bosqich erkin raqobat davrida qiymat va baholarning shakllanishini hududiy chegaralari ancha kengaydi. Jahon savdosining markazlari (Venetsiya, Genuya, Bryugge, Antverpen, Lion, London, Parij, Gamburg, Leypsig, Moskva, Buxoro, Samarqand va boshqa Sharq shaharlari)da tovar birjalarida asosiy tovarlarga narxlar aniqlandi. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Amerika, Hindiston, Janubi-sharqiy Osiyo, Afrikaning qator mamlakatlarida baholarning tenglashuvi jarayoni bordi.

Dastlab hududlar, mamlakatlar yoki jahon bozori miqyosida tovar guruhlarini takror ishlab chiqarish shart-sharoitlarini aks ettiradigan qiymat tipidagi baholar ustivor bo'ldi. Lekin kapitalning sanoatni asosiy sohalarida qaror topishi, uning yanada yuqori foyda normasi uchun sohadan-sohaga erkin qo'yilishi asta-sekin ishlab chiqarish bahosining shakllanishiga olib keldi. Bu turli sohalar bo'yicha kapitalni qo'llash kengliklarida qiymatning o'rtacha darajasini shakllantirdi.

Davlat hokimiyati qudratli monopoliyalarga ichki va tashqi bozorda raqobat kurashida yordam berdi. Fermerlar, kam ta'minlanganlar qatlamlariga ijtimoiy yordam ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatdi va foydali iqtisodiy tartiblarning umrini uzaytirishga imkoniyat yaratdi.

Davlat monopolistik baholarni shakllantirish va metodik inflyatsiyani nazariy asoslashni XX asrda mashhur ingliz iqtisodchisi lord Jorj Meynard Keyns berdi. U iqtisodiy tushkunliklar oqibatlarini yumshatish va ogohlantirishning quroli deb taqchil moliyalashtirish (o'sib borayotgan soliqlar va byudjet taqchilligi hisobidan), ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun sinayotgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni e'lon qildi. U narxlarning o'sishi ish haqini bevosita pasaytirishdan ko'ra, ishchilardan daromadni bir qismini tortib olishning yaxshi metodi deb ko'rsatdi.

Davlat monopolistik bahoni shakllantirishda baholarni qiymatdan ajratdi. Bu iqtisodiyot tuzilmasini soxtalashtirishning kuchli omiliga aylandi. Makroiqtisodiy tuzilmada va mahsulotlar turidagi siljishlar, turli xil tovar va xizmatlar samaradorligi innovatsiyalar loyiha yechimlarini haqiqiy qiymatini aniqlash amalda mumkin emas edi. Bu kvazi bozor industrial jamiyatning iqtisodiy tizimini keksayishining bir ko'rinishi edi.

Bunday iqtisodiy tartib halokatga mahkum edi. XX asrning so'nggi choragida raqobatli bozor iqtisodiyotining qayta tug'ilish belgilari ko'rindi.

Bozor jarayonlariga davlat aralashuvining boshqa ko'rinishi rejali bahoni shakllantirish edi. Sovet davlatining baholarni shakllanish jarayoniga aralashuvi 1918-yilda e'lon qilindi. Xalq xo'jaligi Oliy kengashining Baholar qo'mitasi tuzildi. Bu urushda vayron bo'lgan xalq xo'jaligining yemirilishi, narx-navoning jadal o'sishini to'xtatishga urinish edi. Harbiy kommunizm yillarida davlat boshqarmalari tomonidan sanoat mahsulotlari va dehqon xo'jaliklari mahsulotlarining anchagina qismini tortib olinishi va qayta taqsimlanishi natijasida baholarni bunday boshqaruv o'z ahamiyatini yo'qotdi. Chayqov bozorida inflyatsiya jarayonlari kuchaydi. Lekin yangi iqtisodiy siyosat yillarida baholarni davlat tomonidan boshqaruv yana yo'lga qo'yildi. Biroq u bozor munosabatlariga moslashtirildi. Bozorni buzishga qaratilgan iqtisodiy jarayonlar ustidan yoppasiga zo'ravonlik, partiya-davlat apparatining bozor mexanizmi va o'zgarishlarga aralashuvi bozor munosabatlarining buzilishiga olib keldi.

Ishchi kuchi, tabiiy resurslar tovar almashuvi sohasidan chiqarildi deb e'lon qilindi. Amalda bu ishchi kuchini qayta ishlab chiqarishning qiymatini aks ettirmaydigan ish haqining o'ta past darajasini belgilash, ishchi, xizmatchi, kolxozchilarning sezilarli qismi uchun kolxozlarda ishlab berishning rentasini o'ziga xos shakllari, ularni takror ishlab chiqarish va himoya qilish sarf-xarajatlarini qoplamasdan tabiiy resurslardan isrofgarchilik bilan foydalanishga olib keldi. Ichki narxlar jahon narxlaridan ajratib qo'yildi. Bu jahon bozorlarining progressiv an'analari ta'sirini amalda yo'q qildi.

Albatta, rejali baholarni shakllantirish tushkunlik vaziyatlari (misol uchun, urushlar davrida, 1929-1933-yillarda, 70-yillardagi jahon tushkunligi davri)da ba'zi ijobiy xususiyatlarga ega edi. U narxlarning keskin o'sishini ushlab turish, aholining katta qismini kartochka tizimi vaqtida mo'tadil narxlarda ta'minotini tashkil qilishga yordam berdi. Bu narxlarning qiymatdan haddan tashqari uzoqlashib ketishini yo'qotish uchun narxlarni islohatlari davriy o'tkazilib turdi.

Davlat monopolistik tizimi va rejali bahoni tashkillashtirish o'z umrini o'tab bo'ldi. Lekin bu baholarni davlat boshqaruvidan butunlay voz kechishi emas. U yumshoqroq shaklda amalga oshirildi va sog'lom bozor iqtisodiyotiga to'sqinlik qilishi mumkin emas, bir vaqtning o'zida uni monopolistik aralashuvdan asrashi lozim.

Bozorning o'z-o'zini boshqaruvi bilan bir qatorda, bozorning davlat boshqaruvini ixcham mexanizmi ishlab chiqildi, qaysiki, u sivilizatsiyalar almashinuvining turli bosqichlari va rivojlanishida transformatsiyalarga uchradi.

Feodal huquqiy o'zboshimchalik uzoq saqlanib qoldi. Lekin bozor qoidalariga javob beradigan huquqiy normalar tizimi iqtisodiy faoliyat sohasiga tegishli bo'lgan ko'p sonli huquqiy aktlarda o'z aksini topdi. Burjua demokratik jamiyatga mos iqtisodiyotga xos huquqiy normalar tizimi XIX asr boshlaridagina shakllandi. Xalqaro ayirboshlash va iqtisodiy integratsiya, xalqaro xususiy huquq, huquqiy normalar tizimining paydo bo'lishiga olib keldi. Bunday tizimlar BMT, uning muassasalari, xalqaro integratsiya ittifoqlari va iqtisodiy tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Bozor davlat boshqaruvining boshqa yo'nalishi kuchli soliq va byudjet-moliya mexanizmining rivojlanishi bo'ldi. Davlatning eng muhim funksiyalaridan biri iqtisodiy hayotni yaqin yoki masofadan nazorat qilishdir.

Davlat hokimiyati pul zarb qilish yoki uni soxtalashtirishni unga majburiy kursni belgilash vositasi bilan turli to'g'ri va bevosita soliq va bojlarni joriy qilish bilan iqtisodiy hayotga ta'sir o'tkazishga urindi. Lekin tez orada daromadning bu an'anaviy metodlari davlat uchun yetarli bo'lmay qoldi. Tez orada yangi usul muomala sohasidan daromadlarni ajratib olish – davlat qarzi kashf qilindi. Davlat boylarga qimmatbaho qog'ozlarni olishga majbur qildi. Muomalaga o'ziga xos davlat veksellarini chiqardi. Veksel egasining belgilangan foizlarni tizimli ravishda olish huquqi kafolatlanar edi va nihoyada zayomni qaytarib olishi mumkin edi. Bu Angliyada muntazam amalga oshirildi. Davlat zayomlarini chiqarish bo'yicha va moliya ustidan nazorat o'rnatilishining shakllanishini tarixchilar moliya inqilobi deb atadilar. Bu inqilob yuz yilga yaqin (1688-1756-yillar) davom etdi. Bu tajribani boshqa moliyaviy qiyinchilikni boshdan kechirgan burjua mamlakatlari ham o'zlashtirib oldilar.

Moliyaviy halokat davlat byudjetiga aks etdi. Davriy ravishda xarajatlar daromatlardan oshib ketishi yangi soliqlar, zayomlar, bojlarni o'ylab chiqarish, mansablarni sotish, qirol otkupini joriy qilishga majbur qilar edi.

Vaqtivaqti bilan davlat xarajatlarining og'irligi davlat moliya tizimining tushkunligi sabablaridan biri bo'lib xizmat qildi va davlatning iqtisodiy

hayotga aralashuvini kamayishiga olib keldi. Ayniqsa, bu tushkunlik sotsialistik mamlakatlarda yaqqol ko'radi. Bu mamlakatlarda davlat daromadlarning amalda cheklanmagan taqsimotchisi funksiyasini bajardi. Davlat investitsiyaning asosiy massasini moliyalovchi, ijtimoiy sohani saqlovchi va ta'minlovchi, harbiy xarajatlarni o'z zimmasiga oluvchi bo'ldi. Bu bir tomondan tadbirkorlik tashabbusini yo'qqa chiqardi, resurslarni iqtisod qilish va xo'jalik faoliyatidan manfaatdorlikni cheklab qo'ydi. Chunki buning natijalari baribir moliya tashkilotlari tomonidan tortib olinar edi. Boshqa tomondan foyda keltirmaydigan korxonalar, kolxoz va boshqa tashkilotlar soni oshib bordi.

Tayanch iboralar: sotsialistik iqtisod, moliya inqilobi, uklad, texnologik tuzilma, bozorning tantanasi, merkantilizm, xalqaro integratsiya, veksel, byudjet, zayom, moliyaviy tushkunlik, byudjet taqchilligi, narx, investitsiya, samarasiz korxonalar, kolxoz.

Takrorlash uchun savollar:

1. Feodal-industrial sivilizatsiyalar iqtisodiyoti tuzilmasi dinamikasining asosiy an'analari qanday edi?

2. O'rta asrlar, industriya arafasi va industrial jamiyatlarda iqtisodiy ukladlarning nisbati o'zgarishini tavsiflang?

3. So'nggi bir yarim ming yilda bozorning rivojlanishini asosiy bosqichlarini ayting?

4. O'rta asr industriya arafasi va industrial jamiyatlarda bozorni boshqarish va o'z-o'zini boshqarish qanday amalga oshdi?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Feodal-kapitalistik jamiyatlar iqtisodiy tuzilmasi dinamikasini tasniflang.

2. Iqtisodiy ukladlar tushunchasi va ularning o'zgarishi.

3. Bozor munosabatlari genezisi.

4. Leyard Keyns nazariyasi.

5. Bozorning davlat boshqaruvi mexanizmi tushunchasi.

4-MAVZU: IJTIMOY-SIYOSIY TUZILMALAR EVOLYUTSIYASI

1. Ijtimoiy-siyosiy sikllar. 2. Jamiyat ijtimoiy stratifikatsiyasining evolyutsiyasi.

1. Ijtimoiy-siyosiy sikllar. O'tmish davrlardan sezilarli darajada meros bo'lib qolgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirdi, zamonaviy ko'rinishga erishguncha bir qancha sikllarni o'tkazdi. Jamiyatning ijtimoiy tuzulmasining o'zgarish davrlari keskin siyosiy qarama-qarshiliklar, inqiloblar va urushlar nisbatan barqaror va turg'un taraqqiyot davrlari bilan almashdi. Lekin bu navbatdagi bo'ron arafasidagi sokinlik edi. Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning qonuniyatlari tarixiy voqealarda ko'rindi. Bo'ronli va keng qamrovli hodisalar girdobidan chetlashib o'rganilayotgan davrning asosiy bosqich va an'analarini o'rganishga urinib ko'ramiz.

1. Ijtimoiy-siyosiy sikllar. Bir necha yuqori uzoq muddatli (asriy) sikllarni so'nggi bir yarim ming yil ichidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar dinamikasida ajratish mumkin.

Birinchi sikl taxminan sakkiz yuz yilni qamrab oladi (V asr o'rtalaridan – XIII asr o'rtalarigacha). O'rta asr ijtimoiy-siyosiy tuzumining shakllanishi va hukmronligi davri. Bu jarayon ikki asosiy turda aks etdi. Ulardan biri o'tmish jamiyatning asta-sekin transformatsiyasi asosida feodalizmning ijtimoiy kuchlari va siyosiy muassasalarini shakllanishidan iborat edi (Vizantiya, Xitoy, O'rta Osiyo, Hindiston) yoki uning G'arbiy Rim imperiyasining qulashi natijasida uning hududida yashayotgan va unga bostirib kirgan boshqa qabilalar sintezi bilan uning buzilishi edi.

Boshqa yo'l urug'-qabila munosabatlarining bevosita transformatsiyasi asosida feodal ijtimoiy-siyosiy tuzumning shakllanishidan iboratdir. Lekin u jez va temir asrlari davomida quldorlik jamiyatini chetlab o'tib, ma'lum bir evolyutsiyani boshdan kechirdi. Shimoliy Yevropa va Osiyoning ko'pchilik xalqlari ibtidoiy jamoa tuzumidan to'g'ridan-to'g'ri feodalizmga o'tdi. Bunday xalqlarda qulchilikning rivojlangan shakllarini uchratmaymiz. Misol uchun, quyidagi xalqlarni shu tipga kiritishimiz mumkin: Shimoliy Yevropada – Skandinaviya, Boltiqbo'yi, slavyan xalqlari; Osiyoda – arablar. Har ikki holatda ham feodal siyosiy-ijtimoiy tu-

zumning genezisi katta yer egasi – feodallar hamda qaram dehqonlarning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, hunarmand, savdogar, harbiylar, ruhoniylar, ijodiy kasb egalari kabi toifa va kastalar shakllandi. Birinchi siklning alohida tomonlaridan biri – bu diniy tashkilotlarning ijtimoiy-siyosiy va davlat huquqiy muassasalariga kuchli ta’siri edi. Bu siklning so‘nggi fazasi feodal tarqoqlikning kuchayishi, ko‘plab urushlar, ilgari shakllangan yirik davlatlarning parchalanishi, mo‘g‘ul bosqinlari to‘lqini bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi ijtimoiy-siyosiy sikl XIII asr o‘rtalaridan XVIII asr o‘rtalari-gacha bo‘lgan qisqaroq davrni qamrab oladi. Bu davr feodal ijtimoiy-siyosiy tuzumning yetukligi va tushkunligining tarqalishi ko‘pgina davlatlar (Fransiya, Ispaniya, Angliya, Rossiya)da mutloq monarxiyalarning shakllanishi, jahon imperiyalarining takror tug‘ilishi (ispan, britan) bilan tavsiflanadi. Boshqa tomondan bu vaqt kuchli burjua sinfining shakllanishi (eng avvalo, savdo sohasida), uning siyosiy yetakchilikka da’volari bilan tavsiflanadi. Bu da’volar qandaydir darajada niderland (1566-1609-yillar) va ayniqsa, ingliz burjua inqiloblarida o‘z ifodasini topdi. Dehqonlar ham feodal zulm va majburiyatlar bilan nihoyatda ezilganligi sababli, siyosiy kuch sifatida o‘zini ko‘rsatdi (Farnsiyada Jakeriya – 1358-yil; Uot Tayler qo‘zg‘oloni – 1381-yil; Germaniyada dehqonlar urushi – 1524-1525-yillar; Xorvatiya va Slovakiyada dehqonlar qo‘zg‘oloni – 1573yil; Rossiyada Ivan Bolotnikov qo‘zg‘oloni – 1606-1607-yillar). Bu davrning yirik ijtimoiy-siyosiy kuchi cherkov tashkiloti bo‘lib, katta yer-mulklarga ega bo‘lgan hukmdorlar bilan yetakchilik uchun kurashdi. G‘ayridinlarga qarshi quvg‘inlarni uyushtirdi.

Son-sanoqsiz feodal urushlari mamlakatlarni vayron qildi, ishlab chiqarish kuchlarini yemirdi. Urushlar uzoq davom etdi (Angliya Fransiya o‘rtasidagi 1337-1453-yillardagi yuz yillik urush; Germaniyada 30 yillik urush –1618-1648-yillar), qaysiki, bu urushga deyarli barcha Yevropa davlatlari tortildi. Amerika va Hindistonning ochilishi qator mustamlakachilik urushlari, keyin esa mustamlakalarni takror taqsimlash uchun urushlarni keltirib chiqardi. Demokratik tuzum va burjuaziyaning siyosiy yetakchiligini qaror topishi uchun kurash kuchaydi. Uning jarchisi XVII asrdagi ingliz burjua inqilobi bo‘lib, parlament monarxiyasining shakllanishi bilan tugadi.

Uchinchi yuqori uzoq muddatli ijtimoiy-siyosiy sikl XVIII asrning so‘nggi choragi (Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun kurash va buyuk

fransuz inqilobi)dan XX asrning so‘nggi choragigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi (XX asrning 70-yillaridagi tushkunlik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning trayektoriyasini o‘zgartirib, postindustrial jamiyatga o‘tish davrining boshlanishini belgilab berdi). Bu davr doirasida bir necha fazalarni ajratish mumkin (Kondratyev sikllariga ko‘p hollarda o‘xshash bo‘lgan uzoq muddatli ijtimoiy-siyosiy sikllar);

1775-1830-yillar – Amerikada mustaqillik uchun kurash va AQSH ning tashkil topishi, Buyuk fransuz inqilobi va Napoleon urushlari natijasida burjua siyosiy hukmronligining o‘rnatilishini boshlanishi;

1831-1870-yillar – Kapitalistik ijtimoiy-siyosiy tizimlarning tez tarqalishi, Germaniya va Italiyada milliy davlatlarning shakllanishi, AQSHda fuqarolar urushi (1861-1865-yillarda) natijasida qulchilikning tugatilishi va Qo‘shma shtatlarda federal davlatning mustahkamlanishi, ishchilar harakatining keng qamrovli boshlanishi (Internatsional, Parij kommuniyasi), G‘arbiy Yevropaning ko‘pchilik mamlakatlarida burjua demokratiyasining qaror topishi;

1871-1913-yillar – burjua ijtimoiy-siyosiy tizimi, unga tegishli bo‘lgan kapitalistlar va ommaviy partiyalar bilan manfaatlari himoya qilingan yollanma ishchilarning qarama-qarshiligi;

Kapitalizmning imperializmga o‘tib o‘tishi, dunyoning taqsimlanishini tugallanishi va uni qayta taqsimlash uchun kurashning boshlanishi.

1914-1945-yillar – Industrial jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tizimini tushkunlikka uchrashi. ikki jahon urushlari, sotsialistik va milliy-ozodlik inqiloblari Germaniya, Italiya, Yaponiya va Sovet ittifoqida totalitar davlatlarning shakllanishi, ijtimoiy ziddiyatlarning keskin kuchayishi;

1946-1975-yillarda industrial ijtimoiy-siyosiy tuzum tushkunligining keng tarqalishi va chuqurlashuvi, ikki jahon tizimining shakllanishi va qarama-qarshiligi, ikki harbiy bloklar, mustamlakachilik tizimining yemirilishi, uchinchi dunyo – o‘nlab mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi, lokal urushlari qatori «sovuq urush», qurollanish poygasi, yadro urushi xavfining kuchayishi;

Bu davrning tugallanish davri XX asrning 70-yillariga to‘g‘ri keldi, qachonki, jahon tushkunligi va keskin ziddiyatlar sharoitida har ikkala tizimda ijtimoiy-siyosiy tizimning an‘analari o‘zgara boshladi.

Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun urush va Buyuk fransuz inqilobi natijasida Yevropa feodal monarxiyalardan «tozalana» boshladi. XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropaning ko‘pgina mamlakatlarida u yoki bu shaklda burjua demokratiyasi qaror topdi.

Oʻrta Osiyoda bu davrda uch oʻzbek xonligi eski feodal tartib-qoidalarni hukmronligi ostida chuqur ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy qoloqlikda qolgan edi. Osiyo va Afrikaning boshqa mamlakatlarida ham feodal tartiblar hukmron edi.

Ijtimoiy kuchlarning yangi joylashuvida ham oʻzgarishlar yuz berdi. Iqtisodiy va siyosiy hokimiyatga ega boʻlgan burjuaziya, u bilan bogʻlangan eski oqsuyak – zodagonlar, ularga qarama-qarshi yollanma ishchilar, mayda savdogarlar turar edi. Ularning oraligʻida texnik va ijodiy ziyolilar, davlat muassasalari xizmatchilari, harbiylar oʻrta qatlamni tashkil qilar edi. Jamiyatning eng quyisida oʻz sinfi, qatlamidan ajralgan unsurlar – lyunpen proletariat turar edi. Qatlamlar oʻrtasidagi nisbat doimo oʻzgarib turar edi. Ular oʻrtasida davriy ravishda fuqarolik urushlari, inqiloblar koʻrinishida qarama-qarshiliklar yuz berar edi (1848-1851-yillar burjua inqiloblari).

Oʻtgan bosqichda yetakchi boʻlgan diniy urushlar tugadi. Millatlar shakllanishining jadallashuv jarayoni millatlararo ziddiyatlarni oldinga chiqardi. Milliy davlatlar oʻz chegaralarini shakllantirish va kengaytirish uchun Yevropa va jahon miqyosida yetakchilik uchun urushlar olib bordi. Napoleon urushlari, AQShning Amerika kontingentida yetakchilik uchun va oʻz hududlarini kengaytirish uchun ekspansiyasi, Italiya, Germaniyani birlashtirish uchun kurash, Rossiyaning Yevropa va Osiyoda oʻz taʼsirini oʻtkazish uchun ekspansiv siyosati, Fransiya-Prussiya urushi, Bolqon urushlari, I va II jahon urushlari bu anʼananing koʻrinishidir.

Metropoliyalar orasida mustamlakachi davlatlar va mustamlakalar oʻrtasida ziddiyatlar kuchaydi. Milliy ozodlik harakatlari (Xitoy, Hindiston, Eron) shafqatsiz bostirildi.

Demokratik tartiblarning qaror topishi yoʻnalishida davlat-huquq tuzumining evolyutsiyasi yuz berdi. Bu jarayon asosan ikki shaklda – parlament respublikasi va konstitutsiyaviy monarxiya koʻrinishida bordi. Britaniya, Germaniya, Avstriya-Vengriya imperiyalari jahon siyosatida nufuzli oʻrinni egalladi.

AQShda ilk bor paydo bolgan hokimiyatlarning boʻlinishiga asoslangan siyosiy ustqurma prezident-parlament shakllarining siyosiy kuchi oʻsdi. Vakillik organlarini saylash prinsipi qaror topdi. Saylovchilar doirasi kengaydi. Kambagʻallar, ayollarga saylov huquqi berildi. Rivojlangan mamlakatlarda demokratiya prinsiplari joriy qilindi. Qonun oldida barchaning tengligi, shaxs huquqi va erkinliklari, prinsiplari qaror topdi.

XX asrning boshlarida eng katta siyosiy voqealar Rossiyadagi Fevral va Oktabr inqiloblari bo'ldi. Bu inqiloblar Rossiyada monarxiyani ag'darib, ulkan mamlakatda bolsheviklar hokimiyatni qo'lga olib, sotsialistik g'oyalarni amalga oshirishga olib keldi. Bu tuzumning siyosiy asosi sovet hokimiyati bo'ldi. Sovet hokimiyati hokimiyatlarning bo'linishini burjua-demokratik prinsipidan voz kechib, bir sinfnig (Proletariatning kambag'al dehqonlar bilan ittifoqligidagi) diktaturasini e'lon qildi. Amalda esa partiya-davlat yuqori tabaqasining hokimiyatga monopoliyasi o'rnatildi.

SSSRda jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi keskin o'zgardi. Burjuaziya va pomeshchiklar sinfi jismoniy yo'q qilindi. Uning qoldiqlari emigratsiya qildi. Zo'ravonlik bilan kollektivlashtirish dehqonlarni kolxoz yerlariga biriktirib, uni partiya-davlat byurokrtiyasiga qaram qilib qo'ydi. Hunarmandlar kooperativlashtirildi. Mayda savdogarlar siqib chiqarildi. O'rta qatlamni tashkil qilgan texnik va ijodiy ziyolilar, o'qituvchi, shifokorlar, xizmatchilarning ulkan massasi hokimiyat qaramog'ida qolib, xavfsizlik xizmati va targ'ibot mashinasining sinchkov nazorati ostida turdi. Bu repressiv kazarma-sotsializm tuzumi, utopist-sotsialistlar, ilmiy kommunistik asoschilari e'lon qilgan sotsialistik g'oyalarni amalga oshirishga hajv edi.

Bu davrning boshqa an'anasi dastlab Italiya, keyin keng qamrovli shaklda Germaniya va unga yaqin tuzumda militaristik Yaponiya, Bolgariya, Portugaliya va Ispaniyada fashizmning qaror topishi bo'ldi.

1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi to'lqinlarida ommaning ongini egallagan fashizm Germaniyada monopolistik burjuaziyaning irodasini bajarish uchun xizmatkor bo'ldi va uning manfaatlarini uchun dunyoni takror taqsimlash, dunyoga hukmron bo'lish uchun kurash boshladi. Bu tabiiyki, yetakchi davlatlar – AQSh, Fransiya, Angliyaning qarshiligiga uchradi. Dastlab ular fashizmni sotsializmga qarshi qo'yimoqchi bo'ldilar, keyinchalik esa nemis fashizmi dunyoga hukmron bo'lish siyosatini qat'iy olib borgani uchun unga qarshi kurashishga majbur bo'ldilar.

Bir necha lokal urushlardan so'ng, 1939-yil sentabrda II jahon urushi boshlandi. Uning dastlabki bosqichida Germaniya butun Yevropaning katta qismini bosib olib, Shimoliy Afrika tomon yo'naldi. Bu urush insoniyat tarixidagi eng katta va qonli urush bo'lib, million kishilar qurbon qilindi. Minglab shahar va qishloqlar, madaniyat yodgorliklari, san'at asarlari yo'q qilindi. II jahon urushi antigitlerchilar koalitsiyasining to'la

g'alabasi, Germaniya, Italiya, Yaponiya va ularning ittifoqchilari mag'lubiyati bilan tugadi.

1946-yildan industrial jamiyatning yangi tugallovchi fazasi boshlandi. Bu fazaning asosiy mazmuni ikki jahon tizimining qarama-qarshiligi va mustamlakachilik tizimining yemirilishi natijasida uchinchi kuchlarning shakllanishi edi.

Dunyo miqyosida va mamlakatlar ichida ijtimoiy-siyosiy kuchlarning joylashuvi o'zgardi. Agar o'tgan bosqichda dunyo siyosatining uch markazi-fashizm, sotsializm va G'arb demokratiyasi mamlakatlari shakllanib, bir-biri bilan kurashgan bo'lsa, shuningdek, oxirgi ikki markaz birinчисini yo'q qilish uchun birlashgan bo'lsa, endilikda qarama-qarshilik ikki jahon tizimlari – AQSh boshchiligidagi kapitalistik va SSSR boshchilik qilgan sotsialistik dunyo o'rtasida bordi. Yevropaning uncha katta bo'lmagan mamlakatlari – Shvetsariya, Shvetsiya, Finlandiya, Avstriya «neytral chiziq»ni tashkil qildi. Bir-biriga qarama-qarshi turgan harbiy-siyosiy bloklar – NATO va Varshava shartnomasi tashkil topdi.

Qurollanish poygasi, sovuq urush, lokal urushlar va ziddiyatlar uchinchi jahon yadro urushiga olib kelishi mumkin edi (Shimoliy Koreyadagi urush, Berlin va Karib tushkunliklari). Xalqaro keskinlikni yumshatish uchun bir necha bor urinishlar, tinchlik uchun kuchli harakat yadro urushiga yo'l bermadi, lekin uning xavfi saqlanib qoldi.

Mamlakatlar ichida ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat o'zgardi. Burjua demokratik tuzum zonasi kengaydi. Italiya, GFR, Yaponiya, ko'pgina ozod bo'lgan mamlakatlar (Hindiston va boshqalar)da demokratik tuzumlar qaror topdi. Yarim fashistik tuzumlar saqlanib qoldi (Portugaliya, Ispaniya, Nikaragua, Paragvay).

Stalin vafotidan so'ng, sotsialistik mamlakatlarda partiya-davlat diktaturasining rejimi yumshadi. Ommaviy repressiyalar tugadi (faqat Xitoyda «katta sakrash» siyosati va «madaniy inqilob» davridan tashqari). J.Gelbreyd va boshqa olimlar ikki jahon tizimlari yaqinlashuvining o'sib borayotgan an'anasini ko'rsatdilar. Har ikki tomonning mafkurasi esa bu an'anani o'jarlik bilan inkor qildi.

Jamiyat piramidasining «to'rtinchi qavati» dinamikasida sivilizatsiyaning yuqori va uzoq muddatli sikllari bilan bir qatorda Kondratyev sikllariga o'xshash uzoq muddatli va qisman ular bilan mos tushadigan uzoq muddatli sikllarni ajratish mumkin. Ulardan so'nggisi ikki aralash sivilizatsiyalar o'rtasida o'tish xususiyatiga ega. Har bir o'rta muddatli

sikllarda yetakchi ijtimoiy-siyosiy ukklad (texnologik va iqtisodiy ukkladlar bilan o'xshash) ko'rinadi. Piramidaning birinchi qavatida bir xillik bo'lmasada, ko'p ukkladlilik kuzatiladi, lekin ukkladlar o'rtasida kuchlar nisbati o'zgaradi.

Amerikalik olimlar qisqaroq, o'rta muddatli siyosiy sikllarni ajratadilar. XIX asr oxirida Adams 12 yil davriylik bilan AQSh siyosiy hayoti mayatnigining tebranishini ko'rsatdi. Artur Shlezinger (katta) 1949-yilda Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilingandan so'ng, AQSH o'z ichida siyosiy kurs o'zgarishlarining o'n bir sikllarini ajratdi. Ulardan oltitasi demokratiyaning kuchayishi, beshtasi esa uni to'xtatib turishdir. U ikki harakatsiz nuqtalar oralig'ida tebranadigan mayatnik g'oyasini inkor qildi. Sikl millari orqaga qaytarmaydi.

A.M.Shlezinger (kichik) sikllarni uzunligi asosiga bir avlodning siyosiy hayotini qo'ydi, qaysiki, har o'n besh yilda pozitsiyalar almashinuvi bilan avlodlar almashinuvi o'ttiz yil atrofida cho'ziladi.

Shunday tarzda, ijtimoiy-siyosiy sohada texnologik va iqtisodiy sikllar bilan o'zaro aloqadagi turli uzunlikdagi sikllarni ko'rish mumkin.

2. Jamiyat ijtimoiy stratifikatsiyasining evolyutsiyasi. O'rta asr jamiyati antik sivilizatsiyadan murakkab ijtimoiy tuzilmani meros qilib oldi. Qaysiki, u modifikatsiya qilindi, feodal jamiyatga mos ijtimoiy guruhlar bilan boyitildi.

Feodal jamiyat ijtimoiy pog'onasining eng yuqorisida feodallar sinfi – yer egalari, oliy ruhoniylar, harbiy boshliqlar u yoki bu darajada imperator, sulton, xon, qiroлга bo'ysunganlar turar edi. Ular doimiy ravishda urushlar, soliqlar yig'ish, o'zaro urushlar bilan band edilar.

Ularga qarama-qarshi tomonda o'zining tirikchiligi va feodalga pul va mahsulot hisobida bir qism hosilni beradigan, chek yerga ega bo'lgan qaram dehqonlar turar edi. Qaram dehqon xo'jayin tomonidan sotilishi, askarlikka berilishi va jazolanishi mumkin edi.

Shaharlarda boy savdogar-hunarmandlar, sex oqsoqollari, sudyalari, sudxo'r-bankirlar, amaldorlar, kambag'al hunarmandlar, xizmatkorlar, xalfalar, mayda savdogarlar, qullar yashar edi. O'rta asrlar oxirida shaharlarda burjua jamiyatining sinflari tadbirkor – kapitalistlar va yollanma ishchilar shakllana boshladi.

XVI-XIX asrlarda burjua ijtimoiy-siyosiy tizimining shakllanishi va keng tarqalishi jamiyat tuzilmasida tub siljishlarga olib keldi. Ijtimoiy pog'onaning cho'qqisida o'z tarkibiga ko'ra, bir xil bo'lmagan kapitalistlar

sinfı turardi. Uning asosida savdo va tadbirkorlik orqali katta jamg'ar ma to'plagan va uni manufaktura-fabrika, qishloq xo'jaligi va qurilish kompaniyalariga qo'ygan savdo-moliya kapitalistlari turadi.

Katta yer egalari uzoq vaqt o'z mavqelarini saqlab turdilar, lekin asta-sekin ular qo'shimcha qiymatning bir qismini o'zlashtirib, tadbirkorlik bilan shug'ullandilar va burjua sinfiga transformatsiya qildilar.

O'z ishchi kuchini sotib yashaydigan ishchilar sinfi ham bir xil emas edi. Yuqori malakali ishchilar, kasaba uyushmalari rahbarlari uncha katta bo'lmagan qatlam edi. Ishchilarning asosiy qismi shafqatsiz ezilardi. Yarim proletariat va mavsumiy ishchilar bir qism yerga ega bo'lib, ozgina ish haqi olar edilar. Lyumpen proletariat tasodifiy ish haqi, o'g'rilik, qashshoqlik bilan yashar edi.

Dehqonlarning ham qiyofasi o'zgardi. Uning tarkibidan bevosita ishlab chiqarishga ishtirok etishdan ajralmagan qishloqlarning burjuaziyasi ajralib chiqdi. O'rtahol dehqonlar o'z ehtiyojlarini o'z shaxsiy xo'jaliklaridan qondirib yashar edilar. Ulardan tashqari, ozgina yerga ega bo'lgan qashshoq dehqonlar, batraklar, qishloq hunarmandlari, yersiz dehqonlar qishloqda ko'pchilikni tashkil qildi.

Shahar mayda burjuaziyasining ancha katta qatlami: mayda savdogarlar, maishiy xizmat ko'rsatish do'konlari, sartaorshxona, oshxona, restoran, ustaxona egalari shakllandi. Ular tovar va xizmatlarni sotish hisobidan yashab, turli soliq va majburiyatlarni o'tar edilar.

Industrial jamiyatda ziyolilarning o'sib borayotgan qatlami shakllandi: ilmiy-texnik (olim, injenerlar, texniklar, agronomlar), ijodiy-badiiy: (rassom, artist, musiqachi, yozuvchi va boshqalar), iqtisodiy (menejerlar, boshqaruvchilar). Ularning sezilarli qismi industrial mashinaning ziyoli bo'g'ini – «oq yoqalilar» sifatida chiqib, o'z malakali ish kuchini sotish hisobiga yashar edilar; qisman gonorar, medsenatlar hisobidan yashovchi erkin mehnat kishilari.

Byukrokratik davlat mashinasiga xizmat qiladigan, buning uchun ish haqi oladigan va ishdan ketgandan keyin nafaqa oladigan amaldorlar qatlamini alohida ko'rsatish lozim.

Anchagina katta ijtimoiy qatlamni harbiy xizmatchilar tashkil etdi. Eng avvalo, jamiyatda alohida o'rinni egallagan ko'p sonli zobit va generallar asosan zodagon va burjuaziya ichidan tanlab olinar, ular hukmron tabaqaning tayanchi edilar. Vaqti-vaqti bilan ular ochiq harbiy diktaturani o'rnatar edilar.

Industrial jamiyatda diniy farqlar saqlanib qoldi, lekin o'tmish ahamiyatini yo'qotdi. Lekin milliy-etnik mansublik, ayniqsa, milliy davlatlarning shakllanish davrlarida Yevropada XVIII-XIX asrlar va XX asrda milliy-ozodlik harakatining kuchayishi davrlarida roli kuchaydi.

So'nggi industrial jamiyatda sotsialistik variantda ijtimoiy stratifikatsiya tubdan o'zgardi. Pomeschiklar, burjuaziya, quloqlar, ruhoniylar nafaqat iqtisodiy, huquqiy balki jismoniy yo'q qilindi. Ishchilar sinfi gegemon deb e'lon qilindi, lekin davlat – byurokratik apparati tomonidan ekspluatatsiya qilinadigan sinfga aylandi. Dehqonlar majburiy jamoalashtirish natijasida yerdan ajralib, jamoa xo'jaligi (kolxoz) dalalarida ozgina ish haqi hisobiga ishlashga majbur bo'ldilar. Tomorqa xo'jaligi ham ozgina daromad berar, uning uchun soliq to'lanar edi. «Ziyolilar» qatlami injenerlar, loyihachilar, fan, ta'lim, ma'daniyat xodimlari hisobiga miqdoriy o'sdi, lekin «shubha» ostida turgan huquqsiz ijtimoiy qatlam kam bo'lib qoldi. Ijtimoiy piramidaning cho'qqisida esa yangi humkron sinf paydo bo'ldi. Bu sinfga partiya-davlat xodimlari, armiya generaliteti, xavfsizlik xizmati xodimlari kirar edi. Aynan shu sinf amalda «umumxalq» va shirkat mulkiga xo'jayinlik qildi, qo'shimcha qiymatni o'zlashtirib oldi, jamiyatga rahbarlik qildi, norozilik va o'zgacha fikrlashni shavqatsiz bostirdi. Jamiyatning boshqa qatlamlari teng va huquqsiz edilar. Milliy farqlar nazarga ilinmadi. Milliy urf-odat, an'analar ta'qib ostiga olindi. Respublikalar o'rtasida chegaralar hukmron elita tomonidan takror-takror o'zgartirilib, ko'plab xalqlar jazolandi, kelajakda milliy va etnik guruhlar o'rtasida ixtiloflarda urug' tashlandi.

Feodal kapitalistik jamiyatlarda siyosiy hayot, davlat va huquq, o'rta asrlar jamiyatida ichki va tashqi siyosat amir, sulton, xon, qirol (imperator), yirik feodallar, ularning yaqinlari, vazirlarning asosiy mashg'uloti edi. Xalq ommasi noroziligi qo'zg'olon va xalq harakatlari shaklida siyosiy kurash shaklini oldi. Bu harakatlar soliq va majburiyatlarning oshib ketishi, ijtimoiy zulmga qarshi norozilik edi.

Siyosiy partiyalar ijtimoiy qatlam, guruhlarining manfaatini himoyachisi sifatida burjua jamiyatda paydo bo'ldi. Angliyada 1215-yilda aholi turli qatlamlari huquq manfaatlarini himoya qiladigan qonuniy hujjat-Buyuk ozodlik xartiyasi qabul qilindi. Toifalar vakillik organlari: Angliya parlamenti (1265-y), Fransiyada General shtatlar (1302-y), German knyazliklarida lantaglar (XIII asr oxiri) yuzuga keldi. Birinchi haqiqiy siyosiy partiya Angliyadagi tori va viglar partiyalari edi. Lekin siyosiy

partiyalar industrial jamiyat qaror topishi bilan o'z o'rnini topdi. XIX asrda Yevropa va Shimoliy Amerikada har bir sinf o'z partiyasiga ega edi. Asosan bular parlament partiyalari edi. XIX asr o'rtalarida ezilgan sinflarning manfaatlarini himoya qiladigan, mavjud tuzumni ag'darib, yangi jamiyatni qurishga ahd qilgan yangi tipdagi partiyalar paydo bo'ldi. Bu blankistlar, kommunistlar ittifoq, internatsional anarxistlar edi. XIX asr oxirida ko'pgina Yevropa mamlakatlarida sotsial-demokratik partiyalar paydo bo'ldi. Rossiyadagi inqiloblar vaqtida sotsial-demokratlar (bolsheviklar, mensheviklar), eserlar, kadetlar, oktyabristlar faoliyat ko'rsatdilar. Qaram Turkiston o'lkasida ham sotsial-demokratlar partiyasining bo'limlari rusiyzabon aholi ichida tashkil topdi. Bolsheviklar partiyasi hokimiyatni egallab, davlat apparati, sovetlar, kasaba uyushmalari, yoshlar harakatini to'la o'ziga bo'ysundirdi. Siyosiy hayotni bunday cheksiz monopollashtirish industrial jamiyatning so'nishi uchun xos xususiyat edi va halokat bilan tugashi aniq edi. Shu bilan birga, saylovchilar yirik burjua va sotsial-demokratik partiyalarga ishonchni yo'qotdilar. Qator G'arb davlatlarida ikki partiyali tizim saqlanib qoldi (AQSH, Angliya). Sharq dunyosida davlat shaxs ustidan an'anaviy cheklanmagan hukmronlikka ega edi. Yevropa tarixida o'rta asr davlati taraqqiyotini uch bosqichga ajratish mumkin: ilk feodal davlatning paydo bo'lishi va shakllanishi, davlat feodal tarqoqlik holati, markazlashgan davlatning shakllanishi; ilk o'rta asrlarda qirollik harbiy demokratiya tamoyilida shakllandi. Harbiy boshliqning kuchli hokimiyati ko'ngillilar qo'shini va bir qism shaxsiy qismga asoslangan edi.

Asta-sekin oliy hukmdor (podsho, sulton, qirol, imperator)ning funksiyasi kengaydi. U endi muntazam qo'shin, davlat apparati, huquq normalariga asoslanar edi. U yerlarning oliy egasi, feodal rentani oluvchiga aylandi. Hukmdorning qo'lida harbiy, sud, siyosiy-ma'muriy hokimiyat to'plandi. Qirol yoki podsho ilk o'rta asrlar oxirida eng katta feodal yer-mulk egasiga aylandi.

Sharq mamlakatlarida markazlashgan feodal jamiyat ancha erta paydo bo'ldi. IX asrdan O'rta Osiyo (Somoniyalar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar), Xitoy, Hindiston, Mongoliyada qudratli feodal davlatlar shakllandi. Kuchli davlat hokimiyatining shakllanishida din alohida rol o'ynadi. Davlat hokimiyati markazlashuv an'anasini qo'llab-quvvatlash uchun diniy tashkilotdan foydalandi. Cherkov siyosiy kuchga aylandi. Feodal tarqoqlik davrida markazlashgan davlatlar parchalandi yoki ular

nominal hokimiyatni saqlab qoldi. Markazdan qochuvchi kuchlar ustuvor bo'ldi. Yer-mulk, taxt uchun qonli kurashlar kuchaydi.

XIV-XVI asrlarda Sharq va G'arbda kuchli feodal davlatlarning paydo bo'lish an'anasi kuchaydi. Sharqda Usmoniylar imperiyasi, Temuriylar, Boburiylar, Shayboniylar kabi qudratli davlatlar vujudga keldi. Bu ilk feodal markazlashgan davlat bo'lmay, feodal jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi yangi o'zgarishlar asosidagi olg'a siljish edi.

Bu davrda Yevropada toifaviy monarxiya davlat hokimiyatining yetakchi shakli edi. Har bir toifa vakillik organi (parlament, general shtatlar, zemstvo sobori)ga o'z delekatlarini muhim siyosiy masalalarni muhokama qilish uchun yuborar edi. Bu organ ba'zida hukmdorni taxtdan tushirar yoki saylar edi.

Feodal suverenitetiga qarshi turgan mustaqil kuchli davlat apparati shakllandi. Hukmdorga bo'ysungan qo'shin tashkil topdi. Millatning suvereniteti huquq manbasi sifatida qirol hukumatida nufuzli o'rinni egaladi. Taxt vorisligi muammosi hal qilindi. Bu masalada qat'iy tartib-qoida o'rnatildi. Sharq mamlakatlarida esa taxt vorisligi muammosi qonli kechdi. Bu ko'p hollarda markaziy hokimiyatni zaiflashtirdi.

Feodal yer-mulkining vorisligida mayorat tartibi joriy qilindi. Mulk maydalashib ketmasligi uchun katta o'g'ilga qoldiriladigan bo'ldi. Feodalning qaram dehqonga nisbatan suiiste'moli cheklandi. Erkin shaharlarning imtiyozlari tugatildi. Bu ma'lum darajada feodal tarqoqligini bir muncha chekladi, yetuk feodal jamiyatning bozor munosabatlarini tartibga solish va kelgusi burjua jamiyatining unsurlarini shakllantirishga shart-sharoit yaratdi.

Italiyada kuchli shahar-davlatlar-Venetsiya, Genuya, Florensiya o'rtasida kurash boshlandi. Qator Sharq mamlakatlarida kuchli podsho hokimiyati shakllandi (O'rta Osiyoda Temuriylar, Shayboniylar; Hindistonda Boburiylar; Old Osiyoda Usmoniylar; Eronda Safaviylar). Lekin bu mamlakatlarda siyosiy dualizm va toifaviy vakillik organlari shakllanmadi. Natijada, bu imperiyalar asta-sekin o'zaro feodal urushlar girdobiga tushib qolib, oqibatda davlatlar halokatga uchradi.

Davrlashlikning keyingi bosqichi Yevropada ko'pgina mamlakatlarda mutlaq monarxiyalarning XV asr oxirida shakllanishiga olib keldi. Bunda yirik milliy davlatlarning tashkil topishi yordam berdi. Fransiya, Angliya, Ispaniya, Rech Pospolitasi, Rus davlatlarida markazlashgan monarxiya hokimiyatining kuchayishi, vakillik toifaviy organlarning

ahamiyatini kuchayishi bunga yordam berdi. Amerikaning ochilishidan so'ng va uning katta qismini mustamlaka qilinishi natijasida Ispaniya eng katta jahon imperiyasiga aylandi. Uning hududi G'arbiy Yevropa va Amerikaning katta qismini qamrab olgan edi. Germaniya va Italiya tarqoq davlatlar bo'lib qolaverdi. Lekin siyosiy kuchlarning tengligi uzoq davom etmadi.

XVII asrda (Niderlandiyada XVI asrning ikkinchi yarmidan) absolyutizmning tushkunligi boshlandi. Kuchga to'lib borayotgan burjuaziya siyosiy maydonda o'ziga tegishli o'rinni talab qila boshladi. Ingliz va fransuz burjua inqiloblari absolyutizmga kuchli zarba berdi. Qirollar o'lim jazosiga tortildi, zodagon feodallarning sezilarli qismi jismonan yo'q qilindi. Inqilob natijasida hokimiyatga kelgan Napoleon mutlaq hokimiyatning qator belgilarini takror tikladi. Bu yangi – bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatning ilgor etakchi ijtimoiy qatlami-tadbirkor savdo – sanoatchilarning hokimiyati shakli boldi.

Yevropaning ko'pgina davlatlarida mutlaq monarxiyalar oz hokimiyatini saqlab qolishga urinmasin, uni liberal islohotlar bilan yumshatish yangi siyosiy tuzum demokratiyaning qaror topishiga to'sqinlik qila olmadi. Industrial jamiyatlarning asosiy konsepsiyalari shakllandi, liberal goyalar keng tarqaldi. Liberal goyaga kora insoniyat hayotining asosiy qadriyati erkinlik. Individning erkinligi jamiyatdan yuqori turadi. Alohida shaxslarning har qanday foydali faoliyati jamiyat uchun foydali boladi. Hayot bu musobaqa, davlatning vazifasi barcha odamlar ucun musobaqaning boshlanishida teng imkoniyatlar bilan taminlash. Keyin esa barchasini raqobat hal qiladi va barchasini joy joyiga qoyadi. Liberalizmning asosiy raqibi marksizm edi. AQShdagi prezidentlik respublikasi, Angliyada konstitutsiyaviy monarxiya liberal g'oyalarning yaqqol ko'rinishi edi. Demokratiya asosida barcha fuqarolarning teng huquqli va erkinligini tan olish, alohida guruhlar uchun feodal toifaviy, kasta va boshqa cheklashlarni bartaraf qilish, shaxsiy va mulkiy huquqlarni huquqiy himoya qilish, irqiy, milliy, diniy belgilarga ko'ra kamsitishlarni tugatish, ma'lum bir belgilangan yoshga yetgan fuqarolarga markaziy, mahalliy va munitsipial organlarga saylash va saylanish huquqini berish yotar edi.

Erkin bozor raqobati siyosiy raqobat erkinligi bilan to'ldirilgan edi. Burjua demokratiyasining asosiy va muhim tamoyili-qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'ysunish edi. Bu hokimiyatni

monopoliya qilish va biror bir diktaturani o'rnatilishiga yo'l qo'ymas edi. Albatta, turli mamlakatlarda demoktariyaning bu asosiy tamoyillari ijtimoiy-siyosiy kuchlarining nisbatidagi o'zgarishlarni aks ettirgan holda keskin siyosiy kurash natijasida o'zgardi. Lekin bu industrial sivilizatsiyalarning yetuklik bosqichida erishilgan siyosiy revolyutsiyaning cho'qqisi edi. Kapitalizm taraqqiyotining monopolistik, keyin esa davlat-monopolistik bosqichlariga o'tish hokimiyatni yirik burjuaziya qo'lida to'planishiga olib keldi. Demokratiya asoslarining cheklanishi umum-milliy tushkunliklar sharoitida qator inqiloblarga ochiq diktaturalarning o'rnatilishiga olib keldi. Bu totalitar davlatlarni – Germaniya, Italiyada fashizm, SSSRda, keyin esa boshqa sotsialistik mamlakatlarda hamda Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrikaning qator ozod bo'lgan mamlakatlarida avtoritar – totalitar tuzumning qaror topishida yaqqol ko'rindi.

Inson totalitar siyosiy tizimda ulkan, hamma narsani yutib yuboradigan davlat byurokratik mashinaning vintchasiga aylantirildi. Totalitar davlat hokimiyatlarini taqsimlash tamoyilini chetga uloqtirdi. Hokimiyat to'laligicha hukmron tabaqaning qo'lida to'plandi. Davlat boshqaruvining markazlashuvi va mamlakatning militarizatsiyalashuvi o'ta had-dan oshib ketdi. Huquqiy suiiste'mol keng avj oldi. Repressiyalar keng qo'llanildi. G'arb mamlakatlarida industrial sivilizatsiyaning so'nish davrida hukmron tabaqa tomonidan hokimiyatni hukmron elita tomonidan monopollashtirish, militarilizmning kuchayishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklanishi kuzatildi.

Tayanch iboralar: uzoq muddatli sikl, transformatsiya, evolyutsiya, Jakeriya, Uot Tayler, Ivan Bolotnikov, g'ayridin, yuz yillik urush, demokratik tuzum, parlament monarxiyasi, kapitalistik, Parij kommunasi, proletar, kapitalistik jamiyat, parlament, general shtatlar, zemstvo sobori, diktatura, avtoritar – repressiv tuzum.

Savol va topshiriqlar:

1. So'nggi bir yarim ming yillikda asosiy yuqori uzoq muddatli ijtimoiy siyosiy sikllarni ayting?
2. O'rta asr, industriya arafasi va industrial jamiyatda jamiyatning ijtimoiy sinfiy tuzilmasida qanday o'zgarishlar yuz berdi?

3. *Davlat taraqqiyotining asosiy bosqichlari qanday bo'ldi?*
4. *XX asrda totalitar davlatlarni paydo bo'lishining sabablari nimada?*
5. *Industrial jamiyatning ijtimoiy qatlamlarini ayting?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. Ijtimoiy-siyosiy sikllar.
2. Ijtimoiy kuchlarning yangi joylashuvi.
3. Feodal-kapitalistik jamiyatlarda siyosiy hayot.
4. XX asr boshlarida eng katta siyosiy voqealar.

5-MAVZU: MA'NAViy SOHADAGI O'ZGARISHLAR

1. *Ma'naviy dunyo.*
2. *Fan taraqqiyotida ikkinchi uzoq muddatli sikl.*
3. *Uchinchi uzoq muddatli sikl bosqichi.*
4. *To'rtinchi uzoq muddatli ilmiy sikl.*
5. *Beshinchi uzoq muddatli sikl.*

1. Ma'naviy dunyo. Bilimlarning to'planishi, madaniyatning yutuqlari diniy e'tiqodlar qiyofasini o'zgartira borib, avloddan avlodga o'tadi. Antik davr (mil. avv. V asr)dan so'ng ma'naviy dunyo o'zgardi. Fan, madaniyat, ta'limda inqiloblar yuz berdi. Inson tafakkurida qudratli, ba'zida hatto, xavfli yutuqlar yuz berdi.

Bu jamiyatning boshlanishiga feodalizm genezisi davrida asos solindi. U ko'p hollarda kelajakni belgilab berdi. O'rta asrlarda sivilizatsiyaning bolalik davri (V-X asrlar)da dunyoni hissiy qabul qilishning o'ziga xosliklari va tafakkurning qurilishi tug'ilib, kelajakda o'rta asr mentalitetining tuzilmasini his qilish mazmunini shakllantirdi va to'ldirdi.

Ilmiy bilimlar taraqqiyoti, antik sivilizatsiyaning ilmiy tafakkuri yutuqlari bilimning keyingi evolyutsiyasi asosida yotdi. O'tish davrida intellektual faollikning pasayishi, o'rta asr aqidaparastligining hukmronligi XV asr o'rtalari XVII asr so'nggida buyuk ilmiy inqilob uchun shartsharoit yaratdi. Fan evolyutsiyasi uch mustaqil, lekin o'zaro bog'langan oqimlar bilan amalga oshdi. Qaysiki, u zamonaviy ilmiy dunyoqarashning to'qimasini shakllantirdi. Keyingi ilmiy to'ntarishlar uning alohida belgilarini qayta shakllantirdi xolos.

Birinchi oqim – bu Sharqda ilmiy tafakkurning yuksalishi edi. Sharq olimlari qadimgi Sharq va Yunon fani yutuqlarini o'zlashtirdilar va rivojlantirdilar (Aflotun va Arastu).

VII-XII asrlarda Turkiston o'lkasida fan-madaniyatning rivojlanishi kuzatildi. Bu davrning eng mashhur olimlaridan biri Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850-yillarda yashab ijod qilgan). Al-Xorazmiy haqiqiy ensiklopedik olim bo'lib, matematika, astronomiya, geografiya fanlari bo'yicha asarlar yaratdi. Olim algebra fanining asoschisi edi. U xalifa Ma'mun zamonida (813-833-yillar) «Bayt ul-hikma»da mudir sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bog'dodda u Suriya, Iroq, Eron, Xuroson va Movarounnahr olimlari bilan ijod qildi. Xorazmiy zamondosh olimlar bilan

birgalikda yer aylanasining uzunligi, radiusi hamda geografik xaritalar tuzish kabi masalalar bilan mashg'ul bo'ldi. Zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografik olimi sifatida fanga ulkan hissa qo'shdi.

Al-Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozdi. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Bu kitoblar «Al-jabr val-muqobala», «Hind hisobi haqida» ya'ni, arifmetik asar, «Kitob sur'at ul-arz», «Yer surati» haqida geografiyaga oid kitob, «Zij» va «Usturlob bilan ishlash haqidagi kitob» kabi astronomiyaga oid asarlar, shuningdek, «Kitob at-tarix», «Yahudiylarning taqvim va bayramlarni aniqlash haqida risola» nomlari bilan atalgan. Xorazmiy merosida, ayniqsa, «Al-jabr val-muqobala» kitobining ilmiy ahamiyati nihoyatda buyukdir. Bu kitobi bilan u matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos soldi. Hatto, «algebra» atamasi ushbu kitobning «aljabr» deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematika fanida «algoritm» atamasi shaklida o'z ifodasini topdi. Uning «Aljabr» asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'lchash, ariq chiqarish, bino qurish, me'rosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o'lchov ishlarida dasturulamal bo'lib xizmat qildi. Al-Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilindi va takror ishlandi. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamalariga asoslangan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasining Yevropa qolaversa, butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Al-jabrni mustaqil fan darajasiga ko'tardi.¹

Bu davrda o'lkamizda yashagan yana bir mashhur olim Muhammad al-Farg'oniy edi. U Bog'dodagi «Bayt ul-hikma»da faoliyat ko'rsatgan bizning vatandosh olimlardan biridir. Buyuk astronom, matematik va geograf Ahmad al-Farg'oniy (797-865-yillarda yashab ijod qildi). U Farg'onada tavallud topgani uchun Sharqda al-Farg'oniy, Yevropada esa Alfraganus taxallusi bilan shuhrat topgan. U avval Marv, so'ngra Bog'dod, Damashq va Qohira shaharlarida astronomiya, matematika va geografiya fanlari bilan shug'ullandi. Qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. U asosan Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o'rnini aniqlash, yangicha «zij», ya'ni astronomik jadval yaratish ishlariga rahbarlik qildi. 832-833-yillarda Suriyaning shimolida Sanjar dashtida va ar-Raqqa oralig'ida yer meridianining bir darajasi uzunligini o'lchashda qatnashdi. 861-yilda uning rahbarligida Fustat (Qohira) shahri yaqinida

¹ Muhamadjonov A. 7-sinf O'zbekiston tarixi, «O'qituvchi» nashriyoti 120-121-betlar

joylashgan Ravza orolida Nil daryosi ichida qurilgan qadimgi gidrometr – daryo oqimi (sathini o'Ichagich) «Miqyos al-Nil» inshooti va uning darajasi qayta tiklandi. Ahmad Fargʻoniy tarixda birinchilardan boʻlib yer-ning dumaloqligini isbotlab bergan olimdir.

Bizgacha A.Fargʻoniyning 8 asari saqlanib qolgan. Ular orasida uning «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum» kitobi ham bordir. Bu kitob XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib, nafaqat musulmon sharqida, balki Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Shundan soʻng, Ahmad Fargʻoniy nomi lotinlashtirilib, «Alfraganus» shaklida gʻarbda shuhrat topdi. Uning «Astronomiya asoslari» nomli kitobi bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani boʻyicha asosiy darslik sifatida foydalanildi.²

Davrning ulugʻ mutafakkirlaridan biri Abu Ali ibn Sino 980-1037-yillarda yashab ijod qildi. Maʼlumotlarga koʻra, ibn Sino 400 tacha asar yozgan, «Tib qonunlari» va «Kitob ash-shifo» olimning eng yirik asarlaridandir. Bu asarlarda astronomiya, geologiya, fizika, adabiyot, falsafa, biologiya va geografiyaga oid oʻz zamonasiga yarasha ilgʻor va ilmiy mulohazalar mavjud. Ibn Sino hozirgi zamon geologiya, geografiya, geomorfologiya, metrologiya va iqlimshunoslik fanlarida qoʻllanilayotgan bir qator qonuniyat va tushunchalarni yaratishga muvaffaq boʻlgan. Tabiiy sharoitda turli unsurlarning inson salomatligiga taʼsirini toʻgʻri baholay olgan. Olimga ehtirom sifatida dunyoning turli mamlakatlarida, jumladan, Belgiyaning Kortreyk shahrida haykal oʻrnatilgan. Uning tibbiyotga doir asarlarida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, diagnostika, muolaja usullari, dorivor oʻsimliklar va dori-darmonlarning xususiyatlari, parhez, inson salomatligi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning koʻpgina gʻoyat muhim masalalariga eʼtibor berilgan. Uning «Al-qonun fit-tib» asari XII asrdayoq lotinchaga tarjima qilinib, to XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qoʻllanma sifatida foydalanilgan. Oʻrta asrning buyuk allomasi sharqda «Shayx ur-ra'is», gʻarbda esa «Avitsenna» nomlari bilan shuhrat topdi. Ibn Sinoning 5 jilddan iborat «Al-qonun» (Tib qonunlari) kitobi jahon tibbiyotining noyob xazinasi hisoblanadi. Shu bilan birga, u nafaqat qomusiy olim, ayni chogʻda isteʼdodli adib hamdir. «Qush risolasi», «Salomon va Absol», «Yusuf qissasi» singari asarlari buning yaqqol isbotidir.

² Muhammadjonov A.7-sinf Oʻzbekiston tarixi 121-122 - betlar

Mashhur ensiklopedik olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048-y) astronomiya, fizika, matematika, geologiya, geodeziya, geografiya, mineralogiya, tarix singari fanlar yo'nalishida ulkan kashfiyotlar qilgan qomusiy bilim sohiblaridan biri hisoblanadi.

Uning shoh asarlari jumlasiga «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Xorazmning mashhur kishilari», «Hindiston», «Ma'sud qonuni», «Mineralogiya», «Saydana», «Astrologiyaga kirish», «Astronomiya kaliti», «Jonni davolovchi quyosh kitobi», «Ibn Sino bilan yozishmalar» singari asarlarni kiritish mumkin. Beruniy asarlari ko'p asrlardan buyon sharq-u g'arbda keng tarqalib, ulardan foydalanilmoqda. U o'zining falakiyotga oid asarlarida Kopernikdan qariyb 5 asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni o'rta asrlarda birinchi bo'lib ilgari surdi. Yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. U dunyoning geografik xaritasini va globusni yaratdi hamda Amerika qit'asining mavjudligini Kolumbdan oldin ilmiy asosladi.

Jahon fani ravnaqiga katta hissa qo'shgan Uyg'onish davri daholari qatorida yurtoshimiz Abu Nasr Farobiy (873-950-y.y) alohida o'rin egallaydi. O'zining qomusiy bilimlari, ayniqsa, falsafa sohasidagi ulkan xizmatlari bilan u «Al-muallim as-soniy» (Ikkinchi muallim), Arastudan keyin «Sharq Arastusi» nomi bilan mashhurdir.

U tabiiy va ijtimoiy fanlarga oid 160 dan ortiq asar yaratgan. Ayniqsa, falsafa ilmni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Forobiy Arastuning «Metafizika», «Etika», «Ritorika», «Sofistika» singari shoh asarlarini chuqur ilmiy sharhlash, mazmun mundarijasini ilmiy-nazariy tahlili fanga qo'shilgan ulkan hissa edi. Farobiyning «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi», «Falsafaga izohlar», «Fozil odamlar shahri» singari asarlari al-loma qiziqish doirasi va ma'naviy olamining nechog'lik kengligi, teranligidan darak beradi. Turkistondagi fan yutuqlari yangi davrda Yevropada ilmiy bilimlarning rivojlanishi uchun juda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchi oqim – Vizantiya fani bo'lib, Yunon-Rim dunyosi fanining bevosita vorisi edi. Vizantiyalik mashhur olim Lev Matematik (VIII asr oxiri IX asrning 60-yillarida) matematika, fizika, mexanika, falsafa, astronomiya, tibbiyot sohalarida asarlar yozdi. U birinchi bo'lib harflarni arifmetikaning belgisi sifatida ishlatdi. Mixail Psel (1018-1096/97-yillar) olim-ensiklopedik bo'lib, falsafa bilan shug'ullanib, mantiqning asoslari-

ni yaratdi. Nikifor Grigorial (1295-1360-yillar) Arastu g'oyalarini rivojlantirdi, kalendar islohotini taklif qildi.

Georgiy Pleton (1360-1452-yillar) Aflotunning muxlisi bo'lib, uning g'oyalarini o'zining «Qonunlar» falsafiy-diniy asarida rivojlantirdi. U Florensiyada Platon akademiyasini takror tiklashga erishdi.

Uchinchi oqim – sharq va antik ilmiy tafakkurning asoslarini qabul qilgan G'arbiy Yevropa fani ko'pincha tadqiqotlarda o'z yo'llarini tanlab amalga oshirdi hamda o'rta asr Yevropasining ilmiy merosini yaratdi.

O'rta asr Yevropasining birinchi ensiklopedik olimi vestgot Ispaniyasi olimi Sevilyalik Isidor edi (570-630-yillar). Uning 20 kitobdan iborat katta («Etimologiya» yoki «Boshlang'ich») asarida grammatika, ritorika, dialektika, geometriya, kimyo, astronomiya kabi ilmiy bilimlar to'plangan edi.

XI-XII asrlar Yevropa fani uchun xos bo'lgan xususiyat – bu Arastu ta'limotining katolik ilohiyatshunosligi, aqidaparastligining rivojlanishi bilan sintez qilishni amalga oshirishga urinish edi. Bu sohada Foma Akvinskiy (1225/26-1277-yy.) faoliyatini ko'rsatish mumkin. U o'z asarlarida e'tiqod va bilimni murosaga keltirishga urindi. Bilimning qimmatini tan oldi, lekin din aqidalariga birinchilikni berdi.

Tabiiy va amaliy fanlar rivojlandi. Pizanlik Leonardo Fibonachchi sharq algebrasi va hind hisobini Yevropa faniga kiritdi. Uning «Hisoblar kitobi» (1202-y) asari matematikaning rivojlanishi va uni injenerlik ishi, qurilishda amalda qo'llashga imkoniyat yaratdi.

Yevropa ilmiy bilimining o'sishida tub burilish XV-XVI asrlar oxirida yuz bergan ilmiy inqilob bo'ldi. Din aqidalaridan xoli bo'lgan, amalda to'plangan dalillarni umumlashtirish asosida dunyoning yangi ilmiy manzarasini yaratish vaqti keldi. Bu dunyoni keyingi asrlarda industrial o'zgartirish uchun asosni qo'ydi. Ilmiy kashfiyotlar va texnik ixtisoslarning soni keskin o'sdi.

Ilmiy inqilobni bu bosqichida tabiiy fanlarning yutuqlari yaqqol ko'rinadi. Fizika fanining turli sohaları – mexanika, statika, optika, gidravlika tez rivojlandi. Matematika yanada keng rivojlandi. Logarifmlar kashf qilindi. Trigonometriya, sferik geometriya takomillashdi. Analitik geometriya yaratildi. Kimyo, biologiya, zoologiya, geologiya va mineralogiyada yangi bilimlar jamg'arila boshlandi. Geografik qarashlar kengaydi. Iqlim, shamollar, dengiz oqimlarini o'rganish boshlandi. Hidrografiya,

okeanografiya fanlari paydo bo'ldi. Kartografiya takomillashdi. Sharq mamlakatlari, ayniqsa, O'rta Osiyoda bu davrda bog'lar barpo qilinib, bu bog'larda dunyoning turli burchaklaridan o'simliklar to'plandi. Bunday bog'lar Amir Temur bog'lari (Samarqandda), Bobur bog'lari (Afg'oniston va Hindistonda) tarixdan ma'lum. Yevropada birinchi botanika bog'i Italiyada, keyin esa boshqa mamlakatlarda paydo bo'ldi.

Ilmiy texnika inqilobining namunalari Leonardo da Vinchining gidravlika va mexanika sohasidagi yutuqlari, Nikolay Kopernikning geiosentrik tizimi, Tixo Brage, Iogan Kepler va Galileo Galileyning astronomiya sohasidagi yutuqlari edi. O'sha davrning buyuk ingliz olimi Isaak Nyuton (1643-1727-y.y) klassik fizikaning asoschisi bo'ldi. U butun dunyo tortilish qonunini ochdi. Bu olim N.Kopernikning astronomiyada boshlagan to'ntarishini tugalladi. Differensial va integral hisoblashlarni ishlab chiqdi. Optika sohasida kashfiyotlar qildi. Birinchi reflektorli teleskopni yaratdi.

Ijtimoiy fanlarda ijobiy siljishlar yuz berdi. Mashhur faylasuf Frensis Bekon (1561-1626-y.y) barcha bilimlarning asosi tajriba degan xulosaga keldi. U ingliz materializmining asoschisi edi. F.Bekon insonga tabiat ustidan hukmronlikni berishi lozim bo'lgan fanlarning rivojlanish dasturini ishlab chiqdi.

Matematik va faylasuf Rene Dekart (1596-1650-y.y) analitik geometriyaning o'zgaruvchan kattaliklar tushunchasini qo'llab, matematika fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. U kosmogonik nazariyani ilgari surdi. Bu nazariyaga ko'ra, Quyosh tizimining yuzaga kelishi va qurilishi uzoq rivojlanish yo'li natijasidir.

Birinchi ilmiy jamiyatlar sharq mamlakatlarida vujudga keldi. Bag'dodda «Bayt ul-hikma» (Donolar uyi), xalifa Ma'mun akademiyasi (IX asr), Xorazmda Xorazmshoh Ma'mun akademiyasi (XI asr), Samarqandda Ulug'bek akademiyasi (XV asr) buning misolidir.

Yevropada birinchi ilmiy jamiyatlar XVII asrda paydo bo'ldi. London qirollik jamiyati (1662-y.), Fransuz qirollik akademiyasi (1666-y.) tashkil topdi. Akademiyalar fanlararo tadqiqotlarni ilmiy umumlashtirish uchun imkoniyat yaratdi. Davlat tomonidan akademiyalarga homiylik qilindi.

Sanoatdagi yutuqlar mexanika va pnevmatika fanlarining rivojlanishiga yordam berdi. Ishlab chiqarish ehtiyojlari fanning jadal taraqqiyotiga olib keldi.

XVIII-XX asrlardagi uzoq muddatli ilmiy sikllar

Xronologik doiralar	Sikllar				
	1691-1760-yillar	1761-1830-yillar	1831-1894-yillar	1895-1944-yillar	1845-1975-yillar
Davomiylik (yil)	70	70	64	50	50
Yetakchilik qilgan davlatlar	Angliya Fransiya Rossiya Shvetsiya	Angliya Fransiya Rossiya Germaniya	Germaniya Angliya Fransiya AQSh Rossiya	Rossiya Fransiya AQSh Angliya	AQSh Rossiya Yaponiya
Fanning hal qiluvchi yo'nalishlari	Elektr Kimyo Botanika Falsafa	Texnika fanlari Kimyo Siyosiy iqtisod	Biologiya Kimyo Elektr Iqtisod	Fizika Genetika Kimyo Biologiya	Atom fizikasi Mikroelektronika Kibernetika
Asosiy ilmiy kashfiyotlar	Elektr nazariyasi (Grey, Franklin) Fransuz ensiklopediyasi	Kont-Laplasning kosmogonik nazariyasi, Lavuazening yonish nazariyasi	Darvinning evolyutsiya nazariyasi, to'qimalar nazariyasi, elektromagnit nazariyasi	Nisbiylik nazariyasi, Kvant nazariyasi, Atom qurilishi, Genetika	Kibernetika, Yangi elementar zarralar Lazerlar
Fanning tashkiliy shakllari	Akademiya, universitetlarning tarqalishi	Ingliz olimlarining «Oy jamiyati» qirollik instituti	Ilmiy jamiyatlar «Britaniya assotsiatsiyasi» ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari	Ilmiy institutlar va laboratoriyalar	Davlat ilmiy markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, yirik institutlar

Birinchi sikl (1691-1760-yy.) Ilmiy inqilob davri kashfiyotlarining tarqalish va jadal o'zlashitish davri, sanoat inqilobining texnik shart-sharoitlarini yaratish bo'yicha jiddiy ishlarni amalga oshirish davri bo'ldi. Texnika fanlari, mashina va texnologik jarayonlarni kashf qilish ustuvor ahamiyat kasb etdi. G.Sever bug' nasosi, Derbi temir quyish texnologiyasi, G. Nyukomch bug' mashinasini ixtiro qildi.

Fizikada elektr nazariyasi tez rivojlandi. L.Galvaning eksperimentlari natijasida A.Volta galvanik element va kondensatorni ixtiro qildi. Yu.V.Petrov volt yoyi, X.K.Ersted 1820-yilda elektromagnetizm,

A.G.Devi elektrokimyo asoslarini yaratdi. Grey elektr o'tkazishni tadqiq qildi. Dyufey elektrlikning ikki turi, B.Franklin elektr, yashin takrorlagichni kashf qildi. S.Geym gazlar kimyosi, L.Leyler matematika, S.Bleyk uglekisliy gazni ochdi. K.Linney o'simlik, hayvon va minerallarni turkumladi.

Ijtimoiy fanlarda siljishlar yuz berdi. Jon Lokkning erkinlik to'g'risida, mulk va konstitutsiyaviy qonun hokimiyatini yoqlagan g'oyalari alohida o'rin tutadi. Monteske, Volter, J.Russo feodal jamiyati, cherkovni keskin tanqid qildi.

Ilmiy tafakkurning yutuqlari «Sanoat va hunarlar» fan ensiklopediyasida umumlashtirildi. Bu ensiklopediyaning 20 jildi 1751-1772-yillarda chop etildi. Bu nashrning tashabbuskorlari Didro (1713-1784-yy.) va D.Alamber (1717-1783-yy.) edilar.

2. Fan taraqqiyotida ikkinchi uzoq muddatli sikl (1761-1830-yy.).

Fan taraqqiyotida ikkinchi uzoq muddatli sikl sanoat inqilobining yoyilishi bilan bir vaqtda to'g'ri keldi. Sanoat inqilobi fan taraqqiyoti tuzilish va sur'atlar, uning natijalarini amaliy qo'llash muddatlarini jadallashuviga izini qoldiradi.

Sanoat inqilobi, kapitalistik bozor mexanizmining qaror topishi ilmiy bilimlarga ehtiyoj va ularni amalda qo'llashni shakllantirdi. O'sha davrda qator yirik texnik kashfiyotlar qatorini tashkil qildi. Jumladan, Xargrivi, Arkrayt va Kromtonlarning ip yigiruv mashinalari, Boltonning mashinasozlik zavodi, qobiliyatli shotland kashfiyotchisi Jeyms Uattning bug' mashinasi, P.Grivotikning yuqori bosimli dvigateli, Brom Uitvortning mexanik dastgohi, Jorj Stefensonning parovozini ko'rsatish mumkin. Tabiatshunoslik fanlaridan kimyo sohasida qator kashfiyotlar vujudga keldi. Jozef Pristli 1774-yilda kislorodni kashf qildi. Bu gazlar kimyosida inqilob bo'ldi. Antuan De Lavuaze ximik birikmalarni turkumlashni amalga oshirdi, termokimyoning asoslariga poydevor qo'ydi. Suv kislorod va vodoroddan iborat ekanligini asoslab berdi va bu gazlardan suvning sintezini amalga oshirdi. Lavuazening ilmiy g'oyalarini ingliz fizigi va ximigi Jon Dalton rivojlantirdi. U gazlar aralashmasi bosimini o'Ichadi. Atom og'irligi tushunchasini fanga kiritdi va kimyoning asosiy qonunlaridan biri unsurlarning birikmalardagi qisqa nisbatlardagi qonunini ochdi.

Astronomiya va matematikada fundamental tadqiqotlar rivojlandi. Fransuz fizigi va matematigi Pyer Simon Laplas ehtimollar nazariyasining matematik asoslarini qo'ydi. Havoda tovushning tarqalish tezligini

aniqladi. Laplas o'zining 5 jildli «Samoviy mexanika traktati»da koinotning barqarorligini asosladi. Uning boshlang'ich tumanlikdan tabiiy paydo bo'lish nazariyasini ochdi. U nemis tabiatshunosi va faylasufi G. Kantning quyosh va planetalarning sochilgan aylanadigan materiyadan tashkil topgani to'g'risidagi kosmogonik nazariyasini aniqlashtirdi. Kant quyosh tizimini muqarrar halokati to'g'risida xulosaga keldi. Biologiyaning o'tgan bosqichdagi yutuqlarini fransuz tabiatshunosi Jan Batist Lamark davom ettirdi. Karl Linney o'z vaqtida o'simlik va hayvonot dunyosining o'zgarishini aytgan edi. Lamark esa o'simlik va hayvonot dunyosini iqlim, oziq-ovqat, issiqlik, yorug'lik kabi atrof-muhit ta'siridagi uzluksiz evolyutsiyasi g'oyasini ilgari surdi. Bu o'z navbatida o'simliklarda avloddan avlodga uzatiladigan va asta-sekin to'planib, yangi turlarni paydo bo'lishiga olib keladigan nasliy o'zgarishlarga olib keladigan tushunchani shakllantirdi.

Sanoat inqilobi davrida texnika fanlari kuchli rivojlandi. Texnik yutuqlarning dastlabki kashfiyotchilari amaliyotchi mohir ishchilar, keyin injenerlar edi. Texnik fanlarning shakllanishi, bilimlar va amaliy tajribalarning to'planishi boshlandi. Ma'lum bir tabiiy fanlarni empirik qo'llash bilan, keyin esa ishlab chiqarish tajribasini nazariy umulashtirish asosida amalga oshdi. Texnik fanlarning fundamental asoslari asta-sekin yaratildi (mashina va mexanizmlar, metallurgiya, kimyoviy ishlab chiqarish, konchilik nazariyalari va hakazo).

Ijtimoiy fanlarda siyosiy iqtisod birinchi o'ringa chiqdi. Bu kapitalistik bozor tizimi, mexanizmini nazariyalashga bo'lgan ehtiyoj edi. Bu fanning asosini shotland iqtisodchisi va faylasufi Adam Smit shakllantirdi. U o'zining «Xalqlarning boyligi sabablari va tadqiqoti to'g'risida»gi asarida (1776-yil) qiymatning mehnat nazariyasi asoslarini ishlab chiqdi. Bu davrning eng mashhur faylasufi Georg Gegel edi. U ruhning birlamchiligi (mutlaq g'oya) va tabiat, materiyaning ikkilamchiligidan kelib chiqdi. Gegelning asosiy xizmati dialektik metodning yaratishi bo'lib, tabiat, jamiyat tafakkurining ularga xos bo'lgan ichki qarama-qarshiliklar natijasida taraqqiy qilishini ilgari suradi. Materialist-metafizik Lyudvik Feyerbax Gegel ta'limotiga qarama-qarshi g'oyani ilgari surib, borliqni birlamchi, ongni ikkilamchi o'ringa qo'ydi. Ijtimoiy qarama-qarshiliklar Anre Sen Simon Robert Ovenning asarlarida «Utopik sotsializm»ning

tugʻilishiga imkoniyat yaratdi. Robert Oven sotsialistik gʻoyalarni amalga oshirishga muvaffaqiyatsiz urinib koʻrdi.

Qirollar qoʻllab quvvatlagan olimlarning rasmiy hamjamiyati fanlar akademiyasiga qarama-qarshi Dissident akademiyalari, Birmingemdagi «Oy jamiyati», Angliyadagi «Qirollik instituti» (1799-yil) tashkil etildi.

3.Uchinchi uzoq muddatli sikl bosqichi (1831-1894-yy). Biologiya, elektr nazariyasi, kimyo va jamiyatshunoslik fanlari yetakchi oʻrinni egalladi.

Biologiya fanining taraqqiyotida Ch.Darvinning evolyutsiya nazariyasi markaziy hodisa boʻldi. Darvin oʻzining bosh asari «Turlarning tabiiy fanlar yoki hayot uchun kurashda qulay nasllarni saqlanishi»ni chop etish uchun «Bigl» kemasida dunyo boʻylab sayohati vaqtida katta miqdorda material toʻplab, uni 23 yil davomida takror ishladi. Asar juda katta qiziqish uygʻotdi. Ayniqsa, vorisiylik nisbati, oʻzgaruvchanlik va tanlov, odamning maymundan kelib chiqishi xulosalari jamoatchilik orasida katta bahs-munozarani tugʻdirdi.

Ch.Darvinning kashfiyoti botanika, zoologiya fanlari sohasida oʻnlab yuzlab tadqiqotchilarning asarlari xulosalari asosida tayyorlangan edi. U dunyoning ilohiy paydo boʻlishi toʻgʻrisidagi tushunchalarga oʻrin qoldirmay, yerda hayotning kelib chiqishi va uning taraqqiyoti mexanizmlariga boʻlgan qarashlarda inqilobiy toʻntarishni kiritdi.

Monax Gregor Mendel noʻxatni koʻpaytirish tajribalarini olib borib, genitikaning asosiy qonunini shakllantirdi. U qonuniyatli izchillikda avloddan avlodga oʻtadigan nisbiylikning boshlangʻich birliklari genlarini ochdi. Shleyden va Shvann organizmlarning toʻqimalardan tuzilishi va evolyutsiyani kashf qildilar. Bu Fon Beruga yangi fan – embriologiyani shakllantirishga imkoniyat yaratdi.

Biologiyada erishilgan yutuqlar ximik Lui Paster tomonidan mikroblarning kashf qilinishi, biologiyaning yangi boʻlimi – mikrobiologiyani shakllantirishda oʻz aksini topdi. Bu fan chorvachilik va tibbiyotda keng qoʻllanila boshlandi. Bu kashfiyotlar Pasterning XX asrdagi biokimyoviy inqilobining darakchilaridan biri qildi. Kimyoning rivojlanishi, ayniqsa, organik kimyoda katta yutuqlarga erishildi. Tadqiqotlar natijasida Dyuma Fon Liba turli kimyoviy modda va birikmalarni ishlatish va ishlab chiqarishning yangi imkoniyatlarini ochdi. D.I.Mendeleyev 1869-yilda davriy sistemani tuzishi oʻsha vaqtda fanga maʼlum boʻlgan barcha elementlarni yangi tizimga solish imkoniyatini yaratdi.

Fizikada eng katta kashfiyotlardan biri elektr nazariyasining yaratilishi va uni amaliyotda foydalanishga yo'naltirish bo'ldi. 1831-yilda Maykl Faradiy elektr va magnetizm o'rtasidagi o'zaro aloqani ochdi. Bu elektr-magnetizmning asosi bo'ldi. K.Maksvell elektromagnit nazariyasini matematik asosladi. 1888-yilda Gers elektromagnit to'lqinlarini efirga uzatish imkoniyatini namoyish qildi. Bu radio aloqaning asosi bo'ldi. Qilingan kashfiyotlar natijasida asr oxirida telefon va radio aloqa ixtiro qilindi. Dinamo mashina yaratildi. 1872-yilda Ladigin cho'g'lanadigan lampochkani ixtiro qildi. 1881-yilda Edison elektr energiyasini taqsimlashning tarmoqli shaxobchasi bilan elektrostansiyani yaratdi. Bu bilan elektrotexnika ishlab chiqarish va maishiy sohaning elektrlashtirish asoslari qo'yildi.

Metallurgiyaga bo'lgan ulkan talab po'lat quyishning yanada samarali metodlari kashf qilinishiga olib keldi (Bessemmer, Simens, Tomas). Shuningdek, bu geologiya va boshqa texnik fanlarni rivojlantirishga olib keldi.

XIX asrdagi buyuk texnik kashfiyotlardan biri shvet olimi Alfred Bernard Nobelning (1833-1895y) dinamitni kashf etishi bo'ldi. Dinamitning kashf etilishi haqiqiy texnik to'ntarishga olib keldi. Dinamitdan portlash ishlarida foydalanib, qisqa vaqt ichida 80ta tunnel qurildi. Nyu York portiga kirishda to'siq bo'lgan suv osti qoyatoshlari portlatildi. Ayniqsa dinamit harbiy sohada keng tadbiiq etilib, urush maqsadlari uchun qurollarni vayronkor xususiyatini kuchaytirdi. 17 mamlakatda dinamit zavodi qurildi. A.B.Nobel o'z kashfiyotidan vayron keltiruvchi qurollar ishlab chiqarilishidan vijdon azobida yashadi. O'limidan oldin 1895-yilda vasiyatnomasini tuzib, butun boyligini insonga foyda keltirish, fan, adabiyotni rivojlantirish maqsadlariga sarflashni vasiyat qildi. Vasiyatnoma olimning o'limidan keyin e'lon qilindi. A.B.Nobel maktabda o'qimagan, biror nima yozmagan bo'lsada akademik, qobilyatli injener-tadbirkor edi.

XIX asrning oxirlarida tabiiy fanlar tizimlashtirildi. Nazariy tadqiqotlarni amaliy qo'llash eksperimentlarining mustahkam poydevori yaratildi. Ijtimoiy fanlarda, eng avvalo, yetuk kapitalistik jamiyatda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiyot nazariyasida chuqur o'zgarishlar yuz berdi. Bu sohada K.Marksning «Kapital» asarining chop etilishi katta voqea bo'ldi. Qiymat nazariyasi qo'shimcha qiymat nazariyasi bilan to'ldirildi. Uning ko'rinishini ko'p xil shakllari ochildi (foiz, foyda, renta, tadbirkorlik daromadi, savdo foydasi va boshqalar). Kredit,

pul muomalasi, moliyaviy muvofiqlashtirish, yer rentasini shakllantirish va taqsimlash, kapital oboroti aylanishining nozik mexanizmlari tadqiq qilindi.

Siyosiy iqtisodning boshqa maktablari marksizm bilan munozaraga kirishdi. Iqtisodiyot yo'nalishida alohida sohalar rivojlandi (Avstriya maktabi (K.Bemger, E.Bem-Baresk). Ular tovarlarning iste'mol qiymati, ularning foydaliligini me'yoriy tadqiqotiga alohida e'tibor berdilar. Angliyadagi Kembrij maktabining asoschisi A.Marshall «Siyosiy iqtisod prinsiplari» (1890-yil) asarida baho nazariyasi, uning tuzilishi, talab omillariga e'tibor berdi. Matematik maktab L.Valras, N.Pareto, J.Vons va boshqalar iqtisodiy tadqiqotlarda matematik metodlardan foydalanish asoslarini yaratdilar.

Falsafada turli maktab va yo'nalishlarning soni tez o'sdi. Markscha falsafa bilan bir qatorda, vulgar materialistlar (Moleshott), pozitivizm (O.Kont, J.S.Mill, G.Spenser), neokantchilik, neogegelchilik, intuitizm va boshqalar keng rivojlandi.

4. To'rtinchi uzoq muddatli ilmiy sikl (1895-1944)ning boshlanishi ilmiy inqilob bilan mos tushdi. Qaysiki, u tabiiy fanlar sohasida to'ntarishga olib keldi. Dunyoning yangi manzarasini shakllantirdi. Tabiatshunoslikda ilmiy inqilobning yetakchisi sifatida fizika fani xizmat qildi. 1895-1896-yillarda boshlab Rentgen nurlari va radiaktivlik M.Plankning kvant nazariyasi (1900-y) A.Eynshteynning maxsus (1905-y) va umumiy (1916-y) nisbiylik nazariyalari, T.Rezerford va N.Borning (1913-y) atom tuzilishi modeli kashf qilindi. Ilmiy inqilobning ikkinchi to'liqini vaqtda ikki jahon urushi oralig'ida D.Broyl – Shredingerning to'liqinsimon mexanikasi, T.Rezerfordning (1929-y) yangi kvant, neytron (1932-y), pozitron mezon (1935-y), atom yadrosining bo'linishini ochilishi (1938-y) fan tarixida muhim voqea bo'ldi. Atom fizikasining katta yutuqlari kelgusi atom erasining fundamental asoslarini qo'ydi.

Biologiya fanining rivojlanishi fermentlar, vitamin va garmonlar, viruslar va antibiotiklarning kashf etilishi, organizm va biosferada moddalar almashinuvi mexanizmining ochilishiga olib keldi. N.Vavilovning asarlarida o'simliklarni tizimlashtirish ilmiy asoslandi. Genetika fani jadal rivojlandi. I.P.Pavlovning shartli reflekslar va oliy nerv faoliyatining regulyatsiyasi yirik ilmiy kashfiyot bo'ldi. Biologiya fanlarining turli sohalarida katta yutuqlarga erishildi va ular qishloq xo'jaligi, sanoat va tibbiyotda keng amaliy qo'llanila boshlandi. Bu o'z navbatida sanoatda

yangi sohalar (vitamin, mikrobiologiya), meditsina va farmokologiyada yangi bo'limlarning yaratilishi uchun tibbiy mashinasozlik rivojlanishining asosi bo'ldi.

Texnika fanlarida elektr energiya va axborot uzatishning yangi turlari (radio, televideniya), kimyoviy jarayonlarni turmush, tibbiyot (rentgen diagnostikasi) foydalanish, uzatish, takrorlashlarda yangi usullar ochildi. Mashina va mexanizmlar nazariyasi, samolyotsozlikning rivojlanishi bilan bog'liq yangi bilimlar bilan to'ldirildi (E.Sialkovskiyning «Airodinamika»si). Samolyotlar, tanklar, avtomobillarda ichki yonuv dvigatelidan foydalanish jadal texnik va ijtimoiy taraqqiyotga olib keldi.

Ijtimoiy fanlar sohasida bu davrda yetakchi an'ana marksizmning tez sur'atlar bilan tarqalishi va rivojlanishi bo'ldi. V.Leninning asarlarida maksizmning iqtisodiy nazariyasi rivojlantirildi. Agrar sohada kapitalizm taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari (imperializm) tadqiq qilindi. Kapitalizm taraqqiyotining yangi bosqichiga xos belgilar ochib berildi. Bilish nazariyasi, davlat taraqqiyoti muammolari ishlab chiqildi. G'arb marksistlari ichidan Karl Kautskiy, E.Bernshteyn asarlarini ko'rsatish mumkin. Marksistlar o'rtasida turli g'oya va oqimlarning kurashi kuchaydi. Davrning oxirida markscha nazariya, I.V.Stalin va jamiyatshunoslarning asarlari vulgarlashtirildi. XX asrning so'nggi choragida sotsiologiyaning asoslari M.M.Kovalevskiy, P.A.Sorokin, N.D.Kondratyevning asarlarida shakllantirilishi yirik voqea bo'ldi. E.D.Kondratyev (konyukturaning katta sikllari) nazariyasini asosladi. A.A.Bogdanov (tekstologiyaga) tizimli yondashuvni bayon qildi. E.D.Buxarinning o'tish davri iqtisodiyoti ilmiy va amaliy jihatdan muhim o'rin egalladi. XX asrning 10-20 yillarida ijtimoiy fanlar sohasida Rossiya yetakchi o'rinda edi. Totalitar tuzum o'rnatilishi bilan taniqli olimlar jismonan yo'q qilindi. Ularning bir qismi esa xorijga ketishga majbur bo'ldi. G'arb mamlakatlari oldingi ilmiy siklda shakllangan jamiyat yo'nalishi yanada rivojlandi. Falsafada idealistik-subyektiv maktablar (intuitivizm, neogegelchilik, neopozitivizm, ekzistensializm va boshqalar) rivojlandi. Bu davrning eng yirik faylasuflari Max va Averanius, Rassel va Sartrlardir.

Iqtisodiyot fanida J.M.Keynsning «Bandlik, foiz va pul umumiy nazariyasi» asari katta voqea bo'ldi (1936-yil). Bu asarda inflyatsiya, ishsizlik muammolari, tushkunlikka qarshi tadbirlar, taqchil moliyalashtirishga yangi nazariy yondashuvlar ishlab chiqildi. Takror ishlab

chiqarish, pul jarayoni muammolariga davlat aralashuvining kuchayishi asoslandi. Keynsning «konsepsiya»si oʻn yillab davlat monopolistik kapitalizmining ilmiy bazasi boʻldi. A.Aftalon va J.B.Klayk daromad, talab va taklif dinamikasida oʻzaro aloqani tadqiq qildilar. V.V.Leontev va L.V.Kantorovichning asarlarida iqtisodiy-matematik tahlil metodlari, sohalararo balans keng tarqaldi.

5. Beshinchi uzoq muddatli sikl urushdan keyingi davrda (50-60-yillarning choʻqqisi) rivojlandi va amaliy xarakterga ega boʻlib, fundamental toʻntarish vaqtida oʻzlashtirilgan zahirani oʻzlashtirishga qulay imkoniyat boʻldi. Ilmiy texnika inqilobi ishlab chiqarishning fan hajmi darajasini oʻstirishga yordam berdi. Texnikaning qator yangi yoʻnalishlari (atom energetikasi, kosmonavtika, sintetik qatron, gerbitsidlar va boshqalarni ishlab chiqarish) yaratishga olib keldi. Fan davlatning birinchi ahamiyat beradigan ustivor yoʻnalishi boʻldi. Ilmiy tadqiqotlarga xarajatlar va innovatsiyalar jadal surʼatlar bilan oʻsdi, shuningdek, olimlar soni ham keskin koʻpaydi. Lekin XX asrning 60-yillari oxiridagi ilmiy toʻntarish energiyasi asosan tugab borayotgani yaqqol koʻrindi. Yangi kashfiyotlar va ixtirolar qoʻshimcha boʻlib, xususiy xarakterga ega edi. Fanning yalpi tushkunligi shart-sharoitlari yetilib kela boshladi. Bu keyingi oʻn yilliklarda toʻla hajmda koʻrindi.

Atom tadqiqotiga ustivor ahamiyat berildi. Bu qator yangi element zarralarni kashf etilishiga tezlashtiruvchi – sinxrofazotronlarning yaratilishiga olib keldi va harbiy ishda atom va vodorod qurolini yaratish asosida inqilobni amalga oshirdi. Keyinchalik energetikada atom elektr stansiyalarning jadal qurilishi boshlandi.

Fizikaning yangi yoʻnalishi – kvant elektronikasi paydo boʻlib, lazer texnikasining yordami bilan energiyani oʻzlashtirish va foydalanishga sifat jihatdan yangi turini oʻzlashtirish uchun yangi nazariy poydevor yaratdi. Radio-elektronika va kibernetikaning yutugʻi sifatida elektron hisoblash mashinalari, yangi avtomatlashtirish va axborotni takror ishlashni koʻrsatish mumkin.

Kosmosni oʻzlashtirish tabiiy fanlarning sintezi jarayonining sifat jihatdan yangi darajasida oʻz ifodasini topdi. Texnikaning yangi sohalarini: kosmik matematika, kosmonavtika va boshqa materialshunoslik yoki metallurgiya, optika va raketa texnikasi, kosmik biologiya, meditsina, astronomiya, geologiya va boshqalar paydo boʻldi. Biologiya fanida bir necha kashfiyotlar qilindi. DNK ning strukturaviy modelini kashf qilganlari uchun D. Aotson va F.Krik Nobel mukofotini oldilar (1962-yil).

Kimyo fanining minerallar, metallar, qotishmalar kimyosi umumiy nazariyasi jadal sur'atlarda rivojlandi. Katalizatorlarni keng qo'llash boshlandi. Polimerlar, sintetik tolalarni ishlab chiqarish uchun yangi buyumlar sintezlashtirildi. Oldindan belgilangan xossalar bilan sintetik buyumlarni sun'iy o'g'it, gerbitsid, pestidsidlarni yaratilishi qishloq xo'jaligida «Yashil inqilob»ning unsurlaridan biri bo'ldi va xo'jalikni kimyoviy lashtirishning shiddatli rivojlanishiga olib keldi.

Amaliy kimyo mineral o'g'itlar, plastmassa, sintetik tolalarni omma-viy ishlab chiqarish yo'lini ochdi. Neftni chuqur takror ishlash, buyumlarning elektrokimyoviy yemirilishi mikrobiologiyaning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Tez rivojlanayotgan xalq xo'jaligi ehtiyojlari, metallurgiya, amaliy kimyo, foydali qazilmalarni razvedka qilish, qazib olish va boyitish sohalarida tub burilishlarga olib keldi. Mashina va texnologiya jarayonlari tubdan yangi tizimlar (po'latni uzluksiz quyish, foydali qazilmalarni geofizik, geokimyoviy razvedka qilish metodlari, ularni qazib olish geotexnologiyasi), xomashyoni chiqitsiz qayta ishlash texnologiyasi texnik fanlarning yirik yutuqlariga tayandi.

Iqtisodiy o'sish nazariyalari rivojlandi (A.Hansen, P.Samuelson va boshqalar). Iqtisodiyotning davlat boshqaruv mexanizmi va uning strukturali o'zgarishlari J.Gelbrayt tomonidan tadqiq qilindi. G'arb malakatlari-da sotsiologiya (P.Sorokin), ijtimoiy psixologiya katta yutuqlarga erishdi.

Ilmiy texnika inqilobining yagona oqimida fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi ijobiy va salbiy jihatlariga ega edi. Innovatsiya jarayonlarining tezlashuvi amaliyotda ilmiy yutuqlardan foydalanish, ilmiy ishlab chiqarish komplekslari, birlashmalarining sonini o'sishi, yangi g'oyaning tug'ilishidan uni realizatsiyasigacha uzoq yo'lning qisqarishi bu ijobiy edi. Fan ishlab chiqarish bilan qo'shilib, o'zining mustaqilligi, inqilobiy ruhini yo'qotib borishi salbiy jihat edi.

Kechagi kunni ifodalaydigan, yanada keksayib borayotgan ishlab chiqarishning buyurtmalarini so'zsiz bajaruvchisi bo'lish bu fanning salbiy holat edi. Bu salbiy jihatlar fanning bir qismi, ayniqsa, amaliy fanning konservatizmi va inersiyasini kuchaytirdi. Navbatdagi ilmiy va texnologik to'ntarishga to'siq bo'ldi. Fanning davlatlashuvi va militarizatsiyalashuvi mislsiz hajmlarga yetdi. Bu asosan davlat byudjeti hisobidan qoplanadigan fundamental va harbiy tadqiqotlarga ajratiladigan ulkan xarajatlar bilan bog'liq edi. U yoki bu sohada ilmiy tadqiqotlarning qamrovi va

tuzilmasi davlat ustuvorligi, amaldorlarning o'zboshimchaligiga yanada qaram bo'ldi. Davlat uchun insoniyatni qirg'in qilishning katta quvvatga ega bo'lgan vositalarini yaratish ustuvor ahamiyat kasb etdi.

Yer sayyorasi hududlarida xomashyo, yoqilg'i-energetika zahiralarning notekis taqsimlanishi, turli mamlakat va hududlarning notekis taraqqiyoti xomashyo, yoqilg'i-energetika zahiralarga ega bo'lish uchun turli mamlakatlarda o'rtasida harbiy siyosiy raqobatni kuchaytirdi. Qonli urushlar yuz berdi. Davlat va jamiyatlarni qurol-yarog' ishlab chiqarish sohasiga juda katta mablag'lar sarflandi. Eng yaxshi asbob-uskunalar, eng yuqori tafakkur bevosita insonga xizmat qiladigan fan-texnika yo'nalishtirishni chekkaga surib qo'yib, harbiy sohaga yo'naltirildi. Ikkinchi jahon urushidan keyin bu jarayondan faqat Yaponiya o'zini xoli qildi. Yaponiya harbiy ehtiyojlar (yalpi ichki mahsulotning 1% dan ko'p bo'lmagan)ga xarajatlar ulushini qonun yo'li bilan cheklab qo'ydi. Yaponiyada fan, texnologiyalarni rivojlanishi va ta'lim sohasiga juda katta mablag'lar qo'yildi. Harbiy xarajatlar keskin qisqartirilib, fan-texnika yangiliklari ishlab chiqarishga jadal tadbiiq etildi. Bu o'z navbatida jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy sohasiga ijobiy ta'sir qildi. XX asrning 70-yillariga kelib Yaponiya yuqori texnologiyalar, axborot texnologiyalarga asoslangan postindustrial jamiyatga ega bo'ldi. Shu bilan birga Yaponiyani jahon bozorida maishiy texnika ishlab chiqarishda yetakchi o'ringa chiqib olishiga boshlang'ich asos bo'ldi.

Tayanch iboralar: Ma'naviy dunyo, Sharq ilmiy tafakkuri, «Kitob at-tarix», Al-Farg'oniy, Ibn Sino, Al-Beruniy, Sharq uyg'onish davri, ikkinchi oqim, Vizantiya fani, Renessans davri, ilmiy texnika inqilobi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Ilmiy to'ntarishlarning oqimlari to'g'risida tushuncha bering?*
2. *XVII-XX asrlardagi ilmiy sikllar nima?*
3. *Tabiiy va aniq fanlar rivojlanishidagi asosiy yutuqlarni ayting?*
4. *Jamiyatshunoslik fanlarining yutuqlari nimalardan iborat?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. Ma'naviy sohadagi inqilobiy jarayonlar.
2. Ilmiy dunyoqarashning oqimlari.
3. Uzoq muddatli ilmiy sikllar.
4. Ilmiy inqiloblarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va roli.

6-MAVZU: O'RTA ASR VA INDUSTRIAL DAVRLARDA MADANIYAT

1. Yuksalish va tushkunliklar. 2. Uchinchi uzoq muddatli sikl. 3. Ta'lim sikllari va ta'limdagi inqiloblar. 4. Feodal industrial jamiyatlarning etika va mafkurasi.

1. Yuksalish va tushkunliklar. Hozirgi zamon madaniyati 4 qudratli oqimlar asosida shakllandi: Ko'p qatlamli va turli xil Sharq madaniyati. Eng avvalo, Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo va Arab mamlakatlarining qadimgi va boy madaniyat. Qadimgi Sharq, antik madaniy merosni o'zlashtirgan Vizantiya madaniyati XV asr oxirida ochilgan yangi dunyo xalqlarining qadimgi va o'ziga xos madaniyatlari.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda o'z davriga xos yuksak madaniyat rivojlandi. Eftalitlar, Turk xoqonligi davrida o'lkamizda oromiy, so'g'd, xorazm va ko'k-turk yozuvlari keng tarqalgan. Ta'lim tizimi keng shakllanib, bolalar 5 yoshdan yozish va hisob-kitobga o'rgatilganlar. Milodiy VI-VII asrlarda O'rta Osiyoda zardushtiylik, buddaviylik va moniylik va boshqa diniy qarashlar mavjud bo'lgan. Shaharsozlik yuqori darajada rivojlangan. Ammo o'lkamizning madaniy-ma'naviy taraqqiyoti arablar istilosi davrida, bosqinchilar mahalliy dinlarni soxta deb e'lon qilib, bu dinlarga tegishli bo'lgan yozma adabiyot va kitoblarni hamda yozuvlarni yo'q qildilar. Islom dinini majburan qabul qildirdilar.

IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda fan va madaniyatda yutuqlarga erishildi. Mahalliy sulolalarga bo'lgan somoniy, qoraxoniylar va xorazmshohlar davrida moddiy madaniyatning ulug'vor inshootlari bunyod qilindi. Aniq va tabiiy fanlar, badiiy adabiyot rivojlandi. O'lkamizda ilohiyatchi va hadisshunos olimlar mukammal asarlar yaratdilar (Imom al Buxoriyning «Al Jomiy as-Saxih», At Termiziyning «Kitob al Jomiy as-Saxih» va boshqa asarlar). Musulmon madaniyatining tarkiboy qismi bo'lgan tasavvuf ta'limoti rivojlandi. Bu ta'limotni rivojlanishida Sulaymon Boqirxoniy (vafoti 1186-yil) Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni (1103-1176), Najmiddin Kubro (1145-1221) yaratgan asarlari muhim o'rin tutadi. Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar» asari manaviy yuksakliklarga, umuminsoniy qadriyatlarga bag'ishlangan. Badiiy adabiyotda ham ajoyib asarlar yaratildi. Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy yirik asarlarni yaratdilar. Ahmad

Yugnakiy va Mahmud Koshg'ariylar madaniyat, turkiylar xalqlar, elatlar va ularning tili to'g'risida mukammal asarlar yaratdilar.

O'rta asrlarda dunyoning turli hududlarida madaniyat taraqqiyoti turli darajada kechdi. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Marv, Ko'hna Urganch, Termiz, Toshkent kabi shaharlar xo'jalik, fan va madaniyatning yirik markaziga aylandi. Mintaqada me'morchilik, hunarmandchilik, savdosotiq, ijtimoiy-siyosiy hayot, madaniy aloqalarning rivojlanishida sharq va g'arb o'rtasida oltin ko'prik bo'lgan Buyuk Ipak yo'li muhim ahamiyat kasb etdi. Ayni shu davrda ushbu zaminda o'z ijodi bilan ilm-fan va madaniyatga ulkan hissa qo'shgan ulug' allomalar yetishib chiqdi. Islom Arabistonda vujudga kelgan bo'lsada, u Movarounnahrda ravnaq topdi. Bu diyor allomalari o'z durdona asarlari bilan o'rta asrlarda Qur'on tavsifi, hadisshunoslik, arab filologiyasi, fiqh (islom huquqshunosligi), Kalom (islom falsafasi) ilmlarining turli sohaları taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdilar.

Qur'on mazmunini sharhlab, tavsifini bayon qiluvchi kalomshunos olimlarning aksariyati (Imom al-Moturidiy, Imom Abu Lays as-Samarqandiy, Imom az-Zamaxshariy, Imom an-Nasafiy) ushbu diyor vakillari edi. Hadis islomda Qur'on dan keyingi muqaddas manba hisoblanib, Muhammad payg'ambarning diniy va axloqiy ko'rsatmalari, hikmatli so'zlaridan iboratdir. Buxoro zaminida tavallud topgan muhaddis Imom al-Buxoriyning 7275 ta sahih hadislardan tashkil topgan «Sahihi Buxoriy» asari o'zining ma'naviy, axloqiy va tarbiyaviy jihati bilan har bir davrda ko'zgu vazifasini o'tab kelmoqda.

Bu davrda ushbu zamindan islom huquqi shariyat ancha rivoj topgan bo'lib, bu sohada ham movarounnahrlik allomalar boy meros qoldirganlar. Ayniqsa, bu borada islom huquqshunosligi bo'yicha Burhoniddin al-Marg'inoniyning «Hidoya» asari islom olamida mashhur bo'ldi. Shuningdek, islom diniga asoslanuvchi musulmon olamida keng tarqalgan buyuk ta'limot tasavvuf jamiyat ma'naviy hayoti rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu yerda Yassaviya, Naqshbandiya, Kubraviya kabi turli so'fiylik tariqatlari shakllandiki, ular orqali insoniyat islom dinining ichki va tashqi go'zalligi, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetdi. Chunki tasavvuf ta'limotining o'zagi inson va uning ma'naviy jihatdan kamol topishidir.

VIII asrdayoq Xitoyda Xanlin fanlar akademiyasi tashkil qilingan bo'lib, bu akademiya davlat ahamiyatiga molik dunyodagi eng qadimgi

ilmiy muassasa edi. Oʻrta asrda Xitoy oʻzining yilnomalari bilan dong chiqardi. Xitoyda VIII asrning boshlarida «Poytaxt axboroti» nomli rasmiy hukumat gazetasi vujudga kelib, bu gazeta XX asrning boshlarigacha nashr etildi. Alximiklar abadiy hayot doirasini qidirib, yangi metall va minerallar xususiyatlarini kashf qildilar. Tabiblar oʻz faoliyatlarida ilm va sehrgarlikni mujassamlashtirdi, koʻplab oʻsimliklarning shifobaxsh xususiyatlarini aniqladilar. Muhandislar va matematiklar shaharlar va kanallar qurilishida dong taratdilar.

Geografiya, tarixshunoslik, sheʼriyat sohalari ham yuksak darajaga koʻtarildi. Pantomimo teatri tashkil topdi. Meʼmorchilik sohasining rivojlanishiga yangi din buddaviylikning yoyilishi katta taʼsir qildi. Koʻp qavatli ibodatxona-pagodalaridagi Buddha haykallari, gʻorlardagi buddaviylik ibodatxonalari fikrimiz isbotidir.

Keng miqyosdagi tashqi aloqalarning yoʻlga qoʻyilishi, olis oʻlkalarda dengiz safarlari turli ilmiy bilimlarning rivojlanishiga turtki boʻldi. Ilmning turli sohalari: tibbiyot, geomorfoloifiya va speologiya rivojlandi.

Xitoyda oʻrta asrlarda koʻplab ixtirolar qilindi. Dastlab mushakbozlikda ishlatilgan oʻq-dori (porox), keyinchalik harbiy sohada ham keng qoʻllanila boshlandi. XIII asrda miltiq, XIV asrdan tosh va temir oʻq otadigan zambarak toʻplar yaratildi. Bosma kitobning yaratilishi Xitoyda xususiy nashriyotlarning vujudga kelishini taʼminladi. Jumladan, poytaxt Pekinning oʻzida 2 ta bosmaxona mavjud edi. Yevropa Xitoyning bosma ishini oʻzlashtirishi natijasida Guttenbergning bosma dastgohi paydo boʻldi. Falsafa, tarixshunoslik fanlarining ham oʻsishiga birmuncha imkoniyat yaratildi. Tasviriy sanʼatda yangi soha – badiiy asarlarni rasmlar bilan bezash vujudga keldi. Mamlakatda anʼanaviy sanʼat sohalari saqlanib qolsada, asta-sekin fan, adabiyot va sanʼatda yangi yoʻnalishlar shakllanib, zamondoshlar diqqat-eʼtiborini jalb qila boshladi.

Hind olimlari matematika, astronomiya va tibbiyot sohasida katta yutuqlarga erishdilar. Oʻrta asrlarda hind olimlari boshchiligida qurilgan rasadxonalar hozirgi kunga qadar saqlanib kelmoqda. Hind astronomlari yerning oʻz oʻqi atofida aylanishi va uning shar shaklida ekanligi farazini yaratdilar. Hind tabiblari odam bosh suyagini ochib ogʻir jarrohlik asboblari va ogʻriqni bosadigan dori-darmonlardan foydalanishni bilganlar. Hind tabiblari oʻz bilimlari va mahoratlari bilan butun Sharq dunyosida

mashhur edilar. Me'morchilik sohasida tosh va g'ishtlardan minorali ibodatxonlar qurish keng tus oldi. Ushbu ibodatxonalarning ko'rinishi ulkan mevalarni eslatardi. Hindistonda katta qoya toshlar yoki g'orlar ichida o'yib solingan ibodatxonalar ham bo'lgan. Markaziy Hindistonda g'or ichida o'yib qurilgan ibodatxona ayniqsa mashhur edi. Ajanta ehromlarining qurilishi mil. avv. II asrda boshlanib, oradan IX asr o'tgach tugallangan. U konussimon tog' bag'rida, tog' chuqurligida inson qo'li bilan qazilgan g'ordan iborat. Unda turli haykallar va rasmlar ishlab bezatilgan 29 ta ehrom va jom'e joylashgan. Ularning devoriga bo'rtma naqsh sur'atlar solingan bo'lib, bu suratlardan hindlarning turmushi va hayotiga old ma'lumotlar olish mumkin. Ibadatxonalar ichi baland ustunlar bilan bezatilgan, devoriga yuksak didli insonlar ham lol qoladigan naqshlar solingan. Hinduiylik diniga oid xudolarning ulkan haykallari jezdan quyilgan yoki toshdan o'yib yasalgan.

Musulmon me'morchiligi XIII asrdan boshlab Hindiston me'morchiligiga katta ta'sir ko'rsatdi. Boburiylar sulolasi Movarounnahr, Erondagi me'morchilik an'analarini hind me'morchiligiga olib kirdilar. Yangi hukmdorlar masjidlar, go'zal madrasalar va maqbaralar, sharqona saroylar qurdirdilar. Jumladan, Shoh Jahon podsholigi yillarida qurilgan va hozirgi kunga qadar «Hindiston marvaridi» yoki dunyoning yetti mo'jizasi-ning biri bo'lgan Agra shahridagi Tojmahal maqbarasi fikrimiz dalilidir. Uning davrida Dehli shahridagi Jom'e masjidi, Qizil fort qal'a-saroyi va boshqa me'morchilik durdonalari yaratildi. O'rta asrlarda Hindiston madaniyati va san'ati ko'plab Sharq mamlakatlari ustalarning mahorati va yutuqlarini mujassamlashtirdi. Boburiylar davrida rassomchilik san'ati ayniqsa gullab yashnagan. Boburiy hukmdorlar o'z saroylariga Iroq, Eron va O'rta Osiyodan rassom, ustalar va musavvirlarni taklif etdilar. Ular hind tasviriy va amaliy san'atini boy tajriba bilan boyitdilar. Natijada hind san'ati o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi. Yuksak mahoratga ega bo'lgan musavvirlar kitoblar, tarixiy asarlar, ajoyib miniaturalar bilan bezashgan. Keyingi ming yillik davrida bu mamlakatni asosan, turkiy sulolalar boshqargani natijasi o'laroq urdu tilining vujudga kelishi va shakllanishida boshqa tillar bilan birga, turkiy tili faol ishtirok etdi.

O'rta asrlar Yevropasida turli hududlardagi madaniyat o'ziga xos rivojlandi. X-XI asrlarda Rusda madaniyatning rivojlanishi, XII-XIII asr-

larda Yevropa madaniy taraqqiyotida Fransiyaning yetakchiligi kuzatildi. XIV asrdan ikki yarim asr mobaynida Italiya madaniy yetakchilikni egallab, insoniyatga uygʻonish davrining buyuk daholari ijodiy yutuqlarini sovgʻa qildi. XVI-XVII asrlarda gumanistik uygʻonish davr yutuqlari butun Yevropaga tarqaldi. Ispaniya, Niderlandiya, Germaniya va Fransiya sanʼatning ajoyib namunalari yaratildi. XVIII-XIX asrlarda diniy aqidalardan xoli boʻlgan dunyoviy madaniyat ustivor ahamiyat kasb etdi. Uning episentri Gʻarbiy Yevropa boʻlib, keyin esa uning faol vakillari orqali Shimoliy Amerikada Yevropa madaniyati rivojlandi. XX asrda radio, televideniya, kinoning tarqalishi madaniyatning ommaviy koʻrinishini yuzaga keltirdi. XX asr ommaviy madaniyati katta industrilashuvi va unifikatsiyalashuvi bilan ajralib turadi. Bu jarayonda AQSh yetakchi oʻrinni egalladi.

Bir yarim ming yillik supersikl davomida uch yuqori uzoq muddatli madaniyat dinamikasining sivilizatsiya siklini ajratish mumkin.

Vizantiya madaniyati xristian cherkovi taʼsiri ostida rivojlandi. Meʼmorlar Isidor va Anfiliy 523-537-yillarda mashhur Sofiya ibodatxonasini Konstantinopol shahrida bunyod qildilar. Ibadatxonalarda paygʻambar avliyolar surʼatini chizish keng tus oldi. Vizantiya cherkov madaniyati taʼsiri ostida rus yerlarida cherkov meʼmorchiligi rivojlandi.

Ilk oʻrta asrlar Gʻarbiy Yevropa madaniyatida Qadimgi Rim madaniyatidan orqaga chekinish yuz berdi. Lekin shu bilan bir vaqtda bu sivilizatsiyaning bosh yoʻlidan chekkada turgan Yevropaning oʻnlab qabila va xalqlari uchun madaniyatning choʻqqilarini egallashda bir qadam olgʻa tashlash demak edi. Aynan ilk oʻrta asrlarda kelajak oʻrta asr madaniyatini belgilagan tub vazifalar yechildi. Jahon tarixida va qandaydir madaniy tarixiy birlik sifatida huquqiy Yevropa sivilizatsiyasining asosini yaratish vazifasi hal qilindi. Aynan ilk oʻrta asrlarda antik dunyo hamda sharq va gʻarb sivilizatsiyasi mahsuli boʻlgan madaniy-maʼnaviy merosning sintezi asosida shakllangan Yevropaning oʻz madaniyati tarixining boshlanishi ilk oʻrta asrlardan edi. Oʻrta asrlar Yevropa madaniyatining shakllanishiga sharqning boy madaniyati bilan boʻlgan har tomonlama aloqalar taʼsir koʻrsatdi. Yevropa Sharqning noyob madaniy yutuqlarini toʻla oʻzlashtirib oldi va uni oʻz madaniyati poydevorini yaratishda unumli foydalandi. Oʻrta asr ispan meʼmorchiligida sharq meʼmorchilik sanʼatining taʼsiri yaqqol koʻrinadi. Sharq bilan savdo aloqalari, Arab xalifaligi davrida Yevropaga boy Sharq madaniyatini jadal oʻzlashtirilishi, salib yurishlari

kelajak Yevropa ma'naviy-madaniy taraqqiyoti uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi.

G'arbiy Yevropa madaniyatining yuksalishi X asrdan boshlandi. Bu me'morchilikda yaqqol aks etdi. Me'morchilikda X-XII asrlarda roman usuli yetakchi o'rin egalladi. Haykallar bilan mo'l-ko'l bezatilgan ulkan ibodatxonalar qurildi. Keyinchalik me'morchilikda gotika uslubi paydo bo'ldi. Reyms, Kyoln va Siyenadagi ibodatxonalar gotika me'morchiligining mahsulidir.

Ritsar madaniyati «Roland to'g'risidagi qo'shiq» (Fransiya), «Nibelunglar qo'shig'i» (Germaniya), «Qirol Artur va doira stol ritsarlari» to'g'risidagi kelt eposi, «Tristan va Izolda» to'g'risidagi ertak, ko'p sonli ritsar romanlarida o'z ifodasini topdi. O'rta asrlar Yevropasining tasviriy san'ati xristian cherkovi motivlari bilan sug'orilgan edi.

Ikkinchi yuqori uzoq muddatli siklda gumanizm ustuvor ahamiyat kasb etdi. U uyg'onish bayrog'i bilan boshlangan uyg'onish boshlarida Dante Aligeri (Ilohiy komediya) va Franchesko Petrarka turdilar. Italian uyg'onish (Renessans) davri 3 asrni qamrab olib, protoressans (XIII asr oxiridan), ilk Renessans (XV asrdan), yuqori ReneSans (XV asrning g'oyalari) va so'nggi Renessans (qaysiki, ko'p miqdorda Venetsiyaga tegishli XV asr oxirida)ga bo'lindi. G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarda Uyg'onish davri zaif ifodalangan.

Uyg'onish davri san'atining shohi tasviriy san'at bo'ldi. Proto Renessans davridayoq psixologik realizmning belgilari Jotto R, ayniqsa, uning mashhur (Iudaning o'pishi) freskasi hamda ilk Uyg'onish davrida Sandro Botichelli ijodiyoti (uning eng mashhur «Veneraning tug'ilishi» asari)da aks etdi. Tasviriy san'atning cho'qqisini Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, M.Buonarotto ijodiyoti va haykallari egalladi.

Yuqori va so'nggi uyg'onish madaniyatiga Jovanno Bokajjo, Jorj Jone, Paolo Verzeni, Fitsion Vechello (uning «Kesar denariy»si, «Flora», «Vakxanaliya», «Kain va Avel», «Tavba qilayotgan Mariya Magdalena» noyob asari) ajoyib hissa qo'shdi.

Germaniya «Uyg'onish an'analari» Albrect Dyurer asarlarida aks etdi. O'sha davrda Niderlandiya va Flandriya san'ati Yan Van Eyk, Iyronim Bosx, Bregel, Rubens, Rembrantning ijodiyotida eng cho'qqisiga chiqdi. O'sha davr ispan tasviriy san'atida El Greko, Diego Velaskes eng mashhur edilar.

Haykaltaroshlik (Nikolo Pizano, Donatello, Bruneleski, Mikelanjelo,

Benvenuto Chellini), me'morchilik (Ispaniyadagi Eskoriral saroy-monastiri, Florensiya, Venetsiya, Pizadagi ajoyib ansambllar, Rimdagi muqaddas Pyotr ibodatxonasi), musiqa (1594-yildagi Ya Perining «Dafna» nomli birinchi operasi; Andrey va Giovanni Gabrieli, Ge Shyutes, I.S.Baxning to'plamlari), adabiyot (Torkvato Tasso, Rotterdamlik Erazm, Tomas Mor, Migel Servantes, Saks, Chosel, F.Rable), teatr san'ati (Italiyada niqoblar komediyasi, K.Marlo, V.Shekspir, Lope de Vega) rivojlandi. 1455-yilda Rimda birinchi bosma dastgoh o'rnatildi. Kutubxona va litseylar soni o'sdi.

Bu davrda O'rta Osiyoda Temuriylar davrida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar jadal kechdi. Hokimyatga Amir Temurning kelishi va markazlashgan davlat barpo etilishi bilan jamiyatning turli sohalarida turli yuqori natijalarga erishildi. Ayniqsa, bu davrda sharqning ko'plab shaharlarida arxitektura san'atining yuksak namunalari yaratildi. Bu davr sharq uyg'onish davrining so'nggi bosqichi edi. Buni, ayniqsa, ilm-fan, tasviriy san'at, musavvirlik, me'morchilik, xattotlik va badiiy adabiyotda kuzatishimiz mumkin. Temuriylar davlatining qudrati, ayniqsa, me'morchilikda namoyon bo'ldi. Bu davrda Samarqandda miniatura maktabi shakllandi. Amir Temurning o'g'li Shohrux va nabirasi Ulug'bek bu siyosatni davom ettirishga harakat qildi. Amir Temur davrida O'rta Osiyoning mustaqil davlat sifatida birlashtirilishi mamlakatning iqtisodiy-madaniy taraqqiyotiga salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruhiya, Shahrisabz, Qarshi kabi Sharqning go'zal shaharlarida hunarmandchilik sohalari rivoj topdi.

Falakiyotshunoslik fanida Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Mavlono Ahmad, G'iyosiddin Jamshid va Ali Qushchilar yangi kashfiyotlarni amalga oshirdilar. Tarix ilmida Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy va boshqalar qimmatli asarlar yaratdi. Mirzo Ulug'bek davrida Samarqandda birinchi Akademiyaga asos solinib, yer kurrasini o'lchash va falakiyotshunoslik jadvallarini tuzish ishlari amalga oshirildi. Samarqand rasadxonasida Ulug'bek matematika, geometriya, falakiyotshunoslikda chuqur bilimlar sohibi edi. Bunga matematikaga doir «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», falakiyotshunoslikka oid «Risolai Ulug'bek» va musiqaga oid «Musiqa ilmi haqida risola» kabi asarlari misol bo'la oladi. Bu davrda yetuk ijodkorlar Qutb, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih va boshqalar yashab

ijod qildi. Badiiy ijodning g'azal, ruboiy, tuyuq kabi turlari rivoj topdi. Hirotda, Buxoro va Samarqand shaharlarida temuriylar kutubxonalar tashkil etdilar.

XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotining eng rivojlangan davri bo'lib, bu yuksalish Temuriy Husayn Boyqaro va o'zbek adabiyotining porloq quyoshi A.Navoiy nomlari bilan bog'liq. Husayn Boyqaro hukmronligi davrida adabiyot, san'at va fanning ko'p sohaları rivojiga katta ahamiyat bergan. XV asrda o'zbek adabiyoti, ayniqsa, Navoiy ijodi misolida adabiy janrlar rang-barangligi nuqtayi nazaridan ham eng yuksak cho'qqiga ko'tarildi. O'zbek adabiy tili shakllandi. Temuriylarning adabiyot va madaniyat sohasidagi an'anaları keyinchalik Boburiylar tomonidan Afg'oniston va Hindiston, XVIII-XIX asrlarda Xorazm va Qo'qon xonligida rivojlantirildi. Movarounnahr va Xurosonda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda ro'y bergan madaniy yuksaklik butun musulmon sharqidagina emas, balki Yevropa mamlakatlarini ham hayratga soldi. Bu davrda Markaziy Osiyoda tasavvuf ta'limoti yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Bu Yusuf Hamadoniy, G'ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahror nomlari bilan uzviy bog'liq. Bu davrda tabobat ilmining yirik vakillari Burhoniddin Nafis, ibn Avaz Hakim al-Xirmoniy, Sulton Ali tabib Xurosoniy, tabib Husayn Jarroh kabilar yashab o'tdilar. Samarqand va Hirotda Temuriylarning saroy kutubxonalari tashkil etildi. XIV-XV asrlar O'rta Osiyo xalqlarining musiqa va xattotlik san'ati taraqqiyotida ham yangi bosqich bo'ldi. Mahoratli sozandalar, bastakorlar va hofizlar, musavvir, xattotlar yetishib chiqdi. XVI asr boshida O'rta Osiyoda yangi sulola vakillari Shayboniylar tarix sahnasiga chiqdi. Bu davrda Temuriylar davri madaniyati asosida vujudga kelgan Shayboniylar davri madaniyati, ilm-fani sezilarli darajada rivoj topdi. Bu davrda adabiyotda ham yuksalish ko'zga tashlanadi va bevosita bu sohalar rivojiga davlat boshliqlarining rahnamoligi ko'rinadi. Shayboniylar davri yutuqlaridan biri – bu arxitektura sohasidir. Bunga misol tariqasida ular tomonidan bunyod etilgan, haligacha ulug'vorligini yo'qotmagan Buxoro, Karmana, Samarqand, Toshkentdagi tarixiy obidalar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

O'lkamizda bu davrda Mirzo Ulug'bek akademiyasi an'alarini davom ettiruvchi fidokor olimlar yetishib chiqdi. Ko'plab fan sohaları (falakiyotshunoslik, tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix fanlari) rivojlandi. Ammo bu fanlarni rivojlanishi uchun hech qanday qulay iqtiso-

diy-siyosiy shart-sharoit bo'lmay, o'zaro feodal urushlar, diniy mutassiblik erkin fikrlashni, ilm-fanni rivojlanishiga yo'l bermadi.

O'rta asr sharq me'morchiligining ajoyib me'morchilik namunalari-dan biri XII asrda Kambodjada qurilgan mashhur Ankorbat ibodatxonasi-dir. Inshoot uch qavatli piramida shaklida, 5 minorali qilib, simmetrik qurilgan. Binoga kengligi 10 metr, uzunligi 350 metr yo'l olib boradi. Ibodatxona hinduizm mabud va mabudalari haykallari, relyef tasvirlari hamda ulkan tosh ustunlarda raqqosalar, mabudalar, o'simliklarning 1,5 ming betakror tasvirlar tushirilib, bu dunyo va boqiy dunyo hayoti manzaralari berilgan.

O'rta asrlarda sharqning ulkan imperiyalaridan biri Hindistonda Boburiylar sulolasi davrida fan-madaniyat, tolerantlik gullab yashnadi. Boburiy Akbarshoh o'z atrofiga turli e'tiqodga mansub olimlarni to'pladi. Tolerantlik siyosatini olib bordi. Keng xalq ommasini manfaatlarini ko'zlab, odilona ijtimoiy siyosat olib bordi.

Boburiylar davrida Hindistonda me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. Poytaxt Agra (Jannat bog'i)da dunyoning yetti mo'jizasidan biri hisoblangan Toj Mahal maqbarasi qurildi. Uning ijodkori bu dunyoning odami emas edi. 1628-yil Hindiston taxtiga o'tirgan shahzoda Xurram (taxtga chiqishda Shohjahon nomini oldi) turli me'moriy inshootlarni bunyod qildi. Bo'lg'usi hukmdor bir kuni bozorda Mumtozbegimni (Arjumanbonu) ko'rib qoladi va unga uylanadi. Arjumanbonu 14-o'g'lini tug'ayotgan paytda vafot qiladi. Shohjahon bilan Arjumanbonuning sevgisi samoviy sevgi edi. Chuqur qayg'uga tushgan Shohjahon rafiqasi uchun abadiy sevgi yodgorligini barpo qildi. Shohjahonning o'zi bino loyihasini chizdi. Uning qurilishi 20 ming kishi ishladi. Butun dunyodan olib kelingan qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, marmar asosiy xomashyo bo'ldi. Bino devorlari qur'ondan olingan so'zlar bilan bezaldi. Inshootning kirish peshtog'ini 22 minora bezab turadi. Maqbara ichida Arjumanbonu va Shohjahonning sog'onalari qo'yilgan. Maqbarada rejalashtirilgan ulkan bog' barpo qilingan. Bog'-saroylar qurilishi san'ati temuriylar uslubiga borib taqaladi. Lekin bu bog' inglizlar tomonidan yo'q qilinib, ingliz uslubida ko'k o'tloq qilingan. Hukmdor binoni qur'ondan keltirilgan parchalar bilan inshoot devorini yuksak mahorat bilan bezagan xattotni munosib taqdirlaydi.

Shohjahon me'moriy inshootlar qurishga mablag'ni ayamadi. U

rafiqasi maqbarasiga qarama-qarshi turgan daryoning boshqa tomonida o'zi uchun mahobatli maqbara qurishga kirishadi. Uning taxt vorisi bo'lgan o'g'li davlatni moliyaviy halokatdan saqlab uchun Shohjahonni taxtdan tushirdi. Hukmdor yana 8 yil qamoqda umr kechirdi. Shohjahon vafotidan so'ng Toj Mahalga dafn qilinadi.

Uchinchi uzoq muddatli sikl feodal kapitalistik asr dinamikasida XVII asr o'rtalaridan XX asrning so'nggi o'n yilliklarigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu vaqt yetuk industrial jamiyatning qaror topishi, uning ma'naviy hayotga ta'siri, uning ritmini industrial tizim talablariga bo'ysundirish va nihoyat XX asr tushkunligining vaqtidir.

Bu davr dinamikasida bir necha qarama-qarshi an'analar mavjud edi. Bu birinchidan, uyg'onish davri gumanizmi va yuqori ijodiyotini qabul qilish edi. Lekin uyg'onishning merosi o'zgarmay qolmadi, u jamiyat hayotining o'zgaruvchan sharoitlariga yangi tajribaga mos davriy isloh qilindi. Bunday o'zgarishlar Yevropada reformatsiya davri, ma'rifatparvarlik davri va ayniqsa, XIX-XX asrlarda ro'y berdi. O'rta Osiyoda esa gullab yashnagan Temuriylar davri madaniyati va undan keying Shayboniylar davrida ma'naviy-madaniy taraqqiyot sekinlashib, tushkunlikka yuz tutdi. Diniy mutaassiblik, aqidaparastlik ustuvor ahamiyat kasb etdi. Lekin ayrim nodir asarlar bu davrda yaratildi. Yevropada boshqa bir an'ana-qat'iy diniy aqidalardan ijodiyotning ozodligi yuz berib, san'at hayotiyroq tus oldi va insonga tomon yuz tutdi.

Uchinchi an'ana texnologik sivilizatsiya ta'siri ostida gumanistik an'analar, ularni yo'qotishdan iborat bo'ldi. Industrial jamiyat madaniyatining tarqalishi va rivojlanishining ilgari ko'rilmagan vositalarini yaratdilar (radio, kino, televideniye). Bu turli mamlakatlar va hududlarda madaniyatning yaqinlashuviga olib keldi. Madaniyatda industrial davrning mashinalashgan tuzumi ta'sirining salbiy tomonlari madaniyatning aristokratik va xalqchil asoslarini buzishda, uni ommaviy, o'rtacha darajada bo'lishida ko'rindi. Mashinalashgan tuzum va axborot portlashlari, aholining o'sib borayotgan harakatchanligi va ta'limning unifikatsiya qilinishi xalq madaniyatining buzilishi an'anaviy uzatish an'alarini buzilishdan saqlash va takror ishlab chiqarishning buzilishiga olib keldi. Madaniyat o'ziga xos milliy, hududiy jihatlarini yo'qotdi va madaniy an'analarning mustahkam iplarini uzdi.

Uch asrdan ko'proq vaqt davomida bir necha uzoq muddatli sikllarni ko'rsatish mumkin:

1650-1789-yillar – ingliz va fransuz inqiloblari oralig‘ida industrial jamiyat madaniyati hukmronligining qaror topishi va tarqalishi;

1790-1870-yillar – industrial madaniyatning yetuklik davri va uning oliy yutuqlari;

1871-1930-yillar – so‘nggi industrial jamiyat qarama-qarshiliklarining keskinlashuvi vaqti va uning tushkunligining boshlanishi;

1931-1985-yillar – industrial madaniyatning keskin tushkunligi va yemirilishi davri, uning o‘rta totalitar shakllarini paydo bo‘lishi va ularning bartaraf etilishi.

Birinchi uzoq muddatli sikl (1650-1789-yillar) Renessans davri yutuqlarini o‘zlashtirish va tarqalishi uning asosiy mazmuni edi. Volter, Jan Jak Russo, I.F.Shiller tafakkur daholari edilar. Bu davrning oliy cho‘qqisi I.Gyotening «Faust» asari edi.

Dramaturgiya yuksak cho‘qqilarga erishdi –Kornel, Molyer, Bomarshe. Tasviriy san‘atda – Nikola Pussen, Antuan Vatto, Jovanni Kanaletto va musiqada V.A.Motsartlardir.

Ikkinchi uzoq muddatli sikl (1790-1870-yillar) talantlar bilan yanada boyroq edi. Ayniqsa, davr boshlanishida adabiyot birinchilikni egalladi. Rossiyada – A.S.Pushkin, A.S.Griboyedov, M.Yu.Lermontov; Angliyada –J.Bayron; Germaniyada – G.Geynelar. Bu davrda proza janri ham rivojlandi – Stendal, Onore de Balzak, Emil Zolya, Gyustav Flober, Charlz Dikkens, N.V.Gogol, I.S.Turgenevlar; dramaturgiyada G.Irvin, G.Ipsen A.N.Ostrovskiyar. Musiqada kuchli gullab yashnash davri boshlandi – L.Betxoven, B.Smetana, F.List, F.Shubert, J.Verdi, J.Bize, Rixard Vagner, F.Shopen, M.I.Glinka va boshqalar. San‘atning diniy aqidalardan xolis bo‘lishi davom etdi (P.Sorokin bo‘yicha XVII asrda dunyoviy kartina va luykallarning ulushi 42,4 % dan XIX asrda 90 % gacha o‘sd).

2. Uchinchi uzoq muddatli sikl (1871-1930-yillar) industrial davr boshlangan ijodiy ko‘tarinkilik qudrati asta-sekin tugay boshladi. Bu davrning birinchi yarmida realistik madaniyatning qudratli oqimi ustuvor bo‘ldi, qaysiki, uning ildizlarini Uyg‘onish an‘analaridan izlash lozim. U insonning ichki dunyosi, kundalik hayotga qaratilgan edi.

Aka-uka Lyumyerlarning 1895-yilda kinomotografiyani kashf qilishi kino san‘atiga asos yaratdi. Bu davrda kino san‘atining taniqli ustalari Ch.Chaplin, Y.Protazanov, D.Bertov, S.Eyzenshteyn, J.Epshteyn, V.Pudovkin o‘zlarining noyob asarlarini yaratdilar. XX asrning 20-yillarida kino san‘ati ommaviy tus oldi.

Kino industriyasi tadbirkorlik faoliyatining o‘ta foyda keltiradigan sohasiga aylandi. Bu san’atga kapitalning oqib kelishini ta’minladi va madaniyat sohasida industrial tashkiliy faoliyatning ziddiyatlarini bir vaqtning o‘zida yoritdi.

XIX asr oxirida madaniyat dinamikasi an’analarida burilish boshlandi. Ekspressionistik san’at paydo bo‘lib, u rassomning shaxsini aks ettiradigan predmetning sub’yektiv ko‘rishini aks ettiradigan oqim edi. XX asrning birinchi 30 yilida tasviriy san’at va haykaltaroshlikda bu stil tez tarqaldi. Abstrakt tasviriy san’atning kuchli oqimi yuzaga keldi. Uning nazariyatchilaridan biri V.V.Kandinskiy edi.

Birinchi vakillari V.Malevich («Qora kvadrat»), M.Larionov, N. Goncharov.

To‘rtinchi uzoq muddatli sikl (1931-1985-yillar) davrida industrial madaniyat dinamikasi XX asrning 30-yillaridan boshlab 80-yillar o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oldi. Madaniyatning yalpi tushkunligi chuqurlashdi va rivojlandi. Madaniyatning tushkunligi umumiy asosga ega bo‘lgan shakl bo‘yicha qarama-qarshi modernizm, sotsialistik realizmda aks etdi. Rassom modernistlar real hayotdan yanada uzoqlashib, uni past didlarga mos soxtalashtirdilar. Sotsialistik realizm voqelikni chuqur tafakkur bilan sug‘orilmagan mafkuraviy berilgan tasvirga yo‘naldi. Shunga qaramasdan, bu davrda xalq madaniyatining jonli qalbi saqlanib qoldi. Uning saqlanish va rivojlanishiga artistlar, me’morlar, rejissorlar o‘z ulushlarini qo‘shdilar. San’atning ommaviylashuvi yangi texnik vosita – videomagnitofon, pleyerlar, televideniadan foydalanishga yordam berdi. Kompyuter grafikasi paydo bo‘ldi. Kino va video industriyasi qudratli yuqori daromad keltiradigan industrial sohalarga aylandi.

Davr oxirida postindustrial sivilizatsiyaga xos bo‘lgan madaniyat birinchi ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan yangi gumanistik san’atning kurtaklari ko‘rina boshladi.

3. Ta’lim sikllari va ta’limdagi inqiloblar. Keyingi bir yarim ming yillikda ta’lim dinamikasi va jamiyat hayotining boshqa sohalarda yuqori uzoq muddatli sikllar aniqlandi. Bu sikllar to‘plangan bilim va ko‘nikmalar, madaniy merosni saqlash va uzatish usullarida inqiloblar hamrohlik qildi.

Feodalizm davrida O‘rta Osiyoda ta’limning o‘rta va oliy bosqichi barqaror shakllanib, diniy va dunyoviy ta’lim amalga oshirildi. Asosan

bu sharq va arab ilm-fanining uzviyligida amalga oshirildi. Bu davrda asosan toifaviy ta'lim ustuvor ahamiyat kasb etdi. Bu davrda ta'lim oiladan boshlangan, keyinchalik ta'limning keyingi bosqichlari masjid va oliy maktab, madrasalarda amalga oshirilgan. Asosan yirik shaharlar, jumladan, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Marv va Hirot kabi shaharlarda madrasalar faoliyat yuritgan. Talabalar bu yerda ta'lim olish bilan birga, istiqomat ham qilishgan. Bu madrasalarda sharqning yetuk ilm-fani bilan birgalikda, shaxs kamoloti, uning ma'naviy dunyosiga katta e'tibor berilgan. Feodalizm genezisi davrida Yevropada antik davrga qaraganda, ta'lim tushkunligi kuzatildi. Ta'limning ixtisoslashgan tizimi qisqardi. U O'rta Osiyo, Vizantiya, Xitoy, Hindistonda saqlanib qoldi.

IX asrda Bag'dod akademiyasi, XI asrda Xorazmda Mamun akademiyasi faoliyati fanning rivojlanishida muhim o'rin tutdi. O'rta Osiyoda X asrdan boshlab oliy maktab, madrasalar tashkil topdi. Ulardan birinchisi Buxoroda Farjak madrasasi (X asr) bunyod etildi. XII asrdan Buxoroda musulmon huquqshunosligi bo'yicha ixtisoslashgan madrasa-Fiqhlar madrasasi faoliyat yurita boshladi. Bu madrasalarda ta'lim tizimli yo'lga qo'yilib, o'z davrining yetuk kashfiyotchilari, olimlari yetishib chiqdi.

Imperator Yustinian Afinadagi Aflotun akademiyasini yopdi. Bilim, ko'nikma, madaniy ma'naviy yutuqlarni uzatishning asosiy tizimi oila, dehqonchilik, hunar-savdo va qurilish sohalari orqali amalga oshirildi. Lekin iqtisodiyotning keyingi yuksalishi, hunar va savdoning rivojlanishi, ibodatxona, monastr, qasrlarning qurilishi, o'rta asr davlatlarining shakllanishi va shaharlarning qayta tiklanishi ixtisoslashgan ta'lim tizimini qayta tiklashni talab qildi. Dastlab ta'lim diniy muassasa homiyligi ostida edi. Ilk o'rta asrlarda monastr va cherkovlar oldida maktablar tashkil etila boshlandi. Bu maktablarda savod chiqarilib, diniy adabiyotlar o'rganildi. Keyinchalik Rim Triviumi namunasida ta'limning birinchi bosqichi (grammatika, ritorika) va kvadrium ta'limning ikkinchi bosqichi (geometriya, astronomiya, arifmetika)da klassik fanlarni o'rganish kiritildi.

G'arbiy Yevropada Frank davlati poytaxti Axeen saroyida Buyuk Karlning akademiyasi ochildi. Akademiyaga imperator Italiya, Britaniya, Ispaniyadan malakali o'qituvchilarni jalb qildi. Imperatorning madaniyat va cherkov ishlari bo'yicha maslahatchisi Alkuin akademiyaning boshlig'i bo'ldi. Alkuin xalq ta'limini rivojlantirish g'oyasini ilgari surdi. 796-yilda Tur shahridagi Avliyo monastrida maktab tashkil qilib, unga

boshchilik qildi. Alkuinning faoliyati o'rtasda Yevropasida ta'limni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatdi.

German imperatori Otton I saroyi qoshida ham akademiya tashkil qilindi. Otton III davrida matematik olim Gerbert (keyin u Silvester III (999-1003-y) nomi bilan papa bo'ldi) ta'lim taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shdi. Ta'limga nafaqat ruhoniylar, balki dunyoviy odamlarning farzandlari ham tortildilar. X asrda Italiyada maktablar faoliyati jonlandi. Ularda, eng avvalo, fanlar amaliy tibbiyot va huquq o'qitila boshlandi. XII asrda Parij, Boloniy, Oksford universitetlari, XIII asrda Kembrij, Paduya, Neapol, Salamanka universitetlari, XIV asrda Vena, Praga, Krakov universitetlari tashkil topdi. Ularda leksiya, munozaralar yordamida tizimli o'qitish yo'lga qo'yildi. Darsliklar juda siyrak edi.

Vizantiyada o'tish davrida ta'lim tizimining tushkunligi G'arbiy Yevropaga qaraganda kam sezildi. Ko'pgina o'quv yurtlari, falsafa maktablari saqlanib qoldi, yangilari tashkil etildi. XI-XII asrlarda antik an'analarga tayangan dunyoviy ta'limot sezilarli rivojlandi. Uning markazi XI asr o'rtalarida takror tiklangan va 1204-yilgacha mavjud bo'lgan Konstantinopol oliy maktabi bo'ldi. Bog'dod va Parij bilan bir qatorda, Konstantinopol ham eng yirik ta'lim markazlaridan biri hisoblanar edi. Konstantinopol oliy maktabi davlat hisobiga yashab, davlatning qat'iy nazorati ostida bo'lib, davlat tomonidan ta'minlanar edi. Lekin o'quv yurtiga aqltafakkur nuqtayi nazaridan falsafiy tizimlar-tanqid qilish va ratsionalizm g'oyalari kirib keldi.

Ta'lim tizimida navbatdagi inqilob keyingi bosqich uyg'onish davrida yuz berdi. U buyuk ilmiy inqilob bilan yaqin bog'langan bo'lib, qarashlar tizimini tubdan o'zgartirdi va asosan o'rtasda asos qadaparastligini yengib o'tishga yordam berdi. Savdo, bank ishi, pul va veksellarning rivojlanishi, jadal rivojlanayotgan bozor talablariga ta'lim xizmatlari qila boshladi.

Savdo kapitalizmi uchun savodli odamlar ta'lim olib, bu sohani egalashlari zaruriyati yuzaga keldi. Savdo markazi bo'lgan Florensiya XIV asrdan dunyoviy ta'limni tashkil qildi. 1340-yilda boshlang'ich maktablarda 8 mingdan 10 mingga o'g'il-qizlar savod o'rgandilar. Bu vaqtda shaharlarda 100 ming aholi mavjud edi. Bu 8-10 ming bolalardan 1000-1200 nafari bo'lg'usi savdogarlar uchun maxsus tashkil etilgan yuqori darajadagi maktabga borar edilar. O'quvchi bu maktabda arifmetika va hisob-kitobni o'rganish uchun 15 yoshgacha qolar edi. Ularning ichida

ayrimlari bu o'quv yurtini tugallagach, huquqni o'rganish uchun Boloniya universitetiga o'qishga yollanar edilar.

XV asr oxirida Yevropada 79 ta universitet mavjud edi. Ular Rim papasi yoki qirolning yorlig'i bilan faoliyat ko'rsatar edi. Unversitetlar hurfikrlilik o'chog'i sifatida asta-sekin shakllanib, cherkov ta'siri ostidan chiqishga erishdi. Yirik shaharlar o'z universitet va maktablarining rivojlanishiga harakat qildi, davlat hokimiyati o'quv yurtlarini qo'llab-quvvatladi. Ixtisoslashgan o'quv yurtlari paydo bo'ldi. Portugaliya, Ispaniya, Angliya va Gollandiyada dengizchilik maktablari tashkil etildi. Angliyadagi dengizchilik kolleji (1579-yilda asos solingan)da geometriya, astronomiya, navigatsiya priborlari o'qitildi. Angliyadagi Oksford va Kembrij universitetlari gumanizm markazlari bo'ldi. Mashhur faylasuflar Tomas Mor, rotterdamlik Erazm Oksfordda ma'ruza o'qidilar. Bu universitetlarda ilohiyotshunoslik, fuqarolik va cherkov huquqi, Arastu, Aflotun, Galen, Gippokrat tibbiyoti, matematika, arifmetika, geometriya, astronomiya, dialektika, ritorika, qadimgi yunon va qadimiy yahudiy tillari o'qitildi. Boshlang'ich va o'rta ma'lumot yanada dunyoviy xususiyatga ega bo'ldi va keng tarqaldi.

Pedagogika fanning ixtisoslashgan shakli sifatida shakllandi. Uning fan sifatida shakllanishida chexiyalik olim, gumanist Yan Amos Komenskiy katta hissa qo'shdi. U didaktika nazariyasini yaratdi. Komenskiy maktab va oila tarbiyasi bo'yicha darsliklarni chop qildi. Komenskiy ta'limning sinf-dars tizimini ishlab chiqdi. Yagona maktab tizimini taklif qildi. Lekin o'rta asr ta'lim tizimi malakali ishchilarni tayyorlash, industrial jamiyatning talablariga javob bermadi. Mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tish bilan konstruktorlar, injener, menejerlar, iqtisodchilar talab qilindi. Chunki ular mashinalarning murakkab tizimlari, ulardan samarali foydalanish, ko'p ming kishilik jamoalarning ishini boshqarish va tashkil qilish, tez o'zgaradigan bozor talablariga muvofiq ishlab chiqarishni takror qurishga qobiliyatli xodimlar edi.

Ixtisoslashgan texnik ta'lim – texnikumlar, politexnikumlar va qishloq xo'jaligi institutlariga ustivor ahamiyat berildi. Yollanma ishchini o'qitish qisqa va arzon bo'ldi. Lekin fabrika ishchisi doimo murakkab mashina va davriy ravishda yangilanadigan texnologiyalar bilan ishlaydi. Industrial tizimga bajariladigan operatsiyalar bo'yicha nisbiy ko'nikmalarga ishchilar talab qilindi. Shuning uchun tor ixtisoslashgan tayyorgarlik bilan qo'shilgan holda, ko'pgina ishlab chiqarishdan ajral-

magan holda, qisqa muddatli kurslar yoki kasb-hunar o'quv yurtlarida tor ixtisoslashgan tayyorgarlik bilan umumiy boshlang'ich ta'lim keng tarqaldi.

Ta'lim yanada standartlashdi. O'qitishning metodlari va texnikasi takomillashdi. Ta'limning turli bo'g'inlari va darajalari uchun ommaviy unifikatsiyalashgan pedagogika shakllandi. Davlat organlarining o'qitishning mazmuni va tashkil qilishga aralashuvi kuchaydi. Buning ustiga umumiy ta'lim foydaga ko'ra davlat hisobiga amalga oshirildi. Maktablar, oliy ta'lim uchun darsliklar ommaviy demokratlashdi. Shu bilan bir vaqtda individuallik yo'qoldi. Tafakkur qilish nusxalari tarbiyalandi va takror ishlab chiqarildi.

Sanoat inqilobi natijasida ta'limdagi to'ntarishning hajmi va chuqurligi XIX asrning I yarmida ta'limdagi inqilob to'g'risida gapirishga asos berdi. XX asrning II yarmida industrial jamiyatning so'nggi fazasida hayotning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy shart-sharoitlari o'zgardi. Ta'lim tizimida navbatdagi tushkunlik ko'rindi. Funktsional savodsizlik va kasbiy layoqatsizlik keng tarqalgan voqelik bo'ldi.

Ta'limda navbatdagi inqilob yetishib keldi. Bu sohada navbatdagi yuqori uzoq muddatli sikl ko'rindi. Postindustrial sivilizatsiya talablariga javob beradigan, har bir kishining individual qobiliyat, ijodiy kuchini maksimal rivojlantirishga qaratilgan, inson hayotiy siklining barcha bosqichlarini qamrab oladigan uzluksiz ta'lim tizimini yaratish bilan ta'lim tizimini shakllantirish boshlandi.

Ta'lim tizimini zamonaviy jamiyatga mos takror qurish sohasida mamlakatimizda mustaqillikdan keyin tub burilish boshlandi. Ta'lim tizimini isloh qilish, kelgusi kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash sohasida dadil qadamlar tashlandi. Bu davrda ko'plab ta'lim maskanlari tashkil etildi va yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi va u ta'lim tizimiga joriy qilinmoqda.

Ta'lim tizimida XIX asrning oxiridan davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari ishlab chiqildi va ular amaliyotga keng joriy etilmoqda. Ta'lim tizimining keyingi bosqichi bo'lmish oliy ta'lim tizimida ham keng islohotlar amalga oshirildi. Rivojlangan davlatlar qatori O'zbekistonda oliy ta'lim ikki bosqichga amalga oshirilmoqda. Bugungi kungacha oliy ta'lim uchun 1200 dan ziyod nomdagi darslik va o'quv adabiyotlari nashr etildi. Ta'lim kashfiyotlarini rag'batlantirish maqsadida

ko'plab medal va ordenlar ta'sis etildi. Mustaqillik sharoitida iqtidorli yoshlarni topish va ularni qo'llab-quvvatlash borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. «Fond forum», «Zulfiyaxonim» va bir qator grantlar (Prezident stipendiyasi, A. Navoiy, va M. Ulug'bek stipendiyalari) shular jumlasidandir.

4. Feodal industrial jamiyatlarning etika va mafkurasi. Feodal industrial jamiyatlarning etika va mafkurasi keyingi 1,5 ming yil ichida insonning axloqiy norma, mafkuraviy tuzulmalari taraqqiyotida 3 yuqori muddatli siklni ajratish mumkin. Bu sikllar jamiyatning boshqa tomonlari taraqqiyotidagi yirik bosqichlar, sivilizatsiyalar almashinuvining to'ldirish simon siklik dinamikasi bilan bog'langan. Shu bilan bir vaqtda o'ziga xos belgi va an'analarga ega.

Birinchi uzoq muddatli sikl etika va ideologiya dinamikasida feodalizm genezisi davri va o'rta asr sivilizatsiyalarini qamrab oladi. Bu davrda asosan dunyo dinlari shakllandi va ular inson faoliyatining barcha tomonlari va ma'naviy dunyoni bo'ysundirishga harakat qildi. Yevropada bu davrda xristianlik, Sharqda buddaviylik I asrdan, VII asrdan boshlab esa islom dini keng tarqaldi.

Dunyo dinlari o'z-o'zidan paydo bo'lmadi. Ular avvalgi qator diniy tasavvurlar va an'analar unsurlarini o'zlariga singdirdilar va o'zgartirib, meros qilib, o'zining mafkuraviy va axloqiy tizimlariga bo'ysundirdilar. Din va axloqning sintezi insoniyat munosabatlarida tartibga solinganlikni joriy qilish ehtiyojini talab qildi. Diniy axloq avvalgi tarixiy sikllarga ishlab chiqilgan bir qator umuminsoniy normalar (o'ldirishni ta'qiqlash, qon aralashuvi, mulkka tajovuz qilish) va ularni feodal jamiyatining toifaviy tuzumi ehtiyojlariga javob beradigan qoidalar bilan to'ldirdi. Do'zax va jannat tushunchalari bilan odamlarni gunoh ishlardan saqlashga harakat qildi.

Jamiyat hayotida dinlarning o'rnashuvi ma'lum darajada ijobiy rol o'ynadi. Ma'lum din hukmron bo'lgan kenglikda milliy, etnik va davlat chegaralari har xil bo'lishiga qaramasdan yagona mafkuraviy-axloqiy kenglik shakllanish mexanizmi yaratildi.

Diniy mafkuraning salbiy tomonlari inson quvonchlarini inkor qilish, ilohiy estetik hayotni targ'ib qilish, dunyo lazzatlaridan o'zini tiyishga (asketizm) chaqirish, qullik, o'zgacha fikrlashga toqatsizlik, boshqa e'tiqoddagi odamlar va dinsizlarni shakkoklikda ayblab, ta'qib qilish bo'ldi. Diniy mafkuraning xalq ma'naviy hayotiga ta'siri to'la qamrovli

emas edi. Xalq turmushida to'la tabiiy optimizm, insonparvarlik, hajj tuyg'usi, hayotdan zavqlanish saqlanib qoldi.

VII-X asrlarda yangi yosh diniy e'tiqod – islom jadal tarqaldi. Yevropada xristianlik, Xitoyda konfutsiylik hukmron bo'ldi. Bu dinlar ham davlat hokimiyati bilan hamkorlik qildi. Din o'ziga fan, madaniyat, ta'limni bo'ysundirib, ma'naviy hayotga hukmron bo'ldi.

Yevropada cherkov tashkilotlari, olim-ilohiyotshunoslar, cherkov qo'llab-quvvatlagan rassomlar, me'morlar, musiqachilar insoniyat ma'naviyat qadriyatlarini xazinasiga kirgan noyob asarlarni yaratdilar. Bu borada Vatikan muzey va saroylari namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin. Dindorlardan tushgan soliq-majburiyat, sovg'alar hisobiga cherkov, monastir, masjid, sinagoga, sinto va budda ibodatxonalarini qurildi. Cherkov, ibodatxonalar, dindorlar hissiyotiga ta'sir qiladigan haykallar, rasmlar, muqaddas kitoblardan olingan rivoyatlar avliyo-anbiyolar ta'siri bilan boy bezaklar bilan bezatildi. Ulug'vor qo'shiqlar, kuylar yaratilib, ibodat jarayonida ijro etildi. Monastir va cherkovlarda qo'lyozmalar, cherkov adabiyoti ko'chirib yozildi. Cherkov maktablarida savod, fan va san'at asoslari o'qitildi.

Cherkov yordami bilan universitetlar ochildi. Lekin cherkovning qattiq mafkuraviy tazyiqi erkin fikrni bo'g'di. Belgilangan diniy qonun-qoidalar chegarasidan chiqqan olimlar, rassomlar, pedagoglar ta'qib ostiga olindi. Cherkov monopoliyasida rahna soladigan har qanday hur fikr yoki ilmiy g'oya shubha ostiga olindi. Cherkovning zo'rvonligi vaqt o'tishi bilan Uyg'onish davrining gumanizmi bilan ziddiyatga kirishdi. Ana shu vaqtdan tugab borayotgan tarixiy supersiklning dinamikasida ikkinchi yuqori uzoq muddatli sikl boshlandi.

Uyg'onish davri gumanizmi va diniy aqidalarning cheklanmagan hukmronligini bir-biriga zidligi xristian cherkovini isloh qilish harakati – reformatsiyada ko'rindi. Reformatsiya Germaniyada boshlanib, keyin Yevropaning boshqa mamlakatlariga tarqaldi.

Reformatsiyani mafkuraviy tayyorlashda uyg'onish davri gumanizmi harakati katolik dinining nazariy tayanchi aqidaparastlikka qarshi, cherkovning haddan tashqari katta xarajatli marosimlari, ruhoniylarning ilmsizligiga qarshi kurashi bilan muhim rol o'ynadi. Reformatsiya ijobiy ahamiyatga ega bo'lib, katolik cherkovining jamiyat ma'naviy hayotiga cheksiz hukmronlik qilishiga chek qoydi. Cherkovning mulklari sekulyarizatsiya qilinishi bilan uning iqtisodiy qudrati yemirildi. Rimdan

mustaqil bo'lgan yangi xristian e'tiqodlari, jamiyatlari, milliy cherkovlar yuzaga keldi. Boshqa dinlarda ham turli oqimlar, mazhablar kurashi bordi (islom, pravoslav dinida).

Cherkov yangi g'oya va oqimlar tazyiqi ostida boshda shoshib qoldi. Keyinchalik cherkov hujumga o'tib (kontreformatsiya), o'z qudratini tiklashga urindi. Inkvizitsiya tashkil etilib, u qator mamlakatlarda o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi.

Iuzeutlar ordeni, boshqa puxta tashkil etilgan jangari diniy ordenlar, qattiq senzura kiritilib, muxolif kuchlarga qarshi ayovsiz urush kuchaydi. Bu tadbirlar natijalarni berdi, lekin bu vaqtinchalik edi, qaysiki, endi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayoti shart-sharoitlari keskin o'zgardi.

Uyg'onish dunyoviy gumanistik etikaning shakllanishiga turtki berdi. Bu axloq umuminsoniyat axloqining asosiy qadriyatlarini o'z ichiga olgan bo'lib, cherkov aqidalari yo'lidan ozod bo'lgan edi. Italiyalik olim Leon Andertin gumanistik etikaning ilmiy asoslarini yaratishda katta hissa qo'shdi. U tabiat qonunlariga yaqin bo'lgan inson borlig'ining ijtimoiy irodalar tomonidan sovg'a qilinganidan emas, inson borlig'ining tabiiyligidan kelib chiqadi deb takidladi. Inson ijodkor, dunyoning tuzuvchisi. Odam uchun bosh ma'naviy ideal faol mehnat, ijodiy faollik: «Biz bekorchilikda zaif va hech nimaga arzimaydigan bo'lib qolamiz. Yashash san'ati faoliyatda bilinadi».

Uchinchi yuqori uzoq muddatli sikl din va etika dinamikasida XVII asr o'rtalaridan XIX asrning oxirgi choragigacha bo'lgan davrni qamrab oldi. U ma'rifatparvarlik asridan boshlanadi. Bu asrning bosh natijasi dunyoqarash va etikaning mag'lubiyati, reformatsiya davrida boshlangan siljishning mustahkamlanishi edi.

Uch yuz yildan ko'proq davom etgan bu davrning mafkurasi va etikasi sohasidagi bosh an'analar qanday edi?

Birinchiidan, bu davr dunyo dinlarining ma'naviy hayot, siyosat va iqtisodiyot sohasida hukmronligining yo'qotishi, cherkov o'zgarishlarga moslashuvi bo'lib tavsiflanadi. Inson o'zining dunyodagi o'rni va o'zining jamiyat, davlat va ma'naviy-madaniy sohalar bilan munosabatini tahlil qila boshladi.

Ikkinchiidan, jamiyat mafkuraviy hayotining o'qi sifatida dinning o'rini ilmiy progress g'oyasi, jamiyatning tafakkur talablariga muvofiq ratsional asoslarda u yoki bu ilmiy doktrina asosida qurish g'oyalari egal-

ladi. XVIII asrda ma'rifatparvar olim Volter diniy dunyoqarashga kuchli zarba berdi. Uning yutug'ini ateizm (xudosizlik)ga kirganlar har tomonlama qudratli ekanligiga ishonch yo'lini ochib bergan ensiklopedistlar qabul qildilar va davom ettirdilar. XIX asrdagi keng ilmiy siljish ilmiy dunyoqarash hukmronligining progress g'oyasini mustahkamladi.

Uchinchidan, burjua jamiyatining mafkurası va axloqi kapitalistik jamiyatda u o'sha eng oliy rivojlangan shaklda qabul qilgan bozor talablariga bo'ysundirildi. Boylikka ega bo'lish, u yoki bu shaklda foydaning o'sishi oliy axloqiy qadriyat bo'ldi.

To'rtinchidan, burjua mafkurasiga qarama-qarshi XX asrda bir qancha mamlakatlarda o'zida ilmiy utopiya, ezilganlar din va cherkovga toqatsizlikni birlashtirgan hukmron sotsialistik mafkura tug'ildi, mustahkamlandi va hukmron bo'ldi.

Beshinchidan, odamlar jinslarining o'zaro munosabatlari, oila va turmush rahbarlik qiladigan ma'naviy qadriyatlar tizimi, ijtimoiy axloqda tub o'zgarishlar yuz berdi.

Din va etikada tub o'zgarishlar sotsialistik mamlakatlarda yuz berdi. Dinni siqib chiqarishga urinish umuminsoniy qadriyatlarni «Kom-munizm quruvchilari axloq kodeksi» bilan almashtirishga urinishlar va «maqsad vositani oqlaydi» qoidasiga sig'inish qayg'uli natijalarni berdi. Ikki tomonlama axloq shakllandi. Oilaning ma'naviy asoslari buzildi. Fashistik davlatlarda ham shunga o'xshash ko'pgina an'analar kuzatildi. Lekin sotsialistik mafkura va axloq mustahkam ildizlarga ega emasligi ko'rinib qoldi va XX asr oxirida dinning renessansi va u qo'llab-quvvatlaydigan axloq bilan almashdi. XX asrning so'nggi choragida mafkura va axloqning chuqur tushkunligi, bu sohada navbatdagi yuqori uzoq mud-datli siklga o'tish kuzatildi.

Tayanch iboralar: uzoq muddatli sikllar, gumanistik etika, industrial jamiyat, so'nggi uch sivilizatsiya, feodal kapitalistik jamiyat, sekulyarizatsiya, reformatsiya, postindustrial sivilizatsiya, sanoat inqilobi, elitar madaniyat, ommaviy madaniyat, Axloq kodeksi, Ristar madaniyati, radio.

Takrorlash uchun savollar:

1. Fan sohasida so'nggi bir yarim yillikda qanday to'ntarishlar yuz berdi?

2. *XVII-XX asrlardagi uzoq muddatli sikllarni tavsiflang?*
3. *Uyg'onish davrining mazmuni va tarixiy merosi qanday bo'ldi?*
4. *Industrial jamiyatda madaniyat taraqqiyotining uzoq muddatli sikllarini ayting?*
5. *O'rta asrlar, industrial arafasi va industrial jamiyatlarda ta'lim sikllarining mazmunini ochib bering?*
6. *Uch so'nggi sivilizatsiyalar davomida dinning o'rni qanday o'zgardi?*
7. *Sotsialistik mamlakatlarda din va etikada qanday tub o'zgarishlar ro'y berdi?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. Feodal kapitalistik sivilizatsiyalarda ilmiy bilish taraqqiyotining oqimlari.
2. Feodal kapitalistik jamiyatlarda tabiatshunoslik fanlarining yutuqlari.
3. Uzoq muddatli ilmiy sikllarni tavsiflang.
4. Zamonaviy jahon madaniyatining poydevori bo'lgan to'rt qudratli oqimlar.
5. Feodal kapitalistik jamiyatlarda ta'lim dinamikasi.
6. Feodal kapitalistik jamiyatlarda mafkura va etika.

IV BOB. POSTINDUSTRIAL JAMIYATNING SHAKLLANISHI

1-MAVZU: POSTINDUSTRIAL SIVILIZATSIYANING SHAKLLANISHI

1. Jamiyatning siklik dinamikasida hozirgi davr an'analari va kelajak manzaralari. 2. Postindustrial sivilizatsiyaga o'tish davrining mazmuni va tarixiy hajmlari. 3. Kelajakning muqobil manzarasi. Dunyo XXI asr boshlarida. 4. Dunyoning oxirati yoki komillik? 5. Postindustrial sivilizatsiyaning asosiy chizgilari.

1. Jamiyatning siklik dinamikasida hozirgi davr an'analari va kelajak manzaralari. Yangi postindustrial sivilizatsiyaning konsepsiyalari g'arb olimlari R.Aron, D.Bell, Dj.Gelbreyt, U.Rostou, E.Jak, J.Furastye va boshqalar tomonidan ishlab chiqildi. Ular oxirgi ilmiy texnika inqilobi postindustrial jamiyatga transformatsiya qilishning yetakchi omili bo'ldi deb ko'rsatdilar. Texnologik jarayonlar ijtimoiy munosabatlarni jiddiy modifikatsiya qildi, ommaviy iste'molni tug'dirdi va ularga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish vositalarini yaratdi. Shu bilan bir vaqtda unifikatsiya qilingan ishlab chiqarish va iste'moldan vos kechish yuz berdi. Boshqacha aytganda ishlab chiqarish va iste'molni induviduallashtirish jarayoni jaddallashdi.

Tarix turli maqsadlarda o'rganiladi. Jumladan, tarix hozirni tushunish va kelajakni oldindan ko'rish uchun ham o'rganiladi. Tarixiy progressning o'n ikki ming yillik (mezolitdan boshlab) halqalari to'g'risida to'plangan bilimlarga asoslanib, zamonning dolzarb muammolariga javob topish mumkin. Insoniyatni XX asr oxirida qamrab olgan, odatdagi turmushni buzib tashlagan bo'ronli o'zgarishlarning mazmuni va uning istiqbollari qanday? Dunyo va mamlakatimizda mavjud bo'lgan qadriyatlardan nimalar o'tmishga ketadi, nimalar tarixiy meros va qadriyat sifatida kelajak avlodlarga uzatiladi va ming yillar davomida tug'ilgan tub yangiliklardan qaysilari hayotga qobil, kelajakda saqlanib, haqiqatda qoladi va yangi sivilizatsiyani skeletini tashkil qiladi?

XX asrning 80-90-yillar boshida mavjud bo'lgan ikki siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum: sotsializm va kapitalizmga bo'lingan dunyo tub o'zgarishlar pallasiga kirdi. Xalqaro miqyosda katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan kapitalizmga qarshi turgan, milliarddan ko'p dunyo aholisini o'z ta'siri ostida saqlab turgan kommunistik mafkura va unga asoslangan siyosiy tuzum halokatga uchradi (Xitoy, Shimoliy Koreya va Kuba bundan mustasno). Bu o'z navbatida insoniyat tarixiy taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Postsotsialistik mamlakatlarda yangi jamiyatlar shakllana boshladi. Bu jamiyatlar G'arbning an'anaviy bozor iqtisodiga asoslangan siyosiy va iqtisodiy tuzilmasining etalon sifatida olib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatni qurishni boshladilar. Shuningdek, xalqaro munosabatlarda ikki qutbli dunyodan ko'p qutbli dunyoga o'tish jadal boshlandi. Boshda jamiyatning siklik dinamikasi an'analari, ularning kelajak taraqqiyotida yuz berishi mumkin bo'lgan manzaralariga umumiy baho beramiz. Keyin esa bu an'analari va manzaralar jamiyat piramidasining har bir qavatida qanday aks etishini ko'ramiz.

Hozirgi davrni baholashda tarixiy yondashuvning afzalligi shundaki (tarix yuz bergandan keyingina, ma'lum bir vaqt o'tgan keyin, uni faqat o'rganish mumkin, lekin bo'lib o'tgan tarixiy voqea-hodisalarni o'zgartirib bo'lmaydi), sodir bo'layotgan voqealarni uzoq bo'lmagan va uzoq o'tmishdagi o'xshashliklarni topish va tarixiy vaqt shkalasi bo'yicha yuz berayotgan o'zgarishlarning miqyosini baholash mumkin. Albatta, o'xshashlik mutloq dalil bo'la olmaydi. Har bir tarixiy lahzaga o'ziga xos-individual va takrorlanmas bo'lganidek, har bir tarixiy voqea o'ziga xos va qaytarilmas bo'ladi. XXI asr insoniyatning go'yoki tartibga tushgan bir me'yorda rivojlanayotgan hayotiga jadal va bo'ronli tusda kirib keldi. Insoniyat kutmagan, misli ko'rilmagan tarixiy voqealar bir asr yillikda sodir bo'ldi. Bu voqealar dunyoning milliardlab aholisining hayotida tub burilishlarni yuzaga keltirib, hammani hayratga soldi. Dunyo mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida ilgari ko'rilmagan yangi jarayonlar boshlandi. Bu jarayonlar ilgari ko'rilmagan, amaliyotda sinalmagan edi. Shu bilan birga, XX asrning 50-yillari ikkinchi yarmida boshlangan ilmiy texnika inqilobi (ITI)ning rivojlanishining yangi bosqichi insoniyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini keng qamrovli amalga oshirdi (globalizatsiya, integratsiya, ommaviy madaniyat). Axborot texnologiyalari asri (XX asrning 80-yillaridan) dunyoning barcha xalqlari, davlat-

lari va jamiyatlari hayotida tub o'zgarishlarga olib keldi. Yangi axborot texnologiyasi shiddat bilan insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida ustuvor ahamiyat kasb etdi. Inson tafakkuri bu ta'sirning hayotbaxsh va shu bilan birga, halokatli kuchini mushohada qilish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalari jamiyat hayotining barcha jabhalari-ga ta'sir qilib, kutilmagan natija va oqibatlarni sodir bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Davlat va jamiyatlar hayotining barcha sohalarida, davlatlararo munosabatlarda, madaniyatlarining o'zaro munosabatlarida axborot texnologiyalari muntazam ishtirok etib, keskin siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ishlab-chiqarish jarayoni, texnika-texnologiyalarda axborot texnologiyalarining kuchli ta'siri natijasida tub burilishlar boshlandi. Xalqaro maydonda axborot texnologiyalaridan turli davlatlar o'z manfaat ehtiyojlarini amalga oshrish vositasi sifatida foydalanmoqdalar. Axborot texnologiyalaridan unumli foydalangan davlat va jamiyatlar boshqalarga nisbatan ma'lum darajada o'z kuch-qudratlarini mustahkamlamoqdalar.

Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotidagi o'zgarishlarning ko'lami va sur'ati yuqori darajada. Ammo bu jarayonlarni ilmiy-amaliy tahlil qilish juda sust va qiyinchilik bilan kechmoqda. Axborot texnologiyalarining ta'siri dunyo taraqqiyotiga tez va jadal tuzatishlar kiritishni zaruriyat qilib qo'yimoqda. Biz hali ham bu ta'sirning hayotbaxsh kuch-qudrati, salohiyati va shu bilan birga halokatli ta'sirini yetarli darajada ko'ra olmayapmiz. Hozirgi kunda go'yoki barqaror bo'lgan, yashashiga hech qanday xavfni sezmagani etnoslar yoki ijtimoiy-siyosiy tuzum va tuzilmalarning hayotiyliigi muammoli bo'lib qolmoqda. Jahon taraqqiyotidagi globallashuv jarayonining tez sur'atlari axborot texnologiyalarining ta'siri ostida yanada jadallashdi. Insoniyat tafakkurining o'zi yaratgan axborot texnologiyalari kuch-qudratidan ijobiy maqsadlarda foydalana oladimi, uning halokatli jihatlari bartaraf qila oladimi? Rivojlangan dunyo axborot texnologiyalaridan o'z iqtisodiy-siyosiy maqsadlarida unumli foydalanmoqda. Shu bilan birga, rivojlanayotgan dunyoga nisbatan yuritayotgan siyosatida g'arazli maqsadlarda ham foydalanmoqda. Jumladan, XXI asrning birinchi o'n yilligida turli mamlakatlarda yuz bergan sariq inqiloblar, arab dunyosini chulg'ab olgan permanent inqiloblar (Misr, Liviya, Yaman Arab respublikasi, Su-

riya)ning amalga oshirishda AQSH va G'arbiy Yevropaning ayrim mamlakatlari axborot texnologiyalaridan unumli foydalandilar. Bu mamlakatlarda yuz bergan «inqiloblar» g'arb dunyosining bu hududlardagi ta'sirini kuchayishiga hamda siyosiy beqarorlikka olib keldi.

2. Postindustrial sivilizatsiyaga o'tish davrining mazmuni va tarixiy hajmlari. Insoniyat hozirgi kunda o'tish davriga kirganiga shubha yo'q. Bu to'g'risida tarixiy dinamikaning uch asosiy parametrlari guvohlik beradi: o'zgarishlar tezligi go'yoki buzilmas tuyilgan, yillar, o'n yillar, hatto, yuz yillarda shakllangan jamiyat to'satdan bir necha oylar, hatto, kunlarda tubdan o'zgardi. Ularning chuqurligi, siljishlar jamiyat piramidasining barcha qavatlar va barcha xonalarida kuzatiladi. Geografik hajmlar beqiyos (bu toshib ko'pirayotgan o'zgarishlar girdobiga tortilmagan birorta mamlakatni ko'rsatish mumkin emas). Jadal va qiyinchilik bilan jamiyat hayotining barcha qirralariga tegib o'tgan keskin tushkunlik sharoitida barcha odatdagi turg'un bo'lgan holatlarda mavjud bo'lgan tartib-qoidalar o'zgaradi, kelajak jamiyat azob bilan tug'iladi.

Yaqqol ko'rinadiki, bu o'zgarishlar, joriy yuz beradigan holatlar muntazam mamlakat va qit'alarni larzaga keltiradigan o'rta muddatli sikllardan farq qiladi va uning doirasidan chiqadi. Bu tarixiy o'zgarishlarning mohiyati va miqyosini qanday baholash kerak va bu o'tish davri qaysi tarixiy siklga tegishli? Bu savolga uch javobni berish mumkin:

1. Industrial sivilizatsiya doirasida uning dinamikasida navbatdagi bosqich uzoq muddatli tarixiy sikllarning almashuvi yuz beradi. Yetakchi texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ukladlar, hukmron ilmiy, madaniy, mafkuraviy paradigmalarni bir-birini almashtiradi. Bunday holda industrial jamiyatning asoslari o'zgarmay qoladi, faqat ularni amalga oshirishning shakllari va mexanizmlariga o'zgaradi. Episentrdan o'tish davri o'n yil atrofida bo'ladi va o'sadigan to'liq asoslarini ikki, uch o'n yilliklarda tayyorlaydi. Chekka hududlarda bu jarayon kechroq boshlanadi va yana uzoq muddatga cho'zilishi mumkin. Lekin dunyo taraqqiyotining shiddatli o'zgarishlari ta'siri ostida jarayonlarning boshlanishi va muddatlari qisqarishi mumkin.

Ukladlarning almashayotgani ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi aniqlangan ko'pgina o'zgarishlar bilan tasdiqlanadi. Ammo birinchidan, to'ntarishning chuqurligi uzoq muddatli sikllar uchun xos bo'lgan hodisalardan oshib ketdi: yuz yillar davomida shakllangan industrial sivilizatsiya

zatsiyaning asoslari darz keta boshlaydi. Ikkinchidan, kutilmagan o'tish davrining davomiyligi yarim asrlik sikllarga xos bo'lgan muddatlardan o'sib ketadi. Ikki o'n yillik o'tsada «yerosti qimirlashlari» va «vulqonning qaynashi» to'xtamadi. Shunday vaziyatda, yanada miqyosi kattaroq ko'rinishdagi tarixiy sikllarga murojaat qilish lozim.

2. Insoniyat XX asrning so'nggi choragida postindustrial sivilizatsiyaga o'tish davriga kirdi. Yuqori uzoq muddatli (sivilizatsiya) sikllarning almashuv jarayoni boshlandi. To'ntarishning chuqurligi va davomiyligi tushunarli bo'la boshladi. Industrial jamiyatning asoslari, ishlab chiqarishning mashinalashgan tuzumi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning o'sib borayotgan konsentratsiyasi, odamning ulkan texnik, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tizimlarning zarrasi, vintchasiga aylanishi – bularning barchasi o'tmishga ketadi.

Yangi postindustrial jamiyat (sivilizatsiya)ning asoslari tug'iladi. Shunday holda, ketayotgan sivilizatsiyaning so'nggi fazasi va keladiganing birinchi fazasi vaqt bo'yicha to'g'ri keladi. Bu o'tish davrining mohiyati uzoq muddatli tarixiy siklning uzunligiga teng bo'lgan uning taxminan yarim asrlik davomiyligining mohiyatini belgilaydi. Ana shu tarzda sivilizatsiya tushkunligi uzoqligi va nihoyasi mazmuni oldindan hal qilinadi. O'tish davrida texnologiyalar, iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy tuzumning aralashligi hamda jamiyatning barcha sohalarida bir-birini kuchaytiradigan tushkunliklar qatori bilan tafsiflanadi. Yangi jamiyatning tug'ilayotgan ukladlari (texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy) va yangi sivilizatsiya belgilarini o'zida olib boradi va o'tish davri bo'lgani uchun, ularning yetarlicha samaradorligi bo'lmagani, qiyin shakllanishi bilan shartlanadi. Faqat ikkinchi tarixiy (uzoq muddatli siklda) postindustrial sivilizatsiya o'zining shaxsiy asosida quriladi.

3. Uchinchi tarixiy supersiklga o'tish boshlanayotganidan guvohlik beradigan belgilar bor, qachonki, ular bir-biri ortidan borayotgan sivilizatsiyalar triadasini qamrab oladi. Agarda, keyingi ikki sivilizatsiya davomida shakllangan tarixiy shaklning jadallashuv sur'ati saqlanib qolsa (har bir keyingi bosqich oldingiga qaraganda, 1,5 marta qisqaroq). Uning jadallashuv sur'ati 1,4 martagacha qisqaradi. Shunda navbatdagi supersiklning vaqtinchalik doirasi ikki variantda 7-jadvalda berilgan ko'rinishda tasvirlanadi.

Postindustrial sivilizatsiyalar almashuvining ritmi

Jahon sivilizatsiyalari nomi	Variant	Bosqichlarning xronologik doiralari: yillar uzoqligi				Sivilizatsiyalar uzoqligi yillar; jami yil.
		O'tish davri	Shakllanish	Yetuklik	Tushkunlik	
Birinci postindustrial	I*	1973-2020; 48	2021-2060; 40	2061-2100; 40	2101-2130; 30	1973-2130; 158
	II*	1973-2025; 53	2026-2070; 45	2071-2115; 45	2116-2155; 40	1973-2055; 183
Ikkinchi postindustrial	I*	2131-2160; 30	2161-2185; 25	2185-2015; 30	2216-2240; 25	2131-2240; 110
	II*	2156-2190; 35	2191-2220; 30	2221-2255; 35	2256-2285; 30	2156-2285; 130
Uchinchi postindustrial	I*	2241-2260; 20	2261-2280; 20	2281-2300; 20	2301-2315; 15	2241-2315; 75
	II*	2286-2310; 25	2311-2335; 25	2336-2360; 25	2361-2380; 20	2286-2380; 25
Uchinchi tarixiy supersikl	I*	1973-2060; 88	2061-2160; 100	2161-2240; 80	2341-2315; 25	1973-2315; 343
	II*	1973-2315; 343	2071-2190; 120	2191-2285; 95	2286-2380; 95	1971-2380; 4100

I* -tarixiy jarayonning jadallashuvi 1,5 bo'lganda

II* -koeffitsienti 1,4 bo'lganda.

Albatta, bu hisoblar shartli. Juda ko'p omillar tarixiy progressga ta'sir qilindi. Qaysiki, fazalar va sikllar almashuvi muddatini bir yilgacha aniqlikda belgilash mumkin: kelajak taraqqiyotning turli manzaralari bo'lishi mumkin. Shunga qaramasdan, 7-jadval progressning jadallashuvini berilgan sur'ati yaqin uch-to'rt yuz yillikda tarixiy progressning ritmi kelajakda sivilizatsiyalar almashuvini mumkin bo'lgan izchillikda va ularning tuzilmasi (mumkin bo'lgan variantlardan ikkitasi) to'g'risida tushuncha beradi.

Shunday yondashuvda o'tish davri doirasi kengayadi. Ular postindustrial sivilizatsiyaning birinchi ikki fazasi (asr atrofida yoki taxminan ikki uzoq muddatli sikl)ni qamrab oladi. Tabiiyki, bu davrning tuzilmasi yunada murakkab bo'ladi. U bir necha turg'unlik va ko'tarilishlar davrlari bir-birini almashtiradigan uzoq va o'rta muddatli sikllar va tushkunliklar,

ularning almashinuvini o'z ichiga oladi. Bu manzara hozirgi kunda kuzatilmoqda: har o'n yilda jahon iqtisodiy tushkunliklari (1973-1975, 1981-1983, 1991-1993, 2008- yillar) va ularga mos ijtimoiy-siyosiy yo'qotishlar va ziddiyatlar takrorlanib turmoqda.

Birinchi uzoq muddatli sikl taxminan yarim asr XX asrning so'nggi choragi va keyingi yuz yillikning birinchi ikki o'n yilligini qamrab oladi. Bu insoniyat tarixida keyingi ming yillikdagi eng og'ir davr bo'lib, umumjahon tushkunligi, postindustrial sivilizatsiyaning tug'ilishini anglatadi. Yangi sivilizatsiya endigina tug'ilib, hali insoniyat taqdiriga ma'lum bir ta'sir o'tkaza olmaydi. Shu sababli, bu davrda oldindan kutilmagan portlashlar va yo'qotishlar bilan tushkunliklar (Sharqiy Yevropada sotsialistik tuzumning halokati aniq bo'lishi, XX asrning 80-yillari so'nggida, 2008-yildagi jahon moliyaviy tushkunligi) yuz berdi. Tug'ilyotgan jamiyat hali ham eski dunyo bilan bog'langan, o'zida uning asosiy qarama-qarshiliklarini olib boradi. Yemirilayotgan eski sivilizatsiyaning o'layotgan unsurlari, zarralari bilan zaharlangan holatda yashaydi. O'linga mahkum ijtimoiy tizimning unsurlari o'zining mavjudligini uzaytirishga harakat qilib, so'nggi choralar ko'rishga qobiliyatli bo'ladi. Oqibatda u insoniyatni o'zini-o'zi halok qilishiga olib kelishi mumkin.

Dunyo mamlakatlari o'rtasidagi notekis taraqqiyot saqlanib qoladi. Notekis taraqqiyot keltirib chiqargan muammolarni yechishga urinishlar, mamlakatlarning ichki va tashqi siyosatdagi muammolar, tarixda ilgari ko'rilmagan ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarni vujudga keltiradi. Ayrim mamlakatlar ro'y bergan tushkunliklarni boshqa mamlakatlar hisobidan hal qilishga urinadilar. Buning yaqqol misoli, 2008-yilda jahon moliyaviy inqirozi Shimoliy Amerika va Yevropadagi rivojlangan mamlakatlarda muammolarni vujudga keltirdi. Bu muammolarni yechish uchun AQSH va G'arbiy Yevropa arab dunyosidagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirish, arab inqirozlari (Misr, Iroq, Yaman, Liviya, Suriyada)ni amalga oshirishga kirishdi. Neft-yoqilg'i zahiralarga boy bo'lgan arab dunyosining G'arb banklarida saqlanayotgan oltin valyuta zahiralari moliyaviy tushkunliklardan chiqish uchun g'arb davlatlari iqtisodiga enieksiya qilinishi mumkin.

Arab dunyosida internet orqali g'arb o'ziga foydali «inqiloblarni» amalga oshirishga kirishdi va bu yerdagi siyosiy tizimlarni o'z foydasiga o'zgartirishni boshladi. Bir tomondan AQSH- Yevropa Ittifoqi, Rossiya o'rtasida o'z ta'sir doirasini kengaytirish uchun tizimli raqobat kuchay-

di va bu uzluksiz davom etadi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan siyosat ayrim mamlakatlarning harbiy xarajatlarini keskin o'sishiga olib keladi. Jumladan, Rossiya va AQSH 2020-yilgacha o'z harbiy xarajatlarini astronomik raqamlarda oshirishni rejalashtirdilar. Bu o'z navbatida xalqaro vaziyatni keskinlashtiradi va urush xavfini kuchaytiradi. Lekin buni halokatli ekanligini insoniyatning hushyor tafakkuri anglab yetishi lozim bo'ladi. XXI asr boshlaridan yetakchi davlatlar o'rtasida keskin raqobatni kuchayishi oqibatida yangi lokal urush o'choqlari kelib chiqadi. Lokal urushlar bo'layotgan hududlarda siyosiy-iqtisodiy tangliklar yuz beradi. Urush olovi ostida qolgan mamlakatlarda xo'jalik izdan chiqib, millionlab kishilar boshpana va ish izlab Yevropaning rivojlangan hududlariga ommaviy ko'chishi boshlanadi. Bu o'z navbatida Yevropa hududida millatchilik, milliy-etnik nizolarni kuchayishiga olib keladi. Milliy-etnik, diniy nizolar kuchayib, xalqaro xavfsizlikka tahdid soladi.

Diniy-ekstremizm va siyosiy terrorizm jahon xavfsizligiga jiddiy xavf tug'diradi. Hududiy siyosiy-harbiy bloklar o'rtasida raqobat kuchayib, bu o'z navbatida qurollanish poygasini kuchaytiradi. Ko'p hollarda bu raqobat kichik davlatlarga salbiy ta'sir qiladi. Davlatlar o'rtasidagi import-eksport hajmi qisqaradi. Misol uchun: Rossiyaning Ukraina bo'yicha g'arb dunyosi bilan 2014 yildan boshlangan qarama-qarshi turishi natijasida 2014 yilda Rossiya 140 milliard dollar miqdorida iqtisodiy zarar ko'rdi. Yetakchi davlatlar o'z mavqelarini sobiq metropoliyalarda qayta tiklashga urinadilar. Yetakchi davlatlar o'zlariga bo'ysunishni istamagan kichik davlatlarga nisbatan bu davlatlarning ichki ishlariga aralashib, ularning iqtisodiy-siyosiy barqaror rivojlanishini buzish uchun mamlakat ichida turli etnik-diniy ixtiloflar keltirib chiqaradilar.

XXI asrning birinchi choragi boshlanishida postindustrial sivilizatsiyaning o'z asosida qaror topishi uchun keng yo'l ochildi. Bu o'smirlik fazasi, yangi jamiyatning shakllanishi va tarqalishi, qachonki, u birinchi postindustrial sivilizatsiyaning asosiy belgilari va afzalliklarini o'zida aks ettiradi (u boshqa nom olishi ham mumkin). Lekin bu nomni qanday bo'lishini aniqlash keyingi avlod olimlarining ishi. Har holda bu uzoq muddatli sikl sivilizatsiyalarning navbatdagi triadasida o'tish davrini tugallaydi. Yangi sivilizatsiyaning unsurlari asta-sekin qiyinchilik bilan qaror topayotgani va uning mavjudligi va kuchga kirayotganini ko'rish lozim.

3. Kelajakning muqobil manzarasi. Dunyo XXI asr boshlarida. Olimlar, futurologlar, siyosatchilar ming yilliklar chegarasiga katta umidlar bilan yondashdilar. Ular XXI asrda yalpi gullab yashnash, asrlardan beri orzu qilingan ideallarni amalga oshishni ko'rdilar. Shu bilan birga, yer sivilizatsiyasini halokat tomon jadal olib borayotgan ulkan xavflardan qat'iy ogohlantirishlar ham yangradi. Yangi ming yillikka kelib insoniyat o'zi va yer yuzidagi boshqa barcha tirik mavjudotlarni yadro urushi bilan yo'q qiladigan yetarli texnik imkoniyatlarga ega bo'ldi. Oz faoliyati bilan tabiat dunyosini uyg'unligini buzib ekologik halokatga shart-sharoit yaratmoqda.

Yer sivilizatsiyasiga tahdidlarni 1960-yilda nemis siyosatchisi va olimi Frits Baade «2000-yil tomon musobaqa» nomli kitobida juda aniq shakllantirdi. Asarning kirish qismida: «Bizning kelajak yerda jannat yoki insoniyatning o'zini-o'zi yo'q qilishi» muqobilligi shakllantirilgan edi.

F.Baade XX asr oxirida insoniyatning gullab yashnashi mumkinligini o'ziga tortadigan manzarasini chizib berdi. 2009-yilda dunyo ajoyib mo'jizakor bo'lishi mumkin. Ochlikni yengish mumkin, sayyoramizda yashovchilardan birortasi ham och qolmaydi. Barcha odamlar nafaqat yetarli miqdorda guruch, makkajo'xori yoki bug'doyni oladilar va ham-mada yetarli miqdorda sut, go'sht, baliq oladilar, qaysiki, ular sog'liq va ish qobiliyatini to'liq saqlash uchun zarur. Qashshoqlikni ham yengish mumkin. Yerdagi har bir mehnatga qobiliyatli odam yetarlicha oziq-ovqat bo'lganda, to'la kuchda ishlashi mumkin. Osiyo xalqlarida ishlab chiqarish agar u qo'shimcha zaruriy mehnat quroli bilan ta'minlansa, hozir yevropalik, shimoliy amerikalik yoki sovet ishchilari erishgan darajaga yetishi mumkin. Har bir oila elektr va suv quvuri bilan hamda dunyoning ayrim hududlarida zarur bo'lgan markaziy isitish bilan insonga loyiq uy-joy oladi. Yuqori ish haqi ish vaqtini keskin qisqartirish imkonini beradi. Mehnat ta'tilidan foydalanish uchun imkoniyatlar haqiqatdan fantastik bo'ladi. Havo sayohatlari o'sha vaqtda hamma uchun deyarli tekin bo'ladi. Dunyo mamlakatlaridagi barcha ishchilar dam olish uchun har qanday joy Tinch okeanidagi Nordkapmi, Florida yoki Kavkazdagi rus Riverasini tanlashlari mumkin. Bu safarlarni birortasiga ham viza talab qilinmaydi, hatto, pasport ham, chunki bu ajoyib dunyo bo'lishi mumkin. Qachonki, davlatlar o'z milliy suverenitetlarini ko'ngilli ravishda tubdan cheklashga rozi bo'lishlari lozim bo'ladi. Ochlik va qashshoqlikdan qutulishdan ko'ra, yanada katta mo'jiza – insonning erkin borlig'i,

xavfsizligidir. To'la qurolsizlanish oqibatida urushlarni tugashi odamlarga xavfsizlikni ta'minlaydi, qaysiki, bunga bugun butun dunyo xalqlari intilmoqdalar. Bu ularning o'z-o'zini yalpi yo'q qilishdan xalos qiladi. (5.k 237-238. 263 стр. русский перевод).

F.Baade insoniyat kelajak taraqqiyotining pessimistik manzarasini ham tasvirlab berdi: «Bizning ko'z oldimizda aql va aqlsizlik qarama-qarshiligining butun tarixi bo'yicha eng katta fojia yuz beradi. Bu omillardan eng birinchisi, hozirgi kunda «atomli» millatlar ega bo'lgan qurollarning vahimali samaradorligidir.

Ikkinchi omil – butun o'tmish tarixda odamlar tafakkuri va qalbida to'planib qolgan ma'naviy va axloqiy tashlandiqlarning badbashara uyilmasidir.

Nihoyat, uchinchi omil – bu mas'ul siyosatchilar bizning oldimizda turgan eng oddiy muammolarni aqlan yechishga mislsiz qobiliyatsizliklaridir».

Bizning yuz yilligimizning qolgan 40 yilida, aynan yaqin o'n yillikda biz yerda odamxo'rlarni yo'qotish davri buyuk inqilobiga teng bo'lgan inqilobni amalga oshirishimiz lozim.

Biz tushunishimiz lozimki, insoniyat o'z tarixining yangi bosqichiga kirdi. Bu bosqich uning keyingi tirikligi uchun hal qiluvchidir... Insoniyat oldida buyuk muammo turibdi. Unga teng keladiganni uning butun tarixi bilmaydi. U qisqa muddatda bu muammoni yechishi zarur. Bu haqda hatto o'ylash qo'rqinchli. Mana bu masalani yechishga ajratilgan muddat tugab va yana qo'shimcha o'n yil o'tdi. Bashorat qilingan insoniyat taraqqiyoti Senariysi xayriyatki amalga oshirilmadi. Ular tubsiz jarlik yoqasida to'xtashlari uchun odamlar yetarli darajada dono. Lekin optimistik Senariyni amalga oshirish uchun insoniyat yetarli bo'lmagan holda ongli va uyushmagan.

Ha, haqiqatdan, yerda jannatni amalga oshirish mumkin emas. Bu taraqqiyot potensialini to'xtatish xavfi bilan oqibatda insoniyatni manmanlikdan halok bo'lishi bilan bog'liq xavfli utopiya.

Shu paytgacha yadro urushi halokatidan saqlanib qoldik. Insoniyat XX asrning 80-yillarida nihoyat yadro halokati oqibatini tushunib yetdi. Tish-tirnog'igacha qurollangan ikki buyuk davlat, ikki lager, ikki harbiy-siyosiy guruhning qarama-qarshi turishi barham topdi. Bu insoniyatning o'z-o'zini yo'q qilishini tugatmagan bo'lsada, uning xavfini vaqtinchalik kamaytirdi.

Insoniyat bir necha bor yadro urushi yoqasiga kelib qolgan bo'lsada, Baade 1960-yilda bashorat qilgan pessimistik Senariy amalga oshmadi. Hozirgi kunda ham yadro quroliga ega bo'lishga intilayotgan davlatlar yo'q emas. Optimistik Senariy uchun hali vaqt kelmadi. Hali ham Osiyo, Afrikada yuz millionlab odamlar qashshoqlikda yashamoqdalar. Kasallik, ochlik, uy-joy muammosi, ekologik xavf, spid, giyohvandlik va terrorizmning turli ko'rinishlari yalpi muammolarga aylandi. Rivojlangan mamlakatlardan tashqari boshqa barcha mamlakatlarda ochlik, muntazam ishsizlik, nochorlik odamlarni doimiy hamrohi bo'lib qoldi. Yuzlab, millionlab odamlar, ayniqsa, sobiq sovet respublikalarining aholisidan millionlab kishilar ishsizlikdan Rossiya va Yevropa mamalakatlariga ish qidirib borib, huquqsiz gastarbayer bo'lishga majbur bo'lmoqdalar. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi mehnat ta'tili vaqtida ham tirikchilikni o'tkazish uchun ishlashga majbur. Sharqiy Yevropa davlatlari bozor iqtisodiyotiga jadal kirishdi. SSSR, Yugoslaviya, Chexoslavakiya kabi federativ davlatlar parchalanib ketdi, yangi chegaralar paydo bo'ldi. XX asrning 50-yillaridan boshlangan Sharqiy Yevropa va SSSRning integratsiyalashgan xalq xo'jaligi buzilib ketdi.

Jahon urushi xavfi, termoyadro, kimyoviy-bakteriologik urushlar xavflari bartaraf qilindi. Lekin, dunyoda lokal urushlar hali ham davom etmoqda. Ularni to'xtatish uchun bo'lgan harakatlar zoye ketdi. Yaqin Sharqda Falastin–Isroil mojarosi, Suriya, Yugoslaviya, Kavkazortida Chexeniston, Abxaziya, Shimoliy Osetiya, Ukraina va Afg'onistondagi lokal urushlar ushbu mamlakatlarning taraqqiyoti va hududiy tinchlikka jiddiy xavf tug'dirib, uzoq yillar bu hududlarda beqarorlikka olib kelmoqda. Bu lokal urushlarga o'nlab katta-kichik mamlakatlar aralashib qoldi. Rivojlangan mamlakatlar uchun bu beqaror zonalar o'z manfaatlarini himoya qilish maydoniga aylanib qoldi.

XX asrning 80-yillaridan etnik, diniy kelishmovchiliklar kuchayib ketdi. Dunyoning ayrim mamlakatlaridagi etnik ziddiyatlar qonli urushlarga olib keldi. Sobiq Yugoslaviya, Kavkazortida tog'li Qorabog' bo'yicha ozarbayjon–arman mojarosi va boshqalar vaziyatni yana chigallash-tirdi.

Hududlarda separat kayfiyat kuchayib ketdi. Dunyoning 1/6 qismini egallagan SSSR davlati parchalanib ketdi. Yugoslaviya federatsiyasi barbod bo'ldi. Chexoslavakiya ikki davlatga ajraldi. Moldaviyadan Pridnestr hududi ajralib chiqishga urundi. Kanadada fransuzlar ko'pchilikni tashkil

qilgan Kvebek provinsiyasi mustaqillikni talab qilib chiqdi. Etnik muammolarni ko'targan terrorchilik tashkilotlari jonlandi (Ispaniyada Eta, Shri Lankada Tamil hlama va boshqalar).

Diniy ekstremizm XX asrning 80-yillaridan xalqaro xavfsizlikka jiddiy xavf tug'dira boshladi. Amerikadagi 2001-yilda sentabr portlashlari butun dunyoda tinchlikning mo'rtligi va terrorizmning naqadar xavfli ekanligini yana bir bor ko'rsatdi. Jahon miqyosida bu xavfga qarshi kurash boshlandi. Diniy ekstremizm ayrim davlatlar jamiyatlarning halokati xavfini tug'dirdi. Etnik-diniy ziddiyatlar kuchaydi.

Jon Hesbitt va Patrisiya Eburdinlarning «Megatendensiyalar. 2000-yil 90-yillariga o'n yangi yo'nalishlar» nomli asarida 2000-yil va XXI asr boshlaridagi manzarani chizib beradigan vaqt bo'yicha bizga yaqinroq bashorat mavjud. Kitob 1990-yilda AQSHda chop etilgan. Kitobda XX asrning 90-yillaridagi asosiy yo'nalishlar XXI asrga kirish sifatida aniqlanadi. «Keladigan o'n yillik sivilizatsiya tarixidagi barcha o'n yilliklar ichida eng muhimi. Bu ta'sir qoldiradigan texnologik yangiliklar, misli ko'rilmagan iqtisodiy imkoniyatlar, ko'z ko'rmagan siyosiy islohotlar va buyuk madaniy uyg'onish o'n yilligi bo'ladi. Bu o'n yillik boshqa o'n yilliklarning birortasiga o'xshamaydi, chunki uning tugallanishi yangi ming yillikning boshlanishini belgilaydi.

Qadimgi teatr ko'rinishida bo'lganidek, yangi ming yillik bizning ongimizda a'lo, yanada mukammalroq dunyoni ko'rishga chaqiradi. Shu bilan birga, bizning ongimizda dunyo oxirining vahimali manzaralarini chizadi...

Mana, nima uchun qurollanish ustidan nazorat atom bombasi oldida bizni qo'rquvdan ozod qilmaydi. Ishsizlikning pasayishi, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi mislsiz yutuqlar, yangi ish o'rinlarining yaratilishi 90-yillarda yangi iqtisodiy tushkunlik oldidagi qo'rquvdan bizni xalos qilmaydi».

Yangi ming yillikning birinchi o'n yilligi o'tdi. Bashoratchilarning optimistik bashoratlari amalga oshmadi. Qit'alar, mamlakatlar taraqqiyotidagi notekislik bartaraf qilinmadi. Urush o'choqlari tugatilmadi. Malakatlar, jamiyatlar o'rtasidagi va ichidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlar o'z yechimini topmadi. Qurollanish poygasi yanada kuchaydi. Dunyoni qayta bo'lib olish, o'z doiralari kengaytirish uchun yetakchi mamlakatlar o'rtasida musobaqa qayta boshlandi. Nisbiy barqarorlik saqlanib qolgan bo'lsada, lekin urush xavfi siyosiy yo'qotish, mamlakat-

lardagi beqarorlik an'anasi kuchayib bormoqda. Mavjud yoqilg'i-energetika zahiralari egalik qilish uchun yetakchi mamlakatlar o'rtasida raqobat kuchayib, bu raqobat oqibatida boshqa mamlakatlar, hududlarining, siyosiy-iqtisodiy barqarorligi katta tahdid ostida qolmoqda. XXI asrda quyosh tizimidagi boshqa sayyoralarni egallash uchun kuchli harakat boshlanadi. Marsni o'zlashtirish uchun ilmiy ekspeditsiyalar uyushtiriladi. Yetakchi davlatlar va davlatlar guruhining o'zaro raqobati bu sohada yaqqol ko'rinadi.

4. Dunyoning oxirati yoki komillik? Bulardan qaysi birini tanlash bizning ixtiyorimizda. Uchinchi ming yillikning boshlanishi bilan bizning butun faoliyatimiz oxir-oqibatda bizning tanlovimizni aniqlashtiradi. (Тароже 264-265 сур).

Nesbitt va Eburdin bashoratlari XX asrning 90-yillari boshida chop etildi. Tabiiyki, kelajakning mumkin bo'lgan muqobilliklari anchagina qisqa va bashoratlari realroq. Kitobda detallashtirilib asoslangan ko'pgina an'analar postindustrial sivilizatsiya arafasida o'zgarishlar chizgisini ko'rsatadi. Mualliflar o'ta umidli ruhda XX asrni so'nggi o'n yilligi manzarasini tasvirladilar. Ular yangi sivilizatsiyaga o'tish davri qiyinchiliklari, ziddiyatlariga yetarlicha baho bermadilar.

XX asr 90-yillarining birinchi to'rt yili iqtisodiy yuksalish o'rniga rivojlangan dunyoning yetakchi davlatlari. AQSH va Yaponiyani qamrab olgan dunyo iqtisodiy tushkunligi bilan o'tdi. Siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy tushkunlik postsotsialistik mamlakatlarda yanada chuqurroq va uzoq kechdi. 90-yillar sobiq SSSR ning mustaqillikka erishgan mamlakatlari uchun eski tuzum asoratlaridan qutulish va yangi jamiyatning huquqiy asoslarini yaratish davri yoki azobli o'tish davri bo'ldi. Bu o'tish davri hali ba'zi mamlakatlarda qachon tugashi noma'lum. 2008-yilda dunyoda moliyaviy inqiroz yuz berdi. Bu inqiroz dunyoning iqtisodiy qurilmasi mo'rtligini yana bir bor ko'rsatdi.

90-yillar boshlarida sobiq SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida erkin bozor munosabatlari unsurlari paydo bo'ldi. Bashoratda aytilganidek, nafaqat Vengriya, balki boshqa sotsialistik davlatlar ham bashoratda ko'rsatilgan doiradan chiqdi. Bu mamlakatlarda «bozor sotsializmi» emas, kapitalizm aralash bozor xo'jaligi bilan (GFR va Shvetsiya kabi), balki eng agressiv kapitalizm yovvoyi bozor munosabatlari, davlat mulki, umumxalq mulkini o'g'irlash bilan shafqatsiz dastlabki kapital jam'arish paydo bo'ldi.

Tarixiy jarayonning hozirgi bosqichi va uni istiqbollari I.M.Dyakonovning «Tarix yo‘llari» asarida o‘ziga xos baholangan. U insoniyat tarixini hisob bo‘yicha sakkizinchi postkapitalizm fazasini vodorod bombalari (1952-1953-yillar)ni sinab ko‘rish vaqtidan hisobni olib boradi. Bu davrda shaxsda diniy va falsafiy mafkura yo‘q bo‘lsada, u o‘zini yaxshi his qiladi. Ulkan vayron keltirish kuchiga ega bo‘lgan yadro quroli va boshqa qurollar paydo bo‘ladi. Turmush axborotlarining elektrlashuvi, ijtimoiy tuzilmada siljishlar, aholi o‘shining jadallashuvi, mustamlakalarga mustaqillik berish kuchayadi deb bashorat qildi olim (Также 266 стр).

Sakkizinchi faza orqasidan tarixiy jarayonning to‘qqizinchi fazasi kibradi. Uning mazmuni va xronologik doirasini hozircha aniqlash qiyin. Bu fazada asosiy xavf yer shari aholisining tez o‘shishi va XXI asr oxirida uning soni 15 mlrd kishiga yetishi mumkin. Bu atrof-muhitga favqulodda og‘irlikni tushishiga olib keladi. Ikkita Senariy yuz berishi mumkin deb taxmin qilinadi: birinchi Senariy bo‘yicha yer tarixining bo‘r davri so‘nggida dinovavrlar o‘lib ketgani kabi insoniyat XXII asrdan kechikmay o‘lib ketadi. U bilan birga, bizga ma‘lum biosferaning katta qismi halok bo‘ladi.

Ikkinchi optimistik Senariy bo‘yicha tarixiy jarayonning sakkizinchi fazasiga yetgan mamlakatlarda bugun kuzatilayotgan aholi o‘shining pasayishi keskin kuchayadi. Insoniyat mavjudligiga oltinchi fazadan hali ko‘tarila olmayotgan «uchinchi dunyo» mamlakatlari xavf tug‘diradi. Ko‘rinishidan ularni sakkizinchiga tezroq ko‘tarish lozim» (Также 267 стр). 2016-yil yanvarida yer aholisining soni 7 mlrd 364 mln kishiga yetdi.

Taklif qilingan kelajak Senariylarini mensimaslik mumkin emas, lekin ular aniqlashtirishlarga muhtoj. Ikki davrni ajratib turadigan oraliqni XXI asrni 50-yillari boshlarida emas, balki ikki o‘n yillikdan keyinroq ko‘ramiz. Bu yillardan, qachonki, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tushkunliklar boshlanib ketdi.

Bundan so‘ng esa jahon sotsialistik tizimi, o‘zaro iqtisodiy yordam kengashi (O‘IYOK) va SSSR, Varshava shartnomasi parchalanib ketdi. Bipolyar dunyo tugadi. Ommaviy qirg‘in qurollarini cheklash boshlandi, lekin bu uzoq davom etmadi. Keskin milliy nizolar, lokal urushlar boshlandi.

I.M.Dyakonov, keladigan har bir faza, beshinchisidan boshlab olidingisiga qaraganda, uch marta qisqaradi deb ko‘rsatdi. Agar bu an‘ana

davom etadigan bo'lsa, sakkizinchi (postkapitalistik) faza bor-yog'i 30 yil davom etadi. Keyingi to'qqizinchi faza o'n yilga teng bo'ladi. Bu albatta haqiqat emas. Olimlar jahon sivilizatsiyasining boshqa davomiyligi (industrial sivilizatsiya o'tish davri qo'shilgan holda 2,4 yuz yillik, postindustrial-1,6) va tarixiy progressning jadallashuv an'anasi koeffitsenti ikki marta kamligidan kelib chiqadilar (7-jadvalga qarang). Lekin bu koeffitsent, ayniqsa, sivilizatsiyalarning yangi tarixiy supersiklga o'tishi uchun kamayishi mumkin.

Istiqbolda yer aholisi sonining o'sishini kutish mumkin emas. XX asrning 80-yillari so'nggi yillarida aholi eng zich joylashgan qator mamlakatlarda aholi tabiiy o'sishining sur'atini qisqarish an'anasi yaqqol ko'rinadi. Misol uchun, Xitoyda aholi 1970-yilda-25,8 kishidan 1994-yilda 11,3 kishigacha (aholini 1000 kishisiga), Yaponiyada 1970-yilda 11,9 kishidan 1994-yilda 3,1 kishigacha, Rossiyada 1960-yilda 15,8 kishidan 1995-yilda 5,7 kishigacha, AQSHda 1970-yilda 8,9 kishidan 1994-yilda 6,8 kishigacha, Meksikada 1970-yil 32,5 kishidan 1994-yil 27,7 kishigacha, Fransiyada 1970-yilda 6,1 kishidan 1994 yilda 3,1 kishigacha kamayib ketdi.

Bu an'ana XXI asr boshlarida ham saqlanib qolib, yana kuchayadi. Bu o'z navbatida aholi va uning ehtiyojlarini o'sishi va tabiiy resurslarning cheklangani, biosferaning holati o'rtasidagi qarama-qarshilikni yumshatish imkoniyatini beradi. Bunga yana postindustrial ishlab chiqarish texnologik usuliga xos bo'lgan resurslarni tejaydigan ekologik toza texnologiyalarning keng tarqalishi ham yordam beradi.

Industrial sivilizatsiyadan XXI asr uchun meros qilib olingan yalpi qarama-qarshilikni insoniyat yenga oladimi? degan savol tug'iladi. 1904-yil Rio-de-Janeyro shahrida «Xalqaro hamkorlik barqaror rivojlanish konsepsiyasi» nomli xalqaro konferensiyaga to'plandi. Jamiyat va atrof-muhit o'rtasida iste'mol va resurslarning o'sishi muvozanatini ta'minlash, bir tarixiy sikldan boshqasiga o'tishda yo'qotishlarni kamaytirish ushbu konferensiyaning asosiy muhokama mavzusi edi. Bu konsepsiya asosida akademik V.I.Vernadskiyning biosfera va noosferani ilmiy tafakkur va inson faoliyati ta'siri ostida aqlan o'zgartirish, qachonki ilmiy tafakkur geologik kuchga aylanadi degan nazariyasi yotar edi. Bu kelajakdagi emas, aksincha, bugungi jarayon bir necha ming yil davomida bormoqda. Akademik Vernadskiy shunday ta'kidlagan edi: «So'nggi ming yillikda bir ko'rinishdagi tirik mavjudot-sivilizatsiyalashgan in-

soniyatning biosfera o'zgarishiga ta'siri intensiv o'sib bormoqda. Ilmiy tafakkur va inson mehnati ta'siri ostida biosfera yangi holat – noosferaga o'tmoqda. Aytish mumkinki, 5-7 ming yil davomida jadal sur'atlarda o'sa borib, noosferani uzluksiz yaratish va mustahkam orqaga qaytishsiz davomiylukda kamayish, to'xtashlar bilan insoniyatning madaniy bioximik energiyasining o'sishi bormoqda». Bu jarayon nafaqat ijobiy, balki salbiy natijalarini berdi.

Ayniqsa, bu industrial jamiyatning so'nish fazasida yaqqol ko'rindi: a'lo mineral, o'rmon va yer resurslarining tugashi, daryo, dengizlar, okeanlar havo muhitining yirik hajmda ifloslanishi, Chernobil avariya kabi yirik texnogen avariya, yerda barcha tirik mavjudotlarni yo'q qilishga qodir qurolning yaratilishi, bu ham noosfera, lekin yomon tartibga solinmagan va o'ta xavfli variantdir, lekin insoniyat boshqa noosferaning pozitiv variantini amalga oshirishga qodir. «Tarixiy jarayon bizning ko'z oldimizda o'zgarimoqda. Insoniyat tarixida birinchi bor xalq ommasining manfaatlari barcha va har bir kishi shaxsining erkin tafakkuri insoniyatning hayotini belgilaydi, uni haqiqat to'g'risidagi tushunchalarini o'lchami bo'ladi. Yaxlit olingan insoniyat qudratli biologik kuchga aylanadi va uning oldida uni tafakkuri va mehnati bilan erkin fikrlaydigan insoniyat, bir butunlik sifatida uning manfaatlari uchun biosferani qayta qurish to'g'risidagi masala turadi. Bu biosferaning yangi holati, unga biz sezmaganda holda yaqinlashamiz va bu «noosfera» degan edi buyuk olim V.I.Vernadskiy.

V.I.Vernadskiy noosfera to'g'risidagi qarashlarini 1944-yilda II jahon urushi qizg'in ketayotgan bir paytda atom bombasini qo'llash arafasida yozdi. Hozirgi kunda ham olimning ilmiy bashoratining qimmatini yanada oshdi. Insoniyat, yerni halokat yoqasiga yaqinlashtirayotgan insonning tabiatga nisbatan buzg'unchilik faoliyati, ekologik xavf, vayronkor qurollarning ko'payib borishi, qashshoq va boy hududlar o'rtasidagi ziddiyatlar, dunyo barqaror taraqqiyotining asosiy omillaridan to'la foydalanishni talab qiladi.

a) Dunyo bo'yicha aholining ehtiyojlarini qondirishda barcha hududlar bo'yicha adolatli bir tekisda qondirish yo'llarini izlab topish va xalqaro hamkorlikning bu sohadagi samarali yo'llarini qo'llash;

b) Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishning uzoq muddatli, real, samarali yo'llarini izlash;

v) Hamma joyda asta-sekin kam chiqitli va chiqitsiz, ekologik toza texnologiyalarni o'zlashtirish, ana shu asosda tabiiy xomashyodan foy-

dalanishni tubdan qisqartirish, tabiiy resurslardan vahshiylarcha foydalanish, atrof-muhitni ifloslantirishdan voz kechish;

g) Rivojlangan mamlakatlarni rivojlanayotgan mamlakatlar xomashyo resurslarini talon-taroj qilishga chek qo'yish;

d) Militarizmni jilovlash, ichki va tashqi ziddiyatlarni hal qilishda kuch ishlatishdan voz kechish, eng xavfli qurollar turlarini bosqichma-bosqich yo'q qilish va qolgani ustidan qattiq xalqaro nazorat o'rnatish;

c) Xalqaro hamkorlik faoliyatini rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi xavfli farqni bartaraf, yalpi ekologik siyosat va dasturlarni tizimli amalga oshirishni ishlab chiqish va ta'minlash;

e) Dunyo aholisining barchasini hozirgi yetakchi an'analarining istiqboli yo'qligi va o'ta xavfli ekanligini anglab yetish, yangi ilmiy va siyosiy paradigmalarni ishlab chiqish va ular aholini faol qatlamlari, siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar barcha mamlakatlar, barcha jahon hamjamiyatining maqsadli yo'naltirilgan harakatlari asosi bo'lishi lozim.

Yuqorida sanab o'tilgan omillarni qanchalik tez va to'la anglab yetilsa va harakatga keltirilsa, insoniyatning kelajagi, uning yashashi shunga bog'liq bo'ladi.

Jamiyat piradimasining har bir qavati, bu qavatning har bir (xonasi) unsuri har bir mamlakat yoki mamlakatlar guruhiga xos o'zining zichligi ilonning qandaydir chirmashmasi mavjud: o'ralib va chirmashib, ular ilonlar dramasini tashkil qilib, insoniyatning buguni va kelajagi, tarixiy sikllar trayektoriyasini shakllantiradi. Jamiyat dinamikasining misli ko'rinmagan murakkabligi va ko'p o'lchamli ekanligi nima uchun hozirgacha biror-bir asoslangan uzoq muddatli global bashoratlar yo'qligi, shunday bashoratning yetarlicha ishlangan nazaryasi yo'qligini tushuntiradi.

Inson tafakkuri, hatto, eng yaxshi zakovatli daholarning to'plami ham tarixiy jarayonning tubiga yeta olmaydi, hech bo'lmaganda yaqinroq-50-100 yillarda borishini tasavvur qilish holatiga ega emas. Tarix doimo omadsiz bashoratchilar ustidan kulib keladi. Shunga qaramasdan, odamlar yana va yana muvaffaqiyatsizliklarga ko'nmay, hal qilib bo'lmaydigan muammoni yechishga chog'lanadilar. Chunki kelajakni oldindan ko'rmasdan turib, hozirgi kunning mohiyatini tushunish mumkin emas. O'z oilasi, korxonasi, o'z mamlakati, dunyo uchun yurish-turishning to'g'ri yo'nalishini tanlash lozim.

Yuqorida bayon qilingan nazariy yondashuvlardan siklik-genetik dinamika qonuniyatlari va an'analardan kelib chiqqan holda, bu muammo-ga nazar tashlaymiz. Yuqorida (6-jadvalga qarang) sivilizatsiyalarning taxminan to'rt yuz yil oldin kelajakdagi almashuvini oldindan ko'rishga urinib ko'riladi. Bu insoniyat XX asrning so'nggi choragida shart-sharoitlardan kelib chiqib, navbatdagi (hisob bo'yicha yettinchi) sivilizatsiyaga o'tish davriga kirdi va umumiy boshlang'ich tamoyillar asosida kelib chiqadigan navbatdagi tarixiy supersikl (12 ming yil davomida uchinchi) ga qadam qo'ydi. Bu holda postindustrial sivilizatsiyaga o'tish taxminan yarim asrga teng bo'ladi, navbatdagi supersiklga o'tish esa asr atrofida bo'ladi. Albatta, bu insoniyatning 12 ming yillik tarixining tarixiy ritmlarini tahlil qilishdan keltirib chiqarilgan.

6-jadvalda kelajak ritmning faqat ikki varianti – tarixiy progressning jadallashuvini bir xil bo'lmagan sur'atlaridan kelib chiqiladi. Bu variantlar so'nggi chegara bo'lmay, boshqa muqobil senariylar bo'lishi mumkin. Yaqin ikki yuz yil ichida butun dunyoda ochlik va qashshoqlikni to'la tugatish, davlatlarni o'z xohishlari bilan ko'ngilli ravishda o'z suverenitetlarini cheklashlari, eng asosiysi to'la qurolsizlanish, urushlarni tugatish, barcha uchun xavfsizlikni tugatish mumkinligi bashorat qilinadi. Postindustrial jamiyatga o'tish jarayoni hududlar o'rtasida notekis boradi. Afrikaning katta qismi, Osiyoning ayrim mamlakatlarida eski an'anaviy jamiyatning tartib qoidalari saqlanib qoladi.

Ko'rinishidan bu bo'lishi mumkin bo'lgan muqobilliklar yelpig'ichidan, hatto, optimistik 2020 – 2025-yillar postindustrial jamiyatga o'tishning oxiridagi chegaralaridan ham chiqadi. Bu holat faqatgina 2060 – 2080-yillarda yangi tarixiy supersiklga o'tish tugallanganda, kelajak sivilizatsiya o'z shaxsiy asosida rivojlanib, yetuklik davriga kirganda yuz beradi.

Akademik N.N.Moiseev XX asrning 70-yillarida SSSR va AQSH o'rtasida yalpi termoyadro yoki bakteriologik urushning sodir bo'lish ehtimolini tadqiq qilgan edi.

5. Postindustrial sivilizatsiyaning asosiy chizgilari. Tarix o'qitadiki, uzoq yo'l davomida uning turli bosqichlarida ideallar o'zgaradi. Umri tugayotgan sivilizatsiyaning so'nggi fazasida o'limga mahkum qilingan, lekin hali hukmron bo'lgan tuzum o'zini saqlab qolish uchun jon-jahdi bilan qarshilik ko'rsatadi. Uning bag'ridagi kelajak jamiyatning kurtaklari o'ziga hayotbaxsh kuch ola boshlab, uyg'onish lahzalarini boshidan kechiradi. Tarixiy lahzalarda uch oqim yaqqol ko'rinadi, o'tmishga albatta

ketadigan oqim, o'tmishdan kelajak yoki bugun uchun qoladigan meros kelajak sivilizatsiyaning o'zaro bog'langan unsurlari.

Postindustrial sivilizatsiyaga o'tish davrining yarmi o'tdi, u tarixiy tajribaga aylanib, ustuvor an'analarni aniqlash va baholashga yordam beradi. Postindustrial sivilizatsiyaning ajratib turadigan asosiy shakllanishning birinchi fazasini boshidan kechirayotgan belgisi – bu gumanizmning qayta uyg'onishidir. Bu qadimgi antik demokratiya, o'rta asr uyg'onish davri gumanizmiga oddiygina qaytish emas, balki insoniyatning ko'p asrlik tarixiy hayot tajribasiga asoslanib, ijodkor erkin shaxs qadriyatlarini ustuvorligini qaror toptirishdir.

Biotehnika hamkorlik. Industrial jamiyat davrida mavjud bo'lmagan erkinlikni uyg'onishining yangi davrida jamiyat hayoti va taraqqiyotining o'zgarish shart-sharoitlari bilan shartlangan holda yuz beradi. Bu o'zgarishlarning mohiyati nimada?

Birinchidan, real an'ana sifatida noosfera, tafakkur sohasining shakllanishi. Dunyoda mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy, texnologik, ekologik, ijtimoiy-siyosiy aloqalar murakkablashdi. O'zgarishlarning jadallashgan ritmi zamonaviy ilmiy bilimlarsiz uni uzluksiz yangilash va to'ldirmasdan har qanday sohada samarali faoliyat ko'rsatish mumkin emas. Zamonaviy Yaponiyaga qarang: uning iqtisodiyotini asosi uch soha – mikrotexnika, biotexnologiya va informatikada yotadi.

Inson ular bilan nafaqat ishlab chiqarish sohasida, balki kundalik hayotda ham ish ko'radi. Uning oziq-ovqati va dori-darmoni biotexnologik jarayonlarni qo'llash bilan uyda yasalgan mikroto'lqinli pech, suyuq plazma rangli televizorlar, kompyuter va fakslar bilan jihozlangan. Odam avtomobilning eng so'nggi elektron tizimlari bilan jihozlangan modellardan foydalanadi. Tashqi muhit bilan o'zaro munosabatda eng yangi ilmiy texnologiyalarni qo'llash asosida tabiatga yetkaziladigan zararlarni keskin kamaytirishga erishildi. Rivojlangan mamlakatlar ichida o'zining tabiiy resurslariga Yaponiya jahonda eng zamonaviy texnologik yetakchi davlatga aylandi.

Buning sababi, Yaponiya fan yutuqlarini keng hajmda ishlab chiqarishga jadal tatbiq etishi, iqtisodiyotni demilitarizatsiya qilishi, ta'lim tizimiga jiddiy e'tiborni qaratishi edi. Bu yo'nalishda u noosfera sivilizatsiyasiga tomon yo'lning etaloni deb qaralishi mumkin.

Lekin yapon mo'jizasi juda og'ir va mashaqqatli bo'lib bu ulkan mehnat natijasi edi. Yapon olimi, konstruktori, muhandisi, ishchisi, prog-

rammisti va dizayneri hayoti industrial ritmning qattiq doirasiga kiritilgan. Yuqori mehnat unumdorligi aqliy va jismoniy mehnatni ulkan sarfi asosida yuzaga keltiriladi. Aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi chegara yo'q bo'lmoqda, lekin aqliy mehnat ustuvor bo'lmoqda.

Ikkinchidan, fanning hal qiluvchi ahamiyati yangidan o'smoqda, lekin u jamiyatdagi o'zining yangi funksiyalariga tayyor emasligi ko'rindi. Yalpi tushkunlik fanga ishonchsizlikni keltirib chiqardi, chunki fan yangi tug'ilib kelayotgan jamiyatni oldindan ko'ra olmadi, uni tug'ilish azoblarini bir qadar ham yengillashtirmadi. Ana shu sababli o'tish davri uchun xos bo'lgan agnostitsizm va relyativizmni, mistika va znaxarlik (afsungarlik)ning qayta tug'ilish an'anasini ko'rish mumkin. Ilmiy bilim kuchiga ishonmaslik, fanning o'zida ham yangi g'oyalarning yo'qligi, oldindan ko'rish funksiyasining zaiflashuvi yuz beradi.

Ammo, bu vaqtinchalik hol, u ikki-uch o'n yilliklar davom etishi mumkin. Navbatdagi ulkan ilmiy inqilobning belgilari yuzaga kelmoqda, qaysiki, u rivojlanayotgan, notekis qonuniyatlari o'zgarayotgan dunyoning yangilangan manzarasini yaratadi. Yangilangan fan postindustrial sivilizatsiyaning yo'l boshchisi va asosi bo'lib xizmat qilishi lozim. Nafaqat ishlab chiqarishning fanga asoslanishi, balki jamiyatning butun hayoti uning dinamikasi asosi bo'ladi.

Uchinchidan, madaniyat ustuvor ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar aholisining turli qatlamlari oziq-ovqat, kiyim, qulay uy-joy, maishiy elektron va axborot texnikasi (audio, video, kompyuter)ga bo'lgan ehtiyojlarini nisbatan yuqori darajada qondirib, ma'naviy soha san'atning turli sohalarini egallash yoki undan bahramand bo'lishga intiladilar. Zamonaviy axborot texnologiyalarning yutuqlari oliy madaniyatga ommaviy ravishda qiziqishni kuchaytiradi. Hozirgi kunda dunyoning eng mashhur muzeylari Luvr, Ermitaj, Britaniya muzeyi eksponatlarini ko'rish yoki mashhur teatrlarda opera-baletni ko'rish, taniqli bastakorlarning mumtoz asarlarini tinglash uchun uydan chiqish shart emas. Televizor, videopleyer, dvd, kompyuter yoki internet tarmog'iga ulanish kifoya. Hozirgi kunda 3D, 5D va 7D formatdagi qisqa metrajli kinolar odat tusiga kirmoqda. An'anaviy kinoteatrlar o'z ish uslubini o'zgartirishga majbur bo'lmoqda. Lekin bu rivojlangan mamlakatlar uchun odatiy tusga jadal kirgan bu jarayon boshqa dunyo, an'anaviy jamiyatlar bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, internet tarmog'i bu mamlakatlar turmush tarzida ijobiy ta'sir qilish bilan birga, bu

yerdagi asrlar davomida shakllangan an'anaviy madaniy qadriyatlarining yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. An'anaviy qadriyatlar ruhida ta'lim-tarbiya olgan yuzlab, yuzlab mln kishilar uchun G'arb dunyosi dunyoqarashi, turmush tarzi halokatli ta'sirini o'tkazadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ixtilof yanada keskinlashadi.

To'rtinchidan, ta'limning mazmuni, shakllari va usullari tubdan o'zgaradi. U shaxslarning o'rta miyonali bo'lishiga qaratilmaydi, industrial mashinani zombilashgan unsurlariga aylanmaydi. Aksincha, ijodiy fikrlashga qobiliyatli bo'lgan, har tomonlama mukammal rivojlangan hayot doimiy ravishda tug'diradigan boshqotirmalarni yechishga qodir bo'lgan, tez o'zgaradigan mehnat va hayot sharoitlariga adaptatsiya qiladigan shaxslarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Ta'lim uzluksiz bo'ladi. Har bir odamning bilim va ko'nikmalarini yangilaydigan, to'ldiradigan, har bir odamni hayotini barcha bosqichlarini qamrab oladigan bo'ladi. Ta'limning axborotlashuvi, mantiqiy va obrazli tafakkur qilishning birlashuvi, distansiyali ta'lim, multimedia vositalarining tarqalishi bilimlarni samarali o'zlashtirishni ko'p marta oshiradi, ta'lim olayotgan odamni faollashtiradi. Ta'lim mazmunining o'zi ham o'zgaradi. Tor kasbiy tayyorlash o'rmini gumanitar fanlarning birinchiligi, keng politexnik ta'lim, mehnatni bir necha marta o'zgartirishga tayyorlikni tarbiyalash egallaydi.

Yuqorida ko'rsatilgan an'analar dunyoning ko'pchilik mamlakatlari ta'lim tizimlarida mavjud, AQSH, Yaponiya, Germaniya va qator boshqa mamlakatlarda ta'limning ratsional xususiyati kuchayib boradi. Natijada, postindustrial jamiyatga mos ta'lim tizimi vujudga keladi. U milliy ko'rinish, mahalliy an'analar bo'yicha xilma-xil, lekin umumiy tub belgilarga ega.

Yangi ta'lim tizimiga o'tish davri eski tushkunlikdan boshlandi. Amalda barcha mamlakatlarda savodsiz va kasbiy layoqatsizlik o'sdi. O'n millionlab ishchilar ta'lim vaqtida va amalda singdirilgan bilim va ko'nikmalar tubdan o'zgargan vaziyatda yaroqsiz bo'lib qolganini birdan his qildilar. Bu o'zini yo'qotib qo'yishga, mehnatni samaradorligining pasayishiga olib keldi. Bu oliy va maxsus ta'limni qayta qurish, eng avvalo, xodimlarni ommaviy qayta tayyorlashni talab qildi. Bu o'z navbatida uzluksiz ta'lim tizimining tarqalishiga turtki berdi.

Beshinchidan, yangi etikaning unsurlari shakllanadi. Shaxslararo munosabatlarning yangi qoidalari har bir jamiyat a'zosining o'ziga xos

shaxs sifatida mustaqillikka intilishini ta'kidlab, o'z yurish-turishi, xatti-harakatini mustaqil quradi, lekin boshqalarning shunday manfaatlarini hisobga olgan holda buni amalga oshiradi. Bunday axloqiy normalarning ustuvorligini Fillandiya, Shvetsiya va Norvegiyada ko'rish mumkin, shuningdek, boshqa rivojlangan mamlakatlar uchun ham bu xarakterli. Bu yerda odam jamoani molekulasi emas, uning manfaatlari yo'lida u bos-tirilmaydi. Jamoa va ijtimoiy-siyosiy muassasalarning maqsadi alohida shaxslarning manfaatiga xizmat qilishdir.

Oltinchidan, hukmron elita mafkurasining individual ideallarni bos-tiradigan va yo'naltiradigan hukmdorligi yo'q qilinadi. Mustaqil odam dunyoqarash, dinga e'tiqod, maqsadlar tanlovida erkin uning o'zi izlanish va adashishlar orqali o'zining xususiy ideallariga yo'l topadi. Bu yo'l ilgari hukmron bo'lgan mafkuralarning yemirilishi, ekstremistik qiziqishlar shaxsning yemirilishi, chalg'ishlar, tushkunlikka tushish, qo'rquv, umidsizlik tuyg'usiga, ilgari ko'z ko'rmagan ishsizlik va qashshoqlik, noqulay demografik an'analar mutant-bolalarning tug'ilishini o'sishi bilan boshlanadi. Dinga sig'inadiganlar va noan'anaviy oqimlarga kiradiganlar soni ko'payadi. Buning obyektiv sabablari turmushdagi qiyinchiliklar va hayot chigalliklari kimnidir cheksiz hokimiyatini tan olishdek yengilroq yo'lni tan olishga majbur qiladi. Yerdagi yo'l boshchilarning halokati ularni samoda izlashga undaydi. Lekin bu asriy an'ana hozirgi kunda dunyo dinlaridan islom diniga e'tiqod qiladiganlar soni ko'payib bormoqda. O'tish davrida vijdon erkinligiga to'la rioya qilinadi. Kim boshqalarga zarar keltirmay, diniy e'tiqod va marosimlarni afzal ko'rsa, ularga nisbatan vijdon erkinligi to'la amal qiladi. Davlat hokimiyati rasmiy ravishda u yoki bu konfessiyaga davlat dini sifatida qo'llab-quvvatlaydi, lekin bu vaqtinchalik. Baribir o'tish davrida ilm-fan, bilimlarga ustuvor ahamiyat beriladi.

Shunday tarzda, erkin ijodiyot kishisi faoliyatning turli xil ko'rinishlari va muloqotidagi yorqin individuallik asta-sekin jamiyatning yangi modeli mazmuni va oliy maqsadiga aylanadi. Bu albatta jamiyatlarda ziddiyatlar, jinoyatlar, qarama-qarshiliklar, jaholat yo'q bo'ladi degani emas. Lekin muntazam yuz beradigan ziddiyatlarni yechishning yanada madaniy usullari ko'payadi. Shaxs ustidan zo'rvonlik yo'qola boshlaydi.

Ishlab chiqarishning texnologik uslubi inson tomonidan yaratiladigan ishlab chiqarish va turmushda foydalaniladigan texnika dunyosi boshqacha bo'ladi. Nozik avtomatlashgan ishlab chiqarish, texnika va barcha

mehnat faoliyati turlarini kompyuterlashtirish insonni og'ir jismoniy mehnat turlari va shafqatsiz mashinalashgan ritmdan ozod qiladi, uning vaqti va kuchini ijodiy jarayon uchun qaratadi.

Fanga yo'naltirilgan ishlab chiqarishda inson ishlab chiqarish jarayonining ijodkoriga aylanadi. Biotexnologiya, noan'anaviy energoresurslari, chiqitsiz texnologiyalar, tabiat buyumlarini o'zgartirishning yanada tejamkor usullarining o'zlashtirilishi muntazam o'sib borayotgan ehtiyojlarni yanada kamroq xarajatlar bilan qondirishga imkon beradi. Yangi texnologiya va fanga yo'naltirilgan ishlab chiqarishga asoslangan yuqori samarali iqtisodiyotga ega bo'lgan katta davlatlar (Yaponiya, Xitoy kichik janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Malayziya) rivojlangan mamlakatlarga qaraganda, jadal jahon xo'jalik hayotida muhim marralarni egallaydilar.

Axborotlashish natijasida insonning turmush tarzi ham yanada boy bo'ladi. Mehnat og'irligi va ijodiyot markazining kompyuter texnikasi bilan jihozlangan uyga ko'chishi an'anasida aniq ko'rinadi. Lekin iqtisodiyotning texnologik ko'p ukladligi saqlanib qoladi. Industrial va reliktni texnologik ukladlarga asoslangan konlar, yirik zavod-fabrikalar transport tizimlari (maishiy xizmat sohasi, uy xo'jaligi, poliz va bog'lar, tomorqa xo'jaligi va boshqalar) saqlanib qoladi.

Jamiyatning iqtisodiy tuzilmasida tub o'zgarishlar yuz beradi. Bu yerda quyidagi an'analar mavjud. Kichik tadbirkorlik qayta uyg'onadi. Industriya gigantlari o'z mavqeyini yo'qotadi. Davlat mulki ulushi keskin qisqaradi. Davlat takror ishlab chiqarish jarayonlari, eng avvalo, erkin raqobat uchun teng shart-sharoitlarni yaratish orqali monopoliyani cheklash bilan muvofiqlashtiradi. Davlat ishga qobiliyati bo'lmaganlar, noiq-tisodiy sohalar: fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlashni qo'llab-quvvatlab turadi. Lekin iqtisodiyotning ko'p ukladligi, mulkning ko'p xillik shakllari saqlanib qolib, ularning har biri o'z o'rnini topib, odamlarning ehtiyojlarini oqilona hisobga oladi va ishlab chiqarishning samaradorligini a'lo darajada ta'minlaydi. Asosiy tovarlar va aholi iste'mol mollarini ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishning kichik va o'rta korxonalar amalga oshiradi. Shu bilan birga, yirik ishlab chiqarish, transmilliy kompaniyalar, moliya sanoat guruhlarini monopoliyaga qarshi nazorat asosida o'z faoliyatlarini davom ettiradilar. Takror ishlab chiqarishda uy va shaxsiy tomorqa xo'jaligi sezilarli o'rin tutadi.

Kelajakdagi iqtisodiy tuzumning asoslarini Yaponiya, Germaniya, Ispaniya, Skandinaviya mamlakatlarida kuzatish mumkin. Telekommunikatsiyalarning yalpi tuzumlari, transport, atrof-muhit monitoringi baza-sida internatsional mulkchilikning unsurlari o'sa boradi.

Ijtimoiy va milliy munosabatlarda yangi an'analar paydo bo'ladi. Ijtimoiy stratifikatsiya chuqurlashadi.

Sinfy kurash to'g'ri ko'rinishda o'tmishga ketadi, lekin ijtimoiy garmoniya (uyg'unlik) va ijtimoiy bir xillikni hali beri kutib bo'lmaydi. Ijtimoiy ziddiyatlar, ijtimoiy guruhlar manfaatlarining bir-biriga to'g'ri kelmasligi saqlanib qoladi. Ayniqsa, o'tish davrida bu qarama-qarshiliklar yanada keskinlashadi.

Postindustrial jamiyatning yetuk bosqichlarida ijtimoiy munosabatlarning garmoniyasi turli ijtimoiy guruhlarining qarama-qarshiligini o'ta keskin sharoitdagi shakllari tugatiladi. Ijtimoiy guruhlar o'rtasida umumiy muammolarni yechish uchun hamkorlik o'rnatiladi. Ijtimoiy munosabatlarning yangi tuzilmasini Skandinaviya mamlakatlari va Yaponiyada ko'rish mumkin.

Milliy munosabatlar va etnoslar o'rtasidagi munosabatlarda keskinliklar qalqib turadi. Vaqti-vaqti bilan etnik kelishmovchiliklar hududlarda o'zini bildirib turadi.

Kelajak jamiyatda industrial jamiyatda bo'lganidek, milliy va etnik farqlar, milliy urf-odat, an'analarni yo'qolib ketishi davom etadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning integratsiya jarayonlariga jadal tortilishi milliy an'ana, urf-odatlarini tez unutilishi texнократik jamiyat qulayliklaridan foydalanishga tobora intilishi hamda bu jamiyatning iqtisodiy tartib-qoidalari ham o'z ta'sirini o'tkazishi sabab bo'ladi. Lekin u yoki bu millatning o'ziga xos xususiyatlari ustuvorligini ta'kidlashning istiqboli bo'lmaydi. Etnos va millatlar vakillarining migratsiyasi turli sabablarga ko'ra jadal tus oladi. Hozirgi Shvetsariya, qisman AQSH to'la teng huquqlilik va turli millatlarning o'zaro faoliyatini signalgan mexanizmi bilan namunali ko'p millatli davlatlar deb hisoblash mumkin.

XXI asrda davlatning jamiyatdagi o'rni salmoqli bo'ladi. Ayniqsa, o'tish davrlarida davlat hokimiyati faollashadi. Davlat makroiqtisodiy jarayonlarini tashkillashtirish va boshqarish, umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilishdek muhim funksiyalarni doimo bajarib kelgan va bundan keyin ham bajaradi.

Industrial jamiyatda, ayniqsa, uning so'nggi fazasida davlat barcha sohalarini hukmron byurokratik elitaning manfaatlari uchun qamrab olish va belgilashga urinadi. Bu an'ananing cho'qqisi totalitar tuzumlarda ko'rindi.

XX asrning so'nggi o'n yilligidan boshlab jamiyatning deetatizatsiyasi (davlat homiyligidan xoli bo'lish) jarayonlari, ayniqsa, iqtisodiy sohada kuzatiladi. Shu bilan jinoyatchilik, giyohvandlik, soyadagi iqtisod, korrupsiya, mafiya tuzilmalarining o'sishi kuzatiladi. Davlat va uning organlari o'zgaradi, yangi sharoitlarga moslashishga shaxs huquqi ustuvorligini, uni hayot xavfsizligini amalda ta'minlash, manfaatlarini himoya qilishga ustuvor ahamiyat berishga o'z faoliyatini jalb qiladi. Bu sohalarida qonun bilan belgilangan qat'iy chegaralarda kuchli davlat kelajakda saqlanib qoladi. Huquqiy davlatning unsurlari AQSH, Yaponiya va Yevropaning bir necha davlatlarida mavjud.

Demokratiyaning mavjudligi mexanizmi, siyosiy tuzumda jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Postsotsialistik davlatlar g'arb mamlakatlarida to'plangan demokratik tajribalarni jadal o'rganib, amalga tatbiq eta boshladilar. Hududiy organlar, o'z-o'zini boshqarishning roli o'sib boradi. Ular hududiy, mahalliy o'ziga xos xususiyatlar va an'analar, aholi ehtiyojlarini keng miqyosda hisobga olishlari mumkin. Monopoliyaga da'vo qiladigan ommaviy siyosiy partiyalar soni oshdi, turli ijtimoiy ommaviy harakatlar, tashkilotlar vujudga keldi.

Jahon hamjamiyati faoliyatida yangi an'analar paydo bo'ladi. Yangi paydo bo'lgan mustaqil davlatlar, ko'p qutbli dunyoda o'tish, integratsiya jarayonlarining kuchayishi, Sharqda yangi hududiy tashkilotlarning paydo bo'lishi (Shanxay hamkorlik tashkiloti, EKO), yangi qudratli iqtisodiyotga ega davlatlarning xalqaro maydonga chiqishi (Xitoy, Hindiston), dunyo miqyosida yangi o'zgarishlar yuz beradi.

Teng huquqli davlatlarning hamkorligi ko'ngilli ittifoqlar asosida rivojlanadi va yangi baynalmilal an'analar saqlanadi. Alohida mamlakatlar, davlatlar guruhlari o'rtasida ziddiyatlar saqlanib qoladi. Katta-kichik harbiy to'qnashuv urushlar boshda yuz berib turadi. Lekin asta-sekin ziddiyatlarni kuch bilan yechish usullaridan voz kechiladi. Davlatlararo va xalqaro hakamlik va yalpi xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari BMT va Xalqaro sudning roli o'sib boradi.

Industrial jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi bilan g'arb lokal sivilizatsiyasining hukmronligi belgisi ostida amaldagi ekspansiyasi bu-

tun dunyoni qamrab oldi. U o'z manfaatlari yo'lida uni o'zgartirdi, qadimgi Sharq sivilizatsiyasini ulotqirib tashladi, Amerikaning o'ziga xos sivilizatsiyasini yo'q qildi. Mashhur olim A. Toynbi g'arbning hukmronligi o'tkinchi ekanligi, vaqt o'tishi bilan yangi avlod va birlashgan dunyo o'zini tashkil etgan turli madaniyatlar o'rtasida tenglik shakllanishini ko'rsatib o'tgan edi.

Tarix saboq berganidek, lokal sivilizatsiyalar o'rtasida ta'sir doirasining takror taqsimlanishi, tarixiy progress episentrlining o'zgarishi oson kechmaydi. Yangi episentr o'chog'i bo'lishga intilgan hudud iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy jihatdan boshqalarga qaraganda, bir necha bor jadal rivojlanish fazasini o'taydi.

Postindustrial jamiyatning shakllanish fazasida lokal urushlar muammosi saqlanib qolaveradi, lekin ularni samarali hal qilish uchun optimal mexanizmlar ishlab chiqiladi. Xalqaro terrorizm, ekstremizmning turli ko'rinishlari, piratlik kabi muammolar vaqti-vaqti bilan o'zini bildirib turadi. Bu muammolarni yechish uchun xalqaro hamjamiyat samarali vositalarni qo'llaydi.

Postindustrial jamiyat yangi to'rtinchi avlod lokal sivilizatsiyalar o'rtasidagi ziddiyatlarni yechish, ular o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarni tasdiqlaydigan munosabatlarni yuzaga keltiradigan mexanizmlarni ishlab chiqadi. Bo'lajak sivilizatsiyalarning ba'zi bir eng umumiy chizgilarini industrial jamiyatning bag'rida asta-sekin (tushkunlik davrida jadal) pishib yetiladi.

Tayanch iboralar: Postindustrial sivilizatsiya, siklik dinamika, tarixiy progress, industrial sivilizatsiya, uklad, episentr, supersikl, birinchi uzoq muddatli sikl, muqobil manzara, Frits Baade, Kvebek provinsiyasi, diniy ekstremizm, terrorizm, detatizatsiya, huquq ustuvorligi, lokal sivilizatsiya, postindustrial jamiyat, industrial jamiyat.

Savol va topshiriqlar:

1. *Dunyo sivilizatsiyalarining rivojlanishida zamonaviy o'tish davri-ning mazmuni va xronologik doiralarini tavsiflang?*

2. *XX asrning so'nggi choragida tug'ilgan postindustrial jamiyatning mumkin bo'lgan kelajagi qanday bo'ladi? Insoniyatni XXI asrda nima kutmoqda?*

3. *Bunyodga kelgan postindustrial jamiyatning asosiy chiziqlari qanday?*
4. *Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda kuzatish mumkin bo'lgan postindustrial jamiyatning unsurlarini ayting?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. XX asrning so'ngi choragida postindustrial sivilizatsiyaga o'tish davri mazmun-mohiyati.
2. I.M.Dyakonovning «Tarix yo'llari» asarida tarixiy jarayon tahlili.
3. Postindustrial jamiyat shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Postindustrial jamiyat shakllanishida ta'lim tizimining o'rni.

2-MAVZU: POSTINDUSTRIAL SIVILIZATSIYANING SHAKLLANISH DAVRIDA JAMIYATNING TRANSFORMATSIYASI

1. O'tish davrida insoniyat an'alarining aks etishi. 2. Industrial tushkunlik va postindustrial ishlab chiqarish texnologik usulining shakllanishi.

1. O'tish davrida insoniyat an'alarining aks etishi. Postindustrial sivilizatsiyaning shakllanish davriga navbatdagi yuqori uzoq muddatli (sivilizatsiya) siklning ikki birinchi yarim asrlik fazalarini ajratish mumkin. Oldin o'tgan sivilizatsiyaning tushkunligi va yangi jamiyatning tug'ilishi – o'tish davri, uning taxminan yarmi (tarixiy progressning chekkalarida emas, episentrida) o'tib bo'lindi. Yangi sivilizatsiyaning kenglik va chuqurlikda tarqalish fazasi dunyo mamlakatlarining ko'pchiligini qamrab olishi va o'z asosida tasdiqlanishi. Birinchi fazaga yettinchi sivilizatsiyaga o'tish davri deb qarash mumkin. Har ikkisi birgalikda XX asrning 70-yillaridan XXI asrning 60-yillarigacha qamrab oladigan navbatdagi uchinchi tarixiy supersiklga o'tish sifatida ko'rish mumkin.

Bu asriy davrda jamiyat piramidasining barcha qavatlarida qanday o'zgarishlar yuz beradi?

Tahlilni jamiyatning birinchi qavatidagi o'zgarishlardan boshlaymiz. Aholi soni va tuzilishi, insonni ehtiyojlari va qobiliyatlari, uning malakasi, manfaatlari va nihoyat inson bioijtimoiy tur sifatida postindustrial jamiyatning shakllanish davrida barcha sanab o'tilgan yo'nalishlarda an'analarning sinishi tabiiy.

Bu, eng avvalo, yer aholisining soni va tuzilishi dinamikasiga tegishlidir. Bu resurslar cheklangan bir paytda ehtiyojlar hajmi va ularni qoniqtirish imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

Frits Baade ma'lumotlariga ko'ra, Yer aholisining soni jadal o'sib boradi. Aholi sonini ikki marta ko'payishi neolit sivilizatsiyasi 2500 yildan antik sivilizatsiyagacha 1000 yil, industrial sivilizatsiyaning shakllanishi va gullab yashnashi davrida 150 yildan uni tushkunligi davrida 37 yilda yuz bergan...»

Amaliy va tizimli tadqiqotlar Xalqaro instituti bashoratiga qaraganda (8-jadval), Yer aholisining soni 45 yil davomida ikki barobar ko'pa-

yadi, keyin uning o'sish sur'ati keskin pasayadi. Keyingi 75 yilda XX asr oxirida u bor-yog'i chorakka ko'payadi va 12 mlrd odamdan ozgina ko'proqqa oshib barqarorlashadi, lekin rivojlanayotgan mamlakatlar yerning umumiy aholisi sonidagi ulushi 1990-yilda 78 % dan 2030-yilda 86 % ga, 2070-yilda 88 % ga o'sib, keyin pasaya boshlaydi. Yer aholisining soni dinamikasini batafsil ko'ramiz.

8-jadval.

Yer aholisining o'sish dinamikasi bashorati

Aholi	1990-y	2010-y	2030-y	2050-y	2070-y	2100-y
Dunyo:	5291	7352	9499	11238	12334	12562
mln kishi. % 1990-y	100	139	180	212	233	237
Rivojlanayotgan mamlakatlar mln kishi % 1990-y	4149 100	6097 147	8167 197	8959 238	10897 263	10980 265
Jumladan:						
Janubiy, Janubi-sharqiy, G'arbiy va Markaziy Osiyo mln kishi %1990-y	1906 100	2859 150	3807 200	4503 236	4826 253	4619 242
Xitoy: mln kishi % 1990-y	1159 100	1469 127	1722 149	1873 162	1945 168	1968 170
Afrika: mln kishi % 1990-y	642 100	1150 179	1831 285	2537 395	3090 481	3295 513
Janubiy va Markaziy Amerika: mln kishi % 1990-y	441 100	626 142	805 182	946 215	1037 235	1089 249
Industrial hududlar: mln kishi % 1990-y % dunyoga nisbatan	1142 100 21,6	1155 110 17,1	1333 117 14,0	1378 121 12,3	1437 126 11,7	1582 139 12,6
G'arbiy Yevropa: mln kishi% 1990-y	377 100	404 107	416 110	416 110	415 110	426
Shimoliy Amerika: mln kishi % 1990-y	277 100	325 117	376 136	420 152	475 171	577 208
Sharqiy Yevropa: mln kishi % 1990-y	345 100	368 107	380 110	385 112	392 114	427 124
Yaponiya, Avstraliya va Yangi Zelandiya: mln kishi % 1990-y	144 100	158 110	160 111	158 110	154 107	151 105

Hududlar bo'yicha turli an'analar kuzatiladi. Afrika aholisi yuqori sur'atlar bilan o'sadi (110 yil davomida 5,1 marta), Janubiy va Markaziy Amerikada 2,5 marta va Osiyoda 2,4 marta. Eng past sur'atlar Yaponiya, Avstraliya va Yangi Zelandiya (atigi 5 % 110 yilda), G'arbiy Yevropa (13 %) va Sharqiy Yevropada (24 %).

Ushbu bashorat manzarasida barchasi bahssiz emas. Shimoliy Amerika va Sharqiy Yevropa aholisining XXI asr oxirida tez o'sib borishi, Yaponiya va Avstraliyada sezilarli darajada kamayishi tushunarli emas. Sharqiy Yevropada XX asrning 90-yillarida Rossiya, Vengriya, Bolgariya va boshqa mamlakatlarda aholi soni kamayish an'anasi bordi. Mamlakatimizga kelganda esa aholi soni tabiiy tug'ilish asosida ko'payib bormoqda. Lekin yaqin kelajakda aholi tug'ilish sur'ati kamayadi. XXI asrning so'nggi o'n yilligida Osiyo aholisi soni barqaror o'sib boradi. Bashorat Afrika, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyoning kambag'al hududlarida aholining ko'payishini faraz qiladi. 1990-yilda ularning ulushi 44,5 % dan 2070-yilda 59 % gacha o'sadi. Bu bir necha ijtimoiy muammolarni yanada keskinlashtiradi.

Aholining yosh tarkibi o'zgaradi. Bunda ikki an'anani ko'rish mumkin. Tug'ilishning qisqarishi va aholi hayotining davomiyligi rivojlangan mamlakatlarda o'sishi bilan katta yoshli guruhlar, nafaqadagi keksalarning hissasi o'sib bormoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa tug'ilishning yuqori darajasi saqlanib qolib, bolalarning o'limini kamayishi bilan kichik yosh guruhlarning hissasi ortib bormoqda. Har ikki holatda ham mehnatga qobiliyatli aholining majburiyati kuchayadi. Har bir ishlovchi, nafaqaxo'r uchun yoki hali mehnatga qobiliyatli bo'lmagan kichik yoshli uchun ijtimoiy mahsulotni yanada ko'proq ishlab chiqarishga qatnashishi lozim.

XXI asrda demografik dinamika jarayonlarda qanday an'analar paydo bo'ladi?

Bo'lishi mumkin bo'lgan to'rt variantni ko'ramiz:

1. Yer aholisi o'tgan 30 yilga qaraganda, ya'ni tez sur'atlar bilan o'rtacha yillik o'sish sur'ati 1,5. Bunday holatda aholi sonining ikki barobarga ko'payishiga juda tez 2034-yilda erishiladi. Bu vaqtda yer aholisi 10 mlrdga, 2081-yil 20 mlrdga yetadi.

Mehnat unumdorligining o'sishiga qaramasdan rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining ko'pchiligini hech bo'lmaganda hozirgi dara-

jada to'ydirib bo'lmaydi. Aholi haddan ziyod ko'paygani uchun ochlik, qashshoqlik, epidemiyalar va uysizlik keng avj oladi.

Ilmiy texnika inqilobi va rivojlangan mamlakatlar tajribasi bu an'anani bartaraf qiladi va rivojlanayotgan mamlakatlarda turmush darajasini rivojlangan mamlakatlardagiga yaqinlashtiradi degan tushuncha hozircha haqiqatdan uzoq.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda so'nggi o'ttiz besh yil davomida ichki yalpi mahsulotni aholi jon boshiga ishlab chiqarish 2,2 barobar oshgan bo'lsada (jumladan, shaxsiy iste'mol uchun mahsulotlar 1,8 barobar o'sgan bo'lsada), rivojlangan mamlakatlarga nisbatan qoloqlik amalda o'zgarmadi. (10-11 marta). Yangi industrial davlatlar (Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Tailand, Malayziya), Osiyoda gigant qadamlar bilan rivojlanib borayotgan Xitoyning yutuqlarini hisobga olganda, oraliq o'tish davrining nihoyasida qisqarishi mumkin. Lekin bu rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning yangi texnologik usullarini (beshinchi, keyin esa oltinchi texnologik ukladlar) keng tarqalmasidan buni amalga oshirish mumkin emas. Yer aholisining jadal sur'atlar bilan ko'payishi natijasida ochlik, qashshoqlik, ijtimoiy qarama-qarshiliklar va davlatlararo ziddiyatlarning keskinlashuviga turtki beradi.

2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim ko'rsatkichining o'sishi bo'yicha jiddiy harakatlar oilani rejalashtirish va turmush darajasining o'sishiga olib keladi. Agarda tabiiy o'sishning sur'atlari 1950-1987-yillarda o'rtacha darajasida saqlanib qolsa, 10 milliardlik ko'rsatgich o'tish davrining nihoyasi (2057-yillar)da erishiladi. Bu o'sib borayotgan resurslar rivojlanayotgan mamlakatlarning qoloqligini bir qadar qisqartirish, yer aholisining ehtiyojlarini yanada to'laroq qoldirishga yordam beradi. Shu bilan birga, moddiy ehtiyojlarni to'la qoldirilishi, turmush darajasini o'sishi, tibbiyot fani va amaliyotining misli ko'rilmagan yutuqlari orqali inson umrini uzaytirishga erishiladi. Natijada keksa avlodning soni ortadi, tug'ilish kamayishi bilan voyaga yetmaganlarning soni kamayadi. Ammo bu holda shundoq ham tugab borayotgan yerosti va yer usti resurslaridan yanada ko'proq foydalanish kuchayadi.

3. Agarda yer aholisining soni rivojlangan mamlakatlarda 1981-1985 yillardagi 0,05 % gacha uni darajasi saqlanib qolsa, keyin 10 mlrd kishigacha muvozanatga keltirish mumkin. Bu aholishunoslikning tarixiy an'analarida tub burilish bo'ladi.

Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda demografik muammolar bo'yicha ongni o'zgartirishga to'g'ri keladi (eng avvalo, Hindiston, Indoneziya, Bangladesh va Braziliya, qaysiki, bu mamlakatlarda Xitoy bilan birga, Yer aholisining yarmi yashaydi). Oilani ongli va ko'ngilli o'z-o'zini boshqarish kerak bo'ladi. Namuna sifatida Xitoy xizmat qilishi mumkin. Bu yerda oilaning tarkibini rejalashtirish natijasida aholining tabiiy o'sishi Meksikaga qaraganda, 2,4 marta past, lekin demografik siyosat differensiyalashgan holda bo'lishi lozim. Aholi soni mutlaqo qisqarayotgan, keksa avlod ko'payib borayotgan mamlakatlarda tug'ilishni rag'batlantirish siyosati olib borilishi lozim. Aholining o'sishi uchun bunday siljishlar an'anasiga turmush darajasining o'sishi, ta'lim, madaniyat taraqqiyoti, oilaning rejalashtirish vositalarini rivojladagi progress yordam beradi.

Aholining o'sish sur'atlarining sekinlashuvi, aholi sonining muvozanatga kelishi, texnik progress va mehnat unumdorligining o'sishi o'sgan milliy daromadning bir qismini xalq farovonligini oshirish, turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiy muammolarni yechishga imkon beradi. Ana shu asosda rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishining jadalashuvi, uning aholisi turmush darajasini sezilarli yaxshilashni ta'minlash mumkin. Shu bilan birga, millatlararo to'qnashuvlarning oldini olish rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan xomashyo bazasi va arzon ishchi kuchi manbaya deb qarashni bartaraf qilish imkonini beradi.

4. Bu variant ba'zi olimlar tomonidan asoslanadi. Ular yer aholisi sonini 1 mlrd kishigacha kamaytirishni qat'iy asoslashga harakat qiladilar. Yer aholisining hozirgi soniga nisbatan olti marta qisqartirish va qolganlarning yuqori turmush darajasini kamaytirish («oltin milliard konsepsiyasi»). Lekin qaysi xalqlarni qoldirishni kim hal qiladi? Va buni lokal sivilizatsiyalar o'rtasida to'qnashuvsiz, halokatli jahon urushisiz qanday hal qilish mumkin?

Yaqin yigirma - o'ttiz yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda demografik o'sish sur'atini sezilarli darajada pasaytirish, keyin esa rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar turmush darajasidagi oraliqni qisqartirish faqat insonning o'ziga, uning ehtiyojlari, qobiliyatlari, bilim va malakalari, xohish-irodalaridagi tub o'zgarishlarga bog'liq.

So'nggi industrial jamiyatda shakllangan iste'mol modeli ehtiyojlar dinamikasini belgilab, jamiyatning ozchiligini haddan tashqari ko'p so'rovlari va ortiqcha sarf-xarajatlari, jamiyatning ko'pchiligini o'sib bo-

rayotgan ehtiyojlari orasidagi keskin farq jahon sivilizatsiyasini soʻnishi fazasiga odatdagi xoslikdir. Bu anʼana rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning aholi jon boshiga shaxsiy ehtiyojning darajasi va dinamikasini qiyoslashda aniq koʻrinadi. Barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar oʻrtasida aholi jon boshiga isteʼmol darajasidagi oraliq farq 1950-1955-yildan 1976-1980-yilgacha 9,7 dan 11,4 martagacha, AQSH, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo oʻrtasida 25,9 dan 52,4 marta-gacha (ikki marta) oʻsdi.

Boy va kambagʻal mamlakatlar oʻrtasidagi jarlik keng va hali kamaygani yoʻq. Aksincha, bu tobora chuqurlashib bormoqda. Kambagʻal mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar tomon ommaviy migratsiya toʻlqini XX asrning 90-yillaridan boshlab tizimli davom etib kelmoqda. 2010-yil maʼlumotlariga qaraganda, Rossiya Federatsiyasi hududida sobiq sovet respublikalari (Ukraina, Belorussiya, Oʻzbekiston, Tojikiston, Qirgʻiziston, Ozarbayjon, Moldaviya)dan 11 mln ishsiz migrantlar ish qidirib kelgan va Rossiyada qonuniy, noqonuniy holda gastarbayer sifatida turibdi. Ularning haq-huquqlari hech qanday qonun bilan kafolatlanmagan.

Migratsiya natijasida madaniyatlar muloqoti kuchaydi, rivojlangan mamlakatlarda multimadaniyatlar shakllanadi. Keksayib borayotgan millatlar rivojlanayotgan mamlakatlardan aholining shiddatli migratsiyasini har qanday vositalar bilan toʻxtatishga harakat qiladilar, ammo bu natijasiz tugaydi. Rivojlangan mamlakatlar uchun bu muammoni yechishning oqilona yoʻli boʻlgan vosita bu rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishi uchun zamonaviy texnologiyalarga asoslangan infrastrukturaning yaratishga yordam berish, ijtimoiy, ekologik muammolarni hal qilishda ularga begʻaraz yordam koʻrsatishdir. Yana, shuningdek qudratli davlatlar rivojlanayotgan davlatlar ichki ishlariga aralashishni toʻxtatishlari lozim.

Yalpi ichki daromad (YID) darajasi va aholi jon boshiga oʻsishining (Xalqaro qiyoslashlar dasturlari natijalari boʻyicha) quyidagi manzarasini koʻrsatdi. Yerning 10/9 qism aholisi yashaydigan 101 mamlakat boʻyicha tahlil qilingan maʼlumotlar shuni koʻrsatdiki, 1987-yilda bu koʻrsatgich boʻyicha oliy guruhda 18 mamlakat jon boshiga oʻrtacha ichki mahsulot (YIM) 66% va AQSH darajasidan yuqori turibdi. Bu yerda tekshirilgan guruh mamlakatlarining 15 % aholisi yashaydi. Ulardan 12 mamlakat Gʻarbiy Yevropada, 2 tasi Shimoliy Amerikada, 4 tasi Osiyoga tegishli. Bulardan 16 tasi Gʻarbiy Yevropa lokal sivilizatsiyasi, 2 tasi Uzoq Sharq

Yaponiya va Gonkong sivilizatsiyasini aks ettiradi.

Jon boshiga o'rtacha daromad AQSHga nisbatan 25 % dan 65 % gacha 25 mamlakat ega (bu mamlakatlarda 814 mln kishi yashaydi). Bulardan 4 tasi G'arbiy Yevropa, 4 tasi Sharqiy Yevropa, bittasi Shimoliy Amerikadan, 7 tasi Markaziy Janubiy Amerikadan, 7 tasi Osiyo va Okeaniyadan, 2 tasi Afrikadan.

Mamlakatlarning boshqacha taqsimlanishi keyingi ikkinchi guruh 22 mamlakatda kuzatiladi. AQSHga qaraganda, 10 marta kam jon boshiga o'rtacha yalpi ichki mahsulotga ega mamlakatlarning 9 tasi Markaziy va Janubiy Amerikada, 6 tasi Osiyo va Afrikada, bittasi Sharqiy Yevropada. Bu yerda G'arb sivilizatsiyasidan 5 mamlakat ustuvor o'rinni egallaydi.

Jon boshiga eng past darajadagi daromad (AQSHga nisbatan 10 martadan 53 martagacha kam)ga ega mamlakatlar qashshoq ahvolda. Ularga 2 mlrd 475 mln kishi yashaydigan 36 mamlakat kiradi. Afrikadan 26 mamlakat, Osiyodan 7 mamlakat (1987-yildagi ma'lumot bo'yicha, Xitoy va Hindiston, lekin Xitoyda o'tgan 27 yilda juda katta siljish yuz berdi) Markaziy Amerikadan 3 mamlakat. Mamlakatlarning ko'pchiligi Afrika sivilizatsiyasiga tegishli. 6 tasi G'arbiy xristian, 3 tasi Uzoq Sharq va islom, 2 tasi hind sivilizatsiyasiga mansub.

Qiyoslash boy va kambag'al mamlakatlar o'rtasidagi oraliqning kuchayishi natijasida olingan natijalar xavfli an'anasini aniqladi.

1987-yildan 1992-yilgacha besh yil davomida 51 mamlakatda AQSHga nisbatan qoloqlik qisqardi, 45 mamlakatda esa o'sdi, 4 mamlakatda o'zgarmadi. Lekin 10 ta eng boy mamlakatda jon boshiga o'rtacha daromad 10 ta eng kambag'al mamlakatlarga nisbatan 37 dan 41 martagacha 1,2 marta o'sdi. Boy va qoloq mamlakatlar o'rtasidagi bu farqning o'sib borishi XXI asrga kelib jahon sivilizatsiyasining halokatiga sabab bo'lishi mumkin.

Bu halokatning oldini olish uchun amalda barcha imkoniyatlar mavjud. Yangi texnologiyalarni iqtisodiyotga tatbiq etishda rivojlanayotgan mamlakatlarga har tomonlama tizimli yordam berish ijobiy siljishlarga olib keladi. Bu to'g'risida Singapur, Janubiy Koreya, Tailand, Malayziya, Xitoy tajribasi yaqqol guvohlik beradi.

O'tish davrida iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayishi, tushkunlik yo'qotishlarning tez-tez takrorlanishi, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi o'sishining yuqori darajasi mamlakatlar taraqqiyotidagi farqlarni yanada kuchaytiradi. Yalpi ijtimoiy portlash muqarrar bo'ladi. Bu yer sivi-

lizatsiyasini yuz yillar orqaga uloqtirib tashlashi mumkin. Bu pessimistik nazariyadan xoli bo'lish uchun xalqaro hamjamiyat asosiy e'tiborni rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining turmush darajasi, uning iqtisodiyotini ko'tarishga qaratishi lozim. Eng avvalo, malakali kadrlar tayyorlash, yuqori samarali texnologiyalarni o'zlashtirish, oilani rejalashtirishda jiddiy, uzoq muddatli dastur tuzib, amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu bilan bir vaqtning o'zida rivojlangan mamlakatlarda rasm bo'lgan isrofgarchilikka asoslangan iste'mol modeli tabiiy resurslarni isrofgarchilik bilan sarflash va tugatish, yer aholisining ko'pchiligini ekspluatatsiya qilishni kuchaytirishga asoslangan.

Postindustrial sivilizatsiyaga tomon yo'l tutishda rivojlangan mamlakatlarda yanada ratsional va tejamkor isrofgarchilikdan xoli iste'mol modeli va o'z ehtiyojini faqat o'z resurslaridan qondirish qobiliyatini rivojlantirish zaruriyatini tug'diradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi texnologiyalar, yuqori mehnat unumdorligini ta'minlash kerak bo'ladi.

Postindustrial jamiyatga o'tish davrining oxirida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi farq XX asrning birinchi 30 yilligida taxminan ikki martaga (11 martadan 5-6 martagacha)ga qisqarishi mumkin va uning yetuklik davri (60-yillar)ga kelib 2-3 martaga qisqarishi mumkin. Bu rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga shaxsiy iste'mol sur'atlarini 1,5-2 martaga jadallashtirish asosida bo'lishi mumkin. O'z navbatida, rivojlangan mamlakatlarda iste'mol va ehtiyojlar tuzilmasidagi o'zgarishlar asosida shaxsiy iste'mol sur'atini pasaytirish bilan belgilanadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha mehnat unumdorligining darajasi o'rtasidagi oraliq 1981-1985-yillarda 10 martani tashkil qildi. AQSH va Janubi, Janubiy-sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari bo'yicha 31 martani tashkil qildi.

Ko'pgina mamlakatlar Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan, Argentina, Chili, Quvayt, Saudiya Arabistoni mehnat unumdorligi o'sishining jadal sur'atlarini amalda ko'rsatdilar. Ammo Osiyo, Afrika mamlakatlarida iste'mol va mehnat unumdorligi darajasini ko'tarish uchun xalqaro yordam ko'rsatish kerak.

Oilaviy munosabatlarda ham siljishlarning bo'lishi aniq. Bu yerda o'tish davrida qarama-qarshi an'analar kuzatiladi. Rivojlangan mamlakatlarda oilaning o'rni zaiflashib bormoqda. Ajralishlar soni, bolasi yo'q va kam bolali oilalar o'sib bormoqda. AQSHda nikoh soni 1000 kishiga

10,6 dan 9,7 gacha kamaydi. Ajralishlar 3,5 dan 4,8 ga o'sdi. Buyuk Britaniyada nikoh soni 8,5 dan 6,7 gacha, ajralishlar 12 dan 3,0 gacha, Fransiya da nikoh soni 7,8 dan 4,9 gacha, ajralishlar 0,8 dan 1,9 gacha. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bo'lgan postsotsialistik davlatlarda tug'ilish XX asrning 90-yillaridan kamaydi. Jumladan, O'zbekistonda XX asrning 90-yillaridan aholining tabiiy ko'payishi barqaror davom etgan bo'lsa-da, ko'p bolalik oilalar soni keskin kamaydi. Ilgari o'rtacha oila tarkibi 6 kishidan iborat bo'lgan bo'lsa, 2010-yilga kelib uning soni 4 kishiga tushib qoldi. Taxminan 2000-yildan boshlab ilada o'rtacha bir-ikki bolani ko'rish mumkin. Tug'ilish XX asrning 90-yillaridan boshlab kamayib bordi. Oila-nikoh munosabatlarida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Oilada ajralishlar ko'paydi. Oilaviy munosabatlarda esa o'zgarishlar yuz berdi. Ayollar oiladan tashqarida ijtimoiy takror ishlab chiqarishga tortila boshladilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'p bolalik oila an'ana bo'lib qolaverdi. Ayollar, ayniqsa, musulmon mamlakatlarda oiladan tashqarida ijtimoiy takror ishlab chiqarishga kamroq darajada tortilganlar.

Rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 70-yillaridan boshlangan seksual inqilob ba'zi olimlarga oilaning hozirgi shaklini kelajak jamiyatda yemirilishini bashorat qilishga sabab bo'ldi. Ammo oilaning mavqeyi tushib ketsada, hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda oilani saqlab qolish va mustahkamlash maqsadida davlat hokimiyati ilmiy-amaliy uzoq muddatli dasturlar asosida ish olib bormoqda. Oila davlat tomonidan muhofazaga olinadi.

Istiqbolda oilaning uch funksiyasi saqlanib qoladi, lekin uni amalga joriy qilish mexanizmi o'zgaradi. Birinchidan, hayotni takror ishlab chiqarish, avlodni davom ettirish, biologik genotipni keyingi avlodga yetkazish funksiyasi. Oila ming yillar mobaynida avlodni davom ettirish qonunini qo'llab-quvvatlash uchun yaratiladi. Uningsiz insoniyat urug'i tur sifatida yer yuzidan yo'qolib ketadi. Otalik va onalikning kuchli instinktlari har qanday odamga xos ruhiy zararsiz normal bolani tarbiyalash uchun zarur.

Keyingi yillarda to'la bo'lmagan oilalar an'anasining kuchayib borishi go'dakni normal bolalikdan mahrum qilmoqda. Bolalar jinoyatchiligining o'sishi ma'nosiz shafqatsizlikning sabablariga aylanadi. Jamiyat tomonidan rad etilgan keraksizlik, yo'qotilgan bolalik undan oxir-oqibatda o'ch oladi.

Asosli qilib aytish mumkinki, o'tish davrida asosan rivojlangan mamlakatlar uchun xos bo'lgan salbiy an'analar sezilarli darajada bartaraf qilinadi. Dunyoning ko'p mamlakatlarida postindustrial sivilizatsiyaning yetuklik davrida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida qayta tug'ilish an'anasida yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, oilada bolaning ta'lim-tarbiyasi mukammallashadi. Shu asosda genotipni normal uzatish, butun xalqlarni o'lishdan saqlab qolish amalga oshadi.

Ikkinchidan, oilaning iqtisodiy mavqeyi kuchayadi. Ayniqsa, tushkunlikning og'ir sharoitlari, ishsizlik, yashash uchun kurashda bu an'ana kuchayadi. Ayollar oilani nochor ahvoldan qutqarish maqsadida ijtimoiy ishlab chiqarishga ko'proq tortiladilar. Oilaning boquvchisi, saqlovchisi bo'lib maydonga chiqadilar. Oila teng huquqli asosda quriladi. Erkaklar oila xo'jaligida faollashadilar.

Bir parcha yerga ega bo'lgan oilalar, tomorqa xo'jaligi, yordamchi xo'jalikning ahamiyati o'sadi. Bu oila ta'minotini yaxshilaydi. Bu oilalarning barchasi oilani jamiyatning asosiy iqtisodiy to'qimasi, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning muhim qismi sifatida qaror topishiga yordam beradi.

Uchinchidan, oila ijtimoiy genotipni takror ishlab chiqarish, bilimlar va madaniy merosni uzatish, ta'lim va yosh avlodni tarbiyalash, uning ma'naviy dunyosini shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Bolalik, oilaning buzilishi bu ijtimoiy yovuzlik. Buni postindustrial jamiyat bartaraf qilishi lozim.

2. Industrial tushkunlik va postindustrial ishlab chiqarish texnologik usulining shakllanishi. Insondagi o'zgarishlar inson tomonidan mavjud texnologik zanjir doirasida shaxsiy, ishlab chiqarish, bilish, harbiy, boshqaruv ehtiyojlarini qondirish, tabiat buyumlari va mahsulotlarini o'zgartirish uchun odam tomonidan foydalaniladigan texnik tizimlarda jamiyatning texnologik bazasida tub o'zgarishlarga olib keladi. Bu o'zgarishlarning hajmlari, tuzilishi va dinamikasida ularning bir necha asosiy yo'nalishlarini ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Industrial jamiyatning boshlanishi sanoat inqilobiga borib taqaladi. Ishlab chiqarishning postindustrial texnologik usuli bosqichma-bosqich shakllanadi. Hozirgi kunda yarim asr davom etadigan, jamiyat piramidasiining ikkinchi qavati qiyofasini tubdan o'zgartiradigan chuqur texnologik inqilob to'g'risida gapirish mumkin. Bu inqilobni hamma tan oladi, lekin uni ikkinchi yoki uchinchi sanoat inqilobi deb atash noo'rin. Bu

sanoat inqilobining tamoyillari, asosiy yo'nalishlarini davom etishi emas, ularning ko'pidan voz kechishdir. Texnologik mayatnik kichik va o'rta ishlab chiqarish, yakka tartibdagi mehnat tomon og'di. Lekin bu texnologiyalar zamonaviy axborot kommunikatsiyalari asosida amalga oshdi. Bu texnik progressning katta o'ramini yangi halqasidir. Buni postindustrial texnologik inqilobning to'ntarishi deb atash mumkin. Ishlab chiqarishning shakllanayotgan texnologik usulining hayot sikli taxminan postindustrial sivilizatsiya faoliyatiga teng.

Postindustrial jamiyatga o'tish XX asrning 70-yillari bilan belgilanada, uning fundamental ilmiy shart-sharoitlari oldinroq industrial ishlab chiqarishning texnologik usuli bag'rida yetildi. Ehtimol episentrda yangi texnologik ishlab chiqarish tizimiga o'tish davri yarim asr atrofi (XXI asrning 20-yillari o'rtalarigacha)da bo'ladi. Keyin esa uning kenglik va chuqurlikda tarqalishini yarim asrlik davri boshlanadi.

Shundan so'ng, taxminan shuncha davomiylikda yetuklik fazasi, qaror topgan ishlab chiqarish usulining maksimal natijalari namoyon bo'ladi. Navbatdagi faza uning asta-sekin keksayishi, texnologik tushkunlik, texnik progressning katta spiralini keyingi halqasi kurtaklarining shakllanishi uchun shart-sharoitlar yetiladi.

O'tish davrining o'tgan qariyb o'ttiz yili tarix sahnasidan ketayotgan industrial jamiyat o'rniga kelayotgan postindustrial ishlab chiqarish texnologik usulining ayrim bosh belgilarini shakllanishiga imkon beradi.

Birinchi belgi – texnika gumanizatsiyasi. Bu ishlab chiqariladigan texnikaning tuzilmasidagi o'zgarishda aks etadi (insonning bevosita ehtiyojini qondirish uchun xizmat qiladigan texnikani ishlab chiqarish o'sadi). Lekin uning qo'llanishida texnologik jarayonga kiritilgan jismoniy va bir maromdagi mehnat o'rniga ijodiy ruhdagi mehnat keladi.

Ikkinchi belgi – ishlab chiqarishning fanga yo'naltirilganligi, ilmiy tafakkurning so'nggi yutuqlarini amalga oshiradigan yuqori texnologik texnik tizimlarning ustuvorligi.

Uchinchi belgi-texnikaning miniatyurizatsiyasi. Mahsulotga talabni tez dasturlashtirilgan ishlab chiqarish dekonstratsiyasi.

To'rtinchi belgi-ishlab chiqarishning ekologiyalashuvi, tabiiy xomashyodan kompleks foydalanish, uni plastmass, sintetik qatron, kompozitlar, keramika kabi sun'iy materiallarga almashtirish, chiqitsiz, ekologik toza texnologiyalardan foydalanish, ekologik standartning yanada

qat'iy bo'lishi.

Beshinchi belgi – ishlab chiqarishning lokallashuvi va baynalmilalashuvi. Yoqilg'i va xomashyo qazib olish bo'yicha hududlar va mamlakatlarning ixtisoslashuvi bilan bog'langan hududiy noratsional mehnat taqsimoti va uni tashishning ulkan hajmlari o'rni xomashyoni o'z joyida kompleks qayta ishlashni ta'minlaydigan lokal texnik tizimlarga bo'shatib beradi. Bu hududlarni o'z-o'zini ta'minlashini va tayyor mahsulotni o'zaro almashinuvini kuchaytiradi. Integratsiya jarayonlari kuchayadi, lekin boshqacha tus oladi. U har tomonlama iste'mol talabini qondirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Aholining harakatlanishi kuchayadi. Bu transport hajmlari va arzonlashuvning kengayishi bilan yengillashadi. Internet orqali aloqa odam qayerda bo'lmasin uning butun dunyo bilan muloqotini ta'minlaydi.

2. Kelajakda texnologik ko'p ukladlik saqlanib qoladi. Texnologik tizimlar (texnika yo'nalishi) va mashinalar avlodi zaruriyatga qarab davriy almashib turadi. Yuqori uzoq muddatli texnologik siklning har bir fazasida bugun, kelajak, o'tmish va uzoq o'tmishni aks ettirgan bir necha texnologik ukladlar mavjud bo'ladi. Har bir uklad o'z o'rniga ega bo'ladi, lekin ukladlar nisbati o'zgaradi. Yetakchi uklad davriy almashib turadi. Iqtisodiyotning texnologik tuzilmasida ham siljishlar yuz beradi.

XX asrning 70-yillaridan beshinchi (XVIII asrdagi sanoat inqilobidan hisoblaganda) texnologik ukladning shakllanishi boshlandi. Uning yadrosini elektronika, hisoblash texnikasi, telekommunikatsiya, tabiiy gaz, kam chiqitli ishlab chiqarish tashkil etadi. Beshinchi texnologik ukladning yetakchiligi taxminan yarim asr XXI asrning 20-yillarigacha qamrab olishini kutish mumkin. Bu postindustrial sivilizatsiyaga o'tish davri bilan mos tushadi. Ukladning o'zi ko'p holda o'tishning aralash xususiyatiga ega. U industrial va postindustrial ishlab chiqarish texnologik usuli belgilariga ega.

Oltinchi uklad yarim asrdan kamroq (XXI asrning 60-yillari oxiridan) yetakchilik qiladi. Uning fundamental asoslari ibtidoiy holatda hozirdayoq ko'rina boshlaydi (nanoelektronika, gen injenerligi, internet, non-anaviy energetika). Ular orqali ishlab chiqarishning yangi texnologik potentsiali amalga oshiriladi. Yettinchi uklad postindustrial sivilizatsiyaning yetuklik fazasi bilan mos tushadi. Sakkizinchi uning keksayish fazasi bilan, to'qqizinchi ehtimol yana ikkinchi potindustrial sivilizatsiyaning ishlab chiqarish yangi texnologik usuli tomon o'tish bosqichining belgilarini oladi. Ikkinchi industrial sivilizatsiya o'z navbatida 4-5 texnologik

ukladlar almashinuvi orqali o'tadi. Texnik progress to'xtamaydi.

3. Ishlab chiqarish postindustrial texnologik usulning yadrosi bo'lib, uch o'zaro bog'langan asosiy yo'nalish: mikroelektronika (keyin nanoelektronika) informatika va biotexnologiya. Aynan ular beshinchi va undan keyingi keladigan texnologik ukhlarga yetakchi bo'ladigan yo'nalishlar va texnika avlodlari uchun unsur bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Mikroelektronika amalda inson faoliyatining barcha sohalarini bo'yicha kompyuter va mikroprotssessor texnikasini qo'llashga yo'l ochib berdi. U unumdorlik va operatsiyalar aniqligini ko'p marta oshirishga imkon berdi. Insonni jismoniy mehnatini bir maromlikdan va aqliy mehnatdan ozod qildi, texnologik jarayonlarni optimallashtirdi.

«Nanotexnologiya» atamasini ilk bor yaponiyalik Norio Taniguchi 1974-yil fanga kiritdi. «Nano» yunon tilida «mitti» ma'nosini bildiradi. Ilk nanotexnika asboblari Shvetsariyaning IBM kompaniyasi laboratoriyalarida yaratilgan. Har bir nanometer (nm) bir metrning milliarddan bir qismiga teng o'lchamidir.

Nanotexnologiya bu – moddani boshqarishdan atomni boshqarishga o'tish; o'lchami atom va molekular o'lchamlari bilan qiyoslanadigan elektron sxemalarni tayyorlash; nanomashinalarni loyihalash va ishlab chiqish; alohida atom va molekularlarni boshqarish, ulardan alohida mikroobyektlarni yig'ish.

Nanotexnologiya fizika, biologiya va kimyo fanlarining yutuqlariga asoslangan yangi zamonaviy ishlab chiqarishdir. Kelajak iqtisodiyotning asosi nanotexnologiya bo'ladi. Mikroelektronika fanining yangi sohasi nano elektronika fani jadal rivojlanmoqda. Bugungi global (yoqilg'i-energiya, ekologiya, sog'liqni saqlash, ishsizlik) muammolarning yechimini topishda nanotexnologiyalar jiddiy o'rin egallaydi. Nanotexnologiyalardan jamiyat hayotining barcha sohalarida keng foydalanish tomon yo'l tutildi. Yaratiladigan nanotexnologiyalar XXI asrda insoniyat taraqqiyotida ulkan sakrashlarga olib keladi. Insoniyat jamiyati turmush tarzi misli ko'rilmagan darajada o'zgaradi.

Texnologik to'ntarish yadrosining boshqa yetakchi bo'g'ini biotexnologiya bo'ldi. U molekulyar biologiyaning kashfiyotlarini amalga tatbiq qiladi. Qaysiki, u haqiqiy to'ntarish qilib, nasliy buyumning kodini o'qish va tuzatish kiritishga qobil gen injenerligining asoslarini qo'ydi. Bu mikroorganizmlar, o'simlik va hayvonlarning yanada mahsuldor turlarini maqsadli yo'naltirilgan holda yaratish imkoniyatini beradi. Irsiy

kasalliklarni tuzatish, dori-darmonlar, fermentlarning yanada samarali turlarini dasturlashtirilgan xususiyatlar bilan materiallarni ishlab chiqish, eng mahsuldor hayvonlarni klonlashtirishda biotexnologiya juda katta ishlarni bajaradi.

Ishlab chiqarishning yangi texnologik usuli yadrosining uchinchi bo'g'ini – jamiyat axborotlashuvi hayotining barcha tomonlarini va mehnat faoliyati turlarini telekommunikatsiyalar, kosmik aloqa vositalari va to'la optik kabellarni ishlatish bilan axborot-kompyuter turlari, faks apparatlari, elektron pochta, uyali telefonlar tashkil etadi. Multimedia vositalari (kompyuterlar, audio va videotexnika sintezi), kompyuter grafikasi yordami bilan virtual (xayoliy) reallik yaratiladi. Odam u yaratgan dunyoga cho'miladi, ijodiyotga bilimlarni tez o'zlashtirish va yangilashga keng yo'l ochiladi.

Axborot inqilobi odamlarning jahon yangi hamjamiyatini yaratadi. Odam zarur bo'lgan axborotni kerakli paytda har qanday joydan olishi (uzatishi) mumkin. Birdaniga odam kerakli, tashkilot, korxonalar bilan yer sharining har qanday nuqtasidan bog'lanishi mumkin. Hozirgi ommaviy axborot vositalari o'z monopol mavqeyini yo'qotadi. Ular iste'molchilarning har xil guruhlari, individual abonentlarning so'rovlarini qondirish rejimiga o'tadilar, elektron gazeta singari turli yangiliklarni ochiq qo'llashga majbur bo'ladilar.

4. Lekin ilmiy texnik progressning notekisligi va qarama-qarshiligi saqlanib qoladi. U insoniyat kelajagi uchun xavfning zarrasini o'zida olib boradi. Yuqorida sanab o'tilgan bazis yo'nalishlari va ulardan turli sohalarda faoliyati va turli sohalarda amalda foydalanish ulkan mablag' va yuqori malakali kadrlarni talab qiladi. Bunday imkoniyatlar faqat yer aholisining 1/10 qismi yashaydigan rivojlangan mamlakatlarda mavjud. Rivojlangan mamlakatlar texnologik to'ntarishning eng yangi yo'nalishlarini o'zlarida joriy qilishlari uchun xalqaro hamkorlik tashkilotlarining tizimli yordamiga muhtoj bo'ladilar. Eng avvalo, bu mamlakatlar aholisining ta'lim darajasini ko'tarish lozim. Notekis texnologik taraqqiyot alohida mamlakatlar ichida o'sib boradi. Ozgina yirik markazlar va texnopolislarda mamlakatlarning ilmiy texnika potensiali bo'lgan pioner tashkilotlar to'planadi. Ko'pchilik hududlarda ilmiy va texnik baza ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulotning raqobatdoshligi, aholi daromadlarining zaruriy darajasini ta'minlay olmaydigan o'tmishga ketgan texnologik ukladlarni aks ettiradi. Bu hududlararo farqlar va ziddiyatlarni

keskinlashtiradi.

Shuni hisobga olish lozimki, yangi ilmiy kashfiyotlar insoniyatni foydasi uchun ham, zarari uchun ham ishlatilishi mumkin. Ular o'zida maqsadga yo'naltirilgan va tasodifiy yalpi halokatlar uchun yangi imkoniyatlarni yashiradi. Ommaviy qirg'in vositalarni eng yangilarini yaratish tizimli davom etmoqda. Yadro va biologik qurolning yangi avlodlari yaratilmoqda. Harbiy sanoat uchun minglab ilmiy tadqiqot markazlari o'z kashfiyotlarini amalga oshirmoqdalar. Harbiy xarajatlar yildan yil o'sib bormoqda.

Gen injenerligi shunday organizmlarni yaratish arafasida turibdiki, agar ular yaratilib, erkin tabiat qo'yniga qo'yib yuborilsa, odam nasliyligi o'zgarishi mumkin (misol uchun, klonlashtirish). Biotexnologiya sohasidagi yangiliklarni suiste'mol qilish, inson ruhiga ta'sir qilish uni zombiga aylantirish xavfini tug'diradi.

Texnologik to'ntarishning keng tarqaladigan salbiy oqibatlari ham bor. Kompyuter oldida uzoq o'tirish ko'rishni yomonlashtiradi, organizmni nurlaydi. Kompyuter o'yinlari, teleko'rsatuvlar, past sifatli kontrafakt disklar bolalar va o'smirlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ular o'z ustlarida ishlamaydilar, kitob o'qimaydilar, tengqurlari bilan kam muloqot qiladilar, axborotlashuvning passiv obyektlariga aylanadilar. Texnologik to'ntarishning bunday salbiy jihatlarini bo'rttirish hamda mensimaslik ham mumkin emas. Faqat bunday salbiy oqibatlarni cheklash uchun choralar ko'rish va uni inson va insoniyat foydasiga ishlatish mumkin. Texnologik inqilobdan boshqa dunyoni o'zgartiradigan boshqa bir qurol yo'q.

5. Postindustrial texnologik inqilob ishlab chiqarishni tashkil etish shakllaridagi ilmiy texnika yutuqlaridan foydalanish usullarida an'analarni o'zgartiradi. Mashina va mashinalar tizimini saqlaydigan fabrikani tug'diradi. Fabrika industrial ishlab chiqarishning ramzi bo'ladi. Asrdan asrga, industrial texnologik siklning fazadan fazasiga fabrika-zavodlar yanada qudratli bo'lib, minglab, o'ng minglab ishchilarni to'plab, yirik industrial markazlarda guruhlashib, atrof qishloq va kichik shaharchalardan ishchi kuchini tortib olib, atrof-muhitga ulkan zarar yetkazdilar.

Ishlab chiqarish va turmushning elektronlashuvi, axborotlashuv inqilobi, texnikaning kichiklashuvi va ishlab chiqarishning dekonstratsiyasi odamlar joylashuvining deurbanizatsiyasi an'anasini tug'dirdi. Texnologik o'zgarishlar uncha katta bo'lmagan korxonalar tez javob beradilar

va osonlik bilan moslashadilar. Bu ayniqsa, qayta ishlash va xizmat ko'rsatish sohalarida yaqqol ko'rinadi. Sanoat gigantlari saqlanib qoladi, lekin ularning soni kamayadi. Ishlab chiqarishni insonga va iste'mol bozoriga yaqinlashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Mamlakat bo'yicha juda ko'p fermerlarni qo'llab-quvvatlab, kichik korxonalar tizimini kichik shaharlarda yaratish imkoniyatini beradi. Tabiiy muhitga bosim o'tkazish kamayadi, yirik shaharlar ancha bo'shaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda aholining bir qismi axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanib, katta shaharlardan uning atrofiga ko'cha boshladilar. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa qishloq joylarida ishsizlikdan qochib, shaharlarga ko'chish an'anasi yaqin 15-20 yilda saqlanib qoladi.

Mehnat taqsimoti mazmuni hozir o'zgarimoqda, kelajakda ham o'zgaradi. Mehnat murakkabligining kuchayishi, texnika avlodining tez-tez almashib turishi mehnatning tor kasbli taqsimotini foydasiz qiladi. Keng o'zgarayotgan sharoitlarga tez moslashadigan (adaptatsiya) keng profilli xodimlar (ishchilar, injenerlar, texniklar, konstruktorlar, menejerlar, olimlar, muhandislar) zarur.

Detallashgan ixtisoslashuv, tor ixtisoslashgan monomahsulotli ishlab chiqarish ham ko'p holda ma'nosini yo'qotadi, faqat xomashyo qazib chiqarish sanoatida u yetakchi bo'ladi. Bir tomonlama hududiy mehnat taqsimoti yuk tashishning misli ko'rilmagan o'sishiga sabab bo'ladigan hududlarni hududiy ko'p mahsulotga ixtisoslashuvi bartaraf qilinadi.

Xomashyoni chuqur qayta ishlashning keng tarqalishi, ishlab chiqarishning diversifikatsiya qilinishi, hududlar ishlab chiqarishning dekonstratsiyasi, deurbanizatsiyasi bilan birga, hududlarni o'z-o'zini ta'minlashining o'sishi milliy xo'jaliklarni qiyofasini o'zgartiradi. Bu ularning taraqqiyotini bir tekisda bo'lishiga o'ta ixtisoslashuvni salbiy jihatlarni bartaraf qilishni, xomashyo va yoqilg'i tashishning qisqarishiga olib keladi. Bu uzoq muddatli tashkiliy ishlab chiqarish siklining boshlanishidir.

6. Yuqorida sanab o'tilgan jamiyatning texnik asosida boshlangan to'ntarish qayta ishlab chiqarishning samaradorligini sakrash tarzidagi o'sishiga yo'l ochadi. Bu sanoat inqilobidan keyin ilk bor kuzatilgan edi. Bu jarayon notekis, to'liqinsimon rivojlanadi. O'tish davrida, ayniqsa, uning boshlanishida umumtizimli tushkunlik davrida o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatiladi. Alohida davrlarda ba'zi mamlakatlarda ijtimoiy ishlab chiqarishning ijtimoiy mehnat unumdorligi, material hajmi va fond hajmi, ekologik tavsiflar samaradorligining ko'rsatkichlarini mutlaq

yomonlashuvi kuzatiladi.

Yalpi ichki mahsulotning 1989-1994-yillardagi pasayishini o'rtacha yillik sur'atlari mamlakatlar bo'yicha o'tish davrida 9,6 % (shuningdek, sobiq SSSR respublikalari bo'yicha 13,5 %, Markaziy va Sharqiy Yevropa bo'yicha 6,4 %)ni tashkil qildi. O'sha vaqtda o'tgan besh yilliklarda o'sish o'rtacha yillik sur'atlari 2,8 % ni tashkil qildi.

XXI asr boshlarida o'tish davrining oxirida, ayniqsa, postindustrial ishlab chiqarish texnologik usulining shakllanish fazasida samaradorlikni o'sishining yuqori sur'atlari kutiladi. Bu ijtimoiy ekologik keskinlikning pasayishiga yordam beradi. Yetuklik fazasida samaradorlikning o'sish sur'ati nisbatan past darajada barqarorlashadi, keksayish fazasida yana pasaya boshlaydi. Bu navbatdagi yalpi texnologik tushkunlikga yaqinlashganidan dalolat beradi (texnik ukladlar almashuvi jarayonida tushkunliklar kuzatiladi). Ko'rinishidan texnologik to'ntarish samaradorligining eng katta natijalari uning liderlariga nasib qiladi. Chekka hududlarda bu jarayon yanada sekin va qarama-qarshilikda boradi.

XXI asrning birinchi yarmida ishlab chiqarishning yangi texnologik usuli samaradorligi quyidagilarda aks etadi:

- mahsulot assortimenti ancha ko'payadi. Mahsulot sifati, eng avvalo, odamning tez o'zgarib, o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan iste'mol mollari va xizmat ko'rsatish kengayadi. Mahsulotlar qimmatli individuallashtirib boradi. Bozorning tor segmentlari xaridorlarning aniq guruhlari talabiga yo'naltirilgan bo'ladi;

- milliy daromadni har bir band ishchiga (aholi jon boshiga) ishlab chiqarishga tortilgan moddiy resurslar va asosiy jamg'armalar birligida jadallashuvi o'sish darajasiga texnikani miniaturlashishi, chiqimsiz texnologiyalardan foydalanish yordam beradi;

- ishlab chiqarish va mahsulotlarning ekologik sifati yaxshilanadi. Ishlab chiqarishga tabiiy resurslarning jalb qilinishi va ularni ishlatishning kompleksligi, atrof-muhitning ifloslanishini ko'p marta kamayishi, ekologik toza mahsulotlar va transport vositalariga talab kuchayadi;

- inflyatsiyaning o'ta kamayishi, yangi mahsulotlarning mutlaq arzonlashuvi ishlab chiqarish va iste'molda progressiv tuzilmalarning siljishlarini rag'batlantiradi;

- qo'llaniladigan texnika ergonomikligining o'sishi mehnat sharoitining yaxshilanishi va xavfsizligining kamayishi, uning ijodiyligini kuchayishiga olib keladi;

- rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning texnologik daraja-

lari yaqinlashadi.

Texnologik to'ntarishning hayotbaxsh oqibatlari birdaniga ko'rinmaydi, juda katta kuch va mehnatni talab qiladi, ulkan industrial mashinani yangilashga katta xarajatlar talab qiladi va turli mamlakatlarda har xil vaqtda amalga oshadi. O'tish davrining boshlarida ziddiyatli an'analar yetakchi bo'ladi. Lekin jamiyatning texnologik bazasi transformatsiyasi qat'iy, uning siklik dinamikani navbatdagi o'ramiga o'tishi qonuniyatli. Jamiyat bu qonuniyatdan qanchalik darajada foydalanib bo'ladi va o'zgarishlarni to'g'ri oqimga yo'naltirib, yaxshi natijalar olishi bu muammo albatta.

Tayanch iboralar: F.Baade, demografik vaziyat, aholi yosh tarkibi, demografik muammolar, yalpi ichki daromad, rivojlanayotgan mamlakatlar, oila muammolari, o'tish davri belgilari, klonlashtirish, axborot inqilobi, texnologik to'ntarish.

Takrorlash uchun savollar:

1. *XXI asr boshlaridagi demografik vaziyatni ochib bering?*
2. *O'tish davrida turmush darajasi qanday bo'ladi?*
3. *Aholi jon boshiga daromadlarni mamlakatlar bo'yicha taqsimlang?*
4. *O'tish davrida ishlab chiqarish texnologiyasida qanday o'zgarishlar yuz beradi?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. O'tish davrida demografik jarayonlar.
2. XXI asr boshlarida oila.
3. Postindustrial ishlab chiqarish texnologik usulining asosiy belgilari.
4. Axborot inqilobi va uning oqibatlari.

3-MAVZU: POSTINDUSTRIAL JAMIYATGA O‘TISH DAVRIDA IQTISODIY-SIYOSIY O‘ZGARISHLAR

1. Postindustrial jamiyatga o‘tish yo‘lida iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar.
2. Ijtimoiy-siyosiy sohada tub o‘zgarishlar.

1. Postindustrial jamiyatga o‘tish yo‘lida iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar. Endi e‘tiborni jamiyatning navbatdagi qavati – iqtisodiyotga qaratamiz. Yangi sivilizatsiyaning shakllanish davrida iqtisodiy ukladlar va bozor munosabatlari, boshqaruv tizimida qanday o‘zgarishlar yuz beradi? Asosiy an‘analarni ko‘ramiz:

1. XX asrning so‘nggi choragi va XX asr boshlarida iqtisodiy dinamikaning keskin o‘zgarishi kuzatiladi. Birin-ketin jahon iqtisodiy tushkunliklari yuz beradi. Postsotsialistik mamlakatlarda ishlab chiqarish va turmush darajasining misli ko‘rilmagan pasayishi tinchlik davrida yuz berdi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham qashshoqlik va ochlikning yangi to‘lqini kirdi. Industrial ishlab chiqarishning iqtisodiy usuli kapitalistik va sotsialistik variantlarda o‘z umrini o‘tab bo‘lgani yaqqol ko‘rindi. Uni yangi postindustrial ishlab chiqarish usuli bilan almashtirish vaqti keldi. Butun dunyoni sanoat inqilobi davridan keyin misli ko‘rilmagan tub iqtisodiy o‘zgarishlar qamrab oldi. Iqtisodiyot tuzilmasi, mulkchilik munosabatlarida tub siljishlar boshlandi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi sezilarli qisqardi. Bozor va raqobat qayta uyg‘ondi.

Kichik va o‘rta biznes salmoqli o‘rinni egallay boshlaydi. Ayniqsa, aholi uchun iste‘mol mollari va xizmatlar sohasida kichik va o‘rta biznes ustuvor ahamiyat kasb etdi. Xalqaro savdoda yoqilg‘i xomashyoning yetakchilik o‘rniga yuqori texnologik mahsulotlar va turizm keldi. Iqtisodiy o‘sishga doimiy intilishdan voz kechilib turmush darajasi sifatini oshirish, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik yetakchi o‘rinni egallaydi.

2. Postindustrial ishlab chiqarishning iqtisodiy usuli boshlanayotgan sivilizatsiya sikli fazalaridan o‘tadi. Tug‘ilish va o‘tish davri (XX asrning 70-yillaridan XXI asrning 20-yillarigacha), tarqalish (XXI asrning 60-yillarigacha); yetuklik (35-40 yil); keksayish (25-30yil). Shundan ishlab chiqarishning iqtisodiy usuliga o‘tish boshlanadi.

Postindustrial sivilizatsiya o'choqlarida XXI asr boshlaridan ishlab chiqarish umuman iqtisodiyotda jiddiy muammolar yuz beradi. Bunday muammolarning qamrovi keng bo'lib, o'nlab mamlakatlarni qamrab oladi. Global iqtisodning zaifligi ko'rinadi. Iqtisodiy o'sish sezilmaydi. Global iqtisodning o'sishi 2012-yilda bor yo'g'i 2,3%ni tashkil qildi. Dunyoning eng yirik iqtisodiyotiga ega AQSHning nochor ahvoli boshqa mamlakatlarning iqtisodiyotiga, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarga ham ta'sir qildi. AQSHning tashqi dunyodagi qarzi 16,35 trillion dollarga yetadi. Bu qarz har oy 100 mlrdga oshib bormoqda (2013-yil yanvar ma'lumoti). 2008-yilda yuz bergan global moliyaviy inqiroz hanuzgacha tugamadi. So'nggi yillarda «katta sakkizlik», «katta yigirmalik» kabi yetakchi davlatlar inqirozdan chiqish uchun dasturlar ishlab chiqdilar. Ammo bu dasturlarning natijasi bo'lmadi.

Kelajak sivilizatsiya iqtisodiy bazasining vaqtinchalik doirasi industrial jamiyatga qaraganda qisqa, o'zgarish jarayonlari intensiv kechadi. Shuningdek, sivilizatsiyalarning yangi triadasi, navbatdagi tarixiy super-sikl boshlanadi. Iqtisodiyotdagi o'zgarishlar sanoat inqilobi davriga qaraganda, yanada chuqur va tub xarakter kasb etadi.

Bizning ko'z oldimizda bizning ishtirokimiz bilan shakllanayotgan postindustrial iqtisodiy ishlab chiqarish usuliga xos belgilar qanday bo'ladi?

Bu jamiyatning tubdan o'zgarayotgan hayot sharoitlariga moslashadigan industrial iqtisodiyot va postindustrial jamiyatning sifat jihatidan yangi belgilarni oladigan yangi iqtisodiy tuzumdur.

Marksistlarning bundan qirq yil oldin insoniyatning kelajagi kommunizm, hozirgi davrning asosiy mazmuni kapitalizmdan kommunizmga o'tishdir degan fikrlari ustuvor edi. Birdaniga qandaydir besh yil ichida manzara keskin o'zgardi. Kommunistik mafkura, kommunizmning kelishi muqarrarligi tushunchasi, bozor munosabatlarini olib ketishiga ishonch SSSR boshchiligida sotsialistik lager halokati bilan yo'qoldi.

Postsotsialistik davlatlarning barchasi bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatni tanladi. Sotsializm rasmiy mafkura sifatida Xitoy, Shimoliy Koreya, Kuba, Vetnam kabi mamlakatlarda qoldi, lekin Xitoyda u kuchli o'zgardi. Bu mamlakatda kommunistik mafkura ostida bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy munosabatlar jadal rivojlanmoqda. Keksa odamlar orasida kommunistik g'oya tarafdorlari bor, lekin ular tobora kamayib bormoqda.

Achchiq tarixiy tajriba insoniyat kelajagida iqtisodiy tuzum dinamikasi an'analarini qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. Ko'plar sotsializm va kommunistikdan ko'ngli qolib, kapitalizmning ashaddiy muxlisiga aylandilar va aynan u kelajakning ideali deb ishonidilar. Ammo tarixiy an'analarning xolisona tahlili ko'rsatadiki, so'nggi yuz yillikda kapitalizmni hukmron ijtimoiy-iqtisodiy tuzum sifatida asosan o'z kuchini yo'qotdi, o'z hayot siklining so'nggi fazasiga kirdi. Bu albatta mana u halokatga uchraydi degan gap emas.

Tarixchi olim F.Brodel 1979-yil yozgan edi: «Shubhasiz, hech kim yuz yilligimizning 70-yillarida boshlangan bugungi tushkunlik kapitalizmga xavf soladi deb inkor qilmaydi. U 1929-yilgi tushkunlikdan jiddiyroq, ehtimol birinchi kattalikdagi firmani yutib yuboradi. Lekin, kapitalizm tizim sifatida uni yengib o'tishga barcha imkoniyati bor. U hatto, iqtisodiy rejada (men mafkuraviy demayapman) undan kuchayib chiqishi mumkin». (9.T. 3K 647).

Bu bashorat amalga oshdi. Kapitalizm hozir iqtisodiy-siyosiy jihatdan 70-yillar tushkun holati bo'lganidan ko'ra, mustahkamroq va nihoyat SSSR boshchiligida uning jiddiy raqibi bo'lgan sotsializm endi yo'q.

Shu bilan birga, kapitalizm katta foyda uchun quvadigan yollanma mehnatning kapital tomonidan eksplutatsiyaga asoslangan iqtisodiy tuzum sifatida kelajagi yo'q. Yana shuningdek, hozir rivojlangan mamlakatlardagi tuzum klassik kapitalizmning ko'p belgilarini yo'qotdi.

Yaqin yuz yilda rivojlangan mamlakatlarda hokimiyatga yangi sinfni keltiradigan va iqtisodiy munosabatlar mohiyatini o'zgartiradigan sotsial inqilobi bo'lishi mumkin emas.

Boshqa yan bir an'ana mavjud munosabatlar evolyutsiyasi asta-sekin postindustrial ishlab chiqarishning iqtisodiy usulini belgilarini olib, yangi sifatga ega bo'ladi.

3. Kelajak sivilizatsiyaning shakllanishi davrida iqtisodiyotning asta-sekin insonparvarlashuvi, yangi texnologik ukladlarni o'zlashtirish bilan bog'langan iqtisodiyot tuzilmasida siljishlar yuz beradi. Bu siljishlarni yangi sivilizatsiya tomon harakatning boshida turgan rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy tuzilmasiga qo'llab ko'ramiz.

Takror ishlab chiqarishning siklik makromodeliga ko'ra uch davrni ajratamiz:

Boshlanish (XX asrning 60-yillarida); postindustrial sivilizatsiya o'tish davrining nihoyasi (XXI asrning 20-yillari); bu sivilizatsiyaning yetuklik davri arafasi (XX asrning 60-yillari).

Bashoratning ikki manzarasi optimistik va pessimistik ruhdagini ko'ramiz (9-jadval). Jadvaldagi raqamlar umumiy yo'nalish beradigan shartli.

Xizmat ko'rsatadigan qayta ishlash va sohaviy tuzilmalar, sektor va sohalar foydasiga istiqbolda shaxsiy iste'mol uchun mahsulot ishlab chiqaradigan mashinasozlik va ilmiy texnik komplekslarning oraliq mahsulotlar va yoqilg'i xomashyo sohalarini intellektual mahsulot, davlat iste'moli va harbiy sanoat kompleksining ulushini qisqarishi hisobiga siljishlarni ko'rish mumkin.

9-jadval

Postindustrial sivilizatsiyaning shakllanish davrida iqtisodiyot tuzilmasi, dinamikasi prognozi (yalpi ichki mahsulotga %, o-optimistik, p-pessimistik manzara)

№	Makromodel-lar bloki va ko'rsatkichlari	XX asrning 60-yillari	Manzaralari	XXI asr 20-yillari	XXI asr 60-yillari
1. Takror ishlab chiqarish tuzilmasi – takror ishlab chiqarish sektorlari					
1.	Shaxsiy iste'mol	25	O/P	31/28	137/31
1.2	Davlat iste'moli	18	O/P	15/17	14/16
1.3	Oraliq mahsulot	22	O/P	20/19	16/18
1.4	Birlamchi mahsulot	12	O/P	9/11	7/9
1.5	Intellektual mahsulot	8	O/P	12/10	14/12
1.6	Bozor infrastrukturasini	15	O/P	13/15	12/14
Jami	Jami:	100	-	100/100	100/100
2. Sohaviy tuzilma – xalq xo'jalik komplekslari					
2.1.	Agrar sanoat	10	O/P	6/8	4/6
2.2.	Shaxsiy iste'mol mollari	16	O/P	21/18	24/21
2.3.	Mashinasozlik	15	O/P	17/15	19/17
2.4.	Yoqilg'i energetika	10	O/P	8/9	5/8
2.5.	Konstruksiya materiallar	8	O/P	6/8	5/6
2.6.	Qurilish	9	O/P	7/8	6/7
2.7.	Transport	8	O/P	8/9	7/8
2.8.	Harbiy sanoat	10	O/P	6/8	4/6
2.9.	Ilmiy-texnik	3	O/P	6/4	7/6
2.10.	Ijtimoiy	6	O/P	8/7	10/8
2.11.	Tashqi iqtisodiy	5	O/P	7/6	9/7
	Jami:	100	-	100/100	100/100

3. Toifaviy tuzilma – takror ishlab chiqarish darajasi.					
3.1	Uy xo'jaligi	15	O/P	13/14	10/12
3.2	Yakka tartibdagi	50	O/P	53/51	54/52
3.3	Hududiy	10	O/P	13/12	16/13
3.4	Milliy	20	O/P	14/17	12/16
3.4	Baynalmilal	5	O/P	7/6	8/7
	Jami:	100	-	100/100	100/100
4. Texnologik tuzilma – texnologik ukladlar					
4.1	Relekt	12	O/P	6/8	3/5
4.2	Uchinchi	33	O/P	10/12	4/6
4.3	To'rtinchi	55	O/P	20/29	8/10
4.4	Beshinchi	-	O/P	40/33	16/30
4.5	Oltinchi	-	O/P	19/16	46/37
4.6	Yettinchi	-	O/P	5/2	23/12
	Jami:	100	-	100/100	100/100
5. Iqtisodiy tuzilma – mulkchilik shakllari					
5.1	Shaxsiy	30	O/P	32/26	41/33
5.2	Mayda xususiy	10	O/P	12/10	15/12
5.3	Yirik xususiy	15	O/P	32/41	20/32
5.4	Jamoa mulki	12	O/P	8/7	10/8
5.5	Davlat mulki	13	O/P	8/9	6/7
5.6	Xalqaro mulk	6	O/P	8/7	10/8
	Jami:	100	O/P	100/100	100/100
6. Qiymat tuzilmasi–qiymat unsurlari					
6.1	Moddiy xarajatlar	30	O/P	25/28	21/24
6.2	Amortizatsiya	10	O/P	13/11	16/13
6.3	Mehnat haqi	15	O/P	16/17	16/19
6.4	Ijtimoiy iste'mol	12	O/P	14/13	17/16
6.5	Jamg'arma	13	O/P	15/13	14/12
6.6	Noishlab chiqarish	20	O/P	17/18	14/16
	Jami:	100	O/P	100/100	100/100

4. Mulchilik munosabatlari, aholining turli guruhlarini o'rtasida ijtimoiy boylarning taqsimotida tub o'zgarishlar yuz beradi.

Birinchidan, fuqarolarni shaxsiy mulki, eng avvalo, uy-joy va uy buyumlari (maishiy texnika, transport vositalari, mebel, kiyim-kechak, poyafzal) ulushi ko'payadi. Bu an'ana XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan mamlakatlarda ko'rindi. AQSH da shaxsiy mulk jadal sur'atlar bilan o'sdi (ayniqsa, oilalarning uy buyumlari) va 1985-yil milliy boylarning 47% ini tashkil qildi. Dunyoning eng boy mamlakati ko'rsatkichlarini butun postindustrial jamiyatga qo'llab bo'lmaydi. Shu sababli,

9-jadval 5-blokda o'tish davrida shaxsiy mulkning o'sishini nisbatan past sur'atlari va yanada mo'tadil raqamlar ko'rsatilgan.

Ikkinchi uzoq muddatli siklda o'zgarishlar sur'ati jiddiy tezlashadi. Iste'molning yanada ratsional va tejamkor modeli tarqaladi. Shaxsiy mulk ulushining o'sishi asosan sifatli uy, mebel, maishiy texnika, kompyuter, audio, videotexnika, faks, avtomobilga ega oilalar sonining o'sishi hisobidan bo'ladi.

Ikkinchidan, mayda, yirik xususiy mulkning nisbati o'zgaradi. Agar boshlang'ich davrda baholash bo'yicha bu nisbatan 1:5,5 yirik mulk foydasini tashkil etsa, o'tish davrining nihoyasida u 1:2,7 - 1:4,1 ga qisqaradi, postindustrial jamiyatning yetuklik bosqichida 1:1,2 - 1:2,7 gacha qisqaradi. Bu kichik biznesning jadal rivojlanishi bilan shartlangan. Bu ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasi va xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishda ustuvor bo'ladi, lekin yirik xususiy mulk yuqori darajada ijtimoiylashgan ishlab chiqarish sohalari, ayniqsa, yoqilg'i-xomashyo sanoati va transportda o'z mavqeini saqlab qoladi. Transmilliy kompaniyalar jamiyat nazorati va kuchli antimonopol qonunchilik ostida ishlaydi. Vaqti-vaqti bilan ularga nisbatan antimonopol qonunchilik qo'llab turiladi (misol uchun, haddan tashqari o'sib ketgan Bill Geys kompaniyasi 2000-yil boshida bo'lib yuborildi).

Uchinchidan, davlat mulki ulushi (davr oxirida 2-2,5 marta) iqtisodiyotning demilitarizatsiyasi va davlat tomonidan faol o'tkaziladigan privatizatsiya hisobidan sezilarli pasayadi. Bu davlat byurokratik apparatini takror ishlab chiqarish jarayonlariga aralashish imkoniyatini kamaytiradi. Lekin bir qism tabiiy resurslar, ayrim transport turlari, harbiy sanoat, milliy madaniy boyliklar davlat mulki sifatida saqlanib qoladi.

To'rtinchidan, mehnat jamoasi xodimlari mulki bo'lgan korxonalar soni va mayda ishlab chiqaruvchilarning vositalarini kooperatsiyalashuvining o'sishi hisobidan jamoa mulki ulushi (1,8-2 marta)ning ko'payishini kuzatish mumkin (bu hozirgi kunda AQSHda kuzatiladi).

Beshinchidan, integratsiya jarayonining kuchayishi xalqaro mulk (xalqaro korsernlar, konsorsiumlar, qo'shma korxonalariga tegishli, davlatlararo)ning o'sishida o'z ifodasini topadi. Lekin mulkning baynalmillatlashuvi sur'atlari XX asr 60-70-yillariga qaraganda, yanada mo'tadilroq bo'ladi.

Natijada, postindustrial sivilizatsiyaning shakllanishi bosqichida mulk munosabatlari dinamikasi an'anasi ko'p hollarda industrial jamiyat-

da kuzatilganidan qarama-qarshi, lekin turli hududlarda turli manzara kuzatiladi. XX asrning 90-yillaridan boshlab postsotsialistik davlatlarda privatizatsiya, aksionerlik jamiyatiga aylantirishi natijasida hamda ko'pgina davlat korxonalarini bankrotga uchrangani sababli, davlat va jamoa mulki barqaror qisqara boshladi.

5. Takror ishlab chiqarishning qiymat tuzilmasidagi siljishlar taqsimot munosabatlari dinamikasida an'analarni aniqlashga imkon beradi. Mehnatning jamg'arma jihazini sezilarli o'sishiga qaramasdan oqibatda yalpi ishlab chiqarish qiymatida amortizatsiya ulushining o'sishi, ishlab chiqarishda moddiy sarflarning sezilarli kamayishi hisobidan qoplash jamg'armasining ulushi bir necha bor pasayadi. Jamg'armaning yuzaga kelgan darajasini saqlab va noishlab chiqarish iste'molini qisqartirib, jamiyat shaxsiy iste'moli yakka va jamoa iste'moliga ketadigan mahsulotning ulushini ko'paytirish mumkin. Ayniqsa, ishlab chiqarish hajmining o'sishini hisobga olganda ikkinchi uzoq muddatli siklda o'rtacha individual iste'molning aholi jon boshiga tez o'sishini bildiradi.

O'tish davrida taqsimot sohasidagi o'zgarishlar an'anasi ziddiyatli. Bir tomondan taqsimotda bir tekislik bartaraf qilinadi. Bu bilan bog'langan bir qism xodimlarning boqimandaligi va davlatni paternalizmi yo'q qilinadi. Har bir kishining daromadi o'z mehnat faoliyati va tadbirkorligiga bog'liq bo'ladi. Bu motivatsiya mexanizmini kuchaytiradi. Boshqa tomondan daromadlarni farqi kuchayadi. Boylar va kambag'allar oralig'idagi jarlik kengayadi. Ayniqsa, postsotsialistik rivojlanayotgan mamlakatlarda qashshoqlar va uysizlar soni o'sib bormoqda. Soyadagi iqtisodiyot faoliyati, korrupsiya, o'g'riliklar hajmining kengayishi natijasida daromadlarni yashirin qayta taqsimlash kuchayadi. Bu o'tish davrining boshlanishidagi salbiy jihatlar. U postindustrial jamiyatda bartaraf qilinadi.

6. O'tish davrida ayirboshlash sohasi bozor munosabatlarida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. Iqtisodiyotning boshqaruvi bilan bog'langan bozorning deformatsiyasi va uning faoliyat doirasining cheklanishi bartaraf qilinadi. Baholarning shakllanishi va mahsulot harakatida buyrokratik aralashuv imkoniyati qisqaradi. Kichik va o'rta biznes sohasining kengayishi bilan va monopoliyalarning zaiflashuvi natijasida raqobat takror uyg'onadi. Ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning iqtisodiy bellashuvi qayta tug'iladi. Lekin davlat bozor munosabatlariga chetdan loqayd qarab turmaydi. U bozor munosabatlarining umumiy qoidalarini belgilaydi. Bu

qoidalarni buzadiganlarning chorasini ko'radi. Davlat pul emissiyasi, pul aylanishini boshqarish, mahsulotlarni bir qismiga buyurtma berish va uni sotib olish, inflyatsiyani jilovlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqib, ularni amalga tadbir qilish bilan shug'ullanadi.

Kelajak jamiyatda inflyatsiya saqlanib qoladimi yoki narxlar tovarlar qiymati dinamikasi orqasidan ergashadimi? Lekin inflyatsiyaning yuqori sur'atlari takror ishlab chiqarishning normal borishini buzadi, shaxsiy daromad va jamg'armalarni qadsizlantiriladi. Shu sababli, inflyatsiya jarayonlari jamoat nazorati ostida bo'ladi. Yangi mahsulotning nisbiy va mutlaq arzonlashuvi an'anasi kuchayadi. Bu ishlab chiqarish va ijtimoiy tuzilmadagi ijobiy siljishlarni rag'batlantiradi, innovatsiya mahsulotlariga talabni kengaytiradi.

7. Takror ishlab chiqarish tuzilmasi iqtisodiy munosabatlarda sanab o'tilgan yuqoridagi an'analarni iqtisodiyotni boshqarishda tub o'zgarishlarni talab qiladi. Korxonani bevosita boshqaruvini demokratizatsiyalash tomon harakat kuchayadi. Barcha xo'jalik birlashmalari (konsernlar, konsorsiumlar, xoldinglar, trust kompaniyalari, moliya, sanoat guruhlari) qoidaga ko'ra, davlat va jamoatchilik nazorati ostida bo'ladi. Bularning barchasi tadbirkorlikda novatorlik ruhini rivojlanishiga imkoniyat yarata-di. Har bir xodim o'z ish joyi, firmasining faoliyati samaradorligi uchun qayg'uradi va firma oldida o'z mas'uliyatini sezadi. Bu hozirgi kunda Yaponiyada yaqqol ko'rinadi.

8. Takror ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari dinamikasi an'analari o'zgaradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda harbiy sanoat kompleksining jadal rivojlanishi, yoqilg'i-energetika, xomashyo resurslarini yuqori darajada iste'mol qilish, rivojlanayotgan mamlakatlarning arzon ishchi kuchi xomashyosi hisobiga ilgari erishilgan iqtisodiy o'sish sur'atlariga, mehnat unumdorligi, real daromadlarning o'sishiga endilikda erishib bo'lmaydi, avvalgi rekordlar takrorlanmaydi. Tabiiy resurslarni talash to'xtaydi. O'tmishdagi mehnatga nisbatan kam ulushi bilan ajralib turadigan xizmatlar ulushi o'sib boradi.

Iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari, maqsadlari quyidagilardan iborat bo'ladi: taraqqiyotning barqaror rivojlanishi (siklik tebranishlarning kichik amplitudasi bilan) ta'minlash, demografik jarayonlarni oqilona yo'naltirish, ishlab chiqarishning xomashyo material hajmini kamaytirish, tabiiy muhitni ifloslashni cheklash va uni yaxshilash, turmush darajasini yaxshilash, turli ijtimoiy qatlamlarning turmush darajasi oraliqini qisqartirish, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida

gi xavfli jarlikni bartaraf qilish. Yangi yoʻnalishlar oʻtish davrida oʻziga yoʻl ochadi va ikkinchi uzoq muddatli siklda yetakchi oʻrinni egallaydi. Natijada, postindustrial sivilizatsiyaning shakllanish davrida iqtisodiy munosabatlarning butun tizimi oʻtgan ikki-uch sivilizatsiyalar davomida kuzatilgan tub anʼanalar oʻzgaradi.

2. Ijtimoiy-siyosiy sohada tub oʻzgarishlar. Jamiyatning ijtimoiy hayotida oʻzgarishlarning zanjirli mantigʻi oʻz manbalari va shart-sharoitlari bilan odamlar texnologiyalar odamlarning turli guruhlariga iqtisodiy ahvoli, ular oʻrtasida mulkning taqsimlanishida oʻz ifodasini topadi. Shu sababli, iqtisodiy tuzilmada tub siljishlar ijtimoiy kuchlarning yangi joylashuvini keltirib chiqardi.

Klassik industrial jamiyat XIX asr oʻrtalarida oʻz taraqqiyotining choʻqqisiga chiqqanda oʻzida bir-biriga qarshi turgan ikki sinf – yollanma ishchilar va kapitalistlarni yaratdi. Koʻp sonli mayda burjuaziya –fermerlar, hunarmandlar, mayda savdogarlar oʻtmishning qoldigʻi sifatida yashadi. Jamiyatda mavjud boʻlgan barcha ijtimoiy qatlamlar oʻz daromadlarining bir qismini armiya, amaldorlar, boshqaruv, sud, politsiyani saqlash uchun davlatga ajratdi.

XX asrning oxirida bu ijtimoiy tuzilma tub oʻzgarishlarni boshdan kechirdi va jamiyat ijtimoiy hayotini oʻzgartirdi. Burjuaziya manfaatlari har xilligi bilan ajralib turadigan bir necha guruhlarga boʻlindi: davlat-byurokratik apparatiga tayanadigan monopolistik burjuaziya, oliy tabaqa amaldor va harbiylar. Bu qatlam oʻz manfaatlariga zid keladigan har qanday oʻzgarishlarga qarshilik qiladi.

Mayda ishlab chiqaruvchi fermerlar, kichik tadbirkorlar, savdogarlar, innovatsiya firmalar egalari, kafe, restoran xoʻjayinlari yangidan uygʻonish jarayonini boshdan kechiradilar. Kichik va oʻrta biznesning yalpi ishlab chiqarishdagi ulushi oʻsib boradi. Bir vaqtning oʻzida uning ijtimoiy kuchi, siyosiy salmogʻi kuchayib boradi. Siyosiy partiyalar saylovlarda bu qatlamning koʻp sonli ovozi uchun kurashadi. Bu qatlamga koʻp sonli «erkin kasb» vakillari (shifokorlar, rassomlar, advokatlar, artistlar, yozuvchilar) qoʻshiladilar. Amalda nanotexnologiyalarning innovatsiyalarini joriy qilinishi, ishlab chiqarishning dekonstratsiyasi, axborot vositalarining rivojlanib borishi bilan istiqbolda kichik va oʻrta biznesning ulushi jadal oʻsib boradi.

Ishchilar sinfining qiyofasi oʻzgardi. Malakali ishchilar yaxshi ish haqi olib, oʻz uyi, avtomobili, aksiyalarga ega boʻldilar. Hozirgi kun-

da o'n minglab ishchilar to'plangan gigant korxonalar o'tmishga ketmoqda. Moddiy ne'mat va xizmatlarning yaratuvchisi endi avtomatik liniya operatori, programmist va boshqalar. Xizmatchilarning salmoqli qismini differensiyasi yuz beradi. Ularning bir qismi katta-kichik kompaniya, firmalarning menejerlari, yirik burjuaziya tarkibiga kiradi. Bu qatlam konservativ kayfiyatda bo'lib, tub islohotlarga qarshilik qiladi. Boshqa eng ko'p sonli xizmatchilar amalda ishchilar sinfiga qo'shiladi. Xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar soni sanoat va qishloq xo'jaliklarida band bo'lganlardan muntazam o'sib borish an'anasi kuzatiladi. Ba'zi mamlakatlarda mehnatga yaroqli aholi sonining kamayib ketishi oldini olish uchun nafaqaga chiqish muddatini uzaytirib ko'radilar.

Nafaqaxo'rlar safi kengayib boradi. Ular uy xo'jaligida xizmat ko'rsatish sohasi yoki ishlab chiqarishda qo'shimcha ish bilan band bo'ladilar. Ularning ozgina jamg'armalari nafaqalarini inflatsiya yo'q qilishi xavfi ostida bo'ladi.

Jamiyatda ijtimoiy to'ntarish uchun baza qisqarib boradi. Uning tarkibi yoshlarning radikal kayfiyatdagi bir qismi, ishsizlar, turli daydi unsurlar, giyohvand-piyanistalar, o'z qatlami bilan aloqasini uzgan qalang'i-qasang'ilar marginal qatlamdan iborat bo'ladi. Ular har qanday tartibsizliklarga xayrixoh bo'ladilar.

Bunday sharoitda kim progressning dvigateli, o'zgarishlar oldida boradi? Bu, eng avvalo, iqtisodiy va siyosiy hayotda salmoqli o'rinni egalash uchun kurashayotgan yangi avlodning faol vakillari, o'zgarishlar zarurligini tushunib yetgan va jamoatchilik ongini shakllantirishga ta'sir qiladigan ijodiy kasb kishilarining bir qismi: yangi yo'l boshchilar jalb qiladigan texnik intellektuallar, yosh harbiylar, malakasiz ishchilar.

Asta-sekin XXI asrning ijtimoiy tuzilmasining chizgilari gavalana boshlaydi. U bir necha asosiy ijtimoiy guruhlar va ularning turli ko'rinishlarini o'z ichiga oladi:

- qayta ishlab chiqarishda band bo'lgan malakali xodimlar, ishchilar, texniklar, programmistlar, olimlar, konstruktorlar, injenerlar, o'qituvchilar, xizmatchilar;

- sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, maishiy xizmat sohalarida mustaqil ish olib boradigan kichik va o'rta tadbirkorlar;

- nafaqaxo'rlar, qimmatbaho qog'ozlar, bank foizlari hisobiga kun ko'ruvchi rantye;

– katta tadbirkorlar, oliy darajadagi davlat amaldorlari, armiyaning oliy zobitlari, siyosiy partiyalar yo‘lboshchilari, jinoyat dunyosining «qirollari», katta iqtisodiy-siyosiy kuchga ega bo‘lgan, demokratik o‘zgarishlarga qarshi uncha katta bo‘lmagan qatlam;

– jins-yosh guruhleri orasida yoshlar va ayollar harakati yo‘lboshchilari o‘sib borayotgan ta’sirga ega bo‘ladi. Bu har ikkala guruhning manfaatleri bo‘ladi. Yoshlar jamiyatdagi o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari bo‘ladilar. Takror ishlab chiqarishning turli sohalariga tobora ko‘proq tortilib borayotgan ayollar ijtimoiy-siyosiy hayotda yetakchilikni da’vo qiladilar.

O‘tish davrida qo‘qqisdan milliy va irqiy belgilarga ko‘ra, ijtimoiy tabaqalanish kuchaydi. XX asrning 60-70 yillarida AQSH da negrlar harakati irqiy kamsitishga qarshi kurashi kuchaydi. Janubiy Afrikada o‘nlab yillar davom etgan irqiy to‘qnashuvlar ko‘pchilik negr aholisining g‘alabasi bilan tugadi.

Milliy mustaqillik uchun kurash natijasida SSSR, Yugoslaviya, Chexoslovakiya kabi federativ davlatlar parchalanib, ularning o‘rniga mustaqil davlatlar paydo bo‘ldi. Ayrim hududlar (Kavkazorti, sobiq Yugoslaviya) uchun millatlar o‘rtasida qonli to‘qnashuvlar yuz berdi. Soni jihatidan kichik millatlarning o‘z milliy mustaqilliklariga erishish uchun harakatlari kuchaydi (Rossiya federatsiyasida chechenlar, Xitoyda uyg‘urlar). Milliy harakat – bu amalda siyosiy kuch, u bilan hisoblashish lozim.

Millatchilik to‘lqini o‘z chegaralariga ega. Milliy elita hokimiyatni qo‘lga olgach, bu hokimiyatni saqlab qolish uchun mamlakat ichida va uning tashqarisida turli millat, xalq, elatlar o‘rtasida teng huquqli munosabatlar hamda har tomonlama aloqalarni yo‘lga qo‘yishni anglab yetadi. Millatchilik va shovinizm kasalliklari o‘tib ketadi. Bu muammoga juda ehtiyot bo‘lib, sergak qarash ustuvor bo‘ladi. Kelajak milliy madaniyatlarning gullab yashnashi, alohida mamlakatlar va xalqaro munosabatlar, ikki tomonlama aloqalarda millatlarning teng huquqli ittifoqi va hamkorligi bilan belgilanadi.

Siyosiy sohada o‘tish davrining yetakchi an’analari bo‘lib quyidagilar ko‘rinadi:

– totalitar, fashistik, millatchilik g‘oyalari targ‘ib qiladigan siyosiy partiyalar tarix sahnasidan tushib ketadi;

Siyosiy plyuralizm, turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini aks ettiradigan, saylov kompaniyasini olib boradigan, lekin monopol ta’sirga ega

bo'la olmaydigan ko'pgina siyosiy partiyalar paydo bo'ladi. Postsotsialistik davlatlarda siyosiy partiyalar paydo bo'ladi. Bu davlatlarda siyosiy partiyalarning konsolidatsiyasi bir necha o'n yillar davom etadi;

– siyosiy kurashning keskinligi zaiflashadi. Saylovchilar orasida apatiya keng tarqaladi. Siyosiy hayotning davomiy nisbatan sokin davri vaqti-vaqti bilan tushkunlik vaziyatlarida kuchlar nisbatini tub o'zgarishlari davrida siyosiy ziddiyatlar, keskinliklar davri bilan almashib turadi.

– o'tmishda aniqlangan siyosiy munosabatlarning siklik dinamikasi qonuniyatlari kelajakda ham saqlanib qoladi. XX asrning 70-yillaridan XXI asrning 20-yillari o'rtalarigacha bo'lgan uzoq muddatli siyosiy sikl to'g'risida gapirish mumkin. Bu oraliq davomiyligi 15-20 yil bo'lgan uch-to'rt o'rta muddatli siklni o'z ichiga ola oladi.

Ulardan biri XX asrning 90-yillarida tugadi va bu sohada navbatdagi yarim asrlik siklga o'tish bilan bog'langan tushkunlikni qamrab olishni aks ettirdi. Ikkinchisi, XX asrning 90-yillarida boshlanib, XXI asrning birinchi o'n yilligi oxirida tugashi kutiladi. U siyosiy sohada tub o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Deyarli barcha hukmron kommunistik partiyalar tarix sahnasidan tushdi, sotsialistik, xristian-demokratik partiyalarning ta'siri zaiflashdi. Sharqiy Yevropa, SSSR, Mongoliya siyosiy tuzumlar halokatga uchradi. Millatlararo to'qnashuvlar kuchaydi. Sotsial-demokratik an'analar postsotsialistik bo'shliqda qayta uyg'ona boshladi. Yangi siyosiy yo'lbo'shchilar siyosiy maydonga chiqdi. Mamlakatlar o'rtasida integratsiya jarayonlari kuchayib boradi.

Uchinchi o'rta muddatli sikl taxminan XXI asrning 20-yillari o'rtalarigacha davom etib, yangi siyosiy kuchlarning konsolidatsiyasi, yetakchilik qilayotgan mamlakatlarda postindustrial sivilizatsiyaga mos siyosiy munosabatlarning qaror topishi bilan belgilanadi. Yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun turli hududiy hamkorlik tashkilotlari tuziladi.

Ikkinchi uzoq muddatli sikl vaqtida u XXI asrning 70-yillarigacha davom etadi. Siyosiy tuzum keng rivojlanadi, yangi-yangi mamlakatlarni qamrab olib, amalga oshirish mexanizmlarini mukammallashtirib, chuqur rivojlanadi. Bu bosqichda qurolli ziddiyatlar qisqaradi. Qurolsizlanish siyosati zonasi kengayadi, asta-sekin urush siyosatini amalga oshirish vositasi hisobidan chiqariladi. O'tish davrida shaxs va jamiyatning insonparvarlik rolini o'sishi, iqtisodiy-ijtimoiy kuchlar

nisbatining o'zgarishi davlat huquqiy sohada jiddiy o'zgarishlarga olib keladi.

XX asrning so'nggi choragida davlatchilikning chuqur tushkunligi kuzatiladi. Unga teng keladigani postindustrial sivilizatsiyaga o'tish davridan keyin bo'lmagan edi. Nisbatan yumshoq shaklda bu jarayon an'anaviy demokratik boshqaruv tizimiga ega mamlakatlar (AQSH, Angliya, Fransiya, Shvetsiya)da o'tadi. Qattiqroq va tub shaklda tushkunlik va davlatchilikning transformatsiyasi ba'zi rivojlangan mamlakatlar (Italiya)da, ayniqsa, postsotsialistik va sobiq SSSR respublikalarida yuz berdi. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda o'zgarishlar hali oldinda.

Bu sohada postindustrial sivilizatsiyaga o'tish davrida qanday an'analardan yuz beradi?

Birinchidan, davlatning qayta ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotga aralashuvi kamaya boshladi. XIX asrning oxiridan davlat jamiyat piramidasi barcha qavatlarida yuz beradigan jarayonlarni muvofiqlashtirishni yanada ko'proq o'ziga ola boshladi. Bu hukmron tabaqa diktaturasi emas, balki jamiyat nomidan xalq farovonligi uchun qilindi. Bunday jarayonlar totalitar davlatlarda o'z cho'qqisiga erishdi, faqat mafkuraviy jihatdan farq qilib, jamiyat hayotining barcha sohaları ustidan qat'iy nazorat o'rnatishda urinishdi. Ular yakdil edilar.

Lekin bu tuzum XX asrning 70-80-yillarda darz keta boshladi. 90-yillar boshlarida qator mamlakatlarda halokatga uchradi. Davlat va jamiyatning turli sohalaridagi boshqaruvchilik roli yana jiddiy toraya boshladi. Birinchi bo'lib nazorat ostidan ma'naviy hayot chiqdi. Olimlar, madaniyat arboblari, jurnalistlar, dissidentlar totalitar davlatni jamiyat ko'z oldida obro'yini tushirishga harakat qildilar. Rejali tizimning halokati, bozor munosabatlarining qayta tiklanishi, demokratik iqtisodiy islohotlar byurokratik davlat apparatining iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini cheklab, ijtimoiy boylikni o'zboshimchalik bilan o'z foydasiga qayta taqsimlash imkoniyatidan mahrum qildi.

Davlat asta-sekin kelajak jamiyatda o'zi shug'ullanadigan sohani topadi: inson huquqini himoya qilish, xo'jalik subyektlari, jamoat tashkilotlarini suiqasd va suiste'mollardan asrash; ko'p sonli qarama-qarshilik, bahslarda hakam vazifasini o'tash; iqtisodiyot va ijtimoiy-siyosiy hayotda «o'yin qoidalari» qonuniyatlarini aniqlash va bu qoidalarga rioya qilishni nazorat qilish jamiyatning topshirig'i bilan ayrim funksiyalarni bajarish,

qaysiki, ularni xususiy kishilar va kompaniyalarga topshirish foydali emas (atrof-muhitni ifloslanishi ustidan nazorat, yordamga muhtoj turg'un hududlarni qo'llab-quvvatlash va hokazo), jinoyatchilik bilan kurash tashqi xavfni bartaraf qilish, tashqi munosabatlarni boshqarish o'z fuqarolari, kompaniya, firmalarning manfaatlarini chet elda himoya qilish.

Ikkinchidan, davlat hokimiyatining tuzilmasi o'zgaradi. Ko'p mamlakatlarda hokimiyatni demokratik bo'linish tamoyili qaror topadi. O'tish davrining tugallanishida hokimiyatlarning balansi qayta tiklanadi.

Uchinchidan, hokimiyatning yuqori darajada markazlashuvi detsentralizatsiya an'anasi bilan almashadi. Qator funksiyalar hududlar va mahalliy (munisipal) organlarga o'tadi. Ko'pgina davlatlarda bu organlarning huquqlarini kengaytirgan ma'muriy islohotlar o'tkazilgan. Bu davlat hokimiyatini demokratlashtirdi, uni xalq ehtiyojlariga yaqinlashtirdi. Markaziy, hududiy va mahalliy hokimiyat organlarining funksiyalarini optimal nisbati qayta tiklanadi.

To'rtinchidan, davlat huquqi vakolatlarini amalga oshirish mexanizmi o'zgaradi. Demokratik saylov tizimi qaror topadi. Davlat apparati kasbiy asosda tashkil etiladi.

Jamiyatning davlat organlari faoliyati va amaldorlarning suiste'mollarini nazorat qilishi ancha hajmda «to'rtinchi hokimiyat» ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, televideniya amalga oshiradi. O'tish davrida ommaviy axborot vositalarini o'z ta'siriga olish qator mamlakatlarda keskin tus oladi.

Beshinchidan, qonun ustuvorligi an'anasi birinchi o'ringa chiqadi. Inson huquqlari himoyasi, hamma uchun teng shart-sharoitlarni yaratish uchun huquqiy normalar tizimi to'ldiriladi va yangilanadi. Huquqqa konservativlik xos. Bu uning qarori, avantyurizm va subyektivlikka qarshi da'vo, lekin huquqiy normalarni yangilashda qoloqlik o'z boshimchalikka olib keladi. Shu sababli, barcha mamlakatlarda qonun ijodkorligi bo'yicha faoliyat kuchayadi.

Xalqaro siyosiy munosabatlar sohasi yangi belgilarni oladi. Ko'p qutbli dunyo shakllanadi. O'tish davrida yangi an'analar bir qutbli dunyoni inkor qiladi. Bir mamlakatni butun dunyoga o'z irodasini o'tkazishga boshqalar ko'nmaydi. Hududlararo ittifoqlar, hududiy xalqaro tashkilotlarning roli kuchayadi. Ayniqsa, Yevropadagi o'zgarishlar diqqatga sazovor. Umumyevropa g'oyasi, umumyevropa jarayoni insonparvarlik o'lchovini olmoqda. «Fuqaro Yevropasi», «inson Yevropasi» masalasi

qo'yilmoqda. BMT, YUNESKO, YUNIDO, Xalqaro savdo tashkiloti, Xalqaro sud kabi xalqaro tashkilotlarning ahamiyati oshib boradi. Ular mamlakatlar bilan siyosiy munosabatlarni barqaror holatga keltirish, ijtimoiy, ekologik, gumanitar siyosatni kelishish, xalqaro huquq normalarini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash, xalqaro ziddiyatlar, urushlarni tinch yo'l bilan bartaraf qilishda davlatlar o'rtasida hamkorlikni amalga oshiradilar. Mamlakatlar, millatlar, xalqlar, elatlar, davlatlar o'rtasida asta-sekin hayotning barcha sohalarida hamkorlik yo'lga qo'yila boshlaydi. Jahon miqyosida yalpi muammolarni hal qilishning optimal yo'llarini topish va uni hal qilish uchun barcha mamlakatlar ahillik bilan hamkorlikni amalga oshirish darajasiga yetadilar.

Tayanch iboralar: Kichik va o'rta biznes, postsotsialistik dunyo, F.Brodel, makromodel, mikromodel, texnologik uklad, mulkchilik munosabatlari, ijtimoiy hayot, mayda ishlab chiqaruvchi, millatchilik, siyosiy plyuralizm, davlatchilik tushkunligi.

Takrorlash uchun savollar:

1. *O'tish davridagi iqtisodiy o'zgarishlarning asosiy xususiyati nimada?*
2. *Makromodel bo'yicha uch davrni ajratish?*
3. *O'tish davrida mulkchilikdagi o'zgarishlarni ko'rsatish?*
4. *Mayda ishlab chiqaruvchilar to'g'risida tushuncha bering?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. Postindustrial ishlab chiqarishning sikl-fazalari.
2. Postindustrial jamiyatda ijtimoiy boyliklarning taqsimotidagi tub o'zgarishlar.
3. XX asr oxiridagi asosiy siyosiy voqealar.
4. XX asr oxirida ijtimoiy tuzilmadagi o'zgarishlar.
5. XX asr oxirida davlatchilik va huquq.

4-MAVZU: POSTINDUSTRIAL JAMIYATGA O'TISH DAVRIDA MA'NAViy SOHADAGI O'ZGARISHLAR

1. O'tish davrida ma'naviy sohaning o'zgarish an'anasi. 2. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar.

1. O'tish davrida manaviy sohaning o'zgarish an'anasi. O'tish davrida jamiyat hayotining barcha tomonlarini chuqur transformatsiyasi ma'naviy sohani ham qamrab oladi. Tafakkur faoliyati—fan, badiiy ijodiyot, ta'lim, mafkura doimo olg'a harakatda bo'ladi. Odatda ma'naviy sohadagi o'zgarishlar iqtisodiy-siyosiy hayotdagi to'ntarishlardan oldin keladi, ularni tayyorlaydi. Lekin bu safar to'ntarishning tuzilmasi, uning mohiyati chuqurligini anglash ba'zi kechikishlar bilan yuz beradi. Ehtimol bu bir tarixiy supersikldan boshqasiga o'tishdagi o'ziga xoslikdir. Antik jamiyat halokati vaqtida ham ijtimoiy ongning ildam rivojlanishi kuzatilmadi. Bu bilan jamiyatda o'zgarishlarning uzoq davom etishi va azob-uqubati, odamlar ularni qabul qilishga tayyor emasliklari, yangi amaliyotga moslashuvni qiyin kechishi tushuntiriladi.

Bu o'tish ma'naviy sohadagi tushkunlikning chuqurlashuvi bilan boshlandi. Uning birinchi belgilari jahon urushidan his qilindi va o'sib bordi. XX asrning 70-90-yillaridagi iqtisodiy, texnologik, ekologik, ijtimoiy uning zarbalarini yumshata olmadi. Bu inson tafakkuri qudratiga ishonchini yo'qotdi.

Ilmiy romantizm, eyforiya o'rniga ishonchsizlik, skeptisizm, u dunyodagi kuchlarga ishonish, okkultizm keldi. Ommaviy axborot vositalari tomonidan kuchli qo'llanilgan antimadaniyat oqimi o'sib bordi. Asriy ma'naviy—axloqiy qadriyatlar yemirildi. Zo'ravonlik va buzg'unchilikka sig'inish qaror topdi. Diniy fanatizm qayta tug'ildi, ko'plab sektalar yuzaga keldi. Ta'lim tizimi o'zini yo'qotib qo'ydi. Qanday bilimlar, qanday yurish-turish qoidalari bilan yosh avlodni qurollantirish kerak? Insoniyatning intellektual va ma'naviy—axloqiy aynish xavfi kuchaydi.

Lekin XX asr oxirida ma'naviy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu, eng avvalo, chuqur ilmiy inqilob uchun shart-sharoit yaratdi. Uning cho'qqisi XXI asr boshlarida ko'rindi. Bu safar uning oldingi safida fizika emas, inson va uning hayoti to'g'isidagi fan-biologiya bormoqda.

Uning sifat jihatdan taraqqiyotini yangi darajasi XX asrning 70-yillaridan gen injenerligi (boshda mikroorganizmlarga qoʻllanilgan)ning shakllanishidan boshlandi.

Odam genining siri, nasliyatning genetik kodini oʻqish maqsadida ulkan ish olib borilmoqda. Koinotning kelib chiqishi va rivojlanish qonuniyatlari, jamiyat va alohida odamlar hayotida kosmik jarayonlarning taʼsiri toʻgʻrisida yangi konsepsiyalar paydo boʻldi.

Lekin jamiyat toʻgʻrisidagi fanlar kuchli transformatsiya oldida turibdi. Qaysiki, bu fanlar hali hayotdan orqada qolgan, eskirgan paradigma va dogmalar bilan toʻlib toshgan. Bu fanlar hayot jarayonlariga murojaat qilib, yangi dalil va voqeliklarni qatʼiy tanlash va umumlashtirish, ijtimoiy statistika, dinamika va genetikaning qonuniyatlari, anʼanalarni aniq shakllantirish, ularni retrospektiv tahlil va bashorat yordami bilan astoydil tekshirishi lozim. Faqat shunda jamiyatning yangi ilmiy manzarasi, uning tuzilishi va dinamikasi jamiyatni bilish va oʻzgartirishning kuchli va mustahkam quroli boʻlib xizmat qilishi mumkin. Ammo hali bungacha uzoq. Hozir jamiyatshunoslikning koʻp sohalarida yangi ilmiy paradigmalarning unsurlari shakllanmoqda.

Oʻtish davrining keyingi bosqichida ilmiy tadqiqotlarning natijalariga talab kuchayadi. Fanning oʻzi ham ajoyib kashfiyot, yirik ixtirolarni tugʻdiradi. Ularni oʻzlashtirish ishlab chiqarishni yangilash va uning samaradorligini oshirishga yordam beradi, u yanada fan bilan qoʻshilgan boʻladi. Lekin XX asrning 50-yillarida kuzatilgan ilmiy potensial dinamikasining ekstensiv yuqori surʼatlariga qaytish mumkin emas. Chunki iqtisodiyotning militarlashuvi harbiy texnika inqilobi bilan bogʻliq edi. Fundamental tadqiqotlar yangi xalq isteʼmoli mahsulotlari, fuqaro progressiv texnologiyalarni ishlab chiqish uchun koʻp ming kishilik ilmiy tadqiqot institutlari va konstruktorlik byurolari kerak emas. Fanga dekonstratsiya va diversifikatsiya tadbiriq etiladi.

Ilmiy texnika toʻntarishi davrida fundamental tadqiqotlar bilan shugʻullanadiganlar soni koʻpayadi. Maʼnaviy eskirgan texnika avlodlarini takomillashtirish bilan band boʻlganlar soni keskin qisqaradi. Fanga tadbirkorlar jiddiy eʼtibor beradilar va uni qoʻllab-quvvatlaydilar. Uning obroʻyi jamiyatda keskin oʻsadi. Yoshlarni fan sohasiga kelish oqimi kuchayadi.

Oʻtish davrining eng muhim xususiyatlaridan biri – yuqori madaniyatning qayta uygʻonishidir. Bu tugʻilayotgan postindustrial sivilizatsiya-

ning gumanizm bilan bog'liqligidir. Uning yuragi ilmiy va badiiy ijodiyot bo'ladi. Industrial madaniyat tushkunligi azob-uqubatlaridan R.Sorokin va boshqa olimlar aytganidek, ommaviy antimadaniyatni inkor qiladigan san'at renessansi tug'iladi.

Rivojlangan mamlakatlarda madaniyatga ustuvor ahamiyat beriladi. J. Hesbitt va P. Eburdin XX asr 90-yillaridagi o'n jahon an'analari ichida ikkinchi o'ringa san'atning qayta uyg'onishini qo'ydilar. «Ming yillikning so'nggi yillarida bo'sh vaqtni o'tkazish va unga xarajatlarda ustuvorliklarning tub va inqilobiy almashuvi yuz beradi. XX asrning 90-yillari butun sivilizatsiya dunyosida tasviriy san'at, poeziya, raqs, teatr va musiqaning zamonaviy renessansini hayotga chaqiradi.

Bu hali uzoq zamon bo'lmagan industrial davr bilan qarama-qarshi bo'ladi, qachonki, unda harbiylar namuna edilar, sport esa metafora... jamiyat hayotida san'atning rolini o'sishi bilan alohida odamlar, korporatsiyalar, katta-kichik shaharlar o'z taqdirларini san'at asarlaridagi obrazlar, shaxslar hayot stili bilan yanada ko'proq belgilaydilar.» (39.k.70.71.90).

Yangi uyg'onish davri to'g'risida gapirish mumkin, qachonki, bunday an'analар XIV-XVI asrlarda Renessans davrida kuzatiladi. Lekin bu tarixiy progressning hozirgi davri xususiyatini aks ettiradigan jahon madaniyati taraqqiyoti spiralining yangi halqasi.

O'tish davrida yuqori madaniyatning uyg'onishi an'alarini o'ziga xosliklari va omillari qanday bo'ladi?

1. Bu an'ana jamiyatning insonparvarlashuvi, ma'naviy sohaning yuksalishi, inson ijodiy qobiliyatlarining ustuvorligini yanada umumiy oqimining uzluksiz tarkibiy unsuri bo'ladi. XXI asr bu ijodiyot asri estetik mezonlar asosida atrof dunyoni o'zgartiradigan inson ma'naviyatining yangi parvozi davridir.

Insoniyat urug'ida bolalikdan odamlarda go'zallikka intilish mavjud edi. Alohida davrlarda u shaxsning komilligiga yordam berib, yorqin ifodasini topdi. O'rta asrlar Italiyasida san'at renessansi va buyuk ilmiy inqilob vaqt bo'yicha birga to'g'ri keldi.

Postindustrial sivilizatsiya davriga individuallik yorqin ifodalanib, shaxs, etnik guruh, millatning ma'naviy kuch-qudratini amalga oshirish xos bo'ladi. Industrial standartlashtirish zulmi ostida qolgan madaniy o'ziga xoslik qayta uyg'onadi. Madaniyat shaxs, ijtimoiy va etnik guruhlar, millatlar, xalqlarning o'zligini ifodalashga aylanadi. Madaniyat

shaxslararo, millatlararo, xalqaro muloqotning bosh kanallaridan biri bo'ldi. Oliy madaniyat renessansi postindustrial sivilizatsiya, XXI asr odamining ma'naviy dunyosining shakllanishini bosh yo'li bo'ldi. Sodir bo'layotgan o'zgarishlar san'atning mazmuni va funksiyalari, badiiy stillarda albatta aks etadi. Modernizm uning turli ko'rinishdagi shakllarda hukmronligi, tabiat va insonni mukammal birligi va yaxlitligini ataylab sohashtirishi mashina asrining oqibati, shaxs bir butunligini bo'laklarga bo'lib yuborishga qarshi norozilik edi.

Lekin kelajak modernizmga tegishli bo'lmaydi. P.Sorokin o'z vaqtida modernizmning o'rniga boshqa san'at kelishini aytib o'tgan edi. Bu bashorat XX arsning 30-yillariga tegishli, lekin badiiy stillarning almashuv vaqti birdaniga kelmadi. Amalda XX asrning butun ikkinchi yarmi g'arb badiiy madaniyatida modernizmning hukmronligi davri va unga qarshi nihoyatda mafkuralashgan «sotsialistik realizm» bo'ldi. Lekin bu har ikki oqim hissiy san'atning yemirilish davridagi chekka shoxchalar edi.

Ularning o'rniga oliy qayta tug'ilish inson va uni o'rab turgan dunyoning uyg'unligi va go'zalligi, fojeaviylik va inson faoliyati, u barchani his qiladigan aqlni ifodalaydigan san'atni qayta tug'ilishi keladi. Klassik san'at, antik va renessansni nodir asarlariga ommaviy qiziqish modaga aylandi. Kelajak davr va tabiatda faqat bir badiiy maktab, stil, yo'nalish hukmron bo'lmaydi yoki majburan tegishtirilmaydi. Aksincha, san'at asarlarini turli did va qarashlarga mos holda tanlash erkinligi hukm suradi. Nafaqat tanlangan saylanma elita, balki odamlarning barchasi uchun internet, zamonaviy axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya, turizm orqali jahon madaniyati san'atining noyob namunalari, madaniy merosdan bahramand bo'lish imkoniyati yaratiladi.

2. San'atning yangi renessansini o'ziga xosligi va afzalligi uni zamonaviy oliy texnologiyalar, san'at va estetik ta'limni axborotlashuviga tayanishidir. Bu san'atning noyob namunalari (musiqa, opera san'ati, balet, me'morchilik, tasviriy san'at)ni telekommunikatsiya, internet orqali namoyish qilish, ko'paytirish, tarqatish imkoniyatini beradigan axborot texnologiyalari bo'ldi.

Xalqaro va milliy axborot tarmoqlari estetik ta'limning vositalaridan biri bo'lib, san'at namunalari har bir maktab, oila, shaxsni bilish, ko'rib tanishuvni amalga oshiradi va estetik ta'lim-tarbiya beradi. Har bir kishi uyida turib jahonning mashhur muzey, galereyalaridagi noyob san'at namunalari bahramand bo'lishlari odatdagi hodisa bo'lib qoladi.

3. Oliy madaniyat iqtisodiy resurs sifatida tez o' sayotgan bozorda kapitalni qo'llashning foydali sohasi bo'ldi. J.Nesbitt va P. Eburdin oliy san'atga talabni kuchayib borayotganiga ko'p dalillar keltiradilar. AQSH da muzeylarga kirish 1965-yildan 1988-yilgacha bir yilda 200 mln kishidan 500 mln kishiga o'sgan. G'arbiy Germaniyada o'n yillikda 300 muzey qurilgan.

Buyuk Britaniyada madaniyat va san'at sohasi har yili 17 mlrd dollar foyda keltiradi. Ingliz avtomobil sanoati ham shuncha foyda keltiradi. Nyu Yorkdagi «Metropolitan» muzeyida Van Gog asarlari namoyishida boshqa shaharlardan 253 ming kishi keldi. Ular shahar restoranlari, kafe, magazinlarga 223 mln dollar sarf qildilar. Shu muzeydagi magazin 1988-yil 53 mln ga mahsulot sotdi va 9,2 mln sof foyda oldi. AQSH korporatsiyalari 1988-yilda san'atni qo'llashga 1 mlrd dollar sarfladi. (39.K. 78,83, 98).

4. San'atning qayta tug'ilishi xalqlarning madaniy yaqinlashuviga yordam beradi, ma'naviy hayot baynalmilallashuvining muhim bo'g'ini bo'ladi. Industrial jamiyatda madaniyatning unifikatsiya va standartlash an'anasiga qarshi milliy madaniyatlarning qayta uyg'onishi va ular orasidagi intensiv almashuvi asosida millatlarning yaqinlashuvi yuz beradi. San'atning tili (haykaltaroshlik, tasviriy san'at, memorchilik, musiqa, raqs) tarjimasiz tushunarli. U umuminsoniyat muloqotining asosi, global madaniy kenglik, jahon madaniy dunyosining me'rosini shakllanishidir.

Madaniyatning boshqa sohalarida katta o'zgarishlar yuz beradi. Kitob bosish to'ldiriladi. Elektron nashriyotlar jadal rivojlanadi. Arxiv hujjatlari, nodir kitoblar lazer disklariga ko'chirilib, asrlarcha saqlanadi va internet, boshqa aloqa vositalari orqali barcha foydalanishi mumkin bo'ladi. Endi ko'p kunlar arxivda, kutubxonalarda o'tirib kitob titkilashga hojat yo'q. Zarur adabiyotlar, hujjatlarni «elektron kottej»dan chiqmasdan aloqa kanallari, jumladan, internet orqali olish mumkin.

Foyda olish va boshqa g'arazli maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan ommaviy madaniyatning shiddatli tazyiqi milliy madaniyatlar, urf-odatlar, an'analarga asoslanib yashaydigan millatlarning turmush-tarzinini buzilishi va yo'qolib ketishiga sabab bo'ladi. Bu tazyiq natijasida ayrim kichik xalq, ularning madaniyati, tillari yo'q bo'lib ketadi. Hatto katta millatlar madaniyatini qashshoqlashishi va oqibatda yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Insoniy qadryatlarning xiralashib qolishiga olib keladi.

2. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar. Jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda ta'lim sohasi ham o'zgarib bordi. Rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy texnika va texnologiyaga mos talim tizimi uzluksiz isloh qilib borildi. XX asr boshlarida Amerika Yevropada pragmatik pedagogika yuzaga keldi. Amerikalik olim, faylasuf va pedagog Jon Dyui (1859-1952) pragmatik pedagogikaning asoschilaridan biri pragmatik yunon tilida «ish, harakat» ma'nosini bildiradi. Pragmatik pedagogikada ta'lim jarayoniga tadbir etiladigan g'oya va tushunchalarning qimmatini yoki samarasi, ular tadbir etishdagi amaliy natijalari asosida belgilanadi, nima o'quvchiga foyda, yutuq keltiradigan bo'lsa u haqiqiy hisoblanadi.

Dyuining pragmatik pedagogikasi XIX asrning oxiri XX asr boshlarida AQSH va boshqa g'arb davlatlarida tadbirkorlikning rivojlanishi va ijtimoiy fikrga mos kelar edi. AQSH da bozor munosabatlari, tadbirkorlik o'z taraqqiyot bosqichining yangi davriga kirdi. Har bir fuqaroda erkin, mustaqil fikrlash, o'z tadbirkorlik faoliyati va biznesini yo'lga qo'yishda ijodkorlik, izlanish, faol harakat qilish va yangilikka intilish asosida o'z faoliyatini samarali tashkil etish jamiyat uchun foydali edi. Ammo eskirib qolgan samarasiz maktab ta'limi o'quvchiga bunday ko'nikma, malakalarni singdirishga ojiz edi. Shu sababli pragmatik pedagogika juda tez o'z muxlislarini topdi.

E'tibor bering, hozirgi kunda bizning jamiyatimiz ham bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatga o'tish davrida turibdi. Bu jamiyatni quradigan va yashaydigan fuqarolar hozirgi kunda maktabda o'qimoqdalar. Ularning kelajakda hayotda o'z yo'llarini topib ketishlari, jamiyatda o'zlarini mustaqil, erkin his qilishlari uchun maktab ta'lim-tarbiya tizimi bo'lajak fuqarolarga tegishli uquv-malaka, ko'nikmalarini shakllantirishi lozim. O'qitishda pragmatik pedagogika metodlarini tadbir etish yuqori texnologiya va axborot texnologiyalariga asoslangan jamiyatga mos kadrlarni tayyorlash mumkin boladi.

Jon Dyui ta'limning mohiyat-mazmuniga yangi talablarni ilgari surdi. Ayni bolalik davri faqat kelajak kattalar hayotiga tayyorgarlik cheklanib qolmasligi lozim deb uqtirdi. Ta'lim faqat kelajak uchun kerak bo'ladigan bilimlarni berib qolmay, bolaga bugungi kunda yordam beradigan bilim, ko'nikma va uquvni shakllantirishi lozim. Chunki bolalik ham inson borlig'idagi to'laqonli davr, bola bu dunyoda o'zini erkin his qilishi lozim. Bunga erishish uchun ta'limni o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga yo'naltirish, u bolaning shaxsiy tarbiyasiga asoslangan bo'lishi

kerak. O'quvchi ta'lim vositasida atrof-muhitni faol o'rganib, o'zlashtirib borishi zarur. U o'qituvchi boshchiligida faol tadqiqotchi rovida loyiha-larni bajarib boradi.

O'tish davrida ta'lim tizimida katta o'zgarishlar yuz beradi. Bu soha-ni qamrab olgan chuqur tushkunlik XX asrning 60-70-yillar boshlaridan o'zini bildira boshladi. Ta'lim sohasidagi zamonaviy inqilob bir necha o'n yillar (yarim asrdan ko'proq)ni qamrab olib, qator bosqichlarni bosib o'tadi.

Birinchi bosqich (XX asrning 70-90-yillari)da jamiyat taraqqiyo-ting o'zgargan sharoitlariga mos ta'limning shakllari, yangi yo'llari, xavfli tus olgan funksional savodsizlik, kasbiy layoqatsizlikni tugatish usullarini izlash amalga oshirildi. Ikkinchi bosqich (XXI asrning birin-chi o'n yilligi)da ta'lim mazmuni boshlanayotgan ilmiy inqilobga mos-lashtiriladi. O'quv jarayonini axborotlashtirish uning samaradorligini ko'p marta oshiradi. Uchinchi bosqich (XXI asrning 20-30 yillari)da ta'limdagi inqilob natijalari kengayadi va rivojlanayotgan mamlakatlarni qamrab oladi. Ta'lim texnologik to'ntarish uchun shart-sharoit yaratadi. Bu mamlakatlarning asta-sekin qoloqligini bartaraf qilish, qayta ishlab chiqarishning samaradorligi va turmush darajasining o'sishiga shart-sha-roit yaratadi.

Bu sohada boshlangan to'ntarishlar natijasida yuzaga kelgan an'ana-lardan kelib chiqib qanday o'zgarishlar yuz beradi?

Ta'lim mazmuni bir necha yo'nalishlarda o'zgaradi. Birinchi – o'quv darsliklarini qayta ko'rib chiqish va ularning zamonga mos yangi avlod-larini yaratish. Ta'lim tizimining inersiyasini hisobga olganda, o'qituvchi-larning bir-ikki avlodi va darsliklarning bir necha avlodlarini almashuvi uchun bir necha o'n yillar talab qilinadi. Shundan keyingina darsliklar-dagi bilimlar summasi postindustrial sivilizatsiyaning mazmuniga mos bo'ladi.

Boshqa yo'nalish – ta'limni insonparvarlashtirish, texnokratik tor pragmatik uklonlarni bartaraf qilish, ta'limni har qanday bosqichida gu-manitar sikldagi predmetlarni o'rganishni kengaytirish, kasbiy ta'limni estetik va etik ta'lim bilan qo'shib olib borish, faqatgina har tomonlama ta'lim olgan, jahon madaniyati yutuqlarini egallagan, barcha jarayonlar-ni siklik dinamikasi va ularning nasliy ildizlarini tushunib biladigan odam jadal o'zgarayotgan jamiyatga tez moslashadi.

Uchinchi yoʻnalish – taʼlimning ham, umumiy ham kasbiy keng politexniklashuvi. Turmush va mehnat faoliyatining har qanday sohada har bir kishiga turli xil mashinalarning bir necha avlodlari bilan ish koʻrishga toʻgʻri keladi. Texnika va texnologik ukladlarning yangilanishiga moslashish uchun keng tayyorgarlik zarur.

Uzluksiz oʻsib boradigan va tez yangilanadigan bilimlar hajmi va kasbiy malakalarni oʻqitishning eskirgan anʼanaviy metodlariga tayanib oʻzlashtirish mumkin emas. Ular oʻtish davrida tub transformatsiyaga duch keladi. Katta hajmdagi umumtaʼlim va kasbiy bilimlarni mexanik esda qoldirishga tayanish oʻzini oqlamaydi. Bu bilimlar tez eskiradi. Toʻplangan bilim va koʻnikmalar inersiyasi oʻz vaqtida yangi anʼanalarni bilib olish va unga tez moslashishga imkon bermaydi. Eskirgan shablonlar hayot qoʻygan yangi muammolarni yecha olmaydi.

Bundan chiqishning yoʻli kreativ pedagogikaga suyanish, oʻquvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, noanʼanaviy muammolarni qoʻyish va yechishda mustaqillik, bir faoliyatdan boshqasiga tez va muvaffaqiyatli oʻtish, obyektlarga koʻp tomonlama, koʻlamli qarash, yondashuvning aniqligini qarashlarning kengligi bilan qoʻshishdir. Bu chuqur va har tomonlama bilimni talab qiladi.

Oʻqitishni tashkillashtirishning yondashuvlari oʻzgaradi. Asrlar boʻyicha shakllangan oʻqitish tizimi va umumtaʼlim va kasbiy oʻquv yurtlarida hayotdan orqaga qolgan, muddatli oʻqish, keyin esa ishlab chiqarish yoki ofisda yangidan amaliy koʻnikmalarni oʻzlashtirish va qayta oʻqish va ilgari olingan bilimlarning katta qismini asta-sekin unutish – bu oʻqitish tizimi yangi sharoitlarga toʻgʻri kelmaydi.

Uning oʻrniga uzluksiz taʼlim tizimi keldi. Bu tizim inson hayotining barcha bosqichlarini qamrab oladi va shaxsning jismoniy, maʼnaviy, intellektual rivojlanishini taʼminlaydi. Shu bilan birga, umumiy va kasbiy taʼlimni qamrab olib, ilmiy texnik yutuqlar novatorlik gʻoyalarini tez oʻzlashtirib olish uchun sharoit yaratadi, hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Koʻrsatilgan tamoyillarga asoslangan uzluksiz taʼlim tizimi Fransiya, Shvetsiya, Yaponiya, Germaniya va boshqa qator mamlakatlarda koʻproq oʻzlashtirilgan. Bu yerda boshlangʻich, oʻrta maxsus taʼlimni takomillashtirish bilan birga xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish butun mehnat faoliyati davomida ayniqsa, kasbini oʻzgartirgan paytda katta eʼtibor beriladi.

Uzluksiz siklik ta'lim tizimi har bir bosqichning ixtisoslashuvini hisobga olgan holda 5 siklni o'z ichiga oladi:

1. Maktabgacha ta'lim – oila va maktabgacha muassasalarda. Bu yerda asosiy e'tibor ota-onalarda pedagogik ko'nikmalarni rivojlantirish, ularni zamonaviy o'quv qo'llanmalar, kompyuter o'yinlari bilan ta'minlash, bolalar teleko'rsatuvlari sikllarini tashkil etish.

2. Umumta'lim tayyorgarligi – boshlang'ich, to'la bo'lmagan o'rta va o'rta ta'lim. Bu ta'lim spiral bo'yicha oddiydan murakkabga tomon bilimlar majmuasini o'rganish, bu zamonaviy jamiyatda insonga kerakli bilimlar, eng asosiysi ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishini rag'batlantiruvchi va tez yangilanayotgan bilimlar dengizida o'z yo'lini topish. Shu bilan birga, asosiy e'tibor gumanitar va tabiiy-ilmiy tayyorgarlik, informatika asoslarini o'rganishga qaratiladi. O'rta ta'lim bolalarning turli qobiliyatlari va qiziqishlariga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Turli darajadagi kasb ta'limi – kasb o'quv yurti, kollej, institut, universitet, aspirantura. Mehnat taqsimoti tizimidagi u yoki bu sohada mehnat qilish uchun maxsus bilim va ko'nikmalarni egallashga xizmat qiladi. O'tish davrida bu o'quv yurtlariga xos an'analar tayyorgarlik profilini kengaytirish, o'ta tor ixtisoslashuvni bartaraf qilish, ta'limni insonparvarlashtirish, umum ilmiy va maxsus kasbiy fanlarni dunyoqarash, umum-madaniy, etika va jismoniy tarbiya bilan qo'shib olib borish, qaysiki, malakali ishchi, mutaxassis har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida postindustrial davr talablariga javob berishi lozim.

Ta'limning politexnikalashuvi, zamonaviy texnikaning turli xillari bilan tanishish. Chunki ular bilan mehnat faoliyati va uy xo'jaligida ish ko'rishga to'g'ri keladi. Ta'limni moddiy ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyati bilan birlashtirish.

Ta'lim va madaniyat sohalarida xalqaro hamkorlik kuchayadi. Bu turli mamlakatlar ta'lim tizimini bir-biriga yaqinlashtiradi. Bu sohada erishilgan yutuqlarni boshqalar tomonidan o'zlashtirilishiga olib keladi. Natijada bu yangi texnika, texnologiyalarni o'zlashtirishga mehnat unumdorligining o'sishiga olib keladi.

O'qitishning texnik vositalari takomillashadi. Ta'limning axborotlashuvi, kompyuterlar, o'quv televideniyesi, videotexnika, multimedia-ni interfaol vositalaridan keng foydalanish, o'quv yurtlarini yangi jihoz, asbob-uskunalar bilan ta'minlanishi yuqori darajada bo'ladi. Yaponiya,

Germaniya, AQSH va ko'pgina boshqa mamlakatlarning o'quv yurtlarida zamonaviy o'qitishning innovatsion texnologiyalari keng qo'llanilmoqda.

Hozirgi kunda jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-siyosiy sohalarida chuqur o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim va jamiyat yaxlitdir. Ta'lim jamiyat hayotida o'z nufuziga ega bo'lgan soha. U jamiyatning jadal taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lim tizimi jamiyatda kechayotgan tub o'zgarishlarni, muammolarni o'z vaqtida ilg'ab, ularga mos javoblarni topish uchun xizmat qiladi. Ta'lim tizimi tarixan jamiyat taraqqiyotidan orqaga qolish an'anasiga ega. Shu sababli u davriy ravishda isloh qilinadi. Jamiyat tizimidagi o'zgarishlar ta'lim tizimiga ham o'z aksini topadi. Ta'lim tizimi jamiyatda yuz beradigan an'analar rivojiga jiddiy ta'sir qiladi. Shu sababli ta'lim jamiyat va shaxsning rivojlanishida ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Yangi XXI asr bo'sag'asida insoniyat tarixiy taraqqiyotida juda katta o'zgarishlar, muammolar bilan kirib keldi. Ta'lim tizimi jamiyatning bu o'zgarish va muammolariga javob berishi lozim. Shu sababli XXI asrga kirish ta'limdan tub o'zgarishlar, yangi g'oya va yondashuvlarni talab qildi.

Respublikamizda ta'lim sohasidagi siyosatni belgilaydigan asosiy hujjat «Ta'lim» to'g'risidagi qonundir (1997 y). Qonun ta'limning barcha bo'g'inlarini davlat va shaxs, jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. 1997-yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi davlat ta'lim siyosatini zamon talablariga mos ravishda amalgam oshirishni jaddashtiruvchi dasturamal hisoblanadi.

Davlat hokimiyati jamiyat manfaatlariga, ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim tizimiga maqsad va vazifalarni belgilaydi. Bu vazifalar ilmiy va amaliy asoslanib, maxsus hujjat – davlat ta'lim standartida o'z aksini topadi. Bu hujjat asosida ta'lim- tarbiya amalga oshiriladi. Barcha ta'lim muassasalari uchun ta'lim standartini davlat belgilaydi. Standart o'quv yurti tomonidan amalga oshiriladi. Shaxs esa ta'lim hujjatini bilish uchun uni o'zlashtiradi. Namunaviy fan dasturlari standart talablari asosida tuziladi va amalga oshiriladi.

Jamiyatda amalga oshiriladigan islohotlarning yutug'i ta'lim siyosatiga, uning tizimliliigi, izchilligi va mahsuldorligiga bog'liq bo'ladi. Respublika maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi jamiyatning barqaror demokratik rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Bu jarayonda maktab tarix ta'limi rivojlanishining strategiyasi yosh fuqarolarning mentalitetiga ta'sir qiladigan omil sifatida muhim o'rin tutadi. Hozirgi

kunda ta'lim olayotgan o'quvchilar 20-30 yildan so'ng jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat ko'rsatadilar. Bugungi maktab o'quvchisi 20 yildan so'ng jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va man'naviy sohalarining faol ishtirokchisi bo'ladi. Ularning bilimi, dunyoqarashi jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Maktabda berilgan o'quvchilarda zamonaviy bilim, komil inson sifatlarining shakllanishi jamiyat taraqqiyotida ijobiy tas'ir qiladi.

Ta'lim tizimida jamiyat taraqqiyotining yangi an'alariga mos ravishda jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda, yangi ta'lim paradigmalari izlash va amalda qo'llash ishlari bormoqda. XX asrning 80-90-yillarida ta'limda yuz bergan tushkunlikni bartaraf qilish uchun jiddiy ishlar amalga oshirildi, davlat ta'lim siyosatini ustuvor vazifa sifatida qo'yib, Ta'lim to'g'risidagi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini qabul qildi. Bu rasmiy hujjatlar ta'limning yangi tizimini yaratishda huquqiy asos bo'ldi. Bu hujjatlar davlat ta'lim standartlarida ta'limning yangi tizimini yaratishda asos bo'ldi. Hujjatlarda davlat ta'lim standartlarida ta'lim mazmunining davlat minimumi, o'qituvchilarning erkin pedagogik ijod huquqi huquqiy mustahkamlanadi. Ta'lim muassasalarining yangi tiplari paydo bo'ldi: gimnaziya, litsey, kollej, ixtisoslashgan maktablar. Ta'lim tizimini isloh qilish asosida shaxs ustuvorligi tamoyili qo'yildi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun ta'lim tizimini gumanitarlash, tabaqalash vosita bo'ldi. Ta'lim tizimining markaziga inson muammosi, ta'lim olishning milliy va jahon madaniyatining yutuqlarini o'zlashtirishga yo'naltirish, insoniyatning ma'naviy tajribasini o'zlashtirish, dunyoning yaxlit manzarasini qabul qilish, o'quvchilarda tizimli tafakkur qilishni shakllantirish turadi. Maktab islohoti hozir ham davom etmoqda.

Etika va mafkurada chuqur o'zgarishlar yuz beradi. Bu ikki sohaning dinamikasi jamiyat piramidasining barcha qavatlaridagi o'zgarishlar bilan bog'langan. XX asrda etikaning tushkunligini Pitirim Sorokin, Karl Yaspers va boshqa jamiyatshunos olimlar XX asrning 40-yillarida chuqur tahlil qildilar.

Pitirim Sorokin muqobil insonparvar etikaning shakllanishiga e'tibor berdi. U shunday xulosaga keldi: «Beqaror yaratuvchan muhabbat, agar undan aql bilan foydalanilsa, bu shunday kuch bo'ladiki, odamlar va odamlar guruhi orasidagi agressiv to'qnashuvlarning oldini olish mumkin. Dushmanlik munosabatlarini do'stona munosabatlarga aylantirish

mumkin. Muhabbatning xalqaro siyosatga global ta'sir qilishi, millatlararo ziddiyatlarni bartaraf etishi mumkin. Beg'araz dono sevgi jismoniy, aqliy, axloqiy sog'liq uchun hayotiy kuch bo'lishi mumkin. Alturistlar egoistlardan ko'ra ko'proq yashaydilar» degan xulosaga keldi.

Inson ideali, uning axloqiy qoidalari boshqa odamlar, jamiyat bilan o'zaro munosabatlarda, madaniy qadriyatlar bilan murojaat qilishi yoki e'tiqod yoki bilimga asoslanadi. XVIII asr oxiridan va ayniqsa, XIX asrda din fanning tazyiqi ostida o'z ta'sirini tez yo'qota boshladi. Marksistlar jangovar ateizm nuqtayi nazaridan diniy e'tiqodni kuch bilan yo'qotishga urindilar.

XX asr oxirida ideallarning yalpi yemirilishi boshlandi. Bu din va axloq sohasida uch an'anani yuzaga keltirdi.

Birinchi an'ana. E'tiqod, fan va barcha axloqiy qoidalarni inkor qiladigan nigilizmning tarqalishi. Nigilizm axloqning an'anaviy normalari bilan qarama-qarshi. U faqat kuchlining qoidasini tan oladi, inson hayotini qadrlamaydi. Nigilizm jinoyat, korrupsiya, buzuqlikning mafkurasini. U o'tish davrida tartibsizliklarni barham topishi bilan yashirin holatga o'tadi, jamiyat doimo bu kasallikka qarshi kurashishga majbur boladi.

Ikkinchi an'ana. Diniy e'tiqodlarning qayta jonlanishi. XX asrning so'nggi choragidan turli sektalar paydo bo'ldi. Ayniqsa, yoshlar orasida ularga ergashish kuchli bo'ladi. Dunyo dinlari XXI asrda o'z mavqeyini saqlab qoladi. Dinning jonlanishi bilan birga, XXI asrda yangi diniy oqimlarning paydo bo'lishini ko'ramiz. Ayrımlari tezda o'zini ko'p sonli muxlislarini topadi, boshqalari yo'q bo'lib ketadi. Diniy adabiyotlar ko'plab chop etiladi. Din arboblari marketing va biznes bilan faol shug'ullanadilar.

Xristian cherkovi va boshqa yangi oqimlar missionerlik faoliyatini kuchaytiradilar. Ular, ayniqsa, rivojlanayotgan dunyoda faol ish olib boradilar. XXI asrdan diniy uyg'onish sezilarli istiqbolga ega bo'lmaydi.

Postindustrial jamiyatning shakllanish va yetuklik bosqichlarida ehtimol bu insonparvar jamiyatning mohiyatiga javob beradigan ideallar va etika normalari qaror topadi. Bu ideallarning mag'zini inson shaxsining har tomonlama rivojlanishi, jamiyatning bosqichli, siklik progressini tan olish, boshqa odamlarning e'tiqodlari, etik normalariga tolerantlik tashkil etadi. Bunday mafkura va axloqning ibtidolari hozir ko'p mamlakatlarda yetilmoqda, lekin hozircha yetakchi mavqega ega emas.

Tayanch iboralar: Tarixiy progress, antik sivilizatsiya, texnologik ukladlar, industrial jamiyat, texnika numiatyurizatsiyasi, F.Brodel, kapitalizm, P.Eburdin, Renessans, nigilizm, Pitirim Sorokin, K.Yaspers, ateizm, ideal, etika normalari, siklik progress, tolerantlik, mafkura.

Takrorlash uchun savollar:

- 1. XXI asrda yer aholisining soni va tuzilmasi o'zgarishlarining istiqbollari qanday?*
- 2. Boy va kambag'al mamlakatlar orasidagi o'sib borayotgan jarlikni qanday bartaraf qilish mumkin?*
- 3. Kelajak jamiyatda oilaning hozirgi funksiyalarini saqlab qolib bo'ladimi?*
- 4. Postindustrial jamiyatning odami hozirgi odamdan qanday farq qiladi?*
- 5. Postindustrial ishlab chiqarish texnologik usulining asosiy an'analari va bosqichlarini ayting?*
- 6. Postindustrial jamiyatga o'tish davrida iqtisodiyotning tuzilmasida qanday o'zgarishlar bo'ladi?*
- 7. XX-XXI asrlarda jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini tavsiflaydigan lavhani chizing?*
- 8. O'tish davridagi siyosiy sohadagi asosiy o'zgarishlar qanday bo'ladi?*
- 9. Kelajak jamiyatda davlatning funksiyasi qanday bo'ladi?*
- 10. Ma'naviy sohada postindustrial jamiyatning shakllanish davrida qanday o'zgarishlar yuz bermoqda va qanday o'zgarishlar kelajakda bo'ladi?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. Postindustrial jamiyatga o'tish davrida inson.
2. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o'zgarishlar.
3. Postindustrial ishlab chiqarishning texnologik shakllanishi.
4. Postindustrial ishlab chiqarish texnologik usulining asosiy an'analari.

GLOSSARIY

A

Adaptatsiya – moslashish, organizmning tashqi muhitning har qanday holatiga moslashish jarayonini bildiradigan biologik tushuncha.

Abu Rayhon Beruniy – (973-1048-yy.) Oʻrta osiyolik mashhur ensiklopedist olim, tarixiy taraqqiyotda tarixiy sikllar gʻoyasini ilgari surgan.

Alkuin – Buyuk Karlning Axen saroyida tashkil etilgan akademiyaning boshligʻi, shuningdek, madaniyat-cherkov ishlari boʻyicha maslahatchi boʻlib, xalq taʼlimini rivojlantirish gʻoyasini ilgari surgan.

«Avitsenna» – Ibn Sino (980–1037) yillarda yashagan olim. Uning «Tib qonunlari», «Hay ibn Yaqzon», «Solomon va Absol» kabi nodir asarlari bor. Uning «Tib qonunlari» asari XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan.

B

Birinchi sanoat inqilobi – F.Brodel XI – XII asrlarni Yevropadagi inqilob deb belgilaydi. Ularga dehqonchilik inqilobi bu energetik inqilob, shahar inqiloblari nazarda tutiladi.

«Baholar inqilobi» – XVI asrda xalqaro savdoda ulkan boyliklarni oqib kelishi natijasida sarroflik cheklari, veksellar keng yoyildi. Bu oʻz navbatida narx-navoning doimiy oʻsib borishiga nisbat berilishi edi.

Biotexnologiya – noanaʼnaviy resurslar, chiqitsiz texnologiyalarni, tabiat buyumlarining oʻzgartirilishi yanasa tejamkor usullarini oʻzlashtirish.

D

«Donolar uyi» – «Bayt ul-hikma». Bagʻdoddagi xalifa Maʼmun akademiyasi hisoblanadi (IX asr).

F

Fiqh – islom huquqshunosligi fani, bu fan oʻrta asrlarda taʼlim tizimiga kiritilgan asosiy fan sifatida oʻqitilgan.

«Fiqhlar madrasasi» – XII asrda Buxoroda musulmon huquqshunosligi boʻyicha ixtisoslashgan madrasa boʻlib, ularda taʼlim tizimli oʻqitilgan.

Frist Baade – nemis siyosatchisi va olimi, 1960-yilda oʻzining «2000 – yil tomon musobaqa» nomli kitobini eʼlon qildi.

G

Globallashuv – (lotin. «dumaloqlashuv») soʻzidan olingan) muayyan madaniyatlar kuchining boshqa madaniyatlarga taʼsir etishi, bu jarayonda nisbatan kuchsiz va mayda, qoloq boʻlgan sivilizatsiyalar yoki etnoslar butunlay yoʻqolib ketishi mumkin.

I

Iqtisodiy turg'unlik – ishlab chiqarishning barcha sohalarida turg'unlik holatining ko'zga tashlanishi, ishlab chiqish munosabatlarini izdan chiqishi.

J

«**Jahon ustaxonasi**» – bu atama Angliyaning o'ta rivojlanganlik darajasi uchun XIX asrning 80-yillarigacha ishlatilgan.

K

«**Katta sakrash**» – Xitoyda amalga oshirilgan siyosiy tartiblar natijasida ishlab chiqarish kuchlarini qisman yemirilishiga olib keldi. Kapitalizm – bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat.

Koalitsiya – (lotincha «koalitsio» – «birlashma», «tuzulma») ma'lum maqsad yo'lida birlashuvchi turli guruhlardan iborat birlashma.

M

Manufaktura – XV asrga kelib ishlab chiqarishda qo'l mehnatiga asoslangan, mehnat taqsimotiga ko'ra mahsulot yaratish usuli.

Metropoliya – mustamlakaga ega bo'lgan davlat.

M.M.Gerasimov – antropolog olim.

Monopolistik kapitalizm – bu ulkan kapitallarni yangi kapital qo'shiladigan sohalariga to'plab, ularga kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish sharoitlarini yaratadi va monopol baho yordami bilan monopol yuqori foydani ta'minlaydi.

N

Nanotexnologiya – rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi ajralmas, muhim tarmoq bo'lib, «nano – kichik, mayda», «texnika-asbob «hajman kichik sifati ulkan, imkoniyatlari yuqori hajmda bo'lgan texnik vositalar ishlab chiqarish ko'zda tutiladi.

Nikolay Kopernik – o'rta asrlarda cherkovning diniy ta'limotlarini asosiz ekanligini isbotlab, o'zining geliosentrik nazariyasini ya'ni «gelio-quyosh», «sentiya – markaz» ya'ni koinotning markazi yer emas quyosh bo'lib, yer uning atrofidan aylanuvchi planetalardan biri ekanligini aytib o'tgan.

P

Pessimizm – optimizmning aksi bo'lib, dunyoni tushunishning imkoni yo'qligiga qattiq berilib, ularning qarashlarida umidsizlik g'oyalari nihoyatda balqib, birinchi o'ringa chiqadi.

O

Optimizm – falsafa fanida dunyoni tushunishda uning tushunishning imkoni borligiga umid va ishonch bilan qaragan oqim, ularda doimo tavakkalchilik jihati yuksak bo'ladi.

«**Oq yoqalilar**» – ziyolilar qatlami (olim, injenerlar, texnik, agronomlar) industrial jamiyatda shakllangan malakali ishchilar sinfi bo'lib, ular o'z malakalarini sotish hisobiga yashar edilar, qisman gonorar, medsenat (homiylar) hisobidan yashovchi erkin mehnat kishilari.

«**Oltin milliard**» konsepsiyasi – yer aholisi sonining 1 mlrd kishigacha kamaytirish, hozirgi soniga nisbatan olti marta qisqarish va qolganlarini yuqori turmush darajasini kamaytirish konsepsiyasi.

S

Sanoat inqilobi – XVIII asrning 60-yillaridagi Angliyada boshlandi.

Separatizm – yaxlit davlat tarkibidan ajralib chiqishga harakat qilish.

Sofiya ibodatxonasi – Konstantinopol shahrida me'mor Anfilyi va Isidor tomonidan qurilgan ibodatxona.

T

Texnikum – ixtisoslashgan texnik ta'lim beriladigan muassasa.

Texnogen jamiyat – jamiyatda ishlab chiqarishda rivojlangan ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish.

Tolerantlik – diniy bag'rikenglik ma'nosini bildiradi.

Totalitar – (lotincha «yalpi» so'zidan olingan) hukmronlikning bir yakka shaxs qo'lida to'planib qolishi, zo'rvonlik va kuch ishlatishga asoslangan boshqaruv shakli.

«**To'rtichi hokimiyat**» – demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari.

V

Veksel – davlat tomonidan boylarni qimmatbaho qarzlarni olishga majbur qiladi, muomala o'ziga xos davlat veksellarni chiqaradi (zayomlarini) uning egasi belgilangan foizlarni tizimli ravishda olish huquqi kafolatlangan edi.

X

«**Xanlin**» akademiyasi – VIII asrda Xitoyda mavjud bo'lgan ilk akademiya.

Y

Yan Amos Komenskiy – pedagogika fanini fan sifatida shakllanishida asosiy rol o'ynagan chexialik gumanist olim, o'zining didaktika nazariyasini yaratgan.

Z

«**Zij**» – astronomik jadval.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild, – T.: «O‘zbekiston», 1996.
2. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. XXI asr gazetasi. 2010. 8-dekabr.
3. Karimov. I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: 2011.
4. Sharipov R, Muhiddinov. F. O‘zbekiston xalqlarining siyosiy-huquqiy ta’limotlari. (jadidlar) TDYUI, 2004
5. Глазьев С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития. – М.:Владос, 1993.
6. Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. 2-е изд. – Л.: изд-во ЛГУ, 1989.
7. Дьяконов И.М. Пути истории: От древнейшего человека до наших дней. – М.: Восточная литература, 1994.
8. Мендельсон Л.А. Теория и история экономических кризисов.- М.: Соц экгиз, 1959.-Т.2.
9. Моисеев Н.Н. Алгоритмы развития. – М.: Наука, 1987.
10. Сорокин П.А. Человек, Цивилизация, Общество. – М.: Политиздат, 1992.
11. Тойнби А.Д. Постижение истории. – М.: Прогресс, 1991.
12. Чижевский А.Л. Физические факторы исторического процесса.- Калуга: Маркс, 1924.
13. Шлезингер Артур мл. Цикли американской истории. – М.: Прогресс-Академия, 1992.
14. Яковец Ю.В. У истоков новой цивилизации. – М.: Дело, 1993.
15. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М.: 1993. Республика

MUNDARIJA

I BOB. SIVILIZATSIYALAR TUSHUNCHASI VA TUZILISHI

1-Mavzu: Sivilizatsiyalar tushunchasi va tuzilishi	3
2-Mavzu: Sivilizatsiyalar almashuvi mexanizmi	24
3-Mavzu: Tarixiy progressning spiral o'ramlari	35

II BOB. QADIMGI SIVILIZATSIYALAR

1-Mavzu: Qadimgi sivilizatsiyalar tarixini davrlashtirish	43
2-Mavzu: Qadimgi jamiyatlar odami	73
3-Mavzu: Qadimgi jamiyatlarda texnik progress	81
4-Mavzu: Jamiyatning iqtisodiy tuzilmasi	89
5-Mavzu: Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasini shakllanilishi	95
6-Mavzu: Qadimgi jamiyatning ma'naviy hayoti	102

III BOB. FEODAL KAPITALISTIK SIVILIZATSIYALAR

1-Mavzu: Feodal kapitalistik sivilizatsiyalarni davrlashtirish	121
2-Mavzu: O'rta asrlar va industrial jamiyatda inson	148
3-Mavzu: Feodal kapitalistik sivilizatsiyalarning iqtisodiyoti	155
4-Mavzu: Ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar evolyutsiyasi	171
5-Mavzu: Ma'naviy sohadagi o'zgarishlar	185
6-Mavzu: O'rta asr va industrial davrlarda madaniyat	201

IV BOB. POSTINDUSTRIAL JAMIYATNING SHAKLLANISHI

1-Mavzu: Postindustrial sivilizatsiyaning shakllanishi	222
2-Mavzu: Postindustrial sivilizatsiyaning shakllanish davrida jamiyatning transformatsiyasi	249
3-Mavzu: Postindustrial jamiyatga o'tish davrida iqtisodiy-siyosiy o'zgarishlar	267
4-Mavzu: Postindustrial jamiyatga o'tish davrida ma'naviy sohadagi o'zgarishlar	282

Glossariy	295
Tavsiya etiladigan adabiyotlar	298

R. RAJABOV

JAHON SIVILIZATSIYALARI TARIXI

O'quv qo'llanma

Muharrir *B. Elmurodov*
Badiiy muharrir *A. Mamasoliyev*
Musahhah *K. Boltaboyeva*
Sahifalovchi *M. Saydalixo'jayeva*

“MASHHUR-PRESS NASHRIYOTI”
Nashriyot litsenziyasi № AI 282. 11.01.2016

Manzil: Toshkent sh. O'zbekiston ko'chasi, 16-uy
Tel: (+99890) 900-75-77, (+99895) 195-94-62
e-mail: mashkhur-press@mail.ru

Bosishga 2016-yil 23-noyabrda ruxsat berildi.
Bichimi 70x90 $\frac{1}{32}$. “Times New Roman” garniturasida.
Shartli b.t. 18,75. Adadi 200 dona.

«MUMTOZ SO'Z» MChJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent 100003. Navoiy ko'chasi 69-uy.